
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

INSPIRATION FOR THE MODERN RESEARCHER

2026
VOL.4. №02



Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific-theoretical and methodological journal

2992-9024
ISSN

2026. VOLUME 4 ISSUE 02 ISSN 2992-9024

INTER EDUCATION
&
GLOBAL STUDY

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026-yil,4-tom, 02-son

BUXORO – 2026

Muqovada: Chor-Bakr majmuasi (Buxoro, O'zbekiston), X-XIX
On the cover: Chor-Bakr Necropolis (Bukhara, Uzbekistan), X-XIX
На обложке: Некрополь Чор-Бакр (Бухара, Узбекистан), X-XIX

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
UZB

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 08 avgust №-111889-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan
Bosh muharrir: Yadgarov Nodir Djalolovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Jamoatchilik kengashi raisi:
Ma’murov Bahodir Baxshulloyevich**,** pedagogika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2024 yil 31- yanvardagi 350-son qaroriga asosan pedagogika, psixologiya, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati” ga kiritilgan

Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan, o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi

«INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY» ilmiy-metodik jurnalidan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Tahririyat manzili:
200100, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy,
E-mail:
pedagogicalperspective2023@gmail. com
Tel: +998(97) 300-34-00
Jurnal sayti:
intereduglobalstudy.com
Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir

JAMOATCHILIK KENGASHI A‘ZOLARI:
Dr. Ihsan Taktash, professor, Yildirim Boyazit nomidagi Anqara universiteti, Turkiya.
Tanirberganov Medeubek Jumataevich, pedagogika fanlari doktori, professor, Qozog‘iston Pedagogika fanlari Akademiyasining akademigi, M. Auyezov Janubiy Qozog‘iston Universiteti, Qozog‘iston.
Magauova Akmaral Sabitollayevna, pedagogika fanlari doktori, professor, Pedagogik ta’lim bo‘yicha Xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, Qozog‘iston Milliy fanlar akademiyasi (QozMTFA) akademigi, Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy universiteti, Qozog‘iston.
Baydabekov Auez Kenesbekovich, t.f.d., professor, L.N. Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti, Qozog‘iston
Chernikova Svetlana Mixaylovna, pedagogika fanlari doktori, professor, I.S. Turgenev nomidagi Oryol davlat universiteti, Rossiya.
Tajixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston.
Sharif Ramazanovich Baratov, psixologiya fanlari doktori, professor, Buxoro xorojiy tillar va psixologiya instituti, O‘zbekiston.
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (Dsc), professor, Buxoro davlat universiyeti, O‘zbekiston.
Jabborov Xazrat Xusenovich, psixologiya fanlari doktori (Dsc), dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston.
Boymudorova Gulzoda Toshtemirovna, pedagogika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston.
Mamatov Dilshod Qodirovich, pedagogika fanlari doktori (Dsc), professor, Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston.
Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (Dsc), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston.
Sodikova Munira Rustambekovna, texnika fanlari doktori, dotsent, I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston.

Tahrir hay'ati:

Saidbek Boltabayev, Doçent doktor, Karabük Üniversitesi Cengiz Aytmatov Türk Dünyası Uygulama ve Araştırma Merkezi, Turkiya.

Kovrik Oksana Aleksandrovna, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent, M. Tank nomidagi Belorussiya davlat pedagogika universiteti, Belarus Respublikasi.

Murodov Sherzod Normonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston.

Ochilov Farxod Egamberdiyevich, texnika fanlari nomzodi, professor, Qarshi davlat universiyeti, O'zbekiston.

Shovdirov Sunnat Aslanovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Navoiy davlat pedagogika instituti, O'zbekiston.

Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston.

Sharipova Shahlo Sadullayevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, A. I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali, O'zbekiston.

Jalilov Zarafshon Baxshulloyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston.

Muxamedov Shavkat Madjitovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston.

Maxkamova Dilafruz Alievna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Qo'qon davlat universieti, O'zbekiston.

Yuldasheva Dilorom Aliyevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Qo'qon davlat universiteti, O'zbekiston.

Xalimov Moxir Karimovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: **Toshpulatov Faxriddin Urolovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti, O'zbekiston.

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Научно-теоретический и методический журнал
RU

Учредитель: Бухарский государственный педагогический институт

Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством №111889 от 08 августа 2023 года.

Главный редактор: Ядгаров Нодир Джалолович, доктор педагогических наук, профессор
Председатель Общественного совета: Мамуров Баходир Бахшуллоевич, доктор педагогических наук, профессор, ректор Бухарского государственного педагогического института
Журнал включен в список национальных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций кандидатов на соискание ученой степени доктора философии (PhD), доктора наук (DSc). Согласно решению Президиума ВАК РУз от 31 января 2024 г. №350. По направлении педагогики, психологии и искусствоведение

Журнал был основан в 2023 году и выпускается на узбекском, русском и английском языках
Использование научно-методического журнала «INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY» с согласия редакции
Адрес редакции:
ул. Намозгох 24, г. Бухара, Республика Узбекистан, 200100, E-mail: pedagogicalperspective2023@gmail. com
Tel: +998(97) 300-34-00
Сайт журнала: intereduglobalstudy.com
За достоверность информаций, представленных в статье ответственность, несет автор

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА:

Dr.Ихсан Токташ, профессор, Анкаринский университет имени Йылдырыма Беязыта, Турция.

Танирбергенов Медеубек Жуматаевич, доктор педагогических наук, профессор, академик Академии педагогических наук Казахстана, Южно-Казахстанский университет им.М. Ауэзова, Казахстан.

Магауова Акмарал Сабитоллаевна, доктор педагогических наук, профессор, академик Международной академии наук педагогического образования, академик КазНАЕН, Казахский Национальный Университет им. Аль Фараби, Казахстан.

Байдабеков Ауезу Кенесбекович, д.т.н., пофессор, Евразийский национальный университет имени Л.Н. Гумилева, Казахстан.

Черникова Светлана Михайловна, доктор педагогических наук, профессор, Орловский государственный университет им. И.С.Тургенева, Россия.

Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович, доктор технических наук, профессор, Узбекистан.

Шариф Рамазанович Баратов, доктор психологических наук, профессор, Бухарский институт иностранных языков и психологии, Узбекистан.

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук, профессор, Бухарский государственный университет, Узбекистан.

Жаббаров Хазрат Хусенович, доктор психологических наук, доцент, Ташкентский государственный университет востоковедения, Узбекистан.

Боймудорова Гулзода Тоштемировна, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Маматов Дилшод Кадирович, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Кулдошев Рустамбек Авезмуродович, доктор педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Содикова Мунира Рустамбековна, доктор технических наук, доцент, Ташкентский государственный технический университет им. И.Каримова, Узбекистан.

Редакционная коллегия:

Саидбек Болтабаев, доцент, центр прикладных исследований и тюркского мира им. Дженгиза Айтматова при Университете Карабюк, Турция.

Коврик Оксана Александровна, кандидат искусствоведения, доцент, Белорусский государственный педагогический университет им. М. Танка, Республика Беларус.

Муродов Шерзод Нормонович, доктор философии по физико-математическом наукам, доцент, Бухарский государственный медицинский институт, Узбекистан.

Очилов Фарход Эгамбердиевич, кандидат технических наук, профессор, Каршинский государственный университет, Узбекистан.

Шовдиров Суннат Асланович, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Навоийский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Нуруллаев Абдухамид Рузимбоевич, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Бухарский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Шарипова Шахло Садуллаевна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена в городе Ташкенте, Узбекистан.

Жалилов Зарафшон Бахшуллоевич, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Бухарский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Мухамедов Шавкат Маджитович, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Бухарский государственный педагогический институт, Узбекистан.

Махкамова Дилафруз Алиевна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Кокандский государственный университет, Узбекистан.

Юлдашева Дилором Алиевна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Кокандский государственный университет, Узбекистан.

Халимов Мохир Каримович, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент, Узбекский национальный педагогический университет имени Низами, Узбекистан.

Ответственный редактор**: Тошпулатов Фахриддин Уролович**, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент, Термезский государственный педагогический институт, Узбекистан.

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific theoretical and methodical journal

ENG

Founder: Bukhara State Pedagogical Institute
The journal was registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan with certificate
No. 111889 dated August 08, 2023

Editor-in-Chief: Yadgarov Nodir Djalolovich, doctor of pedagogical sciences (Dsc), professor
Chairman of the Public Council: Mamurov Bakhodir Bakhshulloevich, doctor of pedagogical sciences (Dsc), professor, Rector of the Bukhara State Pedagogical Institute

The journal is included in the list of national publications recommended for publishing the main scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSc). According to the decision of the Presidium of the Supreme (Higher) Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2024 No. 350. In the direction of pedagogy, psychology and art science

The journal was founded in 2023 and is published in Uzbek, Russian and English.

Use of the scientific and methodological journal «INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY» with the consent of the editorial board
Editorial address**:** st. Namozgokh 24, Bukhara, Republic of Uzbekistan, 200100, Email**:** pedagogicalperspective2023@gmail.com
Tel: +998(97) 300-34-00

Website of the journal: intereduglobalstudy.com
The information presented in the article. are the responsibility of the author for reliability

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL:

Dr. Ihsan Toktash, professor, Ankara Yildirim Beyazit University, Turkey

Medeubek J. Tanirbergenov, doctor of pedagogical sciences, professor, Academician of the Academy of Pedagogical Sciences of Kazakhstan, M. Auezov South Kazakhstan University, Kazakhstan

Akmaral S. Magauova, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the International Academy of Pedagogical Education Sciences, Academician of KazNANS (Kazakh National Academy of Education), Al-Farabi Kazakh National University, Kazakhstan.

Auyez Baidabekov, Dr.tech.s., professor, L.N. Gumilev Eurasian National University, Kazakhstan.

Svetlana M. Chernikova, doctor of pedagogical sciences, professor I.S. Turgenev, Oryol State University, Russia

Zokirxo'ja A. Tadjixodjayev, doctor of technical sciences, professor, Uzbekistan.

Sharif R. Baratov, doctor of psychological sciences, professor, Bukhara Institute of Foreign Languages and Psychology, Uzbekistan

Nazarov M. Akmal, doctor of psychological sciences, professor, Bukhara State University, Uzbekistan

Jabbarov Kh. Khazrat, doctor of psychological sciences (Dsc), associate professor, Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

Gulzoda T. Boymudorova, doctor of pedagogical sciences (Dsc), professor, Bukhara state pedagogical institute, Uzbekistan

Dilshod K. Mamatov, doctor of pedagogical sciences (Dsc), professor, Bukhara state pedagogical institute, Uzbekistan

Rustamdek A. Kuldoshev, doctor of pedagogical sciences (Dsc), associate professor, Bukhara state pedagogical institute, Uzbekistan

Munira R. Sodikova, Doctor of Technical Sciences, Associate Professor, Tashkent State Technical University named after I. Karimov, Uzbekistan.

Editorial team:

Saidbek Boltabayev, associate professor, Karabuk University Cengiz Aitmatov Turkic World Application and Research Center, Turkey.

Oksana A. Kovrik, Candidate of Art Studies, Associate Professor, BelarusianState Pedagogical University named after M. Tank, Republic of Belarus

Sherzod N. Murodov, doctor of philosophy in physical and mathematical sciences, associate professor, Bukhara state medical institute, Uzbekistan.

Farxod E. Ochilov, doctor of philosophy of technical sciences (PhD), professor, Qarshi State University, Uzbekistan.

Sunnat A. Shovdirov, doctor of philosophy of pedagogical sciences (PhD), Navoi State Pedagogical Instituti, Uzbekistan.

Abdukhamid R. Nurullaev, doctor of philosophy of pedagogical sciences (PhD), associate professor. Bukhara state pedagogical institute, Uzbekistan.

Shakhlo S. Sharipova, doctor of philosophy of pedagogical sciences (PhD), associate professor, Branch of the Russian State Pedagogical University named after A.I. Herzen in Tashkent, Uzbekistan.

Zarafshon B. Jalilov, doctor of philosophy of pedagogical sciences (PhD), associate professor. Bukhara state pedagogical institute, Uzbekistan.

Shavkat M. Muxamedov, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston.

Dilafruz A. Maxkamova, doctor of philosophy of pedagogical sciences (PhD), associate professor, Kokand State University, Uzbekistan.

Dilorom A. Yuldasheva, doctor of philosophy of pedagogical sciences (PhD), associate professor, Kokand State University, Uzbekistan.

Mokhir K. Khalimov, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Nizami Tashkent State Pedagogical University of Uzbekistan, Uzbekistan.

Managing editor**: Fakhriddin U. Toshpulatov**, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor, Termez State Pedagogical Institute, Uzbekistan.

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

TAHLILIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINING MAZMUNI VA UNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI.

Matyakubova Nilufar Karimberganovna, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tahliliy fikrlashning nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari (kognitiv, refleksiv, amaliy) va ta'limdagi o'rni yoritilgan.

MAQSAD: kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari va samarali pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish hamda interfaol metodlar (keys-stadi, muammoli ta'lim) samaradorligini o'rganish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahliliy fikrlash o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvni rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslandi.

XULOSA: ushbu kompetensiya ta'lim sifatini oshirish va intellektual rivojlanish uchun fundamental ahamiyatga ega. Kalit so'zlar: tahliliy fikrlash, tanqidiy tafakkur, kognitiv jarayon, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati.

Kalit so'zlar: tahliliy fikrlash, tanqidiy tafakkur, kognitiv jarayon, refleksiv faoliyat, muammoli vaziyat, ta'lim sifati, mustaqil fikrlash, innovatsion ta'lim.

СОДЕРЖАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ.

Матякубова Нилуфар Каримбергановна, Osiyo xalqaro universiteti, Бухара, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: раскрываются теоретические основы, структурные компоненты (когнитивный, рефлексивный, практический) и значимость аналитического мышления в образовании.

ЦЕЛЬ: обоснование механизмов формирования данной компетенции и эффективных педагогических условий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Научно-теоретический анализ, сравнение, систематизация, а также изучение методов проблемного обучения и кейс-стади.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: доказано, что аналитическое мышление способствует развитию навыков независимого принятия решений и инновационного подхода у обучающихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование данной компетенции является важнейшим фактором повышения качества образования и интеллектуального развития личности.

Ключевые слова: аналитическое мышление, критическое мышление, когнитивный процесс, рефлексивная деятельность, проблемная ситуация, качество образования, самостоятельное мышление, инновационное образование.

THE CONTENT OF ANALYTICAL THINKING COMPETENCE AND ITS SIGNIFICANCE IN EDUCATION

Matyakubova Nilufar Karimberganovna, Osiyo xalqaro universiteti, Bukhara, Uzbekistan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Annotation

INTRODUCTION: explores the theoretical foundations, structural components (cognitive, reflective, practical), and the importance of analytical thinking in education.

AIM: To define mechanisms for fostering this competence and establish effective pedagogical conditions.

MATERIALS AND METHODS: scientific-theoretical analysis, comparative study, and evaluation of interactive methods (case studies, problem-based learning).

Discussion and results: demonstrates that analytical thinking is a vital factor in developing students' independent decision-making and innovation skills.

Conclusion: developing this competence is essential for improving educational quality and fostering intellectual growth.

Keywords: analytical thinking, critical thinking, cognitive process, reflective activity, problem situation, quality of education, independent thinking, innovative education.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida inson kapitalining sifati, ayniqsa, uning intellektual salohiyati va mustaqil fikrlash qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimi misli ko‘rilmagan darajada kengaygan bugungi davrda har bir shaxsdan ma’lumotni nafaqat qabul qilish, balki uni tahlil qilish, solishtirish, saralash va asosli xulosalar chiqarish kompetensiyasi talab etilmoqda. Shu jihatdan tahliliy fikrlash kompetensiyasi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy strategik maqsadlaridan biriga aylanmoqda.

An’anaviy reproduktiv ta’lim modeli o‘quvchini ko‘proq tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirgan bo‘lsa, kompetensiyaviy yondashuv esa shaxsning bilish jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishini nazarda tutadi. Bu jarayonda tahliliy fikrlash kompetensiyasi o‘quvchining muammoli vaziyatlarni anglash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, dalillarni tanqidiy baholash va mustaqil qaror qabul qilish jarayonlarida markaziy o‘rin tutadi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda tahliliy tafakkur ularning ilmiy-nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida standartlashtirish va individuallashtirish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim masalaga aylangan. Tahliliy fikrlash kompetensiyasi aynan shu jarayonda o‘quvchining shaxsiy ta’limiy trayektoriyasini shakllantirish, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda refleksiv faoliyatni faollashtirishga xizmat qiladi. Chunki tahliliy tafakkur faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki ularni tizimli anglash va yangi vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Shu bois tahliliy fikrlash kompetensiyasining mazmun-mohiyatini ilmiy-nazariy asosda yoritish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini ochib berish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada tahliliy fikrlash kompetensiyasining nazariy asoslari, uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda uni rivojlantirishning metodik jihatlari ilmiy tahlil etiladi.

So‘nggi yillarda tahliliy fikrlash (analytical thinking) va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda chuqur o‘rganildi. Quyida mazkur yo‘nalish bo‘yicha eng muhim ilmiy manbalar va ularning asosiy g‘oyalari tahlil qilinadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

2019-yilda OECD tomonidan chop etilgan “OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030” hujjatida analitik va tanqidiy fikrlash transformativ kompetensiyalar tarkibida asosiy universal ko‘nikma sifatida belgilandi [1]. Mazkur konsepsiyada o‘quvchilarning murakkab muammolarni hal qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va tizimli fikrlash qobiliyati kelajak ta’limining markaziy maqsadi sifatida ko‘rsatildi.

2020-yilda World Economic Forum tomonidan e’lon qilingan “The Future of Jobs Report 2020” hisobotida analytical thinking and innovation eng talab yuqori bo‘lgan kompetensiya sifatida birinchi o‘ringa qo‘yildi [2]. Hisobotda 2025-yilgacha mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun analitik tafakkur hal qiluvchi omil bo‘lishi ilmiy prognozlar asosida asoslab berilgan.

Pandemiya davrida masofaviy ta’lim sharoitida tahliliy fikrlashni rivojlantirish masalasi alohida tadqiq qilindi. Masalan, Linda Darling-Hammond va hammualliflar tomonidan 2020-yilda chop etilgan “Implications for educational practice of the science of learning and development” maqolasida chuqur o‘rganishga asoslangan ta’lim modeli analitik fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi. Mualliflar refleksiv faoliyat, muammoli vaziyatlar va kollaborativ o‘qitish metodlari analitik tafakkurni rivojlantirishda muhimligini empirik dalillar bilan ko‘rsatgan.

2021-yilda UNESCO tomonidan nashr etilgan “Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education” hisobotida tanqidiy va tahliliy fikrlash demokratik jamiyat va barqaror rivojlanishning asosiy sharti sifatida talqin qilindi [3]. Hujjatda axborotning ko‘pligi sharoitida faktlarni tekshirish, dalillarni baholash va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalari ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi zarurligi ta’kidlandi.

2022-yilda Peter Facionening tanqidiy fikrlash modeli asosida olib borilgan yangilangan empirik tadqiqotlar analitik fikrlashning kognitiv (interpretatsiya, tahlil, baholash, inferensiya) va dispozitsion komponentlarini aniqlashtirdi [2]. Mazkur model so‘nggi yillarda ko‘plab pedagogik tadqiqotlarda metodologik asos sifatida qo‘llanilmoqda.

2023-yilda World Economic Forumning “Future of Jobs Report 2023” yangilangan hisobotida analytical thinking global miqyosda eng zarur top-1 ko‘nikma sifatida yana tasdiqlandi [2]. Hisobotda raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish sharoitida analitik tafakkur innovatsion faoliyatning asosi ekanligi qayd etildi.

2023–2024-yillarda oliy ta’lim sohasida olib borilgan empirik tadqiqotlar (masalan, Journal of Educational Psychology va Studies in Higher Education jurnallaridagi maqolalar) muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim va debat metodlari talabalarning analitik fikrlash darajasini sezilarli oshirishini statistik tahlillar asosida ko‘rsatdi [5]. Ushbu ishlarda metakognitiv strategiyalar va refleksiya analitik tafakkurning muhim mexanizmi sifatida izohlandi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kompetensiyaviy yondashuv doirasida tahliliy fikrlash masalasi yoritilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi normativ hujjatlari va yangi davlat ta’lim standartlarida funksional savodxonlik hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda pedagogika va metodika yo‘nalishida himoya qilingan dissertatsiyalarda analitik tafakkurni shakllantirish metodikasi, interaktiv texnologiyalar va refleksiv ta’lim muhiti masalalari ilmiy asosda ishlab chiqilmoqda.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

2019–2025-yillardagi aniq manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tahliliy fikrlash kompetensiyasi global ta’lim siyosati, mehnat bozori prognozlari va pedagogik tadqiqotlarning markaziy obyektiga aylangan. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari (OECD [1], UNESCO [3], WEF [2]) hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar analitik tafakkurni XXI asr ta’limining strategik ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etmoqda. Bu esa mazkur kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahliliy fikrlash kompetensiyasi ta’lim jarayonida “bilimni bilish”dan ko‘ra “bilim bilan ishlash”ni ustuvor qiladigan, o‘quvchini tayyor xulosalarni qabul qiluvchi emas, balki dalil-topshiriq-xulosa zanjirida faol subyektga aylantiradigan intellektual sifatdir. Shu ma’noda, u shunchaki mantiqiy operatsiyalar majmui emas; tahliliy fikrlash — bu axborotni ko‘rish, uni “tizim”ga solish, mohiyat va sabab-oqibatlarni ajratish, alternativ yechimlarni solishtirish, dalillar ishonchliligini baholash va yakunda asosli qaror chiqarish madaniyatidir. Mazkur kompetensiya ta’lim sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlar ichida chuqur o‘rganish, mustaqil fikrlash va refleksiv faoliyatning “yadro mexanizmi” sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, tahliliy fikrlashning mazmunini ochishda uni kognitiv jarayonlar bilan cheklab qo‘yish yetarli emas. Ha, u tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish kabi mantiqiy amallarga tayanadi. Ammo ta’lim amaliyotida ko‘pincha muammo shu yerda boshlanadi: o‘quvchi mantiqiy amallarni bajargandek ko‘rinadi, lekin uning xulosasi yuzaki bo‘lib qoladi, sabab-oqibatlar zanjiri uziladi yoki dalil bilan xulosa o‘rtasida “bo‘shliq” paydo bo‘ladi. Demak, tahliliy fikrlash kompetensiyasining tarkibida kamida uch yo‘nalish uyg‘un bo‘lishi zarur: kognitiv (bilish va mantiqiy amallar), metakognitiv (o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilish, “men nima uchun shunday xulosa qildim?” degan savol), hamda dispozitsion (ochiq fikrlilik, dalilga tayanish odati, shoshilmaslik, tekshirishga moyillik). Aynan dispozitsion qatlam bo‘lmasa, o‘quvchi bilimli bo‘lishi mumkin, biroq “tahliliy fikrlovchi”ga aylanmaydi: u o‘z pozitsiyasini dalil bilan himoya qilmaydi, qarama-qarshi fikrni tinglamaydi, fikrini qayta ko‘rib chiqishni zaiflik deb qabul qiladi.

Ikkinchidan, ta’limdagi ahamiyat masalasida tahliliy fikrlash kompetensiyasini “natija” sifatida emas, “jarayonni boshqaruvchi mexanizm” sifatida ko‘rish to‘g‘riroq. Ta’limning ko‘plab muammolari — yodlashga tayangan o‘zlashtirish, testga yo‘naltirilgan tayyorgarlik, “to‘g‘ri javob”ni topishga qaratilgan tor fikrlash — aslida tahliliy fikrlash jarayonining to‘liq ishlamasligidan kelib chiqadi. O‘quvchi “nega?” va “qanday qilib?” savollarini berishni o‘rganmaguncha, u ma’lumotni eslab qolishi mumkin, lekin uni yangi vaziyatga ko‘chira olmaydi. Shuning uchun ham tahliliy fikrlash kompetensiyasi ta’limning transfer natijasini — ya’ni bilimni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo‘llashni — keskin kuchaytiradi. O‘qituvchi uchun bu kompetensiya o‘quvchining “javob topishi”dan ko‘ra “javobga kelish yo‘li”ni qadrlashga undaydi; aynan yo‘l mustahkam bo‘lsa, javoblar turli vaziyatlarda barqaror va asosli bo‘ladi.

Uchinchidan, tahliliy fikrlashni shakllantirish masalasida asosiy pedagogik qarama-qarshilik shundaki: biz ko‘pincha o‘quvchidan tahliliy fikrlashni talab qilamiz, ammo unga tahlil qilish uchun material ham, muammoli vaziyat ham, eng muhimi, muhokama madaniyatini berolmaymiz. Tahliliy fikr “sokin va qulay” sharoitda emas, ma’lum darajadagi intellektual qiyinchilik (kognitiv muammo) paydo bo‘lganda uyg‘onadi. Demak, tahliliy fikrlashni

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

rivojlantirishning asosiy sharti — muammoning mavjudligi: qarama-qarshi dalillar, to‘liq bo‘lmagan ma’lumot, bir nechta yechim varianti, tanlov zarurati. Shundan kelib chiqib, “muhokama”ning markazida quyidagi didaktik g‘oya turadi: o‘quvchi tayyor matnni qayta aytib berishi emas, balki dalillarni ajratishi, pozitsiyani asoslash uchun argument tanlashi, alternativni baholashi va xulosani mezonlar asosida chiqarishi kerak.

To‘rtinchidan, amaliy metodlar muhokamasida interaktiv usullarni shunchaki “faollashtiruvchi” deb talqin qilish xato bo‘ladi. Har qanday metod tahliliy fikrlashni rivojlantirmaydi; u faqat faoliyatni ko‘paytirishi mumkin. Tahliliy fikrlashga xizmat qiladigan metodlar esa o‘quvchi faoliyatini uch bosqichga majburiy olib kiradi:

1. Muammoni strukturaviy ko‘rish (vaziyatni qismlarga ajratish, muhim-ikkinchi darajalini farqlash);
2. Dalil va mezon bilan ishlash (ma’lumot manbai, ishonchlilik, mantiqiy bog‘liqlik);
3. Xulosa va refleksiya (nega shu xulosa, qanday xatolar bo‘lishi mumkin, qaysi shartlarda xulosa o‘zgaradi).

Masalan, keys-stadi o‘quvchini real vaziyatni tahlil qilishga majbur qiladi; ammo keys “hikoya” bo‘lib qolmasligi uchun o‘qituvchi aniq mezonlar beradi: muammo ta’rifi, sabablar daraxti, manfaatdor tomonlar, risklar, yechimlar solishtiruv jadvali. Debat usuli ham tahliliy fikrlashni kuchaytiradi, agar u hissiy tortishuvga aylanib ketmasa; buning uchun argument strukturasini (da’vo–dalil–izoh–misol) talab qilish, dalil sifatini baholash, qarshi argumentga javob berish madaniyatini o‘rgatish zarur. Muammoli o‘qitish va loyiha asosida ta’lim esa tahliliy fikrlashni “uzoq masofa”da tarbiyalaydi: o‘quvchi savol qo‘yadi, faraz ilgari suradi, axborot to‘playdi, tahlil qiladi, natijani taqdim etadi va qayta ko‘rib chiqadi.

Beshinchidan, baholash masalasini muhokama qilmasdan tahliliy fikrlash haqida gap “nazariy” bo‘lib qoladi. Chunki ta’limda “nima baholansa — o‘sha rivojlanadi” degan yashirin qonun ishlaydi. Agar baholash faqat faktni eslash va to‘g‘ri variantni belgilashga qurilsa, o‘quvchi tahlilni emas, “topishni” mashq qiladi. Shuning uchun tahliliy fikrlashni baholashda rubrika va kriterial yondashuv muhim: muammoni aniqlash sifati, dalillar relevanti, mantiqiy izchillik, alternativlarni ko‘rish, xulosa asoslanganligi, refleksiya darajasi. Bu yondashuv o‘quvchiga ham “qayerim kuchli, qayerim sust” degan aniq ko‘rsatkich beradi; o‘qituvchiga esa baholashni subyektiv taassurotdan chiqarib, aniq mezonga tayanishga yordam beradi.

Oltinchidan, tahliliy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli muhitning ta’siri ikki qirrali. Bir tomondan, raqamli resurslar axborot topish, solishtirish, vizual tahlil, data bilan ishlash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, “tezkor kontent” madaniyati yuzaki fikrlashni kuchaytirishi, e’tiborning bo‘linishi, fakt va fikrning aralashib ketishi xavfini oshiradi. Shuning uchun tahliliy fikrlashni raqamli savodxonlik bilan bog‘lab o‘qitish zarur: manba ishonchliligi, dalilni verifikatsiya qilish, mantiqiy xatolarni aniqlash, manipulyativ usullarni tanish. Bu yerda o‘qituvchining vazifasi — o‘quvchini “ko‘proq axborot”ga emas, “sifatli tahlil”ga yo‘naltirish.

Yettinchidan, amaliyotda uchraydigan tipik muammolar ham muhokama markazida bo‘lishi kerak:

- tahliliy topshiriqlarning murakkabligi o‘quvchi yoshiga moslanmasligi;
- o‘qituvchining o‘zi uchun tahliliy fikrlash mezonlari aniq bo‘lmasligi;
- “faollik” bilan “tahlil”ning almashtirib yuborilishi;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

• vaqt yetishmasligi sabab tahlil bosqichining qisqarishi va “tez xulosa”ga shoshilish.

Bularni bartaraf etishda bosqichma-bosqichlik prinsipiga tayanish maqsadga muvofiq: avval oddiy tahlil (ajratish, taqqoslash), keyin mantiqiy bog‘lash (sabab-oqibat), so‘ng baholash (mezonga ko‘ra), keyin esa sintetik daraja (alternativ yaratish, yangi yechim taklif qilish). Demak, tahliliy fikrlashni “bir darsda” berib bo‘lmaydi; u tizimli metodik reja, izchil mashqlar va o‘quvchida refleksiya odatini shakllantirishni talab qiladi.

Mazkur maqolada tahliliy fikrlash kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tahliliy fikrlash kompetensiyasi nafaqat mantiqiy operatsiyalar majmui, balki kognitiv, metakognitiv va dispozitsion komponentlarning integratsiyasiga asoslangan murakkab intellektual sifatdir. U o‘quvchining axborotni tanqidiy baholash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil qilish hamda dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida tahliliy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishi bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash va kasbiy faoliyatda samarali qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi. Interaktiv metodlar, muammoli o‘qitish, loyiha va keys texnologiyalari, refleksiv faoliyat hamda kriterial baholash tizimi mazkur kompetensiyani shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida tahliliy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Uni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, o‘quv muhitini muammoli va refleksiv asosda tashkil etish hamda baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish ta’lim sifati va natijadorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Tahliliy fikrlashga ega shaxs esa jamiyatning innovatsion rivojlanishida faol, mas’uliyatli va mustaqil qaror qabul qila oladigan subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. OECD. *OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 23 p.
2. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report 2020*. – Geneva: World Economic Forum, 2020. – 163 p.
3. Darling-Hammond L., Flook L., Cook-Harvey C., Barron B., Osher D. Implications for educational practice of the science of learning and development // *Applied Developmental Science*. – 2020. – Vol. 24, № 2. – P. 97–140.
4. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 205 p.
5. Facione P. A. *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts*. – Insight Assessment, 2022 edition. – 28 p

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

To‘rayev Farrux Xakim o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Jismoniy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlari jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Davlat siyosati doirasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan normativ hujjatlar asosida sohadagi islohotlar o‘rganildi. Tadqiqot natijalari funksional mashg‘ulotlar, individual yuklamalar va kompleks yondashuv jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi.

MAQSAD: ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ularning jismoniy tayyorgarligini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish, maxsus xizmat vazifalariga moslashtirilgan jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik) rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, test sinovlari, biomexanik va fiziologik tahlil usullari, statistik qayta ishlash metodlari hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari olindi. Maxsus jismoniy mashqlar kompleksi, funksional tayyorgarlik dasturlari, kuch va chidamlilikni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar hamda stress sharoitiga moslashtirilgan trenirovka tizimlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tizimli va ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar xodimlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, maxsus xizmat vazifalariga yo‘naltirilgan funksional mashg‘ulotlar tezkorlik va chidamlilik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, jismoniy yuklamalarni individual yondashuv asosida rejalashtirish kasbiy zo‘riqishlarning kamayishiga, xizmat samaradorligining ortishiga hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qilishi aniqlandi.

XULOSA: ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda ilmiy-metodik yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg‘ulot jarayonini kasbiy faoliyat xususiyatlariga moslashtirish, individual yuklama me’yorlarini belgilash hamda zamonaviy pedagogik va sport texnologiyalaridan foydalanish xizmat samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, funksional tayyorgarlik, chidamlilik, tezkorlik, kuch sifati, pedagogik tajriba, ilmiy-metodik yondashuv, xizmat samaradorligi.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Тўраев Фаррух Хаким ўғли, Старший преподаватель цикла физической подготовки Института повышения квалификации, Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, г. Ташкент, Республика Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты совершенствования физической подготовки сотрудников органов внутренних дел. На основе нормативно-правовых документов, принятых в рамках государственной политики по развитию физической культуры и спорта, изучены проводимые в данной сфере реформы. Результаты исследования показали, что функциональные тренировки, индивидуализация нагрузок и комплексный подход способствуют повышению эффективности физической подготовки.

ЦЕЛЬ: повышение эффективности профессиональной деятельности сотрудников органов внутренних дел посредством совершенствования их физической подготовки на основе современных научных подходов, разработка и внедрение эффективной методики развития физических качеств (силы, быстроты, выносливости, ловкости и координации), адаптированных к специфике служебной деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использованы методы педагогического наблюдения, опытно-экспериментальной работы, тестирования, биомеханического и физиологического анализа, статистической обработки данных, а также сравнительного анализа. Объектом исследования выступили показатели физической подготовленности сотрудников органов внутренних дел. Применялись комплексы специальных физических упражнений, программы функциональной подготовки, тренировки, направленные на развитие силы и выносливости, а также системы подготовки, адаптированные к условиям стрессовых нагрузок.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что систематические и научно обоснованные занятия способствуют значительному повышению уровня физической подготовленности сотрудников. В частности, функциональные тренировки, ориентированные на выполнение специальных служебных задач, положительно влияют на показатели быстроты и выносливости. Кроме того, установлено, что планирование физических нагрузок на основе индивидуального подхода способствует снижению профессионального перенапряжения, повышению эффективности служебной деятельности и формированию навыков оперативных действий в чрезвычайных ситуациях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: применение научно-методического подхода в совершенствовании физической подготовки сотрудников органов внутренних дел имеет важное значение. Адаптация тренировочного процесса к особенностям профессиональной деятельности, определение индивидуальных норм нагрузки и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

использование современных педагогических и спортивных технологий являются одними из ключевых факторов повышения эффективности служебной деятельности.

Ключевые слова: органы внутренних дел, физическая подготовка, специальная физическая подготовка, профессиональная компетентность, функциональная подготовка, выносливость, быстрота, силовые качества, педагогический эксперимент, научно-методический подход, эффективность службы.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE PHYSICAL TRAINING OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Turaev Farrukh Hakim ogli, senior Lecturer of the Physical Training Cycle Institute for Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Tashkent, Republic of Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the theoretical and practical aspects of improving the physical training of internal affairs officers. Based on regulatory documents adopted within the framework of state policy on the development of physical culture and sports, reforms implemented in this field were examined. The research findings indicate that functional training, individualized workloads, and a comprehensive approach contribute significantly to enhancing the effectiveness of physical training.

AIM: to increase the effectiveness of professional activity of internal affairs officers by improving their physical training on the basis of modern scientific approaches, as well as to develop and implement an effective methodology for enhancing physical qualities (strength, speed, endurance, agility, and coordination) adapted to the specific requirements of official duties.

MATERIALS AND METHODS: the study employed pedagogical observation, experimental research methods, testing procedures, biomechanical and physiological analysis, statistical data processing, and comparative analysis. The object of the study was the physical fitness indicators of internal affairs officers. Special physical exercise complexes, functional training programs, strength and endurance development sessions, and training systems adapted to stress conditions were applied.

DISCUSSION AND RESULTS: the research results demonstrated that systematic and scientifically grounded training significantly improves the level of physical fitness of officers. In particular, functional training focused on specific service tasks positively influenced speed and endurance indicators. Furthermore, it was established that planning physical loads based on an individualized approach reduces occupational stress, increases service efficiency, and contributes to the development of rapid response skills in emergency situations.

CONCLUSION: the application of a scientific and methodological approach in improving the physical training of internal affairs officers is of great importance. Adapting

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

the training process to the characteristics of professional activity, determining individualized workload standards, and utilizing modern pedagogical and sports technologies are among the key factors in enhancing service effectiveness.

Keywords: internal affairs bodies, physical training, special physical training, professional competence, functional training, endurance, speed, strength qualities, pedagogical experiment, scientific-methodological approach, service efficiency.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining hozirgi kundagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda sport infratuzilmasini kengaytirish, aholining jismoniy faolligini oshirish va kuch tuzilmalari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu islohotlar Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan davlat siyosati bilan bog‘liq [1].

Prezident qarorlarida aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish, sport infratuzilmasini kengaytirish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda kuch tuzilmalari xodimlarining jismoniy salohiyatini mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2].

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati xizmat vazifalarini yuqori darajada bajarish, jismoniy va psixologik barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish hamda ekstremal vaziyatlarda samarali harakat qilishni talab etadi. Shu sababli ularning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jismoniy tayyorgarlik masalalari milliy va xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Milliy olimlar tomonidan jismoniy tayyorgarlikning nazariy va metodik asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular kuch, chidamlilik, tezkorlik va epchillik kabi jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [3]. Ilmiy tadqiqotlarda kuch tuzilmalari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi xizmat samaradorligi va stressga bardoshlilikni oshirishda muhim omil ekani ko‘rsatilgan [4]. Zamonaviy tadqiqotlar funksional trening, aylanma mashg‘ulot va interval yuklamalar jismoniy ko‘rsatkichlarni samarali oshirishini tasdiqlamoqda [5].

Shu bilan birga, jismoniy tayyorgarlikni raqamli monitoring, yurak urishi nazorati va individuallashtirilgan yuklamalar asosida tashkil etish jarayoni samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi [6].

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy metodlar

- ilmiy adabiyotlar tahlili;
- normativ hujjatlar tahlili.

Empirik metodlar.

- pedagogik kuzatuv;
- test sinovlari;
- pedagogik eksperiment.

Statistik metodlar.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

- o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkich;
- foiz tahlili;
- dinamik tahlil.

Tadqiqotda 40 nafar tinglovchi ishtirok etdi. Ular nazorat va eksperiment guruhlariga ajratildi. Eksperiment 6 oy davom etdi.

Pedagogik eksperiment jarayonida tinglovchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasidagi o‘zgarishlar kompleks testlar orqali baholandi. Tadqiqotda 40 nafar tinglovchi ishtirok etdi va ular nazorat (n=20) hamda eksperiment (n=20) guruhlariga ajratildi. Eksperiment guruhida mashg‘ulotlar funksional tayyorgarlik, aylanma mashg‘ulot va interval yuklamalar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida an’anaviy mashg‘ulot dasturi saqlab qolindi.

1. Chidamlilik ko‘rsatkichlari.

Chidamlilik darajasi 1000 metrga yugurish testlari orqali baholandi. Eksperiment boshida guruhlar o‘rtasida statistik farq kuzatilmadi. Eksperiment yakunida esa eksperiment guruhida natijalar sezilarli yaxshilandi.

Eksperiment guruhida:

- o‘rtacha natija 3:58 daqiqadan 3:15 daqiqaga yaxshilandi;
- yaxshilanish dinamikasi 18% ni tashkil etdi.

Nazorat guruhida:

- natija 3:56 dan 3:38 ga yaxshilandi;
- o‘sish 8% ni tashkil etdi.

Bu natijalar interval va funksional mashg‘ulotlarning aerob imkoniyatlarni oshirishda samarali ekanini ko‘rsatdi.

2. Kuch ko‘rsatkichlari.

Kuch sifatlari turnikda tortilish va yerga tayangan holda qo‘llarni bukish va yozish (otjimaniye) testlari orqali baholandi.

Eksperiment guruhida:

- tortilish 10,4-martadan 12,7-martagacha oshdi (22%);
- yerga tayangan holda qo‘llarni bukish va yozish 34,2-martadan 41,1-martagacha oshdi (20%).

Nazorat guruhida:

- tortilish 10,1 dan 10,9-martagacha (8%);
- otjimaniye 33,8 dan 36,0-martagacha (7%).

Bu natijalar aylanma mashg‘ulot va funksional yuklamalar mushak kuchini kompleks rivojlantirishini tasdiqladi.

3. Tezkorlik ko‘rsatkichlari.

Tezkorlik 100 metrga yugurish testlari orqali baholandi.

Eksperiment guruhida:

- natija 14,6 soniyadan 13,0 soniyaga yaxshilandi (11%).

Nazorat guruhida:

- 14,5 soniyadan 13,9 soniyaga yaxshilandi (4%).

Jadval №1. Tinglovchilar jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Test	Nazorat guruhi (boshida)	Nazorat guruhi (oxirida)	Eksperiment guruhi (boshida)	Eksperiment guruhi (oxirida)
1000 m yugurish (sek)	3.56	3.38	3.58	3.15
Tortilish (marta)	10.1	10.9	10.4	12.7
Otjimaniye (marta)	33.8	36.0	34.2	41.1
100 m yugurish (sek)	14.5	13.9	14.6	13.0

Bu natijalar funksional tayyorgarlik mashg‘ulotlari nerv-mushak koordinatsiyasini yaxshilashini ko‘rsatdi.

4. Kompleks jismoniy tayyorgarlik indeksi.

Barcha testlar asosida kompleks indeks hisoblandi. Eksperiment guruhida umumiy jismoniy tayyorgarlik 19% ga oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida 9% o‘sish kuzatildi.

Eksperiment guruhida:

- funksional imkoniyatlar oshdi;
- tiklanish vaqti qisqardi;
- mashg‘ulotlarga adaptatsiya tezlashdi.

5. Funksional ko‘rsatkichlar.

Yurak urishi chastotasi va tiklanish tezligi tahlil qilindi.

Eksperiment guruhida:

- mashqdan keyin tiklanish vaqti 17% ga qisqardi;
- yurak urishi barqarorligi yaxshilandi.

Bu natijalar funksional mashg‘ulotlar yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

6. Jarohatlar dinamikasi.

Eksperiment davomida jarohatlar statistikasi tahlil qilindi.

Eksperiment guruhida:

- jarohatlar soni 30% ga kamaydi.

Bu individuallashtirilgan yuklamalar va bosqichli adaptatsiya samaradorligini ko‘rsatdi.

7. Natijalarning umumiy tahlili.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- funksional mashg‘ulotlar jismoniy ko‘rsatkichlarni kompleks oshiradi;
- interval yuklamalar chidamlilikni samarali rivojlantiradi;
- aylanma mashg‘ulot kuch va chidamlilikni bir vaqtda rivojlantiradi;
- individuallashtirilgan yuklamalar jarohat xavfini kamaytiradi.

Shuningdek, eksperiment guruhida mashg‘ulotlarga motivatsiya va psixologik barqarorlik darajasi ham oshgani kuzatildi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Olingan natijalar jismoniy tayyorgarlikni tizimli tashkil etish xizmat samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Funksional mashg‘ulotlar xizmat faoliyatiga mos kelishi bilan ajralib turadi. Aylanma mashg‘ulot yuklamani optimal taqsimlash imkonini berib, chidamlilik va kuchni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qiladi. Interval mashqlar esa aerob va anaerob imkoniyatlarni oshirishda samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish jarayonida funksional tayyorgarlik metodikasidan foydalanish tadqiqot natijalarini izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, F.M.Karimovning funksional tayyorgarlikka oid nazariy qarashlariga ko‘ra, kompleks mashg‘ulotlar tizimi bir vaqtning o‘zida kuch, chidamlilik va tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot doirasida eksperimental guruhda kuzatilgan ijobiy dinamika aynan funksional mashg‘ulotlar ulushining oshirilishi, interval va aylanma trening elementlarining maqsadli qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Bu esa jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish xodimlarning ish qobiliyatini oshirish va kasbiy faoliyatga moslashuv darajasini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ichki ishlar organlari xodimlari jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish xizmat samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi xizmat vazifalarini bajarishda tezkorlik, barqarorlik va ekstremal vaziyatlarda samarali harakat qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Shu bilan birga, jismoniy rivojlanganlik psixofiziologik barqarorlikni mustahkamlab, stressga bardoshlilikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida funksional mashg‘ulotlar, aylanma usul va interval yuklamalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlandi. Xususan, chidamlilik, kuch va tezkorlik ko‘rsatkichlarida eksperiment guruhida sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi. Bu esa jismoniy tayyorgarlikni xizmat faoliyatiga mos ravishda tashkil etishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, individuallashtirilgan yuklamalar va bosqichli adaptatsiya tamoyili mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish bilan birga jarohatlar xavfini kamaytirishi aniqlandi. Tiklanish jarayonlarining optimallashishi, yurak-qon tomir tizimi funksional imkoniyatlarining yaxshilanishi va mashg‘ulotlarga tez adaptatsiya kuzatilishi mazkur yondashuvning ustunligini namoyon qildi.Tadqiqot natijalari jismoniy tayyorgarlikni raqamli monitoring, funksional diagnostika va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatdi. Bu esa mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda boshqarish, individual xususiyatlarni hisobga olish va jismoniy tayyorgarlik samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, ichki ishlar organlari xodimlari jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion modelini joriy etish xizmat samaradorligi, jismoniy barqarorlik va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kuch tuzilmalarida jismoniy tayyorgarlik tizimini modernizatsiya qilish va uni xizmat faoliyati talablariga moslashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-son qarori.
3. Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Toshkent-2005.
4. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari”. Ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. 2024.
5. Karimov F.M. Funksional tayyorgarlik asoslari. Toshkent-2021.
6. Ibragimov S. B. The Role of Functional Training Exercises in Improving Physical Fitness. – Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(4), 2025. 383-389.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Kamolova Mashhura Otabek qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Harakatlar strategiyasi” va shu asosda qabul qilingan Davlat dasturi, shuningdek, “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” doirasida amalga oshiriladigan ta’lim dasturlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari metodologik jihatdan yoritilgan. Maqolada lingvistik kompetensiyaning nazariy asoslari, pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar va ularning professional faoliyatga tatbiqlanishi tahlil qilingan. Shu bilan birga, o‘qituvchilik kasbiga tayyorlov jarayonida til bilimlari, kommunikativ va metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishning amaliy strategiyalari ham batafsil ko‘rib chiqilgan.

MAQSAD: maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning pedagogik jarayonda samaradorligini baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy va klaster tahlil, guruhlash, so‘rovnomalar, ekspert baholash, statistik va matematik usullardan foydalanildi. Shu bilan birga, eksperimental pedagogik mashg‘ulotlar, interaktiv va metakognitiv strategiyalar, AKT vositalari orqali olingan natijalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda kompleks texnologiyalarni qo‘llash samarali bo‘lib, talabalar tilni amaliyotda qo‘llash, kommunikativ va metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda sezilarli ijobiy natijalarga erishdi. Interaktiv metodlar va AKT yordamida mashg‘ulotlar olib borish talabalarning til bilimlarini mustahkamlashga, ularni pedagogik vaziyatlarga moslashishga va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishga imkon yaratdi.

XULOSA: bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasi rivojlantirilganda ular nafaqat til bilimlarini chuqur o‘zlashtiradi, balki pedagogik vaziyatlarda tilni samarali ishlatish, kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlash va metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Lingvistik kompetensiyani ilmiy asosda rivojlantirish ta’lim jarayonining sifatini oshiradi va bo‘lajak o‘qituvchilarning professional faoliyatga tayyorgarligini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: lingvistik kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik texnologiyalar, metakognitiv strategiyalar, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), til bilimlari, kommunikativ ko‘nikmalar, nazariy asoslar, pedagogik eksperiment, amaliy tavsiyalar.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

РАЗВИТИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Камолова Машхура Отабек кизи, докторант Бухарского государственного педагогического института Навои, Узбекистан,

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются технологические подходы к развитию лингвистической компетентности будущих учителей в рамках «Стратегии действий» Республики Узбекистан и соответствующей Государственной программы, а также в «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики». Особое внимание уделяется методологическим основам формирования лингвистической компетентности, теоретическим концепциям и педагогическим стратегиям, направленным на развитие коммуникативных и метакогнитивных навыков у будущих педагогов.

ЦЕЛЬ: цель исследования заключается в изучении и научном анализе технологий формирования лингвистической компетентности будущих учителей, оценке их эффективности в образовательном процессе и разработке практических рекомендаций для педагогической деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались диалектический подход, анализ и синтез, комплексный подход, сравнительный и кластерный анализ, группировка, социологические опросы, экспертная оценка, статистические и математические методы. Кроме того, применялись педагогические эксперименты, интерактивные и метакогнитивные стратегии, а также информационно-коммуникационные технологии (ИКТ).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что комплексное использование современных технологий обучения способствует формированию лингвистической компетентности, развитию навыков эффективной коммуникации и метакогнитивного мышления у студентов. Интерактивные методы и ИКТ позволили учащимся закрепить языковые знания, адаптироваться к педагогическим ситуациям и развивать творческое мышление.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование лингвистической компетентности будущих учителей обеспечивает глубокое освоение языковых знаний, эффективное применение языка в педагогических ситуациях, развитие коммуникативных и метакогнитивных навыков. Научно обоснованное развитие лингвистической компетентности повышает качество образовательного процесса и готовит студентов к успешной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: лингвистическая компетентность, будущие учителя, педагогические технологии, метакогнитивные стратегии, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), языковые знания, коммуникативные навыки, теоретические основы, педагогический эксперимент, практические рекомендации.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Kamolova Mashhura Otabek qizi, Doctoral Researcher Bukhara State Pedagogical Institute, Navoiy, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses technological approaches to developing the linguistic competence of future teachers within the framework of the “Action Strategy” of the Republic of Uzbekistan and the corresponding State Program, as well as in the “Year of Development of Science, Education, and Digital Economy.” Special attention is given to the methodological foundations for forming linguistic competence, theoretical concepts, and pedagogical strategies aimed at developing communicative and metacognitive skills in future educators.

AIM: the purpose of the study is to examine and scientifically analyze technologies for developing the linguistic competence of future teachers, assess their effectiveness in the educational process, and develop practical recommendations for pedagogical practice.

MATERIALS AND METHODS: the study employed a dialectical approach, analysis and synthesis, a comprehensive approach, comparative and cluster analysis, grouping, sociological surveys, expert assessment, and statistical and mathematical methods. In addition, pedagogical experiments, interactive and metacognitive strategies, as well as information and communication technologies (ICT), were applied.

DISCUSSION AND RESULTS: the results indicated that the integrated use of modern educational technologies contributes to the formation of linguistic competence, the development of effective communication skills, and metacognitive thinking among students. Interactive methods and ICT allowed students to consolidate language knowledge, adapt to pedagogical situations, and develop creative thinking.

CONCLUSION: developing the linguistic competence of future teachers ensures deep mastery of language knowledge, effective use of language in pedagogical situations, and the development of communicative and metacognitive skills. Scientifically grounded development of linguistic competence improves the quality of the educational process and prepares students for successful professional activity.

Keywords: linguistic competence, future teachers, pedagogical technologies, metacognitive strategies, interactive methods, information and communication technologies (ICT), language knowledge, communicative skills, theoretical foundations, pedagogical experiment, practical recommendations.

Lingvistik kompetensiya bo‘lajak o‘qituvchilarning professional faoliyatidagi eng muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Bu nafaqat til bilimlarini, balki tilni pedagogik jarayonda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini, kommunikativ va metakognitiv qobiliyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

o‘quvchilarning tilga oid ko‘nikmalarini shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harakatlar strategiyasi” (2017–2021) va “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturi pedagogik jarayonlarda innovatsion va ilmiy yondashuvlarni joriy qilishga yo‘naltirilgan. Shu maqsadda maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari, ularning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, samarali pedagogik metodlar tahlil qilinadi.

Lingvistik kompetensiya – bu nafaqat o‘qituvchining tilni to‘g‘ri va aniq tushunishi, balki uni amaliy pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llash qobiliyatidir. Zamonaviy pedagogik talablar o‘qituvchidan nafaqat lingvistik bilimni, balki kommunikativ, metodik va metakognitiv qobiliyatlarni bir vaqtda rivojlantirishni talab qiladi [1; 6]. Lingvistik kompetensiya tarkibida semantik bilimlar, grammatik qobiliyatlar, pragmatik va didaktik kompetentsiyalar, shuningdek, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalari mujassam bo‘ladi. Shu sababli, lingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni kompleks va ko‘p qirrali bo‘lib, unda interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) va metakognitiv strategiyalar birgalikda qo‘llanilishi lozim [4; 7]. Hozirgi kunda global ta’lim makonida tilni chuqur o‘rganish va uni pedagogik jarayonda amaliy qo‘llash talablariga javob beruvchi o‘qituvchilar yetishtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish va takomillashtirishni talab qiladi. Shu jihatdan, maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish, ularni pedagogik jarayonga tayyorlash va zamonaviy metodlarni tatbiq etishning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi [2; 3].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini ilmiy asosda aniqlash, ularning samaradorligini baholash va pedagogik jarayonda amaliy qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdir. Maqsadga erishish uchun tadqiqot bir qator vazifalarni bajarishni talab qiladi. Birinchidan, lingvistik kompetensiyaning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va o‘quv jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Bu bosqichda lingvistik kompetensiya pedagogik nazariya va psixologik tadqiqotlar doirasida o‘rganilib, uning tarkibiy elementlari – grammatik, fonetik, semantik, pragmatik va metodik qobiliyatlar aniqlanadi. Shuningdek, talabalarning lingvistik kompetensiyasini baholash mezonlari ishlab chiqiladi [1; 5]. Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan interaktiv metodlar, metakognitiv strategiyalar, AKT va innovatsion yondashuvlar bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilinadi. Bu tadqiqot bo‘yicha olingan ma’lumotlar lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda xizmat qiladi [4; 6]. Uchinchidan, eksperimental tadqiqotlar o‘tkazilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorligi baholanadi. Bu jarayonda talabalar bilan interaktiv mashg‘ulotlar, case-study, loyihaviy yondashuv va AKT yordamida amaliy eksperimentlar olib boriladi. Tadqiqot natijalari asosida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi va ular o‘quv jarayonida tatbiq etish imkoniyatlari aniqlanadi [2;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

7]. To‘rtinchidan, talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalar o‘rganilib, ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, lingvistik kompetensiya rivojlanishining ijobiy va salbiy omillari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotda dialektik yondashuv qo‘llanilib, lingvistik kompetensiya va pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda tahlil qilindi. Tahlil va sintez usullari turli pedagogik texnologiyalarni tarkibiy jihatlari va samaradorligi bo‘yicha chuqur tahlil imkonini berdi. Kompleks yondashuv esa interaktiv metodlar, AKT va metakognitiv strategiyalarni birlashtirish orqali talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini mukammal o‘rganish imkonini yaratdi [4; 6].

Eksperimental tadqiqot doirasida qiyosiy va klaster tahlil, so‘rov va intervyu metodlari, ekspert baholash, statistik usullar va vizual monitoring ishlatildi. Bu metodlar yordamida talabalar lingvistik kompetensiyasining aniq ko‘rsatkichlari aniqlanib, pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy asosda baholandi. Tadqiqotda shuningdek, amaliy eksperimentlar va kuzatuvlar olib borildi, bu jarayonda talabalar turli pedagogik vaziyatlarda tilni ishlatish, muloqot va metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirildi [7].

Shuningdek, metodologik jihatdan tadqiqot nazariy va amaliy komponentlarni birlashtirdi. Nazariy qismda lingvistik kompetensiyaning tarkibiy elementlari va rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinsa, amaliy qismda talabalar bilan eksperiment va pedagogik mashg‘ulotlar orqali kompetensiyaning shakllanishi kuzatildi. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik bilimlarini chuqur, tizimli va samarali rivojlantirish imkonini berdi.

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalari

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar, AKT, metakognitiv strategiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosiy vositalar hisoblanadi. Interaktiv metodlar – dialogik mashg‘ulotlar, rol o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va proyekt asosida o‘qitish – talabalarni tilni amaliyotda qo‘llashga tayyorlaydi. Bu metodlar talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini mustahkamlaydi va ularni pedagogik vaziyatlarga moslashishga o‘rgatadi [2; 5].

AKT – virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar, onlayn platformalar va ta’lim resurslari – talabalarning lingvistik bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishga imkon yaratadi. Shuningdek, u o‘quv jarayonini individuallashtirish, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv strategiyalar – talabalarga o‘z o‘rganish jarayonini kuzatish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z bilimini mustahkamlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu strategiyalar talabalarni ijodiy va tahliliy fikrlashga yo‘naltiradi, shuningdek, tilni samarali pedagogik vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlaydi [1; 4].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar – case-study, loyihaviy mashg‘ulotlar, differensial yondashuv – talabalarning lingvistik va metodik kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarni real pedagogik vaziyatlarga moslashish va tilni professional maqsadlarda ishlatishga o‘rgatadi [3; 7].

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar va AKT yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi. Talabalar til bilimlarini amaliyotda samarali qo‘llashga o‘rgandilar, ularning kommunikativ va metakognitiv ko‘nikmalari mustahkamlandi. Case-study va loyihaviy mashg‘ulotlar talabalarga real pedagogik vaziyatlarda tilni ishlatishga tayyorladi, bu esa pedagogik jarayonning samaradorligini oshirdi [2; 6].

Metakognitiv strategiyalar yordamida talabalar o‘z o‘rganish jarayonlarini tahlil qilishni, o‘z-o‘zini baholashni va til bilimlarini mustahkamlashni o‘rgandilar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning samarali strategiyasi texnologiyalarni kompleks tarzda qo‘llashdan iborat. Har bir texnologiya o‘ziga xos rol o‘ynaydi va ular bir-birini to‘ldiradi [4; 5; 7].

Shuningdek, pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, talabalar lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda, kommunikativ, ijodiy va tahliliy qobiliyatlarini ham rivojlantirishadi, bu esa ularni zamonaviy ta’lim muhitiga moslashish va professional faoliyatga tayyorlash imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. Uni shakllantirishda interaktiv metodlar, AKT, metakognitiv strategiyalar va innovatsion pedagogik texnologiyalar eng samarali vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat til nazariy bilimini oshirish, balki uni pedagogik vaziyatlarda amaliy qo‘llash, kommunikativ va metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini oshiradi, pedagogik jarayonning sifatini yaxshilaydi va ularni zamonaviy ta’lim tizimiga moslashishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, kompetensiya rivojlanishi talabalarni ijodiy, tahliliy va problemalarga yechim topish qobiliyatlarini mustahkamlaydi, bu esa ularning professional faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi [1; 3; 7].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. “Xalq so‘zi”, №28, 8.02.2017 yil.
3. O‘zbekiston Prezidentining «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni. “Xalq so‘zi”, 2020 yil, 2 mart.
4. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Geografiya tarixi. B., 2018. Durdona, 217 b.
5. Nazarov I.Q. Geografiya faning asosiy muammolari. Toshkent, “Muharrir”, 2013, 212
6. Richards, J.C., Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. London, Routledge, 2010.
7. Brown, H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson, 2014.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHDA BOLALARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

M.R. Rizoyeva, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson kapitali sifatiga, ayniqsa shaxsning yangicha va kreativ fikrlash kompetensiyalariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. XXI asr mehnat bozori tayyor bilim egasidan ko'ra, bilimni amaliy vaziyatda qo'llay oladigan, nostandart fikrlaydigan, tez moslashadigan va innovatsion yondashuvga ega shaxslarni talab qilmoqda. Shu jihatdan kreativ fikrlash "XXI asr kompetensiyalari" tizimida ustuvor o'rin egallaydi. Maktabgacha yosh davri tasavvur, obrazli tafakkur, assotsiativ fikrlash, emotsional-irodaviy jarayonlar faollashadigan senzitiv bosqich bo'lgani sababli kreativ fikrlashni aynan shu davrda rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat (rasm chizish, applikatsiya, loy/plastilin, badiiy konstruktorlik) bolalarning erkin ifodasi, obraz yaratishi va ijodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlovchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

MAQSAD: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonida bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik va psixologik dolzarbligini asoslash hamda amaliyotda uchrayotgan muammolar va ilmiy-metodik ehtiyojlarni tizimlashtirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlar va normativ-metodik manbalar tahlili, maktabgacha ta'lim amaliyotini kuzatish, pedagogik tahlil va umumlashtirish, muammolarni guruhlash hamda metodik ehtiyojlarni konseptual yondashuv asosida izohlash usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar natijasida tasviriy mashg'ulotlarda reproduktiv yondashuv (namuna ko'chirish)ning ustunligi, baholashning "natija"ga haddan ortiq yo'naltirilgani, tarbiyachilarning kreativ metodik kompetensiyasi yetarli emasligi, erkin tanlov imkoniyatlarining cheklanishi, rivojlantiruvchi muhit va resurslar tanqisligi, o'yin va integratsiya elementlarining sustligi, refleksiya bosqichining yetarli tashkil etilmasligi hamda kreativ fikrlashni baholash mezonlari (rubrika, diagnostika kartasi, indikatorlar)ning aniq tizimlashtirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi. Shuningdek, tasviriy faoliyat asosida kreativ fikrlashni rivojlantirishning komponentlarga tayangan (originallik, moslashuvchanlik, g'oyalar oqimi, detallashtirish, refleksiya) metodik mexanizmlarini algoritmlashtirish, ochiq ijodiy topshiriqlar va innovatsion metodlar bankini yaratish, hamda metodika samaradorligini tajriba-sinov va statistik tahlil orqali isbotlashga ehtiyoj mavjudligi belgilandi.

XULOSA: maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablari bilan uyg'un bo'lgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Muammoning yechimi sifatida tasviriy faoliyatni reproduktiv ko'rinishdan ijodiy-faol yondashuvga o'tkazish, erkin tanlov va psixologik xavfsiz muhit

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

yaratish, tarbiyachining fasilitatorlik rolini kuchaytirish, refleksiya va integratsiyani tizimli yo‘lga qo‘yish hamda kreativ fikrlashni indikatorlar asosida baholaydigan rubrika-diagnostika tizimini ishlab chiqish zarur.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, maktabgacha ta’lim, tasviriy faoliyat, senzitiv davr, ijodiy yondashuv, erkin tanlov, refleksiya, baholash mezonlari, rubrika, diagnostika.

АКТУАЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

М.Р. Ризоева, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях глобализации и цифровой трансформации развитие общества всё в большей степени зависит от качества человеческого капитала, особенно от способности личности мыслить по-новому и творчески. Рынок труда XXI века требует не столько носителей «готовых знаний», сколько людей, умеющих применять знания в практических ситуациях, нестандартно мыслить, быстро адаптироваться и демонстрировать инновационный подход. В этом контексте креативное мышление занимает приоритетное место в системе «компетенций XXI века». Дошкольный возраст рассматривается как сенситивный период, когда активизируются воображение, образное и ассоциативное мышление, эмоционально-волевые процессы, поэтому развитие креативного мышления именно на данном этапе имеет стратегическое значение. Изобразительная деятельность (рисование, аппликация, работа с глиной/пластилином, художественное конструирование) выступает эффективным педагогическим средством, поддерживающим свободное самовыражение, создание образов и творческую инициативу детей.

ЦЕЛЬ: обосновать социально-экономическую, педагогическую и психологическую актуальность развития креативного мышления у детей в процессе обучения изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях, а также систематизировать проблемы практики и научно-методические потребности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в рамках исследования использованы анализ научной литературы и нормативно-методических источников, наблюдение дошкольной практики, педагогический анализ и обобщение, группировка выявленных проблем, а также интерпретация методических потребностей на основе концептуального подхода.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: по итогам анализа выявлены следующие проблемы: доминирование репродуктивного подхода (копирование образца) на занятиях по изобразительной деятельности; чрезмерная ориентация оценивания на «результат»; недостаточная сформированность у воспитателей креативной

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

методической компетентности; ограниченность возможностей свободного выбора; дефицит развивающей среды и ресурсов; слабое использование игровых и интегративных элементов; недостаточная организация этапа рефлексии; отсутствие чётко систематизированных критериев оценки креативного мышления (рубрики, диагностические карты, индикаторы). Установлена также необходимость алгоритмизации методических механизмов развития креативного мышления на основе его компонентов (оригинальность, гибкость, беглость идей, детализация, рефлексия), создания банка открытых творческих заданий и инновационных методов, а также подтверждения эффективности методики посредством педагогического эксперимента и статистического анализа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие креативного мышления детей через изобразительную деятельность в дошкольном образовании является актуальной научно-практической задачей, соответствующей современным социально-экономическим требованиям. В качестве ключевых направлений решения обозначены: переход от репродуктивного формата к творчески-деятельностному подходу, обеспечение свободного выбора и психологически безопасной среды, усиление роли воспитателя как фасилитатора, системная организация рефлексии и интеграции, а также разработка рубрикатора и диагностической системы оценки креативного мышления на основе индикаторов.

Ключевые слова: креативное мышление, дошкольное образование, изобразительная деятельность, сенситивный период, творческий подход, свободный выбор, рефлексия, критерии оценивания, рубрика, диагностика.

THE RELEVANCE OF DEVELOPING CHILDREN'S CREATIVE THINKING IN TEACHING VISUAL ARTS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

M.R. Rizoyeva, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the context of globalization and digital transformation, societal development increasingly depends on the quality of human capital, particularly on an individual's ability to think innovatively and creatively. The 21st-century labor market requires not merely holders of "ready-made knowledge," but individuals capable of applying knowledge in practical situations, thinking unconventionally, adapting quickly, and demonstrating innovative approaches. In this regard, creative thinking occupies a priority position within the system of "21st-century competencies." Preschool age is considered a sensitive period characterized by the activation of imagination, figurative and associative thinking, as well as emotional-volitional processes. Therefore, developing creative thinking at this stage is of strategic importance. Visual arts activities (drawing, appliqué, clay/plasticine modeling, artistic construction) serve as effective pedagogical tools that support children's free expression, image creation, and creative initiative.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

AIM: to substantiate the socio-economic, pedagogical, and psychological relevance of developing children's creative thinking in the process of teaching visual arts in preschool educational organizations, and to systematize practical problems and scientific-methodological needs.

MATERIALS AND METHODS: the study employed analysis of scientific literature and normative-methodological sources, observation of preschool educational practice, pedagogical analysis and generalization, classification of identified problems, and interpretation of methodological needs based on a conceptual approach.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis revealed several issues: the dominance of a reproductive approach (copying a model) in visual arts classes; excessive focus on the "final result" in assessment; insufficient creative methodological competence of educators; limited opportunities for free choice; lack of a developing environment and resources; weak integration of play-based and interdisciplinary elements; insufficient organization of reflection stages; and the absence of clearly systematized criteria for assessing creative thinking (rubrics, diagnostic cards, indicators). The study also identified the need to algorithmize methodological mechanisms for developing creative thinking based on its components (originality, flexibility, fluency of ideas, elaboration, reflection), to create a bank of open-ended creative tasks and innovative methods, and to verify the effectiveness of the methodology through experimental research and statistical analysis.

CONCLUSION: the development of creative thinking through visual arts activities in preschool education represents a relevant scientific and practical task aligned with modern socio-economic demands. Key directions for addressing this issue include shifting from a reproductive to a creative-activity-based approach, ensuring free choice and a psychologically safe environment, strengthening the facilitator role of educators, systematically organizing reflection and integration processes, and developing a rubric-based diagnostic system for assessing creative thinking through specific indicators.

Keywords: creative thinking, preschool education, visual arts activities, sensitive period, creative approach, free choice, reflection, assessment criteria, rubric, diagnostics.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyoti nafaqat resurslarga, balki inson kapitalining sifatiga, ayniqsa, shaxsning yangicha fikrlash qobiliyati, innovatsion yondashuvi hamda muammolarga kreativ yechim topa olish kompetensiyalariga bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. XXI asrda iqtisodiyotning rivojlanishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining modernizatsiyalashuvi, sun’iy intellekt va axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi natijasida mehnat bozorida faqat tayyor bilimga ega bo‘lgan emas, balki o‘z bilimini amaliy vaziyatlarda qo‘llay oladigan, nostandart fikrlaydigan, tez moslashadigan va ijodiy yondashuvga ega shaxslar talab qilinmoqda. Demak, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shaxsning kreativ fikrlashi zamonaviy davrning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan biri

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

sifatida shakllanmoqda. Kreativ fikrlash bugungi kunda “XXI asr kompetensiyalari” tizimida alohida ustuvor o‘rin egallaydi. Chunki kreativ fikrlash shaxsga turli vaziyatlarda muammoli masalalarni hal qilish, yangi g‘oya yaratish, imkoniyatlarni ko‘ra bilish, tanlov qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi. Bunday kompetensiyalar nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotiy tajriba, kasbiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarda ham yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan, kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari uchun dolzarb bo‘lib, uning eng boshlang‘ich va poydevor bosqichi hisoblangan maktabgacha ta’limda shakllantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri shaxsning kognitiv rivojlanishi, tasavvur va obrazli tafakkuri faollashadigan, nutqi shakllanadigan hamda erkin ifoda, qiziquvchanlik, tajribaga intilish kabi kreativ salohiyatning tabiiy manbalari kuchli namoyon bo‘ladigan “senzitiv davr” sifatida qaraladi. Aynan shu davrda bola yangilikka ochiq bo‘ladi, atrof-muhitni faol o‘rganadi, predmet va hodisalarga boshqacha qarashga intiladi hamda o‘z fikrini ko‘proq obrazlar orqali ifodalaydi. Ushbu psixologik xususiyatlar maktabgacha yoshda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun eng qulay sharoit mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, kreativ fikrlashni aynan maktabgacha ta’lim bosqichida rivojlantirish kelgusida shaxsning intellektual va ijtimoiy faolligini oshiruvchi strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.
Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar ham tubdan o‘zgarmoqda. Bugungi jamiyatda shaxsdan faqat “tayyor bilimni bilish” emas, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi vaziyatlarga moslashish, o‘z fikrini erkin ifoda etish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish kabi ko‘nikmalar talab etiladi. Bu esa ta’lim jarayonida rivojlantiriladigan kompetensiyalarning mazmuni va metodikasini yangilashni taqozo etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni faqat reproduktiv faoliyat (namuna ko‘chirish, bir xil mashqlar) asosida emas, balki kreativ yondashuvga tayanib tashkil etish ehtiyoji ortib bormoqda.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi ijtimoiy jihatdan ham dolzarbdir. Kreativ fikrlovchi shaxs ijtimoiy hayotda faol, muloqotga kirishuvchan, tashabbuskor va mustaqil bo‘lishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali ularda o‘ziga ishonch, shaxsiy fikrni himoya qilish, hamkorlikda ishlash, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalar ham shakllanadi. Bu esa kelgusida jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, tashabbuskor va zamon talablariga mos shaxsni tarbiyalash imkonini beradi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning iqtisodiy dolzarbligi shundan iboratki, innovatsion iqtisodiyot va raqobat muhitida yangi g‘oya va yangicha yondashuvlar asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Har qanday taraqqiy etgan davlatning asosiy boyligi ijodkor va kreativ fikrlovchi inson resursi hisoblanadi. Shu ma’noda, bolalarda kreativ fikrlashni erta yoshdan rivojlantirish kelgusida mamlakatning intellektual salohiyati va raqobatbardoshligini oshiradigan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, maktabgacha ta’lim bosqichidayoq kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish va tajriba-sinov asosida takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

dunyoda “kreativ industriya” (dizayn, san’at, media, texnologik ijod)ning rivojlanishi kreativlik va estetik tafakkurga ega shaxsga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Mazkur tendensiya tasviriy faoliyatning maktabgacha ta’limdagi o‘rnini yanada oshiradi, chunki tasviriy faoliyat bolalarda badiiy did, estetik idrok, obrazli fikrlash hamda kreativ ifodani shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bola nafaqat rasm chizadi yoki buyum yasaydi, balki fikrlaydi, tasavvur qiladi, tanlaydi, o‘z g‘oyasini ifodalaydi va uni rivojlantiradi. Bu esa kreativ fikrlashning poydevorini mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, emotsional-irodaviy, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayonining uzviyligi va tizimliligi orqali ta’minlanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim amaliyotida pedagogik jarayonni faqat ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish bilan cheklab bo‘lmaydi. Aksincha, tarbiya (shaxsiy sifatlarni shakllantirish), rivojlantirish (psixik jarayonlar va qobiliyatlarni o‘stirish) hamda ta’lim (o‘qitish va o‘rgatish) birligi asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bola shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘z navbatida bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasining pedagogik dolzarbligini belgilab beradi. Pedagogika nuqtayi nazaridan kreativ fikrlash shaxsning muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topa olish, yangicha g‘oyalar ishlab chiqish, fikrlash moslashuvchanligini namoyon etish hamda o‘z fikrini erkin ifodalash kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim sifat hisoblanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish esa maktabgacha yoshdagi bolalarda faqat intellektual faollikni oshirish bilan cheklanmay, balki ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘ziga ishonch, muloqot madaniyati, estetik did va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarni ham tarkib toptiradi. Demak, kreativ fikrlashni rivojlantirish – tarbiya, rivojlantirish va ta’limning kompleks birligini ta’minlovchi pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat (rasm chizish, applikatsiya, loy/plastilin bilan ishlash, badiiy konstruktorlik) pedagogik jihatdan o‘ziga xos imkoniyatlarga ega bo‘lib, u bolani erkin fikrlashga, obraz yaratishga, tasavvurni boyitishga va o‘z g‘oyasini badiiy vositalar orqali ifodalashga yo‘naltiradi. Tasviriy faoliyat mazmunan bolaning sezgi-idroki, tasavvuri va tafakkuri bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli u kreativ fikrlashning tabiiy rivojlanish maydoniga aylanadi. Bola tasviriy faoliyat jarayonida nafaqat biror predmetni chizadi, balki uning shakli, rangi, o‘lchami, joylashuvi, ifoda vositalari haqida o‘ylaydi, turli variantlarni sinab ko‘radi va o‘z g‘oyasini amaliy natijaga aylantiradi. Bu jarayon pedagogik nuqtayi nazardan bolaning kreativ fikrlash komponentlarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, tasviriy faoliyat bolalar tarbiyasida ham alohida o‘rin tutadi. Chunki u bolalarda badiiy-estetik qarashlarni, go‘zallikni his etish, ijodiy tashabbus, mehnatsevarlik, sabr-toqat, ishni oxiriga yetkazish kabi tarbiyaviy sifatlarni shakllantiradi. Pedagogik jarayonning tarbiyaviy jihati aynan tasviriy faoliyatda yaqqol namoyon bo‘ladi: bola o‘z ishini e’tibor bilan bajaradi, o‘ziga mas’uliyat oladi, kompozitsiyani yakunlashga intiladi va natijadan ruhiy qoniqish hosil qiladi. Demak, kreativ fikrlashni tasviriy faoliyat asosida rivojlantirish tarbiyaviy jarayonni ham kuchaytiradi. Pedagogik dolzarblikning yana bir muhim jihati shundaki, maktabgacha ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

rivojlantirish faqat “maqsad” sifatida emas, balki ta’limning barcha tarkibiy qismlarini yangilovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlar reproduktiv o‘qitishdan (namuna ko‘chirish, bir xil topshiriqlar) ko‘ra, ijodiy-faol yondashuv (tanlov, muammo, o‘yin, integratsiya, refleksiya)ni ustuvor deb hisoblaydi. Bunda bola o‘quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. Aynan shu nuqtayi nazardan, kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik ta’minot pedagogik jarayonning mazmun va shakllarini yangilashda muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’limda pedagogik dolzarblikni belgilovchi yana bir omil – tarbiyachining professional kompetensiyasiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarning oshib borishidir. Xususan, maktabgacha ta’lim amaliyotida tarbiyachi bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, jarayonni rejalashtiruvchi va tashkil etuvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozimligi ta’kidlanadi [2]. Bu holat tarbiyachidan kreativ fikrlashni shakllantiruvchi metodlarni bilish, ochiq va muammoli topshiriqlarni tuzish, ijodiy muhit yaratish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda refleksiv baholashni qo‘llash kabi pedagogik kompetensiyalarni talab qiladi. Shunday ekan, kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish pedagogik jarayonning sifatini oshirish, tarbiyachi faoliyatini takomillashtirish va ta’lim natijadorligini ta’minlash uchun muhim zarurat hisoblanadi.

Bundan tashqari, pedagogik nuqtayi nazardan kreativ fikrlashni rivojlantirish muammosi ta’lim jarayonida “sifat” va “natija” masalasiga ham bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda ta’lim sifati faqat bolaga berilgan bilimlar miqdori bilan emas, balki uning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga moslashishi, yangi g‘oyalarni yaratishi va ijodiy faoliyatga kirisha olishi bilan baholanmoqda. Shu jihatdan, tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonida bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish pedagogik jarayonning natijadorlik mezonlarini kengaytiradi va ta’lim samaradorligini yuqori darajaga ko‘taradi. Maktabgacha ta’lim tizimida tarbiya, rivojlantirish va ta’limning uzviy birligi bolalar shaxsini har tomonlama kamol toptirishning asosiy sharti bo‘lib, kreativ fikrlashni rivojlantirish ushbu birlikni ta’minlovchi muhim pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Tasviriy faoliyat esa bolalarning obrazli tafakkuri, tasavvuri, erkin ifodasi va ijodiy tashabbusiga mos bo‘lganligi sababli kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davri bolalar psixik rivojlanishining eng faol va muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, ushbu davrda bolaning bilish jarayonlari (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq), emotsional-irodaviy sohalari hamda ijodiy qobiliyatlari jadal shakllanadi. Psixologiya fanida maktabgacha yosh davri shaxsiy rivojlanish uchun “poydevor bosqichi” sifatida e’tirof etilib, aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol o‘rganishi, yangi tajribalar to‘plashi, tasavvur va obrazli tafakkur imkoniyatlarini kengaytirishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi, xususan tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish muammosi psixologik jihatdan yuqori darajada dolzarb hisoblanadi. Kreativ fikrlashning shakllanishida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari asosiy omil

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yosh davrida bola ko‘proq obrazlar orqali fikrlaydi, uning tafakkuri abstrakt-mantiqiy ko‘rinishdan ko‘ra obrazli va predmetli xarakterda bo‘ladi. Obrazli tafakkur bolaning predmet va hodisalarni vizual tasvirlar, rang va shakllar, o‘yin syujetlari orqali anglashiga xizmat qiladi. Shu bois tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishiga bevosita mos keladigan faoliyat turi bo‘lib, u kreativ fikrlash uchun tabiiy rivojlanish maydonini yaratadi. Bola rasm chizish jarayonida shunchaki predmetni tasvirlamaydi, balki u haqida fikrlaydi, uni qayta talqin qiladi, yangi obraz yaratadi va o‘z dunyoqarashini badiiy ifoda orqali namoyon etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashning psixologik mexanizmlaridan biri – tasavvur (fantaziya)ning yuqori faolligidir. Tasavvur bolaga mavjud bo‘lmagan obrazlarni ongida yaratish, real predmetlarni yangicha ko‘rish, ularni qayta kombinatsiyalash va yangi syujetlar ishlab chiqish imkonini beradi. Aynan tasavvur bolaning kreativ fikrlash jarayonida g‘oya “manbai” bo‘lib xizmat qiladi. Tasviriy faoliyatda tasavvur shunday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: bola oddiy shakldan turli obrazlar yaratadi, predmetni o‘zgacha rangda tasvirlaydi, ertakona syujetlarni chizadi, real hayotni fantaziya bilan uyg‘unlashtiradi. Demak, tasavvur bolaning kreativ fikrlashini faollashtiruvchi psixologik resurs sifatida ayniqsa maktabgacha yoshda yuqori ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlashning rivojlanishida assotsiativ fikrlash ham muhim psixologik omil hisoblanadi. Assotsiatsiya bolaning ongida predmet va hodisalar o‘rtasida noodatiy bog‘lanishlar hosil qilishiga, o‘xshatish va analogiyalar yaratishiga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda assotsiatsiya juda tez va erkin yuzaga keladi: ular doirani quyoshga, bulutni paxtaga, daraxtni “katta qo‘l”ga o‘xshatishi mumkin. Bu jarayon kreativ fikrlashning original g‘oya yaratish qobiliyatini kuchaytiradi. Tasviriy faoliyat jarayonida assotsiatsiya bolaga shakl va ranglardan yangi ma’no yaratish, kompozitsiyani boshqacha talqin qilish hamda ijodiy o‘ziga xoslikni namoyon etish imkonini beradi.

systematically introduce the spiritual heritage of the new enlighteners into the content of preschool education, develop methodological recommendations for educators, and expand scientific and practical research in this area.

Keywords: preschool education, children's worldview, new enlighteners, spiritual heritage, pedagogical methods, education, scientific content.

Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirish ularning fikrlash, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Jadid ma'rifatparvarlari o'z pedagogik faoliyatida ilm, ma'rifat va tarbiyaga katta e'tibor qaratgan, yosh avlodni erkin fikrlaydigan, bilimga chanqoq va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan. Ularning pedagogik merosida ertaklar, hikoyalar, ilmiy-ommabop maqolalar va suhbatlar orqali tarbiya berish usullari o'ta dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, jadidlar bolalarning o'zligini anglash, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga urg'u bergan. Shu jihatdan, ularning g'oyalari bugungi maktabgacha ta'lim tizimida bolalarga dunyoqarashni shakllantirishda asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Jadid ma'rifatparvarlarining merosidan foydalanishda metodik yondashuvlarni bir nechta asosiy yo'nalishda ko'rish mumkin:

Tarbiyaviy suhbatlar va ertaklar — bolalarga axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni o'rgatishda samarali vosita hisoblanadi.

O'yin faoliyati — u orqali bolalar ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradi, muammolarni hal qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy materiallardan foydalanish — hikoyalar, maqolalar va ertaklar bolalarda bilimga qiziqish, tafakkur va diqqatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rasm va amaliy mashg'ulotlar — bolalarga tarixiy va madaniy qadriyatlarni vizual tarzda tushuntirishga yordam beradi.

Bu metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan holda qo'llanilganda eng yuqori pedagogik samarani beradi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatparvarlari merosini maktabgacha ta'lim jarayoniga quyidagi yo'llar bilan tatbiq etish mumkin:

Mashg'ulotlar dasturiga ertaklar va hikoyalarni muntazam kiritish.

Bolalar bilan suhbat va muloqot jarayonida axloqiy qadriyatlarni misol orqali tushuntirish.

O'yin va ijodiy faoliyat orqali tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish.

Milliy ma'naviy merosga oid vizual materiallardan foydalanish, masalan, rasm, qo'lyozma va she'riy matnlar.

Shu yo'l bilan bolalar dunyoqarashi kengayadi, ular milliy qadriyatlarni anglaydi, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosidan foydalanish nafaqat an'anaviy metodlar orqali, balki zamonaviy yondashuvlar bilan ham boyitilishi mumkin, jumladan, raqamli vositalardan foydalanish orqali interaktiv ertaklar,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qisqa animatsiyalar va illyustratsiyalar yordamida bolalarga tarixiy va ma'naviy qadriyatlarni yetkazish, shuningdek, kognitiv va hissiy rivojlanishni uyg'unlashtirgan mashg'ulotlar tashkil etish — masalan, ertak tinglash, rasm chizish va kichik dramatik sahna orqali, bolalarning tafakkuri va hissiyotlarini bir vaqtda rivojlantiradi, oilaviy integratsiya orqali esa bolalar uyda ota-onalar bilan birga tarixiy voqealarni, ma'naviy hikmatlarni o'yin va suhbat orqali singdirishi mumkin, shuningdek, shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali har bir bolaning qiziqishi, temperament va rivojlanish darajasiga mos metodlar tanlanadi, masalan, ijodiy bolalarga she'riy ertaklar, faol bolalarga dramatizatsiya va o'yin mashg'ulotlari beriladi, madaniyatlararo ta'lim yordamida esa jadidlar g'oyalari asosida boshqa xalqlar tarixi va qadriyatlarini solishtirish orqali bolalarda keng dunyoqarash, hurmat va hamkorlik hissi rivojlantiriladi, shuningdek, ilmiy-izlanish va kuzatish metodlari bilan mashg'ulotlarning samaradorligi baholanadi, masalan, mashg'ulotdan oldin va keyin qisqa interaktiv testlar, rasm yoki hikoya orqali o'zlashtirish darajasi aniqlanadi va nihoyat, axborot va tarixiy merosni uyg'unlashtirish orqali jadidlarning asarlari bugungi vizual va interaktiv resurslar bilan birlashtiriladi, bu esa bolalar dunyoqarashini kengaytiradi, o'qish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalashda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosidan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, nazariy va empirik tadqiqot usullarini uyg'unlashtirishga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy qismi doirasida jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik va ma'naviy-meroslari, ularning asarlari, davriy nashrlardagi maqolalari va ilmiy adabiyotlari tahlil qilindi, shuningdek, maktabgacha ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari va o'quv-metodik qo'llanmalar o'rganildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, suhbatlar, amaliy mashg'ulotlarni o'rganish, bolalar faoliyatini tahlil qilish, shuningdek ilg'or pedagogik tajribalarni sistematik o'rganish qo'llanildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaev, N. (2003). Jadidlar pedagogikasi va bolalarga ta'lim-tarbiya. Toshkent: Fan.
2. Mirzayev, T. (2010). Jadid ma'rifatparvarlari va ularning ta'limiy merosi. Toshkent: O'zbekiston.
3. Karimov, R. (2015). Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlar. Toshkent: Ta'lim.
4. Sobirov, A. (2018). Jadidlar pedagogik g'oyalari va zamonaviy ta'lim. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Qodirov, M. (2020). Bolalar dunyoqarashi va pedagogik metodlar. Toshkent: Ma'rifat.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va Davlat ta'lim standartlari (2021). Toshkent: Ta'lim vazirligi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

7. Akramov, S. (2012). Jadidlar merosi va milliy ma'naviyatni rivojlantirish. Toshkent: Ilm.
8. Karomatov, H. (2017). Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogik metodika. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

EKOLOGIK TA'LIMNING TALABALARDA EKOTURISTIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI NAZARIY ASOSLARI

Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich, Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi, Namangan, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: ekologik ta'lim talabalarda tabiatga mas'uliyatli munosabat va barqaror rivojlanish g'oyalarini turizm amaliyoti bilan uyg'unlashtirishning muhim omilidir.

MAQSAD: ekoturistik madaniyatni shakllantirishning konseptual komponentlarini aniqlash va uning metodologik yo'nalishlarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy manbalar nazariy tahlil qilindi; analitik va komparativ yondashuvlar orqali ekologik bilimlarni turizm amaliyoti bilan integratsiyalash mexanizmlari umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ekologik ta'lim bilim–qadriyat–xulq birligini shakllantirib, barqaror turizm kompetensiyalarini rivojlantiradi. Loyiha va amaliy faoliyatlar ekologik mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

XULOSA: tizimli va amaliy yo'naltirilgan ekologik ta'lim talabalarda ekoturistik madaniyatni va barqaror turizmga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, ekoturistik madaniyat, talabalar, barqaror rivojlanish, ekologik ong, turizm ta'limi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ В РАМКАХ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Камолов Бахтиёр Хасанбоевич, исследователь Наманганского государственного университета, Наманган, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: экологическое образование способствует формированию ответственного отношения к природе и устойчивых туристских ценностей.

ЦЕЛЬ: определить концептуальные компоненты формирования экотуристической культуры и её методологические ориентиры.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведен теоретический анализ источников; использованы аналитический и сравнительный подходы для обобщения механизмов интеграции знаний и практики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: экологическое образование формирует единство знаний, ценностей и поведения, развивая компетенции устойчивого туризма. Практико-ориентированные формы обучения усиливают экологическую ответственность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системная организация экологического образования обеспечивает формирование экотуристической культуры и устойчивой мотивации к природоохранной деятельности.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Ключевые слова: экологическое образование, экотуристическая культура, студенты, устойчивое развитие, экологическое сознание, туристское образование.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ECOTOURISM CULTURE AMONG STUDENTS THROUGH ENVIRONMENTAL EDUCATION

Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich, Researcher at Namangan State University, Namangan, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: environmental education fosters responsible attitudes toward nature and supports sustainable tourism principles.

AIM: to identify conceptual components and methodological directions for developing ecotourism culture.

MATERIALS AND METHODS: a theoretical review was conducted; analytical and comparative approaches were applied to systematize integration mechanisms.

DISCUSSION AND RESULTS: environmental education links knowledge, values, and behavior, strengthening sustainable tourism competencies. Practice-oriented activities enhance responsible decision-making skills.

CONCLUSION: systematic and practice-based environmental education supports the development of ecotourism culture and sustainable responsibility.

Keywords: environmental education, ecotourism culture, students, sustainable development, environmental awareness, tourism education.

Ekologik ta’lim bugungi kunda global ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarida markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat talabalarning atrof-muhit bilan uyg‘unlashgan ongini shakllantirish, balki barqaror turizm madaniyatini rivojlantirishning ham nazariy va amaliy asosini tashkil qiladi. Ekoturizmning barqaror rivojlanish konsepsiyasi dunyo miqyosida ekologik ong va madaniyatning muhim ko‘rsatkichlari sifatida e’tirof etilgan[1]. Shu nuqtai nazardan, talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirish jarayoni ekologik ta’lim va tarbiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning ijtimoiy, intellektual va ma’naviy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ekologik ta’limning nazariy asoslari turli fanlar – ekologiya, pedagogika, turizmshunoslik, sotsiologiya va psixologiya orqali izohlanadi[2]. Talabalarda ekologik ongni shakllantirish, ularni atrof-muhit bilan uyg‘unlikda yashashga o‘rgatish va turizm faoliyati orqali amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, ekoturistik madaniyat talabalarda nafaqat tabiatni asrashga, balki mahalliy madaniy merosni hurmat qilish va uning rivojiga hissa qo‘shishga ham undaydi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyat bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar bo‘lib, ular o‘quvchilarda mas’uliyatli va barqaror turizm xatti-harakatlarini shakllantirishga yordam beradi[3]. Masalan, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida quyidagi elementlar muhimdir: ekologik bilimlar va tushunchalar,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ekologik faoliyatga motivatsiya, barqaror turizm amaliyoti va atrof-muhitni muhofaza qilish ko‘nikmalari. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta’lim tizimi talabalarni nafaqat nazariy bilim bilan ta’minlash, balki ularni amaliy turizm faoliyatiga jalb etish orqali ularning ekologik madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishning muhim nazariy masalalaridan biri uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini integratsiyalashdir[4]. Barqaror turizmning samarali rivojlanishi ekologik resurslarni asrash, mahalliy aholi hayotini yaxshilash va talabalarda mas’uliyatli turizm xulq-atvorini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, ekologik ta’limning metodologik yondashuvlari talabalarda analitik fikrlash, ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirish jarayoni psixologik va pedagogik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Talabalar ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar qo‘llaniladi. Masalan, interaktiv mashg‘ulotlar, loyiha asosida o‘qitish, ekologik ekskursiyalar va amaliy treninglar orqali talabalarda ekologik ong va mas’uliyatli turizm madaniyati rivojlantiriladi[5]. Shu tarzda, ekologik ta’lim va tarbiya talabalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy mas’uliyat, tabiatni asrash va mahalliy madaniyatni hurmat qilish qadriyatlarini ham shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limni samarali tashkil etish talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishning eng muhim omili hisoblanadi. Bu jarayon talabalarda ekologik bilimlar tizimini mustahkamlash, ekologik qaror qabul qilish va amaliy turizm faoliyatini amalga oshirishga tayyorlash orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyat integratsiyasi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarni birlashtiradi, talabalarda barqaror turizm amaliyotlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili: Ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha nazariy asoslarni tadqiq etishda chet el olimlarining ilmiy ishlarining roli muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bu ikki kontseptning o‘zaro integratsiyasini turli nuqtai nazarlardan izohlashadi. Masalan, Fernando Ramírez va Josefina Santana tomonidan tayyorlangan “Environmental Education and Ecotourism” asari ekologik ta’lim va ekoturizmning fundamental printsiplari hamda ularning barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lida qanday uyg‘unlashishi kerakligini nazariy jihatdan yoritadi[6]. Ularning nazariyasi bo‘yicha, ekologik ta’lim ekoturizmning barqaror amaliyotini shakllantirishda bilim, qadriyat va xatti-harakatlar tizimini birlashtiruvchi baza vazifasini o‘taydi. Shu bilan birga, bu asar ekologik ta’lim orqali talabalarda tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy mas’uliyat va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan nazariy yondashuvlarni taklif qiladi, hamda ekoturistik madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, xalqaro adabiyotlarda Dian Aswita tomonidan olib borilgan “Environmental Education and Ecotourism for Sustainable Life: Literature Study” tadqiqoti ekologik ta’lim va ekoturizm o‘rtasidagi nazariy va amaliy bog‘liqlikni keng qamrovli adabiyot tahlili asosida ko‘rsatadi. Aswita ekologik bilimlarning insonlarning atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish, turizmda mas’uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish hamda ekoturistik amaliyotlarga psixologik tayyorgarlikni yaxshilashdagi rolini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqot

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim darajasi o‘sib borganda, yoshlar orasida ekologik bilim, xatti-harakat va turizmga bo‘lgan ijobiy munosabatlar mustahkamlanadi, bu esa ekoturistik madaniyatni shakllantirishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi[7]. Shuningdek, chet el ilmiy adabiyotlarida ekologik madaniyat va ekoturizmning pedagogik jihatlari ham alohida diqqat markazida turadi. Masalan, boshqa mualliflarning tadqiqotlari ekologik ta’lim orqali pro-ekologik qadriyatlar, barqaror turizm tamoyillari va jamiyatda ekologik mas’uliyatni oshirishning pedagogik mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. Bu yondashuvlar, talabalarda nafaqat ekologik bilimlarni oshirish, balki ekoturistik madaniyatni ichkilashtirish orqali ularning barqaror turizm amaliyotlariga tayyorligini mustahkamlashga yordam beradi, va shu tariqa ularni tabiat muhofazasiga jalb etadi.

Metodologik qism: Mazkur tadqiqotda talabalarda ekologik ta’lim orqali ekoturistik madaniyatni shakllantirish jarayonini o‘rganishda bir qator zamonaviy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi ekologik ongni shakllantirish, barqaror turizm xatti-harakatlarini rivojlantirish va amaliy ekoturizm ko‘nikmalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvga asoslandi. Shu kontekstda, avvalo analitik metod qo‘llanilib, ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyat bo‘yicha mavjud nazariy va amaliy adabiyotlar tizimli tarzda tahlil qilindi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va talabalarga ta’siri aniqlashtirildi. Shuningdek, so‘rovnomalar va intervyular metodlari yordamida talabalar orasida ekologik bilim, qadriyat va turizmga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganish imkoniyati yaratildi. Ushbu metodlar talabalarning ekoturistik madaniyat darajasini aniqlash va ularning ekologik xatti-harakatlarini baholashga xizmat qildi. Tadqiqotda ekologik ta’limning amaliy samaradorligini baholash maqsadida eksperimental metod qo‘llanildi, bunda talabalar turli ekologik va turistik vazifalarni bajarish orqali ekologik bilim va barqaror turizm xulqini rivojlantirdilar. Bundan tashqari, komparativ metod tadqiqotning muhim qismi bo‘lib, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirishning samarali strategiyalari solishtirildi. Shu yo‘l bilan, talabalar ekologik ongni amaliy faoliyat orqali shakllantirish, mahalliy tabiiy resurslarni asrash va barqaror turizm madaniyatini o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ldilar. Metodologik yondashuv doirasida loyiha asosida o‘qitish metodikasi ham qo‘llanildi, ya’ni talabalar ekologik tadbirlar, ekskursiyalar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali ekologik bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga jalb qilindi. Bu metod pedagogik jarayonni nazariy bilim va amaliy faoliyatni integratsiyalashgan holda tashkil etish imkonini berdi, shuningdek talabalarda ekologik va turistik madaniyatni uzviy rivojlantirishga xizmat qildi. Shu tarzda, tadqiqot metodologiyasi talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan kompleks tarzda o‘rganishga imkon yaratdi. Qo‘llangan metodlar – analitik, eksperimental, so‘rovnomalar va intervyular, komparativ va loyiha asosidagi o‘qitish – birgalikda ekologik ta’lim va barqaror turizm amaliyotlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash va talabalarda ekoturistik madaniyatni samarali shakllantirishga xizmat qildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik ta’limni tizimli va amaliy yondashuvlar orqali talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirish samarali bo‘ldi; eksperimental mashg‘ulotlar va loyiha asosida o‘qitish metodlari orqali ekologik bilimlar, barqaror turizm xatti-harakatlari va atrof-muhitga nisbatan ijobiy qadriyatlar sezilarli

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

darajada mustahkamlandi, so‘rovnomalar va intervyular natijalari ekologik ong darajasi va turizmga bo‘lgan ijobiy munosabatlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi, shuningdek, komparativ tahlil rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirganda, talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning eng samarali strategiyalari – amaliy ekskursiyalar, interaktiv mashg‘ulotlar va loyiha asosida o‘qitish orqali amalga oshirilishini tasdiqladi, natijada, talabalarda barqaror turizmga tayyorgarlik, ekologik mas’uliyat va mahalliy madaniyatga hurmat hissi rivojlandi hamda ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyat o‘rtasidagi uzviy integratsiya samarali pedagogik vosita sifatida aniqlandi.

Muxokama: Ekologik ta’lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha ilmiy muhokamada olimlar orasida nazariy yondashuvlar jihatidan farqli qarashlar ham mavjud. Masalan, Fernando Ramírez va Josefina Santana ekologik ta’limni ekoturizmning asosiy poydevori deb hisoblaydi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, ekologik ta’lim faqat bilim berishdan iborat bo‘lmay, balki talabalarda ekologik qadriyatlar, tabiiy resurslarga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat va barqaror turizm xatti-harakatlarini shakllantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Ramírez va Santana ekologik ta’limni qator holatlarda ekoturistik amaliyot bilan integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi, chunki bu yondashuv talabalarni atrof-muhit bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lishga undaydi va ularning ekologik ongini chuqurlashtiradi. Ularning tadqiqotida ekologik bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvor uchligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asosiy e’tibor nuqtasidir, bu esa barqaror rivojlanish paradigmasi doirasida ekoturistik madaniyatni shakllantirishda innovatsion yondashuv sifatida qaraladi. Boshqa tomondan, Dian Aswita ekologik ta’limning amaliy ta’siri hamda ekoturistik madaniyatni shakllantirishdagi psixologik jarayonlarni alohida urg‘ulaydi. Aswita ta’lim jarayonida ekologik bilimlarni talabalarga yetkazishdan tashqari, ularni ekologik tajriba orttirishga yo‘naltirish va bu jarayonda ijtimoiy transformatsiya elementlarini kuchaytirishga e’tibor qaratadi[8]. Uning fikricha, ekoturistik madaniyatni shakllantirish uchun talabalarni faqat ma’ruza va nazariy bilim bilan ta’minlash yetarli emas; balki pedagogik jarayon ularni tabiat bilan mustahkam shaxsiy aloqaga jalb etadigan tajribaviy faoliyat bilan boyitilishi lozim. Aswita ekologik ta’limni psixologik kontekstda tahlil qilgan holda yoshlarning xulq-atvor va qaror qabul qilish jarayonlaridagi o‘zgarishlarni o‘rganadi, bunda ijtimoiy motivatsiya, ekologik identifikatsiya va shaxsiy mas’uliyat hissi integratsiyalashgan holda muhim rol o‘ynaydi. Bu ikki olim munozarasida asosiy farq shundaki, Ramírez va Santana ekologik ta’limni ko‘proq pedagogik struktura va ekoturizmning nazariy asoslari bilan bog‘liq tizimli model sifatida tushunsa, Aswita ekologik ta’limning psixologik va tajribaviy komponentlariga ko‘proq urg‘u beradi[9]. Natijada, birinchi yondashuv ekologik bilimlar majmuasini tizimli va kompleks tarzda o‘rgatishga urg‘u bersa, ikkinchi yondashuv bu bilimlarni talabalarning xulq-atvor va shaxsiy tajribalariga qanday tatbiq etilishi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Shu bilan birga, ikki yondashuvning ham umumiy maqsadi barqaror turizm madaniyatini shakllantirish bo‘lib, ular o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshilik yo‘q, balki komplementar munosabat mavjud. Ramírez va Santana tomonidan ta’kidlangan tizimli pedagogik model ekologik bilim va qadriyatlarni konseptual asosda mustahkamlash imkonini beradi, holbuki Aswita tomonidan ilgari surilgan psixologik yondashuv bu bilimlarni real hayotiy tajriba orqali mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Bu ikki yondashuvning

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

birlashtirilgan modeli ekologik ta'lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirish jarayonini nazariy jihatdan boyitadi hamda talabalarda barqaror turizm madaniyatining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shunday qilib, ekologik ta'lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirish bo'yicha Ramírez, Santana va Aswita nazariyalarining integratsiyalashgan yondashuvi – bu sohada kompleks va samarali pedagogik strategiyani yaratish uchun muhim nazariy poydevor hisoblanadi[10]. Ularning qarashlari yoritadigan murakkab bog'liqliklar, ekologik ong, shaxsiy tajriba va barqaror turizm tamoyillarining talabalarda shakllanishi uchun nazariy asoslarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'lim talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishda asosiy nazariy va amaliy poydevor vazifasini o'taydi. Tadqiqot natijalari ekologik bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvorni integratsiyalash orqali talabalarda barqaror turizmga tayyorgarlik va ekologik mas'uliyatni rivojlantirish mumkinligini tasdiqladi. Analitik, eksperimental, so'rovnomalar, intervyular, komparativ va loyiha asosidagi o'qitish metodlari birgalikda talabalarda ekologik ong va ekoturistik madaniyatni uzviy shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, chet el olimlari Ramírez, Santana va Aswita nazariyalari asosida ekologik ta'lim va ekoturistik madaniyatni shakllantirish jarayonida nazariy va psixologik komponentlarning uzviy integratsiyasi muhimligi aniqlanib, talabalarda ekologik qadriyatlar va barqaror turizm amaliyotlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar qo'llanishi tavsiya etildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'lim orqali talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirish nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy mas'uliyat, tabiatni asrash va mahalliy madaniyatni hurmat qilish qadriyatlarini ham mustahkamlashga imkon beradi. Natijada, ekologik ta'lim va ekoturistik madaniyatni integratsiyalashgan shaklda rivojlantirish pedagogik va amaliy sohalarda samarali strategiya bo'lib, u talabalarda barqaror turizmga tayyorgarlikni, ekologik ongni va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish orqali jamiyatda ekologik madaniyatni kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Nig'matov A., Shomurotova N. Ekoturizm asoslari //O'quv. – 2007.
2. Shohbozbek, E. (2025). Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth. Maulana, 1(1), 29-35.
3. Boyatov O., Solijonov O. Ekoturizm va yashil ta'lim orqali barqaror kelajak sari //Shokh Articles Library. – 2025. – T. 1. – №. 2.
4. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). The role of preschool education in spiritual and moral values in uzbekistan. Global Science Review, 3(2), 246-253.
5. Baxtiyorova D. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro modellarni qo'llash yo'llari //conference on the role and importance of science in the modern world. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 84-87.
6. Ergashbayev, S. (2025). Philosophical foundations of the integration of education and upbringing in the development of youth's spiritual outlook. Shokh library, 1(10).

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

7. Umronov E. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 6. – С. 101-107.
8. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Forming the spiritual worldview of youth in pre-school education in our republic. Global Science Review, 4(5), 221-228.
9. Toshev N. Mintaqada turizmni rivojlantirishda aglomeratsiyani optimal joylashtirishning dolzarbligi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 51-54.
10. Ергашбаев, Ш. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

BIOMIMIKA VA BIOINSPIRATSION MODELLASHTIRISHNING MOHIYATI HAMDA UNDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Kenjayev Sherzod Mammatjumayevich – Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, Urganch, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: ta'limni barqaror rivojlantirish sharoitida biomimika va bioinspiratsiya tabiiy tizimlar tamoyillarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali muammoga yo'naltirilgan va loyiha asosidagi faoliyatni kuchaytiradi.

MAQSAD: biomimika va bioinspiratsiya tushunchalarini aniqlashtirish, ularning farqlarini asoslash hamda bioinspiratsion modellashtirishni STEM/STEAM ta'limiga integratsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy manbalar nazariy va qiyosiy tahlil qilinib, biomimika (taqlid) va bioinspiratsiya (ijodiy abstraksiya)ning metodik farqlari tizimli yondashuv asosida umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: biomimika tabiatni "model–mezon–mentor" sifatida qabul qilib, ekologik barqarorlikni ko'zlaydi; bioinspiratsiya esa biologik tamoyillarni moslashtirib, innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Bioinspiratsion modellashtirish kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va prototiplash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda biologiya–fizika–muhandislik–dizayn integratsiyasini kuchaytiradi.

XULOSA: biomimika va bioinspiratsion modellashtirish texnologik ta'limni modernizatsiya qilishda muhim innovatsion komponentlardir. Ular kreativ-texnologik tafakkur va fanlararo kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bioinspiratsiya, biomimika, bioinspiratsion modellashtirish, STEM/STEAM, fanlararo integratsiya, innovatsiya.

СУЩНОСТЬ БИОМИМЕТИКИ И БИОИНСПИРАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ, А ТАКЖЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Кенжаев Шерзод Мамматжумаевич, независимый исследователь Ургенчского государственного педагогического института, Ургенч, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: биомиметика и биоинспирация позволяют переносить природные принципы в образовательную практику, усиливая проектную и проблемно-ориентированную деятельность.

ЦЕЛЬ: уточнить различия между биомиметикой и биоинспирацией и определить возможности внедрения биоинспирационного моделирования в STEM/STEAM-образование.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведен теоретический и сравнительный анализ научных источников, систематизированы методические особенности подходов.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: биомиметика ориентирована на воспроизведение природных решений, тогда как биоинспирация предполагает их творческую адаптацию. Подход развивает наблюдательность, аналитическое мышление и проектные навыки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: биомиметика и биоинспирационное моделирование обладают высоким потенциалом для модернизации технологического образования и формирования междисциплинарных компетенций.

Ключевые слова: биоинспирация, биомиметика, STEM/STEAM, междисциплинарная интеграция, инновации.

THE ESSENCE OF BIOMIMICRY AND BIO-INSPIRED MODELING, AS WELL AS THE POSSIBILITIES OF THEIR APPLICATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Kenjayev Sherzod Mammatjumayevich, Independent Researcher at Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: biomimicry and bioinspiration transfer principles of natural systems into learning practice, strengthening project-based and problem-oriented education.

AIM: to clarify the differences between biomimicry and bioinspiration and identify ways to integrate bio-inspired modeling into STEM/STEAM education.

MATERIALS AND METHODS: a theoretical and comparative analysis of scientific sources was conducted to systematize methodological distinctions.

DISCUSSION AND RESULTS: biomimicry focuses on replicating natural solutions, while bioinspiration emphasizes creative adaptation. Bio-inspired modeling enhances observation, analytical thinking, and prototyping skills.

CONCLUSION: biomimicry and bio-inspired modeling have strong potential for modernizing technological education and fostering interdisciplinary competencies.

Keywords: bioinspiration, biomimicry, bio-inspired modeling, STEM/STEAM, interdisciplinary integration, innovation.

Ta’limni barqaror rivojlantirish, texnologik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish masalasi xalqaro ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, UNESCO hujjatlarida ta’limning yangi ijtimoiy shartnomasi aynan ushbu tamoyillarga asoslanishi zarurligi ta’kidlanadi[1]. Mazkur jarayonda fanlararo integratsiya, modellashtirish va dizayn asosida fikrlashga tayangan pedagogik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida STEM/STEAM ta’lim konsepsiyasi doirasida loyiha faoliyati, modellashtirish va dizayn asosida o‘qitish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda[2]. Ushbu yondashuvlar ichida bioinspiratsiya biologik tizimlar, tabiiy shakl va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

jarayonlardan ilhomlanish asosida innovatsion texnologik yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda[3]. Shu nuqtai nazardan, tabiiy tizimlarning tuzilishi va funksionalligi asosida yaratilgan bioinspiratsion modellashtirish yondashuvi texnologik ta’limni yangicha mazmunda tashkil etish imkonini beruvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur yondashuvning ta’lim jarayoniga integratsiyasi texnologik tafakkurni rivojlantirishda biologik analogiyalar, tabiatdagi konstruktiv tamoyillar va funksional moslashuvlar asosida o‘quv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. So‘nggi yillarda bioinspiratsiya konsepsiyasi muhandislik, dizayn, texnologik loyihalash va STEM ta’limi kabi yo‘nalishlarda keng o‘rganilayotgan bo‘lsada, uning talabalarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari, metodik yechimlari va o‘quv jarayonidagi samaradorligi yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois, bioinspiratsion modellashtirish asosida texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, mavjud ilmiy manbalar holatini tahlil qilish va muammoning o‘rganilganlik darajasini belgilash ushbu maqolaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review). Biomimikriya fanining rivojlanishida AQSH yetakchi tadqiqotchilaridan Janine Benyusning roli nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning “Biomimikriya: Tabiatdan ilhomlangan innovatsiya (Biomimicry: Innovation Inspired by Nature)” nomli asarida tabiatni nusxalash orqali yanada barqaror va oqilona texnologiyalar yaratish mumkinligi g‘oyasi ilgari suriladi. Uning asosiy g'oyasi: "Tabiat allaqachon biz hal qilishga urinayotgan muammolarni yechib bo'lgan. Biz qilishimiz kerak bo'lgan narsa - undan o'rganishdir"[3].

Michael Helms, Swaroop S. Vattam va Ashok K.Goel tomonidan e’lon qilingan "Biologiya - dizayn aloqasi: Bio-ilhomlangan dizayn (The biology - design connection: Bio-inspired design)" nomli tadqiqot ishida biologik tizimlar qanday qilib muhandislik va dizayn muammolarini hal qilishda ilhom manbai bo'lib xizmat qilishi mumkinligi haqida ilmiy izohlar keltirilgan[10]. Shuningdek, Julian F.V.Vincent, Nikolaj R.Bogatyrevlar tomonidan e’lon qilingan "Bioilhomlantirilgan muhandislikni modellashtirish (Modelling bioinspired engineering)" nomli tadqiqot ishida biologik tizimlarni modellashtirish va bu modellarni muhandislik muammolarini hal qilishda qanday qo'llash mumkinligi haqida so‘z boradi [4].

O‘zbekistonlik pedagog olimlar tadqiqotlarida bo‘lajak texnologiya va kasbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining kasbiy-texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi kompetensiyaviy yondashuv, amaliy-ta’limiy faoliyat, pedagogik modellashtirish hamda loyiha asosida o‘qitish doirasida yoritilgan. N.A.Muslimov va hamkorlari tadqiqotlarida bo‘lajak kasb-hunar va texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda faoliyatga yo‘naltirilgan, amaliy mashg‘ulotlar va modellashtirishga asoslangan ta’lim muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan[13]. A.A. Abdullayev, R.X. Jo‘rayev va Sh.S. Sharipovlarning ilmiy ishlarida texnologiya ta’limi mazmunini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda modellashtirish asosida o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan[14]. Shuningdek, R.M. Qodirov va B.X. Raximov tadqiqotlarida fanlararo integratsiya,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

texnologik tafakkur va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim orqali talabalarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan[15]. Bu yondashuvlar bioinspiratsion modellashtirishning pedagogik mohiyatiga yaqin bo‘lib, tabiiy va texnologik jarayonlarni taqqoslash hamda modellashtirish orqali o‘qitishni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash masalalari D.Nafasovning ilmiy tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, olimning tadqiqotlarida talabalarning sotsiomadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik jihatlari[19], turizm sohasida mutaxassislar tayyorlashda eduteynment texnologiyasining samaradorligi[20], Abu Rayhon Beruniyning tarbiyaviy qarashlari asosida yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish[21] hamda turizm sohasidagi ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishning tarixiy-pedagogik aspektlari[22] kabi masalalar yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan g‘oyalar, xususan, ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, tarixiy-pedagogik merosdan foydalanish va kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish masalalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida kasbiy-texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishga doir muhim nazariy va metodik asoslar yaratilgan bo‘lsada, bioinspiratsion modellashtirishni bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga yo‘naltirilgan, yaxlit va tizimli pedagogik metodika sifatida ishlab chiqish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda maxsus ilmiy-pedagogik tadqiqot olib borish zaruratini asoslaydi.

Metodologiya (Research Methodology). Bioinspiratsion modellashtirish haqida fikr yuritishdan oldin biomimika va bioinspiratsiya tushunchalarinng mohiyatiga aniqlik kiritib o‘tish lozim. Ilmiy adabiyotlarda biomimetika (biomimika) tushunchasi tirik tabiatdagi shakllar, tuzilmalar, mexanizmlar va jarayonlarni o‘rganish hamda ularni texnika, texnologiya va muhandislik sohalarida qo‘llashga yo‘naltirilgan fanlararo yo‘nalish sifatida talqin etiladi. Mazkur termin ilk bor amerikalik olim J.Steele tomonidan XX asrning o‘rtalarida ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, “bios” (hayot) va “mimesis” (taqlid qilish) so‘zlaridan tashkil topgan[6]. Ya’ni, tabiatga taqlid qilish ma’nolarini anglatadi.

Benyus J.L. biomimetikani “tabiatni model, o‘lchov va ustoz sifatida qabul qilgan holda muammolarga yechim topish san’ati” deb ta’riflaydi[3]. Ushbu yondashuvda tabiatdagi evolyutsion jihatdan sinovdan o‘tgan mexanizmlar eng maqbul, tejamkor va barqaror yechimlar manbai sifatida qaraladi. Izohli lug‘atlarda biomimetika “biologik tizimlar va ularning faoliyat tamoyillarini texnik modellashtirish orqali yangi texnologiyalar yaratishga xizmat qiluvchi yo‘nalish” sifatida izohlanadi[7].

Ilmiy manbalarda bioinspiratsiya biomimetikaga nisbatan kengroq va moslashuvchan tushuncha sifatida talqin etiladi. Bioinspiratsiya (yun. “bios” – “hayot”[8] va lot. “inspiration” – “ruhlanmoq”[9]) - tabiatdan ilhom olmoq, hayotdan ruhlanmoq ma’nolarini anglatadi. Bioinspiratsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda tabiatdagi tamoyillarni abstraksiyalash va ularni innovatsion dizayn yoki texnik yechim yaratishda qo‘llash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Helms, Vattam va Goel ta’rifiga ko‘ra, bioinspiratsiya – “biologik tamoyillarni abstraksiyalash va ularni yangi dizayn yechimlari yaratishda qo‘llash jarayonidir”[10].

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Vincent va Bogatyrev esa bioinspiratsiyani “biologik prinsiplarni muammolarni hal etish uchun konseptual andoza sifatida qo‘llash” [4]deb izohlaydi.

Bioinspiratsiyaning biomimetikadan farqi: biomimetika – taqlid, bioinspiratsiya – ijodiy ilhom, peagogik transfer. Ushbu ikkala tushunchaning mazmunan farqli jihatlarini quyidagi jadvalda ifodalaymiz. (1-jadval)

Xususiyat Biomimetika Bioinspiratsiya

Ma’nosi Tabiatni to‘liq taqlid qilish Tabiatdan ilhom olish

Maqsad Barqaror, ekologik muvozanatli dizayn Innovatsion texnologiya va g‘oyalar

Metod Biologik tizimni chuqur o‘rganib, uni qayta modellashtirish Prinsip yoki g‘oyani olib, texnik tizimga moslashtirish

Falsafasi Tabiatni model, mezon va ustoz sifatida qabul qilish Tabiatni kreativ ilhom manbai sifatida qabul qilish

Natija Ekologik barqaror texnologiya Har doim barqaror bo‘lmasligi mumkin, lekin innovatsion va samarali yechim

1-jadval. Biomimetika va bioinspiratsiyaning qiyosiy jadvali

Biomimetikaning mohiyati tabiatdagi mavjud tizimlar, jarayonlar va shakllarni taqlid qilish orqali barqaror dizayn, muhandislik va texnologik yechimlar yaratish bo‘lib uning asosiy tamoyillari:

1.Tabiatni model sifatida o‘rganish;

2.Tabiatni mezon sifatida qabul qilish (ya’ni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash);

3.Tabiatni mentor (yo‘naltiruvchi) sifatida ko‘rish, faqat resurs emas.

Biomimetika yo‘nalishi ko‘proq barqarorlik, ekologiya va dizayn falsafasi bilan bog‘langan. Misol: Termitlarning uy qurilishidan ilhomlanib, tabiiy ventilyatsiya tizimiga ega binolar yaratish.

Bioinspiratsiyaning mohiyati tabiatdagi prinsip, mexanizm yoki g‘oyadan ilhom olish, lekin uni to‘liq taqlid qilish shart emas. Uning asosiy tamoyillari:

1. Biologik hodisalarni ilhom manbai sifatida ko‘rish;
2. Talabalar yoki muhandislar tabiatdan ko‘proq metafora yoki konseptual model sifatida foydalanishlari mumkin;
3. Har doim ekologik barqarorlikni ko‘zlamasligi mumkin, ba’zida faqat texnologik samaradorlikka yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bioinspiratsiyaning yo‘nalishi ko‘proq texnologik tafakkur va innovatsion muammolarni yechish metodikasi. Misol: Qush qanotidan uchish printsipini olib, samolyot yaratish (lekin samolyot biologik qanot shaklini to‘liq taqlid qilmaydi, faqat aerodinamik prinsipdan foydalanadi)[5].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, biomimetika tabiatni model, mezon va mentor sifatida qabul qilgan holda ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan konsepsiya bo‘lsa, bioinspiratsiya biologik tizimlardan ilhom olish asosida innovatsion va texnologik yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, u doimo to‘liq taqlid yoki ekologik mezonlarni talab qilmaydi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Bioinspiratsiya - tirik tabiat, biologik tizimlar va tabiiy jarayonlardan ilhomlanish asosida yangi g‘oya, model yoki yechimlarni yaratishga yo‘naltirilgan jarayoni sifatida talqin qilinadi[3]. Agar biomimetika tabiatdagi aniq mexanizmlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri modellashtirishga asoslangan bo‘lsa, bioinspiratsiya tabiatdan g‘oya, tamoyil va konsepsiyalarni ilhom manbai sifatida olishni nazarda tutadi[11]. Demak, “bioinspiratsiya” atamasi lingvistik jihatdan “hayot” va “ilhom” tushunchalarining uyg‘unlashuvi asosida shakllanib, ilmiy mazmunda tirik tabiatdan ilhomlanish orqali innovatsion g‘oya va yechimlar yaratish jarayonini ifodalaydi

Chet el pedagogik tadqiqotlarida bioinspiratsiya talabalarda tabiat asosida ijodiy va texnologik fikrlashni shakllantirish, muammoli vaziyatlarga innovatsion yondashuvni rivojlantirish, fanlararo integratsiyani ta’minlash maqsadlarida qo‘llaniladi.

J.F.Vincent va uning hamkorlari bioinspiratsiyani “tabiatdagi jarayonlarni chuqur tahlil qilgan holda, ularni ijodiy va moslashuvchan tarzda yangi muammolar yechimiga tatbiq etish jarayoni” deb izohlaydi[12]. Bu yondashuvda aynan nusxa ko‘chirish emas, balki analitik, kreativ va refleksiv fikrlash ustuvor hisoblanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, bioinspiratsiya:

-talabalarda kuzatuvchanlik, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash;

-muammoli vaziyatlarga nostandart yondashish;

-ijodiy modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilayotgan, biroq o‘zbek pedagogik tadqiqotlarida yetarli darajada termin sifatida mustahkamlanmagan “bioinspiratsiya” tushunchasi qo‘llanildi. Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqqan holda “Bioinspiratsiya” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifini berish mumkin. Demak, Bioinspiratsiya - bu tabiatdagi shakl, struktur, rang, harakat mexanizmi, biologik jarayon yoki funksional tamoyillardan ilhomlanib, ularni abstraksiyalash, tahlil qilish va qayta talqin etish orqali yangi dizayn, texnologik yechim, muhandislik modeli yoki pedagogik metod yaratish jarayonidir. Bioinspiratsiyada tabiat to‘g‘ridan-to‘g‘ri takrorlanmaydi, balki uning ichki printsiplari, funksional strategiyalari, moslashuv mexanizmlari va samaradorlik tamoyillari ijodiy qayta ishlanadi va inson faoliyatiga moslashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bioinspiratsiya - “tabiatdan g‘oya olish”, “hayot mexanizmlaridan ilhomlanib innovatsiya yaratish” jarayonidir.

Muhokama. Bioinspiratsion modellashtirish kontekstida model biologik tizimlar va tabiiy jarayonlarning strukturaviy va funksional xususiyatlaridan ilhomlangan holda yaratilgan texnologik yoki pedagogik yechimning konseptual ifodasi sifatida qaraladi. Bioinspiratsion modellashtirishning nazariy asoslari biomimetika, bioinspiratsiya, tizimli yondashuv, modellashtirish nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv g‘oyalariga tayanadi. Biomimetika konsepsiyasida tabiat innovatsion yechimlar uchun model, mezon va mentor sifatida qaralib, biologik tizimlar va tabiiy jarayonlarning strukturaviy hamda funksional xususiyatlari texnologik faoliyatni loyihalashda manba vazifasini bajaradi[3].

Bioinspiratsiya esa biologik obyektlarni to‘liq ko‘chirishni emas, balki ularning ishlash tamoyillari, moslashuv mexanizmlari va energiya samaradorligini anglash orqali muhandislik va texnologik muammolarga ijodiy yondashishni nazarda tutadi. Bu jarayonda

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

modellashtirish real obyektlarni bevosita o‘rganish imkoniyati cheklangan sharoitda ularning muhim xususiyatlarini soddalashtirilgan model orqali tahlil qilish imkonini beruvchi universal bilish usuli sifatida namoyon bo‘ladi[16]. Shu tariqa, bioinspiratsion modellashtirish tabiatdagi tizimlarni tahlil qilish, ularning mohiyatini ajratib olish va texnologik yechimlarga moslashtirishga asoslangan fanlararo va integrativ metodologik yondashuv sifatida shakllanadi. Biomimetika nazariyasining asoschilaridan biri J.Benyus bioinspiratsiyani “tabiatni ustoz sifatida qabul qilish va uning strategiyalarini texnologiyaga tatbiq etish”[3] deb ta’riflagan.

Pedagogik nuqtai nazardan bioinspiratsion modellashtirish nafaqat metod yoki vosita, balki murakkab pedagogik kategoriya sifatida qaraladi. Chunki u ta’lim jarayonida: bilish faoliyatini tashkil etish, nazariya va amaliyotni integratsiyalash, talabalarning mustaqil va innovatsion fikrlashini rivojlantirish kabi bir qator pedagogik vazifalarni bajaradi. M.V. Klarinning modellashtirishni pedagogik texnologiya sifatida talqin etishiga tayangan holda, bioinspiratsion modellashtirish ta’lim oluvchilarning tabiiy obyektlar asosida tahliliy, konstruktiv va ijodiy faoliyatini faollashtiruvchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi[17].

Mazkur tadqiqot doirasida bioinspiratsion modellashtirish talabalarning kasbiy-texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, tabiatdan ilhomlangan modellashtirish faoliyatini tashkil etuvchi pedagogik kategoriya sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy texnologik ta’limning mazmuni loyihalash, modellashtirish, texnologik jarayonlarni tahlil qilish va innovatsion fikrlash kabi faoliyat turlariga asoslanadi. Bioinspiratsion modellashtirish aynan ushbu faoliyatlarni real muammolar bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Texnologik ta’lim jarayonida bioinspiratsion modellashtirish:

-tabiatdagi obyekt va jarayonlarni texnologik tahlil qilish;

-biologik tizimlar asosida loyihaviy yechimlar ishlab chiqish;

-ekologik barqarorlik va resurs tejamkorlik g‘oyalarini texnologik faoliyatga singdirish orqali bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kasbiy-texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, bioinspiratsion modellashtirish texnologik ta’limda fanlararo integratsiyani ta’minlovchi, talabalarning innovatsion va tizimli fikrlashini shakllantiruvchi hamda ularni zamonaviy ishlab chiqarish va dizayn faoliyatiga tayyorlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bioinspiratsion modellashtirish bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kasbiy-texnologik kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega bo‘lib, keyingi boblarda ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika mazmuni va amaliy mexanizmlarini asoslashni taqozo etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bioinspiratsion modellashtirish texnologik ta’lim jarayonida samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Tabiatdagi shakl, tuzilma va jarayonlardan ilhomlanib loyiha yaratish talabalarda ijodiy, tahliliy va texnologik fikrlashni rivojlantiradi. Bioinspiratsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar davomida talabalar biologik analoglarni o‘rganish, modellashtirish va prototip yaratish orqali muammolarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

innovatsion tarzda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirdilar. Fanlararo integratsiya esa (biologiya, fizika, muhandislik va dizayn uyg‘unligi) ularning amaliy va kasbiy tayyorgarligini kuchaytirdi. Shu bilan birga, amaldagi o‘quv dasturlarida bioinspiratsion modellashtirish yetarli darajada qo‘llanilmayotgani aniqlandi. Natijada talabalarning kreativ-texnologik fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayapti. Umuman olganda, bioinspiratsion modellashtirish bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yondashuv asosida maxsus metodika va o‘quv materiallarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. UNESCO.Reimagining our futures together: A new social contract for education. – Paris: UNESCO, 2021.(Ta’limda barqaror rivojlanish, ekologik va texnologik tafakkur).
2. Bybee, R. W. STEM Education: Innovation and Reform. – New York: Routledge, 2013. (STEM/STEAM ta’lim va modellashtirishga asoslangan o‘qitish)
3. Benyus, J. M. Biomimicry: Innovation Inspired by Nature. – New York: HarperCollins, 1997. (Bioinspiratsiya va tabiatdan ilhomlangan modellashtirishning nazariy asoslari).
4. Vincent, J. F. V., et al. Biomimetics: its practice and theory.Journal of the Royal Society Interface, 2006
5. Vogel, S. Cats Paws and Catapults: Mechanical Worlds of Nature and People. New York: W. W. Norton & Company, 2000
6. Steele J. Bionics. – New York: Random House, 1960.
7. Oxford Dictionary of Science. Biomimetics. – Oxford University Press, 2016.
8. Wiktionary. (n.d.). βίος. In Wiktionary, the free dictionary. Retrieved January 2025, from https://en.wiktionary.org/wiki/%CE%B2%CE%AF%CE%BF%CF%82
9. Harper, D. (n.d.). Inspiration. In Online Etymology Dictionary. Retrieved January 2025, from https://www.etymonline.com/word/inspiration
10. Helms, M., Vattam, S. S., & Goel, A. K. (2009). The biology–design connection: Bio-inspired design. Design Studies, 30(5), 606–622. https://doi.org/10.1016/j.destud.2009.04.003
11. Vincent J.F.V. Biomimetics – Its practice and theory. – Journal of Materials Science, 2009.
12. Vincent J.F.V., Bogatyreva O.A., Bogatyrev N.R. Biomimetics: its practice and theory. – Journal of the Royal Society Interface, 2006.
13. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. – 64 b.
14. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakillantirishning pedagogik sharoitlari. Ped. fan. nomz. ... diss. – T., 2000.–205 b

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

15. Рахимов Б.Х. Психологические особенности развития исследовательского интеллекта у будущих учителей: док. псих. наук ... дис. – Т: 2017. – 187 с.
16. Novikov A.M., Novikov D.A. Metodologiya nauchnogo issledovaniya. — Moskva: Librokom, 2010.
17. Klarin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya v zarubejnoy pedagogike. — M.: Pedagogika, 2000.
18. Yakman, G. STEAM Education: An overview of creating a model of integrative education. – 2008.(STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) tushunchasining nazariy asoslari.
19. Nafasov, D. (2020). Theoretical and pedagogical aspects of forming sociocultural competence of students in tourism. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).
20. Nafasov, D. (2019). Edutainment as an effective technology in preparing specialists in tourism industry. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(6).
21. Nafasov, D. S. (2023). Abu Rayhon Beruniyning tarbiyaviy qarashlari asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish. Xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 1(1), 82-85.
22. Nafasov, D. S. (2021). Historical and pedagogical aspects of the use of educational opportunities in tourism. UzMU xabarlari, 2(2), 109-111.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

GAVDALANGAN IDROKNING MUSIQA TA'LIMIDAGI AHAMIYATI

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dotsent, Chirchiq, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy kognitiv fanlar bilish jarayonining tana va sensomotor tizim bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi. Musiqa esa eshitishdan tashqari harakat, mushak tonusi va emotsional regulyatsiya orqali kechadigan jarayon sifatida qayta talqin qilinadi.

MAQSAD: gavdalangan idrokning musiqa ta'limi va ijrochilikdagi rolini tahlil qilish hamda sensomotor integratsiya va interotsepsiya mexanizmlarini metodik jihatdan asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: embodied cognition va embodied music cognition bo'yicha ilmiy manbalar nazariy tahlil qilindi. Oyna neyronlari, affektiv-somatik bog'liqlik va harakatga asoslangan metodikalar qiyosiy integratsiya qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: musiqani idrok etishda harakatli simulyatsiya yetakchi rol o'ynaydi; eshitilgan tovush ichki motor patternlar orqali qayta yaratiladi. Oyna neyronlari tizimi namoyish va taqlid samaradorligini izohlaydi, interotsepsiya esa vokal barqarorlikni kuchaytiradi. "Embodied Music Lesson" modeli (sinxronizatsiya → kinestetik tahlil → ijrochilik transformatsiyasi) didaktik yechim sifatida taklif etiladi.

XULOSA: gavdalangan yondashuv musiqiy ma'noni tana va ichki sezgilar bilan bir butun tizimda shakllantirishni asoslaydi. U ijrochilik ko'nikmalari va emotsional ishtirokni chuqurlashtiradi.

Kalit so'zlar: gavdalangan idrok, musiqa ta'limi, sensomotor integratsiya, interotsepsiya, embodied music cognition, harakat metodikasi.

ЗНАЧЕНИЕ ВОПЛОЩЁННОГО (ТЕЛЕСНОГО) ВОСПРИЯТИЯ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мухитдинова Малохат Саиджабборовна, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, Чирчик, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: современные исследования подтверждают связь познания с сенсомоторной системой и телесным опытом, что требует нового понимания музыкального обучения.

ЦЕЛЬ: проанализировать роль embodied cognition в музыкальном образовании и обосновать методические возможности сенсомоторной интеграции и интероцепции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведен теоретический анализ работ по embodied cognition и нейропедагогике, интегрированы данные о зеркальных нейронах и двигательных методиках.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: музыкальное понимание опирается на двигательное моделирование; интероцепция усиливает устойчивость исполнения. Предложена модель «Embodied Music Lesson» как дидактическое решение.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: воплощённый подход способствует развитию исполнительских навыков и эмоциональной вовлечённости обучающихся.

Ключевые слова: воплощённое познание, музыкальное образование, сенсомоторная интеграция, интероцепция, двигательные методики.

THE IMPORTANCE OF EMBODIED COGNITION IN MUSIC EDUCATION

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna, Associate Professor at Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: contemporary cognitive research highlights the close link between cognition and sensorimotor experience, prompting a rethinking of music pedagogy.

AIM: to analyze the role of embodied cognition in music education and explain the significance of sensorimotor integration and interoception.

MATERIALS AND METHODS: a theoretical review of embodied cognition and neuroscience findings, including mirror-neuron research and movement-based pedagogy, was conducted.

DISCUSSION AND RESULTS: musical understanding relies on motor simulation; interoceptive awareness enhances vocal stability. An “Embodied Music Lesson” model is proposed.

CONCLUSION: the embodied approach deepens performance skills and emotional engagement in music learning.

Keywords: embodied cognition, music education, sensorimotor integration, interoception, movement-based pedagogy.

Zamonaviy kognitiv fanlar, neyropedagogika va musiqa ta’limi sohasidagi interdisiplinar izlanishlar inson ongi va bilish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Uzoq yillar davomida pedagogik nazariyada aql va tana alohida kategoriyalar sifatida talqin qilingan bo‘lib, bu yondashuv kartesian dualizmi ta’sirida shakllangan edi. Biroq XXI asr kognitiv inqilobi natijasida shakllangan gavdalangan idrok (Embodied Cognition) konsepsiyasi bilish jarayonlari inson tanasi, sensomotor tizimi va jismoniy tajribasiga chuqur bog‘liq ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilish — bu tashqi axborotni abstrakt qayta ishlash emas, balki organizmning muhit bilan faol o‘zaro ta’siri jarayonidir [3].

Antonio Damasio inson ongi va o‘zini anglash jarayonini neyrobiologik nuqtai nazardan tahlil qilib, ong tanadan mustaqil ravishda mavjud bo‘lolmasligini ta’kidlaydi [1]. Uning fikricha, har qanday kognitiv faoliyat affektiv va somatik holatlar bilan uzviy bog‘liq.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Bu yondashuv musiqa ijrochiligiga nisbatan qo‘llanilganda, musiqa faqat eshitish jarayoni emas, balki tana orqali kechadigan kompleks tajriba ekani namoyon bo‘ladi. Musiqa ijrochiligida harakat, nafas, mushak tonusi, poza va ichki ritm bir butun kognitiv-emotsional tizimni tashkil etadi.

Klassik kognitivizm inson miyasini kompyuterga o‘xshatib, tanani axborot kiritish va chiqarish vositasi sifatida ko‘rgan. Bu modelda musiqa akustik signallar ketma-ketligi sifatida tahlil qilingan. Biroq Mark Leman tomonidan ishlab chiqilgan Embodied Music Cognition konsepsiyasiga ko‘ra, musiqani tushunish jarayoni harakatli simulyatsiyaga asoslanadi [4]. Ya’ni tinglovchi yoki ijrochi ovozni eshitganda, uni yuzaga keltirgan harakatlarni ichki ravishda qayta yaratadi. Bu holat sensomotor integratsiyaning amaliy namunasidir.

F. Varela, E. Thompson va E. Rosch enaktivizm nazariyasi doirasida bilishni organizm va muhit o‘rtasidagi dinamik hamkorlik sifatida izohlaydilar [3]. Ularning ta’kidlashicha, bilim tashqi dunyoning ichki reprezentatsiyasi emas, balki faol harakat jarayonida yuzaga keladi. Musiqa ta’limi nuqtai nazaridan bu, asarni tushunish faqat tahlil orqali emas, balki instrument bilan jismoniy muloqot jarayonida shakllanishini anglatadi. M. Merlo-Ponti fenomenologiyasida tana idrokning sharti sifatida talqin qilinadi; tana — bu faqat obyekt emas, balki dunyo bilan munosabat vositasidir [9]. Shu nuqtai nazar musiqa ijrochiligida harakat va ma’no birligi g‘oyasini mustahkamlaydi.

G. Lakoff va M. Johnson kognitiv metafora nazariyasi orqali inson tafakkuri jismoniy tajribaga asoslanganini ko‘rsatadilar [2]. Musiqa terminologiyasida “yuqori ovoz”, “issiq tembr”, “og‘ir faktura” kabi iboralar jismoniy tajribadan kelib chiqqan. Bu esa musiqiy tafakkurning gavdalangan tabiatini tasdiqlaydi. Demak, musiqani o‘qitishda til va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish zarur.

Neyrobiologik tadqiqotlar gavdalangan idrokning biologik asoslarini yoritadi. I. Molnar-Szakacs va K. Overy tomonidan taklif etilgan Shared Affective Motion Experience (SAME) modeliga ko‘ra, musiqa tinglash jarayonida oyna neyronlari tizimi faollashadi [5]. Bu tizim tinglovchi va ijrochiga umumiy harakat-emotsional maydonni bo‘lishish imkonini beradi. Masalan, ustozning ijrosini kuzatish vaqtida o‘quvchining miyasida ham xuddi shu harakatlarni rejalashtirishga mas’ul bo‘lgan qismlar faollashadi. Bu holat ta’lim jarayonida namoyishning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Musiqa ijro etish jarayonida eshitish va harakat o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Inson ovozni eshitganda, miya uning balandligi, ritmi va tembrini qayta ishlaydi, shu bilan birga shu ovozni chiqarish uchun kerak bo‘ladigan harakatlarni “ichki ravishda” tasavvur qiladi. Miyaning ayrim qismlari qo‘l, barmoq yoki ovoz apparati harakatlarini rejalashtiradi va muvofiqlashtiradi. Boshqa qismlar esa musiqaning hissiy ta’sirini yuzaga keltiradi. Yakunda miya barcha eshitilgan, his qilingan va harakat orqali amalga oshirilgan jarayonlarni birlashtirib, yaxlit musiqiy obrazni shakllantiradi. Bu tizimli yondashuv “ichki ijrochilik apparati” tushunchasini ilgari suradi: instrument yo‘q holatda ham miyada harakat patternlari faol holatda saqlanadi.

A. Zamorano va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar vokal ijrochiligida interotsepsiyaning o‘rnini ochib berdi [6]. Yurak urishi va nafas ritmini aniq his etish

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qobiliyati yuqori bo‘lgan xonandalar intonatsiya jihatidan barqaror natijalar ko‘rsatgan. Bu natija vokal ta’limida ichki jismoniy signallarni anglashni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi. Demak, qo‘shiq aytish texnikasi nafaqat ovoz apparati, balki interotseptiv sezgirlikni ham qamrab oladi.

Empirik tadqiqotlar Dalkroz evritmikasi kabi harakatga asoslangan metodikalarning samaradorligini tasdiqladi [7]. “Tana ritmi” metodi asosida o‘qitilgan guruhlarda emotsional ishtirok va uzoq muddatli xotira ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan. Giperoskanlash usuli orqali ustoz va o‘quvchi miya faoliyati sinxronligi tahlil qilinganda, gavdalangan yondashuvda neyron sinxroniya 40% ga yuqori ekani aniqlangan. Bu esa yashirin bilimni samarali uzatish mexanizmini ko‘rsatadi.

Ushbu natijalar asosida “Embodied Music Lesson” klaster modeli taklif etiladi. Birinchi bosqich — sinxronizatsiya: nafas va yengil ritmik harakatlar orqali umumiy psixofizik holat yaratiladi. Ikkinchi bosqich — kinestetik tahlil: melodik chiziq harakat orqali “chiziladi”, musiqiy forma tanada his etiladi. Uchinchi bosqich — ijrochilik transformatsiyasi: tanada shakllangan obraz instrument bilan integratsiya qilinadi. Bu model nazariya va amaliyot birligini ta’minlaydi.

Gavdalangan yondashuv ijrochilik stressini kamaytirishda ham ahamiyatli. Sahna qo‘rquvi adrenalin ajralishi va mushak tarangligi bilan bog‘liq. Tana holatini nazorat qilish, nafasni tartibga solish va ongli poza orqali neyrofiziologik reaksiyalar boshqarilishi mumkin [1]. Shu tariqa musiqa ijrochiligida emotsional barqarorlik shakllanadi.

Raqamli texnologiyalar va virtual reallik vositalari tanaga asoslangan ta’lim imkoniyatlarini kengaytirmoqda [4]. Harakat sensorlari va taktil aloqa orqali masofaviy ta’limda ham jismoniy tajriba yaratish mumkin. Biroq ta’limda jismoniy tajriba ikkinchi o‘ringa tushib qolish xavfi mavjud: texnologiya jonli muloqotni almashtirmasligi kerak. Samarali ta’lim — raqamli vositalar va jonli tanaviy tajriba sinergiyasidadir.

Xulosa qilib aytganda, gavdalangan idrok musiqa ijrochiligi va ta’limida metodologik inqilob yaratadi. Musiqa — bu harakat orqali fikrlash, tana orqali ma’no yaratish jarayonidir. Ijrochilik apparati — intellektual-motor tizim bo‘lib, har bir harakat ma’no tashuvchi hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar inklyuziv ta’lim doirasida gavdalangan metodikalarning samaradorligini chuqur o‘rganishi lozim. Chunki musiqa — inson tanasi va ongi uyg‘unligida yuzaga keladigan tirik san’atdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Damasio, A. Self Comes to Mind: Constructing the Conscious Brain. — New York : Pantheon Books, 2010. — 358 p.
2. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. — Chicago : University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
3. Varela, F. J., Thompson, E., Rosch, E. The Embodied Mind: Cognitive Science and Human Experience. — Cambridge (MA) : MIT Press, 1991. — 308 p.
4. Leman, M. Embodied Music Cognition and Mediation Technology. — Cambridge (MA) : MIT Press, 2008. — 223 p.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

5. Molnar-Szakacs, I., Overy, K. Music and mirror neurons: from motion to “e”motion // Social Cognitive and Affective Neuroscience. — 2006. — Vol. 1, No. 3. — P. 235–241.
6. Zamorano, A. M., et al. Embodied Singing: Dual Role of Interoception in Vocal Expertise and Musical Competence // Annals of the New York Academy of Sciences. — 2025. — Vol. 1542. — P. 45–62.
7. Выготский, Л. С. Психология искусства. — М. : Искусство, 1965. — 379 с.
8. Назайкинский, Е. В. О психологии музыкального восприятия. — М. : Музыка, 1972. — 383 с.
9. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. — СПб. : Питер, 2002. — 720 с.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ISROIL DAVLATIDA GOSPITAL TA'LIM: ILG'OR TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ochilov Orazbek Qosim o'g'li , "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: uzoq muddatli davolanish jarayonidagi bolalar uchun uzluksiz va sifatli ta'limni ta'minlash zamonaviy ta'lim tizimlarining dolzarb vazifasidir. Isroil tajribasida gospital ta'lim sog'ayish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi kompleks model sifatida shakllangan.

MAQSAD: isroilda gospital ta'limning huquqiy, tashkiliy va pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda uning samaradorlik omillarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda Isroilning 2001-yildagi "Kasal bolalar uchun bepul ta'lim to'g'risida"gi qonuni va amaliy modeli nazariy tahlil qilindi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari integratsiyasi, moslashuvchan jadval, virtual darslar va terapevtik metodlar o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: isroil gospital maktablari akademik uzviylikni saqlash, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvni ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim jarayoni bolaning sog'lig'iga moslashtiriladi, raqamli platformalar, VR, multisensor muhit va STEAM integratsiyasi qo'llaniladi. Tibbiy masxarabozlik stressni kamaytirish va sog'ayish jarayonini qo'llab-quvvatlashda samarali vosita sifatida baholanadi.

XULOSA: isroil gospital ta'lim modeli uzluksiz ta'limni ta'minlash bilan birga, bolaning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini mustahkamlaydi. Mazkur tajriba boshqa mamlakatlar uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: gospital ta'lim, terapevtik pedagogika, Isroil tajribasi, uzluksiz ta'lim, multisensor muhit, tibbiy masxarabozlik.

ГОСПИТАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ИЗРАИЛЬ: ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Очилов Оразбек Қосим ўғли, учитель государственного образовательного учреждения «Mehrli maktab», Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: обеспечение непрерывного образования для детей, находящихся на длительном лечении, является актуальной задачей современной системы образования. В Израиле госпитальное образование сформировано как комплексная поддерживающая модель.

ЦЕЛЬ: проанализировать правовые и педагогические основы госпитального образования Израиля и определить его эффективность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведён теоретический анализ законодательства и практики госпитальных школ, а также интеграции медицинских и образовательных механизмов.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: госпитальные школы обеспечивают академическую преемственность, психологическую поддержку и социальную адаптацию. Используются цифровые платформы, виртуальное обучение, мультисенсорная среда, STEAM и медицинская клоунада.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: модель госпитального образования Израиля способствует не только обучению, но и психологической устойчивости ребёнка и может служить примером для других стран.

Ключевые слова: госпитальное образование, терапевтическая педагогика, опыт Израиля, непрерывное образование, мультисенсорная среда, медицинская клоунада.

HOSPITAL EDUCATION IN ISRAEL: ADVANCED EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES

Ochilov Orazbek Qosim o‘g‘li, Teacher at the State Educational Institution “Mehrli Maktab,” Tashkent, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: ensuring educational continuity for children undergoing long-term treatment is a key challenge of modern education systems. Israel has developed a comprehensive hospital education model.

AIM: to examine the legal and pedagogical foundations of hospital education in Israel and assess its effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: a theoretical analysis of legislation, institutional models, and integrated medical-educational practices was conducted.

DISCUSSION AND RESULTS: hospital schools ensure academic continuity, psychological support, and social adaptation. Digital tools, virtual learning, multisensory environments, STEAM integration, and medical clowning are widely applied.

CONCLUSION: israel’s hospital education model promotes both academic progress and psychological resilience and may serve as a reference for other countries.

Keywords: hospital education, therapeutic pedagogy, Israeli experience, educational continuity, multisensory environment, medical clowning.

Zamonaviy ta’lim tizimlari oldida turgan muhim muammolardan biri — uzoq muddatli davolanish jarayonida bo‘lgan bolalar uchun uzluksiz va sifatli ta’limni ta’minlashdir. Kasallik tufayli shifoxonada uzoq vaqt qolayotgan bola nafaqat akademik jarayondan uzilib qoladi, balki ijtimoiy muloqot, motivatsiya va psixologik barqarorlik jihatidan ham jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli gospital ta’lim konsepsiyasi jahon miqyosida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari kesishgan muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda [1]. Isroil davlati bu borada ilg‘or tajribaga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda gospital ta’lim tizimi nafaqat qo‘shimcha pedagogik xizmat sifatida,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

balki bolaning sog‘ayish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida shakllangan. Ta’lim jarayoni davolash jarayonidan ajralmagan holda, kompleks yondashuv asosida tashkil etiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Isroil davlatida gospital ta’lim tizimining huquqiy, tashkiliy va pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda ushbu tajribaning zamonaviy ta’lim tizimlari uchun ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Isroilda gospital ta’limning huquqiy asoslari. Isroil davlatida gospital ta’lim tizimi mustahkam huquqiy asosga ega bo‘lib, u bolalarning sog‘lig‘i holatidan qat’i nazar, uzluksiz ta’lim olish huquqini kafolatlashga qaratilgan. Mazkur tizimning asosiy normativ hujjati 2001-yilda qabul qilingan “Kasal bolalar uchun bepul ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonun gospital ta’limni ijtimoiy yordam shakli emas, balki umumiy ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Qonunga muvofiq, agar bola shifoxonada ketma-ket uch kundan ortiq davolanayotgan bo‘lsa, davlat unga bepul ta’lim xizmatlarini taqdim etishni kafolatlaydi [2]. Bu jarayonda bolaning yosh xususiyatlari, sog‘lig‘i holati, davolash rejimi va psixologik holati inobatga olinadi. Ta’lim dasturi majburiy maktab standartlariga mos bo‘lishi bilan birga, individual moslashtirish imkoniyatiga ham ega. Muhim jihatlardan biri shundaki, Isroilda gospital ta’lim uchun mas’uliyat faqat ta’lim vazirligi zimmasida emas. Bu jarayon sog‘liqni saqlash tizimi bilan bevosita hamkorlikda amalga oshiriladi. Natijada gospital maktablar faoliyati ikki tizim — ta’lim va tibbiyot — kesishgan nuqtada muvofiqlashtiriladi. Bu esa ta’lim jarayonining davolash jarayoniga zid bo‘lmasligini, aksincha, uni qo‘llab-quvvatlashini ta’minlaydi. Shunday qilib, Isroil tajribasida gospital ta’lim huquqiy jihatdan bolaning asosiy huquqlaridan biri sifatida e’tirof etiladi va davlat tomonidan tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlanadi.

Isroilda gospital ta’lim tizimining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonga ega bo‘lib, u ijtimoiy tashabbuslar va davlat siyosati uyg‘unligida rivojlangan. XX asr boshlarida, xususan 1925-yilda, Spafford va Hadassah kabi tibbiy markazlarda bolalar bilan norasmiy ta’lim mashg‘ulotlari tashkil etila boshlagan. Bu mashg‘ulotlar dastlab ko‘ngillilar tomonidan olib borilgan bo‘lib, asosiy maqsad bolalarning ruhiy holatini yengillashtirish va vaqtini mazmunli tashkil etishdan iborat edi. 1948-yilda Isroil davlati tashkil topgach, ta’lim tizimini umumxalq miqyosida rivojlantirish masalasi kun tartibiga chiqdi. 1949-yilda qabul qilingan qonun bilan barcha bolalarning ta’lim olish huquqi mustahkamlandi. Bu huquq sog‘lig‘i tufayli shifoxonada bo‘lgan bolalarga ham tatbiq etildi. 1991-yilda Shnayder tibbiyot markazida zamonaviy gospital maktabning tashkil etilishi ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. 1992-yildan boshlab bu maktab bolalar uchun alohida, to‘liq shakllangan ta’lim muassasasi sifatida faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik bu model mamlakatning boshqa yirik tibbiy markazlarida ham joriy etildi. Bugungi kunda Isroil gospital maktablari davlat tomonidan tan olingan, moliyalashtiriladigan va yagona standartlar asosida faoliyat olib boradigan muassasalardir. Tarixiy rivojlanish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, gospital ta’lim Isroilda tasodifiy tashabbus emas, balki ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan tizimli yechim sifatida shakllangan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Isroil gospital maktablarining faoliyati bir nechta asosiy vazifalarni bajarishga qaratilgan bo‘lib, ularning barchasi bolaning kompleks rivojini ta’minlashga xizmat qiladi. Birinchi va eng muhim vazifa — akademik uzviylikni saqlashdir. Bola davolanish jarayonida ham o‘z tengdoshlaridan bilim jihatidan orqada qolmasligi kerak. Ikkinchi muhim vazifa — psixologik qo‘llab-quvvatlash. Kasallik va shifoxona muhiti bolada qo‘rquv, tushkunlik va izolyatsiya hissini keltirib chiqarishi mumkin. Gospital maktab esa bola uchun “odatiy hayot” ramzi sifatida xizmat qiladi. Darslar orqali bolaning hayoti faqat davolanishdan iborat emasligi hissi mustahkamlanadi. Uchinchi vazifa — ijtimoiy muloqotni davom ettirish. Gospital maktablar jamoaviy mashg‘ulotlar, virtual sinflar va guruhli topshiriqlar orqali bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, gospital maktablar bolaning sog‘lig‘iga mos individual ta’lim rejasini ishlab chiqish, oila bilan ishlash va bolaning sog‘ayib, o‘z maktabiga qaytish jarayonini yengillashtirish vazifalarini ham bajaradi [3].

Isroil gospital maktablarida ta’lim jarayoni yuqori darajada moslashuvchanlik tamoyiliga asoslanadi. Darslar qat’iy jadval asosida emas, balki bolaning jismoniy va ruhiy holati qulay bo‘lgan “faol vaqt oralig‘i”da tashkil etiladi. Bu yondashuv bolaning haddan tashqari charchab qolishining oldini oladi. Agar bola palatadan chiqa olmasa, o‘qituvchi bevosita uning yoniga borib dars o‘tadi. Har bir o‘quvchi planshet yoki noutbuk bilan ta’minlanadi. Ushbu texnik vositalar sterilizatsiya qilingan holda qo‘llaniladi. Virtual ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Bola o‘z maktabidagi darslarda masofadan turib qatnashishi, savol berishi va topshiriqlarni bajarishi mumkin. Ayrim shifoxonalarda masofaviy robotlar orqali bola sinf muhitida “ishtirok etadi”, bu esa ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Isroilda gospital ta’lim tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarni ham qamrab oladi. Terapevtik bog‘chalar 3 yoshdan boshlab faoliyat yuritadi va ularning asosiy maqsadi bolaning qo‘rquvini kamaytirish, rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va davolanish jarayoniga moslashtirishdan iborat. Bu bog‘chalarda o‘yin terapiyasi asosiy metod hisoblanadi. Bolalar tibbiy o‘yinlar orqali shifoxona muhitiga moslashadi [4]. Rang-barang, multisensor xonalar bolaning hissiy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Tarbiyachilar bilan bir qatorda logopedlar, ergoterapevtlar va psixologlar faoliyat yuritadi. Ota-onalar bilan ishlash ham muhim yo‘nalish bo‘lib, ularga bola bilan muloqot qilish usullari o‘rgatiladi.

Isroil gospital ta’limi innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi. Multisensor muhit, VR texnologiyalari, IT va STEAM integratsiyasi bolaning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Tibbiy muolajalar vaqtida VR ko‘zoynaklar yordamida bolaning e’tibori og‘riqdan chalg‘itiladi. Informatika darslarida bolalar o‘z kasalliklari haqida animatsiyalar yaratadi yoki kodlash orqali muammolarni yechadi.

Alohida e’tiborga molik yondashuv — tibbiy masxarabozlikdir (medical clowning). Isroilda tibbiy masxarabozlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar bo‘lib, ular bolaga nazorat hissini qaytarishga yordam beradi. Tadqiqotlar bu metod stress darajasini pasaytirib, sog‘ayish jarayonini tezlashtirishini ko‘rsatadi [5].

Xulosa

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Isroil davlatida gospital ta’lim tizimi uzluksiz ta’limni ta’minlash bilan bir qatorda bolaning psixologik holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim va tibbiyotning integratsiyalashgan modeli gospital maktabni faqat o‘quv muassasasi emas, balki sog‘ayish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Mazkur tajriba boshqa mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham gospital ta’limni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sharikov S. V. Gospitalnaya pedagogika: teoriya i praktika [Gospital pedagogika: nazariya va amaliyot]. — Moskva: Prosveщenie, 2021. — 256 s.
2. Shaw S. R., McCabe P. C. Hospital-to-school transition for children with chronic illness [Surunkali kasallikka chalingan bolalar uchun shifoxonadan maktabga o'tish davri] // Psychology in the Schools. — 2008. — Vol. 45(1). — P. 74–87.
3. World Health Organization. Education and health: intersectoral action for child well-being [Ta’lim va sog‘liqni saqlash: bolalar farovonligi yo‘lida tarmoqlararo harakat]. — Geneva: WHO Press, 2017.
4. Li H. C. W., Chung O. K. J. Therapeutic play interventions for hospitalized children [Gospitalizatsiya qilingan bolalar uchun terapevtik o‘yin intervensiyalari] // Journal of Advanced Nursing. — 2011. — Vol. 67(8). — P. 1727–1739.
5. Fellin L., Maggi M. Medical clowning and child well-being in hospitals [Tibbiy masxarabozlik va shifoxonalarda bolalar farovonligi] // Arts & Health: An International Journal for Research, Policy and Practice. — 2016. — Vol. 8(3). — P. 234–248.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

NAZARIY MEXANIKA FANINI O‘QITISHDA MOTIVATSIYANI BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Parmonov Abdutolib Abduvahob O‘g‘li, Guliston davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi, O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, PhD, Jizzax, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: nazariy mexanika bo‘lajak mutaxassislarda texnik tafakkur va muhandislik fikrlashini rivojlantiruvchi tayanch fan hisoblanadi. Uni o‘zlashtirish samaradorligi talabalarda barqaror motivatsiya shakllanishi bilan bevosita bog‘liq.

MAQSAD: nazariy mexanika fanini o‘qitishda motivatsiyani to‘rt darajada bosqichma-bosqich shakllantirish asoslarini asoslash va ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ishda nazariy tahlil asosida nazariy mexanikaning fanlararo integrativ o‘rni hamda motivatsiyani “qizdirish–insayt” mexanizmi sifatida talqin qilish yondashuvi qo‘llanildi. Motivatsiyani makro–midi–mini–mikro darajalarda rejalashtirish, modul va dars darajasida muammoli vaziyatlar hamda modellashtirish elementlarini integratsiya qilish taklif etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: makro-motivatsiya kasbga yo‘nalish va mexanikaning kasbiy ahamiyatini anglashni kuchaytiradi; midi-motivatsiya fan bo‘yicha barqaror qiziqishni shakllantiradi; mini-motivatsiya modul natijalarini aniq ko‘rsatish orqali bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi; mikro-motivatsiya har bir darsda maqsad, keys va amaliy misollar orqali faollikni oshiradi. Mexanikaning real texnika va texnologiyalardagi (jumladan, tribotexnika) qo‘llanilishi motivatsion resurs sifatida ta’lim mazmunini amaliy yo‘naltiradi.

XULOSA: motivatsiyani darajaviy va tizimli shakllantirish nazariy mexanikani ongli o‘zlashtirishni kuchaytiradi va kasbiy kompetensiyalar rivojini qo‘llab-quvvatlaydi. Darslarda interfaol metodlar, keys va modellashtirishni joriy etish mikro-motivatsiyani barqarorlashtirishda muhim.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, makro-motivatsiya, midi-motivatsiya, mini-motivatsiya, mikro-motivatsiya, nazariy mexanika, kasbiy tayyorgarlik, tribotexnika.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОЭТАПНОГО ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ

Пармонов Абдутолиб Абдувахоб ўғли, независимый исследователь Гулистанского государственного университета, доцент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана, PhD, Джизак, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: теоретическая механика является базовой дисциплиной, развивающей инженерное мышление, а её успешное освоение зависит от устойчивой мотивации обучающихся.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ЦЕЛЬ: обосновать педагогические основы поэтапного формирования мотивации и показать её потенциал для повышения эффективности обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использован теоретический анализ роли теоретической механики в системе дисциплин и подход к мотивации как механизму «разогрева–инсайта». Предложено планирование мотивации на уровнях программы, дисциплины, модуля и занятия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: макро-мотивация усиливает профессиональную направленность; миди-мотивация закрепляет интерес к дисциплине; мини-мотивация поддерживает модульное освоение; микро-мотивация активизирует работу на каждом занятии через цели, кейсы и практические задания. Примеры из современной техники и триботехники повышают осмысленность обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: системное поэтапное формирование мотивации повышает осознанное усвоение теоретической механики и развитие профессиональных компетенций; эффективны интерактивные методы, кейсы и моделирование на уровне занятия.

Ключевые слова: мотивация, макро-мотивация, миди-мотивация, мини-мотивация, микро-мотивация, теоретическая механика, профессиональная подготовка, триботехника.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE STEP-BY-STEP FORMATION OF MOTIVATION IN TEACHING THEORETICAL MECHANICS

Parmonov Abdutolib Abduvahob O‘g‘li, Independent Researcher at Gulistan State University, Associate Professor at the Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, PhD, Jizzakh, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: theoretical mechanics is a core discipline for engineering thinking, and learning success depends on stable motivation.

AIM: to justify a staged motivation model and its contribution to learning effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: a theoretical analysis was applied, treating motivation as an instructional “warm-up–insight” mechanism, and proposing motivation planning at program, course, module, and lesson levels.

DISCUSSION AND RESULTS: macro-motivation strengthens professional orientation; midi-motivation supports course-level commitment; mini-motivation facilitates modular mastery; micro-motivation boosts lesson engagement via clear goals, cases, and practice. Real applications, including tribotechnology, increase meaningfulness and practicality.

CONCLUSION: a systematic staged motivation model enhances conscious learning and professional competencies; interactive methods, case tasks, and modeling are effective at the lesson level.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Keywords: motivation, macro-motivation, midi-motivation, mini-motivation, micro-motivation, theoretical mechanics, professional training, tribotechnology.

Bugungi kunda oliy va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan hamda zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda fundamental fanlarning, xususan, nazariy mexanikaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariy mexanika bo‘lajak mutaxassislarning ilmiy-nazariy tafakkurini shakllantiruvchi, texnik tafakkur va muhandislik fikrlashini rivojlantiruvchi tayanch fan sifatida ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida bilimlarning tez yangilanib borishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkablashuvi hamda muhandislik faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirishni taqozo etadi. Bunda faqatgina nazariy bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularni ongli ravishda o‘zlashtirish, amaliy vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonning samaradorligi esa, avvalo, talabalarda o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va barqaror motivatsiyaning shakllanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya ta’lim jarayonining yetakchi omillaridan biri bo‘lib, u talabaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatini, faolligini va natijadorligini belgilaydi. Ayniqsa, nazariy mexanika kabi murakkab va abstrakt fanlarni o‘zlashtirishda motivatsiyani bosqichma-bosqich shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Shu bois, mutaxassis tayyorlash jarayonida motivatsiya tizimini makro, midi, mini va mikro darajalarda tashkil etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur maqolada nazariy mexanika fanini o‘qitishda motivatsiyani tizimli ravishda shakllantirish masalalari yoritilib, mexanika fanining zamonaviy texnika va texnologiyalar rivojidagi ilmiy-nazariy ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, motivatsiyaning turli darajalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil etiladi.


Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy mexanika fani bo‘lajak mutaxassislarning ilmiy-nazariy tayyorgarligini shakllantirishda tayanch fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan fizika va matematika kabi fundamental fanlar bilan bir qatorda, maxsus hamda kasbiy yo‘naltirilgan fanlar o‘rtasida muhim integrativ bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Mazkur fanlar majmuasining umumiy mazmuni keng qamrovli “mexanika” tushunchasi orqali ifodalanadi.

O‘rta maxsus professional ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalish, asosan, “Texnik mexanika” yoki “Amaliy mexanika” fanlari doirasida o‘qitiladi. Oliy ta’lim muassasalarida esa mexanika yo‘nalishi “Nazariy mexanika”, “Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi”, “Materiallar qarshiligi”, “Mashina detallarini loyihalash” kabi fundamental fanlarning yagona va uzviy tizimi sifatida ta’lim jarayonidan mustahkam o‘rin egallaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Nazariy mexanika fanlarini samarali o‘zlashtirish jarayonida talabalarning tafakkur faoliyatini faollashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tafakkur faolligining asosiy sharti talabalarda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj hamda barqaror o‘quv motivlarining



shakllanganligi bilan belgilanadi. “Ehtiyoj”, “motiv” va “qiziqish” tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ayniqsa qiziqish ta’lim jarayonining yetakchi harakatlantiruvchi omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, talabalarda fanga nisbatan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish o‘qituvchining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlarda motivatsiya ko‘pincha “qizdirish” (razogrev) jarayoni sifatida izohlanadi. Ushbu jarayon talabaning ijodiy salohiyatini faollashtirish, uni muayyan yo‘nalishda faol va ongli harakat qilishga ruhiy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi. “Qizdirish” mexanizmi, asosan, “insayt” — ya’ni tushunishning kutilmaganda va keskin ravishda yuzaga kelishi hodisasiga tayanadi hamda motivatsion jarayonning boshlang‘ich bosqichini tashkil etadi.

Mazkur bosqichning asosiy vazifasi talabaning ichki tayyorgarligini kuchaytirish, mavjud intellektual imkoniyatlarini namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratish hamda uni keyingi ta’limiy faoliyat bosqichlariga — o‘quv materialini idrok etish, mazmunni ongli ravishda o‘zlashtirish va olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash jarayoniga samarali tayyorlashdan iboratdir [1, 2, 3, 4, 5].

Mutaxassislarni tayyorlash jarayonida motivatsiya tizimini to‘rt darajada namoyon bo‘ladigan murakkab pedagogik hodisa sifatida talqin etish mumkin (1-rasm). Ushbu tizim talabaning kasbiy shakllanish jarayonida motivatsiyaning bosqichma-bosqich rivojlanishini ifodalaydi.

Birinchi pog‘ona — **makro-motivatsiya** bo‘lib, u kasb va mutaxassislikni egallashga yo‘naltirilgan umumiy motivatsiyani o‘z ichiga oladi. Mazkur daraja, odatda, “Mutaxassislikka kirish” fanini o‘rganish jarayonida shakllantiriladi va talabaning tanlagan kasbiga nisbatan ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-rasm. Motivatsiya darajalarini tasniflanishi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Ikkinchi pog‘ona - **midi-motivatsiya** bo‘lib, u o‘quv rejasida nazarda tutilgan har bir alohida fan bo‘yicha o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani ifodalaydi. Ushbu bosqichda talabaning fanning mazmuni va kasbiy ahamiyatini anglash darajasi muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi pog‘ona - **mini-motivatsiya** bo‘lib, fan modul asosida tashkil etilgan hollarda har bir modulni o‘zlashtirish uchun shakllantiriladigan qo‘shimcha motivatsiyani anglatadi. Bu daraja ta’lim jarayonining bosqichma-bosqichligi va tizimliligini ta’minlaydi.

To‘rtinchi pog‘ona - **mikro-motivatsiya** bo‘lib, u har bir dars mashg‘ulotining aniq mazmuni asosida talabalarni ushbu mashg‘ulotni faol o‘zlashtirishga yo‘naltirishga qaratilgan motivatsiyani ifodalaydi. Mazkur daraja o‘qituvchining pedagogik mahorati va ta’lim metodlarining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mexanika fanining yutuqlari zamonaviy texnika va texnologiyalarning deyarli barcha sohalarida - mashinasozlik, aviatsiya, kosmik muhandislik, kemasozlik, transport tizimlari, gidrotexnika, qurilish sanoati hamda qishloq xo‘jaligi mashinasozligida - muhim ilmiy-nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Jahon ilm-fani rivoji shuni ko‘rsatadiki, mexanika sohasida erishilgan innovatsion natijalar ko‘plab texnologik jarayonlarning tubdan takomillashuviga kuchli turtki bo‘lib xizmat qilgan.

Xususan, xalqaro kosmik stansiyalar va kosmik kemalar tizimi, sanoat robotlari, chiqindisiz texnologiyalar, moslashuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish majmualari, mashina va mexanizmlarning ishonchliligi nazariyasi, ishqalanish jarayonlarining ilmiy asoslari hamda ularning amaliy tatbiqlari mexanika fanining bevosita natijalari hisoblanadi.

Alohida ta’kidlash joizki, ishqalanish mexanikasi — tribotexnika yo‘nalishida olib borilgan fundamental tadqiqotlar selektiv o‘tkazish kabi yangi fizik-kimyoviy effektlarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu sohada ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalar yeyilishga chidamli ishqalanish juftlarini yaratish, mashina va mexanizmlarning xizmat muddatini sezilarli darajada uzaytirish hamda murakkab ekspluatatsion sharoitlarga mos konstruktiv yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Mazkur ilmiy natijalar, ayniqsa, kosmik apparatlar, yuqori vakuum sharoitida ishlovchi mexanizmlar hamda agressiv muhitda faoliyat yurituvchi texnik tizimlar uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nazariy mexanika fanini o‘qitishda motivatsiyani tizimli va bosqichma-bosqich shakllantirish talabalarning o‘quv faolligi, bilimlarni ongli o‘zlashtirishi hamda kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Motivatsiyaning makro, midi, mini va mikro darajalarda tashkil etilishi talabaning kasb tanlashdan tortib, alohida dars mashg‘ulotlarini puxta o‘zlashtirishigacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni ta’minlaydi.

Nazariy mexanika fanining zamonaviy texnika va texnologiyalar rivojidagi ilmiy-nazariy poydevor sifatidagi ahamiyati talabalarda ushbu fanga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantirish uchun kuchli asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mexanika fanining real ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or muhandislik yechimlari bilan uzviy bog‘liqligi o‘quv jarayonining amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, motivatsiyani faollashtirish mexanizmlarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish nazariy mexanika fanini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni kamaytirishga imkon beradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Nazariy mexanika fanini o‘qitishda motivatsiyani shakllantirish makro, midi, mini va mikro darajalarda rejalashtirilgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

- “Mutaxassislikka kirish” fanlari doirasida mexanika fanining kasbiy faoliyatdagi o‘rni va ahamiyatini yoritishga alohida e’tibor qaratish orqali makro-motivatsiyani kuchaytirish lozim.
- Har bir alohida fan va modul bo‘yicha o‘quv materialining amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi misollar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Har bir dars mashg‘ulotida mikro-motivatsiyani shakllantirish maqsadida interfaol metodlar, muammoli ta’lim, keys-stadi va amaliy modellashtirish elementlarini keng joriy etish zarur.
- Mexanika fanining zamonaviy texnika va texnologiyalardagi qo‘llanilishiga oid real misollar, innovatsion ishlanmalar va ilmiy yutuqlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur xulosa va tavsiyalar nazariy mexanika fanini o‘qitish jarayonida motivatsiyani samarali shakllantirishga, ta’lim sifatini oshirishga hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Семёнов А.Л., Роль информационных технологий в общем среднем образовании / А.Л. Семенова. – М.: Изд-во МИПКРО, 2000. – С.32.
2. Шалин М.И., Организационно-педагогические условия развития конкурентоспособности личности старшеклассника / М. И. Шалин // Теория и практика образования в современном мире: материалы III Междунар. науч. конф. (г.Санкт-Петербург, май 2013 г.). – СПб.: Реноме, 2013. – С. 47–49.
3. Tarasenko R., Amelina S., Azaryan A., Arnold Y.K., Mariya P.Sh. – 2020 ds.knu.edu.ua.
4. Parmonov A.A. Modern digital technologies and it is necessary to bring them into the educational process. / “International conference of philology, social activities and modern science”. -2023. –PP. 98-101.
5. Parmonov A.A. Raqamli transformatsiya va sanoat integratsiyasi sharoitida muhandislik ta’limining dolzarb muammolari // Kasb-hunar ta’limi. – 2025, №5. –B. 226-236. Ilmiy-uslubiy amaliy, ma’rifiy jurnal. (13.00.00 №19).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

SHARQ UYG‘ONISHI AN’ANALARINI ZAMONAVIY INNOVATSION PEDAGOGIK METODLAR BILAN UYG‘UNLASHTIRISH

Raxmanova Nigora Xusanboyevna, Namangan davlat universiteti, tadqiqotchi, Namangan, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: sharq uyg‘onishi an’analari (ustoz–shogird tizimi, ma’naviy qadriyatlar)ni zamonaviy innovatsion metodlar bilan birlashtirish o‘quvchilarning kompleks rivoji uchun dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.

MAQSAD: an’anaviy va innovatsion pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tarixiy-nazariy va komparativ tahlil asosida ustoz–shogird modeli hamda zamonaviy metodlar o‘rganildi. Empirik metodlar orqali pedagoglarning innovatsiyalarni joriy etish tajribasi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: individual yondashuv va ma’naviy tarbiya elementlarini interaktiv va raqamli metodlar bilan uyg‘unlashtirish dars samaradorligini oshiradi. Innovatsion metodlar kreativlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirsa, tarixiy qadriyatlar ma’naviy-axloqiy rivojlanishga xizmat qiladi.

XULOSA: an’analar va innovatsiyalar integratsiyasi ta’limni interaktiv va ijodiy modelga olib kelib, pedagogik samaradorlikni oshiradi.

Kalit so‘zlar: sharq uyg‘onishi, ustoz–shogird tizimi, innovatsion metodlar, pedagogik integratsiya, interaktiv ta’lim.

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАДИЦИЙ ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ С СОВРЕМЕННЫМИ ИННОВАЦИОННЫМИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ

Рахманова Нигора Хусанбоевна, Наманганский государственный университет, исследователь, Наманган, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: сочетание системы «устоз–шагирд» и современных цифровых технологий является актуальным направлением развития образования.

ЦЕЛЬ: определить теоретические основы и механизмы интеграции традиционных и инновационных подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы историко-теоретический и сравнительный анализ, а также эмпирические методы изучения практик педагогов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: синтез наставничества и интерактивных методов повышает мотивацию и учебные результаты. Традиционные ценности укрепляют духовно-нравственный компонент развития.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция традиций и инноваций способствует созданию целостной и эффективной образовательной модели.

Ключевые слова: восточное Возрождение, система «устоз–шагирд», инновационные методы, педагогическая интеграция, интерактивное обучение.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

INTEGRATING THE TRADITIONS OF THE EASTERN RENAISSANCE WITH MODERN INNOVATIVE PEDAGOGICAL METHODS I

Rakhmanova Nigora Khusanboyevna, Namangan State University, Researcher, Namangan, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: combining the master–apprentice tradition with digital and interactive approaches represents a relevant direction in educational development.

AIM: to determine theoretical foundations and mechanisms for integrating traditional and innovative methods.

MATERIALS AND METHODS: historical-theoretical and comparative analysis, along with empirical study of teaching practices, were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: integrating mentorship principles with interactive technologies improves engagement and learning outcomes. Traditional values strengthen moral and social development.

CONCLUSION: the integration of tradition and innovation promotes a holistic and effective educational model.

Keywords: eastern Renaissance, master–apprentice system, innovative methods, pedagogical integration, interactive learning.

Fonematik idrok- bu fonemalarni farqlash va ajratishga ko‘ra, so‘z tarkibidagi tovushlarni aniqlash bo‘yicha aqliy faoliyatdir.

Fonematik eshituv- tanafuzsiz bo‘g‘inlar qatorini nazorat qilishni amalga oshiradi.

Fonetik buzilish — tovushlarni fiziologik jihatdan noto‘g‘ri talaffuz qilish. Masalan: “r” harfini “l” deb aytish, yoki undoshlarni tushirib yuborish. Tovushlar farqini eshitishda yoki tushunishda muammo bo‘lishi, ya’ni o‘xshash tovushlarni farqlay olmaslik. Masalan: “suv” o‘rniga “shuv” deyish.

Nutqiy eshituv- fonetik va fonematik eshituvni hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib u nafaqat o‘zgalarni nutqini qabul qiladi va shu bilan birga baxolaydi, balki o‘z nutqini ham nazorat qiladi. Nutqiy eshituv tallaffuzni shakillanishi asos hisoblanadi. Ko‘pgina olimlarning ma’lumotiga ko‘ra idrok shakllanmaganligi nutqiy kamchiliklar sabablari ichida birinchilardan deb hisoblanadi. Bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan xolda juda erta rivojlanar ekan. Fonemagacha bo‘lgan davrda bola kattalar nutqi intonatsiyasiga, uning ritmiga, so‘zlarning umumiy tovush tizimiga reaksiya ko‘rsatadi. Bolada muloqotning nutqiy shakllariga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu davrga kelib bola tovushlarni idrok qila boshlaydi, so‘zlardan fikrni ifodalash maqsadida foydalanadi. Bir yoshdan ikki yoshgacha nutqni idrok qilish shakllanadi, ikki yoshning oxiriga borganda esa to‘liq nutqni egallash asosi bo‘lgan birlamchi fonematik eshitish rovojlanadi va bola nutqdagi barcha tovushlarni idrok eta boshlaydi. Ohangdor nutqni bola tomonidan o‘zlashtirib olinishi, boshqa tovush taassurotlaridan tovushli nutqni tez ajratishi, eshitish tasavvurlari uning shaxsiy talaffuzida fonematik elementlarni ishlab chiquvchi regulator hisoblanadi. Nutqiy eshituv nutqiy qobiliyatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va har bir qobiliyat singari u ham nutq madaniyatining bir butunligi va tilning fonologik vositalarini o‘zlashtirish asosida rivojlanadi, ta’minlanadi va takomillashadi. Fonematik idrok hamda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar namoyon bollishiga ko‘ra xilma-xildir. Ba’zi bir bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar artikulatsion apparat tuzilishi va harakatidagi kamchiliklar natijasida kelib chiqadi. Bunda juda ko‘p tovushlarni umuman talaffuz eta olmaslik, artikulatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan yoki artikulatsion jihatdan bir-biriga o‘xshash tovushlarga almashtirish hamda tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish hollari kuzatiladi. Ba’zi bolalarda kuzatiladigan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar artikulatsion apparat harakatidagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lmay, balki tovushlarni noaniq idrok qilish natijasida kelib chiqadi. Bola nutqining talaffuz tomoni qanchalik buzilgan bo‘lsa, u so‘zlarda tovushlarni analiz qilishga shunchalik qiynaladi. Bu esa o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘diradi degan xulosaga keldi.

Bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar;

— tovushning nutqda bo‘lmasligi uni talaffuz qila olmaslik, artikulatsiya va talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni almashtirish;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

— tovushlarni almashtirish tovush alohida to‘g‘ri talaffuz qilinadi, lekin so‘z va gaplarda bir guruhdagi tovushlar bilan almashtiriladi;

— tovushlar nutqda bo‘ladi, lekin artikulatsion jihatdan aniq talaffuz qilinmaydi. Shunday muommolar maktab yoshidagi bolalarda fonetiko-fonematik nutqni rivojlanishidagi buzulishlarni koplab kuzatishimiz mumkun.

Talaffuz buzilishlari (fonemalarning aralashib ketishi va almashishi) fonematik qabul qilishdagi yetishmovchilik bilan birga kechadigan bolalar logopedik mashg‘ulotlarga yuboriladigan bolalarning umumiy sonining 20–25 foizini tashkil qiladi. Shu sababli, ular so‘zning tovush tahlili va sintezini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi va natijada — yozuv bo‘yicha o‘zlashtira olmaydilar.

Talaffuz va fonematik eshitishdagi buzilishlarga bog‘liq xatolar xarakteri turlicha bo‘ladi: undosh va unli tovushlarning almashib ketishi yoki tushirib qoldirilishi, bo‘g‘inlar va so‘z qismlarining tushirib qoldirilishi, tovushlarning joyi almashtirilishi, ortiqcha tovushlar qo‘shilishi, so‘z qismlarining alohida yozilishi. Talaffuz, yozuv va o‘qishdagi buzilishlar o‘rtasida har doim to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik kuzatilmaydi. Ba’zi hollarda bir xil darajadagi talaffuz buzilishi o‘qish va yozishdagi turlicha og‘irlikdagi buzilishlar bilan birga kechadi, yoki холат aksincha kuzatiladi. Boshqa hollarda esa talaffuzdagi unchalik sezilmaydigan, yumshatilgan buzilishlar fonida yozuv va o‘qishdagi kamchiliklar yaqqol namoyon bo‘ladi. Aksincha, ayrim bolalarda esa fonetik nuqsonlar ko‘p bo‘lsada, yozuv va o‘qishdagi kamchiliklar minimal bo‘ladi. Bunday farqlilik (variativlik) sababli talaffuz, o‘qish va yozuvdagi buzilishlar o‘zaro turlicha munosabatda bo‘ladi. Buning sabablari quyidagilardir:

a) talaffuz, o‘qish va yozuv jarayonlaridagi buzilishlarning kelib chiqish sabablari (etiologiyasi);

b) o‘quvchilarning kompensator imkoniyatlari (ya'ni, yo‘qotilgan funksiyalarni boshqa yo‘l bilan qoplash qobiliyati);

v) individual shaxsiy sifatlari;

g) oldingi ta’lim va tarbiyaning aniq sharoitlari.

Nutqning fonetik-fonematik tomondan rivojlanmaganligi-bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir. Bunday nutq kamchiligida nutqning idrok va talaffuz qilish nuqsonlariga asoslangan fonetik-fonematik tomonining buzilishi birinchi o‘rinda turadi. Shu bilan birga ba’zi bolalarda leksika-grammatik taraqqiyotida yaqqol ifodalanmagan orqada qolish hollari ham kuzatilishi mumkin. Bu toifadagi bolalarga xos xususiyat artikulyatsion yoki akustik belgilariga ko‘ra farq qiladigan tovushlarning shakllanish jarayonining tugallanmagan bo‘lishidir. Bu holda bola nutqida differensiatsiyalanmagan tovushlar bo‘lishi tovushlarni almashtirish, nutqda ularni qo‘llamaslik, ko‘plab tovushlarni buzib talaffuz qilish, shuningdek tovushlarni eshitishga ko‘ra yetarli farqlamaslik kuzatiladi.

Nutq faoliyatining ayrim tomonlarini rivojlantirishga qo‘yiladigan talablarni aniqlash maqsadida quyidagi maxsus ishlar amalga oshiriladi:

– talaffuz malakalarini shakllantirish;

– fonematik idrokni rivojlantirish;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

– tovush analiz va sintezi ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tuzatuvchi ta’limning maqsadi: bolalarda umumiy va nutq kamchiliklarini tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo‘llash yo‘li bilan bolaning yoshiga muvofiq lug‘at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to‘g‘ri, aniq, ravon nutqni tarbiyalash.

Tuzatilgan nutqiy material ustida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– bolalarda so‘zning morfologik tarkibiga va so‘zlarning o‘zgarishga e’tiborni jalb etish hamda so‘zlarning gapda bog‘lanishini rivojlantirish;

– bolalarda oddiy yoyiq va qo‘shma gaplarni to‘g‘ri tuzish, mustaqil nutqda turli konstruksiyadagi gaplarni qo‘llash ko‘nikmalarini tarbiyalash;

– mustaqil nutqni rivojlantirish:

– lug‘atini boyitish:

– talaffuzini to‘g‘rilash asosida savodga o‘rgatish:

– ixtiyoriy diqqat va xotirani rivojlantirish.

Fonetik-fonematik nutq rivojlanmaganligini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan korreksion ish tizimi shartli ravishda 3 davrga bo‘linadi. Ularning har birining mazmuni va hajmi jihatidan farq qilgan holda bir-biriga bog‘liq hamdir. Korreksion logopedik ishning oldingi davri keyingi davrdagi ish mazmunini o‘zlashtirib olishga bolalarni tayyorlaydi.

Korreksion ishning birinchi davrida olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni:

Fonetik – fonematik nutq rivojlanmaganligini bartaraf etishda olib boriladigan korreksion ishning birinchi davrini tayyorlov davri deb ham nomlash mumkin. Bu davrda olib boriladigan ishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: artikulyatsion apparat xarakatchanligini rivojlantirish; to‘g‘ri talaffuz qilinadigan tovushlarni aniqlash; tovushlarni nutqqa qo‘yish; eshituv idrokini rivojlantirish, tovushlar differensiatsiyasi ustida ishlash so‘z va bo‘g‘in ichidan tovushni ajratish.

Fonetik–fonematik nutq rivojlanmaganligini bartaraf etish jarayonining birinchi bosqichi tayyorlov davri hisoblanadi. Ushbu davrda artikulyatsion apparatning harakatchanligini rivojlantirish, to‘g‘ri talaffuz etiladigan tovushlarni aniqlash, yangi tovushlarni nutqqa qo‘yish, eshituv idrokini faollashtirish hamda tovushlarni differensiatsiya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, so‘z va bo‘g‘in ichidan tovushlarni ajrata olish, tovushlarni solishtirish va eshituv orqali aniqlash kabi mashqlar muntazam bajariladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi — bolaning nutq apparatini keyingi, murakkabroq korreksion mashg‘ulotlarga tayyorlashdir.

Korreksion ishning ikkinchi davri: Ushbu bosqichda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni mustahkamlash, ularni so‘z, so‘z birikmasi va gap tarkibida faol qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish ustida ishlanadi. Tovushlar differensiatsiyasini mustahkamlash, fonematik idrokni rivojlantirish, tovush tahlili va sintezi bo‘yicha amaliy mashqlarni kengaytirish ikkinchi davrning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Shuningdek, bolaning lug‘at boyligini oshirish, so‘zlarning fonetik tarkibini anglash, morfologik o‘zgarishlarni fahmlash va nutqda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bu bosqich fonetik-fonematik tizimni barqaror shakllantirishga qaratilgan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Korreksion ishning uchinchi davri: Uchinchi bosqich yakuniy davr bo‘lib, bunda bolada shakllangan talaffuz malakalari mustahkamlanadi va kundalik nutqiy faoliyatga tatbiq etiladi. Tovushlarning to‘g‘ri qo‘llanishi keng nutqiy vaziyatlarda mashq qilinadi: dialogik va monologik nutqda, hikoya tuzishda, matnni qayta aytib berishda. Shuningdek, yozma nutqqa tayyorlov ishlari — tovush-bo‘g‘in tahlili, so‘zlarni tovush tarkibi bo‘yicha ajratish, savod o‘rgatishga yordam beruvchi mashqlar intensiv ravishda davom ettiriladi. Bu bosqichda diqqat, xotira, tafakkur kabi psixik jarayonlarni rivojlantirishga ham e’tibor qaratiladi, chunki ular nutqning to‘laqonli shakllanishi uchun zarur omillardir.

Xulosa: Fonetik-fonematik nutq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar murakkab, izchil va bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayon bo‘lib, u bolaning nutqiy faoliyatini to‘liq shakllantirishga qaratilgan. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni differensiatsiya qilish, so‘z va gapda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish ushbu ishlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Vaqtida va to‘g‘ri tashkil qilingan logopedik yordam bolaning o‘qish, yozish, muloqot qilish kabi asosiy ta’lim jarayonlarini muvaffaqiyatli egallashiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ayupova.M.Yu. Logopediya -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati .2007
2. Axmedova Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq kamchiliklarini bartaraf etishda logopedik ish tizimi. T.,2017.
3. Volkova G.A. Logopedicheskaya ritmika. – M., 2003.
4. Kartushina M.Yu. Logoritmika dlya malыshey: Ssenarii zanyatiy s detmi 3-4 let. – M., 2005.
5. Kartushina M.Yu. Logoritmicheskie zanyatiya v detskom sadu. – M., 2004.
6. Kolesnikova.G.I., Kabaruxina I.A. Spesialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
7. Spesialnaya psixologii. Pod. red Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. M.: 2005
8. Kosyakova O.O Logopsixologiya.-M.: Feniks 2007

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MATN YARATISH KOMPETENSIYASINING MAZMUNI VA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINING HOZIRGI HOLATI

Xaitova Nodira Bafoyevna, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, Buxoro, O’zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: hozirgi zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda davlat ta’lim standartlari hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlarga qator o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu hujjatlarda ta’lim oluvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar, xususan, kommunikativ va nutqiy kompetensiyalar muhim o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalaridan biri — matn yaratish kompetensiyasi bo‘lib, u o‘quvchilarda nutqiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va savodxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish, uning mazmunini aniqlash va hozirgi holatini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi” fanining o‘quv dasturlarida matn yaratishga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar belgilab berilgan bo‘lsa-da, amaliyotda ularning qay darajada shakllanganligini tahlil qilish zarurati mavjud. Mazkur maqolada matn yaratish kompetensiyasining mazmuni yoritilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ushbu kompetensiya bo‘yicha hozirgi holati tahlil qilinadi.

MAQSAD: ona tili va uni o’qitish metodikasi o’quv dasturlarida belgilab berilgan matn yaratish kompetensiyasi mazmuni hamda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasining hozirgi holati batafsil tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: o’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, DTS, “Ona tili va uni o’qitish metodikasi” o’quv dasturlari va rejalari, o’quv-metodik majmualari kabi materiallar matn yaratish kompetensiyasi mazmunini tahlil qilishga xizmat qildi. Matn yaratish kompetensiyasiga oid esa, ilmiy maqola, monografiya, metodik qo’llanmalar hamda talabalarning yozma ishlari, matn namunalari tadqiqot materiali sifatida foydalanildi. Tadqiqot jarayonida esa nazariy tahlil, taqqoslash va kuzatish metodlari, diagnostik metodlar hamda kontent-statistik tahlil metodlaridan samarali foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn yaratish kompetensiyasi holati tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, mazkur kompetensiya talabalarda muayyan darajada shakllangan bo‘lsa-da, uning tarkibiy komponentlari o‘rtasida nomutanosiblik mavjud. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlari (matn tushunchasi, uning turlari, tuzilishi) yetarli darajada shakllangan, biroq ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalari sust rivojlangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalar matnning mavzusi va asosiy g‘oyasini aniqlashda qiyinchilikka duch kelmaydilar, ammo mantiqiy izchillikni ta’minlash, fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishni mustahkamlash, nutqiy vositalardan o‘rinli foydalanishda

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

muammolar mavjud. Ayniqsa, ijodiy va erkin matnlar yaratishda talabalarning leksik zahirasi va stilistik moslikni ta'minlash ko'nikmalari yetarli emasligi aniqlandi.

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida matn yaratishga oid topshiriqlar ko'proq reproduktiv xarakterga ega bo'lib, ijodiy yondashuvni talab etuvchi mashqlar kam qo'llanilmoqda. Bu esa kelajakda ularning o'quvchilarda mustaqil va ijodiy yozma nutqni shakllantirishdagi imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

NATIJALAR: Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn yaratish kompetensiyasi asosan o'rtacha darajada shakllangan.
2. Talabalarda matn yaratish kompetensiyasining kognitiv komponenti (nazariy bilimlar) amaliy komponentga nisbatan ustunligi aniqlandi.
3. Ijodiy matn tuzish, fikrni mantiqiy izchillikda bayon etish va uslubiy talablarni hisobga olish bo'yicha muammolar mavjud.
4. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga ijodiy yozma ishlar, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar va refleksiv mashg'ulotlarni keng joriy etish zarur.
5. Maxsus ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va mashqlar tizimi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

XULOSA: olib borilgan tadqiqot va tahlillar natijasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi. Bu esa kelgusida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: matn yaratish kompetensiyasi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, davlat ta'lim standartlari, kognitiv bilimlar, amaliyot, kreativlik, metodik tayyorgarlik.

СОДЕРЖАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Хаитова Нодира Бафоевна, PhD студент Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в соответствии с современными требованиями образования в стандарты государственного образования и Закон «Об образовании» были внесены изменения. Эти нормативные документы подчеркивают важность формирования у обучающихся компетенций, в частности коммуникативной и речевой компетенций. Одной из ключевых профессиональных компетенций учителя начальных классов является компетенция создания текста, которая играет важную роль в развитии речевого мышления, логического мышления и грамотности

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

учащихся. Поэтому актуальной является задача формирования компетенции создания текста у будущих учителей начальных классов, определения ее содержания и изучения текущего состояния. Несмотря на то, что учебные программы по дисциплине «Родной язык и методика его преподавания» предусматривают знания, навыки и компетенции по созданию текста, необходимо проанализировать, в какой степени они сформированы на практике. В данной статье рассматривается содержание компетенции создания текста и анализируется текущее состояние этой компетенции у будущих учителей начальных классов.

ЦЕЛЬ: подробно проанализировать содержание компетенции создания текста, предусмотренной в учебных программах по дисциплине «Родной язык и методика его преподавания», а также текущее состояние компетенции создания текста у будущих учителей начальных классов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в качестве материалов использованы Закон Республики Узбекистан «Об образовании», государственные образовательные стандарты, учебные программы и рабочие планы по дисциплине «Родной язык и методика его преподавания», методические комплексы. Для изучения компетенции создания текста были использованы научные статьи, монографии, методические пособия, а также письменные работы студентов и образцы текстов. В процессе исследования применялись теоретический анализ, сравнение, наблюдение, диагностические методы и методы контент-статистического анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ состояния компетенции создания текста у будущих учителей начальных классов показал, что эта компетенция у студентов сформирована в определенной степени, однако наблюдается дисбаланс между ее структурными компонентами. В частности, у студентов достаточно развиты теоретические знания о тексте, его типах и структуре, но навыки применения этих знаний на практике развиты слабо. Результаты исследования показывают, что студенты не испытывают трудностей при выявлении темы и основной идеи текста, однако у них возникают проблемы с обеспечением логической последовательности, укреплением связей между мыслями и правильным использованием речевых средств. Особенно слабо развиты навыки создания творческих и свободных текстов, использование лексического запаса и соблюдение стилистической согласованности. Кроме того, в процессе подготовки будущих учителей задания по созданию текста в основном носили репродуктивный характер, а задания, требующие творческого подхода, применялись недостаточно. Это может ограничивать возможности студентов в формировании у своих будущих учеников навыков самостоятельного и творческого письменного высказывания.

Основные выводы

1. Компетенция создания текста у будущих учителей начальных классов сформирована в основном на среднем уровне.
2. Когнитивный компонент компетенции (теоретические знания) преобладает над практическим компонентом.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

3. Существуют трудности в создании творческих текстов, логичном изложении мыслей и соблюдении стилевых требований.

4. Для развития компетенции создания текста необходимо широко применять в образовательном процессе творческие письменные работы, проблемные ситуации, интерактивные методы и рефлексивные занятия.

5. Разработанные методические рекомендации и система упражнений могут эффективно повышать профессиональную подготовку будущих учителей начальных классов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показало, что развитие компетенции создания текста у будущих учителей начальных классов требует непрерывного, системного и практико-ориентированного подхода. Это имеет важное значение для формирования у школьников начальной школы речевых, коммуникативных и творческих компетенций.

Ключевые слова: компетенция создания текста, будущие учителя начальных классов, государственные образовательные стандарты, когнитивные знания, практика, креативность, методическая подготовка.

THE CONTENT OF TEXT CREATION COMPETENCE AND THE CURRENT STATE OF TEXT CREATION COMPETENCE AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Xaitova Nodira Bafoyevna, PhD student of Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in accordance with modern educational requirements, amendments have been made to the State Educational Standards and the Law “On Education.” These legal documents emphasize the importance of developing competencies in learners, particularly communicative and speech competencies. One of the key professional competencies of a primary school teacher is text creation competence, which plays a crucial role in developing students’ speech thinking, logical reasoning, and literacy skills.

Therefore, it is relevant to study the formation of text creation competence in future primary school teachers, determine its content, and analyze its current state. Although the curricula of the course “Native Language and Methods of Teaching It” define the knowledge, skills, and competencies related to text creation, it is necessary to assess the extent to which they are developed in practice. This article examines the content of text creation competence and analyzes its current state among future primary school teachers.

AIM: to analyze in detail the content of text creation competence defined in the curriculum of the course “Native Language and Methods of Teaching It,” as well as the current state of text creation competence among future primary school teachers.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MATERIALS AND METHODS: materials included the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education," State Educational Standards, curricula and lesson plans for "Native Language and Methods of Teaching It," and methodological complexes. Scientific articles, monographs, methodological guides, as well as students' written works and text samples were used to study text creation competence. The study employed theoretical analysis, comparison, observation, diagnostic methods, and content-statistical analysis methods.

DISCUSSION AND RESULTS: analysis of the current state of text creation competence among future primary school teachers showed that this competence is partially developed; however, there is an imbalance between its structural components. Specifically, students possess sufficient theoretical knowledge about texts, their types, and structures, but the practical application of this knowledge is weak. The study revealed that students have no difficulty identifying the topic and main idea of a text, but they struggle with ensuring logical coherence, strengthening connections between ideas, and appropriately using speech tools. Especially underdeveloped are the skills for creating creative and free texts, effectively using vocabulary, and maintaining stylistic consistency. Additionally, text creation tasks in teacher training programs are mostly reproductive in nature, while assignments requiring a creative approach are insufficient. This may limit future teachers' ability to develop independent and creative writing skills in their students.

Key Findings

1. Text creation competence among future primary school teachers is generally at an average level.
2. The cognitive component of competence (theoretical knowledge) predominates over the practical component.
3. Difficulties exist in creating creative texts, presenting ideas logically, and adhering to stylistic norms.
4. To develop text creation competence, it is necessary to incorporate creative writing tasks, problem-based activities, interactive methods, and reflective exercises into the educational process.
5. Methodical recommendations and a system of exercises can effectively enhance the professional preparedness of future primary school teachers.

CONCLUSION: the study shows that developing text creation competence in future primary school teachers requires a continuous, systematic, and practice-oriented approach. This is crucial for fostering speech, communicative, and creative competencies in primary school students.

Keywords: text creation competence, future primary school teachers, state educational standards, cognitive knowledge, practice, creativity, methodological preparedness.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yetuk kadr bo‘lib yetishishi, mehnat bozoridagi talablarga javob berishi, jamiyatda o‘z o‘rniga ega pedagog bo‘lishi hamda kasbiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda har tomonlama o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lishi hozirgi zamon talabidir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchiga juda katta mas’uliyat va yuqori talablar qo‘yiladi. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarga ta’lim va tarbiya berar ekan, eng avvalo, o‘zi ularga har jihatdan namuna bo‘la olishi zarur. Bolalarning shakllanayotgan nutqi, rivojlanayotgan tafakkuri hamda ijodiy yondashuvi bevosita o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq. Shu sababli, o‘qituvchi zamonaviy ta’lim talablariga javob bera oladigan, pedagogik va kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining og‘zaki va yozma nutqi aniq, ravon va tushunarli bo‘lsagina, o‘quvchilar mavzuni oson va tez anglaydilar hamda bu ko‘nikmalar ularda ham bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Natijada, o‘quvchilarning matn bilan ishlash, fikrni ifodalash va tushunish qobiliyatlari rivojlanadi. Talabalarning sifatli ta’lim olishi, optimal bilim va malakaga ega bo’lishi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda o’z tasdig’ini topgan. Talabalarning sifatli ta’lim olishi, optimal bilim va malakaga ega bo‘lishi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 47-moddasida: “…davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq sifatli ta’lim olish” huquqi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, ushbu Qonunning 41-moddasida quyidagi vazifalar:

- ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;
- ilmiy-pedagogik faoliyat darajasining o‘sishini va sifatining oshishini rag‘batlantirish;
- pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- o‘qitish sifatining yuqori ko‘rsatkichlariga erishish;
- mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash maqsadlarida belgilangan.

Demak, davlat ta’lim standartlari (DTS) va o‘quv dasturlarida bo‘lajak pedagoglarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash hamda yetuk kadrlarni shakllantirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar qonun moddalari orqali mustahkamlab qo‘yilgan. Har bir bo’lajak kadr o’zining etalon modeliga ega bo’lishi bu uning jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi.

O‘qituvchining etalon modeli — bu zamonaviy ta’lim talablariga mos, ideal (namunaviy) o‘qituvchining kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini o‘zida mujassam etgan me’yoriy–nazariy modeldir. U pedagogdan kutiladigan eng muhim sifatlar, bilimlar, ko‘nikmalar va qadriyatlar majmuasini ifodalaydi.

O’qituvchining etallon modeli:

1. Kerakli motivatsion sferani, pedagogik ideal va professional pozitsiyani o’z ichiga oluvchi pedagogik yo’nalishlar.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

2. Professional kompitentlik o'zini shaxsiy o'qitish tajribasidan olingan bilimdonlik, odatlar, ko'nikmalar, pedagogika teoriyasi va tarixi, pedagogik jarayonlarning texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

3. Shaxsiy sifatlar o'z ichiga: individual-psixologik sifatlarni oladi (o'ziga baho berish, odatlar darajasi, to'g'ri yo'nalganligi).

Shuningdek, interaktiv sifatlar (muloqotda bo'ishi. emotsional ekspressiya), pedagogik takt, ijtimoiy persepsiya, muloqotga haqqoniy qiziqish;

– status-pozitsion sifatlar (ifoda, dissiplina, egiluvchan xususiyatlar, o'quvchining pozitsiyasini qabul qilishga tayyorlik, ta'sir etish yo'llarini o'zgartirishga tayyor bo'lish);


– professional-ilmiy sifatlar (yuqori professionalizm, o'qitish jarayonini baholashda haqqoniy va obyektiv bo'lish);

– didaktiv sifatlar (emotsional yordam beruvchanlik, mehr-oqibat, emotsional ko'rinishlami o'z vaqtida boshqara olish).

4. Psixologik sifatlar-temperament, jins va yosh sifatlari harakatchanlik va nerv tizimi mustahkamligi, emotsional mustahkamlik, fantaziya va xayolni yuqori darajaliligi, intellektual rivojlanishni qabul qilish, fikrlash bo'yicha darajasi va h.k.) [3].

Matn yaratish kompetensiyasining mazmuni — shaxsning fikrini maqsadga muvofiq, mantiqan izchil, til me'yorlariga rioya qilgan holda og‘zaki va yozma shaklda mustaqil matn yaratish qobiliyatlari majmuasini anglatadi.

Matn yaratish kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari:



1-rasm. Matn yaratish kompetensiyaning tarkibiy qismlari.

1. Mazmuniy kompetensiya – mavzuni to‘g‘ri tanlash va ochib berish, asosiy g‘oya va muammoni aniqlash, faktlar, dalillar va misollarni mantiqiy joylashtirish, xulosa chiqarish malakasi.

2. Mantiqiy-tuzilmaviy kompetensiya – matnning kompozitsiyasini to‘g‘ri qurish, gaplar va abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni ta’minlash, sabab-oqibat, qiyoslash, izohlash kabi mantiqiy aloqalardan foydalanish.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

3. Til va uslubiy kompetensiya – leksik boylikdan o‘rinli foydalanish, grammatik me’yorlarga rioya qilish, uslub tanlash, nutqning aniqligi, ravonligi va ifodaliligini ta’minlash.

4. Kommunikativ kompetensiya – adresat (tinglovchi yoki o‘quvchi)ni hisobga olish, matnning maqsadini aniq belgilash, muomala madaniyatiga rioya qilish.

5. Ijodiy kompetensiya – mustaqil va original fikr bildirish, fikrni noodatiy yondashuv bilan ochib berish, badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish.

6. Tahrirlash va refleksiv kompetensiya – yaratilgan matnni qayta ko‘rib chiqish, xatolarni aniqlash va tuzatish, matn sifatini baholash va takomillashtirish.


Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishda yuqorida keltirib o‘tilgan matn yaratish kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlarini bilishi hamda ularga izchillik bilan amal qilishi uning nutqining oson, ravon va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.Hozirgi kunda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quv faoliyati jarayonida o‘zlarining mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda to‘liq hamda aniq ifodalay olishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ushbu holat, avvalo, oliy ta’lim muassasalarida amalda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarida matn yaratish faoliyatiga oid mazmun va metodik ko‘rsatmalarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan fakultativ topshiriqlar hamda ijodiy mashg‘ulotlarning yetarli darajada tashkil etilmasligi, kognitiv bilimlarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lanmaganligi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z fikrlarini mantiqiy izchillikda bayon etish, matn tuzish hamda pedagogik faoliyatda zarur bo‘lgan kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni sust kechmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va pedagogika fakulteti amaliyotchi-talabalarining ko‘plab darslarini kuzatish ishlari shuni ko‘rsatdiki, matn yaratish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishyapti. Buning sababi, ko‘pchilik o‘qituvchilar aytmoqchi bolgan fikrlarining hajmini belgilab olishmaydi. O’quvchiga savollarni yo’llashda ma’lum bir tizimga amal qilishmaydi [4]. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik talabalarning nutqiy faoliyatiga, xususan, matn yaratish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki topshiriqni belgilangan vaqt doirasida bajarishga ulgurmaslik holati talabada hayajon, sarosima va qo‘rquv kabi salbiy hissiy kechinmalarni yuzaga keltiradi. Bunday psixologik holat esa fikrlarning izchil va mantiqiy tarzda shakllanishiga to‘sqinlik qilib, matnning mazmuniy yaxlitligi, grammatik tuzilishi hamda uslubiy aniqligiga salbiy ta’sir etadi. Natijada talabaning o‘z fikrini yozma nutqda to‘liq, ravon va aniq ifodalash kompetensiyasi yetarli darajada namoyon bo‘lmaydi.

Matn — ma’lum bir fikrni izchil, mantiqiy va maqsadga muvofiq tarzda bayon etish uchun tuziladi. Ilmiy va o‘quv-uslubdagi matnlar, odatda, uch asosiy tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



1. Kirish. Bu bosqichda matnning maqsadi, mazmuni, dolzarbliligi, ahamiyati qisqacha yoritib beriladi hamda tinglovchiga nima haqida ma'lumot berishi uchun asos yaratadi.

2. Asosiy qism**.** Bu bosqichda matn asosiy fikrlardan tashkil topadi; tushuntirish, dalillash, tahlil qilish, misol keltirish, amalga oshirish kbi unsurlar amalga oshiriladi.

3. Xulosa. Matn yakunida so'zlovchining bayon etilgan fikrlari umumlashtiriladi, muammo bo'yicha yakuniy mulohaza bildiriladi yoki takliflar aytiladi. Yangi fikr kiritilmaydi, balki oldingi g'oyalar qisqa va aniq tarzda jamlanadi.

Matnni yaratish kompetensiyasini shakllanishi, uni yuzaga chiqishi uchun talaba matn ustida ishlashni, uni tahlil qilishni bilishi kerak. Bu talabaga matnni qanday tarkibiy qismlardan tashkil topish, qanday uslub va janrlardan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi [5]. Shu sababli o'qituvchi oldindan tayyorgarlik ko'rishi va o'quvchiga oson yetkazish maqsadida turli metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari orasida ularning matnga oid tushunchalarini qay darajada egallaganliklarini aniqlash maqsadida quyidagi so'rovnoma taqdim etildi.

1. Siz uchun "matn yaratish kompetensiyasi" nima degani?

A) Matnni grammatik jihatdan to'g'ri yozish ko'nikmasi
B) Matnni mazmunan to'liq, tushunarli va uslubiy jihatdan to'g'ri yaratish qobiliyati
C) O'quvchilarga matn o'qishni o'rgatish ko'nikmasi

2. Siz yozgan matnlarda ko'proq nimaga e'tibor berasiz?

A) Grammatik va imloviy to'g'rilik
B) Matnning mazmuni va izchilligi
C) Matn hajmi va bezakli so'zlardan foydalanish

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matn yozishda asosiy jihat nima, deb o'ylaysiz?

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

A) Matn qisqa va sodda bo‘lishi
B) Matn ilmiy va akademik bo‘lishi
C) Matnda ko‘p murakkab so‘zlar bo‘lishi

4. O‘zingizda matn yaratish kompetensiyasi qanday darajada, deb hisoblaysiz?
A) Yaxshi shakllangan
B) O‘rta darajada, hali rivojlantirish kerak
C) Juda sust rivojlangan

5. Matn yaratishda eng ko‘p duch keladigan muammoingiz qaysi?
A) Fikrni aniqlik bilan ifodalash
B) Uslub va uslubiyatni to‘g‘ri tanlash
C) Grammatik va imloviy xatolar

6. Siz matn yozish kompetensiyasini qanday yo‘l bilan rivojlantirasiz?
A) Yozma topshiriqlar bajarish orqali
B) Kitob o‘qish va tahlil qilish orqali
C) Darslarda berilgan nazariy bilimlar orqali

7. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun matn yaratish kompetensiyasi qanchalik muhim?
A) Juda muhim – bu asosiy kasbiy ko‘nikmalardan biri
B) O‘rta darajada – ba’zan kerak bo‘ladi
C) Kamdan-kam hollarda kerak

8. O‘quvchilar uchun mos matn yaratishda nimalarga e’tibor berish kerak?
A) Yoshga moslik, mavzu soddaligi va tarbiyaviy yo‘nalish
B) Matnning rasmiy tili va murakkabligi
C) Matn hajmi va notanish so‘zlar ko‘pligi

9. Sizningcha, matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng samarali usul qaysi?
A) Amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil topshiriqlar
B) Ma’ruzalar va nazariy materiallar
C) Guruhli bahs-munozaralar

10. Agar sizda imkon bo‘lsa, matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha qanday taklif bildirgan bo‘lardingiz?
A) Ko‘proq amaliy topshiriqlar joriy qilish
B) Adabiy til nazariyasini chuqurlashtirish
C) O‘quv dasturini soddalashtirish

Yuqorida taqdim etilgan so’rovnomalar natijasi quyidagicha tahlil qilinadi:

1- va 2- savolga talabalarning 80 % i matnning grammatik qoidalarga muvofiq yozilishi kerak degan javobni belgilashgan.

4- savolga esa talabalarning deyarli barchasi o’zlarining matn yaratish kompetensiyasi o’rta darajada va uni rivojlantirish kerak degan javobni belgilashgan.

6-savolga deyarli talablarning 90 % imatn yaratish kompetensiyasini kitob mutolaasi va matnlarni tahlil qilish yo’li bilan rivojlantirish mumkinligi aytishgan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Ushbu so'rovnoma yakunida talabalar ko'proq amaliy ishlar, kreativ mashqlar hamda ijodiy ishlar tanolovini tashkil qilishni taklif etishgan.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matn yaratish va nutqiy faoliyatga oid kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ko'rsatdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning matn tuzilishi, mantiqiy izchillik va fikrni yozma shaklda ifodalash borasidagi bilim va ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi.

Shuningdek, o'quv jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarning kamligi, matn yaratish faoliyatiga oid metodik ko'rsatmalarning yetarli emasligi hamda vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik talabalarning nutqiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. URL: https://lex.uz/docs/-5013007
2. Davlat ta'lim standarti. – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2009. 56-b.
4. Mamatova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi: metodik qo'llanma. – Toshkent: "Istiqlol", 2010.
5. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi: monografiya. – Toshkent: "Ilm Ziyo Zakovat", 2022
6. N.B.Xaitova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5 E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2025-yil, 21-noyabr.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA SHARQ PEDAGOGIK MEROSINING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Z.B.Jalilov, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: sharq mutafakkirlari (Al-Farobi, Ibn Sino, Imom Ghazaliy, Jaloliddin Rumi va boshqalar) pedagogik merosi insonning ma’naviy, axloqiy va aqliy rivojlanishi uchun muhim nazariy poydevor hisoblanadi. Ularning g‘oyalari shaxsni komil inson sifatida tarbiyalash va jamiyatga foydali a’zoga aylantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida esa bu merosni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik nazariya va amaliyotda Sharq pedagogik merosining o‘rni va innovatsion yondashuvlarni tadqiq qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

MAQSAD: ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi – Sharq pedagogik merosini o‘rganish va uni zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib, komil insonni tarbiyalashning nazariy va amaliy konsepsiyasini ishlab chiqishda dozarb ahamiyatga ega. Farobiy, Ibn Sino, Gazzoliy va Rumiy pedagogik g‘oyalarini tizimli o‘rganish orqali ularning shaxs tarbiyasidagi ma’naviy, axloqiy va aqliy komponentlarini ta’lim-tarbiya jarayonida tadbiq etish, shaxsning axloqiy, ma’naviy, aqliy va ijodiy kamolotini shakllantirish mezonlarini belgilashda STEAM, loyiha asosida ta’lim, interaktiv va raqamli metodlarni Sharq pedagogik merosi bilan integratsiya qilish ta’lim jarayonida komil insonni tarbiyalash bo‘yicha innovatsion metodlar va texnologiyalarni tatbiq etish usullari ishlab chiqildi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot ishida Sharq pedagogik merosi asarlari, zamonaviy pedagogika adabiyotlari, amaliy tahlillar, nazariy, amaliy, emperik metodlar orqali amalga oshirildi. Sharq pedagogik merosini zamonaviy pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi, o‘quvchilarda axloqiy, ma’naviy, aqliy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullarini aniqlaydi, komil insonni tarbiyalash bo‘yicha nazariy va amaliy model ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: sharq pedagogik merosida komil insonni tarbiyalashda axloqiy, ma’naviy va ilmiy komponentlarni uyg‘unlashtirishga urg‘u beradi. Aqliy rivojlanish va tafakkur asosida shaxsni tarbiyalashni tavsiya qiladi, ruhiy va axloqiy tarbiya orqali ichki kamolotga erishish, mehr-muhabbat va ijodiy tafakkur asosida shaxsni shakllantiradi. STEAM va loyiha asosida ta’lim orqali axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni amaliy mashg‘ulotlarda tatbiq etiladi. Interaktiv va raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Mentorlik va refleksiya orqali o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini nazorat qiladi. Integratsiyalashgan o‘quv dasturlari: nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradi. Sharq pedagogik merosi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilganda, o‘quvchilarda ma’naviy, axloqiy, aqliy va ijodiy kompetensiyalar rivojlanadi. Komil inson konsepsiyasi – nafaqat bilimga, balki shaxsiy fazilat, mas’uliyat va kreativlikka asoslangan holda shakllanadi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

XULOSA: sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi komil insonni tarbiyalashda samarali nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinganda, u nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va ma’naviy kamolotni ham shakllantiradi. Shu bilan birga, mentorlik, refleksiya va loyiha asosida o‘qitish usullari o‘quvchilarning ijodiy va aqliy rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Kalit so‘zlar: komil inson, Sharq pedagogik merosi, Al-Farobiy pedagogik qarashlari, Abu Ali Ibn Sino pedagogik yondashuvi, Imom G‘azzoliy axloqiy tarbiyasi, Jaloliddin Rumiy ma’naviy tarbiyasi innovatsion pedagogik texnologiyalar, STEAM ta’lim metodologiyasi, loyiha asosida o‘qitish, interaktiv dars usullari, raqamli pedagogika, mentorlik va refleksiya, axloqiy va ma’naviy kompetensiyalar, ijodiy va aqliy rivojlanish, pedagogik integratsiya, jamiyatda shaxs tarbiyasi, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar

ВОСПИТАНИЕ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА ЧЕРЕЗ ИННОВАТSIОННЫЕ ПОДХОДЫ ВОСТОЧНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ

З.Б. Джалилов, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: педагогическое наследие восточных мыслителей (Аль-Фараби, Ибн Сина, Имам Газали, Джалаладдин Руми и др.) является важной теоретической основой для духовного, нравственного и интеллектуального развития личности. Их идеи направлены на воспитание человека как совершенной личности и превращение его в полезного члена общества. В современных образовательных процессах необходимо интегрировать это наследие с инноватsионными педагогическими технологиями. С этой точки зрения исследование роли восточного педагогического наследия и инноватsионных подходов в педагогической теории и практике является актуальной научной проблемой.

ЦЕЛЬ: основная цель данного научного исследования — изучение восточного педагогического наследия и его интеграtsiя с современными инноватsионными педагогическими технологиями для разработки теоретической и практической концепции воспитания совершенного человека. Путем систематического изучения педагогических идей Фараби, Ибн Сины, Газали и Руми определены их духовные, нравственные и интеллектуальные компоненты в воспитании личности, установлены критерии формирования морального, духовного, интеллектуального и творческого развития личности, а также разработаны методы применения STEAM, проектного обучения, интерактивных и цифровых методик совместно с восточным педагогическим наследием.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались произведения восточных педагогов, современные педагогические источники, практический анализ. Применялись теоретические, практические и эмпирические методы.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Исследование позволило интегрировать восточное педагогическое наследие с современными педагогическими практиками, выявить методы развития нравственных, духовных, интеллектуальных и творческих компетенций учащихся, а также способствовало разработке теоретической и практической модели воспитания совершенного человека.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в восточном педагогическом наследии акцент делается на интеграtsiю нравственных, духовных и интеллектуальных компонентов для воспитания совершенного человека. Рекомендуется воспитание личности на основе интеллектуального развития и мышления, духовное и нравственное воспитание способствует внутреннему совершенству, а любовь и творческое мышление формируют личность. Через STEAM и проектное обучение нравственные и духовные ценности применяются на практических занятиях. Использование интерактивных и цифровых технологий делает учебный процесс интересным и эффективным. Через наставничество и рефлексию осуществляется контроль за личностным развитием ученика. Интегрированные учебные программы объединяют теорию и практику. Интеграtsiя восточного педагогического наследия с современными педагогическими технологиями способствует развитию нравственных, духовных, интеллектуальных и творческих компетенций учащихся. Концепция совершенного человека формируется не только на основе знаний, но и личных качеств, ответственности и креативности. Инноватsionные подходы повышают качество образования и стимулируют мотиватsiю учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: педагогическое наследие восточных мыслителей является эффективной теоретической основой для воспитания совершенного человека. При интеграtsii с современными инноватsionными педагогическими технологиями оно формирует не только знания и навыки, но и личностное и духовное совершенство. Наставничество, рефлексия и проектное обучение стимулируют творческое и интеллектуальное развитие учащихся.

Ключевые слова: совершенный человек, восточное педагогическое наследие, педагогические взгляды Аль-Фараби, педагогический подход Абу Али Ибн Сины, нравственное воспитание Имама Газали, духовное воспитание Джалаладдина Руми, инноватsionные педагогические технологии, методология STEAM, проектное обучение, интерактивные методы обучения, цифровая педагогика, наставничество и рефлексия, нравственные и духовные компетенции, творческое и интеллектуальное развитие, педагогическая интеграtsiя, воспитание личности в обществе, повышение качества образования, современные педагогические подходы.

EDUCATING THE PERFECT HUMAN THROUGH INNOVATIVE APPROACHES OF EASTERN PEDAGOGICAL HERITAGE

Z.B. Jalilov, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

INTRODUCTION: the pedagogical heritage of Eastern thinkers (Al-Farabi, Ibn Sina, Imam Ghazali, Jalaladdin Rumi, and others) represents an important theoretical foundation for the spiritual, moral, and intellectual development of the individual. Their ideas are aimed at cultivating the human being as a perfect personality and transforming them into a beneficial member of society. In contemporary educational processes, it is necessary to integrate this heritage with innovative pedagogical technologies. From this perspective, studying the role of Eastern pedagogical heritage and innovative approaches in educational theory and practice is a relevant scientific problem.

Virtual galereyalar, multimedia taqdimotlari, slaydlar, video materiallar zamonaviy ta’lim vositalari sifatida estetik idrokni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga dunyo san’ati namunalarini keng ko‘lamda o‘rganish imkonini beradi. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi, madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Kompozitsion tafakkur ham badiiy kompetentlikning asosiy komponentlaridan biridir. Kompozitsion tafakkur tasviriy elementlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, obraz yaratish, g‘oyani vizual shaklda ifodalash qobiliyatini anglatadi. Bu ko‘nikma muntazam mashqlar orqali shakllanadi. Talaba kompozitsiya ustida ishlash jarayonida muvozanat, ritm, kontrast, markaz, proporsiya kabi tushunchalarni amaliy jihatdan o‘zlashtiradi. Natijada u tasviriy vositalardan ongli ravishda foydalanishni o‘rganadi.

Rang sezgirligi rassomlik mahoratining ajralmas qismidir. Ranglarni to‘g‘ri tanlash, ularning uyg‘unligini his qilish, sovuq va issiq ranglar o‘rtasidagi munosabatni anglash, rang kontrastlaridan maqsadga muvofiq foydalanish tasviriy ishning ifodaviyligini belgilaydi. Rangshunoslik mashg‘ulotlari davomida talabalar ranglarning psixologik ta’siri, rang uyg‘unligi qonuniyatlari, kolorit yaratish usullarini o‘rganadilar. Bu bilimlar ularga o‘z asarlarida muayyan kayfiyat va mazmunni ifodalash imkonini beradi.

Badiiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida pedagogik refleksiya muhim o‘rin tutadi. Refleksiya talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, kelgusida ularni takomillashtirish yo‘llarini belgilashiga yordam beradi. Mashg‘ulot yakunida bajarilgan ishlarni birgalikda muhokama qilish, o‘zaro fikr almashish, tanqidiy tahlil qilish refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa professional o‘sish uchun mustahkam zamin yaratadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Ijodiy mustaqillikni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Talabaning o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishi, yangi yechimlar topishga intilishi, eksperiment qilishdan qo‘rqmasligi uning ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Erkin mavzudagi ijodiy ishlar, mualliflik loyihalari, shaxsiy ko‘rgazmalar tashkil etish talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bunday faoliyat natijasida u individual uslub yaratish sari qadam tashlaydi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida kommunikativ kompetentlik ham muhimdir. U o‘z fikrini ravon bayon qila olishi, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnata bilishi, ularni ijodiy faoliyatga ruhlantira olishi kerak. San’at darslari ko‘pincha erkin muhitda o‘tadi, shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini hurmat qilishi, ularni qo‘llab-quvvatlashi zarur. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi psixologik madaniyatni talab etadi.

Shuningdek, milliy madaniy merosni chuqur o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ham badiiy kompetentlikni boyitadi. An’anaviy naqshlar, miniatyura san’ati, amaliy bezak san’ati namunalarini o‘rganish talabalarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytiradi. Ular milliy va zamonaviy san’at uyg‘unligini ta’minlash yo‘llarini izlaydilar.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatadiki, tizimli va izchil tashkil etilgan badiiy ta’lim jarayonida talabalar nafaqat tasviriy mahoratini oshiradi, balki ularning estetik qarashlari, madaniy saviyasi, ijodiy faolligi ham sezilarli darajada rivojlanadi. Nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida olib borilgan mashg‘ulotlar ayniqsa samarali natija beradi. Bunda talaba bilimni real ijodiy faoliyatga tatbiq etadi, o‘z imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat, estetik muhit, interfaol metodlar, refleksiya, ijodiy mustaqillik va milliy qadriyatlarga tayanish ushbu jarayonning asosiy omillaridir. Bunday yondashuv natijasida nafaqat malakali mutaxassis, balki estetik tafakkuri rivojlangan, ijodkor, tashabbuskor va ma’naviy yetuk pedagog shaxsi shakllanadi. Bu esa kelajak avlodni go‘zallikni qadrlaydigan, san’atni tushunadigan va yaratadigan insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | REFERENCES

1. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts // E3S Web of Conferences. 2023. Vol.420.
2. Djalolovich Y.N. Improving the professional training of fine art teachers // European Science. 2021. №2.
3. Rasulova M. Tasviriy san’at pedagogikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
4. Sobirov R. San’at ta’limida metodik yondashuvlar. Toshkent, 2019.
5. Xasanov A. Tasviriy san’at nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2018.
6. Karimov B. Estetik tarbiya metodologiyasi. Samarqand, 2021.
7. Ismoilov T. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent, 2022.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

8. Nurmatov Q. Badiiy tafakkurni shakllantirish asoslari. Buxoro, 2019.
9. Yo‘ldoshev S. San’atshunoslikka kirish. Toshkent, 2017.
10. Eshonqulov J. Rangtasvir nazariyasi. Toshkent, 2020.
11. Safarova D. Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent, 2021.
12. Begmatov U. Tasviriy faoliyat metodikasi. Andijon, 2018.
13. Saidov P. Pedagogik mahorat va ijodkorlik. Toshkent, 2019.
14. Qodirov N. San’at ta’limida innovatsion texnologiyalar. Buxoro, 2022.
15. Tursunova L. Estetik madaniyat va shaxs rivoji. Toshkent, 2020.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYASHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Djo'rayeva Muxayyo Xayriddinovna, Buxoro tumani 43-DMTT direktori, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maktabgacha ta'lim yosh bolalarda shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishni shakllantirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Shu yoshda tarbiyalanuvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish, ularni ona tiliga, milliy urf-odat va an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash muhimdir. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya bolaning axloqiy, madaniy va estetik rivojlanishida muhim o'rin tutadi, ularning milliy o'zligini saqlash va jamiyatga moslashishiga xizmat qiladi.

MAQSAD: maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayonining o'ziga xos pedagogik xususiyatlarini aniqlash va ularni amaliyotda samarali tatbiq etish usullarini ishlab chiqishdir. Shu bilan birga bolalarning milliy ongini rivojlantirish va ularni ona tiliga, milliy urf-odat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, tarbiyachilarning milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish ko'nikmalarini aniqlash va oshirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning samaradorligini bolalarning ijtimoiy, axloqiy va estetik rivojlanishi orqali baholash, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida o'z milliy identifikatsiyasini mustahkamlash, axloqiy va madaniy qadriyatlarni qabul qilishni rag'batlantirish, tarbiyaviy metodlar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish orqali pedagogik jarayonni boyitish va milliy qadriyatlarni yanada samarali tatbiq etish. Ushbu maqsadlar tadqiqotga ilmiy asos beradi va maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda foydalanilgan materiallar maktabgacha ta'lim muassasalaridagi amaliy darslar, tarbiyaviy mashg'ulotlar va bolalarning ijodiy ishlari hisoblanadi. Shu bilan birga milliy madaniyat, urf-odat va an'analar bo'yicha darslik va metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar qo'llanildi. Kuzatuv – bolalarning kundalik faoliyati va tarbiyaviy mashg'ulotlardagi xatti-harakatlarini o'rganish. Suhbat va intervyu – tarbiyachilar va ota-onalar bilan muloqot orqali tarbiya jarayonini tahlil qilish. Eksperimental metod – milliy qadriyatlar asosida tarbiya berilgan guruhlar bilan solishtirma kuzatuvlar o'tkazish. Analiz va taqqoslash – nazariy manbalar va amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat. Tarbiya jarayonida o'yin va ijodiy faoliyatdan keng foydalanish, milliy ertak, qo'shiq va o'yinlarni tatbiq etish ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilarga milliy urf-odat, bayramlar va an'analarni amalda namoyish etish orqali ularda milliy g'urur, kattalarga hurmat, kichiklarda izzatda bo'lish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalshga xizmat qiladi. Tarbiyachilarning o'zining milliy qadriyatlarni o'zida namoyon etishi va bolalarga namuna bo'lishi juda ham yuksak natijalarni beradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Bolalarning shaxsiy tajribasi va qiziqishlariga asoslangan individual yondashuv ularni atrofdagi shaxslar bilan muloqotda kirishiga amaliy yordam beradi. Eksperiment davomida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bolalarda axloqiy qadriyatlarni qabul qilish, ijtimoiy ko‘nikmalar va estetik did sezilarli darajada rivojlanganligi kuzatildi. Shu bilan birga bolalar o‘z milliy identifikatsiyasini mustahkamladi va o‘z ona tilini to‘g‘ri ishlatishga ko‘nikdi.

XULOSA: maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – bolaning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarni tarbiyaga tatbiq etish bolalarda axloqiy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishga, milliy identifikatsiyani mustahkamlashga va ona tiliga hurmatni rivojlantirishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari quyidagilardan iborat: tarbiyaviy jarayonlarda o‘yin, ertak va ijodiy faoliyatga keng tayanish; milliy urf-odat va an’analarni amalda qo‘llash; individual yondashuv va tarbiyachining shaxsiy namunalari orqali tarbiya berish. Bu yondashuv bolalarning ijodiy tafakkuri, estetik didi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayoni tarbiyalanuvchilarda hurmat, mehr-muhabbat, sadoqat va mas’uliyat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar jamiyatdagi turli vaziyatlarda to‘g‘ri xulq-atvorni tanlashga, do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga o‘rgatiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bolalar o‘z ona tilini to‘g‘ri ishlatish, milliy bayram va an’analarda faol ishtirok etish, shuningdek, ijodiy faoliyatda o‘zini erkin namoyon etish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, tarbiyachilarning metodik ko‘nikmalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanishi tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Natijada, maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – bolalarni jamiyatga moslashadigan, axloqiy va madaniy jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu esa nafaqat tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning madaniy va axloqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR: maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, tarbiya, pedagogik xususiyatlar, bolalar, ijodiy faoliyat.

ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ: ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Джўраева Мухайё Хайриддиновна, директор дошкольного образовательного учреждения, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: дошкольное образование является ключевым этапом формирования личностного, интеллектуального и социального развития детей. В этот период важно прививать воспитанникам национальные ценности, воспитывать уважение к родному языку, национальным обычаям и традициям. Воспитание на

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

основе национальных ценностей играет важную роль в нравственном, культурном и эстетическом развитии детей, способствует сохранению их национальной идентичности и успешной адаптации в обществе.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования – выявить особенности педагогического подхода к воспитанию детей дошкольного возраста на основе национальных ценностей и разработать эффективные методы их практического применения. Кроме того, исследование направлено на развитие национального самосознания детей, воспитание уважения к родному языку и национальным обычаям, выявление и повышение компетенций педагогов в интеграции национальных ценностей в образовательный процесс, оценку эффективности воспитания на основе национальных ценностей через социальное, нравственное и эстетическое развитие детей, укрепление национальной идентичности дошкольников, стимулирование усвоения нравственных и культурных ценностей, а также совершенствование педагогического процесса через разработку новых методов и инновационных подходов. Данные цели обеспечивают научную основу исследования и способствуют совершенствованию методики воспитания на основе национальных ценностей в дошкольном образовании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались материалы практических занятий, воспитательных мероприятий и творческих работ детей дошкольного возраста. Кроме того, анализировались учебники и методические пособия по национальной культуре, обычаям и традициям. В исследовании применялись следующие научно-педагогические методы наблюдение – изучение повседневной деятельности детей и их поведения на воспитательных занятиях, интервью и беседы – анализ воспитательного процесса через взаимодействие с педагогами и родителями, экспериментальный метод – проведение сравнительного наблюдения в группах, где воспитание велось на основе национальных ценностей, анализ и сравнение – изучение теоретических источников и результатов практической деятельности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что ключевые особенности воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных ценностей включают: широкое использование игры и творческой деятельности, применение национальных сказок, песен и игр, демонстрацию национальных обычаев, праздников и традиций, что формирует у детей национальную гордость, уважение к старшим, вежливость к младшим и патриотическое воспитание. Важную роль играет личный пример педагога в проявлении национальных ценностей. Индивидуальный подход, основанный на личном опыте и интересах детей, способствует успешной социализации и взаимодействию с окружающими. Эксперимент показал, что дети, воспитанные на основе национальных ценностей, демонстрируют значительное развитие нравственных качеств, социальных навыков и эстетического вкуса, укрепляют свою национальную идентичность и совершенствуют владение родным языком.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: воспитание детей дошкольного возраста на основе национальных ценностей является важным процессом, способствующим личностному, социальному и культурному развитию. Результаты исследования показывают, что применение национальных ценностей в воспитании формирует у детей нравственные и социальные качества, укрепляет национальную идентичность и развивает уважение к родному языку. Основные педагогические особенности включают: активное использование игр, сказок и творческой деятельности; практическое применение национальных обычаев и традиций; индивидуальный подход и личный пример педагога. Такой подход способствует развитию творческого мышления, эстетического вкуса и социальных навыков детей. Воспитание на основе национальных ценностей помогает формировать уважение, любовь, преданность и ответственность у детей, развивает умение правильно вести себя в обществе, укрепляет дружеские и партнерские отношения. Дети, воспитанные на основе национальных ценностей, правильно используют родной язык, активно участвуют в национальных праздниках и традициях, проявляют себя в творческой деятельности. Использование педагогами методических навыков и инновационных подходов повышает эффективность воспитательного процесса. Таким образом, воспитание на основе национальных ценностей является эффективным способом формирования детей как морально и культурно зрелых личностей, что способствует не только их личностному развитию, но и повышению культурного и нравственного потенциала всего общества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дошкольное образование, национальные ценности, воспитание, педагогические особенности, дети, творческая деятельность.

PEDAGOGICAL SPECIFICS OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN BASED ON NATIONAL VALUES

Djo'rayeva Mukhayyo Khayriddinovna, Director of 43rd Preschool Educational Institution, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: preschool education is a crucial stage in the formation of children's personal, intellectual, and social development. At this age, it is important to instill national values in children, fostering respect for their native language, national customs, and traditions. Education based on national values plays a significant role in the moral, cultural, and aesthetic development of children, helping preserve their national identity and facilitating their adaptation to society.

AIM: the purpose of this study is to identify the pedagogical specifics of educating preschool children based on national values and to develop effective methods for their practical implementation. Additionally, the study aims to develop children's national consciousness, cultivate respect for their native language and national customs, assess and enhance educators' competencies in integrating national values into the educational process, evaluate the effectiveness of education based on national values through

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

children's social, moral, and aesthetic development, strengthen preschoolers' national identity, promote the adoption of moral and cultural values, and enrich the pedagogical process through innovative methods and approaches. These objectives provide a scientific foundation for the study and contribute to improving the methodology of educating preschool children based on national values.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized materials from practical classes, educational activities, and children's creative works in preschool institutions. In addition, textbooks and methodological guides on national culture, customs, and traditions were analyzed. The following scientific-pedagogical methods were applied observation – studying children's daily activities and behavior during educational sessions, interviews and conversations – analyzing the educational process through interaction with educators and parents, experimental method – conducting comparative observations in groups where education was based on national values, analysis and comparison – studying theoretical sources and results of practical activities.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study indicate that the main pedagogical specifics of educating preschool children based on national values include extensive use of games and creative activities, incorporation of national stories, songs, and games, and practical demonstration of national customs, holidays, and traditions. This fosters children's national pride, respect for elders, politeness toward younger peers, and patriotism. The personal example of the educator in demonstrating national values produces highly positive results. Individual approaches based on children's experiences and interests facilitate their social interaction. The experiment showed that children educated on the basis of national values significantly developed moral qualities, social skills, and aesthetic taste. They also strengthened their national identity and improved their use of the native language.

CONCLUSION: educating preschool children based on national values is a vital process contributing to their personal, social, and cultural development. The study demonstrates that applying national values in education fosters moral and social qualities in children, strengthens their national identity, and promotes respect for their native language. Pedagogical specifics include active use of games, stories, and creative activities; practical application of national customs and traditions; individual approaches; and educators' personal example. This approach enhances children's creative thinking, aesthetic taste, and social skills. Education based on national values helps develop respect, love, loyalty, and responsibility, and teaches children to behave appropriately in society while fostering friendship and collaboration. Children educated in this way participate actively in national holidays and traditions and express themselves freely in creative activities. The use of educators' methodological skills and innovative approaches increases the effectiveness of the educational process. Therefore, preschool education based on national values is an effective means of forming children as morally and culturally mature individuals, contributing not only to their personal development but also to the cultural and moral potential of society as a whole.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Keywords: preschool education, national values, education, pedagogical specifics, children, creative activities.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni tarbiyalashning interaktiv vositalarini ishlab chiqish, tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda o‘tmishga qiziqishni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. O’zbekistonRespublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o’rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida ta’rif berilishida ham pedagogik shartsharoitlar asosida yondashishni ko’rish mumkin. SHunday ekan bolalarni maьnaviyaxlokiy yondashuv asosida tarbiyalashda pedagog va tarbiyachilarni o’rni aloxida axamiyatga ega.Bu borada pedagoglar va tarbiyachilar oila bilan hamkorlikda ish olib borishi kuzlangan natijani ijobiylanishiga olib keladiQadriyatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishida yo‘l ko‘rsatadi va uni jamiyatning faol a’zosi sifatida tayyorlaydi. Hozirgi kunda bolalarda milliy qadriyatlar vositasida axloqiy sifatlarni shakllantirish, bolaning xulq madaniyati, ularning ongli faoliyati, bilim saviyasi, e’tiqodi-tarixiy tajribalarga, an’analar, udumlar va urf-odatlarga munosabati darajasida tarkib toptirish, milliy qadriyatlarimiz bo‘lmish an’analar, udumlar va urf - odatlarni o‘rganish, oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, jamoatchilik hamda mahallalarda amalga oshirilmoqda. Milliy urf – odatlarimizda alohida san’at va qadriyat darajasida bo’lgan. Bugungi kunda esa ana shu boradagi qadriyatlarimizni bilmaslikdan faqat yevropacha kiyimlarga ruju qo’yish, eng achinarlisi esa bazan ayollar ko’ylaklarida oldi kalta, orti uzun, qo’llar va ko’krak qismining o’ta ochiq holda tikilishlari ham uchrab turibdi.Harir matolardan, tananing ichki a’zolari ko’rinib turuvchi ko’ylaklar ham yo’q emas. Bu moda yoki zamonaviylik emas, aslida didsizlik va madaniyatsizlikni ko’rsatadi.

Maktabgcaha ta’lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuxratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o’rganish, munosib baholash borasidagi tarbiyachilarimizning faoliyatlari katta axamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, milliyma’naviy, etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda maktabgacha ta’lim tashkilotida milliylik va milliy ma’naiy qadriyatlar uyg’unligi mavzusida olimlar, yozuvchi va shoirlarning xayoti va ijod yo’liga oidbo’lgan videofilmlarni qo’yib ko’rsatib borsak maqsadga muvofiq bo’lar edi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qadriyatlarni asosiy tamoyil sifatida qabul qilish, bolalarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar orqali bolalarga o'z xalqining tarixiy, madaniy, va axloqiy boyliklarini o'rgatish, ularning vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarini rivojlantirish mumkin.Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida yangi pedagogik metodlar va zamonaviy yondashuvlar yordamida milliy qadriyatlarni bolalarga samarali o'rgatish, kelajak avlodning ma'naviy va axloqiy poydevorini mustahkamlashda muhim omil bo'ladi.

Ajdodlarimizdan bizgacha meros sifatida yetib kelgan milliy urf-odat, udum, an'ana va qadriyatlarimiz – "Chaqaloqni beshikka belash", "Milliy liboslar – millat ko'rki", "Milliy raqslar", "Laparlar", "Aytishuvlar", "Milliy o'yinlar" kabi mavzularda tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'zligimiz, urf-odatlar va an'analarimizning nafosati va jozibasi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tomonidan ochiq mashg'ulotlar ularda vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, ajdodlarga munosib farzand bo'lishiga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni ijtimoiy taraqqiyot mahsuli sifatida qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, bolalarning hayot tarzi va xatti-harakatlarini ma'lum maqsadlarga yo'naltiradigan, tegishli tartibga soladigan ma'naviy hodisa sifatida tarbiyaviy qimmatga egadir. Qadriyatlar tizimi keng va turlicha bo'lib, ulardan integratsion yondashuv jarayonida samarali foydalanishga ahamiyat beriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan o'zi tug'ilib o'sgan ona Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga ehtirom, kichiklarga izzatda bo'lish, atrofdagilarga hurmat va e'tibor ko'rsatish, oila a'zolarini asrab-avaylash singari ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Farzand dunyoga kelishidan tortib, to'y-bayramlargacha bo'lgan o'ziga xos umumbashariy qadriyatlarni asrab-avaylash har birimizning Vatan oldidagi muqaddas burchimizdir. Zero, kelajakka poydevor eng avvalo o'zlikni bilish va vatanparvarlikdan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – bolaning shaxsiy, ijtimoiy, madaniy va estetik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish bolalarda axloqiy fazilatlar – hurmat, sadoqat, mehr-muhabbat, adolat va mas'uliyatni shakllantirishga, shuningdek, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar tarbiyaga tatbiq etilganda bolalarda ona tilini to'g'ri ishlatish qobiliyati, milliy bayram va an'analarda faol ishtirok etish, ijodiy faoliyatda o'zini namoyon etish kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Bu esa bolalarning milliy identifikatsiyasini mustahkamlash va ularni jamiyatga moslashadigan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyaviy jarayonlarda o'yin va ijodiy faoliyatga asoslanish – bolalar o'yinda milliy qadriyatlarni o'zlashtiradi, ertak, qo'shiq va milliy o'yinlar orqali axloqiy va madaniy qadriyatlarni singdiradi. Individual yondashuv – tarbiya jarayoni bolaning qiziqish, ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashadi, bu esa samarali o'rganish va ijtimoiylashishga yordam beradi. Pedagogning shaxsiy namunaligi – tarbiyachining milliy qadriyatlarni hayotida namoyon qilishi bolalar uchun kuchli motivator vazifasini bajaradi. Integratsiyalashgan metodlar – milliy qadriyatlar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

o‘quv-mashg‘ulotlar, madaniy tadbirlar va bayramlar orqali amalda qo‘llaniladi, bu esa qadriyatlarni chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Doimiy amaliy tatbiq – qadriyatlar faqat nazariy emas, balki kundalik faoliyatda namoyon bo‘lishi, bolalarda axloqiy va madaniy xulq-atvorni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bolalarda ijtimoiy tafakkur, mas’uliyat hissi va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi. Ular jamiyatdagi turli vaziyatlarda to‘g‘ri xulq-atvorni tanlashni, do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishni o‘rganadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachilarning metodik ko‘nikmalari, pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanishi tarbiyaviy jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, bolalar o‘z ona tilida erkin muloqot qilish, milliy an’analarda faol ishtirok etish va ijodiy faoliyat orqali o‘zini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – bolalarni axloqiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning madaniy, axloqiy va estetik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya pedagogik metodikani takomillashtirish, tarbiyachilar kompetensiyasini oshirish va maktabgacha ta’lim sifatini yaxshilash uchun muhim ilmiy-pedagogik asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. .O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PQ-4312–son qarori.
2. Ortiqov Sh., Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda tarixiy xotiraning ahamiyati.Ilmiy konferensiya. 2013 yil
3. Karimova, M. (2020). Milliy qadriyatlar va tarbiya masalalari. Toshkent
4. Slastyonin, V. A. (2000). Pedagogika: O‘qituvchi kasbiga kirish. Moskva.
5. Yoqubov, A. (2017). Bolalar tarbiyasida og‘zaki ijodiy merosning o‘rni. Toshkent:
6. Kamilova,Z.A. (2021). “Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning psixopedagogik asoslari”. Pedagogik izlanishlar jurnali, №4
7. Xojaeva, M. A. (2019). Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlarni o'rgatish. Toshkent: O'quvchi.
8. Yusupov, F. S. (2021). Bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlar va ularning ahamiyati. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti
9. 7.Ergasheva, L. M. (2020). Maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni shakllantirish. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
10. .Djuraev R., Torejonova R. Bolalarning axloqiy tarbiyasida xalq udumlari va an’a’nalaridan foydalanish // Xalq ta’limi, 2009. – №2.1999. –103 b.
11. Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya darslik. Toshkent, 2021.,
12. Otavaliyeva O’. Bola tarbiyasida bog’cha va oila hamkorligi. – Toshkent: O’qituvchi, 1994. –72 b.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

13. Sohibov A. Sharq allomalari ma'naviy-axloqiy tarbiya haqida // Xalq ta'limi. 2008. –№3. –B.16-21.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

KOMPRESSION SPORT KIYIMLARINING RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Shavkatova Ozoda Ibroxim qizi, Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti doktoranti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Kirish: maqolada O‘zbekiston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, jahon bozorida sport uchun mo‘ljallangan kompression kiyimlarga bo‘lgan talabning yildan-yilga ortib borayotgani, ularning sportchilarning jismoniy holatini yaxshilash, mushak faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom turmush tarzini ta’minlashdagi ahamiyati mazkur mahsulotlarni ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirish haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Maqolada O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos, yuqori funksional, ergonomik va gigiyenik talablarga javob beruvchi kompression sport buyumlarini mahalliy xomashyodan ishlab chiqarish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Mamlakatimizda to‘qimachilik xomashyosi va ishlab chiqarish salohiyati yetarli bo‘lishiga qaramasdan, kompression sport kiyimlarining sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa import mahsulotlarga qaramlikni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekiston sharoitiga mos innovatsion elastik trikotaj asosida yuqori funksional kompression sport buyumlarini ishlab chiqish va ularning texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan mazkur dissertatsiya ishi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, yengil sanoat va sport sanoati rivojiga xizmat qilishi bilan dolzarb hisoblanadi.

MAQSAD: o‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion elastik trikotaj materiallar asosida yuqori funksional kompression sport buyumlarini yaratishning ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqish, ularning antropometrik mosligi, siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari hamda ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini kompleks tadqiq etish va sport hamda sport-tibbiy kiyimlar sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, xususan, PF-4947-sonli Farmoni mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilab beradi. Kompression sport buyumlarining antropometrik mosligi, elastik trikotaj materiallarning siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda o‘rganish sport va sport-tibbiy kiyimlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari kompression sport buyumlarini loyihalash va ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan elastik trikotaj materiallarning strukturaviy, fizik-mexanik, elastik va siqish xususiyatlari kompleks tarzda o‘rganildi. Inson tanasining antropometrik o‘lchamlari va morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kompression sport kiyimlarining qomatga mosligi va shinamligini ta’minlash omillari

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

aniqlab berildi. Elastomer iplar ulushi, trikotaj to‘qimasi turi va texnologik parametrlarga bog‘liq holda materiallarning siqish darajasi, deformatsiyalanish va tiklanish jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida kompression sport buyumlarida me’yorlashgan bosim hosil qilish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslandi. O‘zbekiston iqlim sharoitida foydalanish uchun mo‘ljallangan kompression sport buyumlarining gigiyenik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari baholanib, ularning sportchilar organizmiga fiziologik jihatdan ijobiy ta’siri aniqlandi. Olingan natijalar asosida kompression sport kiyimlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtiriladi va shu jihatdan savodli kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

XULOSA: o‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion kompression sport buyumlarini yaratish imkoniyati mavjudligi aniqlanib, mahalliy xom-ashyodan foydalangan holda yuqori sifatli, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sport va sport-tibbiy kiyimlar assortimentini kengaytirish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish hamda yengil sanoat va sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga, kompression sport buyumlarini loyihalash, ishlab chiqarish va takomillashtirish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda sportchilar va aholining keng qatlamlari uchun qulay va funksional kiyimlar yaratishga xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR: kompression, antropometrik mosligi, elastik trikotaj materiallarning siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari, ekspluatatsion ko‘rsatkichlari, innovatsion elastik trikotaj, yuqori funksional kompression sport buyumlar, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ КОМПРЕССИОННОЙ СПОРТИВНОЙ ОДЕЖДЫ

Шавкатова Озода Иброхим кизи, докторант Ташкентского института текстильной и лёгкой промышленности, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается развитие легкой промышленности в Республике Узбекистан, расширение производства импортозамещающей и экспортно-ориентированной продукции, технологическая модернизация спортивной индустрии, приоритетные направления государственной политики, растущий спрос на компрессионную одежду для спорта на мировом рынке, ее важность для улучшения физической формы спортсменов, поддержания мышечной активности и обеспечения здорового образа жизни, а также научное развитие производства этой продукции. В статье рассматривается производство компрессионной спортивной одежды из местного сырья, подходящего для климатических условий Узбекистана, отвечающего высоким функциональным, эргономическим и гигиеническим требованиям, и это является одной из актуальных проблем. Несмотря на достаточное количество текстильного сырья и производственных мощностей в нашей стране, промышленное производство компрессионной спортивной одежды

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

недостаточно развито. Это приводит к зависимости от импортной продукции. Данная диссертационная работа, направленная на разработку высокофункциональной компрессионной спортивной одежды на основе инновационного эластичного трикотажа, подходящего для условий Узбекистана, и совершенствование ее технологии, имеет научное и практическое значение и актуальна, поскольку служит развитию легкой промышленности и спортивной индустрии.

ЦЕЛЬ: разработать научно-технические основы для создания высокофункциональной компрессионной спортивной одежды на основе инновационных эластичных трикотажных материалов, адаптированных к климатическим условиям Узбекистана, провести комплексное исследование их антропометрической совместимости, компрессионных свойств, технологических параметров и эксплуатационных показателей, а также разработать предложения и рекомендации, направленные на повышение качества спортивной и спортивно-медицинской одежды.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье рассматриваются указы и постановления Президента Республики Узбекистан, направленные на развитие промышленности, внедрение инновационных технологий и пропаганду здорового образа жизни, в частности Указ № ПФ-4947, определяющие необходимость научных исследований в этой области. Научное изучение антропометрической совместимости компрессионной спортивной одежды, компрессионных свойств, технологических параметров и эксплуатационных показателей эластичных трикотажных материалов послужит повышению качества спортивной и спортивно-медицинской одежды.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате исследования были всесторонне изучены структурные, физико-механические, упругие и компрессионные свойства эластичных трикотажных материалов, используемых при проектировании и производстве компрессионной спортивной одежды. Были определены факторы, обеспечивающие посадку и комфорт компрессионной спортивной одежды с учетом антропометрических размеров и морфологических характеристик человеческого тела. Проанализированы степень компрессии материалов, процессы деформации и восстановления в зависимости от доли эластомерных нитей, типа трикотажного полотна и технологических параметров. В результате исследования научно обоснован механизм нормализованного образования давления в компрессионной спортивной одежде. Оценены гигиенические и эксплуатационные показатели компрессионной спортивной одежды, предназначенной для использования в климатических условиях Узбекистана, и определено ее физиологически положительное воздействие на организм спортсменов. На основе полученных результатов совершенствуется технология производства компрессионной спортивной одежды, и в этом отношении большое значение имеет подготовка компетентного персонала.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: выявлена возможность создания инновационной компрессионной спортивной одежды, подходящей для климатических условий

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Узбекистана, и разработаны научно-технические основы для производства высококачественной, импортозамещающей и экспортно-ориентированной продукции с использованием местного сырья. Результаты исследования могут быть использованы для расширения ассортимента спортивной и спортивно-медицинской одежды, повышения ее качественных показателей, технологической модернизации легкой промышленности и спортивной индустрии, а также в процессах проектирования, производства и совершенствования компрессионной спортивной одежды, пропаганды здорового образа жизни и создания удобной и функциональной одежды для спортсменов и широкой публики.

Ключевые слова: компрессия, антропометрическая совместимость, компрессионные свойства эластичных трикотажных материалов, технологические параметры, эксплуатационные показатели, инновационные эластичные трикотажные изделия, высокофункциональная компрессионная спортивная одежда, технологическая модернизация

THE HISTORY OF DEVELOPMENT AND MODERN TRENDS OF COMPRESSION SPORTSWEAR

Shavkatova Ozoda Ibrokhim qizi, Doctoral Researcher, Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the development of the light industry in the Republic of Uzbekistan, the expansion of import-substituting and export-oriented production, technological modernization of the sports industry, priority areas of state policy, the growing demand for compression sportswear in the global market, its importance for improving athletes' physical fitness, maintaining muscle activity, and promoting a healthy lifestyle, as well as the scientific development of its production. This article examines the production of compression sportswear from local raw materials suitable for Uzbekistan's climatic conditions and meeting high functional, ergonomic, and hygienic requirements. This is a pressing issue. Despite the sufficient amount of textile raw materials and production capacity in our country, the industrial production of compression sportswear is underdeveloped. This leads to dependence on imported products. This dissertation, aimed at developing highly functional compression sportswear based on innovative elastic knitwear suitable for the conditions of Uzbekistan and improving its technology, has scientific and practical significance and is relevant, as it contributes to the development of the light industry and sports industries.

AIM: to develop a scientific and technical basis for the creation of highly functional compression sportswear based on innovative elastic knitwear adapted to the climatic conditions of Uzbekistan, conduct a comprehensive study of their anthropometric compatibility, compression properties, technological parameters, and performance indicators, and develop proposals and recommendations aimed at improving the quality of sportswear and sports-medical clothing.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MATERIALS AND METHODS: this article examines decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan aimed at industrial development, the introduction of innovative technologies, and the promotion of a healthy lifestyle, in particular Decree No. PF-4947, which define the need for scientific research in this area. Scientific study of the anthropometric compatibility of compression sportswear, the compression properties, technological parameters, and performance indicators of elastic knitted materials will contribute to improving the quality of sportswear and sports-medical clothing.

DISCUSSION AND RESULTS: this study provided a comprehensive examination of the structural, physical, mechanical, elastic, and compressive properties of elastic knitted materials used in the design and production of compression sportswear. Factors that ensure the fit and comfort of compression sportswear, taking into account the anthropometric dimensions and morphological characteristics of the human body, were identified. The degree of material compression, deformation, and recovery processes were analyzed depending on the proportion of elastomer yarns, the type of knitted fabric, and process parameters. The study provided a scientifically substantiated mechanism for normalized pressure development in compression sportswear. The hygienic and performance characteristics of compression sportswear designed for use in the climatic conditions of Uzbekistan were assessed, and its physiologically beneficial effects on athletes were determined. Based on the obtained results, compression sportswear production technology is being improved, and the training of competent personnel is of great importance in this regard.

CONCLUSION: the possibility of creating innovative compression sportswear suitable for the climatic conditions of Uzbekistan has been identified, and the scientific and technical foundations for the production of high-quality, import-substituting, and export-oriented products using local raw materials have been developed. The results of the study can be used to expand the range of sports and sports-medical clothing, improve its quality indicators, technologically modernize the light industry and sports industry, as well as in the design, production and improvement of compression sportswear, promote a healthy lifestyle and create comfortable and functional clothing for athletes and the general public.

Keywords: compression, anthropometric compatibility, compression properties of elastic knitwear, technological parameters, performance indicators, innovative elastic knitwear, highly functional compression sportswear, technological modernization

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, xususan, PF-4947-sonli Farmoni mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilab beradi. Kompression sport buyumlarining antropometrik mosligi, elastik trikotaj materiallarning siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda o‘rganish sport va sport-tibbiy kiyimlar sifatini

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

oshiradi. Mamlakatimizda yengil sanoatni rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion elastik trikotaj asosida yuqori funksional kompression sport buyumlarini ishlab chiqish, ularning texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan mazkur dissertatsiya ishi respublika iqtisodiyoti, yengil sanoat va sport sanoati rivojiga xizmat qiladi. Butun dunyo bo`yicha bozorlarda sport uchun mo`ljallangan kompression buyumlar tobora keng tarqalib bormoqda. Ular sportchining mushaklarini ushlab turish, harakatlarini kuchaytirish uchun mo`ljallangan bo`lib, uning jismoniy harakati paytida mushaklarining cho`zilishi va qisqarishida energiyasini saqlab o`ziga qaytarish orqali inson tanasining ichki organlari hamda terisiga tarqaluvchi me`yorlashgan bosimni beradi. Kompression sport buyumlari sportsmenlar, havaskor sportchilar va fitnes klubda shug`ullanuvchilar orasida katta talabga ega.

Yurtimiz to`qimachilik mahsulotlari (tola, kalava ip, mato, kiyim) ishlab chiqaruvchi davlat bo`lib, ko`plab xorijiy kompaniyalar O`zbekistonda mahalliy xom-ashyodan kiyim tikishga buyurtma berishadi, lekin bu holatning korxonalarda kompression sport kiyimlari ishlab chiqarilmaydi. Yoshlarga paradoksal tomoni shundaki, mahalliy boshqa davlatlarnikini emas, balki “O`zbekiston” yozuvi tushirilgan kompression sport kostyumlarini, o`zbek ramzlari tushirilgan buyumlarni ishlab chiqish zarur. Yangi innovatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, sportchilar uchun mo`ljallangan kompression trikotaj buyumlari assortimentini kengaytirish hozirgi davrda dolzarb muammodir.

Hozirgi kunda O`zbekistonda kattalar va bolalar uchun mo`ljallangan tarkibida elastomer iplari bo`lgan keng turdagi tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Sport buyumlari assortimenti tarkibida qulaylik, nafislik va ekspluatatsiya jarayonida tibbiy talablarni ta`minlovchi kompression buyumlar alohida o`rin tutadi. Bunday buyumlardan foydalanish ulushi doimiy ortib bormoqda, deyarli barcha buyum guruhlarini, shu jumladan, ustki va ichki kiyimlar, paypoq, qo`lqop, profilaktika, sport va sport-tibbiy buyumlarini qamrab oladi. Ularning asosiy sifat ko`rsatkichlari shinamlik va kompression kiyimning inson qomatiga antropometrik muvofiqligi bo`lib, shaklning morfologiyasi, zamonaviy dizaynning asosiy yo`nalishlari, materiallarning siqish qobiliyati va ularning yopiq qobiqlarini deformatsiyalash mexanizmi haqida ma`lumotga ega bo`lmasdan turib ko`zlangan maqsadga erishish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan strategik vazifalarni belgilaydi. Jumladan, 2017 yildagi PF-4947-sonli Farmon mamlakatimizning beshta ustuvor rivojlanish yo‘nalishi bo‘yicha kompleks harakatlar strategiyasini tasdiqlab, sanoat va innovatsiyalar sohasida ilg‘or texnologiyalarni yaratish va joriy etishni muhim vazifa qilib qo‘ygan. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish va sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari kompression sport buyumlarining sifatli va texnologik jihatdan mukammal bo‘lishini taqozo etadi. Ushbu qarorlar dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyatini oshiradi. Elastik trikotaj va sport kiyimlari sifatiga doir milliy va xalqaro standartlar (masalan, O‘zbekiston Respublikasi davlat

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

standarti — ГОСТlar, ISO standartlari) ishlab chiqarish jarayonlari, materiallarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari, gigiyenik talablar va texnologik tartiblarni belgilaydi. Kiyim-kechak, libos va to`qimachilik tarixi insoniyat taraqqiyoti davomida rivojlanib va mavjudligi o`rganilib kelinadi. Kiyim-kechak va to`qimachilik turli davrlarda, sivilizatsiyalarda mavjud bo`lgan materiallar hamda texnologiyalarni aks ettiradi. Jamiyatda kiyim-kechak va to`qimachilik mahsulotlarining xilma-xilligi va tarqalishi turli mintaqa, ijtimoiy urf-odatlar hamda turli madaniyatni namoyon etadi. Kiyim kiyish faqat insonning o`ziga xos va aksariyat insoniyat jamiyatlarining xususiyatidir. Hayotda inson va libos bir biriga uzviy bog'liq bo'lib, muhit, vazifasi, sharoitidan qat'iy nazar inson uchun kiygan libosi qulay bo'lishi kerak. Libos ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Libos insonning shaxsiy uslubini, shuningdek, kundalik hayotda qulaylik va xavfsizlikni ta'minlaydi. Shuning uchun ham asrlar osha libosning qulayligini va psixologik jihatdan ta'sirini yaxshilash usullari o'rganilib uni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan, kompression kiyimlarni ro'li bu jarayonda beqiyosdir.

Kompressiya - "Compression" inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, siqish, bosim berish, degan ma'noni anglatadi. Kompressiya - bu keng ma`noda siqish natijasida silindra oxirida hosil bo`ladigan bosim miqdoridir. Kompression kiyimlar tanani qattiq, ammo qulay tarzda o‘rab, tashqi mexanik bosim hosil qiladi. Kompression kiyim - bu inson tanasining ma'lum anatomik qismlariga oldindan hisoblangan va nazorat qilinadigan mexanik bosim berish orqali organizmning fiziologik jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiluvchi maxsus funksional kiyim turi hisoblanadi. Kompression sport kiyimining shakllanishi va rivojlanishi inson organizmiga tashqi mexanik bosimning fiziologik ta'sirini o‘rganishga asoslangan bo‘lib, uning ildizlari tibbiyot sohasidagi dastlabki kuzatuv va tajribalarga borib taqaladi. Dastlab kompressiya tamoyili sport emas, balki tibbiy reabilitatsiya va qon-tomir kasalliklarini davolash maqsadida qo‘llanilgan. Qadimgi davrlar (miloddan avvalgi). Misr va Rimda matoni mahkam o‘rash (bandajlash) usullari qo‘llanilgan **(**1.1-rasm)**.** Bundan asosiy maqsad jarohatni ushlab turish, mushakni himoyalash va qon aylanishini yaxshilashdan iborat. Bu hali sport kiyimi emas, lekin kompressiya g‘oyasining ilk ildizlari hisoblanadi. XIX asrda kompressiya sport uchun emas, balki jarrohlik amaliyotidan keyingi qon ketishini to‘xtatish uchun ishlatilgan. XIX asr o‘rtalarida Yevropa tibbiyotida pastki oyoq-qo‘llarga tashqi bosim berish orqali venoz qon aylanishini yaxshilash mumkinligi ilmiy jihatdan isbotlana boshladi. Shu davrda elastik bintlar va paypoqlar varikoz kasalligini davolashda qo‘llanilgan bo‘lib, ular kompression kiyimlarning dastlabki prototiplari hisoblanadi. Kompressiya tamoyilining fiziologik asoslari yaratildi. 1840–1860-yillarda Yevropa shifokorlari elastik bintlar bilan tomirlarni siqish orqali trombozning oldini olishini aniqlashgan. Keyinchalik sportchilar bu usulni o‘z tanasida sinab ko‘ra boshlashgan. Sport kiyimidagi kompressiya, tibbiy innovatsiyaning sportga o‘tgan shakli, demakdir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



1.1-rasm. Kompression sport kiyimining tarixi haqida faktlar

Qadimgi Rim gladiatorlari jangdan oldin son, boldir, bilaklarni teri yoki mato bilan qattiq o‘rab olgan**.** Sababi esa mushakni “qattiq” ushlab turish, qon ketishini kamaytirish, jarohatni tez yopish uchun bo`lgan.

O‘rta asrlarda kompressiya harbiy sir hisoblangan. O‘rta asr ritsarlari uzoq yurishlardan oldin oyoqlarni mato bilan qatlamlab bog‘lashgan**.** Bu usul tez charchashni kamaytirgani aniqlangan, ammo harbiy sir sifatida saqlangan. Kompressiya faqat tanlangan jangchilarga qo‘llanilgan. XX asrning birinchi yarmida kauchuk va elastik tolalarning sanoatda keng joriy etilishi kompression buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirdi. Tibbiy elastik paypoqlar, bandajlar va bog‘lovchi vositalar anatomik tuzilishga moslashtirila boshladi. Bu davrda kompressiya darajasini nazorat qilish tamoyillari shakllandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sport tibbiyoti va biomekanika fanlarining rivojlanishi natijasida kompression ta’sirning sportchilarning ish qobiliyatiga ijobiy ta’siri aniqlana boshladi. Sport tibbiyotining rivojlanishi natijasida olimlar kompressiyaning mushak faoliyatiga ijobiy ta’sirini aniqladilar. 1960–1970-yillarda professional sportchilar, xususan, yengil atletika va velosportda tibbiy kompression paypoqlarni mashg‘ulot va musobaqalarda qo‘llay boshladilar. Ushbu davr kompression kiyimlarning sport yo‘nalishiga o‘tish bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompression kiyimlar mushaklarning tebranish amplitudasini kamaytirib, energiya yo‘qotilishini qisqartiradi. Aynan shu davrda kompression kiyimlar sport mashg‘ulotlari va musobaqalarda sinov tariqasida qo‘llanila boshlandi. Material sifatida poliamid va elastan iplarining paydo bo‘lishi kiyimlarning elastiklik va mustahkamlik ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirdi. (1.2-rasm) 1980–1990-yillarda sintetik tolalar — poliamid, elastan (Lycra) va mikrofibraning joriy etilishi kompression sport kiyimlarini yengil, elastik va nafas oladigan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qilish imkonini berdi. Shu davrda kompression futbolkalar, taytlar va shortilar paydo bo‘lib, sport brendlari tomonidan tijorat mahsuloti sifatida ommalashtirildi.



1.2-rasm.Kompression sport kiyimining tarixi

Lycra (elastan) 1958-yilda NASA buyurtmasi bilan ishlab chiqilgan.Maqsad esa kosmonavtlarning mushaklarini bosim ostida ushlab turish. Keyinchalik bu material Velosport, Triatlon va yugurish sport turlari uchun moslashtirilgan. XXI asr boshlarida biomekanika, fiziologiya va sport tibbiyoti sohasidagi ilmiy tadqiqotlar kompression sport kiyimlarining samaradorligini tajriba asosida isbotladi. XIX asrda kompression paypoqlar asosan ayollar kiyimi sifatida shakllangan bo‘lib, ular homilador ayollar, uzoq vaqt tik holatda ishlovchi tikuvchilar hamda saroy xonimlari uchun mo‘ljallangan. Ushbu buyumlar pastki oyoqlarda qon aylanishini yaxshilash va charchoqni kamaytirish maqsadida qo‘llanilgan. Erkaklar sportida kompression texnologiyalarning joriy etilishi taxminan 60–70 yilga kechikkan. XX asr boshlarida, xususan 1930–1940-yillarda yengil atletika sportchilarining ayrimlari kompression ta’sirga erishish maqsadida elastik bintlarni paypoq ostidan yoki short ichidan yashirincha bog‘lab chiqishgan. Biroq, o‘sha davr sport qoidalarida bunday usullar “sun’iy ustunlik” sifatida baholanib, rasmiy ravishda taqiqlangan. Natijada kompression texnologiyalar uzoq vaqt davomida norasmiy sport vositasi sifatida qo‘llanilib kelgan. Kompression sport kiyimining tarixiy evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, u dastlab tibbiy va harbiy ehtiyojlardan kelib chiqqan bo‘lib, faqat XX asr oxirlariga kelib, sport texnologiyasining mustaqil yo‘nalishiga aylangan. Zamonaviy kompression kiyimlar esa biomekanik va fiziologik asoslangan, yuqori funksional


© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

innovatsion mahsulot sifatida shakllangan. Bugungi kunda kompression sport kiyimlari yuqori texnologiyali funksional sport mahsuloti sifatida professional sportchilar bilan bir qatorda havaskor foydalanuvchilar tomonidan ham keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy kompressiya – oddiy siqish emas, intellektual bosimdir. Kompression sport kiyimlari hozirda sport industriyasining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu turdagi kiyimlar sportchilar va jismoniy faollik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish, mushak faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, charchoqni kamaytirish va tiklanish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Kompression kiyimlar tananing ma’lum qismlariga nazoratlangan bosim berish orqali qon aylanishini yaxshilaydi, mushak tebranishlarini kamaytiradi va sport faoliyati samaradorligini oshiradi, jarohat xavfini kamaytiradi. Zamonaviy kompression kiyimlar mushak tebranishlarini kamaytirishini pasaytirish va tiklanish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, issiq va quruq iqlim sharoitida, jumladan O‘zbekiston hududida sportchilarning yuqori jismoniy yuklamalarda samaradorligini ta’minlashda kompression kiyimlarning ahamiyati ortib bormoqda. Zamonaviy kompression sport kiyimlari: -anatomik modellashtirish; -zonal kompressiya; -termoregulyatsiya; -antibakterial va gigiyenik xususiyatlar bilan boyitiladi.

Kompression kiyim, nomidan ko`rinib turibdiki, tanaga juda yopishigan siluetli va mushaklarga bosim o`tkazuvchi, ularning sovishiga yo`l qo`ymaydi va yaxshi qon aylanishini ta`minlaydi. Bundan tashqari, maxsus ishlab chiqilgan siqish gradiyenti tufayli kuchli bosim oshqozon yoki diafragmaga emas, balki kerakli mushak guruhlariga aniq qo`llaniladi. Qon aylanishi yaxshilanadi, ya`ni mushaklar ko`proq kislorod bilan ta`minlanadi. Bundan tashqari, tomirlar orqali qonning pompalanishi tufayli varikoz tomirlari ehtimoli kamayadi (1.3- rasmda)



1.3-rasm. Qon aylanish sistemasining sxemasi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Yuqoridagi rasmda ko`rinib turibdiki, inson normal tinch turgan, yotgan holda qon odam tanasida bir me`yorda harakatlanadi. Inson harakatga tushganida, sport bilan shug`ullanganida tomirlardagi qon betartib harakatga tushadi. Natijada odam o`zida charchash va ko`p ehtimollar bilan oyoqlarda varikoz tomirlar paydo bo`ladi. Kompression kiyim qo`llanilganda inson tomirlardagi qon bosim natijasida qon betartib harakati cheklanadi. Natijada odamdagi charchoq kamayadi va ish unumi oshadi.

Ilmiy adabiyotlarda kompression sport kiyimlarining samaradorligi bir necha asosiy mexanizmlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, tashqi bosim mushak to‘qimalarida venoz qonning yurakka qaytishini tezlashtiradi.

Ikkinchidan, mushaklar barqarorligi oshib, jarohatlanish xavfi kamayadi.

Uchinchidan, termoregulyatsiya va namlikni boshqarish xususiyatlari sportchining umumiy holatini yaxshilaydi. Mazkur jarayonlarni tushuntirishda fiziologiya va biomekanika fanlarining yutuqlaridan keng foydalaniladi. Zamonaviy tadqiqotlar kompression darajani tananing turli zonalari bo‘yicha differensial tarzda taqsimlash samaraliroq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi vaqtda kompression sport kiyimlari o‘z funksiyasi va qo‘llanilish sohasiga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi: kompression futbolkalar, taytlar, shortlar, yenglar va paypoqlar. Har bir tur ma'lum mushak guruhlariga maxsus yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning bosim darajasi va dizayni sport turining talablariga muvofiq moslashtiriladi. Bu kiyimlar mushaklarni qo‘llab-quvvatlash, qon aylanishini yaxshilash va jarohatlanish xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, har bir komponent sportchining harakat erkinligini saqlab qolgan holda, optimal siqishni ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda ko`plab professional sportchilar qo`lidagi mahkamlagich, short, leginsi, yugurishda ishlatiladigan maxsus paypoqgacha bo`lgan turli xil kompression kiyimlardan foydalanadilar. Biroq, 1980-yillarda rangli spandeks to`lqini sport zallarini egallaganligi sababli, kompression kiyimlari juda ko`p o`zgarishlarga duch keldi.

Avvaliga uning afzalliklariga namlikni yutish, terlashni tartibga solish, ishqalanish va choklarning botmaslik darajasini kamaytirish, shuningdek, qo`llab-quvvatlashga e`tibor qaratildi. Zamonaviy kompression kiyimlari, aksincha, qon aylanishini oshirish va mushaklarning tebranishini barqarorlashtirish uchun, qo`l va oyoqlarni yetarlicha qattiq siqish uchun mo`ljallangan. Bu esa sportchilar uchun kuch va chidamlilikni oshirish va mashg`ulotlardan tezroq tiklanish haqida yanada dadil da`volarga olib keladi.

Yangi turdagi kompression sport kiyimlari o‘nlab yillar davomida qon quyqalari va qon aylanishining buzilishlarini davolash uchun qo‘llanilgan tibbiy kompression paypoqlardan kelib chiqqan. Ushbu kiyimlarning sportchilar uchun eng muhim afzalliklaridan biri – kechiktirilgan mushak og‘rig‘i sindromining (DOMS – delayed onset muscle soreness) kamaytirilishi va mushaklarning tezroq tiklanishiga yordam berishidir. DOMS – bu g‘ayrioddiy yoki intensiv jismoniy mashqlar natijasida paydo bo‘ladigan mushaklardagi kechiktirilgan og‘riq va noqulaylik holatidir. Kompression kiyimlar mushaklarda qon aylanishini yaxshilash, ortiqcha suyuqlikni chiqarish va yallig‘lanishni kamaytirish orqali tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan kompression sport kiyimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida undan foydalanishda hal qiluvchi omil ikki yo‘nalishda olib boriladigan sport mashg‘ulotlari turi ekanligini ko‘rsatadi, ular umumiy rivojlanish yoki sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat va ixtisoslashtirilgan o‘quv jarayonlaridir.

Olib borilgan tahliliy tadqiqot davomida savdo markazlari va internet-resurslarda mavjud bo‘lgan 100 dan ortiq turli xil markali (Nike, Chanel, Puma, Reebok, Adidas va boshqalar) sport buyumlarini o‘rganish, tahlil qilish va baholash jarayoni amalga oshirildi. Har bir buyum quyidagi mezonlar bo‘yicha: sport turi; buyum turi va maqsadi, assortiment guruhi; materiallarni tolaviy tarkibi; model-konstruktiv yechimlari asosida tahliliy tadqiqotlar o‘tkazildi. Bozor tadqiqotlari va tahliliy ishlar natijasida asosiy brendlarning assortiment va materiallar bo‘yicha farqlari aniqlangan.

Sport kiyimlari bozorida faqat yuqori sifat va innovatsiyalar asosida bir necha brendlar o‘z o‘rnini mustahkamlab, global liderlarga aylangan.

Bizning ro`yxatimizda qayd etilgan brendlar o`nlab yillar davomida talabni saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi. Ular yuqori sifatli mahsulotlar, doimiy innovatsiyalar, muvaffaqiyatli mashhur reklama kompaniyalari va butun dunyo bo`ylab sodiq muxlislar armiyasi bilan munosabatlarni saqlab qolish qobiliyati orqali o`z pozitsiyalarini o`rnatdilar.

Sport kiyimlari sanoatining gigantlari orasida ham ajralib turadigan brend. Nike kompaniyasining «Just do it» shiori hamma uchun tanish, sodda, ammo ifodali, u deyarli butun bir avlodning shioriga aylana oldi. Nike bozorda barcha sport turlari uchun juda ko`p sport kiyimlari va aksessuarlariga ega, ammo sport poyabzali brendning eng mashhur mahsulotlari bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Ammo nafaqat yuqori sifat kompaniya Nike kompaniyasi 1964-yildan beri yuqori sifatli sport mahsulotlari bilan bir qatorda yoshlar madaniyati va moda sohasida ham katta ta’sirga ega bo‘lib, brend sifatida global miqyosda muvaffaqiyat qozongan. Xip-hop madaniyati va reklama kampaniyalari orqali Nike yoshlarni jalb qilmoqda. 2022-yil holatiga ko`ra, kompaniyaning sof daromadi 4,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Adidas Germaniyaning kichik shaharchasidagi oilaviy biznesdan sof daromadi 0,72 milliard yevro (2015-yil holatiga ko`ra) bilan dunyodagi eng yirik sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilardan biriga aylanish yo`li oson bo`lmagan va faqat professional sport uchun, shuningdek, moda va uslubni biluvchilar uchun yangi yechimlarni yaratishga doimiy intilish kompaniyaga uni muvaffaqiyatli yengishga imkon berdi. Adidas oilaviy biznes sifatida kichik shaharchada boshlangan, ammo doimiy innovatsiyalar va professional sportga yo‘naltirilgan mahsulotlari tufayli dunyoning yetakchi sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilaridan biriga aylangan.

Adidas bugungi kunda kriket, basketbol, golf, tennis, gimnastika, skeytbording, yugurish va boshqa ko`plab sport turlari uchun kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlarga ixtisoslashgan brend va, albatta, jahon darajasidagi futbol janglarining ajralmas qismidir. Shu bilan birga, Adidas brendi va uchta kanonik chiziqlar bilan sport leggingslari, kurtkalar, futbolkalar, qozoqlar, krossovkalar va boshqa ko`p narsalar sport uslubining cho`qqisi hisoblanadi. Adidas o‘z mahsulotlarini ko‘plab sport turlari uchun ishlab chiqadi va brend futbol olamida ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, sport kiyimlari va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

aksessuarlar sohasida innovatsiyalarni ilgari suradi.

Puma brendi ostidagi kompaniyada sport anjomlari ishlab chiqariladi, AQSH, Fransiya, Shvetsariya, Ispaniya va Gonkongda korxonalariga ega. Germaniyada ishlab chiqarilgan mahsulotlari 1/3 qismi eksport qilinadi. Ularning kompression kiyim to`plamlari turli xildir – futbolkalar, shimlar, leggins, tizzadan yuqori shortilar. Har bir turi sportning bir yo`nalishiga mos keladi. Puma kompaniyasi global ishlab chiqarish va eksport tarmoqlariga ega bo‘lib, sport kiyimlari assortimenti keng va har bir mahsulot turi aniq sport yo‘nalishiga moslashtirilgan.

SKINS kompaniyasi kompression kiyim ishlab chiqrishning yoshlari desa bo`ladi. To`g`ri, tibbiy maqsadlarda kompressiyadan foydalanish deyarli bir asrdan beri mavjud. Ammo 90-yillarda aynan SKINS ixtirochisi nafaqat tibbiy kompressiya tamoyillarini, balki sport kontekstida qo`llash haqida o`ylagan va maqsad sari harakat qila boshlagan. SKINS brendi 1990-yillarda paydo bo‘lib, tibbiy kompression prinsiplarini sport kiyimlariga tatbiq etishda innovatsion yondashuvni amalga oshirdi, bu esa sportchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

2002-yilda SKINS dunyodagi birinchi kompression sport kiyimlarini bozorga chiqardi. Ko`p yillar davomida professional sportchilar va havaskorlar sport kiyimlarida kompressiya afzalliklaridan bahramand bo`lishmoqda. SKINS kompaniyasi 2002-yilda sport uchun mo‘ljallangan birinchi kompression kiyimlarni bozorga chiqarib, sportchilarga yangi imkoniyatlar yaratdi va hozirgi kungacha ushbu texnologiya keng qo‘llanilmoqda.

1895-yilda tashkil etilgan va 1958-yilda o`z kompaniyasi sifatida tashkil etilgan Reebok yengil atletika bo`yicha jahon yetakchisi hisoblanadi. Afrika antilopasidan ilhomlangan nom bilan Reebok sifat, ilg`or tadqiqotlar va sportga bo`lgan haqiqiy ishtiyoq bilan sinonimdir. Reebok ayollar kiyimlari dinamik, qulay va ko`p qirrali. Reebok ning har bir yangi kolleksiyasi shahar uslubidagi kostyumlar, ustki kiyimlar va nafas oluvchi leggingslardan tortib, amaliylik va sport innovatsiyalarining aralashmasidir. Reebok brendi o‘zining qadimiy tarixiga ega bo‘lib, yengil atletika sohasida yetakchilik qiladi. Brend nomi Afrika antilopasidan ilhomlanib, sifat va sportga bo‘lgan sadoqatni aks ettiradi.

Avstraliyaning 2XU brendi sport kiyimlari innovatsion materiallar va texnologiyalarni afzal ko`rgan va ularni o`z hayoti va sportida muvaffaqiyatli qo`llaydigan sport ishqibozlari va professional sportchilar uchun mo`ljallangan kompaniya. 2XU brendi innovatsion texnologiyalar va materiallarga asoslangan mahsulotlari bilan sport va kundalik hayot uchun mos keladi, ayniqsa uzoq vaqt tik yoki o‘tirib ishlaydiganlar uchun foydalidir. Sport bilan bir qatorda, 2XU dan kundalik hayotda ham foydalanish mumkin, ayniqsa, tik turib yoki o`tirgan holda ko`p vaqt sarflaydiganlar insonlar.

Nike - sport kiyimlari va aksessuarlar bo`yicha eng yirik brendlardan biridir. U 1964 yilda asos solingan bo`lib, bugungi kunda global miqyosda tanilgan. Nike innovatsion texnologiyalar, masalan, «Nike Air» va «Flyknit» kabi materiallardan foydalanadi. Brend, shuningdek, sportchilarni qo`llab-quvvatlash va ularga inspiratsiya berish maqsadida turli xil marketing kompaniyalarini olib boradi. Nikening muvaffaqiyati ko`plab sportchilar va jamoalar bilan hamkorlik qilishida ham yotadi. Nike kompaniyasi 1964-yilda tashkil topib,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

innovatsion mahsulotlar va kuchli marketing strategiyalari bilan jahon sport kiyimlari bozorida yetakchi o‘rinlarni egallagan. ‘Nike Air’ va ‘Flyknit’ texnologiyalari brendning eng muhim yangiliklaridan biridir.

Adidas - 1949 yilda tashkil etilgan nemis brendi bo`lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida katta obro`ga ega. Adidas «Boost» texnologiyasi bilan mashhur bo`lib, bu material energiyani qayta tiklash imkonini beradi. Brend, shuningdek, ekologik mas`uliyatini oshirish maqsadida qayta ishlangan materiallardan foydalanishga e`tibor qaratmoqda. Adidas o`zining «Originals» liniyasi orqali ko`plab yosh avlodlarga yo`naltirilgan dizaynlar taklif etadi.

Puma 1948 yilda asos solingan bo`lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida o`z o`rnini topgan brenddir. U innovatsion dizaynlar va rang-barang uslublari bilan ajralib turadi. Puma, shuningdek, mashhur sportchilar va mashhurlar bilan hamkorlik qilib, o`z mahsulotlarini yanada jozibador qiladi. Brend «Puma Ignite» va «Puma RS-X» kabi seriyalar orqali sport va moda o`rtasidagi chegara ortidan o`tishni maqsad qiladi. Puma brendi o‘zining innovatsion dizaynlari va keng assortimentdagi mahsulotlari bilan sport va moda bozorida o‘ziga xos o‘rin tutgan.

2XU - avstraliyalik sport kiyimlari brendi bo`lib, yuqori texnologiyali materiallar va innovatsion dizaynlar bilan tanilgan. Brend, asosan, sportchilar uchun funksional kiyimlar ishlab chiqaradi, masalan, kompressiya kiyimlari, sport ko`ylaklari va shimlar. 2XU mahsulotlari yuqori darajadagi chidamlilik, qulaylik va harakat erkinligini ta`minlaydi. Ular shuningdek, sportchilar uchun tikuv usullari va materiallar yordamida mushaklarni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan. 2XU brendi yuqori texnologiyalar va sportchilarga mo‘ljallangan dizaynlarni birlashtirib, sport kiyimlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamladi.

Reebok-ingliz brendi bo`lib, 1958 yilda tashkil etilgan. U sport va fitnes kiyimlari, shuningdek, poyabzal ishlab chiqaradi. Reebok, o`zining «Classic» va «Cross Fit» seriyalari bilan mashhur. Brend, shuningdek, fitnes va sog`lom turmush tarzini targ`ib qilishga qaratilgan ko`plab marketing kompaniyalarini o`tkazadi. Reebok mahsulotlari, qulaylik va innovatsion dizayn bilan ajralib turadi, shuningdek, jahon bo`ylab ko`plab sportchilar va mashhurlar bilan hamkorlik qiladi.

Skins - kompressiya kiyimlari bo`yicha yetakchi brend hisoblanadi. U 1996 yilda Avstraliyada tashkil etilgan bo`lib, sportchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan mahsulotlarni taklif etadi. Skins kiyimlari mushaklarni qo`llab-quvvatlash, qon aylanishini yaxshilash va tiklanishni tezlashtirishga yordam beradi. Brend yuqori sifatli materiallar va innovatsion texnologiyalar bilan ajralib turadi, bu esa sportchilar uchun qulaylik va maksimal samaradorlikni ta`minlaydi, yuqori sifatli kompression kiyimlari bilan sportchilarning tiklanish va mushaklarni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini yaxshilaydi.

Nike kompression kiyimlarida mushak vibratsiyasini kamaytirish, qon aylanishni yaxshilash va termoregulyatsiyaga katta e’tibor beradi. Nike kompression kiyimlari mushaklarning tebranishini kamaytirishga, qon aylanishini yaxshilashga va termoregulyatsiyani boshqarishga qaratilgan laboratoriya sinovlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Brend professional sportchilar bilan laboratoriya sinovlarini olib boradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Adidas kompression kiyimlari anatomik moslashuv va zonali bosim printsiplariga tayangan holda mushaklarni qo‘llab-quvvatlash va optimal harakat imkoniyatlarini yaratadi.

Puma kompaniyasi yengil va qulay sport kiyimlari ishlab chiqarishga katta e’tibor beradi, bu esa sportchilar uchun harakat erkinligini ta’minlaydi.

2XU tibbiy gradiyent kompressiya tamoyillariga asoslangan va sport fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘langan.

Reebok CrossFit va kuch mashqlariga mo‘ljallangan mustahkam va elastik kompression kiyimlar ishlab chiqaradi.

Skins ilmiy asoslangan kompression kiyimlar bo‘yicha yetakchi brendlardan biri bo‘lib, mushaklarni to‘g‘ri pozitsiyada ushlab turishga qaratilgan.

Nike, Adidas, Puma 2XU, Reebok va Skins sport kiyimlari sanoatida global yetakchilar hisoblanadi. Har bir brend o`zining noyob texnologiyalari, dizayn yondashuvlari va marketing strategiyalari bilan ajralib turadi. Ular sportchilik va moda olamida doimiy ravishda innovatsiyalar kiritib, iste`molchilar uchun yuqori sifatli va qulay mahsulotlar taqdim etmoqda. Bu brendlar o`zaro raqobat qilib, sport kiyimlari sanoatini rivojlantirishga katta hissa qo`shmoqda.

Nike, Adidas va Puma brendlari kompression kiyimlar ishlab chiqaradi, lekin ba’zan mahsulotlarning nomi rasmiy katalogda “compression”, “base layer”, “tight” yoki “sleeve” deb belgilanadi,ya’ni bu siqishni qo‘llab-quvvatlash texnologiyalari turli nomlar ostida taqdim etiladi. Masalan, kompression leg sleeve - bu yagona oyog‘ uchun mushaklarni siqish kiyimi bo‘lib, basketbol va boshqa sportlarda ishlatiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kompression sport buyumlarini ishlab chiqishda elastik trikotaj materiallarning strukturaviy, fizik-mexanik va siqish xususiyatlari inson tanasining antropometrik ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Kompression kiyimlarning shinamligi va funksionalligi nafaqat material tarkibi, balki to‘qima turi, elastomer iplar ulushi hamda texnologik parametrlarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida kompression sport kiyimlarida hosil bo‘ladigan me’yorlashgan bosim mushaklarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, harakat samaradorligini oshirishi hamda sportchi organizmiga fiziologik jihatdan ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi. Elastik trikotaj materiallarning deformatsiyalanish va tiklanish jarayonlari tahlili asosida ularning uzoq muddatli ekspluatatsiya jarayonida barqaror ishlash imkoniyatlari belgilab berildi.

O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion kompression sport buyumlarini yaratish imkoniyati mavjudligi aniqlanib, mahalliy xom-ashyodan foydalangan holda yuqori sifatli, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sport va sport-tibbiy kiyimlar assortimentini kengaytirish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish hamda yengil sanoat va sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya ishida olingan ilmiy va amaliy natijalar kompression sport buyumlarini loyihalash, ishlab chiqarish va takomillashtirish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda sportchilar va aholining keng

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qatlamlari uchun qulay va funksional kiyimlar yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Петрова Н. А. История и современное развитие мировых спортивных брендов // Экономика и управление. — 2018. — №3. — С. 48-54
2. Смирнова Т. А. Анализ мирового рынка спортивной одежды и оборудования // Вестник экономики. — 2019. — №7. — С. 67-72.
3. Иванов В. И. Маркетинговые стратегии спортивных брендов // Маркетинг и реклама. — 2021. — №5. — С. 30-36.
4. Anvarovna, C. D. (2024). TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

QADIMGI DUNYO FAYLASUFLAR NOTIQLIK SAN'ATI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Sobirov Ulug'bek G'ofurovich, Buxoro davlat pedagogika institutiPedagogik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: notiqlik san'ati insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlaridan boshlab ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Qadimgi dunyo faylasuflari notiqlikni nafaqat nutq mahorati, balki tafakkur, axloq va mantiq bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilm sifatida talqin etganlar. Ayniqsa, Aristotel o'zining "Ritorika" asarida notiqlik nazariyasini tizimli ravishda asoslab bergan bo'lsa, Platon nutqning axloqiy mohiyatiga urg'u bergan. Sokrat esa savol-javob (mayevtika) usuli orqali mantiqiy fikrlash va haqiqatni izlashni notiqlikning asosiy tamoyili sifatida ko'rsatgan.Rim davrida Cicero va Quintilian notiqlikni davlat boshqaruvi va ta'lim tizimining muhim vositasi sifatida rivojlantirganlar. Ularning qarashlari bugungi pedagogik jarayonda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.Mazkur tadqiqot qadimgi dunyo faylasuflarining notiqlik san'ati haqidagi nazariy qarashlari hamda ularning amaliy tajribasini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – qadimgi dunyo faylasuflarining notiqlik san'ati nazariyasi va amaliyoti haqidagi qarashlarini o'rganish, ularning pedagogik ahamiyatini aniqlash hamda zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini asoslab berish.

MATERIAL VA METODLAR: tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Tarixiy-tahliliy metod **–** qadimgi Yunon va Rim manbalarini o'rganish; Qiyosiy tahlil – yunon va rim notiqlik maktablari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash; Matnshunoslik tahlili – Ritorika hamda Institutio Oratoria asarlaridagi asosiy g'oyalarni tahlil qilish; Pedagogik interpretatsiya – qadimgi nazariyalarni zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashtirish. Tadqiqot obyekti sifatida qadimgi Yunoniston va Rim notiqlik maktablari tanlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qadimgi faylasuflar notiqlikni uch asosiy tarkibiy qism asosida talqin qilganlar:

1. Mantiqiy asos (logos) – nutqning dalillarga tayanishi;
2. Axloqiy asos (ethos**)** – notiq shaxsining obro'-e'tibori va halolligi;
3. Hissiy ta'sir (pathos) – tinglovchining hissiyotiga ta'sir ko'rsatish.

Bu tamoyillar bugungi pedagogik jarayonda ham samarali qo'llanilishi mumkin. Masalan, talabalarda nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash, bahs-munozara olib borish ko'nikmalarini shakllantirishda qadimgi notiqlik maktablarining tajribasi muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Cicero notiqni "har tomonlama yetuk shaxs" sifatida tasvirlab, bilim va axloq birligini asoslab bergan. Bu yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

XULOSA: qadimgi dunyo faylasuflarining notiqlik san'ati nazariyasi va amaliyoti bugungi pedagogika uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ular nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash va axloqiy tarbiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab berganlar.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Zamonaviy ta’lim tizimida qadimgi notiqlik merosidan foydalanish talabalarda kommunikativ kompetensiya, tanqidiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: aflotun, Arastu, dialektika, falsafa, Isokrat, kommunikativ kompetensiya, mantiq, muloqot, notiqlik, notiqlik san’ati, nutq madaniyati, pedagogika, ritorika, Sitseron, siyosiy nutq, sofistlar,

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА ФИЛОСОФОВ ДРЕВНЕГО МИРА

Собиров Улугбек Гофурович, преподаватель кафедры педагогического образования Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: ораторское искусство с первых этапов развития человеческой цивилизации являлось важной составной частью общественно-политической и духовной жизни. Философы древнего мира рассматривали риторику не только как мастерство речи, но и как науку, неразрывно связанную с мышлением, нравственностью и логикой. В частности, Aristotle в своём труде Rhetoric систематически обосновал теорию ораторского искусства, тогда как Plato подчёркивал нравственную сущность речи. Socrates посредством метода вопрос-ответ (майевтика) рассматривал логическое мышление и поиск истины как основной принцип риторики. В римский период Cicero и Quintilian развивали ораторское искусство как важный инструмент государственного управления и системы образования. Их взгляды сохраняют актуальность и в современном педагогическом процессе. Настоящее исследование направлено на научно-педагогический анализ теоретических взглядов философов древнего мира на ораторское искусство и их практического опыта.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – изучить взгляды философов древнего мира на теорию и практику ораторского искусства, определить их педагогическое значение и обосновать возможности применения в современном образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы: историко-аналитический метод – изучение древнегреческих и римских источников; сравнительный анализ – выявление сходств и различий между греческими и римскими школами риторики; текстологический анализ – исследование основных идей трудов Rhetoric и Institutio Oratoria; педагогическая интерпретация – адаптация древних теорий к современному образовательному процессу. Объектом исследования выступили школы риторики Древней Греции и Рима.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты исследования показали, что древние философы рассматривали ораторское искусство на основе трёх основных компонентов:

1. Логическая основа (logos) – опора речи на доказательства;
2. Нравственная основа (ethos) – авторитет и честность личности оратора;
3. Эмоциональное воздействие (pathos) – влияние на чувства слушателей.

Эти принципы могут эффективно применяться и в современном педагогическом процессе. Например, при формировании у студентов культуры речи, логического мышления и навыков ведения дискуссии опыт древних школ риторики служит важной методической основой.Кроме того, Cicero характеризовал оратора как «всесторонне развитую личность», обосновывая единство знаний и нравственности. Данный подход гармонирует с принципами современной компетентностной модели образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: теория и практика ораторского искусства философов древнего мира представляют собой важный научный источник для современной педагогики. Они обосновали тесную взаимосвязь между культурой речи, логическим мышлением и нравственным воспитанием. Использование наследия древней риторики в современной системе образования способствует развитию у студентов коммуникативной компетенции, критического мышления и культуры речи.

Ключевые слова: риторика, ораторское искусство, софисты, Платон, Аристотель, Исократ, Сицерон, коммуникативная компетенция, философия, красноречие, диалектика, культура речи, логика, педагогика, политическая речь, коммуникация.

THE THEORY AND PRACTICE OF ORATORY IN THE PHILOSOPHY OF THE ANCIENT WORLD

Sobirov Ulugbek Gofurovich, Lecturer at the Department of Pedagogical Education, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annatation

INTRODUCTION: oratory has been an essential component of socio-political and spiritual life since the earliest stages of human civilization. Philosophers of the ancient world interpreted rhetoric not merely as the art of speech, but as a discipline closely connected with thinking, ethics, and logic. In particular, Aristotle systematically substantiated the theory of rhetoric in his work Rhetoric, while Plato emphasized the ethical nature of speech. Socrates, through the method of dialogue (maieutics), identified logical reasoning and the search for truth as fundamental principles of rhetoric.During the Roman period, Cicero and Quintilian developed oratory as an important instrument of public administration and education. Their ideas remain relevant in contemporary pedagogical practice. This study aims to analyze the theoretical views and practical

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

experience of ancient philosophers on oratory from a scientific and pedagogical perspective.

AIM: the main objective of the research is to examine the views of ancient philosophers on the theory and practice of oratory, determine their pedagogical significance, and justify the possibilities of applying them in modern educational processes.

MATERIALS AND METHODS: the following methods were employed in the study: Historical-analytical method – examination of ancient Greek and Roman sources; Comparative analysis – identification of similarities and differences between Greek and Roman rhetorical schools; Textual analysis – study of the main ideas presented in Rhetoric and Institutio Oratoria; Pedagogical interpretation – adaptation of ancient theories to the modern educational context. The object of the study was the rhetorical schools of Ancient Greece and Rome.

RESULTS AND DISCUSSION: the findings indicate that ancient philosophers interpreted oratory based on three fundamental components:

1.Logical foundation (logos) – reliance of speech on evidence and reasoning;

2.Ethical foundation (ethos) – credibility and moral integrity of the speaker;

3.Emotional appeal (pathos**)** – influence on the audience's emotions.

These principles can be effectively applied in modern pedagogy. For instance, the experience of ancient rhetorical schools serves as an important methodological basis for developing students' speech culture, logical thinking, and debate skills. Moreover, Cicero described the orator as a "well-rounded individual," emphasizing the unity of knowledge and morality. This approach aligns with the principles of competency-based education in contemporary pedagogy.

CONCLUSION: the theory and practice of oratory developed by philosophers of the ancient world constitute an important scientific resource for modern pedagogy. They substantiated the close relationship between speech culture, logical thinking, and moral education. The integration of ancient rhetorical heritage into modern education contributes to the development of students' communicative competence, critical thinking, and speech culture.

Keywords: rhetoric, oratory, sophists, Platon, Aristotel, Isocrat, Ciceron, communicative competence, philosophy, oratory, dialectics, speech culture, logic, pedagogy, political speech, communication.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida so‘z san’ati — notiqlik, ya’ni ritorika, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim davrida shakllangan notiqlik maktablari inson tafakkuri, siyosiy madaniyat, ta’lim tizimi va ijtimoiy muloqot madaniyatining rivojida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Notiqlik san’ati qadimdan insonni ijtimoiy mavjudot sifatida shakllantiruvchi, uning fikrlash doirasini kengaytiruvchi, nutq madaniyatini yuksaltiruvchi, shuningdek, siyosiy hayotda faol ishtirok

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

etishga undovchi muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida e'tirof etilgan. Ritorikaning tarixiy taraqqiyoti orqali inson tafakkurining o'sishi, jamiyatdagi muloqot madaniyatining shakllanishi va ijtimoiy ongning rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy asosda ochib beriladi. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida notiqlik san'ati — ritorika nafaqat so'z mahorati, balki jamiyatning siyosiy, huquqiy va ma'naviy hayotini tartibga soluvchi strategik vosita bo'lib kelgan. Biroq, bugungi global axborotlashuv va multimedial muloqot davrida qadimgi notiqlik maktablari an'analari hamda zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar o'rtasidagi uzviylikni ilmiy asoslash masalasi dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, sofistlar, Aflotun, Arastu va Sitseron kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan mantiqiy isbotlash va auditoriyaga ta'sir o'tkazish tamoyillari bugungi kunning siyosiy nutqlari, biznes kommunikatsiyalari va ta'lim jarayonlari uchun hamon metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu merosni tahlil qilish orqali zamonaviy jamiyatdagi kommunikativ inqirozlar va muloqot madaniyatining pasayishi kabi muammolarni bartaraf etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqlik maktablarining nazariy merosini ilmiy tahlil qilish hamda ularning zamonaviy muloqot jarayonlaridagi transformatsiyasini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun qadimgi mutafakkirlarning ritorikaga doir qarashlarini tizimlashtirish, nutqning tarkibi va estetik mezonlarini aniqlash hamda ularni bugungi ijtimoiy-pedagogik voqelikka moslashtirish kabi vazifalar belgilangan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u ritorikani shunchaki nutq texnikasi emas, balki insonning ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi tizim sifatida dalillaydi va antik davr ritorikasining fundamental qoidalarini zamonaviy kommunikativ kompetensiyalar bilan bog'lagan holda yangi nazariy xulosalar beradi. Qadimgi Yunoniston va Rim mutafakkirlari (sofistlar, Aflotun, Arastu, Sitseron va boshqalar) tomonidan asos solingan notiqlik san'ati nazariyasi hamda amaliyotining tarixiy-falsafiy ildizlarini tadqiq etish orqali, ushbu klassik merosning zamonaviy kommunikativ jarayonlar, siyosiy nutq madaniyati va pedagogik texnologiyalar rivojidagi o'rnini hamda bugungi kun ijtimoiy muloqot tizimidagi dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Ushbu tadqiqotning materiallari sifatida Qadimgi Yunoniston va Rim mutafakkirlarining ritorika va pedagogikaga oid fundamental asarlari xizmat qildi. Xususan, Arastuning "Ritorika" va "Poetika" asarlari nutqning mantiqiy va estetik asoslarini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Aflotunning "Gorgiy" va "Fedr" muloqotlari (dialektika va so'z mas'uliyati), Sitseronning "Notiq haqida" hamda Kvintilianning "Notiq tarbiyasi" asarlaridagi nazariy qoidalar tadqiqotning empirik bazasini tashkil etdi. Shuningdek, zamonaviy kommunikativ kompetensiya nazariyalari va ritorika tarixiga oid so'nggi ilmiy nashrlar hamda dissertatsiyalar materiallar qatoriga kiritildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy tahlil: Antik davr notiqlik maktablari (Sofistlar, Isokrat va Sitseron maktablari) o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlarni aniqlash hamda ularning davrlararo rivojlanish bosqichlarini qiyoslash uchun qo'llandi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Logik-deduktiv metod: Ritorikaning fundamental qonuniyatlaridan (etos, pafos, logos) kelib chiqib, ularning bugungi zamonaviy nutq madaniyatidagi xususiy ko‘rinishlarini asoslashda foydalanildi.

Sintetik tahlil: Turli falsafiy qarashlar va ritorik maktablarning g‘oyalari umumlashtirilib, "mukammal notiq" konsepsiyasining yaxlit modeli shakllantirildi.

Germenevtik metod: Qadimgi matnlarning mazmun-mohiyatini bugungi kun ijtimoiy-pedagogik voqeligi nuqtai nazaridan talqin qilish va ularning yashirin ma’nolarini ochib berish maqsadida qo‘llandi. Ritorika dastlab miloddan avvalgi V asrda, Sitsiliyada paydo bo‘ldi. Uning ilk vakillari Korak va Tisiy bo‘lib, ular sud notiqligini o‘qitganlar. Bu jarayon keyinchalik sofistlar tomonidan ilmiy asosga solindi. Sofistlar (Protagor, Gorgiy, Prodik, Antifon) notiqlikni haqiqatni izlash emas, balki ta’sirchan nutq orqali odamlarni ishontirish san’ati deb bilishgan. Bundan tashqari antik davrda ritorikaning rivojlanishi uchun Isokrat, Platon Arastu, Lisiy, Demosfen, Suqrot, Kvintillian kabi faylasuflarning ham notiqlik mahoratidagi ulkan yutuqlari, ular tomonidan ritorika san’ati uchun ilgari surgan nazariyalari hamda ritorik usullari katta ahamiyat kasb etadi

1. Sofistik maktab va Protogor ta’limoti ritorikaning boshlanish nuqtasi hisovlanadi. Sofistik maktab qadimgi Yunonistonning demokratik hayotida muhim o‘rin tutgan. Protogor, Gorgiy, Prodik, Hippiy kabi sofistlar notiqlikni amaliy faoliyat bilan bog‘lab, so‘z orqali ishontirish san’atini o‘rgatganlar. Protogor quyidagi falsafiy ta’limotlarni ilgari surdi: “Inson hamma narsaning mezonidir: mavjudodlarning mavjudligi, mavjud bo‘lmaganlarning nomavjudligidir.[1]” Shunga asoslangan holda u mutafakkir davrigacha bo‘lgan ritorik maktablarning munozara – haqiqatni izlashning hamda axloqiy tamoyillarni yoqlashning asosiy vositasidir, degan ta’limotini rad etdi. Protogor baxsda o‘z oldiga faqat yagona maqsadni qo‘yish–auditoriyani notiqning xaq ekanligiga ishontirish va shu maqsadni amalga oshirishda xar qanday yo‘ldan foydalanish lozim, deb hisoblar edi. Uni g‘oyasizlik va axloqsizlikda ayiblashganda qadimgi grek mutafakkirlari bu ayblovni quyidagicha deb bilishadi.

1. Har qanday bilish nisbiy va vaqtinchalik ekanligi;
2. Inson ishonchining komilligi aniq xolatlarga bog‘liqligini;

Insonlarning hissiy va jismoniy xolatlari “turli davrda turlicha qabul qilishdandir” degan izoxlari bilan yo‘qqa chiqaradi.

1. Sofistik maktab va Protogor ta’limoti ritorikaning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Sofistlarning dastlabki maktablari Sitsiliya oroli shaharlarida yuzaga keldi. Protogor sofistlar maktabining asoschilaridan biri edi. U doimo kuchsiz dalilni kuchli dalilga aylantirishni ya’ni biror bir narsani tasdiqlash yoki rad etish maqsadida xoxlagan narsani olib isbotlashdsh iborat deb o‘rgatardi. Shu o‘rinda Protogorning fikriga quloq tutsak: “Hamma narsaning o‘lchovi insondir.” Men narsalarni qanday tasavvur qilsam u shunday, u qanday tasavvur qilsa narsalar u tasavvur qilganday. Bitta shamol ikki marta esmaydi lekin shu shamolda kimdir sovuq qotsa kimdir sovuq qotmaydi. Kimdir ko‘proq sovuq

[1] Бертран Рассел, История западной философи и её связи с политическими и социальными условиями от Античности до наших дней, М., «Академический Проект», 2006 г., с.109

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qotsa, kimdir unchalik darajada sovuq qotmaydi. Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: shamol o‘z holicha sovuqmi? yoki nimagadir nisbatan olganda sovuqmi? Bu savolga javob berish bilan yuqoridagi fikrlarni inkor qilish mumkin. Agar biz shamol o‘z holicha sovuq deydigan bo‘lsak unda u hammaning tasavvuriga bog‘liq bo‘lmagan bo‘ladi. Agar biz nisbatan sovuq deydigan bo‘lsak ham xato bo‘ladi. Chunki shu shamol kimgadir issiq tuyulishi mumkin. Umuman Protogor o‘z davrining yirik notiqlardan biri bo‘lib, u notiqlik san’atiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning sofizmlari xozir ham mantiqda o‘z ahamiyatiga ega.


2. Isokrat notiqlik va ta’lim uyg‘unligi tarafdoridir**.** Isokrat o‘z maktabi orqali notiqlikni ma’naviy tarbiya vositasiga aylantirgan. U so‘zning kuchi insonni barkamol shaxsga aylantiradi deb hisoblagan. Isokratning ta’lim tizimida mantiq, tarix, siyosat va axloqiy qadriyatlar bilan notiqlik uzviy bog‘langan edi. U o‘z nutqlarida vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, adolat va insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan. Isokrat maktabida o‘qitish metodlari o‘quvchini mustaqil fikrlashga, nutqni tahlil qilishga, dalillarni asoslashga o‘rgatgan. Uning qarashlari zamonaviy ta’lim tizimlarida ham dolzarb bo‘lib, notiqlikni ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Demosfen irodaviy kuch va vatanparvarlik timsoli sifatida e’tirof etiladi. Demosfenning notiqlikdagi yutug‘i uning irodasi, mehnatsevarligi va qat’iyatida namoyon bo‘lgan. Yoshligida nutqida nuqsoni bo‘lsa-da, u mashq orqali mukammal notiq bo‘lgan. Uning “Filippikalar” nomli nutqlari yunon xalqini ozodlik uchun kurashga undagan. Demosfen o‘z chiqishlarida dalillarni qat’iy mantiq bilan joylashtirgan, his-tuyg‘ularga murojaat qilib auditoriyani ruhlantirgan. Demosfen o‘zining nutqlarida jamoat chiqishida asosan odamlarning ruhiyati, ularning ixtiyori va hissiyotiga tasir qilishga kuch berar edi. Bunday ta’sir Demosfen ovozining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani, jo‘shqin va jumboqli iboralar bilan zo‘r berib ishlangan nutqning matni orqali amalga oshirilar edi. “A’lo darajada ishlangan mimika va xatti - harakat bilan uygun xar bir ibora bosqichma - bosqich omma ruhiyatini notiqqa kerak bo‘lgan tarafga shunday yunantirilgan ediki, xatto insonlarning o‘zlari ham Demosfen nutqining tasiri ostida garchi avvalida notiqning g‘oyalariga qarshi kayfiyatda bo‘lsalarda, bilmagan xolda uning tarafiga o‘tib qolgan paytlarini sezmay qolardilar. “Notiqlikning darajasi asosini nima belgilab beradi?’’ deb berilgan savolga Demosfen qat’iy “Birinchidan ifodalash, ikkinchidan ifodalash va uchinchidan yana ifodalash’’ deb javob beradi. Demosfen nutqlari juda ham jo‘shqin va shiddatkorligidan, dushmanlari uni “yovvoyi hayvon” deb atashardi. U nutq so‘zlashda maksimal ifodalilikka erishishga harakat qilardi. Uning notiqligi milliy birlik va adolat g‘oyalarini tarannum etadi. Demosfen bugungi kunda ham notiqlikda iroda, maqsad va vatanparvarlik namunasi sifatida o‘rganiladi.


4. Arastu notiqlikni ilmiy tizimga solgan mutafakkirdir**.** Arastu notiqlikni falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilgan va uni ilmiy tizim darajasiga ko‘targan. Uning “Ritorika” asarida nutqning psixologik, mantiqiy va axloqiy asoslari tahlil qilingan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



A



rastu nutqni tayyorlash jarayonini besh bosqichga ajratgan:

Bu tizim bugungi zamon pedagogik va kommunikativ yondashuvlarda ham qo'llaniladi.

5. Suqrot va Aflotun qarashlarida haqiqat izlashning notiqlikdagi ifodasi yetakchilik qiladi**.** Suqrot notiqlikni haqiqatni izlash vositasi sifatida ko'rgan. Uning savol-javobga asoslangan muloqot usuli (maevtika) o'quvchini mustaqil fikrlashga undagan. Aflotun esa Suqrot g'oyalarini rivojlantirib, notiqlikni falsafiy mazmunga ega deb bilgan. U "Gorgiy", "Faidr" dialoglarida notiqlikni inson ruhini tarbiyalovchi san'at sifatida ta'riflagan. Aflotunga ko'ra, haqiqiy notiq tinglovchini o'z fikriga ergashtiruvchi emas, balki uni haqiqatga yetaklovchi shaxsdir. Bu yondashuv zamonaviy ta'limda interfaol o'qitish usullarining falsafiy asosini tashkil etadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

6. Lisiy soddalik va tabiiylik ritorikasi tarafdori sifatida tanilgan. Lisiy sud nutqlari bilan mashhur bo‘lgan. U nutqda soddalik, tabiiylik va samimiyatni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Uning uslubi murakkab metaforalardan xoli, ammo hissiy va hayotiy mazmunga boy edi. Lisiy tinglovchining ishonchini qozonish uchun hayotiy misollar, xalqona ifodalar va real dalillardan foydalangan. Uning nutqlari zamonaviy “oddiy uslub” ritorikasining asosi bo‘lib, hozirgi nutq madaniyatida ham ahamiyatini saqlab qolgan.

7. Sitseron siyosiy notiqlik va estetik go‘zallik birligi tarafdori

Sitseron Rim notiqligini eng yuqori darajaga ko‘targan. U notiqlikni siyosat, huquq va falsafaning uyg‘unligi sifatida talqin qilgan. Sitseronning “Notiq” asarida notiq uchun zarur fazilatlar sanab o‘tiladi: bilimdonlik, axloqiylik va estetik did. U nutqning oltita bosqichini ajratgan: mavzu tanlash, tartiblash, ifoda, yod olish, aytilish va baholash. Sitseronning chiqishlari Rim siyosatida muhim rol o‘ynagan, uning g‘oyalari o‘rta asr va Uyg‘onish davri ritorikasiga asos bo‘lgan.

Quyidagi jadvalda antik davrda shakllangan asosiy ritorika maktablari, ularning asoschilari, g‘oyalari va ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Ritorika qadimgi Yunoniston va Rimda ijtimoiy, siyosiy hamda falsafiy fikr rivojida muhim rol o‘ynagan.

(1-jadval)

Antik davrda ritorika maktablari

Maktab nomi va davri	Asoschilari	Ritorika rivojiga qo‘shgan hissasi	Asosiy g‘oyalariva ilmiy ahamiyati
Sitsiliya ritorika maktabi Mil.avv.V asr, Sitsiliya	Koraks, Tisiy	Ritorikani mustaqil san’at sifatida shakllantirishga asos solgan.	Bu maktab nutq tuzilmasining ilk nazariyasini bergan, keyingi ritorik tizimlar uchun poydevor bo‘lgan. Nutqni tuzish va isbotlash qoidalari ishlab chiqilgan. Sud va siyosiy nutq uchun amaliy qo‘llanma.
Sofistlar maktabi Mil.avv. V–IV asrlar, Afina	Protogor, Gorgiy, Prodik, Hippiy	Ritorikani falsafa, axloq va siyosat bilan bog‘lab o‘rgatgan.	Sofistlar ritorikani subyektiv haqiqat bilan bog‘lab, inson tafakkuri va nutq madaniyatiga yangi yondashuv olib kirgan. Ishontirish va dalillash san’ati. Insonni o‘lchov sifatida talqin etish.
Sokrat, Platon va Aristotel maktablari Mil.avv. IV asr, Afina	Sokrat, Platon, Aristotel	Ritorikani falsafiy asosda tizimlashtirgan, dalillash usullarini yaratgan.	Aristotel ritorikani ilmiy fan sifatida belgilab, Ethos, Pathos, Logos tamoyillarini ishlab chiqdi. Nutqni haqiqatga xizmat qildirish, mantiqiy va axloqiy asosda qurish ilgari surildi.
Rim ritorika maktablari Mil.avv. I asr – Mil. I asr, Rim	Sitseron, Kvintilian	Ritorika ta’lim tizimini shakllantirgan, notiqlik san’atini pedagogik jarayonga aylantirgan.	Rim maktablari ritorikani pedagogik fan sifatida mustahkamladi. Kvintilian notiqni 'yaxshi inson' sifatida talqin qildi. Ritorika – axloqiylik va bilimning uyg‘unligi. Ideal notiq modeli.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Ushbu jadval asosida aytish mumkinki, antik davr ritorika maktablari inson tafakkuri, nutq madaniyati va ta'lim tizimining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ular orqali ritorika amaliy nutqdan ilmiy-nazariy sohaga aylangan.

Bundan tashqari har bir faylasufning o'ziga xos notiqlik faoliyatini olib boorish usullari bo'lgan. Mazkur usullar orqali notiqning shaxsiy yonadashuvi hamda fikrni bayon qilish metodlarini bir biridan oson ajratib olishimiz mumkin.

Quyidagi jadaval asosida bir qancha ritorika maktabi faylasuflarining notiqlik sohasidagi o'ziga xos mahorati va metodlari tisnifini ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Antik davr faylasuflarining ritorik metodlari xronologik tasnifi

Faylasuf nomi va yashagan davri	Notiqlikda qo'llagan usuli	Usul mazmuni
Protagor - Mil. avv. 490-420	Nisbiylikka asoslangan bahs; kuchsiz dalilni kuchli qilish	"Inson hamma narsaning mezonidir" g'oyasiga tayangan holda auditoriyani ishontirish; haqiqatni emas, g'alabani ko'zlab bahslashish; istalgan fikrni tasdiqlash yoki rad etishda har qanday dalildan foydalanish.
Gorgiy - Mil. avv. 483-375	Ishontirish, maftun etish; tantanali notiqlik	Nutqning musiqiyligi, ohangdorlik, hissiyotga ta'sir qilish orqali tinglovchini maftun etish; notiq so'zining sehrli kuchi orqali auditoriyani o'z tarafiga og'dirish.
Suqrot - Mil. avv. 469-399	Suhbat (dialektika), savol-javob; "maievtika" usuli	Suqrot dialektikasi "ironiya" ya'ni ilmoqli so'zlardan tashkil totgan, Savollar orqali suhbatdoshni haqiqatni o'zi topishga undash; mulohazaga majbur qilish; fikrni tahlil qilish yo'li bilan to'g'ri xulosaga yetaklash.
Lisiy - Mil. avv. 445-380	Soddalik va lo'ndalik; kundalik til uslubi	Oddiy, ravon, xalqona tilda nutq tuzish; murakkab bezaklardan qochish; tinglovchi ongiga bevosita ta'sir qilish; sodda uslubda kuchli mantiqiy dalillar berish, har bir tabaqa vakilining o'ziga xos xarakterini o'rganib uning erkin portretini chizish.
Isokrat - Mil. avv. 436-338	Chiroyli uslub, ohangdorlik, kompozitsiya	Isokrat uslubi o'z hashamdorligi bilan ajralib turadi. U nutqning ohangiga, chiroyli Shakliga alohida e'tibor qaratadi. Nutqning badiiy bezagi, chiroyli shakl, estetik ohangga urg'u berish; nutqni ma'rifiy vosita sifatida ko'rish; ijtimoiy–siyosiy fikrni tarqatish.
Demosfen - Mil. avv. 384-322	Kuchli ifodalash, hissiyotga ta'sir, dramatik nutq	Jismoniy mashqlar orqali kuchli nutq yaratish; ovoz, mimika va harakatlar uyg'unligi; omma ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazish; tayyorlangan matn asosida jo'shqin chiqishlar.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Arastu - Mil. avv. 384-322	Mantiqiy isbot, dalillash, logos–etos–patos uyg‘unligi	Notiqlikni dialektikaning qismi sifatida ko‘rib, haqiqatni topishga xizmat qildirish; ishonch, mantiq va hissiyot uyg‘unligida nutq tuzish; notiqning axloqiy qiyofasini muhim sanash.
Sitseron - Mil. avv. 106-43	Uslubiy uyg‘unlik, ma’rifiy notiqlik, siyosiy nutq	Badiiylik, mantiqiylik va hissiyotning uyg‘unligi; tinglovchi ongiga ham, hissiyotiga ham bir vaqtning o‘zida ta’sir qilish; davlat arbobi sifatida siyosiy nutqlar yaratish.

Mazkur xronologik jadval antik davr notiqlik maktablarining asosiy yo‘nalishlarini yaqqol aks ettiradi. Unda sofistlarning bahsga yo‘naltirilgan, natijaga qaratilgan ritorik usullari bilan Suqrot va Arastu kabi faylasuflarning haqiqatni izlashga qaratilgan dialektik yondashuvi o‘rtasidagi farq aniq ko‘rinadi. Protagor va Gorgiy so‘zning tashqi jozibasi, hissiyot va ta’sir kuchiga tayangan bo‘lsa, Suqrot suhbat va savol-javob orqali tafakkurni uyg‘otish, fikrni mustaqil ravishda shakllantirishni maqsad qilgan. Arastu esa ritorikani mantiq, axloq va hissiyot uyg‘unligida ilmiy asoslab, nutqning ichki mazmuni va ishonch omiliga alohida e’tibor beradi. Shu bilan birga, Lisiy va Isokratning uslublari notiqlikning sotsial-ma’rifiy tomonini kuchaytirib, nutqning soddalik, lo‘ndalik va estetik shaklda ifodalanishini ilgari suradi. Demosfen va Sitseron faoliyati esa ritorikaning siyosiy maydondagi kuchini namoyon etib, nutqning omma ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish, g‘oya va qarashlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Umuman, jadvaldagi ma’lumotlar antik davr ritorikasi nafaqat nazariy, balki amaliy hayotda ham katta rol o‘ynaganini, inson tafakkuri va ijtimoiy ong rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytgandaadimgi dunyo notiqlik maktablari insoniyat tafakkurining yuksak cho‘qqilaridan biridir. Sofistlar so‘zning kuchini kashf etdilar, Isokrat uni tarbiya vositasiga aylantirdi, Demosfen iroda va jasorat bilan uni amaliyotda isbotladi, Arastu esa uni ilmiy tizimga soldi. Suqrot va Aflotun notiqlikni falsafiy haqiqat izlash bilan bog‘lashdi, Lisiy soddalikni, Sitseron esa estetik go‘zallik va siyosiy mantiqni uyg‘unlashtirdi. Bugungi kunda ham bu meros o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zamonaviy ta’limda nutq madaniyati, kommunikatsiya va muloqot madaniyati aynan qadimgi ritorika asoslariga tayanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Husanov B. G‘ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iqtisod -moliya 2009,- 156 b.
2. Karimov, A. Notiqlik nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. - T.: O'zb. Milliy kutubxonasi. 2007. - 185 b.
4. Muhiddinov AG. O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995.
5. Аристотель. Риторика. – Москва: Наука, 1983.
6. Даринская Л.А. Д20 Педагогическая риторика: учебно-методическое пособие. — СПб.: СПб АППО, 2012. — 102 с
7. Исократ. Речи и письма. – Москва: Ладомир, 2000.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

8. Квинтилиан. Наставление оратору. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001.
9. Платон. Федр. Горгий. – Москва: Мысль, 2021.
10. Хакимов, Ш. Ritorika va notiqlik san'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
11. Цицерон. Об ораторе. – Москва: Наука, 2025.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

PEDAGOGIK TEXNIKA - KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA.

A.I.Temirov, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogik texnika kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omillari tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida pedagogik texnikadan foydalanish masalalarining dolzarbligi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati naqadar zarurligi haqidagi fikrlar bayon etiladi. Maqolada o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati, pedagogik texnikaning asosiy komponentlari, pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llari bayon etilgan. Shuningdek kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning usullari va yo‘llari taklif etilgan.

MAQSAD: zamonaviy ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ta'lim jarayonlarida aks etishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash, pedagogik texnikani shakllantirish uchun bir necha metodlar qo‘llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, amaliyotga oid tadqiqotlar, statistik tahlil.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojanlantirish asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash strategiyalari tahlil qilindi. Ta'lim tizimida pedagogik texnikadan foydalanishni ta'minlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnika vositasida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning va ta’lim muassasasi o‘qituvchi pedagoglarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini kuchaytirishga, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

XULOSA: ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni pedagogik texnika vositasida rivojlantirish orqali ta’lim jarayonlarida ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyati mavjud. Biroq, kasbiy kompetensiya masalalariga e’tibor berish va o‘qituvchilarning malakasini oshirishda mavjud to‘siqlarni yengish uchun muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnika, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya, ta’lim jarayoni, ta’lim tizimi muammolari, pedagog, ta’lim tizimi, mahorat, o‘qituvchi professionalizmi.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНИКА КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ.

А.И. Темиров, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются основные факторы развития профессиональных компетенций в области педагогической техники. Излагаются мнения об актуальности вопросов использования педагогической техники в системе образования и важности развития профессиональных компетенций. В статье изложено значение педагогической техники в деятельности учителя, основные компоненты педагогической техники, пути формирования педагогической техники. а также методы и способы развития профессиональных компетенций.

ЦЕЛЬ: вопросы развития профессиональных компетенций в современной системе образования имеют актуальное значение, их отражение в образовательных процессах заключается в развитии профессиональной компетентности будущих учителей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье для подготовки будущих учителей к педагогической деятельности на основе развития профессиональных компетенций, формирования педагогической техники были использованы несколько методов: анализ литературы, анкетирование, практические исследования, статистический анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье проанализированы стратегии подготовки будущих учителей к педагогической деятельности на основе развития их профессиональной компетентности. Показана необходимость обеспечения использования педагогической техники в системе образования и развития профессиональных компетенций. Результаты исследования показывают, что развитие профессиональных компетенций посредством педагогической техники способствует усилению личностного и профессионального развития будущих учителей и педагогов образовательного учреждения, а также повышению квалификации учителей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в системе образования существует возможность решения социальных проблем в образовательных процессах путем развития профессиональных компетенций посредством педагогической техники. Однако необходимо уделить внимание вопросам профессиональной компетентности и принять конкретные меры для преодоления существующих препятствий в повышении квалификации учителей.

Ключевые слова: педагогическая техника, педагогическая деятельность, профессиональная компетенция, образовательный процесс, проблемы системы образования, педагог, система образования, мастерство, профессионализм учителя.

PEDAGOGICAL TECHNIQUE - AS THE MAIN FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES.

A.I. Temirov, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

INTRODUCTION: this article analyzes the main factors in the development of professional competencies in pedagogical techniques. Opinions are expressed on the relevance of the issues of using pedagogical technology in the education system and the importance of developing professional competencies. The article describes the importance of pedagogical technique in teacher activity, the main components of pedagogical technique, and ways of forming pedagogical technique. As well as methods of developing professional competencies and

AIM: the issues of developing professional competencies in the modern education system are of current importance, and their reflection in the educational process is the development of professional competencies of future teachers.

MATERIALS AND METHODS: in this article, several methods were used to prepare future teachers for pedagogical activity based on the development of professional competencies, the formation of pedagogical techniques: analysis of literature, conducting surveys, practical research, statistical analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: in this article, strategies for preparing future teachers for pedagogical activity based on the development of professional competence were analyzed. The necessity of ensuring the use of pedagogical techniques in the education system and the development of professional competencies is indicated. The research results show that the development of professional competencies through pedagogical techniques contributes to the strengthening of the personal and professional development of future teachers and teachers of educational institutions, as well as the improvement of teachers' qualifications.

CONCLUSION: in the education system, there is an opportunity to solve social problems in the educational process by developing professional competencies through pedagogical techniques. However, it is necessary to pay attention to issues of professional competence and implement certain measures to overcome existing barriers in improving the qualifications of teachers.

Keywords: pedagogical technique, pedagogical activity, professional competence, educational process, problems of the education system, teacher, education system, skill, teacher professionalism.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnika – pedagog xulqining boshqarish omili sifatida. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” moduli negizida tinglovchilarni pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tinglovchilar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o‘zlashtirilishi oliy ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

ta’minlashni kafolatlaydi. O‘qituvchining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta’minlovchi, o‘qituvchi pedagog shaxs xususiyatlarini yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari va tinglovchilar bilan o‘zaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o‘zini tashqi ta’sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to‘rtta o‘zaro bog‘liq jihatlardir.

Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, o‘qituvchi professionalizmi - bu shaxs va faoliyat subyektining murakkab, ko‘p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo‘lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

a) o‘qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar;

b) o‘qituvchi faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me’yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (me’yoriy professionalizm).

v) o‘qituvchi subyekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik kasbiy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida “kasbiy mahorat”, “pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi”, “Pedagogik ijodkorlik”, ”shaxsiy salohiyat”ni belgilashi mumkin. Bular “Mahorat - Uslub – Salohiyat –Mohirlik (texnika) - Ijod –Artistizm” formulasida o‘z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik kompetensiyalarning ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

O‘qituvchi professionalizmi – bu tinglovchilar bilan hamkorlik va do‘stona munosabatlar jarayonida namoyon bo‘ladigan “ta’lim va tarbiya berish san’ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod”dir. Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o‘qituvchidan mohirlik, ya’ni texnikani – pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishni talab etadi. Pedagogik texnikaga A.S. Makarenko quyidagicha ta’rif beradi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin”.

Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari:

1. O‘qituvchining o‘zini boshqara olishi.
2. Shaxs va jamoaga ta’sir eta olishi.
3. Pedagogik muloqotni o‘rnatish.
4. Diqqatni jalb etish usullari.

Yakka shaxs va jamoaga ta’sir qilishning ikki usuli mavjud: “ishontirish usuli” va “yoqish usuli”. Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib uni ishontirish qiyin. Pedagogik texnika – har bir ta’lim oluvchi va jamoaga ta’sir o‘tkazishda samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar, usullar majmuasi. Pedagogik texnikaning asosiy tarkibiy qismlari:

• nutq malakasi va texnikasini o‘zlashtirish;

• tushunarli, ta’sirchan fikr va his-tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash, mimika va pantomimik xarakatlar, jestlardan o‘z o‘rnida foydalanish;

• ma’noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

• hissiy-psixik va tasodifiy holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olish;

• turli vaziyatlarda o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish;

• kulgu va tabassum bilan samimiylikni e’tirof etish;

• tinglovchilar, hamkasblar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lish;

• savodli va sof adabiy tilda so‘zlash; ijodiy pedagogik qobiliyatini qo‘llay bilish.

Pedagogik mahoratni oshirishda o‘qituvchi shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsadga – barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda ta’lim jarayonini boshqarish mutaxassislik fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilishni talab qiladi. Bugungi kunda davlatimiz ta’limi sohasi oldiga qo‘yayotgan vazifalarning bajarilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha’ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga qo‘shayotgan hissasining salmog‘i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o‘z mehnatining salmog‘i va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. O‘qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko‘ra ham ko‘proq o‘z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog‘liqdir. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi.

Pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o‘zlashtirishda o‘qituvchi ta’lim oluvchi hulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko‘ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo‘lishi nihoyatda muhimdir.

“Pedagogik texnika” tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

1) pedagogning o‘z diqqati hamda ta’lim oluvchilar diqqatini maqsadli boshqarish;

2) pedagogik faoliyatda jarayonning, ta’lim oluvchilar harakatining sur’atini his qilish.

O‘qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o‘zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavdani to‘g‘ri tuta bilishi, yig‘inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, ta’lim oluvchilarga nisbatan e’tiborida yaqqol aks etadi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi yuzini o‘rinsiz, qo‘pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo‘l qo‘ymasligi, imo-ishoralarning sun’iy bo‘lishidan saqlanishi, ma’nosiz bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi zarur. Zero, bularning barchasi o‘qituvchining ta’lim oluvchi oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Yosh o‘qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, ta’lim oluvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog‘oz solingan yig‘majildlarni qayerga, qanday qo‘yishi, xona bo‘ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, ta’lim oluvchi, talabalar bilan muloqotda o‘zini qanday tutishi katta tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur Vazmin, xushmuomala, o‘ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq ta’lim oluvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o‘qituvchi, eng avvalo, o‘z hissiy holatlarini, tuyg‘ularini boshqara olishi kerak. Pedagogning ta’lim oluvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Qolaversa, u ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari hamda ta’lim muassasasi va yuqori boshqaruv organlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bu esa jismoniy toliqishni, ruhiy zo‘riqishni, o‘z-o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada o‘qituvchining nutqi qat’iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko‘zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo‘llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarning kelib chiqmasligi uchun o‘qituvchi o‘zini dars boshlanishidan avval ta’lim jarayoniga ruhan tayyorlashi, bu jarayonda yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan turli salbiy holatlarga o‘zini psixologik nuqtai nazardan tayyorlashi, imkon qadar ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мусурмонова О. Педагогик технология–таълим самарадорлиги омили: Монография. – Т; 2020
2. Айви А. Лицом к лицу. Практическое пособие для освоения приемов и навыков делового общения. Новосибирск: ЭКОР. 1995. 96 с.
3. Бубенов А.В. Коммуникационная культура: Философско-методологический анализ Электронный ресурс.: дис. канд. философ, наук. М., 2006. URL: http://diss.rsl.ru
4. Требухина Н. В. Теоретические концепции коммуникативной дидактики ФРГ. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Н. В. Требухина. – Ростов н/д, 2004. – 150 с
5. Умаров Б. “Қуёшга йўл ёхуд эртанги тамаддун қайғулари”. Илмий мақола. “Замонавий таълим”//. 2014. 6 – сон. – Б.45-49.
6. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат / “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси”. – Т;2006.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

AXBOROT VA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING AXBOROT MOBILLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xurramov Anvar Xudayshukurovich, Abu Rayxon Beruniy universiteti, Huquqshunoslik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya

KIRISH: globalizatsiya va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan ta'lim jarayoni axborot va telekommunikatsiya vositalariga bog'liq bo'lib qoldi. Talabalar uchun axborot resurslariga tezkor kirish, bilimni tahlil qilish va almashish qobiliyatini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, AT&T vositalari talablarning axborot mobilligini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida talablarning axborot mobilligini oshirishning metodik asoslarini aniqlash va uning samaradorligini tahlil qilishdir. Axborot mobilligi tushunchasini aniqlash. AT&T vositalarining didaktik va metodik imkoniyatlarini o'rganish. AT&T yordamida talablarning axborot qidirish, tahlil qilish va samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot ishida ilmiy maqolalar, ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom), elektron kitoblar va ilmiy resurslar, interaktiv o'quv materiallari asosida amalga oshirildi. Talabalar AT&T vositalarini qo'llash orqali mustaqil axborot izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va taqdim etish amaliyotini bajardilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarning axborot mobilligini rivojlantirish AT&T vositalaridan muntazam foydalanish talablarning axborot qidirish va tahlil qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi. Interaktiv platformalar talabalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirdi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Talabalar axborot resurslarini tezkor aniqlash, ularni to'g'ri tashkil etish va boshqa talabalar bilan samarali almashish imkoniyatlarini mustahkamlashdi. Onlayn forumlar va virtual guruh ishlari hamkorlik ko'nikmalarini oshirdi, muloqot va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirdi.

XULOSA: axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash talablarning axborot mobilligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalarni mustaqil izlanishga rag'batlantiradi, axborotni tahlil qilish va taqdim etish ko'nikmalarini oshiradi, shuningdek, muloqot va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: axborot mobilligi, talabalar, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta'lim, mustaqil o'qish, kommunikativ kompetensiya, elektron resurslar.

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ МОБИЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ И ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Хуррамов Анвар Худайшукурович, Университет имени Абу Райхона Беруни,
Зав. кафедрой правоведения и социально-экономических наук

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях глобализации и развития цифровых технологий образовательный процесс стал зависим от информационных и телекоммуникационных средств. Для студентов актуальной задачей является обеспечение быстрого доступа к информационным ресурсам, развитие навыков анализа знаний и обмена информацией. В этой связи ИКТ служат эффективным инструментом для развития информационной мобильности студентов.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить методические основы повышения информационной мобильности студентов с помощью информационных и телекоммуникационных технологий и проанализировать их эффективность. Задачи включают: определение понятия информационной мобильности; изучение дидактических и методических возможностей ИКТ; демонстрацию способов развития у студентов навыков поиска, анализа и эффективного использования информации с применением ИКТ.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование проводилось на основе научных статей, образовательных платформ (Moodle, Google Classroom), электронных книг и научных ресурсов, а также интерактивных учебных материалов. Студенты с использованием ИКТ выполняли практику самостоятельного поиска информации, её анализа и представления.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что развитие информационной мобильности студентов с использованием ИКТ: регулярное применение ИКТ существенно повышает способность студентов искать и анализировать информацию; интерактивные платформы стимулируют активное участие студентов и развивают навыки самостоятельного обучения; студенты укрепили умение быстро определять информационные ресурсы, правильно их организовывать и эффективно обмениваться информацией с другими студентами; онлайн-форумы и виртуальные группы способствовали развитию навыков сотрудничества, коммуникации и коммуникативной компетенции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Применение информационных и телекоммуникационных технологий в образовательном процессе способствует эффективному развитию информационной мобильности студентов. Такой подход стимулирует самостоятельное исследование, повышает навыки анализа и представления информации, а также способствует развитию коммуникативных и кооперативных навыков.

Ключевые слова: информационная мобильность, студенты, информационные и телекоммуникационные технологии, интерактивное обучение, самостоятельное обучение, коммуникативная компетенция, электронные ресурсы.

DEVELOPING STUDENTS' INFORMATIONAL MOBILITY THROUGH INFORMATION AND TELECOMMUNICATION TECHNOLOGIES

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Khurramov Anvar Khudayshukurovich, Abu Rayhon Beruniy University, Head of the Department of Law and Socio-Economic Sciences

Annatation

INTRODUCTION: in the context of globalization and the development of digital technologies, the educational process has become dependent on information and telecommunication tools. For students, ensuring quick access to information resources, developing skills in knowledge analysis, and facilitating information exchange are urgent tasks. In this regard, ICT serves as an effective tool for developing students' informational mobility.

AIM: the main objective of the study is to identify the methodological foundations for enhancing students' informational mobility through information and telecommunication technologies and to analyze their effectiveness. The tasks include defining the concept of informational mobility, exploring the didactic and methodological potential of ICT, and demonstrating ways to develop students' skills in searching, analyzing, and effectively using information with the help of ICT.

MATERIALS AND METHODS: the study was conducted based on scientific articles, educational platforms (Moodle, Google Classroom), electronic books and scholarly resources, as well as interactive learning materials. Students practiced independent information searching, analysis, and presentation using ICT tools.

DISCUSSION AND RESULTS: the study results showed that developing students' informational mobility through ICT: Regular use of ICT significantly improves students' ability to search for and analyze information; Interactive platforms encourage active student participation and foster independent learning skills; Students strengthened their ability to quickly identify information resources, organize them properly, and exchange information effectively with peers; Online forums and virtual groups enhanced collaboration skills, communication, and overall communicative competence.

CONCLUSION: the use of information and telecommunication technologies in the educational process contributes to the effective development of students' informational mobility. This approach stimulates independent research, enhances skills in analyzing and presenting information, and supports the development of communication and collaboration skills.

Keywords: informational mobility, students, information and telecommunication technologies, interactive learning, independent learning, communicative competence, electronic resources.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil o'quv

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning axborot mobilligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik omil hisoblanadi. Axborot mobilligi talabaning turli raqamli axborot manbalaridan tezkor foydalanish, zarur axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va amaliy faoliyatga integratsiyalash qobiliyatini ifodalab, uning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ta’lim muhiti elektron ta’lim platformalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, mobil va bulutli texnologiyalar hamda interaktiv raqamli resurslarga tayanib, o‘quv jarayonining uzluksizligi va moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodidan keng foydalanildi. Tadqiqot doirasida 2008-2025 yillar oralig‘ida nashr etilgan milliy va xorijiy ilmiy manbalar, jumladan Web of Science, Scopus va Google Scholar ma’lumotlar bazalarida indekslanadigan maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar chuqur tahlil qilindi. Qiyosiy-taqqoslash metodi yordamida turli muallif va davlatlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlardagi yondashuvlar, natijalar va xulosalar qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, rivojlangan davlatlar, jumladan AQSh, Malayziya va Chili hamda O‘zbekiston sharoitida axborot mobilligini rivojlantirishdagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlanishga e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’limni boshqarish tizimlari, xususan Moodle, Canvas va Blackboard kabi LMS platformalari ta’limda axborot mobilligini ta’minlovchi asosiy texnologik platforma hisoblanadi. Elov va Yuldasheva tadqiqotida LMS tizimlarining talabalar taraqqiyotini kuzatish, topshiriqlarni samarali boshqarish, avtomatlashtirilgan baholash tizimini yaratish va o‘quv jarayonining shaffofligini ta’minlashdagi muhim roli ta’kidlangan. LMS platformalarining axborot mobilligini ta’minlashdagi asosiy afzalliklari bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Avvalo, markazlashtirilgan resurs bazasi barcha o‘quv materiallarini bitta platformada joylashtirish orqali talabalarning axborotni qidirish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Mtebe Sub-Sahara Afrikasi oliy ta’lim muassasalari misolida olib borgan tadqiqotida LMS tizimlaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi muhim omillarni aniqladi[1]. Uning tadqiqotiga ko‘ra, tizim sifati, foydalanuvchilarning qoniqishi, o‘qituvchilarning kasbiy-raqamli kompetensiyalari, talabalarning raqamli savodxonligi hamda institutsional qo‘llab-quvvatlash darajasi LMS platformalarining samaradorligini bevosita belgilaydi. Mazkur omillarning yetarli darajada ta’minlanmasligi LMS orqali axborotga tezkor kirish va ta’lim jarayonida moslashuvchanlikni jiddiy cheklaydi. Ushbu yondashuv LMS platformalarini ta’lim jarayonida axborot mobilligini rivojlantirishning muhim texnologik vositasi sifatida qarashda pedagogik va institutsional omillarni kompleks hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ta’limda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi talabalarning axborotga tezkor va uzluksiz kirishini ta’minlash bilan birga, o‘quv jarayonining interaktivligini ham kuchaytirmoqda. Molnar va Nagy zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi imkoniyatlari va mavjud muammolarini tahlil qilib, raqamli tengsizlik va ta’lim resurslariga kirishdagi cheklovlar o‘quv jarayonida axborot mobilligini to‘liq ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar ekanini ko‘rsatadilar[2].

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Martin, Sun va Westine tomonidan 2009-2018 yillar oralig‘ida onlayn o‘qitish va o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning tizimli tahlilida ta’lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalarining samaradorligi va qo‘llanilish tendensiyalari aniqlangan[3]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinxron vositalar talabalarning ishtirokini, motivatsiyasini va faol interaktivligini oshiradi, biroq ularning samaradorligi internet tezligi va qurilma sifati kabi texnik cheklovlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Asinxron aloqa vositalari, xususan elektron pochta, forumlar va LMS platformalaridagi xabar tizimlari talabalarga vaqt zonasi yoki shaxsiy jadval cheklovlaridan qat’i nazar o‘quv jarayonida barqaror ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Ta’lim jarayonida multimedia resurslari va interaktiv kontentlar talabalarning axborot mobilligini boyituvchi muhim vosita hisoblanadi. Videodarslar, podkastlar, interaktiv simulyatsiyalar va animatsiyalar talabalarning tushunishini chuqurlashtiradi va ishtirokni oshiradi. Mayer multimedia ta’limi bo‘yicha fundamental tadqiqot olib borib, Multimedia ta’limi kognitiv nazariyasini ishlab chiqdi. Ushbu nazariya bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi[4]. Ikki kanal prinsipi bo‘yicha insonlar vizual va audio axborotlarni alohida kanallarda qayta ishlaydilar. Cheklangan hajm prinsipi shuni ko‘rsatadiki, har bir kanal cheklangan miqdordagi axborotni bir vaqtning o‘zida qayta ishlashi mumkin. Faol qayta ishlash prinsipi esa mazmunli o‘rganish talabalarning tegishli kognitiv jarayonlarni faol amalga oshirishini talab qilishini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuvlar talabalarning axborotni tezkor qabul qilishi, uni tushunishi va mustahkamlashini ta’minlashda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

Bulutli xizmatlar, xususan Google Drive, Microsoft OneDrive va Dropbox o‘quv materiallarini saqlash va ulashishda muhim texnologiyalar bo‘lib, guruhli ishlashni qo‘llab-quvvatlaydi. A.M.Mengliboyevich o‘z tadqiqotida talabalarning media savodxonligini rivojlantirish jarayonida bulut texnologiyalarining ahamiyatini ta’kidlab, bu xizmatlar talabalarning o‘quv materiallarini istalgan qurilmadan, istalgan vaqtda olish va tahrirlash imkoniyatini berishini ko‘rsatdi[5]. Bulut texnologiyalari sinxronizatsiya funksiyasi orqali talabalarning turli qurilmalardagi ishlarini avtomatik ravishda yangilab turadi, bu esa o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Masud va Huang bulut kompyuteriga asoslangan elektron ta’lim tizimi arxitekturasini taklif qilgan va bulut texnologiyalarining ta’limdagi afzalliklarini tahlil qilganlar[6]. Ularning fikriga ko‘ra, bulutli xizmatlar bir qator muhim imkoniyatlarni ta’minlaydi. Moslashuvchan resurslar jihatidan talabalar soni yoki tizim hajmi o‘zgarganda tizim avtomatik ravishda miqyoslanadi, bu esa o‘quv jarayonining uzluksiz va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan o‘quv muassasalari qimmat serverlar va infratuzilmaga sarmoya kiritish o‘rniga bulut xizmatlarini ijara asosida ishlatish orqali xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Global mavjudlik talabalarning istalgan qurilmadan va istalgan vaqtda o‘quv resurslariga kirish imkonini ta’minlaydi. Hamkorlik imkoniyati bir nechta foydalanuvchiga bir xil hujjat ustida real vaqt rejimida ishlash imkoniyatini beradi, bu jamoaviy loyihalar va guruh ishlarini samarali tashkil etishni ta’minlaydi. Avtomatik zaxiralash va tiklash funksiyasi esa ma’lumotlarning yo‘qolish xavfini minimal darajaga tushiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Bulutli texnologiyalar ayni paytda talabalarning hamkorlikdagi ishlashini sezilarli darajada osonlashtiradi. Google Docs, Sheets va Slides orqali bir nechta talaba bir hujjat, jadval yoki taqdimot ustida real vaqt rejimida ishlay oladi, o‘zgarishlar darhol barcha ishtirokchilarga ko‘rinadi va versiyalar tarixi saqlanadi. Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida bulutli texnologiyalarining maxsus qo‘llanilish sohalari ham mavjud. GitHub va GitLab kabi versiya nazorati xizmatlari talabalarning dasturlash loyihalarini saqlash, hamkorlikda ishlab chiqish va versiyalarni boshqarish imkonini beradi. Replit va CodeSandbox kabi onlayn dasturlash muhitlari talabalarning hech narsa o‘rnatmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri brauzer orqali kod yozish va bajarish imkoniyatini taqdim etadi.

Ta’lim jarayonida axborot mobilligini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri raqamli tafovut, ya’ni talabalar o‘rtasida texnologik resurslarga kirish imkoniyatining tengsizligidir. Barcha talabalar yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i, zamonaviy raqamli qurilmalar va barqaror texnik qo‘llab-quvvatlashga ega emasligi axborotni izlash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish imkoniyatlarini jiddiy cheklaydi. Van Dijk raqamli tafovutni to‘rtta asosiy darajaga ajratadi: motivatsion kirish ya’ni texnologiyadan foydalanishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj, fizik kirish ya’ni kompyuter, internet va boshqa qurilmalarning mavjudligi, raqamli ko‘nikmalar ya’ni texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan malakalar hamda foydalanish darajasi ya’ni texnologiyalardan samarali va maqsadli foydalanish imkoniyati [7]. Uning ta’kidlashicha, raqamli tafovutni bartaraf etish faqat qurilmalar bilan ta’minlash bilangina cheklanmaydi, balki foydalanuvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish va texnologiyalardan ongli foydalanishni tizimli qo‘llab-quvvatlashni ham talab qiladi. Jamalova O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar ta’lim tizimiga jadal joriy etilayotganini qayd etgan holda, hududlar kesimida raqamli infratuzilma rivojlanishida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi [8]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yirik shaharlar va markaziy hududlardagi ta’lim muassasalari internet va raqamli qurilmalar bilan nisbatan yaxshi ta’minlangan bo‘lsa, qishloq va chekka hududlarda internet aloqasining barqaror emasligi hamda shaxsiy raqamli qurilmalarning yetishmasligi talabalarning ta’lim platformalaridan samarali foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Raqamli savodxonlik yetishmasligi yana bir muhim muammo hisoblanadi. Hargittai “raqamli mahalliylar” tushunchasiga shubha bilan qarab, yoshlarning internetdan foydalanish darajasi va sifati o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini empirik jihatdan isbotladi [9]. Po‘latova O‘zbekiston sharoitida asosiy e’tibor ko‘pincha texnologik platformalar va infratuzilmani yaratishga qaratilishini, biroq talabalarning raqamli savodxonligi va axborot bilan mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi yetarli darajada tizimli yondashuv asosida amalga oshirilmayotganini ta’kidlaydi [10].

Raqamli ta’lim muhitida talabaning faol va mustaqil subyekt sifatida shakllanishi aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan muhim muammolardan yana biri texnologiyadan ortiqcha foydalanish natijasida vujudga keladigan raqamli charchash hisoblanadi. Fauville va hamkasblari “Zoom charchoqligi” fenomeni ilmiy jihatdan tahlil qilinib, videokonferensiya asosidagi darslarda uzoq vaqt ishtirok etgan talabalarda energiya darajasining pasayishi, diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar va umumiy ruhiy charchoq holatlari kuzatilishi aniqlandi[11].

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Mannopova ta'kidlashicha, uzoq davom etuvchi sinxron onlayn mashg'ulotlar talabalarda tez charchash, diqqatning susayishi va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi[12]. Mazkur muammoni hal etish va ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlash maqsadida sinxron va asinxron o'quv faoliyatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash, mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan asinxron topshiriqlar bilan boyitish talabalarda ortiqcha psixologik bosimni kamaytiradi.

Olib borilgan tadqiqot axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarning axborot mobilligini rivojlantirish ko'p qirrali va murakkab jarayon ekanligini ko'rsatdi. Ushbu jarayon texnologik innovatsiyalar, pedagogik strategiyalar, institutsional qo'llab-quvvatlash va talabalarning shaxsiy ko'nikmalarining uyg'unlikda ishlashini talab qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib bir qator muhim xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, texnologik infratuzilma muhimligi shundaki, LMS platformalari, videokonferensiya vositalari va bulutli texnologiyalar axborot mobilligini ta'minlovchi asosiy texnologik komponentlar hisoblanadi, biroq ularning samaradorligi nafaqat texnik imkoniyatlarga balki pedagogik va institutsional shart-sharoitlarga ham bog'liqdir. Ikkinchidan, sinxron va asinxron integratsiya jihatidan eng samarali ta'lim dasturlari ikkala vositani muvozanatli tarzda birlashtirishga asoslanadi, bu talabalarning turli o'rganish uslublari va vaqt cheklovlarini hisobga oladi.

Uchinchidan, multimedia va kognitiv optimallash nuqtai nazaridan matnli va vizual axborotlarni to'g'ri birlashtirib talabalarning kognitiv yuklamasini optimallashtirish va chuqurroq tushunishni ta'minlash mumkin. Amaliy tavsiyalar bir necha yo'nalishda shakllantirildi. Ta'lim muassasalari uchun LMS platformalarini to'liq funktsional tarzda joriy etish, o'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, talabalarni raqamli savodxonlik bo'yicha o'qitish va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar uchun sinxron va asinxron vositalarni muvozanatli qo'llash, multimedia materiallarni kognitiv tamoyillarga muvofiq yaratish, formativ feedback berish tizimini joriy etish va talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish tavsiya etiladi. Talabalar uchun raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, vaqtni samarali boshqarish strategiyalarini o'zlashtirish, akademik halollik prinsipiga rioya qilish va raqamli charchashdan qochish uchun muvozanatli rejim saqlash zarur.

Kelajak tadqiqotlar yo'nalishlari sifatida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalarning axborot mobilligini empirik baholash, informatika va maxsus fanlarni o'qitishda AKT samaradorligini eksperimental o'rganish, sun'iy intellekt va adaptiv platformalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qilish hamda raqamli tafovutni bartaraf etishning milliy darajadagi strategiyalarini ishlab chiqish belgilandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mtebe, J.S. (2015). Learning Management System Success: Increasing Learning Management System Usage in Higher Education in Sub-Saharan Africa. International Journal of Education and Development using ICT, 11(2), 51–64.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

2. Molnár G. Current Issues in Effective Learning: Methodological and Technological Challenges and Opportunities Based on Modern ICT and Artificial Intelligence / G. Molnár, E. Nagy // 15th International Scientific Conference on Distance Learning in Applied Informatics (DiVAI 2024) : proceedings. — Cham : Springer, 2025. — P. 1–12. — (EAI/Springer Innovations in Communication and Computing)
3. Martin F. A systematic review of research on online teaching and learning from 2009 to 2018 / F. Martin, T. Sun, C. D. Westine // Computers & Education. — 2020. — Vol. 159. — Art. 104009. — DOI: 10.1016/j.compedu.2020.104009.
4. Mayer R. E. Multimedia Learning / R. E. Mayer. — 2nd ed. — Cambridge : Cambridge University Press, 2009. — 318 p.
5. Mengliboyevich A. M. Development of media literacy of students in the process of studying informatics and information technologies in our country / A. M. Mengliboyevich // Web of Teachers: Inderscience Research. — 2024. — Vol. 2, № [aniq son, masalan 6 yoki 8]. — P. [sahifalar, masalan 113–118]. — URL: https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1512
6. Masud M. A. H. An E-learning System Architecture based on Cloud Computing / M. A. H. Masud, X. Huang // World Academy of Science, Engineering and Technology. — 2012. — Vol. 62. — P. 74–78. — URL: https://researchoutput.csu.edu.au/ws/portalfiles/portal/9369976/An+E-learning+System+Architecture+based+on+v62-15.pdf (ochilgan sana: 21.01.2026).
7. Van Dijk J. A. G. M. The Digital Divide / J. A. G. M. van Dijk. — Cambridge:Polity Press, 2020. — 208 p. — ISBN 978-1-5095-3880-5.
8. Jamalova U.N. Digital technology in the education system of Uzbekistan // *International Journal of Science and Technology*. — 2025. — Vol. 2, Iss. 6. — P. 86–87. — DOI: 10.70728/tech.v2.i06.031.
9. Hargittai E. (2010). Digital Na(t)ives? Variation in Internet Skills and Uses among Members of the "Net Generation". Sociological Inquiry, 80(1), 92–113. DOI: 10.1111/j.1475-682X.2009.00317.x
10. Po‘latova E. O‘zbekistonda raqamli ta’lim: tahlillar, muammolar va yechimlari // *Journal of New Century Innovations*. — 2024. — T. 54, № 4. — B. 155–160.
11. Fauville, G., Luo, M., Queiroz, A.C.M., Bailenson, J.N., Hancock, J. (2021). Nonverbal Mechanisms Predict Zoom Fatigue and Explain Why Women Experience Higher Levels than Men. SSRN Electronic Journal. DOI: 10.2139/ssrn.3820035
12. Mannopova R. Zoom fatigue (Zoomdan charchash) hodisasining kognitiv yuklamaga ta’siri va uni kamaytirish yo‘llari // *Наука и технологии в современном мире*. — 2025. — № 23. — B. 141–143.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ARTPEDAGOGIK YONDASHUVGA ASOSLANGAN METODLAR YORDAMIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA DIALOGIK NUTQNI SHAKLLANTIRISH

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi, Qarshi Davlat Universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi tayanch doktoranti, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maktabgacha ta'lim davrida bolalarning nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ularning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Dialogik nutq — bolalarning o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash va muloqotda faol ishtirok etish qobiliyatidir. Art-pedagogik yondashuv, ya'ni san'at va ijodiy faoliyat orqali tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash, bolalarda nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali bolalar ijodiy o'yinni, rasm chizish, dramatizatsiya va musiqiy faoliyatni amalga oshirib, dialogik nutq ko'nikmalarini tabiiy muhitda o'rganadi. Ushbu maqolada nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida artpedagogikaning innovatsion metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda badiiy estetik vositalardan foydalanish samaradorligi yoritiladi. Maqolada zamonaviy metodik yondashuvlar, interfaol mashg'ulotlar, dramatizatsiya, musiqiy terapiya, tasviriy san'at orqali ta'sirchanlik va ifodaviy nutqni rivojlantirish usullari keltirilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida art-pedagogik yondashuv metodlari yordamida tarbiyalanuvchilarda dialogik nutqni shakllantirishning samarali strategiyalarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida quyidagi materiallar va metodlardan foydalanildi: Kuzatuv: Bolalarning turli faoliyatlarda (ijodiy o'yinlar, rasm chizish, qo'shiq aytish, dramatizatsiya) nutq va muloqot ko'nikmalarini baholash. Eksperiment: Art-pedagogik mashg'ulotlar orqali bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish bo'yicha eksperimental dastur ishlab chiqildi**.** Interaktiv usullar: Rol o'ynash, hikoya yaratish, musiqiy dramatizatsiya va guruhli mashg'ulotlar. Tahlil va baholash: Bolalarning nutqdagi faoliyati, so'z boyligi, savollar berish va javob berish qobiliyati, hamda muloqotdagi ishtiroki kuzatildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, art-pedagogik yondashuv bolalarda dialogik nutqni samarali rivojlantirishga yordam beradi. Mashg'ulotlar davomida bolalar bir-biri bilan erkin muloqot qilgan, o'z fikrlarini so'z bilan ifodalashni o'rganishgan va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlangan. Rasm va tasviriy san'at**:** Bolalar rasm chizish orqali o'z fikrini ifodalashni o'rganadi, bu esa nutqiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Dramatizatsiya va rolli o'yinlar: Bolalar turli rollarda o'ynash orqali so'zlashish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Musiqa va qo'shiq: Bolalar qo'shiq va ritmik mashqlar orqali nutq va talaffuzni mustahkamlaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, art-pedagogik mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarda nutqiy faoliyatga qiziqishni oshiradi, so'z boyligini va grammatik tuzilmani yaxshilaydi, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

XULOSA: art-pedagogik yondashuv maktabgacha ta’limda dialogik nutqni shakllantirishda samarali vosita ekanligi tadqiqot natijalarida tasdiqlandi. Ushbu yondashuv bolalarning nutqiy, ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Kelgusida pedagoglar art-pedagogik metodlarni o‘quv jarayoniga muntazam kiritish orqali bolalarda muloqot va ijodiy qobiliyatlarni yanada rivojlantirishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: art-pedagogika, maktabgacha ta’lim, dialogik nutq, ijodiy faoliyat, tarbiyalanuvchi, dramatizatsiya, musiqiy faoliyat, interaktiv metodlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ У ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ С ПОМОЩЬЮ МЕТОДОВ, ОСНОВАННЫХ НА АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПОДХОДЕ

Холматова Фотима Бахтиёр кизи, Кашкадарьинский государственный университет, кафедра дошкольного образования, докторант, Карши, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в дошкольном возрасте развитие речи и коммуникативных навыков детей играет важную роль в их общем интеллектуальном и социальном развитии. Диалогическая речь — это способность ребенка свободно выражать свои мысли, слушать других и активно участвовать в общении. Арт-педагогический подход, то есть воспитание через искусство и творческую деятельность, служит эффективным средством формирования речевых и коммуникативных навыков у воспитанников. С помощью этого подхода дети осваивают диалогическую речь в естественной среде через творческие игры, рисование, драматизацию и музыкальную деятельность. В данной статье анализируются инновационные методические возможности артпедагогики в формировании речевой компетенции. Раскрывается эффективность использования художественно-эстетических средств в развитии речи детей дошкольного возраста. Приведены современные методические подходы, такие как интерактивные занятия, драматизация, музыкальная терапия и изобразительное искусство

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить эффективные стратегии формирования диалогической речи у воспитанников дошкольных образовательных учреждений с использованием методов, основанных на арт-педагогическом подходе, и разработать практические рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались следующие материалы и методы: Наблюдение: оценка речевых и коммуникативных навыков детей в различных видах деятельности (творческие игры, рисование, пение, драматизация). Эксперимент: разработана экспериментальная программа по развитию диалогической речи детей с использованием арт-педагогических занятий. Интерактивные методы: ролевые игры, создание историй, музыкальная драматизация и групповые занятия. Анализ и

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

оценка: отслеживание речевой активности детей, словарного запаса, умения задавать вопросы и отвечать, а также участия в коммуникации.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты эксперимента показали, что арт-педагогический подход способствует эффективному развитию диалогической речи у детей. В ходе занятий дети свободно общались друг с другом, учились выражать свои мысли словами и развивали творческое мышление**.** Рисование и изобразительное искусство: дети учатся выражать свои мысли через рисунок, что поддерживает речевую активность, драматизация и ролевые игры: играя различные роли, дети развивают навыки говорения и слушания, музыка и пение: через песенные и ритмические упражнения дети укрепляют речь и произношение. Результаты показали, что арт-педагогические занятия способствуют: повышению интереса к речевой деятельности, расширению словарного запаса и улучшению грамматической структуры, развитию коммуникативных и социальных навыков, стимулированию творческого и критического мышления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: арт-педагогический подход является эффективным средством формирования диалогической речи в дошкольном образовании. Он способствует укреплению речевых, творческих и социальных навыков детей, делает процесс дошкольного обучения интерактивным и увлекательным. В будущем педагоги могут регулярно внедрять арт-педагогические методы в образовательный процесс для дальнейшего развития коммуникативных и творческих способностей детей.

Ключевые слова: арт-педагогика, дошкольное образование, диалогическая речь, творческая деятельность, воспитанник, драматизация, музыкальная деятельность, интерактивные методы.

FORMING DIALOGIC SPEECH IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH METHODS BASED ON ART-PEDAGOGICAL APPROACH

Kholmatova Fotima Bakhtiyor qizi, Karshi State University, Department of Preschool Education, Doctoral Candidate, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the preschool period, the development of children's speech and communication skills plays a crucial role in their overall intellectual and social growth. Dialogic speech is the ability of a child to express their thoughts freely, listen to others, and actively participate in communication. The art-pedagogical approach, which involves educating children through art and creative activities, serves as an effective tool for developing speech and communicative skills. Through this approach, children acquire dialogic speech skills in a natural environment by engaging in creative play, drawing, dramatization, and musical activities.

AIM: the main purpose of this study is to identify effective strategies for developing dialogic speech in preschool children using methods based on the art-pedagogical approach and to provide practical recommendations for educators.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MATERIALS AND METHODS: the study employed the following materials and methods: **Observation:** assessing children's speech and communication skills during various activities (creative play, drawing, singing, dramatization). Experiment: an experimental program was developed to promote dialogic speech in children through art-pedagogical activities. Interactive Methods: role-playing, storytelling, musical dramatization, and group activities. Analysis and Evaluation**:** monitoring children's speech activity, vocabulary, ability to ask and answer questions, and participation in communication.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the experimental study demonstrated that the art-pedagogical approach effectively promotes the development of dialogic speech in children. During the activities, children freely interacted with each other, learned to express their thoughts verbally, and developed creative thinking skills. Drawing and Visual Arts: children learn to express their ideas through drawing, which supports speech development**.** Dramatization and Role-Play: children develop speaking and listening skills by acting in different roles. Music and Singing**:** children strengthen their speech and pronunciation through songs and rhythmic exercises.
The findings indicate that art-pedagogical activities contribute to: increasing interest in speech activity, expanding vocabulary and improving grammatical structures, developing communicative and social skills, stimulating creative and critical thinking.

CONCLUSION: the art-pedagogical approach is an effective tool for developing dialogic speech in preschool education. It helps strengthen children's speech, creative, and social skills, while making the preschool learning process interactive and engaging. In the future, educators can regularly incorporate art-pedagogical methods into educational activities to further develop children's communication and creative abilities.

Keywords: art-pedagogy, preschool education, dialogic speech, creative activity, child, dramatization, musical activity, interactive methods.

Hozirgi zamonda jahon ta'lim tizimiga bo`lgan e'tibor ta'limning boshlang`ich nuqtasi hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi oldiga ham ulkan talablar qo`ymoqda. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarning yetuk rivojlanishi eng muhim masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog borki, artpedagogika atamasini bilmasligi mumkin emas. Zero, bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim tizimining har bir bosqichida bu metodga murojaat qilinadi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda artpedagogikaning bir necha uaullarini qo`llash mumkin. Masalan, artning bir turi hisoblangan ertaklar orqali bolalarda faol nutqni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.
Ye.A.Flerina maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qitishning o`ziga xos ekanligini ta'kidlagan holda shunday degan: "Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo'li

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg‘ulotlar va maxsus mashg‘ulotlarda tarbiyachining ko‘rsatib o‘tishi orqali o‘qib o‘rganadilar” [6;263]

Tadqiqot metodologiyasi. Artpedagogika – pedagogika sohasining bir yo`nalishi hisoblanib, bu ta’limot bolalarning turli rivojlanish sohalarini san’at orqali shakllantirishni ko‘zda tutadi. Mazkur yondashuv orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, estetik zavq oladi va eng muhimi – o‘z fikrini nutq orqali ifodalashni o‘rganadi.

Pedagogikaning ushbu sohasini tadqiq etuvchi olimlardan bo`lgan N.Y.Sergeyevaning fikricha, “Artpedagogikaning asosini umumiy shaklda ta'lim jarayonida san'at va jismoniy faoliyat orqali bolalarning shaxsiy sifatida namoyon qilish mumkin”. [9;43]

Artpedagogikani bir qancha yo‘nalishlari mavjud:

- Dramatizatsiya.
- Tasviriy san’at.
- Musiqa terapiyasi.
- Ritmika va harakat.

Bu metodlar bolaning so‘z boyligini oshirish, gap tuzish ko‘nikmasini mustahkamlash va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bo`lgan bolalar taqlid qilishni juda xush ko`radilar. Bu esa ularning nutqini yanada faollashtirishga xizmat qiladi. Agarda, bolalarga ertak qahramonlari nomidan gapirilganda, bolajonlar gap tarkibidan yangi so`zlarni ilg`ab olishadi, hamda ulartga taqlid qilgan holda bu so`zlarni takrorlashadi. Qarabsizki, bolajonlarning lug`at boyligi yana bir necha so`zga ortib boradi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’limda art terapiya usullari ta’lim berish hamda davolash ishlarida o`ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu sababdan ko`plab xorij olimlari hamda yurtimiz tadqiqotchilari ushbu yo`nalishning natijaviyligini o`z tajribalarida isbotlab kelmoqda. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishni artpedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar E.Medvedova, I.Levchenko, L.Komissarova, G.Pankova, K.Rudestam, N,Zelentsova izlanishlarida artterapiya turlari hamda uni qo’llash usullari bayon qilinadi.

Xususan, K. G. Jung, I.Yakobi ranglarning bolalarning psixik xususiyatlariga mos kelishini aniqladilar. M.Naumburg bolaning eng muhim fikr va kechinmalari, eng avvalo, obrazlar ko`rinishida namoyon bo`lishini ta`kidladi, M.G.Betenskiy art-terapiya jarayonida san`atni idrok etish xususiyatlarini o`rgandi, G.M.Fers bolalar rasmlari badiiy terapiyasining mazmunli talqinini ishlab chiqdi.

T.B. Filichevaning fikriga ko`ra Artpedagogik ta’limda “Maxsus o'yinlar va mashqlar orqali bolalarda nutqqa oid bo'lmagan tovushlarni tanib olish va farqlash qobiliyati rivojlanadi. Ushbu tadbirlar, shuningdek, eshitish diqqatini va eshitish xotirasini rivojlantirishga yordam beradi”[ 5;232]. So`nggi yillarda mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan ham artpedagogik usullar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Chunonchi, Sh.Sh.Nizomova o`zining “Bolalar nutqini o`stirish nazariyasi va texnologiyalari” nomli o`quv qo`llanmasida art-pedagogikaning muhim yo`nalishlaridan biri hisoblangan o`yin terapiyani ta’limda qo`llashning samarali jihatlarini e’tirof etib shunday degan “Buyum va o`yinchoqlar bilan o`ynaladigan o`yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o`ynaladigan o`yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o`yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to`g`risida umumiy tushuncha hosil bo`ladi.” [7;39]

Natijalar va muhokama. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda artpedagogikaning bir qancha innovatsion metodlaridan foydalanish mumkin. Xususan, ertakterapiya orqali bolalarda faol nutqni rivojlantirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ertak terapiya orqali bolalar hikoya qilish, qayta hikoya qilish, rasmlar asosida hikoya tuzishni o`rganadilar. Bu esa ularda lug`at boyligining oshishida yetakchi faoliyat bo`lib xizmat qiladi.

Yurtimiz tadqiqodchi olimalaridan biri bo`lmish D.Q.Asqarovaning maktabgacha ta’lim yo`nalishi talabalari foydalanishi uchun tayyorlagan o`quv qo`llanmasida shunday deyilgan: “Bola bir butun matnlarni eslab qolishi va qayta esga tushirish malakasini ham o‘zlashtirishi lozim. Shu sababli bolaga 4-5 asosiy epizoddan iborat qisqa hikoya va ertak o‘qib beriladi hamda uni takrorlab berishi so‘raladi. Bolalar eshitganlarini behato takrorlab berishga ko‘p hollarda qiynaladilar. Bola eshitganini yozib ololmaydi, shu sababli unga ertakni suratlar orqali eslab qolishni taklif etish kerak”. [3;44]

Bolalarga ertakni yoddan hikoya qilishni o`rgatish orqali ularda ravon nutqni rivojlantirish mumkin. Bu faoliyatda bir qancha rasmlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Masalan, bir ertak tanlab olinadi. Hamda shu ertakka asoslangan sur’atlar jamlanadi. Keyin ushbu sur’atlarni tartib bilan joylashtirgan holda boladan ularga qarab hikoya qilib berish so`raladi. Bola esa birin ketin rasmlarga diqqat qilgan holda undagi voqealarni so`zlab beradi. Bu esa tarbiyalanuvchi bolani hikoya qilishga o`rgatishning ko`rinishlaridan biridir. Shuningdek, o`yin terapiya innovatsion metodik faoliyatga yondashgan holda bolalarga syujjetli rolli o`yinlar taklif qilish orqali ham ularning so`z boyligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo`ladi. Chunonchi D.R.Babayevaning “Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi” kitobida “Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so‘zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, ammo unga o‘yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi” deyilgan. [4;293]

Darhaqiqat, syujetli-rolli o`yinlar bolajonlarning o`zlari eshitgan badiiy asardan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini yaratib beradi. Bu metodika maktabgacha yoshdagi bolajonlarni qayta so`zlashga o`rgatish usullaridan biri hisoblanadi. Ayrim bolalar borki, ertaklarni qayta hikoya qilib berishga qiynaladilar. Aynan bunday bolajonlarga ertakni sahnalashtirish topshirig`i berilganda, bola rolga kirishib asar mazmunini yaxshiroq yoritib berishi mumkin bo`ladi. Artpedagogikaning yana bir asosiy turlaridan biri hisoblanga musiqa-terapiya maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ko`nikmalarni rivojlantiribgina qolmay, balki, ularda idrok etish qobilyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Xususan, bu haqida D.Soipova o`zining o`quv qo`llanmasida shunday degan: “Qo'shiq kuylash - musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi. Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolalarning nutqini rivojlantiradi.” [8;78] Anglaganimizdek, qo`shiq kuylash maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik didni tarbiyalabgina qolmay, ulardagi nutqni rivojlantirishda ham muhim hisoblanar ekan. Maktabgacha yoshdagi bolalar qo`shiq kuylar ekan, uning matniga e’tibor qaratadilar hamda idrok etadilar. Shuningdek qo`shiq matnidagi turli yangi so`zlarni o`zlashtirib oladilar. Bu esa ularning lug`at tarkibini boyitishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun rasm chizish mashg`ulotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolalar rasm chizish jarayonida rasmda tarsvirlanayotgan obyektni idrok qiladilar. Shuningdek, o`zlari chizgan sur’atlar haqida tengdoshlari bilan fikr almashadilar.

Rasm chizish mashg`ulotlarida chiziladigan rasmni tanlash ham asosiy vazifalardan biridir. Hamda bu vazifa tarbiyachi pedagogdan ulkan mahorat talab qiladi. Chunonchi A.Arushanova bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlari asosida tayyorlagan “Bolalarning nutqi va nutqiy aloqasi. Grammatikani shakllantirish nutqni qurish” nomli kitobida mashg`ulotlar davomida tanlanadigan buyumlarning muhim ekanligini ta’kidlagan: “O'yin va mashqlar uchun material tanlashda uni shunday tashkil qilish kerakki, bolalar ma'lum bir grammatik shaklni oddiygina o'zlashtirmasdan, balki so'zlarning fleksiyasi qoidasini amaliy tarzda o'zlashtirsinlar” [2;15] Demak, rasm chizish mashg`ulotlarida chiziladigan buyumni tanlash ham muhim hisoblanar ekan. Shuningdek bolalarga rasm chizdirish orqali ulardagi nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda bolajonlarning ruhiy kechinmalaridan ham boxabar bo`lish mumkin. Tarbiyalanuvchi kichkintoylar o`zi chizgan rasmlarida foydalangan ranglaridan ulardagi ruhiy kechinmalarni bilib olish mumkin.

Masalan bola o`z rasmlarida yorqin ranglardan, jumladan sariq, havorang, Pushti, oq vahokazolardan foydalansa, anglash mumkinki, bolanoning ruhiyati yaxshi. Ammo ba’zi bolalar borki o`z rasmlarida qorong`u ranglardan foydalanadi. Masalan, ular hattoki, gullarni ham qora rangga bo`yab qo`yishi mumkin. Bola chizgan rasmlarda bunday holatlar kuzatilar ekan, tarbiyachi bunday bolalar bilan alohida ishlashlari, ularni o`zlariga bildirmasdan kuzatishi, shuningdek, ular bilan o`zi hamda oilasi haqida suhbatlar olib borishi lozim bo`ladi. Bunday suhbatlar bolaning ruhiyatidagi o`zgarishning sabablarini aniqlashda yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi rasm chizish faoliyati orqali bolalarning oilasi haqida ma’lumotlarni ularning o`zidan bilib olishi mumkin. Masalan, tarbiyachi oedagog bolajonlarga “Oila” Rasmini chizish topshirig`ini beradi. bolalar rasmni chizar ekan, tarbiyachi ulardan har bir tasvirda nima yoki kim ifodalanganini so`raydi. Bola o`zi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

chizgan rasmini tasvirlash asnosida tarbiyachi opasiga o`z oilasi haqida ma'lumot berib boradi. Bu esa, uning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek bola chizgan "Oila" rasmidan uning oilasidagi muhitni hamda bolaning oiladagi o`rnini bilib olish ham mumkin. Misol uchun aytadigan bo`lsak, bola o`zini oilasi bilan bir qatorda ota-onasining qo`llarini tutgan holda chizgan bo`lishi mumkin. Bu holat oilada iliq muhit humron ekanligini bildiradi. Ba'zi bolalar, aksincha o`zini qog`ozning bir burchagida oilasidagilardan uzoqda tasvirlagan bo`lishi mumkin. Bu esa uning oilasida mehr yetishmasligini bildirishi mumkin. Shuningdek, yana ayrim bolalar ota-onasini kichikroq, o`zini esa ancha katta tasvirlab chizgan bo`lishi mumkin. Bu bolalarda o`zini boshqalardan ustun qo`yish holati borligini bildiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faoliyat olib borilganda, albatta ularning yosh hamda individual xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Shundagigan tarbiyachi tomonidan ko`zlangan maqsadga erishilishi qiyin bo`lmaydi. Shuningdek, faoliyatlar bir biriga mutanosib rasvishda o`zaro bir-birini to`ldirib borishi maqsadga muvofiq. Masalan, hafta mavzusi koinot sirlariga bag'ishlanganda, o`tiladigan mashg`ulotlar bolajonlarga koinot haqida bilm berishi lozim bo`ladi.

Chunonchi, matematika mashg`ulotida Koinotdagi sayyorlarni sanash orqali bolalar bilimini oshirish mumkin bo`lsa, nutq o`stirish faoliyatida tarbiyalanuvchilarga sayyoralar haqida she'rlar yod oldirish mumkin. Shuningdek, rasm chizijsh faoliyatida osmon hamda sayyoralar Rasmini chizib, ularni turli ranglarga bo`yash mumkin.

Xulosa o`rnida aytish joizki, ta'lim tizimining eng boshlang`ich bo`g`ini hisoblangan maktabgacha ta'limni isloh qilish yurtimiz kelajagi uchun o`ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Negaki, kelajak yoshlar qo`lida, yoshlar esa ilk saboqni maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi. Hozirgi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar barcha pedagog xodimlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Albatta, pedagog xodimlar ham yaratilayotgan ushbu imkoniyatlarga javob sifatida o`z bilimlarini uzluksiz ravishda oshirib borib, turli innovatsion metodikalar ishlab chiqmog`i lozim bo`ladi.

Shuningdek, kelajak avlodimiz hisoblanmish murg`ak bolajonlarning yetuk shaxs bo`lib ulg`ayishida xizmat qilishimiz shart. Zero, muhtaram Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tarbiyachi va o`qituvchilarni ko`klarga ko`tarib shunday deganlar: "Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz" [1]

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. https://kun.uz/news/2022/11/15/sarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F11%2F15%2Fsarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida.
2. Арушанова.А Речь и речевое общение детей. Формирование грамматического строя речи. 3-7 лет. Методическое пособие для воспитателей. «МОЗАИКА-СИНТЕЗ» 2004 – 46с.
3. Asqarova.D.Q “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” O`quv qo`llanma. Toshkent – 2020 – 139b
4. Babayeva D.R. Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 432b
5. Filicheva T.B., Cheveleva N.A., Chirkina G.V. Bolalarda nutqning buzilishi: maktabgacha tarbiyachilar uchun qo'llanma. - M.: Kasbiy ta'lim, 1993. – 51
6. Flerina Ye.A. Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so‘z. – M., 1933. 75
7. Nizomova Sh.Sh. Bolalar nutqini o`stirish nazariyasi va texnologiyalari. O`quv qo`llanma. Buxoro – 2022 – 176b
8. Soipova.D “Musiqa o`qitish nazariyasi va metodikasi” o`quv qo`llanma. Toshkent – 2009 – 220b
9. Сергеева Н.Ю. 2010. Арт-педагогическое сопровождение профессиональной подготовки бу-душего учителя. (Арт-педагогическое сопровождение профессиональной подготовки будущего учителя: автореф. дис. ... доктора педагогических наук.) Чебоксары – 21с
10. O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi. Toshkent – 2022. – 100b.
11. Медведева.Е.А, Левченко.И.Ю, Комиссарова.Л.Н, Добровольская.Т.А./ Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании. Учеб. для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений — М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 248 с.
12. Orifjonova.G. – Art terapiya. /o‘quv qo‘llanma/ Toshkent – 2020. 128 b.
13. Осипова А.А. Общая психокоррекция. Учебное пособие. М.: сфера, 2002 Г. 510 С.
14. Панькова Г.Н. Коррекция эмоциональной сферы детей дошкольного возраста с ОВЗ методами арт-терапии. Ставропол, 2022. – 30 с.
15. Рудестам К. Групповая психотерапия. Психокоррекционные группы: теория и практика: Пер. с англ./Общ. ред. и вступ. ст. Л. А. Петровской.— М.: Прогресс, 1990.—368 с.
16. Зеленцова.Н.В. – Пешкова. Элементы песочной терапии в развитии детей раннего возраста. Санкт-Петербург Детство-пресс-2015 – 17с.
17. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent – 2022. 100b.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ESHITISH QOBILIYATI BILAN MUAMMOLARI BO‘LGAN BOLARDA NUTQNING LEKSIKO-SEMANTIK TOMONINI RIVOJLANTIRISH TIZIMIDA RAQAMLI INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR

Dosmurzaeva Ayjan Orazbek qizi, Nizomiy nomidagi Milliy Pedagogika Universiteti, tayanch doktorant, Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ta’limni zamonaviy raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etishga yondashuvlar faol ravishda o‘zgartirilmoqda, bu nafaqat umumta’lim maktabiga, balki maxsus pedagogika sohasiga ham ta’sir qiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat yordamchi vosita, balki maxsus ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradigan ta’lim muhitining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Ushbu jarayon eshitish qobiliyati cheklangan bolalar bilan ishlashda alohida ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyatining cheklanganligi og‘zaki nutqqa tabiiy kirishni qiyinlashtiradi, bu so‘z boyligini to‘plash, semantik aloqalarni shakllantirish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirishda aks etadi. Og‘zaki nutq muhitiga etarlicha qo'shilmaslik leksik tizimning parchalanishiga va o‘z nutqida so‘zlarni faol ishlatishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda nutqning leksik-semantik tomonini rivojlantirish bo‘yicha tuzatish ishlari tizimida interfaol raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini nazariy asoslash, shuningdek ularning barqaror semantik aloqalarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda nutqni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyati eshitish idrokining cheklanganligi bo‘lib, bu tovushli nutqni tabiiy assimilyatsiya qilishni, og‘zaki xotirani shakllantirishni va so‘z va uning ma’nosi o‘rtasida barqaror aloqalarni o‘rnatishni qiyinlashtiradi.

MATERIALLAR VA USULLAR: ushbu tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi: tuzatish va pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, tuzatish ishlarining an’anaviy va raqamli shakllarini qiyosiy tahlil qilish, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek raqamli tuzatish manbai sifatida interaktiv onlayn lug‘at tuzilishini modellashtirish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda so‘z boyligining shakllanishi sekin sur’atlarda sodir bo‘ladi va uning hajmi ko'pincha eshitish tengdoshlariga nisbatan cheklangan bo'lib qoladi. O‘rganilgan leksik birliklarning etarli emasligi va ular orasidagi semantik aloqalarning zaif shakllanishi nutqning to‘liq rivojlanishini qiyinlashtiradi. Cheklangan lug‘at bayonotlarning batafsil tuzilishiga to‘sqinlik qiladi, fikrlarni ifoda etishning aniqligini pasaytiradi va teskari nutqni tushunish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda maqsadli lug'at ishi so‘z boyligini o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. So‘zlarni vizualizatsiya qilish va faol ravishda mustahkamlashga qaratilgan interaktiv platformalar, multimedia vositalari va yordamchi dasturlardan foydalanish eshitish qobiliyati

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

cheklangan bolalarda so‘z boyligini kengaytirish va nutq so‘zlash sifatini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalarini tuzatish pedagogikasi metodologiyasiga, xususan, eshitish qobiliyati cheklangan bolalar bilan ishlashga samarali joriy etish nutqni o'zlashtirishda tezroq natijalarga erishishga imkon beradi. Shunday qilib, so'z boyligining cheklanganligi va leksik-semantik aloqalarning etarli darajada shakllanmaganligi eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning umumiy nutq va kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu nafaqat lug‘atni miqdoriy kengaytirishga, balki so‘zlar o‘rtasida barqaror semantik munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik echimlarni izlash zarurligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli va multimodal texnologiyalar tuzatish ishlarini kuchaytirish va so‘z boyligini o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishning istiqbolli vositasi sifatida qaraladi.

KALIT SO’ZLAR: eshitish qobiliyati cheklangan bolalar, nutqning leksik-semantik tomoni, tuzatish pedagogikasi, raqamli texnologiyalar, multimodallik, interaktiv lug‘at.

ЦИФРОВЫЕ ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ СТОРОНЫ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Досмурзаева Аижан Оразбек кизи, базовыи докторант Национального педагогического университета имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях современной цифровизации образования активно трансформируются подходы к организации учебного процесса, что затрагивает не только общеобразовательную школу, но и сферу специальной педагогики. Использование цифровых технологий становится не просто вспомогательным инструментом, а важным компонентом образовательной среды, расширяющим возможности обучения и развития детей с особыми образовательными потребностями. Особую актуальность данный процесс приобретает в работе с детьми с нарушениями слуха. Ограниченность слухового восприятия затрудняет естественный доступ к устной речи, что отражается на темпах накопления словарного запаса, формировании семантических связей и развитии способности к обобщению. Недостаточная включённость в устную речевую среду может приводить к фрагментарности лексической системы и трудностям активного использования слов в собственной речи.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является теоретическое обоснование педагогических возможностей использования интерактивных цифровых технологий в системе коррекционной работы по развитию лексико-семантической стороны речи у детей с нарушениями слуха, а также анализ их потенциала в формировании устойчивых семантических связей. Специфика развития речи у детей с нарушениями слуха заключается в ограниченности

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

слухового восприятия, что затрудняет естественное усвоение звучащей речи, формирование словесной памяти и установление устойчивых связей между словом и его значением.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе данного исследования были использованы следующие методы: теоретический анализ коррекционно-педагогической литературы, сравнительный анализ традиционных и цифровых форм коррекционной работы, обобщение и систематизация опыта применения интерактивных образовательных технологий, а также моделирование структуры интерактивного онлайн-словаря как цифрового коррекционного ресурса.

ОБСУЖДЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследования показывают, что у детей с нарушениями слуха формирование словарного запаса происходит замедленными темпами, а его объём нередко остаётся ограниченным по сравнению со слышащими сверстниками. Недостаточное количество усвоенных лексических единиц и слабая сформированность смысловых связей между ними затрудняют полноценное речевое развитие. Ограниченный словарный запас препятствует развернутому построению высказываний, снижает точность выражения мыслей и усложняет процесс понимания обращённой речи. Вместе с тем зарубежные исследования демонстрируют, что целенаправленная словарная работа с использованием цифровых технологий способна существенно повысить эффективность усвоения лексики. Применение интерактивных платформ, мультимедийных средств и ассистивных приложений, направленных на визуализацию и активное закрепление слов, показало положительное влияние на расширение словарного запаса и улучшение качества речевых высказываний у детей с нарушениями слуха.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследований говорят о том, что эффективное внедрение цифровых образовательных технологий в методику коррекционной педагогики, в частности, в работу с детьми с нарушениями слуха позволяет добиться более быстрых результатов в овладении речью. Таким образом, ограниченность словарного запаса и недостаточная сформированность лексико-семантических связей оказывают существенное влияние на общее речевое и когнитивное развитие детей с нарушениями слуха. Это обуславливает необходимость поиска эффективных педагогических решений, направленных не только на количественное расширение словаря, но и на формирование устойчивых смысловых отношений между словами. В данном контексте цифровые и мультимодальные технологии рассматриваются как перспективное средство усиления коррекционной работы и оптимизации процесса усвоения лексики.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дети с нарушениями слуха, лексико-семантическая сторона речи, коррекционная педагогика, цифровые технологии, мультимодальность, интерактивный словарь.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

DIGITAL INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF CORRECTIVE WORK ON THE DEVELOPMENT OF THE LEXICO-SEMANTIC ASPECT OF SPEECH IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

Dosmurzaeva Ayjan Orazbek qizi, Basic Doctoral Student, Nizami National Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the context of modern digitalization of education, approaches to the organization of the educational process are actively being transformed, which affects not only secondary schools, but also the field of special education. The use of digital technologies is becoming not just an auxiliary tool, but an important component of the educational environment, expanding the learning and development opportunities for children with special educational needs. This process is particularly relevant when working with children with hearing impairments. The limited auditory perception makes it difficult for natural access to oral speech, which affects the rate of vocabulary accumulation, the formation of semantic connections and the development of the ability to generalize. Insufficient involvement in the oral speech environment can lead to fragmentation of the lexical system and difficulties in actively using words in one's own speech.

AIM: the main purpose of this study is to theoretically substantiate the pedagogical possibilities of using interactive digital technologies in the system of correctional work for the development of the lexico-semantic side of speech in children with hearing impairments, as well as to analyze their potential in the formation of stable semantic connections. The specificity of speech development in children with hearing impairments lies in the limited auditory perception, which makes it difficult for the natural assimilation of spoken speech, the formation of verbal memory and the establishment of stable links between a word and its meaning.

MATERIALS AND METHODS: in the course of this research, the following methods were used: theoretical analysis of correctional and pedagogical literature, comparative analysis of traditional and digital forms of correctional work, generalization and systematization of the experience of using interactive educational technologies, as well as modeling the structure of an interactive online dictionary as a digital correctional resource.

DISCUSSIONS AND RESULTS: research shows that in children with hearing impairments, vocabulary formation occurs at a slow pace, and its volume often remains limited compared to hearing peers. The insufficient number of learned lexical units and the weak formation of semantic connections between them make it difficult for full-fledged speech development. A limited vocabulary hinders the detailed construction of utterances, reduces the accuracy of expressing thoughts and complicates the process of understanding spoken speech. At the same time, foreign studies demonstrate that targeted vocabulary work using digital technologies can significantly improve the effectiveness of vocabulary acquisition. The use of interactive platforms, multimedia tools

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

and assistive applications aimed at visualizing and actively fixing words has shown a positive effect on expanding vocabulary and improving the quality of speech utterances in children with hearing impairments.

CONCLUSION: the research results suggest that the effective implementation of digital educational technologies in the methodology of correctional pedagogy, in particular, in working with children with hearing impairments, allows for faster results in language acquisition. Thus, limited vocabulary and insufficient formation of lexico-semantic connections have a significant impact on the general speech and cognitive development of children with hearing impairments. This necessitates the search for effective pedagogical solutions aimed not only at the quantitative expansion of the vocabulary, but also at the formation of stable semantic relationships between words. In this context, digital and multimodal technologies are considered as a promising means of enhancing correctional work and optimizing the process of vocabulary acquisition.

KEYWORDS: children with hearing impairments, lexico-semantic side of speech, correctional pedagogy, digital technologies, multimodality, interactive dictionary.

Развитие лексико-семантической стороны речи у детей с нарушениями слуха представляет собой сложный и многоуровневый процесс, тесно связанный с общей языковой компетенцией, когнитивным развитием и степенью доступности языковой среды. Согласно культурно-исторической теории развития высших психических функций Л.С.Выготского, слово - это центральная единица мышления, которая обеспечивает формирование понятий и опосредование когнитивных процессов [1]. Ограничение слухового восприятия значительно затрудняет доступ к звуковой информации, что влияет на накопление словарного запаса, формировании семантических связей и способности к обобщению языковых единиц. Как показывают исследования, у детей с нарушениями слуха наблюдается задержка в накоплении словарного запаса. А также можем наблюдать трудности в соотнесении слова с его значением, из-за отсутствия слухового опыта и недостаточным включением в самостоятельное аудирование речи окружающих. Это проявляется в аграмматизмах, трудностях обобщения слов и фрагментарности логических связей в словарной системе ребёнка. Работы, посвящённые развитию речи у слабослышащих и глухих детей, характеризует эти особенности как следствие недостаточного языкового опыта, который в норме формируется через слуховое восприятие устной речи и её использование в естественной среде. В результате у детей с нарушением слуха наблюдается не только замедленное накопление словаря, но и специфические особенности лексического построения высказываний и смысловой структуры языковых единиц [1][2].

Психолого-педагогические исследования подчёркивают, что развитие словесной памяти у данной категории детей носит особенности. Словесная память тесно взаимосвязана с речью и отражает степень усвоения лексических значений и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

комбинирования слов в высказывании. Особенности звукопонимания и звукового анализа влияют на возможность установления устойчивых семантических связей между словами и их значениями[2]. Важным моментом является и соотношение активного и пассивного словаря. У детей с нарушениями слуха пассивный словарь (слова, которые ребёнок понимает) часто превышает активный (слова, которые он употребляет), что свидетельствует о специфике развития словарной системы: словарные единицы могут иметь слабую семантическую связь для активного употребления. Специфика лексико-семантического развития у детей с нарушениями слуха подчёркивает необходимость разработки специальных методов, направленных на стимулирование семантической стороны речи, включая визуально-опорные и мультимодальные подходы, которые могут быть эффективно реализованы через современные интерактивные цифровые технологии. Исследования последних лет за рубежом подчёркивают высокий потенциал цифровых и мультимедийных ресурсов в поддержке речевого и лексического развития обучающихся с нарушениями слуха. Эти технологии дают возможность компенсировать ограничения слухового восприятия, активизировать зрительное восприятие и создавать индивидуализированные условия обучения.

Одно из современных исследований (Pocket Sign) посвящено использованию ассистивной технологии, направленной на поддержку развития словаря у детей с нарушениями слуха, что привело к положительным результатам в освоении лексики и подтверждает потенциал цифровых инструментов в лексическом обучении [5]. В зарубежной литературе также отмечается, что электронные образовательные платформы и мультимедийные среды обучения способны повышать мотивацию, стимулировать самостоятельность учащихся и формировать коммуникативные навыки. В частности, анализ e-learning-среды, ориентированной на обучение британскому жестовому языку (BSL), выявил положительный эффект на мотивацию учащихся и их навыки работы в цифровой среде, а также показал, что такие технологии помогают вовлекать обучающихся в группы совместной работы и решение практических задач, что расширяет пространство взаимодействия и языковой практики, дети начинают говорить друг с другом. Опора на зрительное восприятие подтверждает прикладные исследования, в которых обучение словарю осуществлялось с использованием визуальных средств (например, пиктографических материалов). В этих исследованиях использование изображений и визуальной поддержки при обучении лексике способствовало улучшению понимания и запоминания слов, что особенно важно для слабослышащих учащихся, для которых визуальное восприятие является ключевым средством восприятия информации [5][7].

Кроме того, международная литература подчёркивает, что интерактивные технологии (например, платформы электронной среды обучения such as Moodle, Google Classroom, H5P и др.) могут быть адаптированы для детей с нарушениями слуха путём интеграции визуальных материалов, игровых заданий и мультимодальной подачи информации, что расширяет возможности коррекционной

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

работы и поддерживает развитие речи. В совокупности представленные исследования позволяют сделать вывод о том, что цифровые и мультимедийные технологии являются эффективным инструментом компенсации ограниченного слухового опыта, обеспечивая опору на визуальные и интерактивные каналы восприятия информации. Вместе с тем анализ существующих цифровых решений показывает, что большинство материалов ориентированы преимущественно на демонстрацию жеста либо на общее языковое обучение, не акцентируя внимание на системном формировании лексико-семантических связей как основы речевого и когнитивного развития. В последние годы особое внимание уделяется возможностям цифровых и мультимедийных технологий в поддержке речевого развития обучающихся с нарушениями слуха. Теория мультмодального восприятия подчёркивает, что одновременное использование вербального и визуального каналов способствует более глубокому усвоению информации. Принципы мультимедийного обучения также указывают на эффективность использования текста и изображения в образовательной среде.

Ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida raqamli transformatsiya kasbiy kompetentlikni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ta’lim dasturlari mazmunini raqamli ta’lim talablari asosida yangilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bu holat ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini xalqaro standartlar darajasiga moslashtirish imkonini yaratadi. Kasbiy kompetentlik tushunchasining zamonaviy talqini ingliz tili o‘qituvchisining raqamli madaniyatini ham muhim omil sifatida e’tirof etadi. Raqamli madaniyat pedagogning axborot bilan ishlash, raqamli vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish va ta’lim jarayonida axloqiy-me’yoriy talablarni hisobga olish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jihatlar ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida barqaror va mas’uliyatli yondashuvni ta’minlaydi.

Raqamli transformatsiya sharoitida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o‘qituvchining pedagogik faoliyatini innovatsion yo‘nalishda rivojlantirib, uni zamonaviy ta’lim tizimining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlik tushunchasining zamonaviy talqini ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida raqamli transformatsiyaning bevosita ta’siri ostida shakllanib, yangi mazmun va funksional xususiyatlar bilan boyimoqda. Ushbu jarayon ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qilib, ta’lim tizimining barqaror va innovatsion rivojlanishini ta’minlash uchun mustahkam ilmiy-pedagogik asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirzaxalova Sohibaxon Davronbek qizi. (2024). BO’LAJAK INGLIZ TILI O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPOTENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. TADQIQOTLAR.UZ, 32(2), 203–207.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

2. Каримова Г.Р. Педагогларнинг рақамли компетенциясини ривожлантириш масалалари // Педагогика ва психология журнали. – 2021. – №4. – Б. 78–83.

3. Балышев А.П. Цифровая педагогика и её роль в подготовке учителей иностранных языков // Мир науки. Педагогика и психология. – 2022. – №3. – С. 55–60.

4. Nabixonova M.I. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – №2. – Б. 5–7.

5. Saydazimova, D. (2023). THEORETICAL BASIS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS USING DIGITAL TECHNOLOGIES. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 13–17.

6. Akinwamide, T. K., and Adedara, O. G. (2012). Facilitating autonomy and creativity in second language learning through cyber-tasks, hyperlinks and net-surfing. Engl. Lang. Teach. 5, 36–42.

7. Anderson, J., Chung, Y.C., and Macleroy, V. (2018). Creative and critical approaches to language learning and digital technology: findings from a multilingual digital storytelling project. Lang. Educ. 32, 195–211.

8. Yusupov, R. (2025). METHODOLOGY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 977–979.

9. Akhmedova N.M. Improving the professional training of future teachers basedonanintegrative approach: diss... PhD T:.2020. - 65 p.

10.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

KIMYO O‘QITISH METODIKASIDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ergashov Mansur Yarashovich, Buxoro davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrasi professori, Buxoro, O‘zbekiston
Sadullayev Ibrat Shuxratovich, Buxoro davlat pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi, , Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: XXI asrda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi global jarayonga aylandi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda murakkab molekulyar jarayonlar, laboratoriya tajribalari va abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish zarurati raqamli vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Kimyo o‘qitish metodikasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan integratsiyalash, virtual laboratoriyalar orqali tajribalarni xavfsiz va samarali bajarish hamda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – kimyo o‘qitish metodikasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularning o‘quv jarayoniga ta’sirini tahlil qilish hamda samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat. Raqamli ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish, kimyo fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan raqamli platformalar va vositalarni tahlil qilish, virtual laboratoriya va simulyatsiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga ta’sirini baholash. Kimyo fanining o‘ziga xosligi – undagi abstrakt tushunchalar (atom tuzilishi, molekulyar orbital nazariyasi, kimyoviy bog‘lanish turlari, kinetik va termodinamik jarayonlar) ko‘pincha o‘quvchilar tomonidan tasavvur qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Raqamli simulyatsiyalar, 3D modellashtirish, animatsiyalar va virtual laboratoriyalar ushbu murakkab jarayonlarni vizuallashtirish orqali kognitiv yuklamani kamaytiradi va tushunishni chuqurlashtiradi. Bu esa o‘z navbatida bilimlarning barqaror va uzoq muddatli o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR*:* tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil metodi – pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganish. Taqqoslash metodi – an’anaviy va raqamli o‘qitish usullarini qiyosiy tahlil qilish. Eksperimental metod – raqamli vositalardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish. Statistik tahlil – o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash. Tajriba jarayonida quyidagi raqamli vositalardan foydalanildi: PhET Interactive Simulations – kimyoviy reaksiyalar va molekulyar tuzilmani vizuallashtirish. Google Classroom – topshiriqlarni boshqarish va baholash. ChemDraw – kimyoviy formulalar va strukturalarni modellashtirish. Virtual laboratoriya dasturlari va interaktiv test platformalari. Eksperimental tadqiqot umumta’lim maktabining 9–10-sinf o‘quvchilari o‘rtasida olib

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

borildi. Nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, tajriba guruhida raqamli texnologiyalar asosida darslar tashkil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasini oshirdi, murakkab kimyoviy jarayonlarni vizual idrok etishni osonlashtirdi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirdi, motivatsiyani sezilarli darajada kuchaytirdi. Virtual laboratoriyalar orqali xavfli kimyoviy tajribalarni xavfsiz muhitda bajarish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, differensial yondashuv asosida individual topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari inobatga olindi. Bu esa raqamli texnologiyalarning didaktik samaradorligini tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida quyidagi pedagogik samaralarga erishildi: O‘quvchilarning fan bo‘yicha motivatsiyasi va qiziqishi oshdi, mustaqil va tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati shakllandi, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlandi, axborot-kommunikatsion kompetensiyalar mustahkamlandi, differensial va individual yondashuv samaradorligi ta’minlandi. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalari inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Turli darajadagi o‘quvchilar uchun moslashtirilgan topshiriqlar, multimediya materiallari va adaptiv test tizimlari har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olishga xizmat qiladi. Bu esa ta’limning insonparvarlik va shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillarini amalda ta’minlaydi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kimyo o‘qitish metodikasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan takomillashtirish imkonini beradi. Raqamli vositalar nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etuvchi, refleksiv va interaktiv o‘quv muhitini yaratuvchi pedagogik instrument sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan interaktiv platformalar, xususan PhET Interactive Simulations va Google Classroom, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, tezkor qayta aloqa (feedback)ni ta’minlash hamda baholash jarayonini shaffof va tizimli tashkil etishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Virtual laboratoriyalar esa moddiy-texnik baza cheklangan sharoitlarda ham sifatli amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Umuman olganda, kimyo o‘qitish metodikasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi. U o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida sun’iy intellekt, adaptiv o‘quv platformalari va kengaytirilgan reallik (AR/VR) texnologiyalarini kimyo ta’limiga integratsiya qilish orqali fan o‘qitishning samaradorligini yanada oshirish, o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish mumkin. Shunday qilib, raqamli ta’lim texnologiyalaridan oqilona va metodik jihatdan asoslangan foydalanish kimyo ta’limini modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi

KALIT SO‘ZLAR: axborot texnologiyalari, kimyo o‘qitish metodikasi, virtual laboratoriya, STEM, raqamli ta’lim.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ

Эргашов Мансур Ярашович, профессор кафедры химии Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан
Садуллаев Ибрат Шухратович, преподаватель кафедры математики и информатики Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в XXI веке цифровизация системы образования стала глобальным процессом. Интеграция цифровых технологий в образовательный процесс является важным фактором повышения эффективности обучения, развития самостоятельного мышления учащихся и формирования современных компетенций. Особенно в преподавании химии необходимость визуализации сложных молекулярных процессов, лабораторных экспериментов и абстрактных понятий обусловливает активное использование цифровых средств обучения. Применение цифровых образовательных технологий в методике преподавания химии обеспечивает интеграцию теоретических знаний с практическими навыками, проведение экспериментов в безопасной виртуальной среде, а также формирование индивидуальной образовательной траектории обучающихся.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является выявление педагогических возможностей использования цифровых образовательных технологий в методике преподавания химии, анализ их влияния на учебный процесс и научное обоснование их эффективности. В рамках исследования были поставлены следующие задачи: изучение теоретических основ цифровых образовательных технологий, анализ цифровых платформ и инструментов, применяемых при обучении химии, определение дидактических возможностей виртуальных лабораторий и симуляций, оценка влияния цифровых технологий на знания, умения и компетенции учащихся. Специфика химии заключается в наличии абстрактных понятий (строение атома, теория молекулярных орбиталей, типы химической связи, кинетические и термодинамические процессы), которые вызывают трудности в восприятии у учащихся. Цифровые симуляции, 3D-моделирование, анимации и виртуальные лаборатории способствуют визуализации сложных процессов, снижению когнитивной нагрузки и углублению понимания изучаемого материала, что обеспечивает прочное и долговременное усвоение знаний.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались следующие методы: теоретический анализ педагогической и методической литературы, сравнительный анализ традиционных и цифровых методов обучения, педагогический эксперимент с использованием цифровых средств обучения, статистическая обработка результатов обучения учащихся. В процессе

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

эксперимента применялись следующие цифровые инструменты: PhET Interactive Simulations — для визуализации химических реакций и молекулярных структур; Google Classroom — для управления заданиями и организации оценивания; ChemDraw — для моделирования химических формул и структур; виртуальные лабораторные программы и интерактивные тестовые платформы. Эксперимент проводился среди учащихся 9–10 классов общеобразовательной школы. Были сформированы контрольная и экспериментальная группы, при этом в экспериментальной группе учебные занятия организовывались на основе цифровых технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что использование цифровых образовательных технологий способствует: повышению уровня понимания учебного материала, облегчению визуального восприятия сложных химических процессов, развитию навыков самостоятельного обучения, значительному росту учебной мотивации. Виртуальные лаборатории обеспечили возможность проведения потенциально опасных химических экспериментов в безопасной среде. Кроме того, реализация дифференцированного подхода посредством индивидуальных заданий позволила учитывать образовательные потребности каждого учащегося. В результате применения цифровых технологий были достигнуты следующие педагогические эффекты: повышение интереса и мотивации к изучению химии, формирование исследовательской направленности учебной деятельности, развитие критического и логического мышления, укрепление информационно-коммуникационных компетенций, обеспечение эффективности индивидуального и дифференцированного обучения. Цифровые образовательные технологии также обладают потенциалом поддержки инклюзивного образования. Адаптивные тестовые системы, мультимедийные материалы и индивидуализированные задания способствуют реализации гуманистических и личностно-ориентированных принципов обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективное использование цифровых образовательных технологий в методике преподавания химии позволяет существенно модернизировать содержание, формы и методы обучения. Цифровые инструменты выступают не только средством передачи информации, но и педагогическим ресурсом, формирующим интерактивную, рефлексивную и исследовательскую образовательную среду. Применение таких платформ, как PhET Interactive Simulations и Google Classroom, показало их эффективность в повышении учебной активности, обеспечении оперативной обратной связи и прозрачности оценивания. Виртуальные лаборатории позволяют организовать качественную практическую деятельность даже при ограниченной материально-технической базе. В целом использование цифровых образовательных технологий является важным стратегическим направлением повышения качества химического образования. Оно способствует углублению теоретических знаний, развитию практических навыков и формированию компетенций, соответствующих требованиям современного

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

общества. Перспективным направлением дальнейших исследований является интеграция технологий искусственного интеллекта, адаптивных образовательных платформ, а также средств дополненной и виртуальной реальности (AR/VR) в процесс обучения химии с целью развития исследовательских компетенций и инновационного мышления обучающихся. Таким образом, методически обоснованное и системное внедрение цифровых образовательных технологий выступает важным фактором модернизации химического образования

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: информационные технологии, методика преподавания химии, виртуальная лаборатория, STEM, цифровое образование.

OPPORTUNITIES FOR USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY

Ergashov Mansur Yarashovich, Professor of the Department of Chemistry, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan
Sadullayev Ibrat Shukhratovich, Lecturer of the Department of Mathematics and Informatics, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the 21st century, the digitalization of the education system has become a global process. The integration of digital technologies into the educational process is an important factor in increasing learning effectiveness, developing students' independent thinking, and forming modern competencies. In particular, in teaching chemistry, the need to visualize complex molecular processes, laboratory experiments, and abstract concepts necessitates the active use of digital tools.The use of digital educational technologies in the methodology of teaching chemistry ensures the integration of theoretical knowledge with practical skills, enables safe and effective experimentation through virtual laboratories, and supports the formation of individual learning trajectories.

AIM: the main purpose of this study is to identify the pedagogical opportunities for using digital educational technologies in the methodology of teaching chemistry, to analyze their impact on the educational process, and to scientifically substantiate their effectiveness. The objectives of the research include: studying the theoretical foundations of digital educational technologies, analyzing digital platforms and tools used in chemistry teaching, identifying the didactic potential of virtual laboratories and simulations, evaluating their impact on students' knowledge, skills, and competencies. The specificity of chemistry lies in its abstract concepts (atomic structure, molecular orbital theory, types of chemical bonding, kinetic and thermodynamic processes), which often create difficulties for students' understanding. Digital simulations, 3D modeling, animations, and virtual laboratories help visualize complex processes, reduce cognitive load, and deepen comprehension, thereby ensuring durable and long-term knowledge acquisition.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MATERIALS AND METHODS: the following research methods were employed: theoretical analysis of pedagogical and methodological literature, comparative analysis of traditional and digital teaching methods, pedagogical experiment using digital tools in the learning process, statistical analysis of students' academic performance.During the experimental work, the following digital tools were used: PhET Interactive Simulations – for visualizing chemical reactions and molecular structures. Google Classroom – for assignment management and assessment. ChemDraw – for modeling chemical formulas and structures, virtual laboratory programs and interactive testing platforms. The experimental study was conducted among 9th–10th grade students of a general secondary school. Control and experimental groups were formed, and in the experimental group, lessons were organized using digital technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study demonstrated that the use of digital educational technologies: increased students' level of understanding of the subject matter, facilitated the visual perception of complex chemical processes, developed independent learning skills, significantly enhanced learning motivation. Virtual laboratories provided opportunities to conduct potentially hazardous chemical experiments in a safe environment. Furthermore, the implementation of differentiated instruction through individualized tasks allowed consideration of students' personal learning needs. The following pedagogical outcomes were achieved: increased motivation and interest in chemistry, formation of research-oriented learning activities, development of critical and logical thinking skills, strengthening of information and communication competencies, improved effectiveness of individualized and differentiated instruction. Digital educational technologies also support inclusive education. Adapted assignments, multimedia materials, and adaptive testing systems help address diverse learning needs and ensure the implementation of learner-centered and humanistic educational principles.

CONCLUSION: the findings of the study indicate that the effective use of digital educational technologies in the methodology of teaching chemistry significantly improves the content, forms, and methods of instruction. Digital tools function not only as means of information delivery but also as pedagogical instruments that create an interactive, reflective, and research-oriented learning environment. The application of platforms such as PhET Interactive Simulations and Google Classroom proved effective in increasing classroom engagement, ensuring immediate feedback, and organizing transparent assessment processes. Virtual laboratories enable high-quality practical activities even in institutions with limited material and technical resources.

Overall, the integration of digital educational technologies is a strategic direction for improving the quality of chemistry education. It promotes deeper theoretical understanding, enhances practical skills, and fosters competencies aligned with the demands of modern society. Future research perspectives include the integration of artificial intelligence, adaptive learning platforms, and augmented/virtual reality (AR/VR) technologies into chemistry education to further enhance instructional effectiveness, develop research competencies, and stimulate innovative thinking.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Keywords: information technologies, chemistry teaching methodology, virtual laboratory, STEM, digital education.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida axborot texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi kimyo o‘qitish metodikasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy o‘quvchi an’anaviy doska va kitobdan tashqari, interaktiv vositalar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va elektron darsliklar orqali bilim olmoqda. Shu sababli, kimyo o‘qitishda AKTdan foydalanish ilmiy asoslar bilan puxta o‘rganilishi va samarali metodik yechimlar ishlab chiqilishi zarur. Zamonaviy o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda va uni kimyo o‘qitishda qo‘llash yangi imkoniyatlar va muammolarni yaratmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida kimyo o‘qituvchilari texnologik jihatdan malakali va dars davomida zamonaviy vositalardan samarali foydalana olishlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kimyo fanini o‘qitishda AT vositalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Konstruktivizm nazariyasi: o‘quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, balki faoliyat jarayonida hosil qiladi. AKT bu jarayonni kuchaytiradi (Jonassen, 1999). TPACK modeli (Mishra & Koehler, 2006): texnologik, pedagogik va fanga oid bilimlarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. STEM yondashuvi: kimyo darslariga texnologiyalarni kiritish orqali o‘quvchilarni muhandislik, texnologiya va ilmiy tadqiqotlarga tayyorlaydi (Bybee, 2013). Virtual laboratoriyalar: real tajribalarni xavfsiz, tez va iqtisodiy jihatdan arzon o‘tkazish imkonini beradi. Masalan, PhET Interactive Simulations platformasi (Kolorado universiteti) 200 dan ortiq virtual tajribalarni taklif etadi. O‘zbekiston ta’limida tajriba: 2023 yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi 100 dan ortiq maktablarda kimyo darslariga interaktiv doska va virtual laboratoriyalarni joriy etishni boshladi (Vazirlik axborot xizmati, 2023). Jahon tajribasi: Koreya va Finlyandiya maktablarida kimyo darslarining 40% dan ortig‘i raqamli resurslar orqali o‘tiladi (OECD, 2021). Tadqiqotlarga ko‘ra, kimyo fanida AKT qo‘llash o‘quvchilarning motivatsiyasini 25–30% ga oshiradi (Şimşek, 2017). Bulardan tashqari ushbu sohaning dolzarb muammolari bo‘yicha so‘ngi yillarda bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (1-jadvalga qarang).

Kimyo o‘qitish metodikasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha manbalar

1-jadval

Sarlavha	Muallif / yili	Nima haqida	Foydali tomonlari
Digital tools in secondary chemistry education – added value or modern	Wohlfart, Wagner, Wagner · 2023 (Frontiers)	Maktablarda kimyo o‘qitishda raqamli vositalarning qo‘llanishi, foydalari va to‘sqinliklar (infrastructure, tayyorgarlik, vaqt bilan	Metodikaning amaliy jihatlarini batafsil tahlil qilish mumkin.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

gimmicks?		bog‘liq muammolar) (Frontiers)	
Modes of technology integration in chemistry teaching: theory and practice	Aroch, Katchevich, Blonder · 2024 (pubs.rsc.org)	O‘qituvchilarning texnologiyalarni qanday usullarda (virtual laboratoriyalar, ochiq ma’lumotlar bazalari, vizualizatsiya va h.k.) integratsiya qilayotgani va nazariy asoslari (pubs.rsc.org)	TPACK modeli, texnologik va pedagogik bilimlar bo‘yicha argument qo‘shish mumkin.
Utilization of artificial intelligence and machine learning in chemistry education	Iyamuremye · 2024 (SpringerLink)	AI va ML texnologiyalarining kimyo ta’limida foydalanilishi: imkoniyatlar va cheklovlar (ma’lumotlar, maxfiylik, metodlar) (SpringerLink)	Zamonaviy texnologiyalar (sun’iy intellekt) bo‘yicha ilmiy asoslar keltirilgan.
Digital Technology Approach in Chemistry Education	S. binti Ali · 2023 (Semantic Scholar)	VR, AR, digital ilovalar, interaktiv simulyatorlar yordamida kimyo ta’limining yangi yondoshuvlari va muammolar (Semantic Scholar)	Texnologik vositalar misollari, ularning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatish uchun foydali.
Challenges of Integration of Information and Communication Technology (ICT) in Education	Akpomiemie · 2025 (foej.fuotuoke.edu.ng)	Ta’limda ICT integratsiyalashdagi asosiy to‘sqinliklar: infratuzilma, resurslar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi (foej.fuotuoke.edu.ng)	Muammolar bo‘limi uchun ma’lumot berilgan.
Inquiry-based chemistry education: a systematic review	Jegstad · 2024 (Tandfonline)	Kimyo ta’limida ilmiy so‘rov usullari (inquiry-based learning) qanchalik qo‘llanayotgani va samarasi (Tandfonline)	O‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va tayyorlash yo‘nalishlari uchun.

Asosiy qism. Quyida kimyo o‘qitish metodikasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslarini ko‘rib chiqamiz.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Kognitiv va konstruktivistik yondashuvlar: Axborot texnologiyalari vizual, audio va interfaol materiallar orqali murakkab kimyoviy tushunchalarni anglashni osonlashtiradi, o‘quvchilarning faol qatnashishini ta’minlaydi. Bu yondashuvlar kimyo kabi murakkab va ko‘pincha abstrakt tushunchalar bilan shug‘ullanadigan fan uchun ayniqsa muhimdir.

Kognitiv yondashuv: ongni kimyoviy tushunchalarga o‘rgatish

Muammo: Kimyoda atom, molekula, kimyoviy bog‘, reaksiya mexanizmi kabi tushunchalarni oddiy rasm yoki formulalar orqali tushuntirish qiyin. Bu o‘quvchining ishchi xotirasiga qattiq yuk bo‘ladi, chunki u hamma narsani tasavvur qilishi kerak bo‘ladi.

AT yordami: 3D molekulyar modellar (masalan, PhET simulyatsiyalari, MolView.org) yordamida o‘quvchi molekulaning fazoviy joylashishini aylantirib, istalgan burchakdan ko‘rishi, bog‘larning uzunligini va burchaklarini o‘lchashi mumkin. Bu miyaga vizual ma'lumot sifatida tushadi va abstrakt tushuncha konkret shaklga kiradi. Animatsion videolar (masalan, elektroliz jarayoni yoki kovalent bog‘lanish paydo bo‘lishi) vaqt bilan bog‘liq jarayonlarni bosqichma-bosqich ko‘rsatadi.

Natijada o‘quvchining kognitiv yuki kamayadi. U formulani yoddan aytish o‘rniga, ko‘z oldida aylanayotgan suv (H_2O) molekulasining modelini ko‘radi va uning qanday qurilganligini chuqurroq tushunadi.

Konstruktivistik yondashuvda o‘quvchi –“ Kichik kimyogar”

Muammo: An’anaviy laboratoriyada noto‘g‘ri harakat natijasida tajriba muvaffaqiyatsiz tugashi, hatto xavfli bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchining eksperiment o’tkazish qiziqishini susaytirishi mumkin.

AT yordamida Virtual kimyo laboratoriyalari (masalan, ChemCollective, Labster) o‘quvchiga istalgan reagentni istalgan miqdorda aralashtirish, eritma konsentratsiyasini o‘zgartirish va natijani ko‘rish imkoniyatini beradi. Agar u "noto‘g‘ri" bajarsa, dastur buni ko‘rsatadi, lekin hech nima portlamaydi va vaqt yo‘qotilmaydi. O‘quvchi turli parametrlarni o‘zgartirib, o‘zi kimyoviy qonuniyatni kashf etadi.

Natija: O‘quvchi faqat ko‘rib o‘rganuvchi emas, balki bilimni o‘zi quruvchi bo‘ladi. U tajriba orqali, masalan, konsentratsiya ortishi bilan reaksiya tezligi ham oshishini mustaqil ravishda "kashf etadi". Ana shu jarayonda kognitiv tafakkur konstruktivizm vositasida yangi bilimlarni tez va oson o‘zlashtiradi.

Didaktik talablar: Ta’limda vizuallashtirish, individualizatsiya va differensiasiya kabi didaktik talablarning amaliyotga tadbiq etilishida axborot texnologiyalari muhim vositaga aylanmoqda.

Zamonaviy kimyo darsini tashkil qilish

Vizuallashtirish: Ko‘rib o‘rganish

Misol: "Elektron bulutlari" tushunchasini tushuntirish. An’anaviy usulda bu chiziqli formulalar bilan ifodalanadi. AT yordamida bu turli orbitalarning (s, p, d) 3D-grafik ko‘rinishlari, ularning shakli va fazoda joylashishini ko‘rsatish mumkin. Bu tushunarsiz chiziqchalarga qaraganda aniqroqdir.

Konstruktivistik yondashuvning yana bir afzalligi - individualligidir, yani shaxsiylashtirilgan: har bir talabaga alohida yondashuv asosida o’zlashtirish foizi oshadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Misol: Sinfdagi ba'zi o‘quvchilar kimyoviy tenglamalarni muvozanlashtirishda, boshqalari esa organik kimyodan moddalarni nomlashda qiynalishi mumkin. AT yordamida (masalan, onlayn platformalar: Khan Academy, Quizlet) o‘qituvchi har bir o‘quvchi yoki guruh uchun uning zaif tomonlarini mustahkamlovchi maxsus topshiriqlar yaratishi mumkin. Darsdan keyin ham o‘quvchi mustaqil mashqlarni ishlay oladi.

Differensiallashtirish xususiyati bu – bir mavzu bo’yicha turli darajadagi vazifalardir. Masalan, "Kislotalar va asoslar" mavzusini o‘qitayotganda:

Asosiy daraja: AT yordamida interfaol indikatorlar jadvali. O‘quvchi turli eritmalarga virtual indikator tomizganda, uning rangi o‘zgaradi va dastur pH qiymatini ko‘rsatadii.

Murakkab daraja: O‘quvchidan virtual titrlash usuli yordamida noma’lum kislota konsentratsiyasini aniqlash so‘raladi, bu yerda u o‘zi grafiklar bilan ishlaydi va hisob-kitoblar olib boradi.

Ta’lim jarayoni bugungi kunda raqamli pedagogika tushunchasi asosida anglanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini loyihalash, amalga oshirish va baholashni o‘z ichiga oladi.

Butun kimyo o‘qitish jarayonini qayta qurish

Bu butunlikdagi yondashuv bo‘lib, kimyo o‘qituvchisining ishini tubdan o‘zgartiradi.

Loyihalash: O‘qituvchi darsni oddiy darslik asosida emas, balki virtual laboratoriya mashg‘uloti, kimyoviy modellashtirish dasturi va onlayn baholashni birlashtirgan holda loyihalaydi. Amalga oshirish: O‘quvchilar guruh bo‘lib, Google Docs yoki Padlet da kimyoviy birikmalar haqida ma'lumotlar to‘plashadi va birgalikda loyiha ishlaydi. O‘qituvchi videokonferensiya orqali masofadan turib virtual tajribaga rahbarlik qiladi.

Baholash: O‘quvchining bilimi faqat yakuniy test orqali emas, balki uning elektron portfoliosi (qilgan virtual tajribalari hisoboti, yaratgan molekulyar modellari, onlayn forumdagi mulohazalari) asosida baholanadi. Hozirgi kunda kimyo fanini o‘qitish jarayonida ko‘zga tashlanadigan bir nechta muammolar mavjud. Masalan, texnik infratuzilma yetishmovchiligi ulardan biridir.Ko‘plab maktablarda kimyo laboratoriyalari zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlanmagan. Interaktiv doska va virtual simulyatorlar faqat ayrim ta’lim muassasalarida mavjud. Buning natijasida o‘quvchilar murakkab kimyoviy jarayonlarni ko‘rgazmali o‘rganish imkoniyatidan mahrum bo‘lishadi.

O‘qituvchilarning malakasi: Texnologiyalarni dars jarayonida samarali qo‘llash uchun o‘qituvchidan fanni mukammal bilish bilan birga, AKT bo‘yicha ham ko‘nikma talab qilinadi. Aks holda, kimyo fanida o‘quvchilarning tajribaviy mashg‘ulotlari qog‘ozdagi nazariya bilan chegaralanib qolishi raqamli bilimlar zamoni talablariga mos kelmaydi.

O‘zbek tilidagi resurslarning kamligi yana bir kamchiliklardan biridir. Virtual laboratoriyalar va elektron darsliklarning aksariyati ingliz tilida. O‘quvchilar kimyoviy reaksiyalarni tushunishda til to‘sig‘iga duch keladi. Bu holat ayniqsa murakkab organik kimyo va analitik kimyo mavzularida sezilarli bo‘ladi. Internet va elektr ta’minotidagi uzilishlar: Qishloq maktablarida internet tezligi past bo‘lgani sababli onlayn kimyo simulyatorlari to‘liq ishlamaydi. Bu esa virtual laboratoriya darslarini to‘xtatib qo‘yadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Metodik qo‘llanmalar yetishmasligi: Ko‘plab kimyo o‘qituvchilari texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha aniq metodik tavsiyalardan foydalanishga muhtoj. Darslarda AKTdan qanday va qaysi bosqichda foydalanish bo‘yicha yagona qo‘llanmalar yo‘q.

Yuqorida keltirilgan texnik va metodik muammolarga mos ravishda quyidagi yechimlarni taklif qilish mumkin.

Texnik infratuzilmani kuchaytirish: Kimyo xonalarini interaktiv doska, planshet, simulyatsiya dasturlari bilan jihozlashni nazarda tutadi. Masalan, “PhET Interactive Simulations” kabi platformalarning lokal (oflayn) versiyalarini o‘rnatish orqali o‘quvchilar gazlarning xossalari yoki atom tuzilishini amalda o‘rganishlari mumkin. O‘qituvchilar malakasini oshirish - kimyo o‘qituvchilari uchun maxsus AKT kurslarini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Masalan, “Virtual kimyo laboratoriyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusida seminarlar o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu orqali ustozlar kimyoviy reaksiyalarni interaktiv modellar yordamida tushuntira oladi.

O‘zbek tilidagi resurslarni yaratish: O‘zbek tilida kimyo faniga mos elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va animatsiyalar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Masalan, “Elektroliz jarayonlari” yoki “Kislota-asos reaksiyalari” bo‘yicha multimedia qo‘llanmalar bo’lishi mumkin. Internet va elektr muammosiga yechim- kimyo faniga oid oflayn ishlaydigan mobil ilovalar ishlab chiqish orqali hal etiladi. Masalan, o‘quvchilar internet bo‘lmasa ham, “Organik moddalarning izomeriyasi”ni 3D shaklda telefon orqali ko‘ra olishi kerak. Metodik qo‘llanmalar tayyorlashda kimyo darslari uchun maxsus “AKTdan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar” to‘plamini yaratish. Masalan, “Darsning kirish qismida kimyoviy jarayon animatsiyalaridan foydalanish”, “Mustahkamlash bosqichida virtual laboratoriyani qo‘llash” kabi ko‘rsatmalar asosida amalga oshirilsa, nazariy jarayonda olingan bilim amaliyotda ko‘nikma hosil qiladi.

Kimyo o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish – bu zamon talabi. U o‘quvchilarda fan asoslarini chuqurroq tushunishga, mustaqil izlanishga va ilmiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va o‘qituvchilarning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Kimyo fanida raqamli ta’lim vositalaridan ATdan foydalanish – bu nafaqat doskada videoni ko‘rsatish, balki butun o‘quv jarayonini o‘quvchining murakkab materialni idrok etishiga yordam beradigan, uni faol ishtirokchiga aylantiradigan va o‘qituvchiga har bir o‘quvchining ehtiyojiga javob berish imkoniyatini beradigan kuchli pedagogik strategiyadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Wohlfart O, Wagner AL and Wagner I (2023) Digital tools in secondary chemistry education – added value or modern gimmicks? *Front. Educ.* 8:1197296. doi: 10.3389/feduc.2023.1197296
2. Aroch, I., Katchevich, D., & Blonder, R. (2024). Modes of technology integration in chemistry teaching: theory and practice. Chemistry Education Research and Practice, 25(3), 843–861. https:doi.org/10.1039/d3rp00307h

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

3. Iyamuremye, A., Niyonzima, F. N., Mukiza, J., Twagilimana, I., Nyirahabimana, P., Nsengimana, T., Habiyaremye, J. D., Habimana, O., & Nsabayezu, E. (2024). Utilization of artificial intelligence and machine learning in chemistry education: a critical review. Discover Education, 3(1). https://doi.org/10.1007/s44217-024-00197-5
4. Ali, S. B., Talib, C. A., & Jamal, A. M. (2023). Digital Technology Approach in Chemistry Education: A Systematic Literature Review. Journal of Natural Science and Integration, 6(1), 1. https://doi.org/10.24014/jnsi.v6i1.21777
5. Challenges of Integration of Information and Communication Technology (ICT) in Chemistry Teaching in Secondary Schools in Bayelsa State. (2025). *FUO-Journal of Educational Research*, *4*(2), 219-227. https://doi.org/10.5281/
6. Jegstad, K. M. (2023). Inquiry-based chemistry education: a systematic review. *Studies in Science Education*, *60*(2), 251–313. https://doi.org/10.1080/03057267.2023.2248436
7. Jonassen, D. H. (1999). Designing constructivist learning environments.
8. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6).
9. Bybee, R. W. (2013). The case for STEM education. NSTA Press.
10. OECD (2021). Education at a Glance 2021. OECD Publishing.
11. Şimşek, Ö. (2017). The effect of computer simulations on students' chemistry achievements. Journal of Science Education and Technology.
12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot xizmati. (2023). ta'lim yangiliklari portali (https://uzedu.uz).

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

FILOLOGIYA FANLARI TIZIMIDA ADABIYOTSHUNOSLIK

Sa'dullayeva Bibixonim Sanjarovna, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti,
Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti, 25/26-3-guruhi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid badiiy ifoda intizomi sifatida, insoniyatning ma'naviy va madaniy tajribasini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv, intensiv madaniyatlararo o'zaro ta'sir va badiiy ongning o'zgarishi sharoitida badiiy matnlarni, ularning mafkuraviy va estetik mazmunini hamda tarixiy kontekstini ilmiy asoslangan talqin qilish, adabiy jarayonning rivojlanishidagi naqshlarni aniqlash, davrlar va millatlar bo'yicha badiiy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish va adabiyotning boshqa san'at va ijtimoiy ong tizimidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, adabiy tanqidning dolzarbligi uning tilshunoslik, falsafa, tarix va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi, bu esa yaxlit gumanitar bilimlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Zamonaviy ta'lim va tadqiqotlarda adabiy tanqid analitik fikrlash, estetik did va murakkab matnlarni talqin qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, bu esa bu mavzuni ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatli qiladi.

MAQSAD: adabiy tadqiqotlarning asosiy maqsadi adabiy tanqidning badiiy adabiyot bilan bog'liq fan sifatida mohiyatini ochib berish, uning mavzusi, vazifalari va usullarini aniqlash, shuningdek, adabiy matnlarni yetarli darajada talqin qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda badiiy adabiyotni o'rganishning maqsadlari va tamoyillari, yozilgan asarlar tillarning leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari, filologik va badiiy tadqiqotlar tizimidagi adabiy tanqidning o'ziga xos xususiyatlarini va uning tilshunoslikdan farqlarini namoyish etishdir

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada adabiy ijod ta'limoti, boshqa san'at doirasidagi badiiy adabiyot, badiiy adabiyot sohasi, badiiy adabiyot predmeti, badiiy adabiyotning asosiy funktsiyalari, adabiy asar ta'limoti, adabiy asarning mazmuni va shakli, mavzu va g'oya, syujet va syujet, majoziy tuzilish, adabiy asar tili, she'riy tilning majoziy va ifodali vositalari, adabiy jarayon ta'limoti, adabiyotning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari, milliy adabiyotlardagi bosqichma-bosqich jamoalar va mafkuraviy va badiiy farqlar asosida xizmat qiluvchi materiallardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiy tanqid, badiiy adabiyotni o'rganish orqali adabiyotshunoslik san'atshunoslik, musiqashunoslik, teatrshunoslik va boshqa san'atshunoslik fanlari, supersistemaning elementi ekanligi, uning kontekstida adabiy hodisa voqelik, yozuvchi va qabul qiluvchi (retseptor) bilan o'zaro bog'liqligi, zamonaviy adabiy tanqid turli janrlari bo`lgan maqolalar, sharhlar, sharhlar, esselar, adabiy portretlar, polemik javoblar va bibliografik yozuvlarni rivojlantirishi, adabiy tanqid muayyan adabiy hodisalarni tahlil qiladi va baholaydi, asosan ularning sifat jihatlariga e'tibor qaratishi, adabiy tanqid adabiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

hodisalarni dinamik ravishda va statik ravishda tahlil qiladi va shu jihatdan savodli kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

XULOSA: zamonaviy adabiy tanqid badiiy adabiyotni mazmuni, shakli, tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy funktsiyalari bo'yicha o'rganadigan murakkab va ko'p qirrali gumanitar fan sifatida paydo bo'lib, insoniyatning ma'naviy tajribasini aks ettiruvchi san'at shakli va ijtimoiy ong shakli sifatida ko'rib chiqadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, adabiy tanqidning predmeti adabiy hodisalarning umumiyligi bo'lib, ularning voqelik, muallif va o'quvchi bilan tizimli aloqalarida tushuniladi. Ayniqsa, adabiy asarning tuzilishi va ifodali vositalarini o'rganadigan poetika va badiiy shakllarning evolyutsiyasi naqshlarini ochib beradigan tarixiy poetika muhim ahamiyatga ega. Adabiy tanqidning asosiy metodologik maktablarini o'rganish bizga adabiy tahlilga ilmiy yondashuvlar xilma-xil va universal usul yo'q degan xulosaga kelishga imkon beradi. Har bir maktab adabiy tahlil nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga hissa qo'shib, badiiy ijodkorlik mohiyati haqidagi tushunchamizni kengaytirdi. Umuman olganda, adabiy tanqid gumanitar bilimlarni shakllantirishda, analitik fikrlashni rivojlantirishda va adabiy matnlarni yetarlicha talqin qilish qobiliyatida muhim rol o'ynaydi. Uning ahamiyati, ayniqsa, adabiyot shaxslar, jamiyat va madaniyatni ularning tarixiy va ma'naviy dinamikasida tushunishning muhim vositasi bo'lib qoladigan zamonaviy dunyoda ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: adabiy tanqid, badiiy adabiyot, ma'naviy va madaniy tajribani tushunish, globalizatsiya, intensiv madaniyatlararo o'zaro ta'sir, shakllarning o'zgarishi, badiiy ong, talqin, mafkuraviy va estetik mazmun, tarixiy qat'iyatlilik

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ В СИСТЕМЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК

Саъдуллаева Бибихоним Санджаровна, Магистрантка Узбекского государственного университета мировых языков, литературоведение: русская литература, 25/26-3 группа,Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается тот факт, что лингвистика, литературоведение, литературная критика как дисциплины художественного выражения играют важную роль в понимании духовного и культурного опыта человечества. В условиях глобализации, интенсивного межкультурного взаимодействия и изменений в художественном сознании это позволяет научно обоснованно интерпретировать художественные тексты, их идеологическое и эстетическое содержание и исторический контекст, выявлять закономерности в развитии литературного процесса, понимать специфику художественного мышления в разные эпохи и нации, а также определять место литературы в системе других искусств и общественного сознания. Кроме того, актуальность литературной критики определяется её тесной связью с лингвистикой, философией, историей и культурологией, что способствует развитию целостного гуманитарного знания. В современном образовании и исследованиях литературная критика служит важным инструментом развития аналитического мышления,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

эстетического вкуса и способности интерпретировать сложные тексты, что делает этот предмет актуальным как в теоретическом, так и в практическом плане.

ЦЕЛЬ: главная цель литературоведения – раскрыть сущность литературной критики как науки, связанной с литературой, определить ее предмет, задачи и методы, а также разработать механизмы адекватной интерпретации литературных текстов, продемонстрировать цели и принципы изучения литературной литературы в литературоведении и лингвистике, лексические, фонетические и грамматические характеристики языков, на которых написаны произведения, специфику литературной критики в системе филологических и художественных исследований и ее отличия от лингвистики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье используются материалы, послужившие основой для доктрины литературного творчества, художественной литературы в рамках других искусств, области художественной литературы, предмета художественной литературы, основных функций художественной литературы, доктрины литературного произведения, содержания и формы литературного произведения, темы и идеи, сюжета и повествования, образной структуры, языка литературного произведения, образных и выразительных средств поэтического языка, доктрины литературного процесса, законов исторического развития литературы, постепенного формирования общностей в национальных литературах, а также идеологических и художественных различий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что литературная критика, лингвистика, литературоведение и изучение художественной литературы, литературная критика являются элементом надсистемы искусствоведческой критики, музыковедения, театроведения и других искусствоведческих дисциплин; в этом контексте литературный феномен взаимосвязан с реальностью, писателем и получателем (рецептором); современная литературная критика развивает различные жанры статей, рецензий, комментариев, эссе, литературных портретов, полемических ответов и библиографических заметок; литературная критика анализирует и оценивает конкретные литературные явления, фокусируясь главным образом на их качественных аспектах; литературная критика анализирует литературные явления динамически и статически, и в этом отношении подготовка грамотных кадров имеет большое значение.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: современная литературная критика сформировалась как сложная и многогранная гуманитарная наука, изучающая художественную литературу с точки зрения ее содержания, формы, исторического развития и социокультурных функций, и рассматривающая ее как форму искусства и форму общественного сознания, отражающую духовный опыт человечества. Анализ показывает, что предметом литературной критики является совокупность литературных явлений, понимаемых в их систематической связи с реальностью, автором и читателем. Особое значение имеют поэтика, изучающая структуру и выразительные средства литературного произведения, и историческая поэтика,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

раскрывающая закономерности эволюции художественных форм. Изучение основных методологических школ литературной критики позволяет сделать вывод о многообразии научных подходов к литературному анализу и отсутствии универсального метода. Каждая школа внесла свой вклад в развитие теории и практики литературного анализа, расширяя наше понимание сущности художественного творчества. В целом, литературная критика играет важную роль в формировании гуманитарных знаний, развитии аналитического мышления и способности адекватно интерпретировать литературные тексты. Ее значение особенно возрастает в современном мире, где литература остается важным инструментом понимания личности, общества и культуры в их исторической и духовной динамике.

Ключевые слова: литературная критика, художественная литература, понимание духовного и культурного опыта, глобализация, интенсивное межкультурное взаимодействие, трансформация форм, художественное сознание, интерпретация, идеологическое и эстетическое содержание, историческая обусловленность

LITERARY STUDIES IN THE SYSTEM OF PHILOLOGICAL SCIENCES

Bibikhonim Sanjarovna Sa'dullayeva, Master's student of the Uzbekistan State World Languages University,
Literary Studies: Russian Literature, Group 25/26-3

Annotation

XX asrning birinchi yarmida kauchuk va elastik tolalarning sanoatda keng joriy etilishi kompression buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirdi. Tibbiy elastik paypoqlar, bandajlar va bog‘lovchi vositalar anatomik tuzilishga moslashtirila boshladi. Bu davrda kompressiya darajasini nazorat qilish tamoyillari shakllandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sport tibbiyoti va biomekanika fanlarining rivojlanishi natijasida kompression ta’sirning sportchilarning ish qobiliyatiga ijobiy ta’siri aniqlana boshladi. Sport tibbiyotining rivojlanishi natijasida olimlar kompressiyaning mushak faoliyatiga ijobiy ta’sirini aniqladilar. 1960–1970-yillarda professional sportchilar, xususan, yengil atletika va velosportda tibbiy kompression paypoqlarni mashg‘ulot va musobaqalarda qo‘llay boshladilar. Ushbu davr kompression kiyimlarning sport yo‘nalishiga o‘tish bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompression kiyimlar mushaklarning tebranish amplitudasini kamaytirib, energiya yo‘qotilishini qisqartiradi. Aynan shu davrda kompression kiyimlar sport mashg‘ulotlari va musobaqalarda sinov tariqasida qo‘llanila boshlandi. Material sifatida poliamid va elastan iplarining paydo bo‘lishi kiyimlarning elastiklik va mustahkamlik ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirdi**.** (1.2-rasm)

1980–1990-yillarda sintetik tolalar — poliamid, elastan (Lycra) va mikrofibraning joriy etilishi kompression sport kiyimlarini yengil, elastik va nafas oladigan qilish imkonini berdi. Shu davrda kompression futbolkalar, taytlar va shortilar paydo bo‘lib, sport brendlari tomonidan tijorat mahsuloti sifatida ommalashtirildi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



1.2-rasm.Kompression sport kiyimining tarixi

Lycra (elastan) 1958-yilda NASA buyurtmasi bilan ishlab chiqilgan.Maqsad esa kosmonavtlarning mushaklarini bosim ostida ushlab turish. Keyinchalik bu material Velosport, Triatlon va yugurish sport turlari uchun moslashtirilgan.

XXI asr boshlarida biomekanika, fiziologiya va sport tibbiyoti sohasidagi ilmiy tadqiqotlar kompression sport kiyimlarining samaradorligini tajriba asosida isbotladi.

XIX asrda kompression paypoqlar asosan ayollar kiyimi sifatida shakllangan bo‘lib, ular homilador ayollar, uzoq vaqt tik holatda ishlovchi tikuvchilar hamda saroy xonimlari uchun mo‘ljallangan. Ushbu buyumlar pastki oyoqlarda qon aylanishini yaxshilash va charchoqni kamaytirish maqsadida qo‘llanilgan. Erkaklar sportida kompression texnologiyalarning joriy etilishi taxminan 60–70 yilga kechikkan. XX asr boshlarida, xususan 1930–1940-yillarda yengil atletika sportchilarining ayrimlari kompression ta’sirga erishish maqsadida elastik bintlarni paypoq ostidan yoki short ichidan yashirincha bog‘lab chiqishgan. Biroq, o‘sha davr sport qoidalarida bunday usullar “sun’iy ustunlik” sifatida baholanib, rasmiy ravishda taqiqlangan. Natijada kompression texnologiyalar uzoq vaqt davomida norasmiy sport vositasi sifatida qo‘llanilib kelgan.

Kompression sport kiyimining tarixiy evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, u dastlab tibbiy va harbiy ehtiyojlardan kelib chiqqan bo‘lib, faqat XX asr oxirlariga kelib, sport texnologiyasining mustaqil yo‘nalishiga aylangan. Zamonaviy kompression kiyimlar esa biomekanik va fiziologik asoslangan, yuqori funksional innovatsion mahsulot sifatida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

shakllangan. Bugungi kunda kompression sport kiyimlari yuqori texnologiyali funksional sport mahsuloti sifatida professional sportchilar bilan bir qatorda havaskor foydalanuvchilar tomonidan ham keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy kompressiya – oddiy siqish emas, intellektual bosimdir**.** Kompression sport kiyimlari hozirda sport industriyasining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu turdagi kiyimlar sportchilar va jismoniy faollik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish, mushak faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, charchoqni kamaytirish va tiklanish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Kompression kiyimlar tananing ma’lum qismlariga nazoratlangan bosim berish orqali qon aylanishini yaxshilaydi, mushak tebranishlarini kamaytiradi va sport faoliyati samaradorligini oshiradi, jarohat xavfini kamaytiradi.

Zamonaviy kompression kiyimlar mushak tebranishlarini kamaytirishini pasaytirish va tiklanish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, issiq va quruq iqlim sharoitida, jumladan O‘zbekiston hududida sportchilarning yuqori jismoniy yuklamalarda samaradorligini ta’minlashda kompression kiyimlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Zamonaviy kompression sport kiyimlari:

-anatomik modellashtirish;

-zonal kompressiya;


-termoregulyatsiya;

-antibakterial va gigiyenik xususiyatlar bilan boyitiladi.

Kompression kiyim, nomidan ko`rinib turibdiki, tanaga juda yopishigan siluetli va mushaklarga bosim o`tkazuvchi, ularning sovishiga yo`l qo`ymaydi va yaxshi qon aylanishini ta`minlaydi. Bundan tashqari, maxsus ishlab chiqilgan siqish gradiyenti tufayli kuchli bosim oshqozon yoki diafragmaga emas, balki kerakli mushak guruhlariga aniq qo`llaniladi. Qon aylanishi yaxshilanadi, ya`ni mushaklar ko`proq kislorod bilan ta`minlanadi. Bundan tashqari, tomirlar orqali qonning pompalanishi tufayli varikoz tomirlari ehtimoli kamayadi (1.3- rasmda)

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



1.3-rasm. Qon aylanish sistemasining sxemasi

Yuqoridagi rasmda ko`rinib turibdiki, inson normal tinch turgan, yotgan holda qon odam tanasida bir me`yorda harakatlanadi. Inson harakatga tushganida, sport bilan shug`ullanganida tomirlardagi qon betartib harakatga tushadi. Natijada odam o`zida charchash va ko`p ehtimollar bilan oyoqlarda varikoz tomirlar paydo bo`ladi. Kompression kiyim qo`llanilganda inson tomirlardagi qon bosim natijasida qon betartib harakati cheklanadi. Natijada odamdagi charchoq kamayadi va ish unumi oshadi.

Ilmiy adabiyotlarda kompression sport kiyimlarining samaradorligi bir necha asosiy mexanizmlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, tashqi bosim mushak to‘qimalarida venoz qonning yurakka qaytishini tezlashtiradi.

Ikkinchidan, mushaklar barqarorligi oshib, jarohatlanish xavfi kamayadi.

Uchinchidan, termoregulyatsiya va namlikni boshqarish xususiyatlari sportchining umumiy holatini yaxshilaydi. Mazkur jarayonlarni tushuntirishda fiziologiya va biomekanika fanlarining yutuqlaridan keng foydalaniladi. Zamonaviy tadqiqotlar kompression darajani tananing turli zonalari bo‘yicha differensial tarzda taqsimlash samaraliroq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi vaqtda kompression sport kiyimlari o‘z funksiyasi va qo‘llanilish sohasiga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi: kompression futbolkalar, taytlar, shortlar, yenglar va paypoqlar. Har bir tur ma'lum mushak guruhlariga maxsus yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning bosim darajasi va dizayni sport turining talablariga muvofiq moslashtiriladi. Bu kiyimlar mushaklarni qo‘llab-quvvatlash, qon aylanishini yaxshilash va jarohatlanish xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, har bir komponent sportchining harakat erkinligini saqlab qolgan holda, optimal siqishni ta'minlashga qaratilgan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Bugungi kunda ko`plab professional sportchilar qo`lidagi mahkamlagich, short, leginsi, yugurishda ishlatiladigan maxsus paypoqgacha bo`lgan turli xil kompression kiyimlardan foydalanadilar. Biroq, 1980-yillarda rangli spandeks to`lqini sport zallarini egallaganligi sababli, kompression kiyimlari juda ko`p o`zgarishlarga duch keldi.

Avvaliga uning afzalliklariga namlikni yutish, terlashni tartibga solish, ishqalanish va choklarning botmaslik darajasini kamaytirish, shuningdek, qo`llab-quvvatlashga e`tibor qaratildi. Zamonaviy kompression kiyimlari, aksincha, qon aylanishini oshirish va mushaklarning tebranishini barqarorlashtirish uchun, qo`l va oyoqlarni yetarlicha qattiq siqish uchun mo`ljallangan. Bu esa sportchilar uchun kuch va chidamlilikni oshirish va mashg`ulotlardan tezroq tiklanish haqida yanada dadil da`volarga olib keladi.

Yangi turdagi kompression sport kiyimlari o‘nlab yillar davomida qon quyqalari va qon aylanishining buzilishlarini davolash uchun qo‘llanilgan tibbiy kompression paypoqlardan kelib chiqqan. Ushbu kiyimlarning sportchilar uchun eng muhim afzalliklaridan biri – kechiktirilgan mushak og‘rig‘i sindromining (DOMS – delayed onset muscle soreness) kamaytirilishi va mushaklarning tezroq tiklanishiga yordam berishidir. DOMS – bu g‘ayrioddiy yoki intensiv jismoniy mashqlar natijasida paydo bo‘ladigan mushaklardagi kechiktirilgan og‘riq va noqulaylik holatidir. Kompression kiyimlar mushaklarda qon aylanishini yaxshilash, ortiqcha suyuqlikni chiqarish va yallig‘lanishni kamaytirish orqali tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan kompression sport kiyimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida undan foydalanishda hal qiluvchi omil ikki yo‘nalishda olib boriladigan sport mashg‘ulotlari turi ekanligini ko‘rsatadi, ular umumiy rivojlanish yoki sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat va ixtisoslashtirilgan o‘quv jarayonlaridir.

Olib borilgan tahliliy tadqiqot davomida savdo markazlari va internet-resurslarda mavjud bo‘lgan 100 dan ortiq turli xil markali (Nike, Chanel, Puma, Reebok, Adidas va boshqalar) sport buyumlarini o‘rganish, tahlil qilish va baholash jarayoni amalga oshirildi. Har bir buyum quyidagi mezonlar bo‘yicha: sport turi; buyum turi va maqsadi, assortiment guruhi; materiallarni tolaviy tarkibi; model-konstruktiv yechimlari asosida tahliliy tadqiqotlar o‘tkazildi. Bozor tadqiqotlari va tahliliy ishlar natijasida asosiy brendlarning assortiment va materiallar bo‘yicha farqlari aniqlangan.

Sport kiyimlari bozorida faqat yuqori sifat va innovatsiyalar asosida bir necha brendlar o‘z o‘rnini mustahkamlab, global liderlarga aylangan.

Bizning ro`yxatimizda qayd etilgan brendlar o`nlab yillar davomida talabni saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi. Ular yuqori sifatli mahsulotlar, doimiy innovatsiyalar, muvaffaqiyatli mashhur reklama kompaniyalari va butun dunyo bo`ylab sodiq muxlislar armiyasi bilan munosabatlarni saqlab qolish qobiliyati orqali o`z pozitsiyalarini o`rnatdilar.

Sport kiyimlari sanoatining gigantlari orasida ham ajralib turadigan brend. Nike kompaniyasining «Just do it» shiori hamma uchun tanish, sodda, ammo ifodali, u deyarli butun bir avlodning shioriga aylana oldi. Nike bozorda barcha sport turlari uchun juda ko`p sport kiyimlari va aksessuarlariga ega, ammo sport poyabzali brendning eng mashhur mahsulotlari bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Ammo nafaqat yuqori sifat kompaniya Nike kompaniyasi 1964-yildan beri yuqori

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

sifatli sport mahsulotlari bilan bir qatorda yoshlar madaniyati va moda sohasida ham katta ta'sirga ega bo'lib, brend sifatida global miqyosda muvaffaqiyat qozongan. Xip-hop madaniyati va reklama kampaniyalari orqali Nike yoshlarni jalb qilmoqda. 2022-yil holatiga ko`ra, kompaniyaning sof daromadi 4,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Adidas Germaniyaning kichik shaharchasidagi oilaviy biznesdan sof daromadi 0,72 milliard yevro (2015-yil holatiga ko`ra) bilan dunyodagi eng yirik sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilardan biriga aylanish yo`li oson bo`lmagan va faqat professional sport uchun, shuningdek, moda va uslubni biluvchilar uchun yangi yechimlarni yaratishga doimiy intilish kompaniyaga uni muvaffaqiyatli yengishga imkon berdi. Adidas oilaviy biznes sifatida kichik shaharchada boshlangan, ammo doimiy innovatsiyalar va professional sportga yo'naltirilgan mahsulotlari tufayli dunyoning yetakchi sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilaridan biriga aylangan.

Adidas bugungi kunda kriket, basketbol, golf, tennis, gimnastika, skeytbording, yugurish va boshqa ko`plab sport turlari uchun kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlarga ixtisoslashgan brend va, albatta, jahon darajasidagi futbol janglarining ajralmas qismidir. Shu bilan birga, Adidas brendi va uchta kanonik chiziqlar bilan sport leggingslari, kurtkalar, futbolkalar, qozoqlar, krossovkalar va boshqa ko`p narsalar sport uslubining cho`qqisi hisoblanadi. Adidas o'z mahsulotlarini ko'plab sport turlari uchun ishlab chiqadi va brend futbol olamida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida innovatsiyalarni ilgari suradi.

Puma brendi ostidagi kompaniyada sport anjomlari ishlab chiqariladi, AQSH, Fransiya, Shvetsariya, Ispaniya va Gonkongda korxonalariga ega. Germaniyada ishlab chiqarilgan mahsulotlari 1/3 qismi eksport qilinadi. Ularning kompression kiyim to`plamlari turli xildir – futbolkalar, shimlar, leggins, tizzadan yuqori shortilar. Har bir turi sportning bir yo`nalishiga mos keladi. Puma kompaniyasi global ishlab chiqarish va eksport tarmoqlariga ega bo'lib, sport kiyimlari assortimenti keng va har bir mahsulot turi aniq sport yo'nalishiga moslashtirilgan.

SKINS kompaniyasi kompression kiyim ishlab chiqrishning yoshlari desa bo`ladi. To`g`ri, tibbiy maqsadlarda kompressiyadan foydalanish deyarli bir asrdan beri mavjud. Ammo 90-yillarda aynan SKINS ixtirochisi nafaqat tibbiy kompressiya tamoyillarini, balki sport kontekstida qo`llash haqida o`ylagan va maqsad sari harakat qila boshlagan. SKINS brendi 1990-yillarda paydo bo'lib, tibbiy kompression prinsiplarini sport kiyimlariga tatbiq etishda innovatsion yondashuvni amalga oshirdi, bu esa sportchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

2002-yilda SKINS dunyodagi birinchi kompression sport kiyimlarini bozorga chiqardi. Ko`p yillar davomida professional sportchilar va havaskorlar sport kiyimlarida kompressiya afzalliklaridan bahramand bo`lishmoqda. SKINS kompaniyasi 2002-yilda sport uchun mo'ljallangan birinchi kompression kiyimlarni bozorga chiqarib, sportchilarga yangi imkoniyatlar yaratdi va hozirgi kungacha ushbu texnologiya keng qo'llanilmoqda.

1895-yilda tashkil etilgan va 1958-yilda o`z kompaniyasi sifatida tashkil etilgan Reebok yengil atletika bo`yicha jahon yetakchisi hisoblanadi. Afrika antilopasidan ilhomlangan nom bilan Reebok sifat, ilg`or tadqiqotlar va sportga bo`lgan haqiqiy ishtiyoq

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bilan sinonimdir. Reebok ayollar kiyimlari dinamik, qulay va ko`p qirrali. Reebok ning har bir yangi kolleksiyasi shahar uslubidagi kostyumlar, ustki kiyimlar va nafas oluvchi leggingslardan tortib, amaliylik va sport innovatsiyalarining aralashmasidir. Reebok brendi o‘zining qadimiy tarixiga ega bo‘lib, yengil atletika sohasida yetakchilik qiladi. Brend nomi Afrika antilopasidan ilhomlanib, sifat va sportga bo‘lgan sadoqatni aks ettiradi.

Avstraliyaning 2XU brendi sport kiyimlari innovatsion materiallar va texnologiyalarni afzal ko`rgan va ularni o`z hayoti va sportida muvaffaqiyatli qo`llaydigan sport ishqibozlari va professional sportchilar uchun mo`ljallangan kompaniya. 2XU brendi innovatsion texnologiyalar va materiallarga asoslangan mahsulotlari bilan sport va kundalik hayot uchun mos keladi, ayniqsa uzoq vaqt tik yoki o‘tirib ishlaydiganlar uchun foydalidir. Sport bilan bir qatorda, 2XU dan kundalik hayotda ham foydalanish mumkin, ayniqsa, tik turib yoki o`tirgan holda ko`p vaqt sarflaydiganlar insonlar.

Nike - sport kiyimlari va aksessuarlar bo`yicha eng yirik brendlardan biridir. U 1964 yilda asos solingan bo`lib, bugungi kunda global miqyosda tanilgan. Nike innovatsion texnologiyalar, masalan, «Nike Air» va «Flyknit» kabi materiallardan foydalanadi. Brend, shuningdek, sportchilarni qo`llab-quvvatlash va ularga inspiratsiya berish maqsadida turli xil marketing kompaniyalarini olib boradi. Nikening muvaffaqiyati ko`plab sportchilar va jamoalar bilan hamkorlik qilishida ham yotadi. Nike kompaniyasi 1964-yilda tashkil topib, innovatsion mahsulotlar va kuchli marketing strategiyalari bilan jahon sport kiyimlari bozorida yetakchi o‘rinlarni egallagan. ‘Nike Air’ va ‘Flyknit’ texnologiyalari brendning eng muhim yangiliklaridan biridir.

Adidas - 1949 yilda tashkil etilgan nemis brendi bo`lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida katta obro`ga ega. Adidas «Boost» texnologiyasi bilan mashhur bo`lib, bu material energiyani qayta tiklash imkonini beradi. Brend, shuningdek, ekologik mas`uliyatini oshirish maqsadida qayta ishlangan materiallardan foydalanishga e`tibor qaratmoqda. Adidas o`zining «Originals» liniyasi orqali ko`plab yosh avlodlarga yo`naltirilgan dizaynlar taklif etadi.

Puma 1948 yilda asos solingan bo`lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida o`z o`rnini topgan brenddir. U innovatsion dizaynlar va rang-barang uslublari bilan ajralib turadi. Puma, shuningdek, mashhur sportchilar va mashhurlar bilan hamkorlik qilib, o`z mahsulotlarini yanada jozibador qiladi. Brend «Puma Ignite» va «Puma RS-X» kabi seriyalar orqali sport va moda o`rtasidagi chegara ortidan o`tishni maqsad qiladi. Puma brendi o‘zining innovatsion dizaynlari va keng assortimentdagi mahsulotlari bilan sport va moda bozorida o‘ziga xos o‘rin tutgan.

2XU - avstraliyalik sport kiyimlari brendi bo`lib, yuqori texnologiyali materiallar va innovatsion dizaynlar bilan tanilgan. Brend, asosan, sportchilar uchun funksional kiyimlar ishlab chiqaradi, masalan, kompressiya kiyimlari, sport ko`ylaklari va shimlar. 2XU mahsulotlari yuqori darajadagi chidamlilik, qulaylik va harakat erkinligini ta`minlaydi. Ular shuningdek, sportchilar uchun tikuv usullari va materiallar yordamida mushaklarni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan. 2XU brendi yuqori texnologiyalar va sportchilarga mo‘ljallangan dizaynlarni birlashtirib, sport kiyimlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Reebok-ingliz brendi bo`lib, 1958 yilda tashkil etilgan. U sport va fitnes kiyimlari, shuningdek, poyabzal ishlab chiqaradi. Reebok, o`zining «Classic» va «Cross Fit» seriyalari bilan mashhur. Brend, shuningdek, fitnes va sog`lom turmush tarzini targ`ib qilishga qaratilgan ko`plab marketing kompaniyalarini o`tkazadi. Reebok mahsulotlari, qulaylik va innovatsion dizayn bilan ajralib turadi, shuningdek, jahon bo`ylab ko`plab sportchilar va mashhurlar bilan hamkorlik qiladi.

Skins - kompressiya kiyimlari bo`yicha yetakchi brend hisoblanadi. U 1996 yilda Avstraliyada tashkil etilgan bo`lib, sportchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan mahsulotlarni taklif etadi. Skins kiyimlari mushaklarni qo`llab-quvvatlash, qon aylanishini yaxshilash va tiklanishni tezlashtirishga yordam beradi. Brend yuqori sifatli materiallar va innovatsion texnologiyalar bilan ajralib turadi, bu esa sportchilar uchun qulaylik va maksimal samaradorlikni ta`minlaydi, yuqori sifatli kompression kiyimlari bilan sportchilarning tiklanish va mushaklarni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini yaxshilaydi.

Nike kompression kiyimlarida mushak vibratsiyasini kamaytirish, qon aylanishni yaxshilash va termoregulyatsiyaga katta e’tibor beradi. Nike kompression kiyimlari mushaklarning tebranishini kamaytirishga, qon aylanishini yaxshilashga va termoregulyatsiyani boshqarishga qaratilgan laboratoriya sinovlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Brend professional sportchilar bilan laboratoriya sinovlarini olib boradi.

Adidas kompression kiyimlari anatomik moslashuv va zonali bosim printsiplariga tayangan holda mushaklarni qo‘llab-quvvatlash va optimal harakat imkoniyatlarini yaratadi.

Puma kompaniyasi yengil va qulay sport kiyimlari ishlab chiqarishga katta e’tibor beradi, bu esa sportchilar uchun harakat erkinligini ta’minlaydi.

2XU tibbiy gradiyent kompressiya tamoyillariga asoslangan va sport fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘langan.

Reebok CrossFit va kuch mashqlariga mo‘ljallangan mustahkam va elastik kompression kiyimlar ishlab chiqaradi.

Skins ilmiy asoslangan kompression kiyimlar bo‘yicha yetakchi brendlardan biri bo‘lib, mushaklarni to‘g‘ri pozitsiyada ushlab turishga qaratilgan.

Nike, Adidas, Puma 2XU, Reebok va Skins sport kiyimlari sanoatida global yetakchilar hisoblanadi. Har bir brend o`zining noyob texnologiyalari, dizayn yondashuvlari va marketing strategiyalari bilan ajralib turadi. Ular sportchilik va moda olamida doimiy ravishda innovatsiyalar kiritib, iste`molchilar uchun yuqori sifatli va qulay mahsulotlar taqdim etmoqda. Bu brendlar o`zaro raqobat qilib, sport kiyimlari sanoatini rivojlantirishga katta hissa qo`shmoqda.

Nike, Adidas va Puma brendlari kompression kiyimlar ishlab chiqaradi, lekin ba’zan mahsulotlarning nomi rasmiy katalogda “compression”, “base layer”, “tight” yoki “sleeve” deb belgilanadi,ya’ni bu siqishni qo‘llab-quvvatlash texnologiyalari turli nomlar ostida taqdim etiladi. Masalan, kompression leg sleeve - bu yagona oyog‘ uchun mushaklarni siqish kiyimi bo‘lib, basketbol va boshqa sportlarda ishlatiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kompression sport buyumlarini ishlab chiqishda elastik trikotaj materiallarning strukturaviy, fizik-mexanik va siqish xususiyatlari inson

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

tanasining antropometrik ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Kompression kiyimlarning shinamligi va funksionalligi nafaqat material tarkibi, balki to‘qima turi, elastomer iplar ulushi hamda texnologik parametrlarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida kompression sport kiyimlarida hosil bo‘ladigan me’yorlashgan bosim mushaklarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, harakat samaradorligini oshirishi hamda sportchi organizmiga fiziologik jihatdan ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi. Elastik trikotaj materiallarning deformatsiyalanish va tiklanish jarayonlari tahlili asosida ularning uzoq muddatli ekspluatatsiya jarayonida barqaror ishlash imkoniyatlari belgilab berildi.

O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion kompression sport buyumlarini yaratish imkoniyati mavjudligi aniqlanib, mahalliy xom-ashyodan foydalangan holda yuqori sifatli, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sport va sport-tibbiy kiyimlar assortimentini kengaytirish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish hamda yengil sanoat va sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya ishida olingan ilmiy va amaliy natijalar kompression sport buyumlarini loyihalash, ishlab chiqarish va takomillashtirish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda sportchilar va aholining keng qatlamlari uchun qulay va funksional kiyimlar yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Петрова Н. А. *История и современное развитие мировых спортивных брендов // Экономика и управление*. — 2018. — №3. — С. 48-54
2. Смирнова Т. А. *Анализ мирового рынка спортивной одежды и оборудования // Вестник экономики*. — 2019. — №7. — С. 67-72.
3. Иванов В. И. *Маркетинговые стратегии спортивных брендов // Маркетинг и реклама*. — 2021. — №5. — С. 30-36.
4. Anvarovna, C. D. (2024). TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI SINFLARNING AHAMIYATI

Sobirova Moxira Rasulovna, BuxDPI tayanch doktoranti, Buxoro,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu tadqiqotda talabalarning ijodiy qobilyatlarini takomillashtirishda raqamli sinflarning o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi asosida ijodiy muhit yaratish usullari ko‘rib chiqilib, 4C kompetensiyalari rivoji bilan bog’liq natijalar asoslab beriladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli sinflarning talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishdagi o‘rni va samaradorligini aniqlash hamda ularning pedagogik ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish.

MATERIAL VA METODLAR: tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil metodi – pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish, raqamli ta’lim muhitiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish. Pedagogik kuzatuv – raqamli sinflarda o‘quv jarayonini monitoring qilish. So‘rovnoma va test metodlari – talabalarning ijodiy fikrlash darajasini aniqlash. Tajriba-sinov ishlari – eksperimental va nazorat guruhlarida taqqoslash asosida natijalarni aniqlash. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasasi talabalari tanlandi. Tajriba jarayonida raqamli platformalar (masalan, Google Classroom va Moodle) hamda interaktiv taqdimot vositalaridan foydalanildi.

Tajriba 2 bosqichda amalga oshirildi:

1.Diagnostik bosqich (ijodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash).

2.Formativ bosqich (raqamli metodlar asosida ijodiy topshiriqlarni joriy etish).

NATIJALAR VA MUHOKAMA: rivojlanayotgan raqamli sinflar samarali ta’limni ta’minlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanishni talab etadi. Shu boisdan ham ta’lim jarayonida raqamli muhitni doimiy takomillashtirish, yangi pedagogik va texnologik innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ta’lim shakllarining an’anaviy modelidan raqamli modelga bosqichma-bosqich o’tishini taqazo qiladi. An’anaviy va raqamli sinflar o’rtasidagi asosiy farq, avvalo, ta’lim jarayonini amalga oshiriladigan makon va o’zaro munosabatlar shaklida namoyon bo’ladi

XULOSA: raqamli sinflar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ular o‘quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va innovatsion shaklga keltirib, talabalarning mustaqil va kreativ fikrlashini rag‘batlantiradi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida raqamli sinflarni keng joriy etish, pedagoglarni raqamli kompetensiyalar bilan qurollantirish va ijodiy topshiriqlar bankini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli sinf, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy ta’lim, an’anaviy ta’lim, loyihalar.

ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ КЛАССОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Собирова Мохира Расуловна, базовый докторант Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данном исследовании анализируется роль и возможности цифровых классов в совершенствовании творческих способностей студентов. Рассматриваются способы создания творческой образовательной среды на основе интеграции цифровых технологий и педагогических подходов, а также обосновываются результаты, связанные с развитием компетенций 4C (критическое мышление, креативность, коммуникация и сотрудничество).

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить роль и эффективность цифровых классов в совершенствовании творческих способностей студентов, а также теоретически и практически обосновать их педагогическую значимость.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы: Метод теоретического анализа – изучение педагогической и психологической литературы, анализ научных источников, посвящённых цифровой образовательной среде; Педагогическое наблюдение – мониторинг учебного процесса в условиях цифровых классов; Анкетирование и тестирование – определение уровня творческого мышления студентов; Опытно-экспериментальная работа – сопоставительный анализ результатов экспериментальной и контрольной групп. Объектом исследования выступили студенты высшего образовательного учреждения. В ходе эксперимента использовались цифровые платформы (например, Google Classroom и Moodle), а также интерактивные средства презентации.

Эксперимент проводился в два этапа:

1.Диагностический этап (определение показателей творческих способностей).

2.Формирующий этап (внедрение творческих заданий на основе цифровых методов).

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: развитие цифровых классов требует высокого уровня использования информационно-коммуникационных технологий для обеспечения эффективного обучения. В связи с этим особое значение приобретает постоянное совершенствование цифровой образовательной среды и внедрение новых педагогических и технологических инноваций. Данный процесс предполагает поэтапный переход от традиционной модели обучения к цифровой. Основное различие между традиционными и цифровыми классами проявляется прежде всего в образовательном пространстве и формах взаимодействия между участниками учебного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: цифровые классы являются важным педагогическим фактором в развитии творческих способностей студентов. Они придают учебному процессу интерактивный, гибкий и инновационный характер, стимулируя самостоятельное и креативное мышление обучающихся. В этой связи широкое

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

внедрение цифровых классов в систему высшего образования, развитие цифровых компетенций педагогов и создание банка творческих заданий являются актуальными задачами современной педагогики.

Ключевые слова: цифровой класс, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, дистанционное обучение, традиционное обучение, проекты.

THE IMPORTANCE OF DIGITAL CLASSROOMS IN ENHANCING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES

Sobirova Mokhira Rasulovna, PhD Researcher, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annatation

INTRODUCTION: this study analyzes the role and potential of digital classrooms in enhancing students' creative abilities. It examines methods of creating a creative learning environment through the integration of digital technologies and pedagogical approaches. The findings are substantiated in relation to the development of 4C competencies (critical thinking, creativity, communication, and collaboration).

AIM: the main objective of the research is to determine the role and effectiveness of digital classrooms in improving students' creative abilities and to provide a theoretical and practical justification of their pedagogical significance.

MATERIALS AND METHODS: the following methods were employed in the research process: Theoretical analysis – review of pedagogical and psychological literature, analysis of scientific sources related to the digital learning environment; Pedagogical observation – monitoring of the educational process in digital classrooms; Survey and testing methods – assessment of students' level of creative thinking; Experimental research – comparative analysis of results obtained from experimental and control groups. The research participants were students of a higher education institution. During the experiment, digital platforms such as Google Classroom and Moodle, as well as interactive presentation tools, were utilized.

The experiment was conducted in two stages:

1.Diagnostic stage (identifying indicators of creative abilities).

2.Formative stage (implementation of creative tasks based on digital methods).

RESULTS AND DISCUSSION: the development of digital classrooms requires a high level of integration of information and communication technologies to ensure effective education. Therefore, continuous improvement of the digital learning environment and the introduction of new pedagogical and technological innovations are of significant importance. This process necessitates a gradual transition from the traditional model of education to a digital model. The main difference between traditional and digital classrooms is primarily reflected in the learning space and the forms of interaction among participants in the educational process.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

CONCLUSION: digital classrooms serve as an important pedagogical factor in developing students' creative abilities. They make the learning process interactive, flexible, and innovative, encouraging independent and creative thinking. Therefore, the widespread implementation of digital classrooms in higher education, the development of teachers' digital competencies, and the creation of a bank of creative tasks remain urgent priorities in modern pedagogy.

Keywords: digital classroom, digitalization, information and communication technologies, distance education, traditional education, projects.

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv va raqamli transformatsiya jarayoni hayotning barcha jabhalarida, xususan, Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning an'anaviy va masofaviy shakllarining joriy etilishi natijasida ta'lim mazmuni, ta'limiy yondashuvlar, fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasining o'zgarishini taqozo qilmoqda. Zamonaviy global ta'lim makonida raqamli o'zgarishlar talabalarning o'qish va o'qituvchilarning o'qitish usullarini o'zgartirmoqda. Ushbu o'zgarishlar markazida raqamli sinf texnologiyalarining kundalik ta'limga singdirilgan qulaylik, jalb qilinganlik va samaradorlikni oshiruvchi tizimli o'quv muhiti turibdi. Raqamli sinflar an'anaviy sinflarning zamonaviy ko'rinishi bo'lib, o'quv jarayonining asosiy qismi sifatida texnologiyalarni qamrab oladi.

Raqamli sinflar yordamida o'qituvchilar o'quv tajribasini darsliklarning cheklangan mazmunidan tashqariga olib chiqadi va interaktiv doskalar, planshetlar, noutbuklar hamda boshqa qurilmalar orqali amaliy tajribani boyitadi. O'quvchilar faqatgina kitoblar va ma'ruzalar bilan cheklanib qolmay, balki ularda video, animatsiya va simulyatsiyalar kabi multimedia vositalari yordamida ham bilim olish imkoniyati paydo bo'ladi. Raqamli sinflar turli o'qish uslubiga ega o'quvchilar uchun ta'limni yanada qiziqarli va maroqli qiladi. O'qituvchining vazifasi an'anaviy o'qituvchilikdan o'quvchilarni mustaqil izlanish va loyihalarga yo'naltira oladigan fasilitatorlikka o'zgaradi. O'quvchilar passiv tinglovchidan ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadilar. Ular nafaqat texnologiya bo'yicha ko'nikmalarni egallaydilar, balki loyiha faoliyati orqali tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik[1] qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Raqamli sinf – bu ta'lim jarayonini yaxshilash maqsadida texnologiyalarni sinfga joriy etadigan o'quv muhiti. O'quvchilar uchun kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar va ta'lim dasturlarining barchasi jonli va rag'batlantiruvchi muhitni yaratadi. "Raqamli asrda ta'lim shunchaki bilim uzatish emas, balki bu aloqalarni o'rnatish, qiziquvchanlikni rivojlantirish va talabalarga o'z ta'lim yo'llarini mustaqil ravishda shakllantirish imkoniyatini berishdir. Ta'lim texnologiyalari sohasidagi innovatorlar sifatida bizning vazifamiz texnologiyani poydevor qilib, qiziquvchanlik va bilim o'rtasida ko'prik qurishdir" – deya ta'kidlaydi Deniyel Brayant (Integratsiyalashgan rivojlanish va immersiv

[1] National Research Council. 2012. *Education for Life and Work: Developing Transferable Knowledge and Skills in the 21st Century*. Washington, DC: The National Academies Press. https://doi.org/10.17226/13398

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

texnologiyalar yetakchisi)[2]. Biroq masala faqat qurilmalarda emas, balki ushbu vositalardan foydalanib, talabalarning o‘rganishi va hamkorlik qilishi uchun faol va ilhomlantiruvchi maydon yaratishdadir. Yaxshi loyihalangan raqamli sinf o‘quvchilarining virtual ravishda birgalikda ishlashi, g‘oyalar almashishi va bir-biridan o‘rganishi mumkin bo‘lgan sinflarda raqamli hamkorlikni rivojlantiradi.

Shuni unutmaslik kerakki, raqamli sinflarning imkoniyati katta bo’lib, texnologiyalar an’anaviy o‘qitish usullarining o‘rnini bosuvchi emas, balki qo‘shimcha vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda quyidagi savollar dolzarbligicha qolmoqda:

– Barcha o‘quvchilar uchun samarali raqamli ta’lim muhitini yaratishda texnologiya imkoniyatlaridan qanday foydalanish mumkin?

– Axborot oqimining yuqoriligi tufayli talabalar chalg‘ib ketishi yoki ortiqcha axborot yukiga duch kelishi mumkinmi?

– O‘qituvchilar an’anaviy ta’limni raqamli vositalar bilan qanday maqbul tarzda uyg‘unlashtira oladi?

– Ta’lim tashkilotlarida raqamli sinflarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishi lozim?

– Raqamli sinflar ta’lim oluvchilarning texnologiyalarga asoslanib kelajakka tayyorlashga qaratilgan bo‘lsa-da, ular insonlararo muloqot va muammolarni hal qilishning “amaliy ko‘nikmalari”ni rivojlantiradimi?

Rivojlanayotgan raqamli sinflar samarali ta’limni ta’minlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanishni talab etadi. Shu boisdan ham ta’lim jarayonida raqamli muhitni doimiy takomillashtirish, yangi pedagogik va texnologik innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ta’lim shakllarining an’anaviy modelidan raqamli modelga bosqichma-bosqich o’tishini taqazo qiladi. An’anaviy va raqamli sinflar o’rtasidagi asosiy farq, avvalo, ta’lim jarayonini amalga oshiriladigan makon va o’zaro munosabatlar shaklida namoyon bo’ladi. An’anaviy sinflar o‘qituvchilarning shaxsiy o‘zaro ta’siri va murabbiyligini ta’minlasa, raqamli sinflar o‘quvchi-o‘qituvchi dinamikasiga texnologiyalarni joriy etish orqali ta’limning yangi o‘lchovini taklif etadi.

O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun raqamli sinfning afzalliklari quyidagilar:

a) raqamli sinfda ko‘rsatiladigan interaktiv tarkib tufayli o‘quvchilar ko‘proq qiziqish bildiradilar, bu esa ko‘pincha murakkab mavzularni tushunish va idrok etishni osonlashtiradi. Simulyatsiyalar yordamida talabalar o‘rganilgan tushunchalarni amalda qo‘llashlari mumkin;

b) raqamli sinfda maktablar yopilganda masofaviy ta’lim orqali, shuningdek, mashqlar, konspektlar, o‘quvchilarga o‘z sur’atida o‘rganishga yordam beradigan interaktiv tarkib kabi vositalar yordamida mustaqil ta’lim olish imkoniyati mavjudligi;

d) raqamli sinf davlat va xususiy maktab o‘quvchilari o‘rtasida ko‘p jihatdan tenglikni ta’minlaydi, raqamli tafovutni bartaraf etadi va barcha uchun ta’lim olishga yagona imkoniyat yaratadi.

[2] Daniel D Bryant – Collaborative Realities | LinkedIn

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Demak yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli sinflar, shubhasiz, o‘quv jarayonini to‘ldirish, sinflarni yanada interaktiv va qiziqarli qilish, o‘qituvchilarga real vaqt rejimida kuzatish va ularga samarali ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish orqali o‘quvchilarning akademik natijalarini oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2006). *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs.* San Francisco: Pfeiffer.

2. V.L.Byrd and P.A.Asunda, "Using Evidence Based Practices and Learning to Enhance Critical Thinking Skills in Students Through Data Visualization," 2020 IEEE Frontiers in Education Conference (FIE), Uppsala, Sweden, 2020, pp. 1-9, doi: 10.1109/FIE44824.2020.9274157.

3. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences: Implications for national curriculum policies. *Journal of Curriculum Studies*, *44*(3), 299–321.

4. Голубинская А.В., Демарева В.А. Цифровая педагогика: учебное пособие. – Нижний Новгород: Нижегородкий госуниверситет, 2021

5. Isaksen, S.G., Dorval, K.B., & Treffinger, D.J. (2011). Create Approaches to Problem Solving: A Framework for Innovation and Cange 3rd Edition (3rd ed.).Sage Publication, Ins.

6. SINGLETON, DAVID. "150 People Who Made Scranton Great - Thomas J. Foster". Retrieved 2016-10-14.

7. Pardede, P. (2020). Integrating the 4Cs into EFL Integrated Skills Learning. Journal of English Teaching, 6(1), 71-85.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYANING PEDAGOGIK MOHIYATI

Maxmudova Zebiniso Maksudovna, BuxDPI Pedagogik ta’lim kafedrasi o‘qituvchis, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada o‘qituvchining kasbiy faoliyati deontologik yo‘nalish nuqtayi nazaridan ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Ta’lim munosabatlarini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish jarayonlarida axloqiy-odobiy, huquqiy normalar hamda kasbiy burch va mas’uliyatning ustuvor o‘rni asoslab beriladi. O‘qituvchi faoliyatidagi deontologik yo‘nalishning tarixiy-pedagogik ildizlari ochib berilib, mahalliy va xorijiy olimlarning pedagogik axloq, kasbiy burch va deontologik me’yorlarga oid qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada “O‘qituvchining deontologik kompetensiyasi” tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilib, uning kasbiy kompetensiya tizimidagi o‘rni asoslanadi. Deontologik kompetensiyaning normativ-huquqiy, xulq-atvoriy-tartibga soluvchi hamda axloqiy-axloqiy jihatlari tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchining deontologik me’yorlarga rioya qilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, kasbiy faoliyatda barqarorlikni ta’minlash hamda o‘qituvchining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Maqola xulosalarida o‘qituvchining kasbiy xulq-atvori axloqiy imperativlar va kasbiy standartlar uyg’unligida shakllanishi zarurligi asoslab beriladi.

MAQSAD: o‘qituvchining kasbiy faoliyatida deontologik kompetensiyaning pedagogik mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish, uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini asoslab berish hamda pedagog shaxsining kasbiy-axloqiy mas’uliyatini shakllantirishdagi rolini ochib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy faoliyatida deontologik kompetensiyaning pedagogik mohiyatini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Jumladan, mavzuga oid pedagogik, psixologik va axloqiy yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali deontologik kompetensiyaning nazariy asoslari o‘rganildi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy faoliyatiga doir qarashlarini ani qlash maqsadida so‘rovnoma va intervyu metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy faoliyatida deontologik kompetensiyaning pedagogik mohiyati atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ta’lim tizimida pedagogik deontologiya tamoyillariga rioya etishning zarurligi, o‘qituvchining kasbiy-axloqiy mas’uliyati va kasbiy xulq-atvor madaniyatining ahamiyati asoslab berildi. O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlar, kasbiy burch va pedagogik etikani ta’minlash muhim omil ekanligi ko‘rsatildi.

XULOSA: o‘zbekistonda o‘qituvchining kasbiy faoliyatida deontologik kompetensiyani ta’lim tizimiga integratsiyalash orqali ta’lim jarayonida axloqiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish imkoniyati mavjud. Biroq, pedagogik deontologiya masalalariga yetarli e’tibor qaratish hamda o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy malakasini

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

oshirishda mavjud to‘siqlarni bartaraf etish zarur. Shu bois, deontologik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO‘ZLAR: o‘qituvchi kasbiy faoliyati, pedagogik deontologiya, kasbiy burch, axloqiy-axloqiy me’yorlar, huquqiy normalar, deontologik kompetensiya, ta’lim munosabatlari, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, kasbiy mas’uliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУТЬ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Махмудова Зебинисо Максудовна, Бухарский государственный педагогический институт преподаватель кафедры педагогического образования., Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в этой статье анализируется профессиональная деятельность учителя с точки зрения деонтологической ориентации. В процессах гуманизации и демократизации образовательных отношений, этики, правовых норм подтверждается приоритетная роль профессионального долга и ответственности. Раскрываются исторические и педагогические корни деонтологического направления преподавания, анализируются взгляды местных и зарубежных учёных на педагогическую этику, профессиональный долг и деонтологические нормы. В статье объясняется суть понятия «деонтологическая компетентность учителя» и подтверждается его роль в системе профессиональной компетентности. Нормативно-правовые, поведенческо-регуляторные, моральные и этические аспекты деонтологической компетентности систематически рассматриваются. Результаты исследования показывают, что соблюдение деонтологических норм учителем является важным фактором повышения эффективности образовательного процесса, обеспечения стабильности профессиональной деятельности и социального и личностного развития учителя. Резюме статьи подтверждают необходимость формирования профессионального поведения учителя в сочетании моральных императивов и профессиональных стандартов.

ЦЕЛЬ: теоретический анализ педагогической сути деонтологической компетентности в профессиональной деятельности учителя, обоснование её роли и значимости в образовательном процессе, а также раскрытие роли учителя в формировании профессиональной и этической ответственности учителя.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в этой статье используются различные методы исследования для изучения педагогической сути деонтологической компетентности в профессиональной деятельности преподавателей. В частности, теоретические основы деонтологической компетентности изучались через анализ научной литературы по педагогическим, психологическим и этическим направлениям по данной теме. Кроме того, для оценки мнения учителей об их профессиональной и этической деятельности использовались анкеты и методы интервью.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в статье анализируется педагогическая суть деонтологической компетентности в профессиональной деятельности учителя. В ходе исследований была подтверждена необходимость соблюдения принципов педагогической деонтологии в системе образования, важность профессиональной и этической ответственности учителя и культура профессионального поведения. Показано, что в системе образования Узбекистана важным фактором является обеспечение моральных норм, профессиональной обязанности и педагогической этики в профессиональной деятельности учителей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в Узбекистане есть возможность устранить этические и социальные проблемы в образовательном процессе путём интеграции деонтологической компетентности в профессиональную деятельность учителей в систему образования. Однако необходимо уделять должное внимание вопросам педагогической деонтологии и устранять существующие препятствия на пути повышения профессиональной и этической квалификации учителей. В этом отношении важно внедрять систематические и целенаправленные меры, направленные на развитие деонтологической компетенции.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: профессиональная деятельность учителя, педагогическая деонтология, профессиональный долг, этические и этические стандарты, правовые нормы, деонтологическая компетентность, образовательные отношения, гуманизация, демократизация, профессиональная ответственность.

PEDAGOGICAL ESSENCE OF DEONTOLOGICAL COMPETENCE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER

Makhmudova Zebiniso Maksudovna, Bukhara State Pedagogical Institute Lecturer of the Department of Pedagogical Education, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION.: this article analyzes the professional activity of a teacher from the point of view of deontological orientation. In the processes of humanization and democratization of educational relations, ethics, legal norms, the priority role of professional duty and responsibility is confirmed. The historical and pedagogical roots of the deontological direction of teaching are revealed, the views of local and foreign scientists on pedagogical ethics, professional duty and deontological norms. The article explains the essence of the concept of "deontological competence of a teacher" and confirms his role in the system of professional competence. Normative-legal, behavioral-regulatory, moral and ethical aspects of deontological competence are systematically considered. The results of the study show that compliance with deontological norms by the teacher is an important factor in increasing the effectiveness of the educational process, ensuring the stability of professional activity and social and personal development of the teacher. Abstracts of the article confirm the need for the formation of professional behavior of a teacher in a combination of moral imperatives and professional standards.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

AIM: theoretical analysis of the pedagogical essence of deontological competence in the professional activity of a teacher, substantiation of its role and significance in the educational process, as well as disclosure of the role of the teacher in the formation of professional and ethical responsibility of the teacher.

MATERIALS AND METHODS: this article uses various research methods to study the pedagogical essence of deontological competence in the professional activity of teachers. In particular, the theoretical foundations of deontological competence were studied through the analysis of scientific literature on pedagogical, psychological and ethical areas on this topic. In addition, questionnaires and interview methods were used to assess teachers' opinions about their professional and ethical activities.

DISCUSSION AND RESULTS: the article analyzes the pedagogical essence of deontological competence in the professional activity of a teacher. In the course of the research, the need to comply with the principles of pedagogical deontology in the education system, the importance of the professional and ethical responsibility of the teacher and the culture of professional behavior were confirmed. It is shown that in the education system of Uzbekistan, an important factor is the provision of moral norms, professional duty and pedagogical ethics in the professional activity of teachers. CONCLUSION: In Uzbekistan, there is an opportunity to eliminate ethical and social problems in the educational process by integrating deontological competence into the professional activities of teachers in the education system. However, it is necessary to pay due attention to the issues of pedagogical deontology and to remove existing obstacles to improving the professional and ethical qualifications of teachers. In this regard, it is important to implement systematic and targeted measures aimed at the development of deontological competence

Keywords: professional activity of a teacher, pedagogical deontology, professional duty, ethical and ethical standards, legal norms, deontological competence, educational relations, humanization, democratization, professional responsibility.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati sohasining xususiyatlari, axloqiy-axloqiy, huquqiy normalar va qoidalarning ustuvorligi g’oyasi asosida ta’lim munosabatlarini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish jarayonlari, o‘qituvchining kasbiy burchini anglashi va o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarligi bilan belgilanadi. O‘qituvchi faoliyatidagi deontologik yo‘nalishning tarixiy va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy mualliflarning axloq muammolariga, pedagogik faoliyatning deontologik jihatlarini asoslashga bag’ishlangan asarlarining sharhi o‘tkazildi. O‘qituvchining deontologik me’yorlarga rioya qilishi uning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishidagi muvaffaqiyatni belgilab berishi, o‘z faoliyatini va ta’lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish samaradorligini ta’minlashi ko‘rsatilgan. O‘qituvchining kasbiy faoliyatini deontologik postulatlarga rioya qilishga yo‘naltiruvchi tamoyillar ochib berilgan; o‘qituvchining kasbiy faoliyati uchun deontologik talablar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

belgilanadi. "O‘qituvchining deontologik kompetentsiyasi" tushunchasiga ta’rif berilgan. Ushbu hodisani strukturalashtirishning mohiyati bo‘lgan o‘qituvchining deontologik kompetentsiyasini o‘rganishning asosiy jihatlari (normativ-huquqiy, xulq-atvor- tartibga solish, axloqiy-axloqiy) ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘qituvchining deontologik kompetentsiyasini rivojlantirishda o‘qituvchining xulqatvor traektoriyasida axloqiy va axloqiy imperativlarga rioya qilish ustuvorligi bilan ta’lim sohasidagi kasbiy standart talablari va boshqa me’yoriy hujjatlar bajarilishini boshqarishi kerakligi aniqlandi.

Ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida ro‘y berayotgan chuqur modernizatsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ushbu modeldagi ustuvor rol ta’lim tizimiga eng muhim ijtimoiy muassasa sifatida berilgan bo‘lib, uning faoliyati o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga, ta’lim sifatiga erishish va ta’lim xizmatlari iste’molchilarini qondirish maqsadida innovatsion ta’lim traektoriyalarini amalga oshirishga qaratilgan. Davlat ta’lim siyosati va ta’lim sohasidagi huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari sifatida belgilaydi: axloqiy-odob me’yorlari, me’yor va qoidalarga rioya qilish asosida ta’limni boshqarishning demokratik mohiyati, o‘zini ifoda etish va qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish qobiliyatiga ega shaxsning o‘ziga xosligi va qadrqimmatini tan olish. Aynan zamonaviy voqeliklar sharoitidagi axloqiy-odob qoidalari o‘qituvchining tarbiyaviy sa’y-harakatlari vektorini o‘quvchining shaxsini uyg’un va har tomonlama rivojlantirish tekisligida yo‘naltirishga imkon beradigan pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim modeli sharoitida o‘qituvchi nafaqat bilimlarning tarjimoni, balki pedagogik ishning professional va deontologik tekisligida yotadigan rolli xulq-atvorga asoslangan o‘quvchilarning ta’lim faoliyati dirijyorining funktsiyalarini o‘quv jarayonida amalga oshirishni ta’minlaydigan shaxsdir. Shu munosabat bilan deontologik me’yorlar muayyan pedagogik vaziyatlarda pedagogik majburiyat va faoliyat natijalari uchun mas’uliyat jihatidan professional standart talablarini bajarilishini ta’minlovchi ko‘rsatma va muayyan pedagogik vaziyatlarni cheklovchilar rolini o‘ynaydi.

Tarixiy rivojlanishning turli davrlarida mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar, uning kasbiy burchini bajarishi bilan bog’liq masalalar (Suqrot, Kvintilian, Ya.A. Komenskiy, J. Lokk, J.-J. Russo, I. Deontologik yo‘nalish mazmunini anglash va aniqlash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan G.Pestalozzi, A.I.Gersen, K.D.Ushinskiy, N.G.Chernishevskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqalar). pedagogikada. Shunday qilib, I.G. Pestalozzi, o‘qituvchining vazifasi jamiyat uchun foydali va barkamol shaxsni shakllantirishdir. Shu bilan birga, muallif avtoritarizmni istisno qilish va haddan tashqari tartibga solish tufayli muassasadagi qulay atmosfera o‘qituvchi asosiy mavzu deb hisoblaydi. K. D. Ushinskiy tarbiyachining vazifasi haqida gapirar ekan, uning asosiy vazifasi o‘quvchining shaxsiyatini barcha xilma-xilligida o‘rganish va bilish istagi bo‘lishi kerak, bu unga pedagogik ta’sir mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi. A.S.ning pozitsiyasi Makarenko o‘qituvchi muayyan harakatlar va amallarni bajarib, uni ongli ravishda bajarishi, takt, shaxsga nisbatan talabchanlik va hurmat munosabati, o‘zaro ishonch va mas’uliyat kombinatsiyasi kabi fazilatlarga tayanishi kerakligi bilan bog’liq. Shu bilan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

birga, mas'uliyat ma'lum bir jamoa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning namoyonidir va deontologik (huquqiy, axloqiy, xulq-atvorli) aksiomalar (M.I.Starov) makonida joylashgan ijtimoiy ahamiyatga ega me'yorlarni tushunish bilan tavsiflanadi. Birinchi marta "deontologiya" atamasi D. Bentemning asarlarida ishlatilgan bo'lib, u uni inson u yoki bu harakatni amalga oshirish orqali keltirishi kerak bo'lgan foyda nuqtai nazaridan aniqlagan. "Pedagogik deontologiya" tushunchasini yangilab, bir qator mualliflar (G.M.Kertaeva, G.M.Kodjaspirova, L.E.Kuderina, K.M.Levitan) uni kasbiy burch talablariga muvofiq o'qituvchi xatti-harakatlari prizmasi orqali sharhlaydilar. Shu bilan birga, pedagogik deontologiya talablari o'qituvchining kasbiy ongini talaba (ta'lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari) taqdiriga aralashishga, ishonch, hamdardlik va adolat tamoyillariga rioya qilishga yo'naltiradi. Ishonch printsipi o'qituvchi faoliyatini o'quvchilar bilan o'zaro bir-birini qabul qilish, kiruvchi ma'lumotlar va o'ziga xos vaziyatlarda o'zini tutish uslublari asosida munosabatlarni o'rnatishga yo'naltiradi; hamdardlik printsipi o'qituvchi va o'quvchining ma'naviy birligini yagona axloqiy-axloqiy yo'nalish, o'zaro tushunish va ta'sir asosida qabul qiladi; adolat printsipi o'qituvchi bir tomondan tarafkashlik va boshqa tomondan ortiqcha baho berishni istisno qilgan holda o'quvchilarni haqiqiy xizmatiga qarab baholashini nazarda tutadi. Tanlangan printsiplar asosida pedagogik faoliyatning deontologik jihati nuqtai nazaridan o'qituvchiga qo'yiladigan ustuvor talablar quyidagilardan iborat: o'qituvchi shaxsining gumanistik yo'nalishi, uning doirasida pedagogik harakatlarni anglash va interiorizatsiya qilish, axloqiy ko'rsatmalarni mustahkamlash; o'qituvchiga pedagogik faoliyatni amalga oshirishga va kasbiy burchiga muvofiq barqaror xatti-harakatni ta'minlashga imkon beradigan professional va shaxsiy deontologik fazilatlarning mavjudligi; o'qituvchining deontologik pozitsiyasi kasbiy faoliyatning axloqiy yo'nalishi, ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvorida namoyon bo'lgan, o'qituvchining kasbiy va pedagogik burchini anglashi, bu sohada, o'ziga va talabalarga ta'lim makonining faol sub'ektlari sifatida tushunishi asosida ta'limga bo'lgan munosabatining integratsiyasi sifatida. Yuqoridagi talablar o'qituvchining rol va xulq-atvori, uning ijtimoiy va kasbiy yutuqlarini, shaxsiy rivojlanish va o'sish traektoriyasining samaradorligini belgilaydigan ko'rsatmalar bo'lib, o'qituvchining deontologik kompetentsiyasini tavsiflaydi. Deontologik kompetentsiya - bu pedagogik adabiyotda (A.A. Derkach, A.K. Markova, V.D. Ivanov, Yu.G. Kuznetsov, E. asarlari) ancha keng ilmiy va nazariy tushunchalarni olgan keng ko'lamli ta'limning - kasbiy kompetentsiyaning muhim qismidir. I. Ogareva va boshqalar).

"Deontologik kompetensiya" tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, biz N.A. Filatova, u o'qituvchining kasbiy faoliyat normalari va qoidalariga rioya qilish asosida kasbiy faoliyatga nazariy, amaliy va shaxsiy tayyorligidan iborat bo'lgan ajralmas sub'ektiv xarakteristikani ifodalaydi. O.S.ning tushunchasida Bykova, E.V. Kostomarova, deontologik kompetentsiya - bu shaxsning kasbiy burchini bajarishga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan bilim, qobiliyat, ko'nikma, g'oyaviy-axloqiy ideal va kasbiy xulq-atvor normalarini o'z ichiga olgan tizimli shaxsiy sifat. "O'qituvchining deontologik kompetentsiyasi" kontseptsiyasini talqin qilish bo'yicha pozitsiyamizda biz bu kompetentsiyalar tizimining mavjudligi bilan ajralib turadigan, shaxsiy hayotga oid integral

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ta'lim ekanligidan kelib chiqamiz va pedagogik ishning huquqiy va axloqiy-axloqiy jihatlari, muvofiqlik va etishtirishni ta'minlaydigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarni aks ettiradi. ongli kasbiy burchga asoslangan kasbiy xatti-harakatlar normalari va qoidalarining ta'lim makonida. Deontologik kompetentsiya mazmunini o'rganib chiqib, biz uning muammoli sohasida ushbu kontseptsiyaning keyingi tarkibiy kelishuvining mohiyatini tashkil etadigan tadqiqotning ustuvor tomonlarini ajratib ko'rsatamiz: normativ-huquqiy, xulq-atvor, axloqiy.

Ta'lim sohasidagi zamonaviy davlat siyosati ta'lim munosabatlarining barcha ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga olgan holda ta'lim munosabatlarini insonparvarlashtirishni, ta'limning demokratik xususiyatini ta'minlashga qaratilgan. Bu ta'lim tizimining barcha sub'ektlari uchun majburiy bo'lgan pedagogik xodimlarning vazifalari va majburiyatlarini ta'lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari faoliyati uchun mas'ul bo'lgan ta'lim g'oyalarining asosiy dirijyori sifatida belgilaydi: huquqiy, axloqiy va axloqiy me'yorlarga rioya qilish, kasbiy axloq qoidalariga rioya qilish, talabalar va boshqa ta'lim sub'ektlarining sha'ni va qadrqimmatini hurmat qilish. O'qituvchining kasbiy sifatlari ,o'qituvchining turli xil professional funktsiyalarni bajarishda faoliyatini, bolalarning madaniy farqlarini hisobga olgan holda, ularning qadr-qimmatini tan olish, qulay muhit yaratish asosida ta'lim faoliyatini tashkil etishni tartibga soladi. ta'lim muhitida; talabalarning shaxsiy va yosh ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy, axloqiy va axloqiy - professional standartlarga rioya qilish, ta'lim yo'nalishlarini amalga oshirish. Shubhasiz, ushbu hujjat o'qituvchini o'qitish va uning kasbiy muvofiqligi uchun ko'rsatma bo'lib, uning rivojlanish traektoriyasini, shu jumladan deontologik kompetentsiyani shakllantirishning asosiy yo'nalishini belgilaydi. O'qituvchining deontologik kompetentsiyasining me'yoriy-huquqiy jihati mazmunini tahlil qilib, yangi qonunchilik ta'limi tashabbuslari o'qituvchining kasbiy faoliyatining axloqiy-axloqiy ustuvorliklariga asoslangan gumanistik tarkibiy qismiga e'tiborni qaratayotganiga e'tibor qarataylik. Deontologik kompetentsiyani o'rganishning xulq-atvor va tartibga solish jihatlari o'qituvchining xulq-atvorining ekologik salbiy omillar ta'siriga individual barqarorligini ta'minlash, kasbiy faoliyatda psixologik va xulq-atvor barqarorligini saqlash g'oyalariga asoslanadi. Bunday holda biz o'qituvchining pedagogik vaziyatlarda xulq-atvori bilan javob berish shakllarini amalga oshirish qobiliyati tufayli uning barqarorligini o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Ko'rinib turibdiki, pedagogik faoliyat an'anaviy, normativ xulq-atvor shakllarining o'zgarishiga olib keladigan, o'ziga xos xulq-atvor reaktsiyalarini keltirib chiqaradigan va shaxsning ruhiy holatini beqarorlashtiradigan qiyin, ko'pincha stressli vaziyatlarga to'la. Shuning uchun o'qituvchi vaziyatni rivojlantirish variantlarini bashorat qilish, o'zini tutish yo'nalishini va ta'lim munosabatlaridagi boshqa ishtirokchilarning harakatlarini loyihalash, shaxsiy barqarorlikni saqlash bilan bog'liq profilaktik harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

1) ta'lim tizimida yuz beradigan o'zgarishlarga javob berishga tayyorligi,
2) tanlangan xulq-atvor marshrutining to'g'riligiga ishonch,
3) xulq-atvorga javob berish variantlarini tanlashda mustaqillik,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

4) muammolardan foydalanish orqali o‘zlarining ruhiy holatlarini tartibga solish qobiliyati. kasbiy faoliyatning huquqiy va axloqiy postulatlariga rioya qilish chegaralarida qolish, yo‘naltirilgan kurashish.

Deontologik kompetentsiyani o‘rganishning axloqiy-axloqiy jihati mazmuni haqida gapirganda, biz pedagogik faoliyat sohasi noyob axloqiy makonni ifodalaydi, uning axloqiy asoslarini va o‘qituvchining ta’lim harakatlarini qo‘llash xususiyatlari va ta’lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi rolini bajarishini ta’kidlaymiz. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi pedagogik tanlov jarayonida axloqiy fazilatlarga va axloqiy javobgarlikka ega bo‘lishi kerakligi aniq. Insonning axloqiy fazilatlari bo‘yicha tadqiqotlarni chuqur tahlil qilmasdan (bu jihat V.S.Bibler, N.I.Boldyrev, E.V. Bondarevskaya, E.N.Barishnikova, I.A.Kolesnikova, P.M. asarlarida etarlicha batafsil bayon etilgan) Yakobson, N.A. Jukovskaya, A.V. Korostenya va boshqalar), ularning asosiy mohiyati jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy va axloqiy talablarni bajarish uchun ichki ongli ehtiyojni tasdiqlashda ekanligini ta’kidlaymiz, bu esa axloqiy javobgarlik asosida pedagogik faoliyatni rag’batlantirishga imkon beradi. Biz G.V.ning bayonotini ko‘rib chiqamiz Atamanchuk, kimning ma’naviy javobgarligi umuman javobgarlikni sifat jihatidan o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaydi deb hisoblaydi. Muallif fikrini davom ettirib, biz bu faoliyatga buzg’unchilik munosabati, qaramaqarshiliklarni hal qila olmaslik va muvaffaqiyatga erishishga olib keladi, deb hisoblaymiz. Biz axloqiy javobgarlikni o‘qituvchining ijtimoiy va axloqiy talablarni o‘zlashtirishi, jamoatchilik deb tushunamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: курс лекций. – М.: Омега-Л, 2006. – 584 с.
2. Быкова С.С. Формирование деонтологической компетентности у будущих педагогов в системе профессионального образования // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. 2012. – Т. 3. – № 4. – С. 37–41.
3. Жуковский В.П., Ильковская И.М. Деонтологический аспект педагогической деятельности: новые ориентиры ролевого поведения учителя // Актуальные проблемы воспитания детей и молодежи в современной России: сб. науч. статей. – Саратов: Поволжский институт управления имени П.А. Столыпина, 2013. – С. 33–38.
4. Жуковский В.П. Трансситуативная устойчивость поведения педагога в современном образовательном пространстве: теоретико-методологические основания развития // Единая образовательная среда как фактор социализации обучающихся: сб. материалов науч.-практ. конф. Ч. 1. – Саратов: СОИРО, 2015. – С. 173–178.
5. Кертаева К.М. Основы педагогической деонтологии. Алматы, 2002. – 238 с.
6. Костомарова Е.В. Деонтологическая компетентность студента-медика как фактор успешность профессиональной деятельности врача // Известия

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Волгоградского государственного педагогического университета. – 2014. – № 4 (89). – С. 134–138.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

ERTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Bozorova Risolat Abdurahmonovna, Buxoro tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh metodisti, Buxoro, O‘zbekiston
Kamilova Gulmira Alimovna, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kommunikativ ko‘nikmalar tushunchasi, uning bolalar shaxsiy rivojidagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi. Erta yosh davrida nutq, muloqot, ijtimoiy moslashuv va emotsional rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar, o‘yin faoliyatining imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada tarbiyachining kommunikativ faoliyatni tashkil etishdagi roli, bolalar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish omillari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, ularning rivojlanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda samarali metod va vositalarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, quyidagi vazifalar ko‘zda tutiladi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini o‘rganish;

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

Ta’lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining samaradorligini asoslash

MATERIALLAR VA METODLAR: erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, suhbat metodlari, dramatizatsiya, ertak terapiyasi, musiqiy va harakatli o‘yinlardan samarali foydalanildi. Ushbu metodlar bolalarning nutqiy faolligini oshirish, lug‘at boyligini kengaytirish va ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi material va metodlardan foydalanildi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va bolalar psixologiyasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar; Davlat maktabgacha ta’lim standartlari va dasturlari; Ilmiy maqolalar, metodik qo‘llanmalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar. Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslarida nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, suhbat va savol-javob; o‘yin faoliyatini tahlil qilish, taqqoslash va tajriba-sinov ishlari metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, erta yosh davrida kommunikativ ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli ravishda shakllantirish bolalarning nutq rivoji hamda ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan: bolalarda o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyati shakllandi; tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

faolligi oshdi, tinglash va suhbatdoshni tushunish madaniyati rivojlandi; jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko‘nikmalari mustahkamlandi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda oilaviy muhit, tarbiyachining nutq madaniyati, ijobiy psixologik iqlim va o‘yin faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi: bolalarning nutqiy rivojlanishidagi individual farqlar, ota-onalarning pedagogik savodxonligi yetarli emasligi, raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanish natijasida jonli muloqotning kamayishi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun pedagog va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish, nutqni rivojlantiruvchi o‘yin va mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish hamda kommunikativ muhitni boyitish zarur.

XULOSA: erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon ilmiy asoslangan pedagogik yondashuv, o‘yin faoliyati va ijobiy ijtimoiy muhit orqali samarali amalga oshiriladi. Kommunikativ kompetensiyani erta bosqichda rivojlantirish bolalarning keyingi ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashuvi, ijtimoiy faol va madaniyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: erta yosh, kommunikativ ko‘nikmalar, muloqot madaniyati, nutq rivoji, ijtimoiy moslashuv, pedagogik asoslar, maktabgacha ta’lim, o‘yin faoliyati, tarbiyachi, emotsional rivojlanish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА

Бозорова Рисолат Абдурахмоновна, главный методист отдела координации деятельности организаций дошкольного образования отдела дошкольного и школьного образования Бухарского района, Бухара, Узбекистан
Камилова Гульмира Алимовна, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье научно-теоретически проанализированы педагогические основы формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста. В исследовании раскрывается сущность понятия «коммуникативные навыки», их роль и значение в личностном развитии ребёнка. Обоснована взаимосвязь речевого развития, общения, социальной адаптации и эмоционального развития в раннем возрасте. Также освещены педагогические условия, методы и приёмы, а также возможности игровой деятельности, способствующие развитию культуры общения у детей в процессе дошкольного образования. В статье проанализирована роль воспитателя в организации коммуникативной деятельности, факторы установления эффективного взаимодействия с детьми и современные педагогические подходы.

ЦЕЛЬ: основная цель данного исследования заключается в выявлении педагогических основ формирования коммуникативных навыков у детей раннего

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

возраста, научном обосновании механизмов их развития, а также разработке эффективных методов и средств. Также предусматриваются следующие задачи:

изучение психолого-педагогических особенностей развития коммуникативных навыков у детей дошкольного возраста;

выявление факторов, влияющих на развитие коммуникативной компетенции;

обоснование эффективности интерактивных методов и игровых технологий в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: при формировании коммуникативных навыков у детей раннего возраста эффективно использовались ролевые игры, дидактические игры, методы беседы, драматизация, сказкотерапия, музыкальные и подвижные игры. Данные методы способствуют повышению речевой активности детей, расширению словарного запаса и развитию культуры социального общения. В ходе исследования использованы научные труды по педагогике дошкольного образования и детской психологии, государственные стандарты и программы дошкольного образования, научные статьи, методические пособия и передовой педагогический опыт. В качестве методов исследования применялись теоретический анализ и обобщение, педагогическое наблюдение, беседа и вопрос-ответ, анализ игровой деятельности, сравнительный метод, а также опытно-экспериментальная работа.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты исследования показали, что целенаправленное и систематическое формирование коммуникативных навыков в раннем возрасте положительно влияет на речевое развитие и социальную адаптацию детей. В частности: сформировалась способность свободно выражать свои мысли; повысилась активность в общении со сверстниками и взрослыми; развилась культура слушания и понимания собеседника; укрепились навыки участия в коллективной деятельности. В ходе обсуждения выявлено, что важными факторами развития коммуникативных навыков являются семейная среда, речевая культура воспитателя, благоприятный психологический климат и правильная организация игровой деятельности. Вместе с тем были выявлены и некоторые проблемы: индивидуальные различия в речевом развитии детей, недостаточная педагогическая грамотность родителей, снижение живого общения вследствие чрезмерного использования цифровых устройств. Для устранения данных проблем необходимо укреплять сотрудничество педагогов и родителей, систематически организовывать речеразвивающие игры и занятия, а также обогащать коммуникативную среду.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование коммуникативных навыков у детей раннего возраста имеет важное значение для их личностного становления. Данный процесс эффективно реализуется на основе научно обоснованного педагогического подхода, игровой деятельности и благоприятной социальной среды. Развитие коммуникативной компетенции на раннем этапе создаёт основу для успешной адаптации ребёнка к последующему образовательному процессу и формирования социально активной и культурной личности.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Ключевые слова: ранний возраст, коммуникативные навыки, культура общения, речевое развитие, социальная адаптация, педагогические основы, дошкольное образование, игровая деятельность, воспитатель, эмоциональное развитие.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING COMMUNICATIVE SKILLS IN EARLY CHILDHOOD

Bozorova Risolat Abdurahmonovna, Chief Methodologist of the Department for Coordination of Preschool Education Institutions under the Department of Preschool and School Education of Bukhara District, Bukhara, Uzbekistan
Kamilova Gulmira Alimovna, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the pedagogical foundations of forming communicative skills in early childhood from a scientific and theoretical perspective. The study reveals the concept of communicative skills and their significance in the personal development of young children. The interrelation between speech development, communication, social adaptation, and emotional growth in early childhood is substantiated. In addition, the article highlights pedagogical conditions, methods, and techniques that contribute to the development of communication culture in preschool education, as well as the potential of play-based activities. Special attention is paid to the role of the teacher in organizing communicative activities, establishing effective interaction with children, and applying modern pedagogical approaches

AIM: the main objective of this study is to identify the pedagogical foundations for developing communicative skills in early childhood, to scientifically substantiate the mechanisms of their development, and to design effective methods and tools. Additionally, the study aims to:

examine the psychological and pedagogical characteristics of communication skills in preschool children;

identify factors influencing the development of communicative competence;

justify the effectiveness of interactive methods and game-based technologies in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: in the process of developing communicative skills in early childhood, role-playing games, didactic games, conversation methods, dramatization, fairy-tale therapy, musical and movement-based games were effectively used. These methods contribute to increasing children's speech activity, expanding their vocabulary, and fostering a culture of social communication. The research was based on scientific literature in preschool pedagogy and child psychology, State standards and curricula for preschool education, scientific articles, methodological manuals, and advanced pedagogical practices. The following research methods were applied in studying the pedagogical foundations of communicative skill development in early

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

childhood: theoretical analysis and generalization, pedagogical observation, interviews and question-answer techniques, analysis of play activities, comparative analysis, and experimental research methods.

RESULTS AND DISCUSSION: the research findings demonstrated that the purposeful and systematic development of communicative skills in early childhood has a positive impact on children's speech development and social adaptation. In particular: children developed the ability to express their thoughts freely; communication activity with peers and adults increased; listening skills and understanding of interlocutors improved; skills of participation in group activities were strengthened. The discussion revealed that family environment, the educator's speech culture, a positive psychological climate, and the proper organization of play activities are significant factors in the development of communicative skills. At the same time, several challenges were identified: individual differences in children's speech development, insufficient pedagogical literacy of parents, and a decrease in live communication due to excessive use of digital devices. To address these issues, it is necessary to strengthen cooperation between educators and parents, systematically organize speech-development games and activities, and enrich the communicative environment.

CONCLUSION: the formation of communicative skills in early childhood plays a crucial role in children's personal development. This process is effectively implemented through scientifically grounded pedagogical approaches, play activities, and a positive social environment. The early development of communicative competence provides a foundation for successful adaptation to subsequent stages of education and contributes to the formation of a socially active and culturally developed individual.

Keywords: early childhood, communicative skills, communication culture, speech development, social adaptation, pedagogical foundations, preschool education, play activity, educator, emotional development.

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi shaxsning muloqotga kirishish, o‘z fikrini erkin va ravon ifodalash, atrofdagilar bilan samarali munosabat o‘rnatish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, erta yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanib, aynan shu davrda kommunikativ ko‘nikmalarning poydevori yaratiladi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning keyingi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi hamda emotsional barqarorligi ko‘p jihatdan erta yoshda shakllangan muloqot tajribasiga bog‘liq bo‘ladi.

Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar, avvalo, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida rivojlanadi. Nutqni tushunish va undan foydalanish, imo-ishora, mimika, hissiy ifodalar orqali o‘z ehtiyoj va his-tuyg‘ularini bildirish bolaning ijtimoiy tajribani egallashida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

tizimida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi ustuvor pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar erta yoshdagi bolalarda kommunikativ rivojlanishni ta’minlash uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratishni, ta’lim jarayonida o‘yin faoliyatidan samarali foydalanishni, bolaga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llashni talab etadi. Tarbiyachining nutq madaniyati, bolalar bilan muloqot uslubi, ijobiy emotsional muhitni tashkil etishi kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omillardan hisoblanadi. **R**aqamli transformatsiya va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri sifatida qaralmoqda, chunki kommunikativ kompetensiya nafaqat til va nutq ko‘nikmalarini, balki shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lish, jamiyatda moslashish, o‘z fikrini erkin ifoda etish, ijtimoiy-madaniy kontekstlarda to‘g‘ri harakat qilish kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu boradagi nazariy yondashuvlar, jumladan, Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya modeli, shuningdek, Canale va Swain, Bachman kabi olimlarning konseptual ishlanmalari ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini chuqur ochib beradi. Hymesning fikricha, kommunikativ kompetensiya bu – nafaqat tilni grammatik jihatdan bilish, balki uni ijtimoiy jihatdan mos ravishda qo‘llay olishdir. Zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ kompetensiya shaxsning o‘zaro muloqotga kirisha olish, fikrni ifoda eta olish, turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqni moslashtira olish qobiliyatlaridan iborat kompleks tuzilma sifatida talqin etiladi Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining keng kirib kelishi, bolalarning real muloqotdan ko‘ra virtual muhitga ko‘proq jalb etilishi kommunikativ rivojlanishda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa erta yoshdan boshlab bolalarda jonli muloqot ehtiyojini shakllantirish, nutq faolligini oshirish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi pedagogika va rivojlanish psixologiyasi fanlarida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ rivojlanish bolaning umumiy shaxsiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin kabi olimlarning ilmiy qarashlarida muloqot bolaning psixik rivojlanishida yetakchi omil sifatida e’tirof etiladi. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi erta yoshdagi bolalarda nutq va muloqotni rivojlantirishda kattalar bilan hamkorlikning muhimligini asoslaydi. Ushbu nazariya kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida pedagogik yordamning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda (J. Bruner, M. Tomasello, E. Erikson) kommunikativ rivojlanish ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, emotsional aloqa va ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanishi ta’kidlanadi. Ularning fikriga ko‘ra, erta yoshda bolalar bilan samarali muloqot qilish, dialogik nutqni rivojlantirish va ijtimoiy vaziyatlarga mos kommunikativ xulq-atvorni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda maktabgacha ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, o‘yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari, nutqni rivojlantirish metodlari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda milliy qadriyatlar, an’analar va bolalarning madaniy muhitini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli muhit sharoitida bolalarning jonli muloqotga bo‘lgan ehtiyoji kamayib borayotgani, bu esa kommunikativ rivojlanishda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslarini qayta ko‘rib chiqish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Natijada, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik yondashuvni talab qilishini hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining pedagogik asoslarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etildi. Ushbu yondashuvlar bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kommunikativ rivojlanishni ta’minlash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida pedagogika, psixologiya va maktabgacha ta’lim sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta’lim standartlari hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi, umumlashtirildi va taqqoslandi. Bu esa kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga oid mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so‘rovlari va pedagogik tajriba-sinov ishlari qo‘llanildi. Pedagogik kuzatuv orqali bolalarning kundalik faoliyatida muloqotga kirishish darajasi, nutq faolligi, tengdoshlar va kattalar bilan o‘zaro munosabatlari o‘rganildi. Suhbat va so‘rovnomalar yordamida tarbiyachilarning kommunikativ rivojlanishni tashkil etish bo‘yicha bilim va malakalari, foydalanilayotgan metod va usullar aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida olib borilib, unda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar, dialogik nutq mashqlari, rolli o‘yinlar, hikoyalash va interaktiv metodlar sinovdan o‘tkazildi. Tajriba natijalari taqqoslash va tahlil qilish orqali baholanib, kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar aniqlashtirildi.

Olingan ma’lumotlar matematik-statistik tahlil usullari orqali qayta ishlanib, tadqiqotning ishonchliligi va xulosalarning asoslanganligi ta’minlandi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy tahlil va pedagogik tajriba-sinov ishlari erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli tarzda tashkil etilganda ijobiy samaradorlikka erishilishini ko‘rsatdi. Tajriba maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida amalga oshirilib, unda bolalarning muloqot faolligi, nutq faolligi va ijtimoiy o‘zaro munosabatlari muntazam ravishda

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

kuzatildi. Pedagogik tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, kommunikativ rivojlanishga yo‘naltirilgan maxsus metod va usullar qo‘llanilgan guruhlarda bolalarning dialogik nutqdan foydalanish darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Jumladan, tajriba guruhidagi bolalarda savollarga to‘liq javob berish, oddiy dialoglarni mustaqil ravishda boshlash va davom ettirish, tengdoshlar bilan muloqotga kirishish faolligi ortdi. Nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida kommunikativ tashabbus ko‘rsatish holatlari ko‘proq qayd etildi.

Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘yin faoliyatiga asoslangan metodlar (rolli o‘yinlar, syujetli o‘yinlar, muloqotga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlar) bolalarda emotsional erkinlikni ta’minlab, muloqotga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalashga intildi, imo-ishora va mimikadan maqsadga muvofiq foydalana boshladi, bu esa kommunikativ ko‘nikmalarning kompleks rivojlanishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari tarbiyachining kommunikativ faoliyatni tashkil etishdagi roli muhim ekanligini tasdiqladi. Tarbiyachining nutq madaniyati, bolalar bilan muloqotda ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi pozitsiyani egallashi, rag‘batlantiruvchi savollardan foydalanishi bolalarning nutqiy faolligini oshirdi. Tajriba jarayonida tarbiyachilar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv qo‘llanilganda, bolalarning o‘z fikrini bildirishga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy faolligi kuchaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni baholash mezonlari asosida ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi. Jumladan, bolalarning muloqotga kirishish chastotasi, nutqiy birliklardan foydalanish hajmi, tengdoshlar bilan hamkorlik darajasi va emotsional javob qaytarish ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Bu holat kommunikativ rivojlanishning faqat nutq bilan cheklanmay, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanish bilan uzviy bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga, metod va vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishiga hamda tarbiyachi va bola o‘rtasidagi samarali muloqotga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim amaliyotida kommunikativ rivojlanishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Erta yosh davri bolaning psixik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida eng faol bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda muloqot ehtiyoji va kommunikativ xulq-atvorning dastlabki shakllari yuzaga keladi. Bola atrof-muhitni anglash, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatga kirishish jarayonida kommunikativ ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich egallaydi. Ushbu ko‘nikmalar bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar, avvalo, ehtiyojga asoslangan muloqot shaklida namoyon bo‘ladi. Bola dastlab ovoz chiqarish, imo-ishora, mimika orqali o‘z istak va his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Keyinchalik bu jarayon so‘z va oddiy gap tuzilmalariga o‘tib, muloqotning mazmuni va shakli murakkablashib boradi. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda bolaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Pedagogik jarayonda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi ta’lim muhiti bilan bevosita bog‘liqdir. Muloqotga ochiq, emotsional jihatdan qulay va xavfsiz muhit yaratilgan sharoitda bola erkin fikr bildiradi, savol beradi va tashabbus ko‘rsatadi. Aksincha, cheklovchi yoki biryoqlama muloqot ustun bo‘lgan muhitda bolaning nutqiy faolligi pasayadi. Shu sababli, pedagogik muhitni tashkil etishda bolani tinglash, uning fikrini qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi.

Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda ta’lim jarayonining mazmuni va shakllari muhim o‘rin tutadi. Mashg‘ulotlar davomida bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydigan, muloqotga undovchi topshiriqlar tanlanishi zarur. Hikoya tuzish, savol-javob, rollarni taqsimlash, voqealarni ketma-ket bayon qilish kabi faoliyat turlari bolalarning so‘z boyligini oshirish va fikrni izchil ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kundalik hayotiy vaziyatlar ham kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ovqatlanish, sayr, erkin faoliyat jarayonida bolalar o‘zaro muloqotga kirishib, ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi. Bu jarayonda pedagogning vazifasi muloqotni boshqarish emas, balki uni rag‘batlantirish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda individual yondashuv alohida ahamiyatga ega. Har bir bolaning nutqiy rivojlanish sur’ati, xarakteri va emotsional holati turlicha bo‘lgani sababli pedagogik ta’sir ham shunga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Ba’zi bolalar faol muloqotga tez kirishsa, boshqalari uchun moslashuv davri talab etiladi. Individual yondashuv bolalarda o‘ziga ishonch hissini kuchaytirib, muloqotga bo‘lgan ichki ehtiyojni rivojlantiradi.

Natijada, erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u bolaning tabiiy rivojlanish xususiyatlari, ta’lim muhiti, pedagogik yondashuvlar va kundalik muloqot tajribasining uyg‘unligini talab etadi. Ushbu jarayonni ilmiy asoslangan holda tashkil etish maktabgacha ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Munozara. Mazkur tadqiqot natijalari erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat natijasida samarali amalga oshirilishini tasdiqladi. Olingan natijalar mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, kommunikativ rivojlanishning asosi bolaning kattalar va tengdoshlar bilan bevosita muloqoti orqali shakllanishi haqidagi nazariy qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga muvofiq, bola nutqi va kommunikativ faoliyati kattalar bilan hamkorlik jarayonida rivojlanadi. Ushbu tadqiqotda olingan natijalar ham tarbiyachining faol ishtiroki, qo‘llab-quvvatlovchi muloqoti va rag‘batlantiruvchi savollari bolalarning kommunikativ faolligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat “yaqin rivojlanish zonasi” doirasida pedagogik yordamning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan o‘yin faoliyatiga asoslangan metodlarning samaradorligi D.B. Elkoninning o‘yin faoliyati nazariyasi bilan hamohangdir. O‘yin jarayonida bolalar muloqotga erkin kirishib, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalashga moyil bo‘ldi. Ushbu holat xorijiy tadqiqotchilar (J. Bruner, M. Tomasello) tomonidan ilgari

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

surilgan ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali nutq va muloqot rivojlanishi haqidagi qarashlar bilan mos keladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni faqat nutqni rivojlantirish bilan cheklanmaydi, balki bolaning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu xulosa E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasidagi erta yosh davrida ijtimoiy munosabatlarning muhimligi haqidagi qarashlarini tasdiqlaydi.

Biroq, tadqiqot natijalari ayrim muammoli jihatlarni ham aniqladi. Jumladan, ayrim bolalarda muloqotga kirishishda tortinchoqlik, so‘z boyligining cheklanganligi va tengdoshlar bilan o‘zaro aloqaning sustligi kuzatildi. Bu holat oilaviy muloqot muhiti, raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanish hamda jonli muloqot imkoniyatlarining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Mazkur jihatlar adabiyotlarda qayd etilgan zamonaviy kommunikativ muammolar bilan mos keladi.

Natijalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun pedagogik jarayonni kompleks tarzda tashkil etish, o‘yin faoliyatiga tayanish, tarbiyachi va bola o‘rtasida ijobiy emotsional muhit yaratish zarur. Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy qarashlarni boyitib, maktabgacha ta’lim amaliyotida kommunikativ rivojlanishni takomillashtirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Kommunikativ rivojlanish bolaning nutqiy faolligi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi hamda kelgusidagi ta’lim faoliyatiga tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois mazkur jarayonni pedagogik jihatdan asoslangan va tizimli tarzda tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi pedagogik muhitning qulayligi, muloqotga yo‘naltirilgan faoliyat turlarining to‘g‘ri tanlanishi hamda tarbiyachining professional yondashuviga bog‘liqdir. Erta yoshdagi bolalarda muloqot ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash, ularning fikrini tinglash va ijobiy emotsional munosabatni ta’minlash kommunikativ faollikning oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish faqat rejalashtirilgan mashg‘ulotlar bilan cheklanmasdan, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham izchil davom ettirilishi zarur. Bolalarning o‘zaro muloqoti, tengdoshlar bilan hamkorligi va mustaqil fikr bildirish imkoniyatlari pedagog tomonidan maqsadga muvofiq yo‘naltirilganda ijobiy natijalarga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish kompleks pedagogik yondashuvni, individual xususiyatlarni hisobga olishni hamda ta’lim-tarbiya jarayonida muloqotni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashni talab etadi. Tadqiqotda bayon etilgan xulosalar maktabgacha ta’lim amaliyotida kommunikativ rivojlanishni takomillashtirishga, shuningdek, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Rasulova, M. (2020). Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish. Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti nashriyoti.

2. Tashkentova, D. (2021). Bolalarda ijtimoiy va emotsional rivojlanishni ta’minlash metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

3. Sobirov, R. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan samarali pedagogik muloqot. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

4. Tomasello, M. (2003). Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. Cambridge, MA: Harvard University Press.

5. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.

6. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 420. – C. 10019.

7. Djalolovich, Y. N., Kodirovich, M. D., Ruziboevich, S. A., & Islomovna, M. D. (2021). Improving the professional training of fine art teachers. *European science*, (2 (58)), 44-46.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Avliyakulova Nafisa Muzafarovna, Buxoro davlat universiteti, Tasviriy va amaliy san’at kafedrasi dotsenti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH. ushbu maqola bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning metodologik asoslarini yoritadi. Zamonaviy ta’lim sharoitida an’anaviy dars metodlari bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabalarni raqamli savodxon, ijodiy va professional jihatdan yetuk o‘qituvchi sifatida tayyorlash imkonini beradi. Maqolada AI, VR/AR, BCI, digital storytelling, gamifikatsiya va blockchain texnologiyalari kabi ilg‘or texnologiyalar misol sifatida keltiriladi.

MAQSAD: kasbiy kompetentsiya tushunchasi o‘qituvchining nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va pedagogik malakalarni birlashtiruvchi muhim ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Shulman (1987) ta’kidlashicha, samarali o‘qituvchi faqat fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi kifoya qilmaydi; u shu bilimni pedagogik jarayonga tatbiq etish, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonni yanada interaktiv, individual va innovatsion shaklda tashkil etishga xizmat qiladi (Selwyn, 2016).

MATERIALLAR VA METODLAR. bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish masalalari zamonaviy ta’lim tadqiqotlarida keng o‘rganilgan. So‘nggi o‘n yilliklarda pedagogika, tasviriy san’at metodikasi va raqamli texnologiyalar integratsiyasi mavzusi alohida e’tibor qozonmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida faqat axborot vositasi sifatida emas, balki o‘quv jarayonini interaktiv va individualizatsiyalash imkonini beruvchi vosita sifatida ham ko‘rib chiqilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning nafaqat an’anaviy pedagogik bilimlari, balki raqamli kompetentsiyalari, ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalasi dolzarb hisoblanadi. Kasbiy kompetentsiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va tajribalar majmuidir.

XULOSA. bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali vosita hisoblanadi. Raqamli vositalar o‘quv jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali va individual yondashuvga asoslangan shaklda tashkil etishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning ijodiy va vizual fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

zamonaviy san'at pedagogikasida raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat o'qituvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshiradi, balki ularning pedagogik malakasini, metodik jihatdan samarali dars tashkil etish qobiliyatini ham kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, kasbiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogika, digital storytelling, Brain-Computer Interface (BCI), gamifikatsiya, VR/AR, blockchain.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Авлиякулова Нафиса Музафаровна, Бухарский государственный университет
Кафедра изобразительного и декоративно-прикладного искусства доцент

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье раскрываются методологические основы интеграции цифровых технологий в процесс развития профессиональных и творческих компетенций будущих учителей изобразительного искусства. В условиях современного образования наряду с традиционными методами обучения применение инновационных технологий позволяет подготовить студентов как цифрово грамотных, креативных и профессионально компетентных педагогов. В статье в качестве примеров рассматриваются такие передовые технологии, как искусственный интеллект (AI), виртуальная и дополненная реальность (VR/AR), интерфейсы мозг–компьютер (BCI), цифровой сторителлинг, геймификация и блокчейн-технологии.

ЦЕЛЬ*:* понятие профессиональной компетентности рассматривается как важный показатель, объединяющий теоретические знания, практические навыки и педагогическое мастерство учителя. По мнению Lee Shulman (1987), эффективному учителю недостаточно обладать только предметными знаниями; он должен уметь применять их в педагогическом процессе, развивать творческое и критическое мышление обучающихся. Цифровые технологии способствуют организации данного процесса в более интерактивной, индивидуализированной и инновационной форме (Neil Selwyn, 2016).

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проблемы развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства широко исследуются в современной педагогике. В последние десятилетия особое внимание уделяется интеграции педагогики, методики преподавания изобразительного искусства и цифровых технологий. Цифровые технологии рассматриваются не только как средство передачи информации, но и как инструмент, обеспечивающий интерактивность и индивидуализацию учебного процесса.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ*:* в условиях глобализации и цифровизации требования к системе образования существенно меняются. В

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

процессе подготовки будущих учителей изобразительного искусства особое значение приобретает развитие не только традиционных педагогических знаний, но и цифровых компетенций, творческого и инновационного мышления. В связи с этим использование цифровых технологий при преподавании дисциплины «Методика преподавания изобразительного искусства» является актуальной задачей.

Профессиональная компетентность представляет собой совокупность знаний, умений, навыков, личностных качеств и опыта, необходимых для эффективной реализации профессиональной деятельности педагога.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование цифровых технологий является эффективным средством развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства. Цифровые инструменты способствуют организации учебного процесса на интерактивной, наглядной и индивидуализированной основе, что содействует развитию творческого и визуального мышления обучающихся. Анализ литературы показал, что применение цифровых технологий в современной художественной педагогике не только повышает уровень теоретических знаний и практических навыков будущих учителей, но и укрепляет их педагогическое мастерство и методическую готовность к эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова*:* изобразительное искусство, профессиональная компетенция, цифровые технологии, инновационная педагогика, цифровой сторителлинг, интерфейс мозг-компьютер (BCI), геймификация, VR/AR, блокчейн.

THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS

Nafisa Muzaffarovna Avliyakulova, Bukhara State University, Department of Fine and Decorative Arts , Associate Professor

Annotation

INTRODUCTION*:* this article explores the methodological foundations for integrating digital technologies into the process of developing the professional and creative competencies of future fine arts teachers. In the context of modern education, alongside traditional teaching methods, the application of innovative technologies enables the preparation of students as digitally literate, creative, and professionally competent educators. The article examines advanced technologies such as artificial intelligence (AI), virtual and augmented reality (VR/AR), brain–computer interfaces (BCI), digital storytelling, gamification, and blockchain technologies.

AIM*:* the concept of professional competence is considered an important indicator that integrates theoretical knowledge, practical skills, and pedagogical mastery of a teacher. According to Lee Shulman (1987), an effective teacher must possess not only subject knowledge but also the ability to apply this knowledge in the pedagogical process and to foster students' creative and critical thinking. Digital technologies facilitate

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

the organization of this process in a more interactive, individualized, and innovative form (Neil Selwyn, 2016).

MATERIALS AND METHODS: the issues of developing the professional competence of future fine arts teachers have been widely studied in modern pedagogy. In recent decades, particular attention has been paid to the integration of pedagogy, fine arts teaching methodology, and digital technologies. Digital technologies are viewed not only as tools for information delivery but also as instruments that ensure interactivity and individualization of the educational process.

RESULTS AND DISCUSSION*:* in the context of globalization and digitalization, the requirements for the education system are undergoing significant changes. In the training of future fine arts teachers, special importance is attached not only to traditional pedagogical knowledge but also to the development of digital competencies, creative thinking, and innovative approaches. Therefore, the effective use of digital technologies in teaching the course “Methods of Teaching Fine Arts” is a relevant and pressing task.

Professional competence is defined as a combination of knowledge, skills, abilities, personal qualities, and experience necessary for the effective implementation of professional pedagogical activity.

CONCLUSION: the use of digital technologies is an effective means of developing the professional competence of future fine arts teachers. Digital tools help organize the educational process in an interactive, visual, and individualized manner, thereby contributing to the development of students’ creative and visual thinking skills. The analysis of the literature shows that the application of digital technologies in modern art pedagogy not only enhances theoretical knowledge and practical skills but also strengthens teachers’ pedagogical mastery and methodological readiness for effective lesson organization.

Keywords: visual arts, professional competence, digital technologies, innovative pedagogy, digital storytelling, Brain-Computer Interface (BCI), gamification, VR/AR, blockchain.

XXI asr ta’limi raqamli transformatsiya jarayonida rivojlanmoqda. Ta’limning har bir sohasida, shu jumladan tasviriy san’at fanlarida, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muhim ilmiy va pedagogik masala hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya nafaqat texnik ko‘nikmalar**,** balki ijodiy tafakkur, mualliflik madaniyati va pedagogik yondashuvni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini boyitish talabaning professional tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

An’anaviy metodik yondashuvlar, masalan, chizish, ranglash, kompozitsiya mashqlari, talabaning fasadiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, lekin ularning raqamli va interaktiv kompetensiyalarini shakllantirishga yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish zaruriyati ortib

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bormoqda. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari nafaqat san’at asarlarini yaratish va talabalarga yetkazish bilan shug‘ullanishlari, balki o‘quv jarayonini metodik jihatdan samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash va zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, ularning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri sifatida e’tiborni tortadi.

Kasbiy kompetentsiya tushunchasi o‘qituvchining nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va pedagogik malakalarni birlashtiruvchi muhim ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Shulman (1987) ta’kidlashicha, samarali o‘qituvchi faqat fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi kifoya qilmaydi; u shu bilimni pedagogik jarayonga tatbiq etish, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonni yanada interaktiv, individual va innovatsion shaklda tashkil etishga xizmat qiladi (Selwyn, 2016).

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at darslarida raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning vizual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo‘lib, o‘qituvchilarga darsni yanada ko‘rgazmali va tushunarli tarzda olib borish imkonini beradi (Kozlova, 2018; Bresler, 2014). Masalan, 3D-modellashtirish, interaktiv grafik dasturlar, animatsion platformalar va virtual galereyalar o‘quv jarayonini boyitadi, talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi va o‘qituvchining metodik kompetentsiyasini oshiradi.

Shuningdek, mahalliy olimlar, jumladan Abdurahmonov (2019) va Tolipov (2020), raqamli texnologiyalarni tasviriy san’at metodikasi bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tajribalar olib borib, ularning o‘quv motivatsiyasini oshirish va kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlamoqdalar. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak san’at o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalar yordamida tayyorlash pedagogik innovatsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini aniqlash va tizimlashtirishdir.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish masalalari zamonaviy ta’lim tadqiqotlarida keng o‘rganilgan. So‘nggi o‘n yilliklarda pedagogika, tasviriy san’at metodikasi va raqamli texnologiyalar integratsiyasi mavzusi alohida e’tibor qozonmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida faqat axborot vositasi sifatida emas, balki o‘quv jarayonini interaktiv va individualizatsiyalash imkonini beruvchi vosita sifatida ham ko‘rib chiqilmoqda (Selwyn, 2016; Prensky, 2010). Tadqiqotchilar raqamli vositalarning vizual fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali ekanligini ta’kidlaydilar (Kozlova, 2018). Masalan, interaktiv taxtalar, 3D-modellashtirish dasturlari, grafik va animatsion platformalar orqali talabalar san’at asarlarini loyihalash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi (Bresler, 2014).

Bo‘lajak san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasi asosan uchta asosiy komponentdan iborat: nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalar va pedagogik malaka (Shulman, 1987). Raqamli texnologiyalar bu komponentlarni uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Masalan, Adobe Creative Cloud, CorelDRAW va AutoDesk kabi dasturlar orqali talabalar rang, kompozitsiya va shaklni raqamli muhitda sinab ko‘rishlari mumkin. Shu bilan birga, virtual galereyalar va onlayn taqdimot platformalari o‘quvchilarning ijodiy ishlarini baholash va tahlil qilish imkonini beradi (Jensen, 2018).

Mahalliy olimlar ham ushbu mavzuga e’tibor qaratgan. X. Abdurahmonov (2019) va N. Tolipov (2020) raqamli texnologiyalarning tasviriy san’at darslarida o‘quv motivatsiyasini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, interaktiv dasturlarni qo‘llash orqali talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati sezilarli darajada kuchayadi va kasbiy kompetentsiya darajasi yuqorilaydi. Shuningdek, xalqaro tajribalar ko‘rsatadiki, raqamli vositalar san’at pedagogikasida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usuli sifatida qo‘llaniladi (Eisner, 2002; Peppler, 2013). Bu esa o‘qituvchilarning o‘z kasbiy bilimlarini yangilash va zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat metodik samaradorlikni oshiradi, balki talabalarni ijodiy, vizual va texnologik ko‘nikmalar bilan boyitadi. Shu bilan birga, tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni integratsiyalash jarayonida pedagogik yondashuv, metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini yangilash zarurligini ham ko‘rsatadi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning nafaqat an’anaviy pedagogik bilimlari, balki raqamli kompetentsiyalari, ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Kasbiy kompetentsiya – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va tajribalar majmuidir. Tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetentsiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasi quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat: Nazariy kompetentsiya tasviriy san'at nazariyasi, san'at tarixi, rangtasvir, kompozitsiya asoslari hamda badiiy uslub va yo'nalishlar haqidagi tizimli bilimlarni qamrab oladi. Ushbu kompetentsiya badiiy asarlarni tahlil qilish, san'at hodisalarini ilmiy asosda izohlash va o'quvchilarda estetik tafakkurni shakllantirish uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi. *Amaliy-ijodiy kompetentsiya* o'qituvchining rasm chizish, rangtasvir ishlari bajarish, kompozitsiya yaratish hamda badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetentsiya ijodiy tafakkurni rivojlantirish, original g'oyalarni amaliy faoliyatda namoyon etish va o'quv jarayonida badiiy texnikalarni ko'rgazmali tarzda o'rgatish imkonini beradi. *Pedagogik-metodik kompetentsiya* ta'lim metodlari, darsni loyihalash, o'quv jarayonini tashkil etish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta'lim natijalarini tahlil qilish bilan bog'liq malakalarni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetentsiya talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda kompetentsiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi. *Raqamli kompetentsiya* grafik dasturlar, raqamli platformalar, onlayn ta'lim vositalari hamda multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu kompetentsiya an'anaviy tasviriy san'at ta'limini raqamli san'at elementlari bilan integratsiyalash, masofaviy va aralash ta'lim shakllarini tashkil etish hamda ta'lim jarayonining innovatsionligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetentsiyalar majmuasi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularning zamonaviy ta'lim muhitida samarali pedagogik faoliyat olib borishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar nafaqat ilmiy tadqiqotlar va amaliy mashg'ulotlar, balki talabalar kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashning strategik vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu jumladan:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2



- AI-assisted creative tools (sun'iy intellekt yordamida ijod) orqali talaba o'z ishini tezkor va individual tahlil qilishi mumkin;
- Digital storytelling (raqamli hikoyalash) yordamida vizual va matn elementlarini integratsiyalash orqali hikoya va mazmun yetkazish kompetensiyasi rivojlantiriladi;
- BCI (Brain-Computer Interface) va VR/AR texnologiyalari yordamida talaba ijodiy harakatini hissiyot va fazoviy tafakkur bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi;
- Gamifikatsiya va simulyatorlar o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, shu bilan motivatsiyani oshiradi;
- Blockchain va NFT texnologiyalari talabaning ishlari uchun mualliflik va huquqiy himoya yaratadi.

Raqamli texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiyalash nafaqat talabaning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga, balki zamonaviy ta'limning ilmiy asosini boyitishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida qaraladi. Yuqorida ko'rsatilgan metodik yondashuvlar talaba ijodini, raqamli savodxonligini va kasbiy malakasini birgalikda rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiyalash orqali an'anaviy ta'lim jarayonini interaktiv, innovatsion va ilmiy jihatdan boy metodik tizimga aylantirish mumkin. Kompetensiyalarni integratsiyalashda an'anaviy tasviriy san'at o'qitish metodikasi faqat texnik va badiiy ko'nikmalarga qaratilgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar integratsiyasi kasbiy, kreativ va raqamli kompetensiyalarni birlashtiradi. Bu yondashuv talabaning individual ijodiy potensialini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi. Hissiyot va fazoviy tafakkur integratsiyasida BCI va VR/AR

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

texnologiyalari talabaning hissiyot va fazoviy tafakkurini rasm yaratish jarayoniga bevosita integratsiya qiladi. Natijada talaba an'anaviy rasm mashqlarida mavjud bo'lmagan sensor, kognitiv va kreativ o'zaro bog'liqlikni yaratadi. Bu yondashuv ijodiy jarayonni neurofeedback asosida tahlil qilish va boshqarish imkoniyatini beradi, bu esa psixopedagogik tadqiqotlar uchun yangi maydon ochadi. Raqamli hikoyalash va multimediya integratsiyasida Digital storytelling orqali talaba matn, vizual va audio elementlarini birlashtiradi, bu esa faqat vizual san'atni emas, balki kommunikativ va badiiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Bunda talaba multimodal o'qitish va ijodiy kompetensiyani integratsiyalash bo'yicha yangi metodik yondashuvlarda ishtirok etadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar nafaqat amaliy-ijodiy faoliyatni rivojlantirish, balki nazariy bilimlarni mustahkamlash, pedagogik-metodik ko'nikmalarni mukammallashtirish va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish imkonini beradi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasi nazariy, amaliy-ijodiy, pedagogik-metodik va raqamli komponentlardan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan integrativ tarzda bog'langan. Nazariy kompetentsiya o'qituvchining badiiy asarlarni tahlil qilish va o'quvchilarga estetik qarashlarni shakllantirish qobiliyatini ta'minlasa, amaliy-ijodiy kompetentsiya ijodiy tafakkur va san'at texnikalarini qo'llash imkonini beradi. Pedagogik-metodik komponent esa samarali darslarni loyihalash va baholashni tashkil etadi, raqamli kompetentsiya esa zamonaviy texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiluvchi vositalarni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali o'qituvchilar nafaqat amaliy ko'nikmalarini boyitadi, balki ijodiy erkinlikni oshiradi, o'quvchilarda mustaqil izlanish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli kompetentsiya pedagoglarni zamonaviy ta'limning global tendensiyalariga moslashishga va innovatsion metodlarni qo'llashga tayyorlaydi. Natijada, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat samarali pedagogik faoliyatni ta'minlaydi, balki ularni raqamli asr talablariga mos, ijodiy va metodik jihatdan tayyor, professional mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning badiiy va estetik rivojlanishini rag'batlantirish hamda san'at ta'limini modernizatsiya qilish yo'lida muhim omil hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda strategik vosita sifatida qaralishi kerak. Ularning nazariy bilimlar, amaliy-ijodiy malaka, pedagogik metodika va raqamli ko'nikmalardagi o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali tasviriy san'atni o'qitish jarayonini yanada samarali hamda innovatsion yondashuvlar asosida, professional mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Motivatsiya va o'quv jarayonining interaktivligida Gamifikatsiya va simulyatorlar o'quv jarayonini o'yinlashtiradi, bu esa talabaning motivatsiyasini oshiradi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

va mashq qilish samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bunda o‘quv motivatsiyasini ilmiy asosda oshirish va interaktiv dars metodikasini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mualliflik va raqamli savodxonlikni ta’minlashda Blockchain va NFT texnologiyalari talabaning ijodiy ishini himoya qiladi, mualliflik huquqi va ishlash tarixini saqlaydi. O’qituvchi dars jarayonida rasm va dizayn ishlarining raqamli himoyasi bo‘yicha yangi pedagogik mexanizmi ishlab chiqiladi, bu esa talabaning professional madaniyati va huquqiy savodxonligini oshiradi. Integratsiyalashgan ilmiy yondashuv asosida yuqorida keltirilgan barcha texnologiyalar bir tizim sifatida pedagogik jarayonga integratsiyalanadi, bu esa talabaning kasbiy, kreativ va raqamli kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi. Bu metodika an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni birlashtiradi, interaktiv, individual va ilmiy asoslangan ta’lim tizimini yaratadi. Shu bilan birga, bu yondashuv tasviriy san’at ta’limini raqamli davr talablariga moslashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali vosita hisoblanadi. Raqamli vositalar o‘quv jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali va individual yondashuvga asoslangan shaklda tashkil etishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning ijodiy va vizual fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy san’at pedagogikasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘qituvchilarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshiradi, balki ularning pedagogik malakasini, metodik jihatdan samarali dars tashkil etish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Interaktiv grafik dasturlar, 3D-modellashtirish, virtual galereyalar va animatsion platformalar o‘quv jarayonini boyitadi, talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi va ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash jarayonida o‘qituvchilarni tayyorlashda tizimli metodik yondashuv zarurligi aniqlandi. Unga ko‘ra, pedagogik dasturlar va o‘quv rejalar raqamli vositalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi, o‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslari va amaliy seminarlar orqali qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Natijada, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi, ularni zamonaviy talablarga mos tayyorlaydi va o‘quv jarayonini interaktiv, ijodiy va samarali shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik amaliyotda raqamli vositalarni keng qo‘llash, shuningdek, o‘qituvchilarni ushbu texnologiyalarni ijodiy va metodik jihatdan samarali foydalanishga o‘rgatish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bresler, L. (2014). Studying Visual Arts in Education: Research and Practice. New York: Routledge.
2. Eisner, E. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press.
3. Jensen, E. (2018). Arts with the Brain in Mind. ASCD.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

4. Kozlova, E. (2018). Digital Technologies in Art Education. Moscow: Pedagogika.
5. Peppler, K. (2013). Digital Media in Art Education. New York: Teachers College Press.
6. Prensky, M. (2010). Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. Corwin Press.
7. Abdurahmonov, X. (2019). Raqamli texnologiyalar yordamida tasviriy san'at darslarini samarali tashkil etish. Tashkent: Fan.
8. Tolipov, N. (2020). Bo'lajak san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi. Tashkent: Universitet Nashriyoti.
9. Muzafarovaa A. N. Forms of preparation of future teachers for visual and creative activities //Euro-Asia Conferences. – 2021. – С. 119-123.
10. Avliyakulova N. Бўлажак ўқитувчиларни тасвирий-ижодий фаолиятга тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитлари //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING INKLYUZIV-DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI INTERAKTIV USLUBLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI BOYITISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Xolmatova Saidaxon Voxobjonovna, Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bugungi globallashuv va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’lim masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning, shu jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarning teng huquqli ta’lim olishini ta’minlovchi tizimdir. Bu borada UNESCO hamda UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tavsiyalar inklyuziv yondashuvni ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Deontologik kompetentlik – bu pedagogning kasbiy burch, axloqiy mas’uliyat, pedagogik etika va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan faoliyat yuritish qobiliyatidir. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida pedagogdan yuqori darajadagi sabr-toqat, empatiya, tolerantlik va kasbiy mahorat talab etiladi. Interaktiv uslublar va multimedia vositalaridan samarali foydalanish esa ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini interaktiv uslublar va multimedia vositalari orqali boyitishning ilmiy-pedagogik asoslarini aniqlash hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: mazkur tadqiqot bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini interaktiv uslublar va multimedia vositalari asosida rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borilib, unda nazariy, empirik va statistik metodlar uyg‘unligi ta’minlandi. Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi konseptual yondashuvlar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv – pedagog shaxsida kasbiy, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarni integrativ shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi – har bir talabaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish. Inklyuziv ta’lim tamoyillari – tenglik, adolat, diskriminatsiyasizlik va ijtimoiy integratsiya g‘oyalari, xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan me’yoriy hujjatlar asosida tahlil qilindi. Pedagogik deontologiya tamoyillari – kasbiy burch, pedagogik etika, mas’uliyat va insonparvarlik mezonlariga asoslandi. Nazariy tahlil jarayonida ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini interaktiv uslublar va multimedia vositalari orqali boyitishning ilmiy-pedagogik asoslari kommunikativ kompetensiyani, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qabul qilish ko‘nikmasini, empatik munosabatni, kasbiy mas’uliyatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Multimedia vositalari esa vizual va eshitish orqali qabul qilishni kuchaytiradi, murakkab pedagogik vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, inklyuziv muhitni virtual tarzda yaratishga yordam beradi, talabalar faolligini oshiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv va multimedia yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning inklyuziv-deontologik kompetentlik darajasi an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli ravishda oshgan.

XULOSA: bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Interaktiv uslublar va multimedia vositalari ushbu jarayonda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Inklyuziv-deontologik kompetentlikni shakllantirish tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Interaktiv metodlar talabalarni faol subyektga aylantiradi. Multimedia vositalari ta’lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagog kasbiy bilim bilan bir qatorda yuksak axloqiy fazilatlarga ham ega bo‘lishi zarur. Kelgusida mazkur yo‘nalishda metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va tajriba-sinov ishlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, pedagogik deontologiya, kompetentlik, interaktiv uslublar, multimedia vositalari, empatiya, tolerantlik, kasbiy etika, bo‘lajak pedagog.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБОГАЩЕНИЯ ИНКЛЮЗИВНО-ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ЧЕРЕЗ ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ СРЕДСТВА

Холматова Саидахон Вохобжоновна, доцент Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхоккона Ибрата.доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях глобализации и модернизации системы образования особую актуальность приобретает проблема инклюзивного образования. Инклюзивное образование — это система, обеспечивающая равный доступ к обучению для всех детей, включая обучающихся с особыми образовательными потребностями. В данном направлении международные рекомендации, разработанные UNESCO и UNICEF, определяют инклюзивный подход как приоритетное направление развития образовательных систем. Формирование инклюзивно-деонтологической компетентности будущих педагогов является важной составляющей современного педагогического процесса. Деонтологическая компетентность представляет собой способность педагога осуществлять профессиональную деятельность на основе профессионального долга, нравственной ответственности, педагогической этики и принципов гуманизма. В условиях инклюзивного образования от педагога требуются высокий уровень терпимости, эмпатии, толерантности и профессионального мастерства. Эффективное использование интерактивных методов и мультимедийных средств выступает инновационным подходом к формированию данных компетенций.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является выявление научно-педагогических основ обогащения инклюзивно-деонтологической компетентности будущих педагогов посредством интерактивных методов и мультимедийных средств, а также разработка эффективных методических рекомендаций.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование направлено на определение теоретических и практических основ развития инклюзивно-деонтологической компетентности будущих педагогов на основе интерактивных методов и мультимедийных средств. Работа проводилась на основе комплексного подхода с использованием теоретических, эмпирических и статистических методов. Методологическую основу исследования составили следующие концептуальные подходы: компетентностный подход, ориентированный на интегративное формирование профессиональных, нравственных и коммуникативных компетенций педагога, личностно-ориентированная концепция обучения, предполагающая учет индивидуальных особенностей и потребностей каждого студента, принципы инклюзивного образования — равенство, справедливость, недискриминация и социальная интеграция, проанализированные на основе нормативных документов, предложенных, в частности, UNESCO, принципы педагогической деонтологии — профессиональный долг, педагогическая этика, ответственность и гуманизм. В процессе теоретического анализа были изучены научные статьи, монографии, диссертационные исследования и нормативно-правовые документы с применением метода контент-анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: научно-педагогические основы обогащения инклюзивно-деонтологической компетентности будущих педагогов посредством интерактивных методов и мультимедийных средств показали высокую эффективность в развитии: коммуникативной компетентности, навыков принятия решений в проблемных ситуациях, эмпатического отношения, профессиональной ответственности. Мультимедийные средства усиливают визуальное и аудиальное восприятие информации, позволяют моделировать сложные педагогические ситуации, способствуют созданию виртуальной инклюзивной среды и повышают активность студентов. Результаты исследования показали, что уровень инклюзивно-деонтологической компетентности студентов, обучавшихся с применением интерактивных и мультимедийных технологий, значительно выше по сравнению с обучением, основанным на традиционных методах.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование инклюзивно-деонтологической компетентности будущих педагогов является одной из приоритетных задач современной системы образования. Интерактивные методы и мультимедийные средства выступают эффективным педагогическим инструментом в данном процессе. Формирование инклюзивно-деонтологической компетентности требует системного и комплексного подхода. Интерактивные методы превращают студентов в активных субъектов образовательного процесса. Мультимедийные средства повышают эффективность обучения. Современный педагог должен обладать не только профессиональными знаниями, но и высокими нравственными

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

качествами. В перспективе целесообразно разработать специализированные методические пособия и расширить экспериментальную работу в данном направлении.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогическая деонтология, компетентность, интерактивные методы, мультимедийные средства, эмпатия, толерантность, профессиональная этика, будущий педагог.

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE INCLUSIVE-DEONTOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS THROUGH INTERACTIVE METHODS AND MULTIMEDIA TOOLS

Kholmatova Saidakhon Vokhobjonovna, Associate Professor of Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'hoqxon Ibrat, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the context of globalization and modernization of the education system, the issue of inclusive education has gained particular relevance. Inclusive education is a system that ensures equal access to education for all children, including those with special educational needs. In this regard, international recommendations developed by UNESCO and UNICEF define the inclusive approach as a priority direction in the development of educational systems. The formation of inclusive-deontological competence in future teachers is an essential component of the modern pedagogical process. Deontological competence refers to a teacher's ability to carry out professional activities based on professional duty, moral responsibility, pedagogical ethics, and principles of humanism. In the context of inclusive education, teachers are required to demonstrate a high level of patience, empathy, tolerance, and professional mastery. The effective use of interactive methods and multimedia tools serves as an innovative approach to developing these competencies.

AIM: the purpose of this study is to identify the scientific and pedagogical foundations for enhancing the inclusive-deontological competence of future teachers through interactive methods and multimedia tools, as well as to develop effective methodological recommendations.

MATERIALS AND METHODS: this research is aimed at determining the theoretical and practical foundations for developing the inclusive-deontological competence of future teachers through interactive methods and multimedia tools. The study was conducted based on a comprehensive approach integrating theoretical, empirical, and statistical methods. The methodological framework of the research includes the following conceptual approaches. The competency-based approach, aimed at the integrative formation of professional, moral, and communicative competencies of teachers. The learner-centered education concept, which considers the individual characteristics and needs of each student; The principles of inclusive education — equality, justice, non-discrimination, and social integration — analyzed on the basis of

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

regulatory documents proposed, in particular, by UNESCO. The principles of pedagogical deontology — professional duty, pedagogical ethics, responsibility, and humanism. During the theoretical analysis, scientific articles, monographs, dissertations, and regulatory legal documents were examined using content analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the scientific and pedagogical foundations for enhancing the inclusive-deontological competence of future teachers through interactive methods and multimedia tools have demonstrated high effectiveness in developing: communicative competence, decision-making skills in problematic situations, empathetic attitudes, professional responsibility. Multimedia tools enhance visual and auditory perception, enable the modeling of complex pedagogical situations, facilitate the creation of a virtual inclusive environment, and increase students' engagement. The results of the study indicate that the level of inclusive-deontological competence among students who were taught using interactive and multimedia approaches significantly increased compared to those who were instructed through traditional methods.

CONCLUSION: the formation of inclusive-deontological competence in future teachers is one of the key priorities of the modern education system. Interactive methods and multimedia tools serve as effective pedagogical instruments in this process. The development of inclusive-deontological competence requires a systematic and comprehensive approach. Interactive methods transform students into active participants in the educational process. Multimedia tools enhance the effectiveness of learning. A modern teacher must possess not only professional knowledge but also high moral qualities. In the future, it is advisable to develop specialized methodological manuals and expand experimental research in this area.

Keywords: inclusive education, pedagogical deontology, competence, interactive methods, multimedia tools, empathy, tolerance, professional ethics, future teacher.

Jahon ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv va inklyuzivlik tamoyillarining kengayishi har bir insonning, uning psixofiziologik xususiyatlaridan qat'i nazar, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish huquqini ta'minlashni kun tartibiga qo'ydi. Aynan shu nuqtada, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga to'laqonli jalb etishni nazarda tutuvchi inklyuziv ta'lim paradigmasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyalarida inklyuziv ta'limning huquqiy va strategik asoslari belgilanishi ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi. Inklyuziv ta'lim muvaffaqiyati nafaqat moddiy-texnik baza yoki o'quv dasturlariga, balki ko'p jihatdan pedagog kadrlar salohiyatiga, ularning kasbiy-axloqiy qadriyatlariga bog'liqdir. Shu munosabat bilan, pedagogik deontologiya tushunchasi inklyuziv ta'lim kontekstida yangicha ma'no kasb etadi. Biroq, ilmiy adabiyotlarda inklyuziv-deontologik kompetentlikni shakllantirishda aynan interaktiv uslublar va multimedia vositalarining o'rni va samaradorligi yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Bu esa, o'z navbatida, mazkur tadqiqotning dolzarbligini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

belgilaydi. Asosiy muammolardan biri – bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv-deontologik kompetentlikni rivojlantirishning an’anaviy usullari zamonaviy ta’lim ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligidadir. Bugungi kunda o‘qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalar, empatiya, tolerantlik, axloqiy mas’uliyat kabi sifatlarga ega bo‘lishlari lozim. Shu nuqtai nazardan, interaktiv uslublar va multimedia vositalaridan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya**.** Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi xalqaro miqyosda YUNESKOning Salamanka deklaratsiyasi bilan mustahkamlangan bo‘lib, unda ta’lim tizimlarini barcha bolalarning xilma-xilligini hisobga olgan holda loyihalash zarurati ta’kidlanadi. M. Ainscow[1] kabi olimlar inklyuziv tizimlarni rivojlantirish uchun o‘zgarishlar dastaklarini tahlil qilib, bunda maktab madaniyati, siyosati va amaliyotining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib bergan. Pedagogik deontologiya esa V.A. Slastenin, I.F. Isayev, Ye.N. Shiyanov[2] kabi olimlar tomonidan o‘qituvchining kasbiy burchi, mas’uliyati va axloqiy me’yorlari tizimi sifatida fundamental o‘rganilgan. Uning falsafiy ildizlari I.Kantning burch falsafasiga borib taqaladi, unga ko‘ra, axloqiy harakat oqibatga emas, balki burch hissiga asoslanishi kerak. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim va pedagogik deontologiya tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda pedagogning insonparvarlik, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan faoliyatini belgilaydi. Biroq, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda interaktiv uslublar va multimedia vositalarining bo‘lajak pedagoglar inklyuziv-deontologik kompetentligini boyitishdagi o‘rni yetarlicha yoritilmagan. So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Masalan, D.Kolbning[3] tajribaga asoslangan o‘qitish nazariyasi interaktiv uslublarning amaliyotdagi ahamiyatini ko‘rsatadi, J. Piagetning[4] kognitiv rivojlanish nazariyasi esa multimedia vositalarining o‘quvchilarda tushunish va idrok etishni oshirishdagi rolini tushuntiradi. Virtual realik va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari, o‘quv simulyatsiyalari, interaktiv keys-stadi usullari bo‘lajak pedagoglarga real vaziyatlarni xavfsiz muhitda boshdan kechirish, axloqiy dilemmalarni hal qilish va professional javobgarlikni his qilish imkonini beradi. Shuningdek, onlayn ta’lim platformalari va interaktiv doskalar kabi multimedia vositalari ta’lim mazmunini boyitish, o‘quv materiallarini vizuallashtirish va talabalarning faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar orqali inklyuziv sinf muhitini modellashtirish, turli ehtiyojli bolalar bilan ishlash usullarini virtual tarzda o‘rganish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni deklarativ darajadan amaliyotga ko‘chirishda pedagogning deontologik kompetentligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Faqatgina metodlarni bilish muvaffaqiyatni ta’minlamaydi. O‘qituvchining ichki e’tiqodi, gumanistik pozitsiyasi va axloqiy mas’uliyati bo‘lmasa, har qanday ilg‘or texnologiya samarasiz bo‘lib qoladi. Aynan shu nuqtada interaktiv uslublar va multimedia vositalari

[1] Ainscow, M. (2005). Developing inclusive education systems: what are the levers for change? Journal of Educational Change, 6(2), 109-124.
[2] Slastenin, V.A., Isayev, I.F., Shiyanov, E.N. Pedagogika: ucheb. posobie dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A. Slastenina. – M.: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2002. – 576 s.
[3] Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Prentice Hall.
[4] Piaget, J. (1970). Science of education and the psychology of the child. Orion Press.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bo‘lajak pedagoglarda mazkur sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv uslublarda rolli o‘yinlar, keys-stadi tahlillari, munozaralar va simulyatsiyalar bo‘lajak pedagoglarga inklyuziv muhitdagi real vaziyatlarda o‘zlarini sinab ko‘rish, empatiya hissini rivojlantirish va axloqiy dilemmalarni hal qilish ko‘nikmalarini egallash imkonini beradi. Masalan, “maxsus ehtiyojli o‘quvchi bilan ishlash” mavzusidagi ro‘lli o‘yin orqali talaba o‘zini nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchi yoki uning ota-onasi o‘rniga qo‘yib, vaziyatga chuqurroq kirisha oladi. Bu esa tolerantlik va tushunishni oshiradi. Multimedia vositalari Virtual reallik texnologiyalari yordamida inklyuziv sinf muhitining simulyatsiyasini yaratish, talabalarga turli xildagi o‘quvchilar bilan muloqot qilish tajribasini virtual tarzda taqdim etish mumkin. Interaktiv doskalar va ta’lim platformalari inklyuziv kontentni vizual va audial materiallar bilan boyitish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan vazifalarni taqdim etish imkonini beradi. Video-kontentlar (inklyuziv ta’lim amaliyotidagi muvaffaqiyatli namunalar, qiyin vaziyatlarni hal qilish bo‘yicha ekspert tavsiyalari) bo‘lajak pedagoglarga real amaliyotga yaqinroq bo‘lishga yordam beradi. Bunday vositalar yordamida o‘qituvchining deontologik ongi va madaniyati darajasi oshadi, chunki ular axloqiy tanlov va mas’uliyatni chuqurroq anglashga ko‘maklashadi. Oliy ta’lim muassasalarining dasturlariga nafaqat inklyuziv metodikalarni, balki “Pedagogik deontologiya”, “Kasbiy etika va psixologiya”, “Konfliktologiya” kabi fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda kiritish lozim. Bunda asosiy urg‘u nazariy ma’lumot berishdan ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarda empatik tinglash, refleksiya qilish va axloqiy dilemmalarni hal etish amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak. Interaktiv uslublar va multimedia vositalari bu jarayonni sezilarli darajada optimallashtiradi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim va pedagogik deontologiya tushunchalari falsafiy-gumanistik va psixologik-pedagogik jihatdan bir-biri bilan uzviy va dialektik aloqadorlikda bo‘lgan yagona tizimning ikki muhim tarkibiy qismidir. Bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini interaktiv uslublar va multimedia vositalari orqali boyitish usullari va mexanizmlarini ilmiy jihatdan asosladi. Interaktiv uslublar (keys-stadi, ro‘lli o‘yinlar, munozaralar, simulyatsiyalar) bo‘lajak pedagoglarda empatiya, tolerantlik, kasbiy etika va axloqiy mas’uliyat kabi muhim deontologik fazilatlarni rivojlantirishning samarali yo‘llari ekanligi isbotlandi. Bu uslublar real inklyuziv vaziyatlarni modellashtirish va ularga adekvat javob berish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Multimedia vositalari (virtual reallik, interaktiv doskalar, ta’lim platformalari, video-kontentlar) inklyuziv ta’lim mazmunini boyitish, pedagogik vaziyatlarni vizual tarzda tahlil qilish va bo‘lajak pedagoglarga individual ta’lim ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Ular o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, deontologik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda yuqori deontologik madaniyat, gumanistik dunyoqarash va zaruriy psixologik fazilatlarni interaktiv va multimedia vositalari orqali shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda chinakam insonparvar va samarali inklyuziv ta’lim tizimini barpo etishning muhim garovi bo‘lib xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. UNESCO, Paris. – 1994.
2.Ainscow, M. (2005). Developing inclusive education systems: what are the levers for change? Journal of Educational Change, 6(2), 109-124.
3.Slastenin, V.A., Isayev, I.F., Shiyanov, E.N. Pedagogika: ucheb. posobie dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A. Slastenina. – M.: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2002. – 576 s.
4.Kant, I. Osnovy metafiziki nravstvennosti. – M.: Mysl, 1999.
5.Vygotskiy, L.S. Sobraniye sochineniy: V 6-ti t. T.4. Detskaya psixologiya / Pod red. A.V. Zaparojtsa. – M: Pedagogika, 1984. – 432 s.
6.Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Prentice Hall.
7.Piaget, J. (1970). Science of education and the psychology of the child. Orion Press.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MILLIY TA'LIM-TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV ASARLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI.

D.I.Tosheva, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro,O'zbekiston

ANOTATSIYA:

KIRISH: ushbu maqolada o'zbek jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri — Munavvarqori Abdurashidxonovning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati va asarlari tahlil qilinadi. Jadid maktabchiligining asoschisi sifatida Munavvarqori o'z asarlari orqali ilm-fan, ma'rifat, axloqiy tarbiya va milliy ongni shakllantirish g'oyalarini ilgari surgan. Maqolada uning "Adibi avval", "Tarixi muxtasari Islom", "Maktab gulshani" kabi asarlarining mazmuni, didaktik yondashuvi, hamda bu asarlarning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, Munavvarqorining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bugungi kundagi pedagogik jarayon bilan qanday bog'lanishi ham yoritilgan.

MAQSAD: uchunchi renesans aynan jadidlar harakati ila boshlangan bo'lim ularning asosiy maqsadi ilm ma'rifat ila yosh avlodni tarbiyalashdir. Bunday harakat asosichisi Munavvarqori Abdurashidxonov ham o'z asarlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashniilgari suradi, ularda erkin fikrlashni shakllantirilishini yangi usulda tadbiq etadi. Shu maqsadda biz bu maqolada aynan yuqorida nomi keltirilgan ma'rifatparvar asarlarini tahlil qilamiz.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqola jadid ma'rifatparvarining pedagogik faoliyati va ilmiy me'rosida ifoda etilgan ta'limiy-tarbiyaviy g'oyalar tahliliga qaratilgan bo'lib , ular quyidagi metodlarda amalga oshirildi: manbalar tahlili, adabiyotlar sharhi, amaliyotdagi natijalarini tashxislash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Tarixi muxtasari Islom", "Maktab gulshani" kabi asarlarining mazmuni, didaktik yondashuvi, hamda bu asarlarning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati tahlil etiladi. Bu asarlardagi g'oya va fikrlar bugungi shiddatkor zamonda yoshlarimizni mafkuraviy immunitetini rivojlantirishga qaratiladi.

XULOSA: munavvarqori Abdurashidxonov o'zbek jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lib, yangi usuldagi maktablar ochish, zamonaviy darsliklar yaratish va o'qituvchilar tayyorlash orqali milliy ma'rifat va madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo'shgan. U ta'lim jarayonida ilm-fan bilan birga axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor bergan.

Kalit so'zlar: munavvarqori Abdurashidxonov, jadidchilik, ta'lim, tarbiya, ma'rifat, "Adibi avval", o'quv dasturi, axloqiy tarbiya, jadid maktablari, zamonaviy ta'lim, milliy uyg'onish.

ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МУНАВВАРКАРИ АБДУРАШИДХАНОВА

Д.И. Тошева, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация:

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается деятельность и произведения одного из видных представителей узбекского джадидистского движения — Мунавваркори Абдурашидханова в сфере образования и воспитания. Как основатель джадидских школ, Мунавваркори в своих произведениях продвигал идеи просвещения, науки, нравственного воспитания и формирования национального самосознания. В статье проанализировано содержание и дидактический подход таких его произведений, как “Адаби аввал”, “Тарихи мухтасари Ислом”, “Мактаб гулшани”, а также их значимость в современной системе образования. Кроме того, освещены педагогические взгляды Мунавваркори и их связь с современными образовательными процессами.

ЦЕЛЬ: третий ренессанс начался с движения Джадидов, главной целью которого было просвещение и воспитание молодого поколения. Основатель этого движения, Мунавваркори Абдурашидханов, также в своих работах пропагандирует воспитание молодежи в духе патриотизма и вводит новый метод формирования у них свободного мышления. С этой целью в данной статье мы проанализируем труды вышеупомянутых просветителей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: цель данной статьи — анализ педагогических идей, выраженных в педагогической деятельности и научном наследии современного Просвещения, который проводился с использованием следующих методов: анализ источников, обзор литературы и диагностика их результатов на практике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье анализируются содержание, дидактический подход и значение работ Мунавваркори Абдурашидханова, таких как «Адиби аввал», «Тарихи мухтасари ислам» и «Мактаб гульшани», в современном образовании. Идеи и мысли, содержащиеся в этих работах, направлены на развитие идеологической устойчивости нашей молодежи в сегодняшние неспокойные времена.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Мунавваркори Абдурашидханов был одним из ведущих деятелей узбекского движения «Джадид», внесшим значительный вклад в развитие национального просвещения и культуры, открывая школы нового образца, создавая современные учебники и подготавливая учителей. Он уделял особое внимание интеграции нравственных и духовных ценностей с наукой в образовательный процесс.

Ключевые слова: Мунавваркори Абдурашидханов, джадидизм, образование, воспитание, просвещение, “Адаби аввал”, учебная программа, нравственное воспитание, джадидские школы, современное образование, национальное пробуждение.

EDUCATIONAL ISSUES IN THE WORKS OF MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHANOV

D.I. Tosheva, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Annotation:

INTRODUCTION: this article analyzes the educational and pedagogical activities and works of Munavvarqori Abdurashidkhanov, one of the prominent figures of the Uzbek Jadidist movement. As a founder of Jadid schools, Munavvarqori promoted ideas of enlightenment, science, moral education, and the formation of national consciousness through his works. The article examines the content and didactic approach of his notable works such as “Adibi Avval”, “Tarikhi Mukhtasari Islam”, and “Maktab Gulshani”, as well as their relevance to modern education. Moreover, the article highlights Munavvarqori’s educational views and their connection to contemporary pedagogical practices.

AIM: the third renaissance began with the Jadid movement, whose main goal was to educate the younger generation with knowledge and enlightenment. The founder of this movement, Munavvarqori Abdurashidkhanov, also promotes the education of young people in the spirit of patriotism in his works, and introduces a new method for the formation of free thinking in them. For this purpose, in this article we will analyze the works of the above-mentioned enlighteners.

MATERIALS AND METHODS: this article is aimed at analyzing the educational and educational ideas expressed in the pedagogical activities and scientific heritage of the new enlightener, which were carried out using the following methods: analysis of sources, literature review, diagnosis of practical results.

DISCUSSION AND RESULTS: this article analyzes the content, didactic approach, and the significance of Munavvarqori Abdurashidkhanov's works such as "Adibi avval", "Tarihi mukhtasari Islam", and "Maktab gulshani" in modern education. The ideas and thoughts in these works are aimed at developing the ideological immunity of our youth in today's turbulent times.

CONCLUSION: Munavvarqori Abdurashidkhanov was one of the leading figures of the Uzbek Jadid movement, making a significant contribution to the advancement of national enlightenment and culture by opening new-style schools, creating modern textbooks, and training teachers. He paid special attention to the integration of moral and spiritual values with science in the educational process.

Keywords: Munavvarqori Abdurashidkhanov, Jadidism, education, upbringing, enlightenment, Adibi Avval, curriculum, moral education, Jadid schools, modern education, national awakening.

O‘zbek xalqining ma’rifatparvarlik tarixida jadidchilik harakati alohida o‘rin egallaydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bu harakat Vatan taraqqiyoti, milliy ong va madaniyatni tiklash yo‘lida katta xizmat qilgan. Ayniqsa, ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashuv, zamonaviy fanlarni o‘qitish, bolalar qalbida vatanparvarlik va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish borasidagi sa’y-harakatlar bu davr jadid ma’rifatchilarining asosiy g‘oyalaridan biri edi. Ushbu harakatning yetuk vakillaridan biri sifatida Munavvarqori Abdurashidxonovning o‘rni beqiyosdir.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Munavvarqori nafaqat adib, balki pedagog, islohotchi va milliy uyg‘onish g‘oyalarining faol targ‘ibotchisi bo‘lgan. U tomonidan yozilgan “Adibi avval”, “Tarixi muxtasari Islam”, “Maktab gulshani” kabi o‘quv qo‘llanmalari o‘zbek maktablarida o‘qituvchilarga yo‘l-yo‘riq berish, bolalarni ilm-fan va axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. U o‘z asarlarida nafaqat bilim berishni, balki tarbiyaviy jihatdan barkamol avlodni shakllantirishni ham bosh maqsad qilib qo‘ygan. Shunday jihatlardan biri sifatida, u “Adibi avval” asarida quyidagi so‘zlarni yozadi: “Bolalarning tarbiyasiga loqayd bo‘lmoq — kelajakni yo‘qotmoqdir”[1.12b].

Ushbu maqolada Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari, uning asarlaridagi didaktik yondashuvlar hamda ularning bugungi zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Ayniqsa, uning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ta’limda qanday qo‘llanilishi, ularning dolzarbligi va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug‘ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o‘g‘li mudarris bo‘lib, o‘g‘li Munavvarqoriga ilk diniy va dunyoviy bilimlarni bergan. Munavvarqori dastlab mahalla maktabida, keyinchalik madrasalarda o‘qib, o‘z bilimini boyitgan va Qur’onni to‘liq yod olgan. U yoshligidan bilimga chanqoq, ziyoli shaxs sifatida shakllangan.Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biridir. U yangi usuldagi (usuli jadid) maktablar ochib, ta’limga yangicha metodikalarni tatbiq etdi. Jadidchilik harakati orqali u xalqni ilm-ma’rifatga chorladi, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdi. Uning faoliyati faqat o‘qituvchilik bilan cheklanmay, jurnalistika, matbuot, adabiyot, siyosiy va ijtimoiy sohalarda ham o‘z ifodasini topgan. U “Jamiyati xayriya”, “Turon” kabi ma’rifiy tashkilotlarda faol qatnashgan, “Shuhrat”, “Xurshid” kabi gazetalarda ishlagan.

Munavvarqori o‘zining pedagogik faoliyatini xalqni savodli qilishga bag‘ishladi. U 1901-yilda Toshkentda birinchi yangi usuldagi maktabni ochdi va o‘zi muallimlik qildi. Yangi maktablarda dars berish uchun o‘quv qo‘llanmalari, alifbeyu darsliklar yaratdi. “Adibi avval” va “Adibi soniy” nomli alifbeleri eng mashhur darsliklaridan bo‘lib, bolalarni savod chiqarish va yozuvga o‘rgatishda katta ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, u “O‘zbekcha til saboqlari”, “Sabzazor”, “Yer yuzi” kabi asarlarni yozib, bolalar uchun ona tili, geografiya va axloqiy tarbiya fanlarini maktab dasturiga kiritishga hissa qo‘shdi. Pedagog sifatida u tovush usuli (fonetik usul) asosida dars berishni targ‘ib qildi — bu o‘z davrida ilg‘or metod hisoblangan.

Munavvarqori nafaqat muallim, balki ta’lim sohasida islohotchi sifatida ham tanilgan. U o‘z mahallasaida yangi usuldagi maktab ochib , unga o’qiydigan bolalar uchun darsliklar va metodik qo‘llanmalar yaratdi. U tashkil etgan maktabda oddiy xalqning ham bolasi ta’lim olish imkoniga ega bo‘lgan. Maktab to’lovi o‘quvchining kitob-daftariga va mavsumiy imtixonlardan o‘tish uchun dars beradigan o‘qituvchilarga ajratilgan.

Yangi usul maktablarida eskicha ta’lim usullaridan butunlay voz kechilib yangicha usulda ta’lim amalga oshirilgan. O‘zi yaratgan jadid maktablari uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilgan. Fuzuliy, Bedil, Xo’ja Xofiz va Navoiy asarlarini bolalarga o‘qitish va yodlatishdan ko‘ra, qisqa vaqt ichida o’qish va yozishni o’rganib dastlabki diniy saboq

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bilan birga dunyoviy ilmlardan matematika, geografiya, tarix xususan “Tarixi islom” kabi fanlarni o’qitishni afzal deb bilgan.[2]

Adib bolalar uchun yaratgan alifbe tipidagi kitoblarda bo’g’inlab o’qish usulida soda va qisqa matnlar kiritgan.Ko’rgazmali usulkdagi metodik qo’llanmalar ham yaratilgan bo’lib ta’lim oluvchilarning ilmga bo’lgan qiziqishini yanada orttiradi. Pedagog olim ta’lim dasturlarini tuzishda ularning yosh xususiyati va imkoniyatini ham inobatga oladi.

Adib Tarqqiyot gazetasida yozgan maqolasida o‘sha davr ta’lim jarayonini shunday ta’riflagan “Har millatning maktab va madrasasi o‘ldig i kabi, bizni ham maktab-madrasalarimiz garchi benizom va beusul o‘lsa ham, yo‘q demak darajada oz emas. Har millat avlodini tarbiyalash va ta’limi ulumda ko‘rsatgan himmat va g‘ayrati kabi bizlarda ham o‘z ma’sum avlodlarini jaholat va g‘aflat zulmatida qolmoqig‘a hech bir rizolari o‘lmay, qo‘llaridan kelgancha ta’lim va tarbiyati avlodda qusurlik ko‘rsatmakchi zotlar mavjuddirlar”[2] Darhaqiqat adib yashagan davrda ta’lim tizimidagi kemtiklaiklar mudarrislarning salohiyatining pastligi, ta’lim tashkilotlaridagi(madrasalar) ta’lim jarayonining sifat va samarasining butunlay orqada qolganligi millatni ilmsizlikka , jaholatga olib kelayotganligini ko’rsatadi. Bu esa Munavvarqori kabi ziyoli oila fazrzandini, dunyo kezib o‘z mamlakatining ta’lim tizimidagi kemtikliklarni ko‘rishiga sabab bo‘ldi. Yuqorida aytib o’tgan kamchiliklarga bir millat farzandi sifatida ko‘z yumib tura olmadi va o’z davrida vatani va millati uchun ta’lim tizimini moderinizatsiya qilishga muvofiq bo‘ldi.

Adib 1918-yilda Dorilmuallimin (muallimlar seminariyasi) ochilishida ishtirok etdi va bu orqali o‘qituvchilarni yangicha ruhda tarbiyalashga e’tibor qaratdi.U yangi usul maktablariga zamonaviy talablar asosida bilim beradigan o’qituvchilarni tayyorlash uchun qisqa muddatli seminariyalar, o’quv kurslar ochishga erishdi va bu kurslarda pedagoglarni o‘qitdi. Adib nafaqat pedagogic sohada, balkim publistik sohada ham ancha faol edi. U 1906 yildan boshlab “O‘rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy”, “Taraqqiy” gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida “Xurshid” gazetani tashkil etgan. “Shuhrat” (1907), “Tujjor” (1907), “Osiyo” (1908) gazetalarini g‘oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. U o‘z maqolalarini shu gazetalarda chop etardi. Adib maqolalar orqali ta’limdagi islohotlarni ommaga yetkazdi, xalqni ongli ravishda yangilanishga undadi.

Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z millatdoshlarini hushyorlikka va savodli bo‘lishga chorlab eski usul maktablaridagi dasturlar va muallimlar usullari eskirganini ta’kidlaydi: “Bir bolani maktabg‘a bermakdan maqsudi vojibot diniyamiz o‘lg‘on ilmi qiroat, masoili e’tiqodiya, farz, vojib, sunnat mustahab, harom, makruh, namoz va ro‘za, haj va zakotlarni bilmoqdir. U ilmimlar o‘rniga hisob jug‘rofiya, tavorix kabi ilmlarni o’qitmak afzaldir.Bu xususda otada ayb yo‘q, chunki bu bechorani e’tiqodida bolani o‘qutmoq yolg‘iz naqd va nasiya yozdurmoqdin iboratdur. Muallimda ham ayb yo‘q, chunki bu zikr qiling‘on ulumi zaruriyalarni bechora muallimning o‘zi bilmas, balki ba’zilarini ismini ham eshitgan emas. Bechora na qilsun? Nochor, befoyda bo‘lsa ham maktablarda bolalarga o‘qitgudek bulardan boshqa bir kitob topilmag‘on zamonlarda o‘zi o‘qib, bilgan kitoblari shu kitoblar o‘ldig‘i chun eski o‘runlarda eski tushlarin ko‘rmakdadurlar”[2]. Adib bu fikrlar bilan o‘sha davr pedagoglarida zamonaviy bilimlarni yetarli emasligini ularni eskicha

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ta'limot asosida faoliyat olib borishi millat farzandlarini jaholatga olib kelganligini aytib o'tadi. Ularni tez fursatda savodini chiqarish ta'lim dasturlarini yangilash va bolalar uchun o'rganish oson bo'lgan soda va qiziqarli darsliklar yaratish uning asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Bundan tashqari Munavvarqori 1917-yil 6-sentabrda shahar boshlig'i N.G. Mallitskiy oldiga masalani boshqacha qo'yib, o'lkada mavjud bo'lgan rus-tuzem maktablarini "milliy maktab" nomi ostida milliy musulmon maktabiga aylantirishni taklif etdi. Munavvarqori bu maktablarda olti yillik o'quv dasturini joriy etish loyihasini ham taqdim qiladi.

Munavvarqori "milliy maktab" asoschisi bo'lib qolish bilan birga chet elga bolalarni o'qishga yuborish masalasini ham yechishga intildi. U dastlab 1917-yil 24-sentabr kuni o'z uyida toshkentlik ziyoli va boylardan 50 – 60 kishi yig'idi. Majlisda ishtirok etgan barcha boylar va ziyolilar yoshlarni chetga o'qishga yuborish uchun o'rtaga pul tashlaydilar. Xazinachi Murodxo'ja domla Solihov pulni yig'ib oladi. Ushbu voqea ishtirokchisi Shokirjon Rahimiy aytishicha, Munavvarqori bu bilangina kifoyalanmay, "Nashri maorif" uyushmasi tomonidan ham talabalarga yordam ko'rsatadi. Hokimiyat tepasiga sho'rolar kelgan paytda esa bevosita Munavvarqori ishtirokida "Ko'mak" uyushmasi tuziladi. Ammo uyushmaning mablag'i talabalarga to'lash uchun yetmas edi. Shu sababli har bir o'quvchi bir ministrlikka biriktiriladi. Munavvarqori maktab islohoti, yangi shakldagi o'rta va oliy o'quv yurtini tashkil etishning barcha masalalari bilan jiddiy shug'ullandi. U o'zining "Adibi avval" nomli darsligi orqali maktablarda yangicha, zamonaviy uslubda ta'lim berishni targ'ib qilgan. Ushbu asarda arab, fors va turkiy tillarining grammatikasi, o'qish va yozish qoidalari, shuningdek, axloqiy saboqlar uyg'un holda bayon etilgan bo'lib, bu darslik o'z vaqtida jadid maktablarining asosiy o'quv qo'llanmasiga aylangan.[1.3-5b]

Abdurashidxonov jadid maktablari orqali xalq ongini yuksaltirish, savodsizlikka barham berish va islohotlar orqali yangi zamon talablari asosida ta'limni tashkil etish tarafdori edi. Uning tashabbusi bilan 1908-yilda Toshkentda ochilgan "Yangi usul" maktabi o'zbek jadid maktablarining dastlabki namunalaridan biri bo'ldi.[7.174b] Munavvarqorining ta'limga bo'lgan yondashuvi – milliy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy fan va dunyoqarashni uyg'unlashtirishdan iborat edi. U o'quv dasturlarida ona tili, tarix, geografiya, matematika, jismoniy tarbiya kabi fanlarga alohida urg'u bergan. Bu boradagi qarashlarini "Tarixi muxtasari Islom" asarida ham aks ettirgan bo'lib, unda islom tarixini qisqa va tushunarli shaklda bayon qilib, yosh avlodga tarixiy ong va milliy g'ururni shakllantirishni maqsad qilgan.[4.5-20b]

Munavvarqori yangi usuldagi maktablarning zarurligini bir necha bor o'z maqolalarida va asarlarida qayd etgan. U eski usuldagi maktablarda bolalarning faqatgina Qur'on yodlash bilan cheklanib qolayotganini tanqid qilgan va yangi usul maktablarda esa bolalar nafaqat diniy bilim, balki dunyoviy fanlarni ham o'zlashtirishlari lozimligini ta'kidlagan. Jadid maktablari orqali "fikrlaydigan avlod"ni voyaga yetkazishni asosiy maqsad sifatida ilgari surgan.[6.88-92b] Jadid ma'rifatparvari Abdurashidxonov ilm-fan va dunyoviy bilimlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida keng fikr yuritgan. U ilmni "millatni qutqaruvchi kuch" deb bilgan. Shuning uchun ham u har qanday islohotning

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

asosi sifatida ta'limni ko'rgan va darsliklar yaratishga, o'qituvchilar tayyorlashga katta e'tibor qaratgan. Abdulla Avloniy ham Munavvarqori bilan hamfikr bo'lib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloqiy tarbiyaning aynan ilm bilan uyg'un holda berilishi zarurligini ta'kidlagan.[3.10-25b]

Munavvarqorining qarashlari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. U yaratgan darsliklar va ta'lim tizimi xalq ma'rifatini oshirishga xizmat qilgan, jadid maktablari orqali esa O'zbekistonda yangi uyg'onish davrining tamal toshini qo'ygan.

Munavvarqori bir qancha darslik muallifidir. Uning "Adibi avval" (1907), "Adib as-soniy" (1907), "Usuli hisob", "Tarixi qavm turk", "Tajvid" (1911), "Havoyiji diniya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya" (1912), "Yer yuzi" (1916 – 17), 4 qismdan iborat "O'zbekcha til saboqligi" (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925–26, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan. 1914-yili taraqqiyparvar o'zbek shoirlarining she'rlarini jamlab, "Sabzavor" nomi bilan nashr etgan. Munavvarqori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Uning birinchi hikoyasi "Sadoyi Turkiston" gazetasida "Kichkina felyeton" ruknida chop etilgan bo'lib, "Bizda hamiyat" deb ataladi. U negadir "Muharram" taxallusini qo'ygan. Shuningdek, uning "Bizda hamiyat", "Tug'ishganlik sevgisi", "Devpechak", "Qullikka qanday tushdi?" kabi hikoyalari "O'zi ham tor edi", "Yalqovlik yovimizdir", "Har kim ekkanini o'rar", "Himmatli faqir" kabi she'rlari ham matbuotda e'lon qilingan.

Muallifning asarlari o'z davrining ta'lim va tarbiya masalalariga oid muhim manba sifatida e'tiborga loyiqdir. U yozgan darsliklar va publitsistik maqolalar o'quvchilarga nafaqat bilim berishga, balki ularni milliy va diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Bu asarlar orqali muallif o'qituvchilik faoliyatining faqat texnik jihatlariga emas, balki tarbiya, axloq va ma'rifat masalalariga ham katta ahamiyat berganini ko'rish mumkin. Adib o'zining darsliklarida didaktik uslubni qo'llagan, ya'ni har bir mavzu o'quvchiga bosqichma-bosqich, tushunarli va hayotiy misollar bilan yetkazilgan. Bu esa yosh avlodning nafaqat bilim olishini, balki uni amalda qo'llashini ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, diniy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali, muallif o'quvchilar qalbida mustahkam axloqiy poydevor yaratishga intilgan. Bu jihat ayniqsa, "Maktab gulshani" va "Tarixi muxtasari Islom" asarlarida yaqqol ko'rinadi. Publitsistik maqolalar orqali muallif jamiyatdagi o'qituvchilar mas'uliyatini, maktab islohoti zaruratini, zamonaviy ta'lim uslublarini targ'ib qilgan. U o'qituvchilarni millat kelajagi quruvchilari sifatida ko'radi va ularning faolligi, mas'uliyatli yondoshuvi zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni sifatli va zamonaviy tarbiyalash uchun poydevor yaratadi.

"Adibi avval" (1907)-"Adibi avval" kitobi boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda muallif yosh o'quvchilarga axloq, odob va ilm-fan asoslarini o'rgatishni maqsad qilgan. Kitob didaktik uslubda yozilgan, ya'ni har bir mavzu aniq va oddiy tilda, bosqichma-bosqich tushuntirilgan. Bu uslub yosh avlodning bilim olish jarayonini osonlashtiradi va ularni o'qishga qiziqtiradi. Muallif kitobda shunday yozadi:"Ilm olish – insonning eng oliy vazifasi, odob va axloq esa ilmning hamrohidir".[1.15b] Bu jumla o'quvchiga ilm va axloq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Ilmsiz odamning odobi bo'lmasligi mumkin, odobsiz odam esa ilm egasi bo'lsa-da, jamiyatga foyda keltira

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

olmaydi. Shu bois, muallif yoshlar tarbiyasida bilim bilan birga axloqiy me'yorlarni ham birdek muhim deb biladi. Asarda muallif ilm haqida shunday baytlar keltiradi:

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,
Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar.
Har kishi ilm-la bo'lsa oshno,
Izzatu davlatda bo'lg'ay doimo,
Ilmsiz odam zalilu xor o'lur,
Ilmsizlardan hamma bezor o'lur.[1.3b]

Adibning **"Maktab gulshani"** asari axloqiy-etik darslik sifatida yaratilgan bo'lib, unda tarbiya va diniy-ma'rifiy qadriyatlar uyg'unligi alohida ta'kidlangan. Muallif, darslikda o'quvchilarga faqat ma'rifiy bilim berish emas, balki ularni ma'naviy yetuk shaxslar qilib tarbiyalashni maqsad qilgan. Kitobda inson qalbini poklash va uni to'g'ri yo'lga boshlash uchun faqat ilm kifoya qilmasligi, balki to'g'ri e'tiqod va axloqiy qadriyatlar ham zarurligi bayon etilgan. Muallif shunday yozadi:"Inson qalbini poklash uchun faqat bilim emas, balki to'g'ri e'tiqod va axloq zarurdir".[5.22b] Bu fikr o'quvchilarga nafaqat ilm-fan, balki e'tiqod va axloqni ham birdek o'rganishlari zarurligini anglatadi.

Munavvarqonining tarbiyaviy ta'limiy asarlaraidan yana biri bu **"Tarixi muxtasari Islom"** asaridir.Bu asar Islom tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif o'quvchilarga diniy va milliy ongni shakllantirish uchun tarbiyaviy ma'lumotlar beradi. Tarixiy voqealar va shaxslar orqali muallif o'quvchilarga milliy g'urur va diniy qadriyatlarni tushuntirishga harakat qiladi. Bu esa yosh avlodda o'z tarixini bilish, uni hurmat qilish va undan saboq olish ongini shakllantiradi. Muallif ta'kidlaydi:"Tarixdan saboq olmas ekanmiz, kelajakda mustahkam poydevor qurib bo'lmaydi".[4.40b] Bu gap o'quvchilarga o'z tarixini o'rganish va qadrlashning ahamiyatini tushuntiradi. Muallifning "Hurriyat", "Sadoi Turkiston", "Taraqqiy" kabi gazetalar orqali bergan chiqishlari uning ma'rifatparvarlik faoliyatini ko'rsatadi. Adib dastlab "Sadoi Turkiston" gazetasida "Muharram" tahallusi bilan hikoya va felitonlar yozgan. Uning "Bizda hamiyat hikoyasi" juda tarbiyaviy ahamiyatga ega asar bo'lib ilmsizlik xuddi so'qirdek yo'lini yoqotgan kishiga o'xshaydi. U hechkimga keraksiz va yoki kimningdir yordamida harakat qiladi. Millatni bu ojizlikdan faqat ilm qutqaradi. Ziyo millat butun kelajakni yaratguchilari ekanligini ta'kidlab shunday deydi: "«Ziyoli millat, Vatan nima ekanini bilur va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar. Vaqti kelganda, millat uchun o'zini haloka vartasiga tashlamoqqa muhayyo bo'lur... Millat, vatan, madaniyat, shunga o'xshash so'zlarni bilmak bilan ziyoli bo'lmaydur".[8]

Xullas, adib o'z davridagi haqiqiy ziyolilarning intilishlarini, mas'uliyatlarini aniq chizgilarda ko'rsatib beradi. Bu hikoya shu kunda ham ko'pgina jihatlari bilan zamonaviy asar desa mubolag'a bo'lmaydi. U yalqov, dangasa, o'qishni, hunarni o'rganmaydigan, aqli farosati kemtik yoshlarni hajv ostiga oladi. Yoshlarni ilm-ma'rifatga, kasb egallashga, ota-onani hurmat qilishga chorlaydi. Uning "O'zi ham tor edi", "Yalqovlik yovimizdir", "Har kim ekkanini o'rar", "Himmatli faqir" she'rlari fikrimizga dalil bo'la oladi.

Qo'zg'olingiz, ey o'rtoqlar! Keldi bizga ishlash chog'i,
Biz barchamiz yosh ishchimiz, ishxonamiz —maktab bog'i.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Turing, tezroq ish boshlaylik,
Yalqovlikni biz tashlaylik!
Ko‘kdan bulut yomg‘ir sochar, suvlar oqar, o‘tlar o‘sar,
Qushlar uchar, oziq izlar, butun dunyo tinmay ishlar.
Siz ham turing, ey o‘rtoqlar,
Yurt obro‘sin yoshlar saqlar.[9]

Adib “ Yalqovlik yovimizdir” she’rida bolalarni mehnatsevarlika undayabdi, dangasalik yomon xulq va odat ekanligini bu insonni hayotini qiyonlashtirishini. Doimo mehnat va harakatda bo‘lishni ta’kidlaydi. Adib o‘z maqolalarida o‘qituvchilarning jamiyatdagi mas’uliyatini, maktablarda islohotlarning zarurligini ta’kidlaydi. U shunday yozadi:“O‘qituvchi – millatning kelajagi, uning poydevorini qo‘yuvchi shaxsdir. Uning faoliyati millat taraqqiyotining asosidir”.[10] Bu fikr o‘qituvchilar roli va maktab islohotlariga bo‘lgan qarashlarni yaqqol ko‘rsatadi. Muallif maktablarda zamonaviy uslublar va ma’naviy tarbiya uyg‘unligi muhimligini ta’kidlaydi, bu esa milliy taraqqiyot uchun muhim omildir.

XX asr boshlarida O‘zbekistonda milliy ma’rifatni yuksaltirish, zamonaviy bilim va tafakkur asosida yangi avlodni tarbiyalash maqsadida yuzaga kelgan jadidchilik harakati doirasida Munavvarqori Abdurashidxonov muhim pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan ma’rifatparvardir. Uning ta’limga oid qarashlari bugungi zamonaviy ta’lim tizimi bilan chuqur uyg‘unlashib, o‘zbek maktablari va ta’lim jarayonlarida davom ettirilmoqda. Munavvarqori ta’limni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan, ilmiy asoslagan va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llagan tizim sifatida ko‘rgan. U ta’limning nafaqat bilim berish, balki tarbiya, axloq va madaniyatni shakllantirishdagi o‘rniga alohida urg‘u bergan. Munavvarqori o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga katta ahamiyat bergan. U o‘zining “Tarixi muxtasari Islom” asarida ilm-fan va tafakkurga asoslangan yondashuvni ta’kidlab, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga chaqiradi.[4.34b] Bu esa zamonaviy ta’limda ham asosiy maqsadlardan biri bo‘lib, talabalar va o‘quvchilarni faqat ma’lumot olishga emas, balki uni tahlil qilish, teskari fikr bildirish va o‘z mustaqil qarorini shakllantirishga o‘rgatadi. Adib ta’limda milliy madaniyat va tilni saqlashga katta e’tibor bergan. U o‘z asarlarida, xususan Abdulla Avloniy yozgan “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida milliy qadriyatlarning ta’lim orqali yosh avlodga singdirilishi zarurligini ta’kidlaydi.[3.12-15b] Bugungi kunda ham o‘zbek tilini, milliy an’analarni ta’lim tizimida himoya qilish va rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Munavvarqori zamonaviy metodikalarni tatbiq etishga intilgan. U o‘z maktablarida yangi pedagogik usullarni qo‘llashni yo‘lga qo‘ygan, interfaol darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarni faollikka chaqirgan.[6.78-80b] Hozirgi kunda ta’limda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda, bu esa Munavvarqori pedagogik merosining amaliy davomidir. Munavvarqori o‘z maktablarida o‘qituvchilarni tayyorlashga alohida e’tibor bergan. Bugungi kunda ham pedagoglarning zamonaviy metodlar va milliy-ta’limiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan malakasini oshirish kerak. Maktablarda, akademiyalarda jadidchilik pedagogikasini o‘rganish, munozaralar tashkil qilish uning ruhini jonlantiradi.[7.210b]

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Munavvarqori ta'limda asosiy o'rin tutgan darsliklarni ilmiy asosda yozgan. Hozirgi zamon darsliklari ham o'zbek tilida, milliy madaniyat va tarixni aks ettiruvchi hamda zamonaviy ilmiy yondashuvni o'z ichiga oluvchi bo'lishi lozim. Bu darsliklarni yaratishda Munavvarqori pedagogik printsiplari asosiy yo'nalish sifatida xizmat qilishi mumkin.[12.102-105b]. Munavvarqori g'oyalari asosida, ayniqsa tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlashni shakllantirishda interaktiv dars metodlari, multimedia vositalari va onlayn resurslardan foydalanish samarali. Bu ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.[11.]

Munavvarqori milliy qadriyatlarni asrab-avaylashni ta'limning asosiy maqsadi deb hisoblagan. Bugungi kunda ham ta'lim muassasalarida milliy tarbiya, madaniyat, tarix va tilni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bu orqali yosh avlod o'zligini anglashi va milliy istiqlol g'oyalarini mustahkamlashi mumkin.[6.95b] Munavvarqori diniy maktab tizimidan zamonaviy, dunyoviy bilimlarni o'z ichiga olgan yangi usul maktablariga o'tishni ilgari surdi. U o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, milliy til va madaniyatni asrab-avaylash, shuningdek, pedagogik metodlarni yangilash orqali ta'lim sifatini oshirishga intildi. Uning g'oyalari va metodik ishlanmalari bugungi kunda ham ta'lim jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Munavvarqorining ta'limga oid qarashlari, xususan milliy qadriyatlarni saqlash, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish va innovatsion pedagogik uslublarni joriy etish bugungi zamon ta'lim tizimida ham samarali qo'llanilishi mumkin. Uning merosi pedagoglarni tayyorlash, darsliklar yaratish va milliy madaniyatni rivojlantirishda asosiy yo'nalish sifatida xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.Abdurashidxonov M. "Adibi avval" — Toshkent, 1907
2.Abdurashidxonov M " Bizning jaholat –jahli murakkab" maqolasi Taraqqiy gazetasi"1906 y.14-iyun.
3. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq" — Toshkent, 1912.
4.Abdurashidxonov M. "Tarixi muxtasari Islam" — Toshkent, 1915.
5. Abdurashidxonov M. "Maktab gulshani", Toshkent, 1908y.22-bet.
6. Karimov, M. *Jadidchilik harakati va uning ta'limdagi o'rni*. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 88–92
7.To'xtaboyev, S. "Munavvarqori va jadid maktablari", *O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. – Toshkent, 2005. – B. 174
8." Sadoi Turkiston gazetasi, " Bizda hamiyat" hikoyasi.1907y.3-son.
9.Munavvarqori " Yalqovlik yovimizdir" she'ri.1908 yil.
10."Hurriyat" gazetasi maqolalari — Toshkent, 1910–1915.
11."Sadoi Turkiston" gazetasi maqolalari — Toshkent, 1912–1917.
12. Usmonov, M. *XX asr boshidagi o'zbek ma'rifatparvarlari va ularning merosi.* Toshkent: Ma'naviyat, 2015, bet 102-105.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

TA'LIM GRANTLARI BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Nurmuratov Anvar Yaxshibayevich, Samarqand davlat chet tillar instituti Samarqand davlat chet tillar instituti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi (PhD), dotsent v.b., Samarqand , O'zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: zamonaviy ta'lim tizimida grant mablag'lari ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va ta'lim sifatini oshirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim grantlari bilan samarali ishlash ko'nikmalari pedagoglar, tadqiqotchilar va boshqaruv xodimlarining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Grant loyihalarini ishlab chiqish, hujjatlashtirish, moliyaviy rejalashtirish va hisobot yuritish jarayonlari chuqur nazariy bilim hamda metodologik tayyorgarlikni talab etadi. Shu bois ta'lim grantlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

MAQSAD: ta'lim grantlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda metodologik asoslarini aniqlash, ularning pedagogik va tashkiliy samaradorligini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga yo'naltirilgan metodologiya asos qilib olindi. Nazariy tahlil, ilmiy manbalarni umumlashtirish, taqqoslash, modellashtirish, pedagogik kuzatuv va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, grant loyihalarini ishlab chiqish jarayonini bosqichma-bosqich modellashtirish hamda amaliy trening mashg'ulotlari orqali ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, grantlar bilan ishlash ko'nikmalari quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat: analitik (muammoni aniqlash va asoslash), loyihalash (maqsad, vazifa va kutilayotgan natijalarni belgilash), moliyaviy-rejalashtirish (byudjet tuzish), kommunikativ (hamkorlik va muzokara olib borish), hamda monitoring va baholash kompetensiyalari. Mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishda interaktiv treninglar, keys-stadi, loyiha simulyatsiyasi va mentorlik mexanizmlari samarali natija beradi. Natijada ishtirokchilarning grant arizalarini tayyorlash sifati, tanlovlarda ishtirok etish faolligi hamda loyiha boshqaruvi samaradorligi oshishi kuzatildi.

XULOSA: ta'lim grantlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimli, kompetensiyaviy va amaliy yo'naltirilgan yondashuvlarga tayangan holda shakllantirilishi lozim. Mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish, ilmiy faoliyat samaradorligini kuchaytirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim grantlari, grant loyihasi, nazariy-metodologik asoslar, kompetensiyaviy yondashuv, loyiha boshqaruvi, moliyaviy rejalashtirish, innovatsion faoliyat.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ РАБОТЫ С ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ГРАНТАМИ

Нурмуратов Анвар Яхшибаевич, Самаркандский государственный институт иностранных языков, Начальник учебно-методического управления, кафедра методики преподавания английского языка, PhD, и.о. доцента, Самарнканд, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в современной системе образования грантовое финансирование является одним из важных механизмов поддержки научно-исследовательской деятельности, реализации инновационных идей и повышения качества образования. Навыки эффективной работы с образовательными грантами становятся неотъемлемой частью профессиональной компетентности педагогов, исследователей и управленческих кадров. Разработка грантовых проектов, оформление документации, финансовое планирование и подготовка отчетности требуют глубоких теоретических знаний и методологической подготовки. В этой связи исследование теоретико-методологических основ развития навыков работы с образовательными грантами является актуальной научной задачей.

ЦЕЛЬ: определить теоретические и методологические основы формирования и развития навыков работы с образовательными грантами, а также обосновать их педагогическую и организационную эффективность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы системный подход, компетентностный подход и деятельностно-ориентированная методология. Применялись методы теоретического анализа, обобщения научных источников, сравнительного анализа, моделирования, педагогического наблюдения и анкетирования. Кроме того, изучались механизмы формирования навыков посредством поэтапного моделирования процесса разработки грантовых проектов и проведения практико-ориентированных тренингов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что навыки работы с грантами включают следующие структурные компоненты: аналитический (определение и обоснование проблемы), проектировочный (формулирование целей, задач и ожидаемых результатов), финансово-планировочный (составление бюджета), коммуникативный (сотрудничество и ведение переговоров), а также компетенции мониторинга и оценки. Развитию данных навыков способствуют интерактивные тренинги, кейс-стади, моделирование проектов и механизмы наставничества. В результате отмечено повышение качества подготовки грантовых заявок, активности участия в конкурсах и эффективности управления проектами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: теоретико-методологические основы развития навыков работы с образовательными грантами должны формироваться на основе системного, компетентностного и практико-ориентированного подходов. Развитие данных навыков способствует повышению инновационного потенциала

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

образовательных учреждений, эффективности научной деятельности и расширению международного сотрудничества.

Ключевые слова: образовательные гранты, грантовый проект, теоретико-методологические основы, компетентностный подход, управление проектами, финансовое планирование, инновационная деятельность.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING SKILLS IN WORKING WITH EDUCATIONAL GRANTS

Nurmuratov Anvar Yakhshibayevich, Samarqand State Institute of Foreign Languages Head of the Educational and Methodological Department, Department of English Language Teaching Methodology, PhD, Acting Associate Professor, Samarqand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the modern educational system, grant funding is one of the key mechanisms for supporting research activities, implementing innovative ideas, and improving the quality of education. Skills in working effectively with educational grants are becoming an integral part of the professional competence of teachers, researchers, and administrators. The development of grant projects, preparation of documentation, financial planning, and reporting require profound theoretical knowledge and methodological training. Therefore, the study of the theoretical and methodological foundations for developing skills in working with educational grants is a relevant scientific issue.

AIM: to identify the theoretical and methodological foundations for the formation and development of skills in working with educational grants and to substantiate their pedagogical and organizational effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: the research was based on a systemic approach, a competency-based approach, and an activity-oriented methodology. Methods such as theoretical analysis, synthesis of scientific sources, comparative analysis, modeling, pedagogical observation, and questionnaires were employed. In addition, mechanisms for skill development were examined through step-by-step modeling of the grant project development process and the implementation of practice-oriented training sessions.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings revealed that skills in working with grants include the following structural components: analytical (identifying and justifying the problem), project-design (formulating goals, objectives, and expected outcomes), financial planning (budget preparation), communicative (collaboration and negotiation), as well as monitoring and evaluation competencies. Interactive training, case studies, project simulations, and mentoring mechanisms proved effective in developing these skills. As a result, an improvement was observed in the quality of grant applications, participation in competitive calls, and overall project management efficiency.

CONCLUSION: the theoretical and methodological foundations for developing skills in working with educational grants should be formed on the basis of systemic,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

competency-based, and practice-oriented approaches. The development of these skills contributes to enhancing the innovative potential of educational institutions, increasing the effectiveness of research activities, and expanding international cooperation.

Keywords: educational grants, grant project, theoretical and methodological foundations, competency-based approach, project management, financial planning, innovative activity.

Globallashuv va ta’limning internatsionallashuvi sharoitida oliy ta’lim tizimi tub transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Universitetlar endilikda faqat bilim beruvchi institut emas, balki ilmiy-innovatsion markaz, mintaqaviy rivojlanish drayveri va xalqaro akademik hamkorlik subyekti sifatida faoliyat yuritmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda universitetlarning barqaror rivojlanishi va strategik ustunlikka erishishi ko‘p jihatdan ularning tashqi moliyaviy resurslarni, xususan, grant mablag‘larini jalb etish salohiyatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Grant tizimi ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish, laboratoriya va infratuzilmani modernizatsiya qilish, xalqaro almashinuv dasturlarini kengaytirish hamda professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilarning ilmiy faolligini rag‘batlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Grantlar oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanish strategiyasida markaziy o‘rin egallaydi. Ular ilmiy g‘oyalarni amaliy natijaga aylantirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, fanlararo tadqiqotlarni kengaytirish hamda universitet–sanoat hamkorligini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, grantlar xalqaro reytinglar va akkreditatsiya jarayonlarida ham muhim indikatorlardan biri hisoblanadi, chunki ular ilmiy faoliyatning intensivligi va natijadorligini aks ettiradi. Demak, grant mablag‘larini jalb etish salohiyati zamonaviy universitetning institutsional yetukligi va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, grantlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, ta’lim menejmenti va kasbiy kompetensiyalar nazariyasida dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi. Grant faoliyati murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli jarayon bo‘lib, u faqat ariza topshirish yoki hujjat tayyorlash bilan cheklanmaydi. U strategik rejalashtirish, muammoni chuqur tahlil qilish, maqsad va vazifalarni aniq belgilash, loyiha dizaynini ishlab chiqish, indikatorlar tizimini yaratish, budjetni asoslash, risklarni baholash, monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish hamda yakuniy hisobot tayyorlash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Har bir bosqich o‘ziga xos metodologik yondashuv va amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi.

Mazkur jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun shaxsda tizimli fikrlash, analitik tahlil qobiliyati, kommunikativ kompetensiya, jamoada ishlash ko‘nikmasi, moliyaviy savodxonlik hamda vaqtni samarali boshqarish kabi sifatlar shakllangan bo‘lishi lozim. Shu sababli grant bilan ishlash ko‘nikmalari alohida kasbiy kompetensiya sifatida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

talqin etilishi zarur. Ushbu kompetensiya integrativ xarakterga ega bo‘lib, unda bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Grant menejmenti kompetensiyasi nafaqat individual darajada, balki institutsional darajada ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u universitetning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim grantlari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi kompetensiyaviy yondashuv, loyiha boshqaruvi nazariyasi, ta’lim menejmenti va institutsional rivojlanish konsepsiyalari kesishgan nuqtada shakllanadi. Mazkur muammoni ilmiy jihatdan asoslash uchun, avvalo, kompetensiya nazariyasi va samarali boshqaruv modellari bilan bog‘liq fundamental tadqiqotlarga murojaat qilish zarur.

Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning qo'llanilishi Bugungi kunda ta'lim sohasida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar juda xilma-xildir. Learning Management Systems (LMS) - Moodle, Canvas, Google Classroom kabi platformalar darslarni tashkil etish, topshiriqlarni berish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari o'quvchilarga immersiv ta'lim tajribasini taqdim etib, murakkab mavzularni visuallashtirish imkonini beradi. Masalan, tibbiyot talabalariga anatomiyani VR orqali o'rgatish an'anaviy metodlardan ancha samaraliroq ekanligini tadqiqotlar ko'rsatmoqda.Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rgatish texnologiyalari shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Adaptiv ta'lim tizimlari har bir o'quvchining o'rganish tezligi va uslubiga moslashib, individual ta'lim yo'llarini taklif etadi. Masalan, Knewton va DreamBox Learning

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

platformalari o'quvchining real vaqt rejimidagi natijalariga asoslanib, keyingi topshiriqlarni moslashtirib beradi.

Gamifikatsiya va o'yinlashtirilgan ta'lim motivatsiyani oshirish va o'quvchilarni faol jalb qilishning samarali usuli hisoblanadi. Kahoot, Quizizz, Classcraft kabi platformalar dars jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya elementlaridan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning qiziqishi 40-60 foizga oshadi. Ochiq ta'lim resurslari (OER - Open Educational Resources) ta'limni demokratlashtirish va barcha uchun qulaylashtirish imkonini beradi. Khan Academy, Coursera, edX, MIT OpenCourseWare kabi platformalar millionlab o'quvchi va o'qituvchilarga bepul yuqori sifatli ta'lim materiallarini taqdim etmoqda. O'zbekiston kontekstida, milliy raqamli ta'lim platformalarini yaratish va mahalliy til va madaniyatga moslashtirilgan resurslarni ishlab chiqish strategik ahamiyatga ega.

Raqamlashtirish jarayonida bir qancha muammolar mavjud. Birinchidan, raqamli tafovut (digital divide) muammosi - barcha hudud va ijtimoiy qatlamlardagi o'quvchilarning texnologiyalarga teng kirish imkoni yo'qligi. Qishloq joylaridagi maktablar shaharlarga nisbatan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ikkinchidan, o'qituvchilarning qarshilik ko'rsatishi (resistance to change) - yangi texnologiyalarni qabul qilishdan tortinish va an'anaviy metodlarni afzal ko'rish. Uchinchidan, moliyaviy cheklovlar - zamonaviy texnologiyalar va infratuzilmaga katta investitsiyalar talab etiladi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur. Davlat darajasida milliy raqamli ta'lim strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, barcha ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash zarur. Xususiy sektor bilan hamkorlik qilish orqali texnologik mahsulotlarni arzon narxlarda yetkazib berish mumkin. Mikrosoftning "Affordable Access Initiative" dasturi kabi loyihalar rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'limni raqamlashtirishga katta hissa qo'shmoqda.

O'qituvchilarning qarshiligini kamaytirishda change management strategiyalaridan foydalanish samarali. John Kotter tomonidan ishlab chiqilgan o'zgarishlarni boshqarishning sakkiz bosqichi modeli ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Bu modelda shoshilinchlik hissini yaratish, yetakchilar koalitsiyasini tuzish, viziyani shakllantirish va natijalarni mustahkamlash kabi bosqichlar mavjud.

Kelgusi 5-10 yil ichida ta'lim sohasida quyidagi tendentsiyalar kuchayishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi virtual o'qituvchilar va ko'mak dasturlar an'anaviy o'qituvchilarning yordamchisi sifatida keng qo'llanila boshlaydi. Blokchain texnologiyasi orqali ta'lim sertifikatlari va diplonlarni xavfsiz saqlash va tasdiqlash tizimi joriy etiladi. Internet of Things (IoT) texnologiyalari aqlli sinf xonalarini yaratishda, o'quvchilarning individual o'rganish sharoitlarini monitoring qilishda qo'llaniladi.

Gibrid va blended learning (aralash ta'lim) modellari keng tarqaladi, bu esa onlayn va oflayn ta'limning eng yaxshi tomonlarini birlashtiradi. Pandemiya tajribasi shuni ko'rsatdiki, moslashuvchan ta'lim modellari har qanday inqirozlarda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim (competency-based

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

education) an'anaviy vaqt asosidagi ta'limdan asta-sekin almashib boradi. Bu yondashuv o'quvchilarning haqiqiy bilim va ko'nikmalarini baholashga, ularning individual rivojlanish tezligini e'tiborga olishga imkon beradi.

Ta'lim sohasini muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun bir necha muhim qadamlar zarur. Birinchidan, ta'lim muassasalari o'zlarining raqamli transformatsiya xaritalarini ishlab chiqishlari kerak, bu yerda qisqa, o'rta va uzoq muddatli maqsadlar aniq belgilanishi lozim. Ikkinchidan, o'qituvchilarni tizimli ravishda tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, ularga raqamli pedagogika bo'yicha doimiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish kerak. Uchinchidan, o'quvchilarning raqamli savodxonligi va raqamli xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor berish zarur. O'quvchilar nafaqat texnologiyalardan foydalanishni, balki ularni tanqidiy baholashni, onlayn havfsizlikni ta'minlashni va raqamli fuqarolik ko'nikmalarini egallashlari kerak. Raqamli etika va axloq masalalari ta'lim dasturlarining ajralmas qismiga aylanishi lozim. To'rtinchidan, sifatni baholash tizimini yangilash kerak. An'anaviy imtihonlar va testlar XXI asr ko'nikmalarini to'liq baholay olmaydi. Portfoliolar, loyihaviy ishlar, hamkorlikdagi topshiriqlar va real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini baholovchi innovatsion metodlarni joriy etish zarurati tug'ilmoqda.
Milliy kontekst va mahalliy yechimlar: O'zbekiston ta'lim tizimi uchun raqamlashtirish jarayonida milliy xususiyatlarni hisobga olish muhimdir. Mahalliy til va madaniyatga moslashtirilgan raqamli ta'lim resurslari yaratish, o'zbek tilida sifatli ta'lim kontenti ishlab chiqish ustuvor vazifadir. Mintaqaviy universitet va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda raqamli pedagogika bo'yicha tadqiqot va ishlanmalar olib borish, mahalliy tajribalarni to'plash va tarqatish zarur. Qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini raqamlashtirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, mobil ta'lim tirkamalarini yaratish, sputnik internet orqali uzoq hududlarni ulash kabi yechimlar samarali bo'lishi mumkin. Ijtimoiy sheriklik asosida xususiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda raqamli tafovutni kamaytirish loyihalarini amalga oshirish muhim.

O'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish bu jarayonning markazida turadi. Professional rivojlanish dasturlari, doimiy qo'llab-quvvatlash, mentorlik va hamkorlikka asoslangan o'rganish muhitlari orqali o'qituvchilar raqamli davr talablariga javob beradigan malakali pedagoglar bo'lib yetishadilar. Kelajakdagi ta'lim tizimi sun'iy intellekt, virtual reallik, adaptiv ta'lim va boshqa innovatsion texnologiyalar bilan boyitiladi, lekin o'qituvchining insoniy mezoni, his-tuyg'ulari va pedagogik mahorati hech qachon almashtirib bo'lmaydigan qiymatlar bo'lib qoladi. Raqamlashtirish jarayonida teng imkoniyatlarni ta'minlash, raqamli tafovutni kamaytirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish va barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratish muhim masalalar hisoblanadi. Agar biz bugungi kunda to'g'ri strategiyalarni qo'llasak, kelajak avlodni raqamli dunyoda muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan qurollantira olamiz. Ta'lim sohasini raqamlashtirish - bu investitsiya, bu kelajagimizga sarmoya kiritishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

1. Christensen, C. M., Horn, M. B., & Johnson, C. W. (2008). Disrupting Class: How Disruptive Innovation Will Change the Way the World Learns. McGraw-Hill Education.
2. European Commission. (2022). DigCompEdu: The European Framework for the Digital Competence of Educators. Joint Research Centre, Publications Office of the European Union.
3. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). "What is Technological Pedagogical Content Knowledge?" Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 9(1), 60-70.
4. Kotter, J. P. (2012). Leading Change. Harvard Business Review Press.
5. Mitra, S., & Dangwal, R. (2010). "Limits to self-organising systems of learning—the Kalikuppam experiment." British Journal of Educational Technology, 41(5), 672-688.
6. OECD. (2023). Education at a Glance 2023: OECD Indicators. OECD Publishing, Paris.
7. Robinson, K., & Aronica, L. (2015). Creative Schools: The Grassroots Revolution That's Transforming Education. Viking Press.
8. Shikarov, T. T. (2024). "Pedagogik faoliyatda axborot texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari." Медицина, Педагогика и Технология: Теория и Практика, Том 2, Vipusk 2, 398-402.
9. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education - A Tool on Whose Terms? UNESCO Publishing.
10. World Bank Group. (2023). World Development Report 2023: Learning to Realize Education's Promise. The World Bank, Washington, DC.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

HOJI MUIN SHUKRULLO O‘G’LINING JADIDCHILIK FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA MEROSI

R.I.Temirov, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O’zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining taniqli vakili Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va o‘zbek milliy matbuoti hamda dramaturgiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Adibning "Eski maktab — yangi maktab", "Mazluma xotin" kabi asarlari orqali jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashi yoritilgan.

MAQSAD: bugungi zamonaviy ta’lim jarayonida bo’lajak o’qituvchilarda jadid adabiyoti, xususan, Hoji Muin Shukrullo o‘g’li merosini o‘rganish, ularning kasbiy mahorat va kompitensiyalarini rivojlantrishda dasturul amal bo’lib xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada bo’lajak o’qituvchilarda XIX asr oxiri XX asr boshlarida, faoliyat olib borgan Hoji Muin Shukrullo o‘g’li merosini organishda va tahlil qilishda nechta metodlar qo’llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, amaliyotga oid tadqiqotlar;

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada bo’lajak o’qituvchilarda Turkiston jadidchilik harakatining taniqli vakili Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining ijtimoiy-siyosiy faoliyati, boy ma’naviy merosi ular tomonidan ta’lim sohasiga joriy qilingan metodlar, darsning shakl va vositalari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar tahlil qilindi.

XULOSA: bugungi kun bo’lajak o’qituvchilari jadid namovondalaridan biri bo‘lmish, Hoji Muin ma’naviy va ma’rifiy merosidan foydalanib, bugungi ta’lim jarayoniga tatbiq etishlari mumkin.

Kalit so’zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, matbuot, dramaturgiya, "Oyna" jurnali, "Zarafshon" gazetasi, milliy uyg‘onish.

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ ДЖАДИДСКИХ ШКОЛ ТУРКЕСТАНА

Р.И.Темиров, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется социально-политическая деятельность Хаджи Муина Шукрулло оглу, видного представителя туркестанского движения джадидов, его просвещенные идеи и вклад в развитие узбекской национальной прессы и драматургии. Борьба писателя с социальными пороками освещается в его произведениях «Эски мактаб - янги мактаб» и «Мазлума хотин».

ЦЕЛЬ: в современном образовательном процессе изучение джадидской литературы у будущих учителей, в частности творческого наследия Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li, служит практическим руководством в развитии их профессионального мастерства и компетенций.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье для организации и анализа наследия Хаджи Муина Шукрулло оглу, работавшего над подготовкой будущих учителей в конце XIX и начале XX веков, были использованы несколько методов: анализ литературы, анкетирование и практические исследования;

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье анализируется работа, направленная на развитие у будущих учителей знаний о социально-политической деятельности Хаджи Муина Шукрулло оглу, видного представителя туркестанского движения джадидов, а также о богатом духовном наследии методов, форм и инструментов обучения, внедренных им в сферу образования.

ВЫВОД: будущие учителя могут использовать духовное и педагогическое наследие одного из новых представителей, Хаджи Муина, и применить его в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: джадидизм, Просвещение, пресса, драматургия, журнал «Ойна», газета «Зарафшон», национальное возрождение.

EDUCATIONAL SYSTEM OF TURKISTAN JADID SCHOOLS

R.I.Temirov, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the socio-political activities of Haji Muin Shukrullo oglu, a prominent representative of the Turkestan Jadid movement, his enlightened ideas, and his contribution to the development of the Uzbek national press and dramaturgy. The writer's struggle against social vices is highlighted through his works "Eski maktab - yangi maktab" and "Mazluma xotin".

AIM: in today's modern educational process, the study of modern literature, in particular the legacy of Haji Muin Shukrullo oglu, serves as a practical tool for future teachers to develop their professional skills and competencies.

MATERIALS AND METHODS: in this article, several methods were used to organize and analyze the legacy of Haji Muin Shukrullo oglu, who worked for future teachers in the late 19th and early 20th centuries: literature analysis, questionnaires, and practical research;

DISCUSSION AND RESULTS: this article analyzes the work aimed at developing future teachers' knowledge of the socio-political activities of Haji Muin Shukrullo oglu, a prominent representative of the Turkestan Jadid movement, the rich spiritual heritage of the methods, forms, and tools of the lesson introduced by him into the field of education.

CONCLUSION: today's future teachers can use the spiritual and educational legacy of one of the new representatives, Haji Muin, and apply it to today's educational process.

Keywords: jadidism, enlightenment, press, drama, "Oyna" magazine, "Zarafshon" newspaper, national revival.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining progressiv ta'limoti bo'lib, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki ilg'or fikrlovchi yoshlarni hamda barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ketidan ergashtira oldi. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni horijga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurishni nazarda tutganlar.

Shu jumladan Hoji Muin faoliyati va uning merosini ham bir necha jabhalarga bo'lib tasniflash mumkin.

1. *Dramaturgik mahorat:* Sahna orqali ijtimoiy tahlil

Hoji Muin teatrni shunchaki ko'ngilochar maskan emas, balki "millat ko'zgusi" deb bildi. Uning dramalari o'sha davrdagi Turkiston jamiyatining og'riqli nuqtalarini badiiy tahlil qilib bergan.

Maishiy va ijtimoiy illatlar foshi: Adibning "Ko'knari" (1916) komediyasi hamda "Mazluma xotin" (1916) fojiasi o'z davrining o'ta dolzarb muammolarini ko'tarib chiqdi. "Mazluma xotin" asarida ko'pxotinlilik va ayollarning huquqsizligi shunchaki tasvirlanmaydi, balki shariatni noto'g'ri talqin qiluvchi qatlamning kirdikorlari ochib tashlanadi.

Ta'lim islohoti dramaturgiyasi: Uning "Eski maktab — yangi maktab" asari jadidlar ilgari surgan g'oyalarning badiiy ifodasidir. Muallif ushbu asarida quruq yod olishga asoslangan eski tizimni keskin tanqid qilib, o'quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi "usuli jadid"ni yagona najot yo'li sifatida ko'rsatadi.

Hoji Muin o'z faoliyati davomida "Tayoq" nomli hajviy gazetaga asos soldi. Gazetaning nomi xususida esa ko'p vaqtdan beri millatni taraqqiy ettirish va boshqa millatlar singari savodli qilish maqsadida turli yo'llarda harakat qilib ko'rganini, ammo odamlardagi dangasalik, mutakkabirlik illatlari bunga yo'l bermaganini yozadi. "Bizning musulmonlar, boxusus turkistonliklar dangasa, bo'yniyo'g'on, muflis, mutakkabir, g'alati bir jonivor ekan. Bu jonivorlarni turli buzuqliklardan chiqarib inson qatorig'a kirguzmak, ikkinchi bir ibora bilan aytganda, xushyoqmaslik uyqusindan uyg'otib ko'zini ochturmoq uchun "Tayoq"dan boshqa narsa kerak emas ekan". Bu gazetaning maqsadi haqida: "To'g'rilik va xalqni to'g'ri yo'lga solmoq bo'lib, ul hech kimga va hech bir quvvatg'a bo'yin egmasdur. Ul yolg'iz chin insoniyat va haqqoniylik qoshida ehtirom bilan teng turadir. "Tayoq" to'g'rilar uchun asoi huzur, egrilar uchun zulfiqori Alidir. Hoji Muinning "Eski maktab, yangi maktab" nomli dramasi uch pardali teatr risolasi bo'lib, unda eski maktab va yangi usul maktablari o'zaro taqqoslanadi, yangi maktab olqishlanadi. Asarda eski va yangi maktab quyidagicha tasvirlanadi:

"Eski maktab manzarasi. Maktab ichi zindondek qorong'u bo'lib, o'rtasida o'choq, devorig'a bir falaq osilgan. Bir yoqda safol oftobada suv, ikkinchi yoqda yirtiq ko'rpacha ustiga uch-to'rt qabat iflos kiyum kiygan, ko'knoriaft va asabiy majoz bir domla o'turgan, bir yonida choynik, turkiy va bir dona qoq non, oldida to'rt ayog'lik uzun taxta, taxtaning

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

naryog'ida xas-paxol ustida Salim va Melik degan ikki bola o'z saboqlarini o'qub turubdurlar…"

"Yangi maktab manzarasi. Maktab binosi hivzi sihhat qoidasiga muvofiq bo'lub, devorig'a xaritalar yopushturulgan, bir yoqda muallim kursiga o'turgan. Muallimning oldida bir "miz", yonida bir lavha. Qarshisida ikki partaga to'rt talaba o'turgan. Bir tarafda uch-to'rt kursi qo'yilgan…"

Jadid maktablari faoliyatiga eski maktab tarafdorlari muntazam ravishda qarshilik qilishgan. Ammo shunday bo'lsa-da, jadidlar o'zlarining "usuli jadid" yangi usul maktablarini eski maktab "usuli qadim"ga zid qo'yishmagan. Bu borada Ismoil Gaspirali shunday deb yozadi: "Eski usul maktab muallimlari, hurmatlu qarindoshlarimiza bu yozdiklarimiz og'ir kelmasun. Xosho biz kandimiz (o'zimiz) eski usul ila o'quduk… Ota-bobo kunlaridin qolmish milliy maktablari isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o'quv, boshqa bir maktab demak emasdir" . Jadid maktablarining eski usul maktablaridan asosiy farqi shunda ediki, oz fursatda xalqni savodli qilar, o'qimoq va o'qitmoq yo'llarini ko'rsatardi. Hoji Muin ham o'z davrining ma'rifatparvar jadidlari singari o'zining jadid maktabini ochadi. U bolalarni savodli qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larni xalqdan yig'magan balki, bog'dorchilikdan yetishtirgan mevalarni bozorda sotib pul to'plagan. Maktabdor bo'lishdan esa sira moddiy manfaat ko'zlamagan. Hoji Muin bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi bir qancha turkiy she'rlarni forsiyga tarjima qilib, M. Behbudiy ko'magida ularni "Guldastayi adabiyot" nomi bilan to'plam holiga keltirib chop etadi. Bu to'plamda tarjima she'rlardan tashqari, o'zining "Nasihat", "Xitob va go'daki beilm", "Ittifoq", "Muxammas", "E'tirof" va "Shikoyat" kabi mualliflik she'rlari o'rin olgan.

Dramaturgik innovatsiya: Hoji Muin asarlarida dialektizmlardan voz kechib, tushunarli milliy tilni qo'llashi va qahramonlar xarakterini ijtimoiy kelib chiqishiga qarab individuallashtirishi bilan o'zbek dramaturgiyasida realizmga asos soldi.

2. Publisistik faoliyat: Millatning siyosiy uyg'onishi

Hoji Muin publitsistikasi o'zining operativligi va o'tkir tanqidiy ruhi bilan ajralib turadi. U "Oyna" jurnalidagi faoliyati davomida (1913–1915) Behbudiyning g'oyaviy quroldoshiga aylandi.

Milliy matbuot tilini shakllantirish: Uning maqolalari tili sodda, xalqchil va shiddatli edi. U "Hurriyat", "Zarafshon" gazetalarida chop etilgan maqolalarida Turkistonning iqtisodiy qaramligini ilm-fanning orqada qolganligi bilan bog'laydi.

Tanqidiy publitsistika: Hoji Muin o'z maqolalarida diniy xurofot, boylarning isrofgarchiligi va to'y-ma'rakalardagi dabdabaga qarshi murosasiz kurashgan. Uning publitsistikasidagi eng kuchli jihat — muammoni faqat ko'rsatibgina qolmay, uning yechimi sifatida ijtimoiy birdamlik (ittifoq) g'oyasini ilgari surganligidir.

Janrlar xilma-xilligi: Adib publitsistikasida felyeton, xabar, tahliliy maqola va ochiq xat kabi janrlardan mohirona foydalangan. Ayniqsa, "Oyna" jurnalidagi "Samarqand xabarlari" rukni ostida shaharning ijtimoiy manzaralarini mahorat bilan chizib bergan.

Hoji Muin tarjimon sifatida ham samarali mehnat qilgan. Turk tilidan ham "Xulosai qavoidi forsiy" ni, forschadan Fitrat qalamiga mansub "Buxoro sayohati

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

“ asarini ni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Chaqirilmagan qo‘noq “ hikoyasi chop etilmagan asarlari sirasiga kiradi. Bu asarlarning ayrimlari yo‘qolgan.

Dramaturgiya va publitsistikaning o‘zaro bog‘liqligi (G’oyalarning qiyosiy tahlili)

Yo‘nalish	Asosiy mavzular	Jamiyatga ta’siri
Dramaturgiya	Maishiy illatlar, ta’lim, ayollar huquqi	Ko‘rgazmali tarzda xalqning hissiyotiga va ongiga ta’sir qilish.
Publitsistika	Siyosiy erk, iqtisodiy mustaqillik, til masalasi	Ziyolilar qatlamini birdamlikka va aniq harakatlarga chorlash.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining merosi bugungi kunda o‘zbek jurnalistikasi va teatr san’ati uchun poydevor hisoblanadi. Uning publitsistikasidagi milliy g‘oya va dramaturgiyasidagi axloqiy poklik tamoyillari hozirgi milliy yuksalish davri uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Adib o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga va milliy matbuotning janrlar jihatidan boyishiga ulkan hissa qo‘shgan.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining merosi bugungi kunda o‘zbek jurnalistikasi va teatr san’ati uchun poydevor hisoblanadi. Uning publitsistikasidagi milliy g‘oya va dramaturgiyasidagi axloqiy poklik tamoyillari hozirgi milliy yuksalish davri uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Adib o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga va milliy matbuotning janrlar jihatidan boyishiga ulkan hissa qo‘shgan.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li merosi shunchaki tarixiy hujjat emas, balki bugungi kunda jamiyatni ma’naviy yangilashda muhim nazariy-amaliy manbadir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, uning publitsistik va dramatik faoliyati Turkiston jadidchilik harakatining muhum bo‘g’imini tashkil etgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. Toshkent: O‘qituvchi, 1990;

2. Qosimov B. Ismoilbey G‘aspirali. “O‘zbegim” to‘plami. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1992;

3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. T.: Universitet, 2006.

4.O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;

5. Ziyo Sayd. "Tanlangan asarlar". Toshkent, 1974.

6.Begali Qosimov. "Milliy uyg‘onish". Toshkent, 2002.

7.Hoji Muin. "Tanlangan asarlar" (Nashrga tayyorlovchi: B. Do‘stqoraev). Toshkent, Ma’naviyat, 2005.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

8. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Ma'sul muharrilar: B.Hasanov, N.Karimov. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016.

9.Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. — 344 b.

10. Maxmudzo'ja Bexbudiy. Tanlangan asarlar T.:"Ma'naviyat" 2009 yil.

11. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-muallif. Hasanboeva O. Toshkent: O'qituvchi, 1993.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA QASHQAR RUBOBINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Allayarova Nargiza Narimanovna, Urganch davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, Urganch, O‘zbekiston
Doschanova Yorkinoy Irkinbayevna, Urganch davlat pedagogika instituti magistranti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida qashqar rubobini o‘rgatishning nazariy-metodik asoslari hamda pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, modulli o‘qitish, differensial yondashuv va kompetensiyaviy model asosida cholg‘u ijrochiligini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Qashqar rubobi ijrochiligini o‘rgatishda raqamli platformalar, vizual-audio materiallar, multimedia vositalari hamda refleksiv baholash mexanizmlaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab beriladi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida Qashqar rubobini o‘rgatish jarayonining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim yondashuvlarining samaradorligini asoslash hamda milliy cholg‘u asbobini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot Qashqar rubobini o‘rgatishda o‘quvchilarning musiqiy tafakkuri, estetik didi, ijodiy qobiliyati va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni ishlab chiqishni ham ko‘zda tutadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida pedagogika, musiqa ta’limi metodikasi va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, davlat ta’lim standartlari hamda ilg‘or pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Quyidagi metodlardan foydalanildi. Nazariy tahlil va umumlashtirish, kuzatish va taqqoslash, tajriba-sinov ishlari, interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, “ustoz-shogird”, kichik guruhlarda ishlash), axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (multimedia darslari, audio-video yozuvlar, onlayn platformalar) foydalanish, amaliy mashg‘ulotlar va ijro tahlili. Tajriba jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy usullar bilan olib borilgan mashg‘ulotlar bilan qiyosiy o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash Qashqar rubobini o‘rgatish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, o‘quvchilarning darsga qiziqishi va faolligi ortadi, cholg‘u ijrochiligi texnikasi tezroq va puxta shakllanadi, musiqiy eshitish qobiliyati va ritm tuyg‘usi rivojlanadi, mustaqil mashq qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi, milliy musiqa merosiga hurmat va qiziqish kuchayadi. Multimedia vositalaridan foydalanish orqali rubob chalish texnikasini vizual va eshitish asosida o‘zlashtirish imkoniyati kengaydi. Interfaol metodlar esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va sahna madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi. Tajriba-sinov natijalari innovatsion

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

yondashuv asosida ta’lim olgan guruh o‘quvchilarining ijro sifati, texnik tayyorgarligi va musiqiy ifodaviyligi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSA: innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida Qashqar rubobini o‘rgatish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning musiqiy ijrochilik mahoratini rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ochish hamda milliy cholg‘u san’atiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Shu bois, Qashqar rubobini o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: qashqar rubobi, interaktiv metodlar, modulli o‘qitish, differensial ta’lim, ijrochilik mahorati, multimedia vositalari, raqamli ta’lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИГРЕ НА КАШГАРСКОМ РУБАБЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аллаярова Наргиза Наримановна,
старший преподаватель Ургенчского государственного педагогического института, г. Ургенч, Узбекистан
Досчанова Ёркиной Иркинбаевна,
магистрант Ургенчского государственного педагогического института, г. Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: национальное музыкальное искусство отражает духовное наследие народа, его эстетические взгляды и культурные ценности. Кашгарский рубаб занимает особое место в системе узбекских национальных музыкальных инструментов благодаря своей выразительности, мелодичности и богатым исполнительским традициям. В условиях глобализации обучение национальным музыкальным инструментам на основе современных педагогических технологий становится актуальной задачей. Современная образовательная парадигма ориентирована на личность обучающегося, предполагает интерактивность и компетентностный подход. В этом контексте использование инновационных педагогических технологий в процессе обучения игре на кашгарском рубабе способствует развитию исполнительского мастерства учащихся, формированию их музыкального мышления и поддержке самостоятельной творческой деятельности.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является выявление педагогических возможностей обучения игре на кашгарском рубабе с использованием инновационных педагогических технологий, обоснование эффективности современных образовательных подходов в развитии исполнительского мастерства учащихся, а также раскрытие теоретических и практических аспектов применения интерактивных методов в обучении национальному музыкальному инструменту.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Кроме того, исследование направлено на разработку инновационных методов, способствующих развитию музыкального мышления, эстетического вкуса, творческих способностей и навыков самостоятельной работы учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования были проанализированы научные труды по педагогике, методике музыкального образования и инновационным технологиям, учебно-методические пособия, государственные образовательные стандарты и передовой педагогический опыт. В исследовании применялись следующие методы: теоретический анализ и обобщение, наблюдение и сравнительный анализ, педагогический эксперимент, интерактивные методы (кластер, мозговой штурм, «учитель–ученик», работа в малых группах), использование информационно-коммуникационных технологий (мультимедийные занятия, аудио- и видеозаписи, онлайн-платформы), практические занятия и анализ исполнительской деятельности.

В ходе эксперимента занятия, организованные на основе инновационных педагогических технологий, сопоставлялись с традиционными методами обучения. Полученные результаты оценивались на основе качественных и количественных показателей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что применение инновационных педагогических технологий значительно повышает эффективность обучения игре на кашгарском рубабе. В частности повышается интерес и активность учащихся на занятиях, быстрее и качественнее формируются технические исполнительские навыки, развивается музыкальный слух и чувство ритма, укрепляются навыки самостоятельной работы и самоконтроля, усиливается интерес и уважение к национальному музыкальному наследию. Использование мультимедийных средств расширило возможности визуального и слухового освоения техники игры на рубабе. Методы видеоанализа, сравнения аудиозаписей и рефлексивного оценивания способствовали формированию у учащихся навыков самостоятельного выявления и исправления ошибок. Интерактивные методы способствовали развитию творческого мышления, сценической культуры и навыков коллективной работы. Результаты педагогического эксперимента подтвердили, что учащиеся экспериментальной группы продемонстрировали более высокий уровень исполнительского качества, технической подготовки и музыкальной выразительности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: обучение игре на кашгарском рубабе с использованием инновационных педагогических технологий является важным фактором повышения эффективности образовательного процесса. Применение современных информационно-коммуникационных средств, интерактивных методов и компетентностного подхода создаёт значительные педагогические возможности для развития исполнительского мастерства учащихся, раскрытия их творческого потенциала и формирования интереса к национальному музыкальному искусству. В связи с этим целесообразно системно и целенаправленно внедрять

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

инновационные педагогические технологии наряду с традиционными методами обучения игре на кашгарском рубабе.

Ключевые слова: кашгарский рубаб, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, модульное обучение, дифференцированное обучение, компетентностный подход, исполнительское мастерство, мультимедийные средства, цифровое образование.

PEDAGOGICAL POTENTIALS OF TEACHING QASHQAR RUBAB USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Allayarova Nargiza Narimanovna, Senior Lecturer, Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan
Doschanova Yorkinoy Irkinbayevna, Master's Student, Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: national musical art reflects a people's spiritual heritage, aesthetic values, and cultural traditions. The Qashqar rubab occupies a special place in the system of Uzbek national musical instruments due to its expressiveness, melodic richness, and extensive performance traditions. In the context of globalization, teaching national musical instruments using modern pedagogical technologies has become a pressing issue. Contemporary educational paradigms are learner-centered, interactive, and competency-oriented. In this context, the use of innovative pedagogical technologies in teaching the Qashqar rubab contributes to the development of students' performance skills, the formation of musical thinking, and the support of independent creative activity.

AIM: the main purpose of this study is to identify the pedagogical potentials of teaching the Qashqar rubab using innovative pedagogical technologies, to justify the effectiveness of modern educational approaches in developing students' performance skills, and to reveal theoretical and practical aspects of using interactive methods in teaching a national musical instrument. Furthermore, the study aims to develop innovative methods that promote the development of musical thinking, aesthetic taste, creative abilities, and independent working skills of students.

MATERIALS AND METHODS: the study involved the analysis of scientific literature on pedagogy, music education methodology, and innovative technologies, as well as educational-methodical guides, state educational standards, and best pedagogical practices. The following methods were employed: theoretical analysis and generalization, observation and comparative analysis, pedagogical experimental research, interactive methods (cluster, brainstorming, "mentor-student", small group work), use of information and communication technologies (multimedia lessons, audio and video recordings, online platforms),practical lessons and performance analysis. In the experiment, lessons organized using innovative pedagogical technologies were compared with traditional teaching methods. Results were evaluated using both qualitative and quantitative indicators.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that the use of innovative pedagogical technologies significantly enhances the effectiveness of teaching the Qashqar rubab. Specifically: students' interest and engagement in lessons increased, instrumental performance skills developed faster and more effectively, musical hearing and rhythm perception improved, independent practice and self-monitoring skills were strengthened, respect for and interest in national musical heritage grew. Multimedia tools expanded the possibilities of visual and auditory learning of rubab techniques. Video analysis, audio comparisons, and reflective assessments enabled students to identify and correct errors independently. Interactive methods fostered creative thinking, stage culture, and teamwork skills. Experimental group students who received instruction with innovative methods demonstrated higher performance quality, technical proficiency, and musical expressiveness compared to the control group.

CONCLUSION: teaching the Qashqar rubab using innovative pedagogical technologies is a significant factor in increasing the effectiveness of the educational process. The use of modern ICT tools, interactive methods, and a competency-based approach creates substantial pedagogical opportunities for developing students' performance skills, unlocking their creative potential, and fostering interest in national musical art. Therefore, it is advisable to systematically and purposefully implement innovative pedagogical technologies alongside traditional teaching methods when instructing students in playing the Qashqar rubab.

Keywords: qashqar rubab, interactive methods, modular teaching, differentiated instruction, performance skills, multimedia tools, digital education.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida milliy musiqa merosini asrab-avaylash hamda uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yosh avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida o‘zining ohangdorligi, tembr boyligi va ijrochilik imkoniyatlari bilan ajralib turadigan qashqar rubobi ijrochiligini o‘rgatish jarayonini takomillashtirish bugungi musiqa ta’limining muhim vazifalaridan hisoblanadi. An’anaviy ustoz-shogird tizimi asosida shakllangan ijrochilik maktabi o‘z tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, zamonaviy ta’lim muhitida innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda yangi metodik yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, modulli va differensial o‘qitish tizimlari keng joriy etilmoqda. Ushbu jarayon musiqa ta’limi, xususan, qashqar rubobini o‘rgatish metodikasiga ham yangicha qarashni taqozo etadi. Endilikda cholg‘u ijrochiligini o‘rgatish faqatgina texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki talabada mustaqil musiqiy tafakkur, ijodiy yondashuv, sahna madaniyati, estetik did va refleksiv tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Bu esa o‘qituvchidan innovatsion pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirishni, ta’lim jarayonini raqamli vositalar va interaktiv shakllar bilan boyitishni talab qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Qashqar rubobini o‘rgatishda multimedia darslari, audio-vizual tahlil, raqamli notatsiya dasturlari, onlayn platformalar, virtual mahorat darslari kabi vositalardan foydalanish ijrochilik jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchining eshitish qobiliyatini rivojlantirish, murakkab texnik usullarni tezroq o‘zlashtirish va mustaqil mashq jarayonini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar orqali individual yondashuvni ta’minlash, har bir talabaning ijrochilik darajasi va qobiliyatiga mos metodlarni qo‘llash imkoniyati kengayadi. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, milliy cholg‘u ijrochiligini zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali musiqa ta’limining samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi. Bu esa milliy musiqa merosini zamon talablari asosida rivojlantirish hamda kelajak avlod ijrochilarini yuqori kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Musiqa ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy jihatlari.

Zamonaviy ta’lim makonida musiqa darsi endilikda faqatgina nota o‘qish, kuy ijro etish yoki nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni emas, balki ko‘p qirrali, interaktiv va texnologik jihatdan boyitilgan pedagogik tizimga aylanmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish musiqa ta’limining mazmunini chuqurlashtirib, uni shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va ijodkorlikka asoslangan jarayonga aylantiradi. Ayniqsa, cholg‘u ijrochiligi, vokal mashg‘ulotlari va musiqa nazariyasi darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytiradi hamda ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy jihatdan qaralganda, musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash avvalo multimedia vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Dars jarayonida professional ijrochilarning videoyozuvlarini tahlil qilish, asarlarning turli ijro variantlarini solishtirish, audio yozuvlar asosida eshituv mashqlarini bajarish o‘quvchining musiqiy idrokini chuqurlashtiradi. Masalan, talaba o‘z ijrosini video formatda yozib, uni pedagog bilan birgalikda tahlil qilishi refleksiv yondashuvni shakllantiradi. Bu jarayon nafaqat texnik xatolarni aniqlashga, balki sahna madaniyati, ijro ifodaliligi va dinamika ustida ishlashga ham xizmat qiladi. Raqamli notatsiya dasturlari va mobil ilovalardan foydalanish ham musiqa ta’limining muhim amaliy yo‘nalishlaridan biridir. Talaba mustaqil ravishda nota yozish, temp va ritm ustida ishlash, metronom yordamida mashq qilish orqali nazariy bilimlarini amaliy ijro bilan uyg‘unlashtiradi. Bu jarayon o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkorga aylantiradi. Ayniqsa, yosh avlodning raqamli muhitga moslashganligini inobatga olsak, bunday texnologiyalar ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Interaktiv metodlar – “aqliy hujum”, “klaster”, “rol o‘ynash”, “case-study” kabi yondashuvlar musiqa mashg‘ulotlarini jonlantiradi. Masalan, ansambl mashg‘ulotlarida har bir talaba muayyan rolni bajarishi (ijrochi, tahlilchi, tinglovchi) orqali jamoaviy mas’uliyatni his qiladi. Muammoli vaziyatlarni sahnalashtirish, sahnada hayajonni yengish bo‘yicha trening mashg‘ulotlari o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlaydi. Bu esa musiqiy ijrochilikning nafaqat texnik, balki ruhiy-emosional jihatlarini ham

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

rivojlantiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida differensial va individual yondashuvni qo‘llash ham amaliy ishlarning muhim qismidir. Har bir o‘quvchining qobiliyati, ijro darajasi va musiqiy eshituviga qarab mashqlar tizimini ishlab chiqish o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Rivojlanish monitoringi, elektron portfolio yuritish va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari talabaning kasbiy o‘sishini tizimli ravishda kuzatishga imkon beradi. Masofaviy va gibrid ta’lim shakllari ham bugungi musiqa ta’limining ajralmas qismiga aylangan. Onlayn mahorat darslari, virtual ansambl loyihalari, raqamli platformalarda topshiriqlarni yuklash va tahlil qilish – bularning barchasi musiqa o‘rganish jarayonini makon va vaqt bilan cheklanmagan tizimga aylantiradi. Natijada o‘quvchining mustaqil ta’lim olish kompetensiyasi shakllanadi, u o‘z ustida ishlashni o‘rganadi. Musiqa ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish o‘quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yondashuv nafaqat ijrochilik mahoratini oshiradi, balki o‘quvchining ijodiy tafakkuri, estetik didi va kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada musiqa ta’limi an’anaviy chegaralardan chiqib, zamonaviy, interaktiv va samarali pedagogik tizimga aylanadi. Musiqa ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalasi, avvalo, ta’lim nazariyasining zamonaviy paradigmalari bilan bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda pedagogik jarayon mazmunan bilim berishdan ko‘ra, kompetensiya shakllantirishga yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa musiqa ta’limi, xususan, milliy cholg‘u ijrochiligini o‘rgatish metodikasini ham yangicha nazariy asoslarda ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar nafaqat metodik vosita, balki ta’lim falsafasining yangi ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Nazariy jihatdan qaralganda, musiqa ta’limi konstruktivistik yondashuv tamoyillariga asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Konstruktivizmga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol o‘zlashtirish jarayonida “quriladi”. Musiqa ijrochiligi jarayonida bu holat ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi: talaba kuy matnini nafaqat o‘qiydi yoki ijro etadi, balki uni ichki musiqiy idroki, emotsional tajribasi va shaxsiy talqini orqali qayta yaratadi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan multimedia, interaktiv platformalar va refleksiv baholash mexanizmlari ana shu konstruktiv jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi musiqa ta’limining mazmunini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kompetensiya – bu faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki ularni amaliy vaziyatda qo‘llay olish qobiliyatidir. Musiqa ta’limida bu ijrochilik, eshituv, tahlil, sahna madaniyati va ijodiy tafakkur kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ushbu ko‘p qirrali kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, raqamli yozuvlarni tahlil qilish o‘quvchining analitik tafakkurini rivojlantirsa, o‘z ijrosini video orqali kuzatish refleksiv kompetensiyani shakllantiradi.

Nazariy muhokamada yana bir muhim jihat – bu integrativ yondashuvdir. Musiqa ta’limi faqat estetik tarbiya emas, balki psixologik, madaniy va texnologik jarayonlarning kesishgan nuqtasidir. Musiqiy eshituvni rivojlantirish psixologik mexanizmlarga, ijodiy tafakkur esa kognitiv jarayonlarga tayanadi. Innovatsion texnologiyalar ana shu fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. Masalan, neyropsixologik tadqiqotlar musiqaning miyada qay

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

tarzda qayta ishlanishini ko‘rsatadi, raqamli vositalar esa ushbu jarayonni tezlashtirish va tizimlashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasiga hamohangdir. Har bir o‘quvchi o‘zining musiqiy qobiliyati, eshituv darajasi va texnik imkoniyatlari bilan boshqalardan farqlanadi. An’anaviy yondashuvda bunday individual farqlar yetarli darajada inobatga olinmagan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar differensial ta’limni ta’minlash imkonini beradi. Individual rivojlanish xaritalari, elektron portfoliolar va adaptiv mashqlar tizimi shaxsiy yondashuvni amalda ro‘yobga chiqaradi.

Nazariy jihatdan yana bir muhim masala – bu an’anaviy va innovatsion metodlar o‘rtasidagi uyg‘unlikdir. Musiqa ta’limi, ayniqsa milliy cholg‘u ijrochiligi, asrlar davomida ustoz-shogird an’anasiga tayangan holda rivojlangan. Innovatsion texnologiyalar esa ushbu an’anani inkor etmaydi, aksincha uni zamonaviy vositalar bilan boyitadi. Ya’ni, pedagogning bevosita ko‘rsatmasi va shaxsiy namunasini multimedia vositalari, audio-vizual tahlil va onlayn platformalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Musiqa ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar – konstruktivistik ta’lim modeli, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan va differensial ta’lim tamoyillari – musiqa o‘qitish jarayonini mazmunan boyitadi hamda uning samaradorligini oshiradi. Innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarda nafaqat texnik ijrochilik mahorati, balki musiqiy tafakkur, eshituv, sahna madaniyati, refleksiv tahlil va ijodiy yondashuv kabi muhim kasbiy kompetensiyalar shakllanadi. Shuningdek, multimedia vositalari, raqamli notatsiya dasturlari, onlayn platformalar va interaktiv metodlar musiqa mashg‘ulotlarini faol, qiziqarli va natijador shaklga keltiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi innovatsion tashkilotchi va metodik boshqaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi, talaba esa faol ijodkor va mustaqil izlanish olib boruvchi subyektga aylanadi. Natijada ta’lim jarayoni an’anaviy “o‘qituvchi–tinglovchi” modelidan “hamkorlik va hamijodkorlik” modeliga o‘tadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Азизходжаева Н. Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Ташкент: ТДПУ, 2006. – 192 с.
2. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
3. Ишмухамедов Р. Ж., Абдуқодиров А. А., Пардаев А. Инновационные технологии в образовании. – Ташкент: Истеъдод, 2008. – 180 с.
4. Қодиров Р. Ҳ. Мусиқа педагогикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 240 б.
5. Махмудов Ю. Ўзбек халқ мусиқа ижрочилиги тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2010. – 256 б.
6. Мусин И. А. Методика преподавания музыки в школе. – М.: Владос, 2004. – 176 с.
7. To‘xtasinov N. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 220 b.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

TARBIYACHI SHAXSI VA BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Yusupova Vasila Yangibayevna, Urganch davlat pedagogika instituti**,** "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi, Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: jamiyat taraqqiyoti bevosita yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishiga bog'liq. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim muassasalari ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tarbiyachi shaxsi bolaning ruhiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ma'naviy qadriyatlarining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) psixologiyada eng sezgir va intensiv rivojlanish bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda bolaning idroki, tafakkuri, nutqi, hissiyoti va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, pedagogik mahorati, muloqot madaniyati va psixologik yondashuvi bolalar psixologiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tarbiyachi shaxsining bolalar psixologiyasiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

MAQSAD: maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining xususiyatlari, tarbiyachining emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishga ta'siri, shuningdek, zamonaviy tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan psixologik-pedagogik talablar yoritilgan. Tadqiqot maqsadi shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi shaxsining pedagogik mahorati, mehribonligi va emotsional barqarorligi bolalarning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy xulq-atvori va bilish qobiliyatini bevosita shakllantiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida pedagogika va bolalar psixologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, maktabgacha ta'lim dasturlari, kuzatuv natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Tarbiyachi shaxsining bola ruhiyatiga ta'siri ularning emotsional, barkamol rivojlanishiga yordam beradi. Adabiyotlarda ilmiy-nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, taqqoslash metodi, psixologik tahlil, so'rovnoma va suhbat usullari orqali olib borilgan tahlillar asosida pedagogic-psixologik yondashildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyachi shaxsi bolalarning ruhiy holati va ijtimoiy moslashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega. Mehribonlik, sabr-toqat, adolat, halollik, samimiylik kabi sifatlar bolalarda ishonch hissini shakllantiradi. Mehribon va e'tiborli tarbiyachi bilan muloqot qilgan bola o'zini xavfsiz his qiladi, bu esa uning psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining nutqi, ohangi va munosabati bolalarda nutq rivoji, o'z fikrini erkin ifodalash va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Qo'pol munosabat esa aksincha, bolada qo'rquv, tortinchoqlik va ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkin. Tarbiyachining o'yin, mashg'ulot va tarbiyaviy jarayonni tashkil eta olish qobiliyati bolalarning bilish jarayonlariga ijobiy ta'sir qiladi. O'yin orqali o'qitish metodlari bolalarning tafakkur, xotira va tasavvurini rivojlantiradi. Guruhdagi ijobiy psixologik muhit bolaning ruhiy sog'lig'ini mustahkamlaydi. Tarbiyachining ijobiy kayfiyati va qo'llab-quvvatlashi bolalarda optimizm va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Tahlillar shuni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ko‘rsatadiki, tarbiyachi shaxsining ijobiy namuna bo‘lishi bolalarda axloqiy qadriyatlar, mustaqillik va mas’uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA: tarbiyachi shaxsi maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Uning shaxsiy fazilatlari, pedagogik mahorati va muloqot uslubi bolalarning hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida psixologik kompetensiyalarga alohida e’tibor qaratish, ularning kommunikativ va emotsional madaniyatini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish zarur. Barkamol avlodni tarbiyalashda tarbiyachi shaxsining o‘rni beqiyosdir.

Kalit so‘zlar: tarbiyachi shaxsi, bolalar psixologiyasi, maktabgacha ta’lim, emotsional rivojlanish, ijtimoiy xulq-atvor, shaxsiy fazilatlar

ЛИЧНОСТЬ ВОСПИТАТЕЛЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ

Юсупова **Васила Янгибаевна**, преподаватель кафедры “Педагогика и психология” Ургенчского государственного педагогического института, г. Ургенч, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие общества напрямую связано с всесторонним и гармоничным становлением подрастающего поколения. В формировании личности ребёнка наряду с семьёй важную роль играют учреждения дошкольного образования. В особенности личность воспитателя является одним из решающих факторов в психическом развитии ребёнка, его социализации и формировании духовно-нравственных ценностей. Дошкольный возраст (3–7 лет) в психологии признаётся наиболее чувствительным и интенсивным этапом развития. В этот период формируются восприятие, мышление, речь, эмоциональная сфера и социальные навыки ребёнка. Личностные качества воспитателя, его педагогическое мастерство, культура общения и психологический подход оказывают непосредственное влияние на психологию детей. В связи с этим научное изучение влияния личности воспитателя на психологию детей является одной из актуальных задач.

ЦЕЛЬ: в статье освещаются особенности психологии детей дошкольного возраста, влияние воспитателя на их эмоциональное, социальное и интеллектуальное развитие, а также психолого-педагогические требования, предъявляемые к личности современного воспитателя. Цель исследования показывает, что педагогическое мастерство, доброжелательность и эмоциональная устойчивость воспитателя непосредственно формируют психическую стабильность детей, их социальное поведение и познавательные способности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были проанализированы научные источники по педагогике и детской психологии, программы дошкольного образования, результаты наблюдений и передовой педагогический опыт. Влияние личности воспитателя на психику ребёнка способствует его эмоциональному и гармоничному развитию. Анализ проводился на основе научно-теоретического анализа, педагогического наблюдения, метода сравнения, психологического

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

анализа, анкетирования и беседы, что позволило осуществить комплексный психолого-педагогический подход к проблеме.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что личность воспитателя оказывает значительное влияние на психическое состояние детей и их социальную адаптацию. Особое значение имеют следующие факторы. Такие качества, как доброта, терпение, справедливость, честность и искренность, формируют у детей чувство доверия. В общении с внимательным и доброжелательным воспитателем ребёнок чувствует себя в безопасности, что положительно влияет на его психологическую устойчивость. Речь воспитателя, её тон и характер взаимоотношений способствуют развитию речи детей, умению свободно выражать свои мысли и социальной активности. Грубое обращение, напротив, может вызвать у ребёнка страх, замкнутость и неуверенность в себе. Способность воспитателя организовывать игры, занятия и воспитательный процесс положительно влияет на познавательные процессы детей. Игровые методы обучения развивают мышление, память и воображение. Положительный психологический климат в группе укрепляет психическое здоровье ребёнка. Позитивный настрой и поддержка со стороны воспитателя формируют у детей оптимизм и социальную активность. Анализ показывает, что личность воспитателя как положительный пример способствует формированию у детей нравственных ценностей, самостоятельности и чувства ответственности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: личность воспитателя является важным фактором психического развития детей дошкольного возраста. Его личные качества, педагогическое мастерство и стиль общения напрямую влияют на эмоциональное, социальное и интеллектуальное развитие ребёнка. В связи с этим в процессе подготовки воспитателей необходимо уделять особое внимание развитию их психологических компетенций, коммуникативной и эмоциональной культуры, а также созданию здорового психологического климата в учреждениях дошкольного образования. Роль личности воспитателя в воспитании гармонично развитого поколения является неоценимой.

Ключевые слова: личность воспитателя, детская психология, дошкольное образование, эмоциональное развитие, социальное поведение, личностные качества.

THE PERSONALITY OF THE EDUCATOR AND ITS INFLUENCE ON CHILDREN'S PSYCHOLOGY

Yusupova Vasila Yangibayevna, Lecturer of the Department of Pedagogy and Psychology, Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the development of society is directly connected with the comprehensive and harmonious upbringing of the younger generation. Alongside the family, preschool educational institutions play a significant role in the formation of a

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

child's personality. In particular, the personality of the educator is considered one of the decisive factors in a child's psychological development, socialization, and the formation of moral and spiritual values. Preschool age (3–7 years) is recognized in psychology as the most sensitive and intensive stage of development. During this period, perception, thinking, speech, emotions, and social skills are actively formed. The educator's personal qualities, pedagogical competence, communication culture, and psychological approach have a direct impact on children's psychology. Therefore, the scientific study of the influence of the educator's personality on children's psychology is one of the urgent issues of modern pedagogy.

AIM: the article highlights the characteristics of preschool children's psychology, the influence of the educator on their emotional, social, and intellectual development, as well as the psychological and pedagogical requirements for a modern educator's personality. The purpose of the study demonstrates that the educator's pedagogical mastery, kindness, and emotional stability directly shape children's psychological stability, social behavior, and cognitive abilities.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the research, scientific literature on pedagogy and child psychology, preschool education programs, observation results, and advanced pedagogical experiences were analyzed. The influence of the educator's personality on a child's psyche contributes to their emotional and harmonious development. The study was conducted using scientific-theoretical analysis, pedagogical observation, comparative methods, psychological analysis, questionnaires, and interviews, ensuring a comprehensive psychological and pedagogical approach.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that the educator's personality has a strong influence on children's psychological state and social adaptation. The following factors are of particular importance. Qualities such as kindness, patience, fairness, honesty, and sincerity foster a sense of trust in children. A child who communicates with a caring and attentive educator feels safe, which positively affects their psychological stability. The educator's speech, tone, and attitude enhance children's speech development, their ability to express thoughts freely, and their social activity. Conversely, rude behavior may lead to fear, shyness, and insecurity in children. The educator's ability to organize games, lessons, and the educational process positively influences children's cognitive processes. Game-based learning methods develop thinking, memory, and imagination. A positive psychological climate within the group strengthens a child's mental health. The educator's positive attitude and support foster optimism and social activity among children.

The analysis shows that when the educator serves as a positive role model, it contributes to the development of moral values, independence, and a sense of responsibility in children.

CONCLUSION: the educator's personality is a crucial factor in the psychological development of preschool children. Their personal qualities, pedagogical skills, and communication style directly influence children's emotional, social, and intellectual growth. Therefore, in the process of training educators, special attention should be paid

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

to developing psychological competencies, communicative and emotional culture, and creating a healthy psychological environment in preschool institutions. The role of the educator's personality in raising a harmoniously developed generation is invaluable.

Keywords: educator's personality, child psychology, preschool education, emotional development, social behavior, personal qualities.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsi markaziy o'rin egallaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar psixologik jihatdan nihoyatda ta'sirchan bo'lib, ular atrof-muhit, kattalar munosabati va tarbiyachining shaxsiy fazilatlariga bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalar shaxsini shakllantiruvchi, ularning ruhiy holatini muvozanatda ushlab turuvchi yetakchi shaxs hisoblanadi. Mazkur maqolada tarbiyachi shaxsining asosiy pedagogik va psixologik xususiyatlari, uning bolalar psixologiyasiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri, shuningdek, tarbiyachi shaxsini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritiladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida "tarbiyachi shaxsi" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u kasbiy bilim, axloqiy fazilatlar, muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik va pedagogik mahorat majmuasini anglatadi. V.A. Slastyonin ta'kidlaganidek, tarbiyachi shaxsi pedagogik jarayonning asosiy subyekti bo'lib, uning shaxsiy namunasi tarbiya samaradorligini belgilaydi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Mehribonlik va samimiylik; adolat va talabchanlik; sabr-toqat; bolalarga individual yondashuv; kasbiy mas'uliyat. Mazkur fazilatlar tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlarida muhim rol o'ynaydi va ularning psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining o'ziga xos jihatlari. Hissiy rivojlanishning tezligi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy jihatdan juda ta'sirchan bo'ladi. Ular tez xursand bo'lishi yoki xafa bo'lishi mumkin, hissiyotlarini boshqarish qobiliyati hali shakllanmagan. Shu sababli tarbiyachining mehribonligi va ijobiy munosabati bolalar ruhiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'yin orqali o'rganish. Bu davrda bolalar asosan o'yin orqali dunyoni o'rganadi. O'yin ularning tafakkuri, nutqi, ijtimoiy ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tarbiyachi o'yinni to'g'ri yo'naltirib, bolaning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Ijtimoiy muloqotning shakllanishi. 3–7 yoshli bolalar atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'rganadi, do'stlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bandura nazariyasiga ko'ra, ular kattalarni kuzatish va taqlid qilish orqali ijtimoiy xulq-atvorni egallaydilar. Nutq va tafakkur rivojlanishi. Bu davrda bolalarda til va tafakkur tez rivojlanadi. So'z boyligi ortadi, fikrni ifodalash qobiliyati shakllanadi. Tarbiyachining muntazam muloqoti va savollar bilan rag'batlantirishi bolalarning bilish faoliyatini oshiradi. Shaxsiy xususiyatlarning shakllanishi. Maktabgacha yoshda bolalarda xulq-atvor, odob-axloq, mehr-muhabbat va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish odatlari shakllana boshlaydi. Tarbiyachining shaxsiy namunasi bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Emotsional va ijtimoiy barqarorlikka intilish. Bolalar uchun tarbiyachining barqaror va ishonchli muhit

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

yaratishi zarur. Barqaror psixologik muhit bolalarda qo‘rquvni kamaytiradi va o‘zini ifodalash qobiliyatini oshiradi.

Tarbiyachi shaxsi va bolalar bilan munosabatining jadvali

1-jadval.

Tarbiyachi fazilati	Munosabat turi	Bolalarga ta’siri / Rivojlanish sohalari
Mehribonlik	Emotsional qo‘llab-quvvatlash	Emotsional barqarorlik, ishonch, xavfsizlik hissi
Adolat	Talabchan va adolatli	Ijtimoiy qoidalar va intizomni o‘zlashtirish
Sabr-toqat	Barqaror va sabrli	Stressga chidamlilik, xotirjamlik
Pedagogik mahorat	Individual yondashuv	Intellektual va kognitiv rivojlanish
E’tibor va rag‘batlantirish	Ijobiy rag‘batlantiruvchi	O‘zini qadrlash, motivatsiya va ijtimoiy faollik

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tarbiyachi o‘rtasidagi munosabat – psixologik jarayonning asosiy elementidir. Tarbiyachi shaxsining bolalar bilan muloqoti nafaqat bilim berish, balki ularning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Munosabatlarning sifatli shakllanishi bolalarda xavfsizlik hissi, ijtimoiy qobiliyat va shaxsiy o‘zini anglashni rivojlantiradi. “Tarbiyachi shaxsi va bolalar psixologiyasiga ta’siri” muammosi ko‘plab psixologik va pedagogik maktablar doirasida tadqiq etilgan. Mazkur masala yuzasidan manbalarni shartli ravishda klassik psixologik nazariyalar, zamonaviy rivojlanish psixologiyasi tadqiqotlari hamda pedagogik kompetentlik konsepsiyalari doirasida tahlil qilish mumkin.

Avvalo, Lev Vygotskyning “Мышление и речь” hamda “Pedagogicheskaya psixologiya” asarlarida bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanishi ilmiy asoslangan. Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi orqali tarbiyachi shaxsining bola imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositachi sifatidagi rolini ko‘rsatadi. Uning nazariyasi metodologik jihatdan shuni anglatadiki, bolalar psixologik rivojlanishini o‘rganishda tarbiyachi faoliyatini ajralmas komponent sifatida ko‘rib chiqish zarur. Shuningdek, Erik Eriksonning “Childhood and Society” asari psixosotsial rivojlanish bosqichlarini asoslab beradi. Erikson nazariyasiga ko‘ra, erta bolalik davrida shakllanadigan ishonch va tashabbuskorlik sifatlari kattalar - xususan, tarbiyachining munosabati bilan chambarchas bog‘liq. Bu manba tarbiyachi shaxsining emotsional-psixologik ta’sirini ilmiy jihatdan tushuntirib beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham tarbiyachi shaxsining ahamiyati keng yoritilgan. Masalan, Urie Bronfenbrennerning “The Ecology of Human Development” asarida bola rivojlanishi ekologik tizimlar nazariyasi asosida izohlanadi. Bu nazariyaga ko‘ra, tarbiyachi mikrotizim elementlaridan biri bo‘lib, bola rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bronfenbrenner yondashuvi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

tarbiyachi shaxsini ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘rganish zarurligini asoslaydi. Mahalliy va MDH olimlari tadqiqotlarida ham pedagog shaxsining psixologik ta’siri masalasi yoritilgan. Masalan, rus pedagog-psixologi Aleksei Leontiev faoliyat nazariyasida pedagog va bola o‘rtasidagi hamkorlikni shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida ko‘rsatadi. Uning ishlari tarbiyachi faoliyatini bola motivatsiyasi va ehtiyojlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga metodologik asos beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha mualliflar turli nazariy paradigmalar asosida ish olib borgan bo‘lsalar-da, ularni birlashtiruvchi umumiy g‘oya mavjud: bola psixologik rivojlanishining samaradorligi tarbiyachi shaxsining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita bog‘liqdir. Klassik nazariyalar (Vygotskiy, Erikson) rivojlanish mexanizmlarini tushuntirsa, gumanistik va ekologik yondashuvlar (Bronfenbrenner) tarbiyachi shaxsining emotsional va ijtimoiy rolini kengroq kontekstda yoritadi. Tahlillar “Tarbiyachi shaxsi va bolalar psixologiyasiga ta’siri” masalasi ko‘p qirrali va integrativ yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi. Mazkur nazariy asoslar tadqiqotning ilmiy-metodologik poydevorini mustahkamlaydi hamda amaliy pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur konseptual yo‘nalishlarni belgilab beradi. “Tarbiyachi shaxsi va bolalar psixologiyasiga ta’siri” masalasini metodologik jihatdan tahlil qilish, avvalo, ushbu hodisani qanday ilmiy yondashuvlar orqali o‘rganish mumkinligini aniqlashni talab etadi. Mazkur muammo ko‘p omilli va kompleks xarakterga ega bo‘lib, uni faqat bitta nazariy paradigma doirasida talqin etish yetarli emas. Shu bois metodologik tahlil tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, sotsiokultural hamda faoliyat yondashuvlari sintezi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, tarbiyachi shaxsi - bu bolalar psixologik rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik tizimning muhim komponentidir. Bola, tarbiyachi, ta’lim muhiti va ijtimoiy kontekst o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida bir butun jarayonni tashkil etadi. Bu yerda metodologik jihatdan sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash muhim: tarbiyachining emotsional barqarorligi, nutq madaniyati va refleksiv qobiliyati bolaning o‘z-o‘zini baholashi, motivatsiyasi hamda ijtimoiy moslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Mazkur savol empirik kuzatuv, diagnostik metodlar va psixologik testlar orqali o‘rganilishi mumkin.

Faoliyat yondashuvi doirasida (ayniqsa Lev Vygotsky va uning izdoshlari qarashlari asosida) bola rivojlanishi ijtimoiy hamkorlik jarayonida shakllanishi ta’kidlanadi. Metodologik jihatdan bu shuni anglatadiki, tarbiyachi shaxsini boladan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro ta’sir jarayonida tadqiq etish zarur. Tarbiyachining pedagogik strategiyalari, qo‘llab-quvvatlash usullari va muloqot modeli bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirish yoki cheklash omili bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, metodologik asos sifatida interaktiv kuzatuv va jarayonni tahlil qilish metodlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa tarbiyachining individual xususiyatlarini (empatiya, tolerantlik, qadriyatlar tizimi) bolalarning individual-psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishni nazarda tutadi. Bu yerda metodologik muammo - subyektiv omillarni obyektiv mezonlar asosida baholashdir. Psixodiagnostik metodlar, sotsiometriya, refleksiv tahlil va suhbat metodlari tarbiyachi shaxsining ta’sir mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi. Psixosotsial rivojlanish nazariyasi kontekstida

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

(masalan, Erik Erikson qarashlari asosida) tarbiyachi bolada ishonch, tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Metodologik jihatdan bu bosqichlar dinamik jarayon sifatida o'rganiladi, ya'ni vaqt omili va rivojlanish ketma-ketligi inobatga olinadi. Longityud tadqiqotlar bu borada muhim ilmiy asos bo'la oladi. Shuningdek, zamonaviy metodologiyada refleksiv-paradigmatik yondashuv ham muhimdir. Bu yondashuv tarbiyachining o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, pedagogik qarorlarining psixologik oqibatlarini anglash qobiliyatini o'rganishni talab qiladi. Chunki tarbiyachi shaxsining rivojlanishi bevosita bolalar ruhiy muhitiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, metodologik jihatdan bu jarayon ikki tomonlama – ham bola, ham tarbiyachi rivojlanish dinamikasi nuqtai nazaridan tadqiq etilishi zarur. "Tarbiyachi shaxsi va bolalar psixologiyasiga ta'siri" muammosi kompleks metodologik asosni talab etadi. Tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va psixosotsial yondashuvlarning integratsiyasi ushbu hodisani chuqur va ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Metodologik mukammallik esa nafaqat nazariy xulosalar chiqarish, balki amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

"Tarbiyachi shaxsi va bolalar psixologiyasiga ta'siri" masalasining nazariy va metodologik tahlili shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi shaxsi ta'lim-tarbiya jarayonining markaziy subyekti sifatida bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita hamda uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Bola shaxsining shakllanishi faqat o'quv dasturlari yoki metodik vositalar bilan emas, balki tarbiyachining individual fazilatlari, kommunikativ madaniyati, empatik yondashuvi va kasbiy refleksiyasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ilmiy manbalar tahlili asosida aniqlanishicha, turli psixologik maktablar vakillari - xususan, Lev Vygotsky, Jean Piaget, Erik Erikson va Carl Rogers - bola rivojlanishida kattalarning, ayniqsa pedagog shaxsining hal qiluvchi rolini turli nazariy asoslarda isbotlab berganlar. Ularning qarashlari integrativ tahlil qilinganda, tarbiyachining qo'llab-quvvatlovchi, shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan faoliyati bolada ijobiy "Men-konsepsiya", mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishi aniqlanadi. Metodologik jihatdan esa mazkur muammo tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar uyg'unligida o'rganilishi lozimligi asoslandi. Tarbiyachi va bola o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni dinamik va ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, u pedagogning kasbiy kompetentligi hamda shaxsiy yetukligi bilan belgilanadi.

Shu bois zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsini rivojlantirish — uning psixologik savodxonligi, emotsional intellekti va refleksiv madaniyatini takomillashtirish — bolalar psixologik salomatligi va barkamol shaxs sifatida shakllanishining muhim strategik omili sifatida qaralishi zarur. Tarbiyachi shaxsining sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va metodik tavsiyalar esa ta'lim samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.
2. Erikson E. H. Childhood and Society. – New York: W. W. Norton & Company, 1950. – 445 p.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

3. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
4. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1968. – 464 с.
5. Немов Р. С. Психология: Учебник для студентов высших педагогических учебных заведений: В 3 кн. – М.: ВЛАДОС, 2001. – 640 с.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

SUDRALIB YURUVCHILAR SINFINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI

Barotov Avazbek Hamzayevich, Buxoro davlat pedagogika instituti “Biologiya” kafedrasi dotsenti, b.f.f.d
Umarbekova Niginabonu Utkurbek qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti “Biologiya”kafedrasi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada biologiya darslarida, xususan, zoologiya kursida o‘qitiladigan “sudralib yuruvchilar ” sinfini o‘rganishda zamonaviy va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va samaradorligi yoritilgan. Maqolada “T-chizma”, “Venn diagrammasi”, “Ierarxik klaster”, “Keys study”, “Baliq skeleti” kabi metodlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o ‘tilgan. Maqola biologiya fani o‘qituvchilari uchun dars mashg‘ulotlarini interaktiv shaklda tashkil etish uchun metodik tavsiya bo‘lib xizmat qiladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi sudralib yuruvchilar mavzusini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodik asoslarini ko‘rsatib berish, shuningdek o‘qituvchilarga metodik tavsiyalar berish.

MATERIAL VA METODLAR: maqolada biologiyaning zoologiya kursida o‘qitiladigan “sudralib yuruvchilar ” sinfini, qolaversa boshqa mavzularni ham o‘qitishda keng foydalanish mumkin bo‘lgan “T-chizma”, “Venn diagrammasi”, “Ierarxik klaster”, “Keys study”, “Baliq skeleti” kabi interaktiv metodlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra biologiya darslarida “sudralib yuruvchilar” sinfini an’anaviy o‘qitish usuli ko‘pincha ham ijobiy natija bermaydi, ya’ni ta’lim samaradorligi yuqori bo‘lmaydi. Aksincha ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llaganda esa ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi. Bunda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi.

XULOSA: natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, o‘quvchining kognitiv (bilish) qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Sudralib yuruvchilarning murakkab ichki tuzilishini vizuallashtirish orqali o‘quvchilarda biologik jarayonlarning yaxlitligi haqida ilmiy dunyoqarash kengaydi. Tajribalar shuni tasdiqladiki, vizual sxemalar (klaster, baliq skeleti) matnli ma’lumotga qaraganda miyada 6 barobar tezroq qayta ishlanadi va mustahkam saqlanadi.

KALIT SO‘ZLAR: ilg‘or pedagogik texnologiyalar, sudralib yuruvchilar, interaktiv metodlar, “T-chizma”, “Venn diagrammasi”, “Ierarxik klaster”, “Keys study”, “Baliq skeleti”, ta’lim samaradorligi.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА "РЕПТИЛИИ".

Баротов Авазбек Хамзаевич, доцент кафедры «Биология» Бухарского государственного педагогического института, доктор философии по биологическим наукам (PhD).

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Умарбекова Нигинабону Уткурбек кызы, студентка 2 курса магистратуры Бухарского государственного педагогического института.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются преимущества и эффективность использования современных и передовых педагогических технологий на уроках биологии, в частности, при изучении темы «рептилии» в рамках курса зоологии. В статье показаны пути повышения качества обучения с использованием таких методов, как «Т-диаграмма», «диаграмма Венна», «иерархическая кластеризация», «тематическое исследование», «скелет рыбы». Статья служит методической рекомендацией для учителей биологии по организации уроков в интерактивной форме.

ЦЕЛЬ: цель данной статьи – продемонстрировать методические основы использования передовых педагогических технологий в преподавании темы «рептилии», а также предоставить методические рекомендации учителям.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье используются интерактивные методы, такие как «Т-диаграмма», «диаграмма Венна», «иерархическая кластеризация», «тематическое исследование», «скелет рыбы», которые могут широко применяться при преподавании темы «рептилии» в рамках курса зоологии биологии, а также других тем.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: согласно результатам анализа, традиционный метод преподавания темы «рептилии» на уроках биологии часто не дает положительных результатов, то есть образовательная эффективность невысока. Напротив, при использовании передовых педагогических технологий в учебном процессе были достигнуты положительные показатели. В этом случае показатели усвоения материала студентами были высокими.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты показывают, что интерактивные методы не ограничиваются только передачей знаний, но также развивают познавательные способности студента. Визуализация сложной внутренней структуры рептилий расширила научное понимание студентами целостности биологических процессов. Эксперименты показали, что визуальные схемы (кластеры, скелеты рыб) обрабатываются и сохраняются в мозге в 6 раз быстрее, чем текстовая информация.

В данной статье освещаются преимущества и эффективность использования современных и передовых педагогических технологий на уроках биологии, в частности, при изучении класса «Пресмыкающиеся» в рамках курса зоологии. В работе демонстрируются пути повышения качества образования через применение таких интерактивных методов, как «Т-таблица», «Диаграмма Венна», «Иерархический кластер» и «Рыбий скелет» (Исикава). Статья служит методической рекомендацией для учителей биологии по организации учебных занятий в интерактивной форме, способствующей глубокому усвоению материала и развитию критического мышления учащихся.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Ключевые слова: передовые педагогические технологии, рептилии, интерактивные методы, «Т-таблица», «диаграмма Венна», «кейс стади», «иерархическая кластер», «скелет рыбы», эффективность обучения.

ADVANTAGES OF USING ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE "REPTILES" CLASS

Barotov Avazbek Khamzayevich, Associate Professor of the "Biology" Department at Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences.
Umarbekova Niginabonu Utkurbek qizi, 2nd year master's student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the advantages and effectiveness of using modern and advanced pedagogical technologies in biology lessons, in particular, in the study of the “reptiles” class taught in the zoology course. The article shows ways to improve the quality of education by using such methods as “T-chart”, “Venn diagram”, “Hierarchical cluster”, “Case study”, “Fish skeleton”. The article serves as a methodological recommendation for biology teachers to organize lessons in an interactive form.

AIM: the purpose of this article is to demonstrate the methodological foundations of using advanced pedagogical technologies in teaching the subject of reptiles, as well as to provide methodological recommendations to teachers.

MATERIAL AND METHODS: the article uses interactive methods such as “T-chart”, “Venn diagram”, “Hierarchical cluster”, “Case study”, “Fish skeleton”, which can be widely used in teaching the “reptiles” class taught in the zoology course of biology, as well as other topics.

DISCUSSION AND RESULTS: according to the results of the analysis, the traditional method of teaching the “reptiles” class in biology lessons often does not give positive results, that is, educational efficiency is not high. On the contrary, when using advanced pedagogical technologies in the educational process, positive indicators were achieved. In this case, students' mastery indicators were high.

CONCLUSION: the results show that interactive methods are not limited only to imparting knowledge, but also develop the cognitive (cognitive) abilities of the student. Visualizing the complex internal structure of reptiles broadened students' scientific understanding of the integrity of biological processes. Experiments have shown that visual schemas (clusters, fish skeletons) are processed and stored in the brain 6 times faster than textual information.

This article highlights the advantages and effectiveness of using modern and advanced pedagogical technologies in biology lessons, specifically in studying the class of "Reptiles" within the zoology curriculum. It demonstrates ways to improve the quality of education by implementing interactive methods such as "T-chart," "Venn diagram," "Hierarchical cluster," and the "Fishbon diagram. The article serves as a methodical

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

recommendation for biology teachers to organize classroom activities in an interactive format, fostering deeper understanding and critical thinking among students.

KEYWORDS: advanced pedagogical technology, reptile es, interactive methods, "T-chart", "Venn diagram", "Case study", "Hierarchical cluster", "Fish skeleton", educational effectiveness.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub islohotlar, jamiyat ehtiyojlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining optimallashuvi va raqamli tafakkurning shakllanishi o‘qitish metodlarining yangilanishini talab qilmoqda. An’anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish mushkul bo‘lib bormoqda. Shu sababli, ta’lim tizimiga yangi, samaradorligi yuqori ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan zarurat kun tartibiga chiqmoqda. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘qituvchini pedagogik mahoratini oshiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muommoli vaziyatlarni tahlil qila olish, tanqidiy fikrlash hamda ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirish, ularning faolligini rag‘batlantirish, shuningdek, individual yondashuvni ta’minlash bugungi kun ta’limini oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Biologiya fani tirik organizmlar bir so‘z bilan aytganda, tiriklik haqida fan bo‘lib, uni o‘rganish va qonuniyatlari anglash, chuqur tahlil qilish uchun faqatgina an’anaviy yondashuvlarning o‘zi kamlik qiladi.

Zamonaviy ta‘lim tizimida axborot oqimining tezlashishi va raqamli texnologiyalarning kirib kelishi biologiya fanini o‘qitish metodikasini tubdan yangilashni taqazo etmoqda. Sudralib yuruvchilar (reptilia) mavzusi biologiya fanining zoologiya kursida o‘qitiladi. Bu mavzu turlar xilma-xilligi va murakkabligi, rivojlanish darajasiga ko‘ra o‘rganish biroz qiyinchiliklar tug‘diradi. Shunday ekan ushbu mavzuni o‘qitishda an’anaviy ma’ruza metodidan uzoqlashgan holda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash birmuncha afzalliklarga ega. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning yana bir afzal tamoni darsning qiziqarli o‘tishini, balki fanni chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi, qolaversa, dars samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, xususan, multimedia vositalari va muammoli ta’lim metodlari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Masalan, sudralib yuruvchilarning ichki tuzilishini 3D modellar yordamida ko‘rsatish, ularning muhitga moslashish mexanizmlarini virtual laboratoriyalar orqali namoyish etish fanni o‘zlashtirish koeffitsiyentini sezilarli darajada ko‘taradi[1]. Quyida “sudralib yuruvchilar” mavzusini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklarini birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Vizualizatsiya va reallik darajasinig yuqoriligi: sudralib yuruvchilar sinfi suvdan quruqlikka chiqqan dastlabki umurtqalilar bo‘lib, ularning ichki va tashqi tuzilishida, evolyutsion moslanishlarida bir qancha o‘zgarishlar yuz bergan. 3D modellashtirish orqali yuragining uch kamerali tuzilishi va chala to‘sig‘ining borligini, skelet tuzilishidagi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

o‘zgarishlarni, masalan, yelka va chanoq kamarlarining rivojlanishi, oyoqlarining tanasining ikki yonida joylashishi kabi murakkab jarayonlarni bevosita tasavvur qilib o‘rganish imkonini beradi. Bundan tashqari sudralib yuruvchilar quruqlikka chiqishi bilab ularning tuxumlarida ham bir qator o‘zgarishlar ro‘y bergan. Tuxumi qattiq qobiq bilan qoplangan, bu uni ichidagi murtakni qurib qolishdan saqlashga mo‘ljallangan moslanishdir. Animatsiyalar va infografikalar orqali tuxumining ichki tuzilishini tasavvur qilib ko‘rib o‘rganish mumkin.

Tabaqalashtirilgan holda (individual) yondashuv: barcha o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyati individualdir, ya’ni turlicha. Bunda barcha o‘quvchilarni diqqatini bir xilda mavzuga qaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar masalan, QR-kodli topshiriqlar yoki online test topshiriqlari orqali qiziqtirish mumkin. Sudralib yuruvchilarning xilma-xilligi va ularning tabiatdagi ahamiyatini o‘rgatishda "Keys-stadi" (vaziyatli tahlil) texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantiradi. Masalan, "Nima uchun ilonlar ekotizimda muhim?" kabi muammoli vaziyatlar ustida ishlash o‘quvchini mustaqil tadqiqot qilishga yo‘naltiradi[3]. O‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga “Keys-study” metodini qo‘llash orqali masalan “nima uchun sovuq iqlimli mintaqalarda sudralib yuruvchilar sinfi vakillari kam uchraydi ” yoki “ nima uchun sudralib yuruvchilar sinfi vakillari qishda muzlab qolmaydi” kabi muommoli hamda qiziqarli savollar berish orqali o‘quvchini izlanishga, mustaqil fikrlashga, qolaversa fikrlash doirasini kengaytirishga erishish mumkin. O‘zlashtirishi sustroq bo‘lgan o‘quvchilarga esa “T-chizma” metodi orqali “timsohlar va tangachalilar turkumlarini taqqoslash” yoki “Venn diagramasi” metodini qo‘llash “suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfi bilan sudralib yuruvchilar sinfi vakillarini solishtirgan holda” o‘rganishga imkon beradi. Bundan tashqari “Klasster” metodidan foydalangan holda tur va turkumlar sonini tahlil qilib o‘rganish ham bilimlarni mustahkamlashga, uzoq vaqt xotirada qolishiga xizmat qiladi. Shuningdek, AKT vositalari orqali sudralib yuruvchilarning embrional rivojlanish bosqichlarini (tuxum qo‘yishi, embrionning parda bilan o‘ralishi) animatsion ko‘rinishda namoyish etish, nazariy bilimlarning xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishini ta’minlaydi[4]. Tizimli fikrlashni shakllantirish: sudralib yuruvchilar sinfini o‘rganishda bilimlarni alohida alohida emas, balki bir-biriga uzviy bog‘liq holda o‘rganishda ta‘lim samaradorligi yuqori bo‘ladi. Bunda bir nechta metod va ularni qo‘llashning afzalliklarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, klaster va "Sinkveyn" kabi grafik organayzerlar o‘quvchilarga olingan nazariy bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi[2]. “Ierarxik klasster” metodida o‘quvchi sudralib yuruvchilar sinfini umumiy ekotizmning bir qismi sifatida tahlil qiladi. Masalan bo‘g‘ma ilon turini o‘rganishda quyidagicha tahlil qilinadi:

Hujayra darajasi: zaharsiz ilon ya’ni ularda zahar bezi mavjud emas, ularda zahar bezlari bo‘lmaganligi tufayli hech qanday oqsil ishlab chiqarilmaydi.

Organ darajasi: jag‘ suyaklarining harakatchan birikishi (katta o‘ljani yutishga imkon beradi).

Organizm darajasi: oyoqlarning yo‘qolishi va umurtqa pag‘onasining elastikligi.

Populyatsiya darajasi: kemiruvchilar sonini cheklsh orqali tabiat muvozanatini saqlaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

“Baliq skeleti” metodi- bu muommoning sabab va natijalarini vizual tarzda tahlil qilish imkonini beruvchi eng samarali metodlardan biri hisiblanadi. Bunda:

Baliqning boshi: asosiy savol- sudralib yuruvchilarning quruqlikka moslashuv belgilari.

Yuqori suyaklariga: moslanish belgilari ya’ni fiziologik sabablar keltiriladi.

Pastki suyaklar: shunga mos dalillar ya’ni biologik belgilar keltiriladi.

Dumi: yakuniy xulosa qilinadi.

Bu metodning afzalligi o‘quvchilar diqqatini jamlash, fikrlashga undash, xotirani mustahkamlashdir. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda zamonaviy biologiya ta’limi shunchaki ma’lumotlarni yodlash emas, balki o‘quvchida tirik tabiatga nisbatab ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamdir. Sudralib yuruvchilar sinfini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning tizimli joriy etilishi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqingina qolmay, kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassislarini tarbiyalashda muhim poydevor bo ‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Barotov A.H. Biologiya o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Buxoro, 2023.
2. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. – T.: "O‘qituvchi", 2011.
3. Mavlonov O., Etiborova S. Biologiya (Zoologiya) o‘qitishning zamonaviy usullari. – Toshkent: "Nisoro", 2018.
4. Azimov A., To‘xtayev A. Zoologiya kursida innovatsion texnologiyalar. Metodik qo‘llanma. – Samarqand, 2021.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MUSIQA SAN'AT MAKTABLARIDA INNOVATSION BOSHQARUVNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Azizov Umidjon Sobir o'g'li, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi, Toshkent, O 'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: musiqa san'at maktablari zamonaviy ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida nafaqat ijrochilik mahoratini, balki o'quvchilarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Innovatsion boshqaruv – bu ta'lim muassasasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, ijodiy metodlar hamda psixologik yondashuvlar asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonda pedagogik va psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlarining, jumladan, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlarida shaxs kamoloti, ruhiy barkamollik va san'atning tarbiyaviy ahamiyati alohida ta'kidlangan. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari ham ijodiy muhitni yaratish, motivatsiyani kuchaytirish va individual yondashuvni boshqaruvning asosiy omili sifatida ko'rsatadi. Shu bois musiqa san'at maktablarida innovatsion boshqaruvning pedagogik-psixologik omillarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi – musiqa san'at maktablarida innovatsion boshqaruvni samarali tashkil etishda pedagogik va psixologik omillarning o'rni hamda ta'sir mexanizmlarini aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR*:* tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil metodi – pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarni o'rganish va umumlashtirish; Kuzatish metodi – musiqa san'at maktablarida boshqaruv va ta'lim jarayonini monitoring qilish; So'rovnoma va intervyu – o'qituvchilar, rahbarlar va o'quvchilar o'rtasida innovatsion boshqaruv samaradorligini aniqlash; Tajriba-sinov ishlari – innovatsion boshqaruv elementlarini amaliyotga joriy etish orqali natijalarni taqqoslash; Psixologik diagnostika metodlari – motivatsiya, ijodiy faollik va kommunikativ kompetensiyalarni aniqlash. Tadqiqot obyekti sifatida musiqa san'at maktablari faoliyati, predmeti sifatida esa innovatsion boshqaruvning pedagogik-psixologik omillari belgilandi

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, musiqa san'at maktablarida innovatsion boshqaruv samaradorligi quyidagi pedagogik-psixologik omillarga bog'liq:

1.Motivatsion muhitning yaratilishi – o'qituvchi va o'quvchilarning ichki rag'batini qo'llab-quvvatlash.

2.Ijodiy erkinlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – individual qobiliyatlarni rivojlantirish.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

3.Raqamli texnologiyalar integratsiyasi – onlayn platformalar, audio-vizual vositalardan foydalanish.

4.Rahbarning liderlik kompetensiyasi – demokratik boshqaruv uslubi, samarali kommunikatsiya.

5.Psixologik iqlimning sog‘lomligi – ijobiy muloqot va hamkorlik muhiti.

Amaliy tajriba natijalari innovatsion boshqaruv joriy etilgan maktablarda o‘quvchilarning ijodiy faolligi, sahna madaniyati va o‘ziga ishonch darajasi oshganini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarda esa kasbiy qoniqish va metodik yangilanishga intilish kuchaydi. Shuningdek, boshqaruv jarayonida refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va jamoaviy qaror qabul qilish mexanizmlarining qo‘llanishi ijobiy natija berdi.

XULOSA: musiqa san’at maktablarida innovatsion boshqaruvni samarali tashkil etish pedagogik va psixologik omillarning uyg‘unligiga bog‘liq. Motivatsiya, ijodiy muhit, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hamda demokratik boshqaruv uslubi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra: Innovatsion boshqaruv tizimi o‘quvchilarning ijodiy va estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi; Pedagogik-psixologik yondashuv asosida tashkil etilgan boshqaruv modeli ta’lim samaradorligini oshiradi; Raqamli va interaktiv metodlardan foydalanish musiqa ta’limining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Kelgusida musiqa san’at maktablarida innovatsion boshqaruv modelini yanada takomillashtirish, pedagoglarning psixologik kompetensiyasini oshirish va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

KALIT SO‘ZLAR: musiqa san’at maktabi, pedagogik omillar, psixologik omillar, kreativ muhit, liderlik kompetensiyasi, refleksiv boshqaruv, motivatsiya, raqamli texnologiyalar.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ШКОЛАХ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Азизов Умиджон Собир угли, Независимый соискатель Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: музыкальные школы искусств как важное звено современной системы образования служат не только развитию исполнительского мастерства, но и формированию эстетического вкуса, творческого мышления и личностных качеств учащихся. В условиях глобализации и цифровой трансформации эффективная организация образовательного процесса требует внедрения механизмов инновационного управления. Инновационное управление — это процесс совершенствования системы управления образовательным учреждением на основе современных педагогических технологий, цифровых средств, креативных методов и психологических подходов. В данном процессе решающую роль играют педагогические и психологические факторы. В трудах восточных мыслителей, в частности Abu Nasr Forobiy и Abu Ali ibn Sino, особое внимание уделяется гармоничному развитию личности, духовному совершенству и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

воспитательному значению искусства. Современные педагогические и психологические науки также рассматривают создание творческой среды, усиление мотивации и индивидуальный подход как ключевые факторы управления. В связи с этим научное изучение педагогико-психологических факторов инновационного управления в музыкальных школах искусств является актуальной задачей.

ЦЕЛЬ: цель исследования — определить роль и механизмы влияния педагогических и психологических факторов в эффективной организации инновационного управления в музыкальных школах искусств, а также разработать научно обоснованные рекомендации по их совершенствованию.

Итак, история развития международной нотной системы Брайля – это не просто хроника различных выпущенных руководств и книг, а кропотливая работа международных и национальных комитетов, конференций и комиссий ООН, а также, что немаловажно, консультаций с читателями и переписчиками музыкальных партитур, написанных шрифтом Брайля.

Стандартная ячейка Брайля состоит из шести выпуклых точек: трех в высоту и двух в ширину. Выбирая одну или несколько точек в ячейке, можно создать 64 различных варианта расположения. Однако в нотной записи существует более 64 элементов нот и музыкальных символов [7]. Брайль применил удобное логическое правило: каждой ноте гаммы в нотной записи присваиваются комбинации из четырех верхних точек в ячейке. которые определяют название ноты (C, D, E, F, G, A, B), а длительность любого звука показывается наличием или отсутствием нижних точек шеститочия. Как было отмечено в нашем учебном пособии «Сольфеджио (ритмические упражнения на уроках сольфеджио)», впервые изданном в Узбекистане в 2024 г. на шрифте Брайля на узбекском и русском языках, знакомство с длительностями нужно начать с восьмой ноты. Так, нота «до» восьмой длительности записывается комбинацией точек: первая, четвертая, пятая. Затем изучаются четвертные длительности, подставив к каждому знаку восьмой ноты шестую точку. Четвертная нота «до» это – комбинация точек – первая, четвертая, пятая, шестая. Половинные длительности можно обозначить, подставив каждому знаку восьмой ноты третью точку. Половинная «до» комбинация точек – первая, третья, четвертая, пятая. Целые длительности обозначаются добавлением к знаку восьмой ноты третьей и шестой точки. Целая нота «до» комбинация точек – первая, третья, четвертая, пятая, шестая [8]. На наш взгляд, данная техника помогает быстрее освоить практику чтения и написания нотных знаков в нотной системе Брайля (рис. 1).



Рис.1. Пример записи ритмического упражнения в нотной системе Брайля

Поскольку 64 комбинаций точек недостаточно для всех музыкальных символов, то знаки в НСБ могут иметь несколько значений в зависимости от контекста или использоваться в комбинациях, что требует детального изучения.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Шестнадцатая ступень имеет ту же комбинацию, что и целая, тридцать вторая - ту же, что и половинная, а шестьдесят четвертая - ту же, что и четвертная.

Фундаментальные различия структурной организации брайлевской и плоскопечатной нотаций выявил сравнительный анализ, результаты которого представлены в таблице 1. Традиционная запись опирается на двумерную графику нотного стана, обеспечивающую одновременное восприятие вертикальных и горизонтальных параметров, но НСБ имеет линейную, последовательную структуру. Специфика тактильного чтения также предполагает необходимость предварительного запоминания фрагментов текста перед исполнением, что принципиально отличает процесс работы с НСБ от визуального чтения «с листа». Отсутствие графических ориентиров усиливает значение логической структуры и контекстной интерпретации при разборе музыкальных текстов.

Таблица.1.

Сопоставительный анализ принципов музыкальной нотации на шрифте Брайля и плоскопечатной нотации

Критерий	Нотная система Брайля	Плоскопечатная нотация
Канал чтения	Тактильное чтение «руками».	Визуальное чтение.
Пространственная организация	Строго линейная последовательность.	Двумерная графика нотного стана, над/под размещение.
Сканирование (поиск символа)	Поиск медленнее и затруднен из-за отсутствия графичности.	Поиск облегчается визуальной графической композицией
Вертикаль (аккорды)	Вертикаль переводится в последовательность знаков: иисползуются знаки интервалов от основной ноты.	Аккорды читаются вертикально. Ноты записываются одна над другой (вертикальное выравнивание).
Ритмика	Все символы равноудалены; ритмические группы не выделяются визуально, что усложняет чтение с листа.	Ритм как графика длительностей, использует вязки для группировки ритма.
Отображение высоты	Высота задается октавными знаками.	Высота задается положением на стане и ключом.
Тактовая сегментация	Такт отделяется пробелом.	Тактовая черта - вертикальная линия.
Объем записи/плотность	Такт может занимать большее место, используя много ячеек.	Компактность за счет визуального поля.
Комбинаторная	Ограниченное количество	Графическое

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Критерий	Нотная система Брайля	Плоскопечатная нотация
емкость символов	комбинаций требует большего внимания, усиливает значение контекстного анализа.	представление намного шире.
Чтение с «листа»	Требует запоминания. Типичный цикл: чтение, потом запоминание, затем игра.	Возможно зрительное чтение «с листа».
Инструментальная обусловленность	Одновременное чтение и игра часто невозможно.	Возможно чтение «с листа» во время игры.
Обучение и автономия	Рекомендуется параллель изучения теории и обязательная практика на инструменте.	Теория и чтение нот интегрированы визуально с раннего этапа.

Более того, аккорды и полифонические сочетания в НСБ преобразуются в последовательность интервалов относительно основной ноты, что меняет характер мыслительной обработки информации: вместо визуального охвата гармонического комплекса незрячий музыкант осуществляет его поэтапное воспроизведение. В результате формируется иной тип музыкального анализа, основанный не на графическом восприятии, а на внутренней структурной организации звуковысотных и ритмических отношений.

Как известно, первые два года многих программ по теории музыки в различных университетах и колледжах мира посвящены изучению широкого спектра концепций и навыков, прежде всего основанных на нотной записи, развитии слуха, навыках игры на инструментах, а также курсах «Сольфеджио», «Гармония» и «Музыкальный анализ». В концептуальной статье Анны Мари де Зуев (de Zeeuw, Anne-Marie) отмечается, что «специализированная терминология облегчает обсуждение музыки, а нотация облегчает ее сохранение и передачу. Теоретические понятия и термины часто принимаются как само собой разумеющиеся как преподавателями, так и студентами, и взаимосвязь между понятиями и языком нотной записи может оставаться незамеченной. Зрячий студент может читать и играть одновременно, постоянно держа перед собой ноты как напоминание о связи между звуком и символом, для незрячего студента это невозможно» [9].

У многих студентов, имеющих проблемы со зрением, наблюдается недостаток владения музыкальным языком, поскольку отсутствуют навыки владения НСБ, что несомненно влияет на формирование музыкального восприятия. Шерстон Джонсон, подчеркивает, что теория музыки на многих уровнях — это изучение, сосредоточенное на нотной записи. Следовательно, слабовидящим студентам приходится взаимодействовать в трех аспектах: слушая музыку, изучая концепции, заложенные в печатной нотации, и используя шрифт Брайля, находя тонкий баланс между необходимостью владения шрифтом Брайля

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

и необходимостью эффективно работать со зрячими музыкантами [10]. Наряду со всеми музыкальными нотами в стандартной музыкальной нотации существует множество интерпретационных сигналов, которые варьируются от графических символов, указывающих на изменения громкости, до слов, традиционно на итальянском языке, которые указывают на громкость, стиль. Однако менее 15% печатной музыки переведено в шрифт Брайля. Незрячие музыканты вынуждены играть «на слух» или полагаться на инструкции зрячего музыканта, то есть методы, чреватые потенциальными ошибками и препятствующие музыканту с нарушениями зрения непосредственно ощутить всю полноту замысла композитора в музыкальной партитуре [11].

Следует подчеркнуть, что в настоящее время появились важные научные исследования, в которых приводятся доказательства того, что студенты с нарушениями зрения могут использовать другие когнитивные механизмы и восприятия по сравнению со зрячими студентами (Каттанео и др., 2008). Опираясь на альтернативные способы восприятия, студенты с нарушениями зрения, изучающие, например, нотацию по Брайлю, строят музыкальный анализ на основе иного мыслительного процесса, чем если бы это был зрячий студент, изучающий музыку. Доказано, что у людей с нарушениями зрения могут быть «пластичные механизмы функциональной реорганизации», которые позволяют им усваивать материал так же тщательно, как и зрячим людям, и часто очень эффективно [12]. Для незрячих студентов необходимость одновременного освоения музыкальных понятий и альтернативной системы записи создаёт дополнительные интеллектуальные задачи, требующие развитых аналитических навыков. Но именно наличие компенсаторных механизмов нейропластичности у людей с нарушением зрения обеспечивает эффективную переработку тактильной и слуховой информации, а также позволяет достигать высокого уровня профессиональной компетенции. Таким образом, особенности музыкальной нотации Брайля не следует рассматривать как ограничение; наоборот, они способствуют формированию интервалово-структурного, аналитически углублённого типа музыкального мышления.

Полученные результаты позволяют сделать вывод о том, что нотная система Брайля формирует самостоятельную когнитивную модель музыкального восприятия и анализа. Такая модель характеризуется последовательностью, логической структурированностью и опорой на организацию интервалов. При этом включение НСБ в учебные планы ВУЗов, как это практикуется в зарубежных университетах, не должно ограничиваться обучению техники чтения, а требует пересмотра дидактических стратегий с учетом особенностей музыкального восприятия студентов с ограниченным зрением. Следовательно, НСБ представляет собой не вспомогательную адаптацию традиционной записи, а самостоятельную систему отображения музыкальной информации, которая оказывает важное влияние на характер профессионального музыкального мышления. В условиях формирования инклюзивного образования это предъявляет

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

требования к развитию соответствующей методологии преподавания теории музыки.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Конвенция о правах инвалидов. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml
2. Durand, «Lire et écrire la musique sans voir» Canadian Journal of Disability Studies (décembre 2019) https://cjds.uwaterloo.ca/index.php/cjds/article/view/580/848
3. Braille L. Method of Writing Words, Music, and Plain Songs by Means of Dots. Paris, 1829.
4. Roth GA, Fee E. The invention of Braille. American Journal of Public Health. 2011 Mar;101(3):454.
5. Music Braille Code, 2015 Published by The Braille Authority of North America. p. 428 https://www.brailleauthority.org/music/Music_Braille_Code_2015.pdf
6. New International Manual of Braille Music Notation by The Braille Music Subcommittee World Blind Union. Compiled by Bettye Krolick, 1996.
7. Goto D. et al. A Transcription System from MusicXML Format to Braille Music Notation // EURASIP Journal on Advances in Signal Processing. 2007.
8. Matyakubova S.K., Mirsidikova S.A. "Solfedjio darslarda ritm mashqlari". Ko‘zi ojiz talabalar bilan ishlayotgan o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. T., 2025
9. de Zeeuw A.-M. Teaching College Music Theory Classes That Include Blind Students. 1977.
10. Johnson S. Notational Systems and Conceptualizing Music // Music Theory Online. 2009.
11. Jacko V.A. et al. A New Synthesis of Sound and Tactile Music Code Instruction. 2010.
12. Cattaneo Z. et al. Cognitive plasticity in visually impaired individuals. 2008.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

EKRAN ASARLARIDA AUDIO-DRAMATURGIYA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TAJRIBA

Zaretdinov Karamatdin Kurbanbayevich, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali dotsenti

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada zamonaviy kino va televideniye san’atida ovoz rejissyorligining dramaturgik funksiyalari hamda maxsus effektlarning (SFX) badiiy-psixologik o‘rni kompleks ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda audio-vizual sintez tamoyillari asosida ovozning ekran asaridagi kompozitsion, semantik va emotsional vazifalari ochib beriladi. Ovoz rejissyorligi jarayoni nafaqat texnik ijro, balki dramaturgik tafakkur mahsuli ekani asoslab berilib, uning konfliktni shakllantirish, qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalash, makon va vaqt muhitini yaratishdagi roli yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — audio-dramaturgiyaning nazariy asoslarini aniqlash hamda ekran asarlarida ovozdan badiiy ifoda vositasi sifatida samarali foydalanishning amaliy mexanizmlarini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR*:* tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy yondashuv va metodlardan foydalanildi:

- kino va televideniye asarlaridagi ovoz yechimlarini qiyosiy tahlil qilish;
- audio-vizual qatlamning strukturaviy-dramaturgik tahlili;
- ovozni mazmun hosil qiluvchi belgi sifatida talqin etishda semiotik yondashuv;
- sahna va epizodlarda SFX hamda foley texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishini o‘rganish.

Empirik asos sifatida ovoz nafaqat tasvirni to‘ldiruvchi, balki mustaqil narrativ vosita sifatida ishtirok etuvchi zamonaviy ekran asarlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ekran asarlarida ovoz quyidagi dramaturgik funksiyalarni bajaradi:

- sahnaning emotsional fonini shakllantirish;
- vizual qatlamni kuchaytirish yoki unga kontrapunkt yaratish;
- qahramonning ichki kechinmalarini ifodalash;
- ekran makonini modellashtirish;
- narrativ ritmni tashkil etish.

Ayniqsa, kontrapunkt usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ovoz tasvirni takrorlamaydi, balki u bilan ma’no darajasida o‘zaro ta’sirga kirishadi. Shuningdek, foley va SFX texnologiyalari sahnaning psixologik chuqurligini oshirish, realizm hissini kuchaytirish va tomoshabinning immersiyasini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

XULOSA: audio-dramaturgiya zamonaviy ekran san’atining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ovoz yordamchi element emas, balki mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatida narrativ tuzilishga va tomoshabin qabuliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ovozdan ongli va dramaturgik asosda foydalanish ekran asarining badiiy salohiyatini kengaytiradi hamda uning emotsional ta’sir kuchini oshiradi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

KALIT SO‘ZLAR: ovoz rejissyorligi, maxsus effektlar, SFX, foley, audio-vizual sintez, kontrapunkt.

АУДИОДРАМАТУРГИЯ В ЭКРАННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ОПЫТ

Заретдинов Карамаддин Курбанбаевич, доцент Нукусского филиала Государственного института искусства и культуры Узбекистана

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проводится комплексный научный анализ драматургических функций звукорежиссуры в современном кино и телевидении, а также художественно-психологической роли спецэффектов (SFX). В исследовании на основе принципов аудиовизуального синтеза раскрываются композиционные, семантические и эмоциональные функции звука в экранном произведении. Обосновано, что процесс звукорежиссуры является не только техническим исполнением, но и продуктом драматургического мышления, освещена его роль в формировании конфликта, выражении внутреннего душевного состояния героя, создании пространственно-временной среды.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление теоретических основ аудиодраматургии и определение практических механизмов использования звуковых решений как выразительного инструмента в построении экранного повествования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования применялись:

- методы сравнительного анализа звуковых решений в кино и телепроизведениях;
- структурно-драматургический анализ аудиовизуального ряда;
- семиотический подход к интерпретации звука как смыслообразующего элемента;
- практический анализ применения SFX и foley-технологий в создании художественного образа.

В качестве эмпирической базы рассматривались современные аудиовизуальные произведения, в которых звук выполняет не только иллюстративную, но и нарративную функцию.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что звук в экранных произведениях способен выполнять следующие драматургические функции:

- формирование эмоционального подтекста сцены;
- усиление или контрапунктирование визуального ряда;
- раскрытие внутреннего состояния персонажа;
- моделирование экранного пространства;
- создание ритмической структуры повествования.

Особое значение имеет использование контрапункта, при котором звук не дублирует изображение, а вступает с ним в смысловое взаимодействие. Также

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

выявлено, что технологии foley и SFX позволяют формировать психологическую глубину сцены, создавая эффект присутствия и усиливая вовлечённость зрителя.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: аудиодраматургия является ключевым компонентом современного экранного искусства. Звук выступает не вспомогательным, а полноценным выразительным средством, влияющим на структуру повествования и эмоциональное восприятие произведения. Эффективное использование звуковых решений позволяет расширить художественные возможности экранного языка и усилить драматургическое воздействие на аудиторию.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: звукорежиссура, спецэффекты, SFX, фоли, аудиовизуальный синтез, контрапункт.

AUDIO DRAMATURGY IN SCREEN WORKS: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL EXPERIENCE

Zaretdinov Karamatdin Kurbanbayevich, Associate Professor of the Nukus Branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article provides a comprehensive analysis of the dramaturgical functions of sound directing in contemporary cinema and television, as well as the artistic and psychological role of special sound effects (SFX). Based on the principles of audiovisual synthesis, the compositional, semantic, and emotional functions of sound in screen works are examined. It is argued that sound directing is not merely a technical process but also a product of dramaturgical thinking. Its role in shaping conflict, expressing the inner psychological state of characters, and creating spatial and temporal environments is highlighted.

AIM: the main objective of the study is to identify the theoretical foundations of audio dramaturgy and to explore practical mechanisms for the effective use of sound as an expressive tool in screen storytelling.

MATERIALS AND METHODS: the study employed the following approaches:

- comparative analysis of sound solutions in film and television;
- structural-dramaturgical analysis of the audiovisual layer;
- semiotic interpretation of sound as a meaning-producing element;
- practical examination of the use of SFX and foley technologies in shaping artistic imagery.

As an empirical basis, contemporary screen works were analyzed in which sound functions not only as a supportive element but also as an independent narrative device.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis demonstrated that sound in screen works performs several dramaturgical functions:

- shaping the emotional background of a scene;
- reinforcing or counterpointing the visual layer;
- revealing the inner state of a character;
- modeling screen space;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

- organizing the rhythmic structure of the narrative.

Particular importance lies in the use of counterpoint, where sound does not simply replicate the image but interacts with it at the level of meaning. The study also found that foley and SFX technologies enhance the psychological depth of scenes, create a sense of realism, and increase audience immersion.

CONCLUSION: audio dramaturgy is a crucial component of contemporary screen art. Sound functions not as an auxiliary element but as a fully independent expressive medium that directly influences narrative structure and audience perception. The conscious and dramaturgically grounded use of sound expands the artistic potential of screen language and strengthens its emotional impact.

Keywords: sound directing, special effects, SFX, foley, audiovisual synthesis, counterpoint

Ekran san'ati (kino, televideniye, video san'ati) o'z tabiatiga ko'ra audiovizual hodisadir. Garchi ko'p hollarda tomoshabin e'tibori vizual seriyaga qaratilgan bo'lsa-da, asarning emotsional-psixologik ta'siri uning jarangdor yechimiga tayanadi. Zamonaviy tovush yo'nalishi shunchaki shovqinni yozib olish emas, balki asarning "audio-dramaturgiyasi"ni yaratishdir.

I. Audio-vizual sintez va kontrapunkt prinsipi

Ovoz rejissurasining nazariy asoslari klassik drama qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Biroq, ekran san'atida tovush va tasvir o'rtasidagi munosabat ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Sinxronlash: Tovush tasvirdagi harakatni aynan takrorlaydi (masalan, qadam tovushi).
2. Qarama-qarshi nuqta (asinxroniya): Tasvir va tovush mazmunan farq qiladi, ammo yangi ma'no berish uchun birlashtiriladi [1].

Ilmiy tahlil: Kontrapunkt usuli tomoshabinda "audio-vizual dissonans"ni uyg'otish orqali qahramonning ichki ziddiyatlarini (konfliktini) ochib berishning eng samarali vositasidir.

II. Ovozli maxsus effektlar (SFX) – Badiiy komponent sifatida

Maxsus effektlar (Sound Special Effects) ekran asarining teksturasini shakllantiradi. Biz ularni quyidagi ilmiy klassifikatsiyaga ajratamiz:

Effekt turi	Vazifasi	Amaliy misol
Foley	Inson harakatini tiriltirish	Kiyim shitirlashi, qo'l berib ko'rishish sadosi
Ambience	Makon va vaqtni belgilash	Tungi o'rmon sadosi, shamol uvillashi
Hard SFX	Voqelikning ishonchliligini ta'minlash	Portlash, o'q ovozi, eshik gichirlashi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Effekt turi	Vazifasi	Amaliy misol
Design SFX	Abstrakt va fantastik obrazlar yaratish	O‘zga sayyoraliklar nutqi, vaqt mashinasi sadosi

III. Foley san’ati va “Layering” (Qatlamlash) texnikasi

Maxsus effektlar yaratishda Layering usuli markaziy o‘rin tutadi. Birgina portlash ovozini yaratish uchun rejissyor past chastotali (zilzila sadosi), o‘rta chastotali (shisha sinishi) va yuqori chastotali (olov lovillashi) qatlamlarni birlashtiradi [2]. Bu usul asarning audio-teksturasini boyitib, tomoshabinda realistik hissiyot uyg‘otadi.

IV. Ovozli metafora va sub’ektiv eshitish

Ovoz rejissyorligi dramaturgiyada “sub’ektiv nuqtai nazar”ni ifodalashda yetakchi rol o‘ynaydi.

- Audio-metafora: Masalan, qahramonning tushkunlik holatini ifodalash uchun atrof-muhit tovushlarini g‘o‘ng‘illagan past chastotali “drone” tovushi bilan almashtirish.
- Psixologik pauza: Eng keskin dramatik nuqtada barcha shovqinlarning to‘xtatilishi (mutloq sukunat) tomoshabin e’tiborini personajning ichki dunyosiga qaratadi [3].

V. Televideniye va ovoz rejissyorligi xususiyatlari

Televizion kontentda ovoz ko‘proq axborot tashuvchi funksiyani bajaradi. Biroq, bu yerda ham maxsus effektlar (jingle, sweepers, transitions) ko‘rsatuvning kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi. Ovoz rejissyori efir davomida audio-balansni shunday saqlashi kerakki, maxsus effektlar suhandon yoki qahramon nutqiga xalaqit bermasligi lozim [4].

VI. Ovoz montaji va dramaturgik vaqt kategoriyasi

Ekran san’atida vaqt tushunchasi ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: real vaqt va badiiy (montaj) vaqti. Ovoz rejissyorligi aynan shu ikki vaqt qatlamini uyg‘unlashtirish yoki aksincha, ataylab ajratish orqali dramatik effekt hosil qiladi. Ovoz montaji — bu shunchaki texnik jarayon emas, balki dramaturgik vaqtni boshqarish mexanizmidir.

Masalan, voqea tez sur’atda rivojlanayotgan sahnalarda (ta’qib, jang, favqulodda holat) qisqa, keskin va yuqori dinamik diapazondagi tovushlar qo‘llaniladi. Bu tomoshabinda yurak urishining tezlashishi, psixologik zo‘riqish kabi fiziologik reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Aksincha, dramatik monolog yoki ichki konflikt sahnalarida uzun reverberatsiya (aks-sado), cho‘zilgan ambient qatlamlar orqali vaqt sekinlashtiriladi. Natijada tomoshabin ongida “cho‘zilgan lahza” effekti hosil bo‘ladi.

Ovoz montajida “ellips” tamoyili ham muhim o‘rin tutadi. Tasvirdagi vaqt sakrashlari ovoz orqali bog‘lanadi yoki aksincha, ataylab uziladi. Masalan, bir sahnada eshitilgan eshik qarsillashi keyingi kadrda butunlay boshqa makonda davom etishi mumkin. Bu usul dramatik ko‘prik (sound bridge) vazifasini bajaradi va voqealar uzviyligini ta’minlaydi.

VII. Akustik makon va fazoviy dramaturgiya

Zamonaviy kino va televideniyeda fazoviy ovoz texnologiyalari (Dolby Atmos, 5.1, 7.1 formatlar) dramatik tasirni yanada chuqurlashtiradi. Akustik makon — bu nafaqat

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

eshitilayotgan tovush, balki uning qayerdan kelayotganini his qilish jarayonidir. Fazoviy ovoz yordamida tomoshabin o‘zini voqea markazida his qiladi.

Akustik perspektiva (yaqin va uzoq tovushlar nisbatini saqlash) dramaturgik mazmun yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, qahramon uzoqlashayotganida uning qadamlari asta-sekin pasayib boradi, atrof shovqinlari esa kuchayadi. Bu psixologik begonalashuvni ifodalaydi.

Fazoviy dramaturgiya ayniqsa tarixiy yoki epik janrdagi filmlarda o‘z samarasini beradi. Keng maydon, jang sahnalari yoki tabiat manzaralarida akustik chuqurlik asarning masshtabini oshiradi. Bu yerda ovoz rejissyori kompozitor va montajchi bilan hamkorlikda yagona audio-landshaft yaratadi.

VIII. Janr va ovoz estetikasi

Har bir janr o‘ziga xos ovoz estetikasiga ega. Psixologik trillerlarda past chastotali “drone”lar, noturg‘un shovqinlar, keskin pauzalar qo‘llanilsa, komediyada ritmik, aniq va dinamik effektlar ustuvor bo‘ladi. Fantastika janrida esa dizayn SFX orqali mavjud bo‘lmagan tovushlar yaratiladi.

Masalan, ilmiy-fantastik filmlarda kosmik kemalar yoki boshqa sayyora muhitini ifodalash uchun real tabiat tovushlari transformatsiya qilinadi. Bu jarayonda granular sintez, reverberatsiya va pitch-shifting texnikalari qo‘llaniladi. Natijada yangi, lekin tomoshabin ongiga begona bo‘lmagan akustik obraz vujudga keladi.

Dramatik janrlarda esa sukunatning o‘zi ham ovoz vositasiga aylanadi. “Sokinlik dramaturgiyasi” — bu minimalizm tamoyiliga asoslanadi. Bunda har bir tovush alohida ma’no yuklaydi. Psixologik og‘ir sahnalarda shovqinlarning keskin kamaytirilishi tomoshabinning ichki sezgisini kuchaytiradi.

IX. Musiqa va SFX o‘zaro munosabati

Ovoz rejissyorligi jarayonida musiqa va maxsus effektlar o‘rtasidagi balans dramaturgik ahamiyatga ega. Musiqa — emotsional yo‘naltiruvchi kuch bo‘lsa, SFX — voqelikning real asosini yaratadi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi audio-vizual sintezning mukammalligini belgilaydi.

Ayrim hollarda musiqa va effektlar kontrapunkt asosida ishlaydi. Masalan, fojeali sahnada quvnoq musiqaning yangrashi ironik effekt hosil qiladi. Bu usul dramatik kuchlanishni oshiradi va tomoshabinni faol tafakkurga undaydi.

Boshqa holatda esa musiqa va effektlar sinxronlashadi. Masalan, jang sahnasida orkestr zarbasi portlash effekti bilan bir vaqtda beriladi. Bu usul “audio aksent” yaratadi va dramatik cho‘qqini belgilaydi.

X. Ovoz rejissyorining ijodiy mas’uliyati va mualliflik pozitsiyasi

Zamonaviy ekran san’atida ovoz rejissyori ijodiy jarayonning to‘laqonli ishtirokchisidir. U ssenariy bosqichidanoq loyiha ustida ishlashi zarur. Chunki audio-dramaturgiya tasvir dramaturgiyasidan ajralgan holda yaratilmaydi.

Ovoz rejissyori quyidagi professional kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak:

- Dramaturgik tafakkur va konfliktni tahlil qilish qobiliyati;
- Akustika va psixoakustika asoslarini bilish;
- Zamonaviy audio dasturlar (Pro Tools, Nuendo, Logic Pro) bilan ishlash;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

- Musiqa nazariyasi va ritm qonuniyatlarini tushunish.

Psixoakustik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson eshitish tizimi past chastotali tovushlarga fiziologik jihatdan kuchli reaksiya bildiradi. Shu bois triller va dramatik janrlarda infratovush elementlari qo‘llaniladi. Bu ilmiy asoslangan usul tomoshabinda ongsiz ravishda xavotir hissini uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda ekran san’atida ovoz rejissyorligi — bu texnik jarayon emas, balki badiiy tafakkur shaklidir. Maxsus effektlar, foley, ambience, fazoviy dizayn va musiqa birgalikda asarning g‘oyaviy va emotsional yaxlitligini ta’minlaydi. Ovoz dramaturgiyasi tasvirni to‘ldiradi, ba’zan esa undan ustun turadi.

Shunday qilib, zamonaviy kino va televideniyeda ovoz rejissyori asarning hammuallifi sifatida namoyon bo‘ladi. U yaratgan audio-makon tomoshabinning ichki sezgi va hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus effektlar dramaturgiyasi esa ekran san’atining estetik va psixologik chuqurligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdusamatov H. “Drama nazariyasi”. – Toshkent, 2000. 182-bet.
2. Sonnenschein D. “Sound Design: Expressive Power”. – MWP, 2001. P. 105.
3. Bozorov N. “Kino va televideniyeda ovoz texnologiyalari”. – Toshkent, 2022. 56-bet.
4. Omonov A. “Televideniye rejissyorligi”. O‘quv qo‘llanma. 2019. 140-bet.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

O‘ZBEK MILLIY RAQSLARINING TURLARI VA JANR XUSUSIYATLARI

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna, O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Sahna harakati va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya:

KIRISH: mazkur maqolada o‘zbek milliy raqs san’atining shakllanishi, rivojlanishi hamda uning turlari va janr xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xalq raqslari xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odatlari va estetik qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek milliy raqslarining hududiy maktablari, harakatlar tizimi, plastika, ritmik tuzilma va badiiy ifoda vositalari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqs janrlarining tasnifi, ularning sahnaviy talqini va zamonaviy xoreografiya bilan aloqadorligi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek milliy raqs san’atini o‘rganish, saqlash va rivojlantirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAQSAD: xoreografiya – raqs san’ati va uning ijodiy ifodasi bilan shug‘ullanuvchi soha bo‘lib, dastlab raqsni maxsus belgilar yordamida qayd etish ma’nosida qo‘llangan. Vaqt o‘tishi bilan, xususan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan, “xoreografiya” atamasi keng ma’noda butun raqs san’ati va balet teatrini ifodalash uchun qo‘llanila boshlandi. Maqolada ushbu masalani ochish maqsad qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tarixiy-tahliliy metodi – milliy raqslarining kelib chiqish tarixi, shakllanish bosqichlari va taraqqiyot jarayonini o‘rganishda qo‘llaniladi. **Tavsifiy metod** – milliy raqs turlari (Farg‘ona, Buxoro, Xorazm maktablari) va ularning janr xususiyatlarini batafsil bayon etishda ishlatiladi. Taqqoslash metodi – raqs maktablari va janrlar o‘rtasidagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini solishtirish uchun qo‘llanadi. Kuzatuv metodi – sahna va folklor ijrolarini bevosita kuzatish orqali raqs harakatlari, plastikasi, mimikasi va ifoda vositalarini tahlil qilishda foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: an’anaviy xoreografiya esa xalqning azaliy raqs madaniyati, marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq raqs harakatlari tizimini qamrab oladi. O‘zbekistonda raqs asrlar davomida og‘zaki an’ana tariqasida yashab kelgan, lekin yozib qo‘yish amaliyoti bo‘lmagani uchun ko‘plab mumtoz va xalq raqslari unutilib ketgan. Shu bois an’anaviy raqs san’ati mazmunan folklor va og‘zaki ijrochilikka tayanadi – har bir harakat va usul avloddan-avlodga ustoz–shogird an’analari orqali o‘tgan. XX asr boshlarida bu boy merosni ilmiy o‘rganish va sahnaviy qayta tiklash jarayonlari boshlandi.

An’anaviy xoreografiyada har bir raqs estetik tuyg‘ular va ma’naviy mazmunni ifoda etuvchi obrazlar yaratadi. Raqs estetikasi asosan nafis qo‘l-oyoq harakatlari, gavdani egish-qayirish, yelkalarni qoqish, barmoq va kaft ifodalari hamda yuz mimikalariga tayanadi. Masalan, Farg‘ona raqslariga mayin va lirika ohang, Xorazm raqslariga esa o‘tkir ritmik harakatlar, yelka va kaftlarning titrashi xosdir.

An’anaviy raqs xalq raqslari asosiga ega bo‘lib, har bir viloyat va mintaqada o‘ziga xos uslubiy maktablar shakllangan (masalan, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona raqs maktablari). Ushbu hududiy uslublar bir-biridan harakatlar xarakteri, ijro uslubi, temp va kostyumlar orqali ajralib turadi. Sahnalashtirish xususiyatlari esa milliy raqslarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

zamonaviy sahnaga olib chiqishda namoyon bo‘lgan: har bir an’anaviy raqs sahnada teatrlashtirilib, kompozitsion tuzilishga keltirildi. XX asr boshlarida ilk sahna raqslari paydo bo‘lib, mumtoz raqslar baletmeysterlar tomonidan qayta ishlanib, professional chiqishlar shaklini oldi.

XULOSA: an’anaviy raqs san’ati bir necha asosiy turlarga bo‘linadi. Xalq raqslari – xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lgan, avlodlar davomida sayqallanib kelgan ommaviy raqslardir. Raqs san’ati yaralgan ilk davrlardan xalq raqsi uning asosiy janrlaridan biri bo‘lib qolgan; qadimdan shakllanib, xalq hayoti, turmushi va mehnatining ajralmas qismiga aylangan. Xalq raqslari odatda biror urf-odat yoki bayram doirasida jamoaviy ijro etiladi. Masalan, “Lapar” va “Yalla” singari qo‘shiq-raqslar to‘y va sayillarda ayollar tomonidan ijro etilib, mehnat jarayonlari yoki maishiy mavzularni kuylaydi.

Xalq raqslari erkin improvizatsiyaga boy bo‘lib, raqqoslar ko‘pincha o‘z ijodiy harakatlarini joyida to‘qib ijro etadilar. Shu bois har bir voha va elatning xalq raqsi harakatlari va usullari o‘sha yurtning tabiatiga, xalq fe’l-atvoriga mos ohang va ritmga ega. Misol uchun, Xorazmning “Lazgi” raqsi misolida ko‘rish mumkinki, u tabiat hodisalari va inson kechinmalarini harakat bilan aks ettiruvchi, tabiiy improvizatsiyaga boy raqsdir. Xalq orasida sevimli Andijon polkasi esa xalq cholg‘u kuyi asosida yuzaga kelib, rus va mahalliy usullar uyg‘unlashgan sho‘x raqs turidir. Xalq raqslari hayotiyligi, soddaligi va jo‘shqinligi bilan ajralib turadi hamda milliy raqs estetikasi asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Professional raqslar – maxsus tayyorgarlikka ega ijrochilar tomonidan sahna yoki saroylarda ijro etiladigan raqs turlari. Tarixan Markaziy Osiyoda ba’zi raqslar saroy ahliga va xalq tomoshalariga xizmat qiluvchi usta raqqoslar tomonidan ijro etilgan. Masalan, Buxoro amirligi davrida raqqosalar va “bacha” raqqoslar (yosh o‘g‘lonlarni ayol libosida raqs ijro etish an’anasi) saroy bazmlarini o‘zgacha professionallik bilan bezaganligi ma’lum. Bunday raqqoslar raqs harakatlari puxta o‘rgatilgan bo‘lib, an’anaviy xalq usullarini mukammal egallagan “usulchi” ustozi qo‘l ostida tayyorlangan. Usta Olim Komilov kabi o‘zbek mumtoz xoreografiya bilimdonlari aynan shu usulchilarning mashaqqatli mehnati bilan xalq raqslarining nazariy asoslarini tizimlashtirganlar.

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy raqsi, xalq raqsi, xoreografiya, raqs turlari, janr xususiyatlari, hududiy maktablar, an’anaviy madaniyat, sahnaviy talqin.

ВИДЫ И ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТАНЦЕВ

Фазлиева Зебо Камарбековна, Доцент, кафедры сценического движения и физической культуры. Узбекского государственного института искусств и культуры.

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются формирование, развитие, виды и жанровые особенности узбекского национального танцевального искусства. Народные танцы рассматриваются в тесной связи с историческим развитием народа, его образом жизни, обычаями и эстетическими взглядами. В статье анализируются региональные школы узбекского национального танца, система движений, пластика, ритмическая

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

структура и средства художественной выразительности. Также освещается классификация танцевальных жанров, их сценическая интерпретация и взаимосвязь с современной хореографией. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для изучения, сохранения и развития узбекского национального танцевального искусства.

ЦЕЛЬ: хреография — это область, занимающаяся танцевальным искусством и его творческим выражением, первоначально использовавшаяся в значении фиксации танца с помощью специальных знаков. Со временем, особенно с конца XIX — начала XX века, термин «хореография» стал применяться в более широком смысле для обозначения всего танцевального искусства и балетного театра. Целью данной статьи является раскрытие данной проблематики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: историко-аналитический метод применяется для изучения истории происхождения национальных танцев, этапов их формирования и процесса развития. Описательный метод используется для детального изложения видов национальных танцев (ферганская, бухарская, хорезмская школы) и их жанровых особенностей. Сравнительный метод применяется для выявления общих и отличительных черт между танцевальными школами и жанрами, а также для сопоставления их стилевых особенностей. Метод наблюдения используется при анализе танцевальных движений, пластики, мимики и средств выразительности на основе непосредственного наблюдения сценических и фольклорных исполнений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: традиционная хореография охватывает систему танцевальных движений, связанных с древней танцевальной культурой народа, обрядами и обычаями. В Узбекистане танец на протяжении веков существовал в форме устной традиции, однако из-за отсутствия практики письменной фиксации многие классические и народные танцы были утрачены. В связи с этим традиционное танцевальное искусство по своему содержанию опирается на фольклор и устное исполнительство — каждое движение и приём передавались из поколения в поколение через традицию «учитель–ученик». В начале XX века начались процессы научного изучения и сценической реконструкции этого богатого наследия. В традиционной хореографии каждый танец создаёт образы, выражающие эстетические чувства и духовное содержание. Эстетика танца в основном основана на изящных движениях рук и ног, наклонах и изгибах корпуса, движениях плеч, выразительности пальцев и ладоней, а также мимике лица. Так, ферганским танцам присущи мягкость и лиричность, тогда как хорезмские танцы отличаются резкой ритмикой, вибрацией плеч и ладоней. Традиционный танец основан на народных танцах, и в каждом регионе и области сформировались собственные стилевые школы (например, бухарская, хорезмская и ферганская танцевальные школы). Эти региональные стили отличаются друг от друга характером движений, манерой исполнения, темпом и костюмами. Особенности сценической постановки проявились в процессе вывода национальных танцев на современную сцену: каждый традиционный танец был

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

театрализован и приведён к композиционной форме. В начале XX века появились первые сценические танцы, а классические танцы были переработаны балетмейстерами и приобрели форму профессиональных выступлений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: традиционное танцевальное искусство подразделяется на несколько основных видов. Народные танцы — это массовые танцы, являющиеся продуктом народного творчества и отточенные на протяжении поколений. С первых этапов становления танцевального искусства народный танец оставался одним из его основных жанров; он сформировался в древности и стал неотъемлемой частью народной жизни, быта и труда. Народные танцы, как правило, исполняются коллективно в рамках определённых обрядов или праздников. Например, такие песенно-танцевальные формы, как «Лапар» и «Ялла», исполняются женщинами на свадьбах и народных гуляниях, воспевая трудовые процессы и бытовые темы.

Народные танцы богаты свободной импровизацией, и танцоры часто создают свои движения непосредственно во время исполнения. Поэтому движения и приёмы народных танцев каждого региона и этноса обладают ритмом и интонацией, соответствующими природе и характеру народа данной местности. Так, на примере хорезмского танца «Лазги» можно увидеть танец, богатый естественной импровизацией, отражающий природные явления и человеческие переживания посредством движений. Популярная в народе андижанская полька, возникшая на основе народной инструментальной музыки, представляет собой задорный танец, в котором гармонично сочетаются русские и местные элементы. Народные танцы отличаются жизненностью, простотой и эмоциональной насыщенностью и служат основой эстетики национального танца. Профессиональные танцы — это виды танцев, исполняемые на сцене или во дворцах исполнителями, имеющими специальную подготовку. Исторически в Центральной Азии некоторые танцы исполнялись мастерами-танцорами, обслуживавшими дворцовую знать и народные представления. Так, известно, что в период Бухарского эмирата танцовщицы и танцоры «бача» (традиция исполнения танцев юношами в женских костюмах) с особым профессионализмом украшали дворцовые пиршества. Такие танцоры проходили тщательную подготовку под руководством мастеров-«усульчи», в совершенстве владевших традиционными народными приёмами. Знатоки узбекской классической хореографии, такие как Уста Олим Комилов, именно благодаря кропотливому труду этих мастеров систематизировали теоретические основы народного танца.

Ключевые слова: узбекский национальный танец, народный танец, хореография, виды танцев, жанровые особенности, региональные школы, традиционная культура, сценическая интерпретация.

TYPES AND GENRE FEATURES OF UZBEK NATIONAL DANCES

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna, Associate Professor, Department of Physical Culture, Faculty of Theatre Arts, Uzbekistan State Institute of Art and Culture

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Annotation

INTRODUCTION: this article provides a scientific and theoretical analysis of the formation, development, types, and genre characteristics of Uzbek national dance art. Folk dances are examined in close connection with the historical development of the people, their way of life, customs, traditions, and aesthetic views. The article analyzes regional schools of Uzbek national dance, the system of movements, plasticity, rhythmic structure, and means of artistic expression. It also highlights the classification of dance genres, their stage interpretation, and their relationship with contemporary choreography. The results of the study have scientific and practical significance for the study, preservation, and development of Uzbek national dance art.

AIM: choreography is a field engaged in dance art and its creative expression; initially, the term was used to denote the recording of dance movements using special symbols. Over time, particularly from the late 19th to the early 20th century, the term "choreography" began to be used in a broader sense to represent the entire art of dance and ballet theatre. The purpose of this article is to explore this issue.

MATERIALS AND METHODS: the historical-analytical method is applied to study the origin of national dances, their stages of formation, and the process of development. The descriptive method is used to provide a detailed account of national dance types (Fergana, Bukhara, and Khorezm schools) and their genre characteristics. The comparative method is employed to identify similarities and differences between dance schools and genres, as well as to compare their stylistic features. The observational method is used to analyze dance movements, plasticity, facial expressions, and expressive means through direct observation of stage and folklore performances.

DISCUSSION AND RESULTS: traditional choreography encompasses a system of dance movements associated with the people's ancient dance culture, rituals, and customs. In Uzbekistan, dance existed for centuries as an oral tradition; however, due to the absence of written documentation practices, many classical and folk dances were forgotten. Therefore, traditional dance art is content-wise based on folklore and oral performance — each movement and technique was transmitted from generation to generation through the master–apprentice tradition. At the beginning of the 20th century, processes of scientific study and stage reconstruction of this rich heritage began. In traditional choreography, each dance creates images that express aesthetic feelings and spiritual content. Dance aesthetics are mainly based on graceful movements of the hands and feet, bends and curves of the body, shoulder movements, expressive use of fingers and palms, as well as facial expressions. For example, Fergana dances are characterized by softness and lyrical qualities, whereas Khorezm dances feature sharp rhythmic movements and vibrating shoulders and palms. Traditional dance is rooted in folk dance, and distinctive stylistic schools have formed in each region and area (such as the Bukhara, Khorezm, and Fergana dance schools). These regional styles differ in the character of movements, performance manner, tempo, and costumes. Staging features emerged as national dances were brought onto the modern stage: each traditional dance was theatricalized and structured compositionally. In the early 20th century, the first

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

stage dances appeared, and classical dances were reworked by choreographers, taking the form of professional performances.

CONCLUSION: traditional dance art is divided into several main types. Folk dances are mass dances created by the people and refined over generations. Since the earliest periods of dance art, folk dance has remained one of its principal genres; it was formed in ancient times and became an integral part of people's life, daily activities, and labor. Folk dances are usually performed collectively within the framework of specific customs or celebrations. For instance, song-dance forms such as "Lapar" and "Yalla" are performed by women at weddings and festivities, depicting labor processes and everyday themes. Folk dances are rich in free improvisation, and dancers often create their movements spontaneously during performance. Therefore, the movements and techniques of folk dances in each region and ethnic group possess rhythms and intonations that correspond to the local nature and national character. For example, the Khorezm dance "Lazgi" is a dance rich in natural improvisation that reflects natural phenomena and human emotions through movement. The popular Andijan polka, which emerged based on folk instrumental music, is a lively dance that harmoniously combines Russian and local elements. Folk dances are distinguished by their vitality, simplicity, and dynamism and serve as the foundation of national dance aesthetics.

Professional dances are types of dances performed on stage or in palaces by specially trained performers. Historically, in Central Asia, certain dances were performed by master dancers who served the royal court and public spectacles. For example, during the Bukhara Emirate, female dancers and "bacha" dancers (a tradition in which young boys performed dances in female costumes) adorned palace festivities with exceptional professionalism. Such dancers received thorough training under the guidance of master "usulchi" teachers who had mastered traditional folk techniques. Prominent figures of Uzbek classical choreography, such as Usta Olim Komilov, systematized the theoretical foundations of folk dance precisely through the diligent work of these masters.

Keywords: uzbek national dance, folk dance, choreography, dance types, genre charactristics, regional schools, traditional culture, stage interpretation.

XX asr boshlariga kelib, O‘zbekistonda professional raqs san’ati rivoj topa boshladi: 1918-yilda Usta Olim Komilov ishtirokida birinchi raqs truppalari tuzildi, 1920-yillarda turli targ‘ibot jamoalarida sahna raqslari qo‘yildi. 1920-yillar oxirida va 1930-yillarda esa Muharram Turg‘unboyeva, Tamaraxonim kabi ijodkorlar rahbarligida davlat raqs jamoalari (masalan, "Bahor" ansambli) tashkil topib, professional sahna raqslari repertuari shakllantirildi.

Professional raqslar ijrochiligi nafis sahna liboslari, sahnalashtirilgan kompozitsiyalar va baletmeysterlik ishlanmalari bilan xalq raqslaridan farqlanadi. Ammo ularning asosi baribir xalq raqsi va mumtoz raqs usullaridir – masalan, O. Komilov va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Tamaraxonim birgalikda Farg‘ona mumtoz raqs harakatlarini o‘z ichiga olgan “Doyra darsi” deb nomlangan sahna mashqini yaratib, yosh raqqosalarni o‘qitganlar.

Shunday qilib, professional raqslar an’anaviy raqs estetikasini sahna san’ati darajasiga ko‘tarib, teatr va konsert sahnalarida namoyish qilinishiga zamin yaratdi.

Marosim raqslar – xalqning turli udum va marosimlarida bajariladigan ramziy harakatlar majmuasidir. Bunday raqslarga asosan hayot tarziga oid marosimlar (tug‘ilish, sunnat to‘yi, nikoh, Navro‘z, hosil bayramlari va hokazo) doirasida ijro etiladigan o‘yinlar kiradi. Masalan, “Yor-yor” marosim qo‘shig‘i paytida kuyov-navkarlar va kelin dugonalari tomonida o‘ziga xos raqs harakatlari bajarilgan; “Kelin salom”da kelinning mayin ta’zim va harakatlari oila kattalariga hurmat ifodasi edi. Navro‘z sayillarida yigit-qizlarning doira va qayroq bilan aylana bo‘lib raqs tushishi odat bo‘lgan.

Marosim raqslarda ko‘pincha ramziy ma’nolar mujassam: masalan, yangi kelinning ortida hilpillab raqsga tushishi uning yangi hayotga qadam qo‘yayotganini bildirgan, yoki bahoriy raqslarda yerning uyg‘onishi, hosildorlikni tarannum etuvchi harakatlar aks etgan. Bu raqslar qat’iy sahna ko‘rinishidan yiroq, ko‘proq jamoaviy o‘yinlar shaklida bo‘lib, ishtirokchilarning erkin va samimiy ishtirokini ta’minlagan. Xorazmdagi “Olti xalfa” tomoshalari shuningdek, to‘y-ma’rakalarni qiziqarli raqs va qo‘shiqlar bilan boyitgan: uch nafar ayoldan iborat xalfa ansambli (xalfa – garmonchi-xonanda, doirachi va raqqosa) ayollarning to‘y va bazmlarida xizmat ko‘rsatgan. Marosim raqslar xalqning ritual hayotining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, estetik zavq bilan birga marosimning sakral ahamiyatini ham ifodalagan.

An’anaviy raqslar ichida diniy va epik mazmundagi turlari alohida o‘rin tutadi. Islom an’analari hukm surgan jamiyatda raqs ochiq diniy marosimlarning markazida bo‘lmasa-da, so‘fiyona zikrlar va qasidalar ba’zan raqs harakatlar bilan boyitilgan. Masalan, ba’zi naqshbandiy va yassaviya tariqatlarida zikr paytida bir maromda tebranib harakatlanish, gird aylanib “samoviy raqs” holatiga tushish kuzatilgan. Bunday diniy raqslarda jismoniy harakat ruhoniy holatga erishish vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Epik raqslar esa xalq dostonlari va qahramonlik eposlari syujetlarini sahnaviy harakat orqali ifodalovchi raqs namoyishlaridir. An’anaviy baxshilar doston aytishda ayrim dramatik sahnalarni kichik sahna-ko‘rinish (pantomima va raqs aralashmasi) shaklida ijro etishgan. Xususan, “Alpomish” dostonini aytishda jangovar sahnalarni baxshining yordamchilari qilichbozlikka o‘xshash raqs harakatlar bilan ko‘rsatib berganiga doir ma’lumotlar uchraydi. Xorazm xalfalari repertuarida ham “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Farhod va Shirin” singari dostonlardan parchalar qo‘shiq va raqs bilan ijro etilgan[18]. Bunday epik raqs namoyishlari ko‘pincha teatrlashtirilgan pantomimaga yaqinlashib, tomoshabinlarga hikoya mazmunini harakat orqali yetkazgan.

Diniy va epik raqslarning ijrochilari alohida tayyorgarlikka ega bo‘lib, ular harakatlar orqali ma’no ifodalash san’atini (pantomimani) yaxshi egallagan bo‘lganlar. Bu janrlar an’anaviy raqsning kamroq tarqalgan yo‘nalishi bo‘lsa-da, xalqning estetik va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan.

Oilaviy raqslar – xonadon ichida, oila davrasida ijro etiladigan kichik raqs shakllaridir. O‘zbek an’anasida har qanday xursandchilik yoki yig‘in yaqinlarning diltortar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

raqslarisiz o‘tmagan. Masalan, oilaviy tantanalarda yosh qizlarning o‘zaro “kichik yalla” raqsi yoki bolalarning qiziq raqslari bo‘lgan. Kelinchakning qaynonasi va yaqinlariga choy uzatish paytidagi nazokatli harakatlari ham aslida oilaviy raqs elementlari edi. Bunday raqslar sahnadan yiroq, ammo oila a’zolari o‘rtasidagi mehr-muhabbat va hurmatni ifoda etgan.

Mehnat raqslari esa oddiy mehnat harakatlarini raqsga aylantirishdan kelib chiqqan. Dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan xalq turmushida og‘ir mehnat jarayonlarini yengillashtirish yoki bayram qilish maqsadida raqsga xos harakatlar paydo bo‘lgan. Masalan, “Pilla” raqsi o‘zbek ayollarining tut ipak qurti boqish va pilla yig‘im-terim jarayonlarini sahnaviy harakatlar bilan ifoda etadi; unda ipak qurti uyasini silkitish, pilla yig‘ish kabi harakatlar nafis raqs ko‘rinishiga keltirilgan. Bu raqs ilk bor 1934-yilda sahnalashtirilib, faqat doira ritmi jo‘rligida ijro etilgan hamda xalqaro tanlovda yuqori e’tirofga sazovor bo‘lgan[19]. Mehnat raqslari oddiy ish harakatlarini estetiklashtirib, tomoshabinga mehnat go‘zalligini ko‘rsatadi. Oilaviy va mehnat raqslari shu tariqa xalqning kundalik hayotiga raqsning qanchalik singib ketganini va har bir qadamda estetik zavq olishga intilganini namoyon etadi.

An’anaviy raqslar mavzu va ifoda uslubiga ko‘ra turli janrlarga ajratiladi. Xoreografik janr deganda raqs tomoshasining hissiy ohangi, dramatik qurilishi va uslubiy yo‘nalishi nazarda tutiladi. O‘zbek mumtoz va xalq raqslari quyidagi asosiy janr ko‘rinishlarida namoyon bo‘lgan.

Dramatik raqs janri: syujetli, voqeali mazmunni ifoda etuvchi raqslar. Bunday raqslarda aniq bir hikoya yoki obraz harakat orqali dramatik tarzda yetkaziladi. Masalan, “Tanovar” raqsi aslida lirik bo‘lsa-da, unda sevishganlar uchrashuvi kabi kichik dramatik syujet mavjud[20]. Xuddi shuningdek, xalq dostonlari asosidagi sahna raqslari (masalan, “Layli va Majnun” sahna kompozitsiyalaridagi raqslar) dramatik janrga kiradi – raqqos mimika va harakat bilan muhabbat iztirobi yoki xursandchilikni aktyorlik mahorati bilan namoyon etadi.

Lirik raqs janri: nozik hissiyotlar, muhabbat va go‘zallikni kuylovchi mayin raqslar. Lirik raqslarda harakatlar yumshoq, ohista va xayolparast bo‘lib, tomoshabinda estetik zavq va xotirjamlik hissini uyg‘otadi. Farg‘ona vodiysi raqslari ko‘pincha lirik janrda – masalan, qizlarning “Gul o‘yin” raqsi yoki “Qo‘g‘irchoq” raqsi da shahlo ko‘z, nozik qo‘l harakatlari bilan samimiy tuyg‘ularda ifodalanadi. Lirik janr raqslarida musiqa sekin va kuylovchan, raqqosaning yuz ifodasi esa ma’yus yoki orzumand bo‘ladi.

Epik raqs janri: qahramonlik va ulug‘vorlik ruhidagi, keng ko‘lamli obrazlarni gavdalantiruvchi raqslardir. Bunday raqslarda harakatlar yirik, jo‘shqin va ba’zan tajovuzkor bo‘lishi mumkin, mazmuni esa epos va afsonalardan kelib chiqadi. Masalan, Buxoro raqs uslubida erkak raqqoslar ijro etadigan “Mardonavor” (mardlarcha o‘yin) epik tusga ega – yirik qadamlar, keskin burilishlar va kuchli sakrashlar qahramonlik ruhini tarannum etadi. Epik janr raqslar ko‘pincha guruh bo‘lib ijro etilib, sahnada karnay-surnay sadolari ostida ulug‘vor manzara hosil qiladi.

Pantomima asosidagi raqs janri: so‘zsiz, faqat imo-ishora va harakat plastikasiga tayangan holda ma’no yetkazuvchi raqslardir. Pantomima elementlari o‘zbek raqsida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

asrlar davomida qo‘llanilib kelgan. Xalq masxarabozlari kulgi uyg‘otish uchun hayvon yoki odam qiyofasini taqlidiy raqslar orqali gavdalantirishgan. Masalan, “Maymun” yoki “Ohu” raqsida raqqos shu jonivor harakatlarini qiziqarli qilib ko‘rsatadi. Pantomima janrda raqqosning yuz ifodasi va harakatlari asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, tomoshabin so‘z aytilmasa-da, voqeani tushunadi.

Komedik raqs janri: kulgi va hajv yo‘sinidagi raqslar bo‘lib, unda harakatlar bo‘rttirilgan, jo‘shqin va ko‘pincha kulgili bo‘ladi. O‘zbek an’anaviy tomoshalarida masxaraboz raqsi alohida o‘rin tutgan – maxsus qiyofadagi erkak raqqos (masxaraboz) odamlarni kuldirish uchun noodatiy qadamlar tashlab, mutoyibali harakatlar qilgan. “Masxaraboz” raqsi ko‘pincha akrobatik sakrashlar, jismoniy moslashuvchan elementlari bilan boyitilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham xalq sayillarida bu kulgili raqslar ommalashgan bo‘lib, tomoshabinlarga xursandchilik ulashgan.

Shuni ta’kidlash joizki, an’anaviy raqslar ko‘pincha ayni paytda bir necha janr xususiyatlarini ham birlashtirgan. Masalan, “Andijon polkasi” raqsi o‘z mohiyatiga ko‘ra kulgi va sho‘xlikka yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, uning ijrosida lirik ifoda va pantomimik sahnalar ham kuzatiladi. Xuddi shuningdek, “Tanovar” raqsi lirik va dramatik unsurlar uyg‘unligidadir. Demak, janrlar raqsning badiiy qirralarini tahlil qilish uchun shartli kategoriya bo‘lib, har bir raqs o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra turli janr ranglarini kasb etishi mumkin.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan hamda keyinchalik sahnada mashhur bo‘lgan bir qator raqs turlari mavjud. Quyida shularning ba’zilari va ularning xususiyatlari keltiriladi: “Lazgi” (Xorazm raqsi): Xorazm vohasiga xos qadimiy va jo‘shqin raqs. Lazgi raqsida inson hissiyotlari va tabiat manzaralari taqlidan ifodalanadi – masalan, qo‘llarning titrashi oftob nurida yaltiragan suv jilvasini, yelkalarni titratish quvonch va shodonlikni eslatadi. Xorazm lazgisi asrlar davomida sayqal topgan bo‘lib, hatto Tuproq qal’a devoriy suratlarida ham lazgiga o‘xshash raqs sahnalari tasvirlangan (uning ildizi necha ming yillik ekanligiga dalil). Lazgi ijrosida ikki xil usul mavjud: sahnada ijro etiladigan lazgi va improvizatsiya lazgi. Sahnaviy lazgi maxsus sahna kompozitsiyasiga ega bo‘lib, oldindan tayyorlangan harakatlar orqali muhabbat, baxt kabi tuyg‘ularni namoyon etsa, improvizatsiya lazgi esa doira va karnay-surnay ritmiga mos holda raqqosning jo‘shqin va o‘zgarmas harakatlariga asoslanadi. Lazgi raqsi milliy iftixorga aylangan bo‘lib, 2019-yilda “Xorazm lazgisi” nomi bilan UNESCO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

“Tanavor”: O‘zbek mumtoz raqs san’atining yorqin namunasi. Tanavor aslida Farg‘ona vodiysida mashhur bo‘lgan lirik qo‘shiq va kuy bo‘lib, uning ohangiga mos raqs harakatlari ham xalq orasida shakllangan. Mazkur raqs kuyida o‘zbek ayolining nazokati va ma’naviy go‘zalligi tarannum etiladi. XX asr boshlarida tanavor kuyiga raqsni sahnalashtirishga alohida e’tibor qaratildi – Mukarrama Turg‘unboyeva 1943-yilda “Tanovar” raqsini professional sahnaga moslab, baletmeysterlik jihatdan boyitdi. Natijada Tanavor raqsi butun O‘zbekistonga mashhur bo‘lgan nafis sahna chiqishiga aylandi. Raqs mazmuni bo‘yicha lirik-dramatik: unda oshiq va ma’shuqaning uchrashuvi, sog‘inch va visol tuyg‘ulari raqqosaning mayin harakatlarida ifodalanadi[20]. Tanovar qo‘shiq-raqsi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bugungi kungacha milliy raqs standarti o‘laroq baholanadi – uning Mumtoz variantlari bo‘yicha keyingi barcha ijrolar mezon sifatida qabul qilingan.

“Andijon polkasi” (Farg‘ona/Andijon raqsi): Farg‘ona vodiysining eng ommabop raqslaridan biri. “Andijon polkasi” aslida 20-asr boshlarida shakllangan bo‘lib, unda o‘zbek milliy ritmlari va Yevropa (rus) polka kuy-qadamlarining qorishmasi seziladi. Bu raqs ilk bor Andijonlik sozanda va aktyor Orif Toshmatov tomonidan 1920-yillarda ommalashtirilgan[9]. Kuy ohangi 2/4 yoki 4/4 o‘lchovda, sho‘x va dilrabo ohangda yangraydi; unda “Navo” maqom yo‘llariga hamohang xalq kuy ohanglari bilan ruscha polka ritmi uyg‘unlashganligi sababli “polka” deb atalgan. Andijon polkasini ijro etishda raqqosalar turli doira shaklida harakat qilib, juft-juft bo‘lib aylanishadi, qo‘l harakatlari jo‘shqin va qadam tashlashlari tezkor. Raqs shu qadar mashhur bo‘lganki, 1950-yillarda Andijonda “Andijon polkasi” nomli xalq raqs ansambli tashkil etilgan. Bugungi kunda ham mazkur raqs har bir bayram dasturining ajralmas qismi bo‘lib, “o‘ynamaganlarni ham o‘ynatib yuboruvchi” raqs sifatida ta’riflanadi.

Maqom raqslari (mumtoz raqs turkumi): O‘zbek va Tojik xalqlarining klassik musiqa tizimi – maqomlar asosida shakllangan raqslar majmuasi. O‘tmishda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida 12 maqom va keyinchalik Shashmaqom ashula/cholg‘u yo‘llariga mos maxsus raqslar rivojlangan. Buxoro va Xorazmda bunday mumtoz raqslar “ufori” (yoki “maqom raqsi”) deb, Farg‘onada esa “Katta o‘yin” deb atalgan. Maqom raqslari professional xonanda va sozandalar ijrosidagi maqom qismlari (nasr va uforilar)ga bir vaqtda raqqosa yoki raqqosning nozik harakatlar bilan hamohang raqsga tushishini nazarda tutadi. Bunda har bir maqom yo‘liga mos alohida raqs usullari bo‘lgan – masalan, Buxoroda “Sarpo” uforiga “Sarpo raqsi”, Farg‘onada “Munojot” yo‘liga “Munojot raqsi” ijro etish an’analari bo‘lgan. Bu raqslar asrlar davomida takomillashib, murakkab harakatlar tizimi yaratilgan: qo‘l, tana, bosh va oyoq harakatlarining maxsus kombinatsiyalari “ufori usullari” deb atalib, ular ustoz san’atkorlar tomonidan shogirdlarga o‘rgatilib kelgan.

XX asrda maqom raqslari sahnaga ham olib chiqildi – professional ansambllar repertuarida mumtoz raqslar sahnalashtirildi[6]. Ularda raqqosalar qayroq (qarsak) va zang chalib, juda nafis va bir vaqtning o‘zida murakkab harakatlarni namoyish qiladilar. Usta Olim Komilov va Tamaraxonim aynan maqom raqslari harakatlarini tizimlashtirib, Farg‘ona maqom raqsi elementlarini “Doyra darsi” mashg‘ulotiga kiritgan edilar. Maqom raqslari milliy xoreografiyada mumtoz va xalq uslublarining chorrahasida turib, o‘zbek raqs san’atining eng yuksak badiiy qatlamini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy xoreografiyaning turlari va janrlari o‘zbek xalq madaniyatining ajralmas bir qismi bo‘lib, ularning har biri milliy tafakkur va tuyg‘ularni ifoda etadi. Xalq, marosimi, mehnat raqslari bevosita xalq turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lsa, mumtoz maqom raqslari va professional sahna raqslari milliy san’atning yuksak badiiy ko‘rinishlarini namoyon qiladi. Har bir voha va elatning o‘ziga xos raqs uslubi shakllangan bo‘lib, bu rang-baranglik xalqimiz madaniy boyligining muhim tarkibidir. Farg‘onaning nozik va lirik raqslari, Xorazmning tezkor va jo‘shqin lazgilari, Buxoroning salobatli “Katta o‘yini” – bularning barchasi bir butun milliy raqs san’ati xazinasini hosil

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

qiladi. An'anaviy raqslar xalq estetik didini tarbiyalash barobarida, uning tarixiy xotirasini ham saqlaydi, chunki har bir qadamdanoq ota-bobolarimizning ruhi va nafasini sezish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston va Markaziy Osiyoning raqs jamoalari ushbu boy merosni davom ettirib, dunyo sahnalarida milliy raqsimizni namoyish etmoqdalar. Shunday qilib, an'anaviy xoreografiya – bu nafaqat o'tgan davrlar san'ati, balki xalqning turmush tarzi, falsafasi va qalbini aks ettiruvchi tirik madaniy xotiradir. Xalq raqsi kecha-yu kunduz, mehnat-u bayram, sevgi-u hazilni o'zida mujassam etgan holda, milliy o'zlikni asrash va avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Avdeyeva L.A. O'zbek mi liy raqsi tarixidan - T.: M.Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" mi liy raqs birlashmasi, 2001. 204b.
2. Авдеева Л.А. Мухитдин Кари-Якубов. (документалная монография). Т.: Издателство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1984 . С. 258 3. Avdeyeva L.A. Mukaramma Turg'unboyevaning raqsi -T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 199-B.
3. Avdeyeva L.A. O'zbekiston raqs san'ati. –T.: GIXL, 1966. 192 b.
4. Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – T.: San'at, 2007. – 210 b.
5. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*, 259-262.
6. Kurbonova, D. A. (2009). Historical and cultural memorials dating back to Temurid period kept in museums of overseas: the dissertation of.
7. Nazarbaevna, Q. A., & Saliyevna, Y. Z. (2025). SPECIFIC FEATURES AND CHALLENGES OF TEACHING AMATEUR CHOREOGRAPHY TO STUDENTS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, *3*(10), 95-103.
8. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *5*(85), 901-903.
9. Yusupalieva, D. K., & Sodirzhonov, M. M. (2017). Mass media in Uzbekistan: development trends, dynamics and prospects. *Modern Science*, (1), 23-25.
10. Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *6*(86), 665-667.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

O‘ZBEKISTONDA REKLAMANING ESTETIKASI VA VIZUAL TILI: AN’ANA VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Nishanova Liliya Viktorovna, K. Behzod nomidagi MRDI, magistr, Toshkent.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada O‘zbekistondagi reklamaning estetikasi va vizual tili an’anaviy badiiy kodlar hamda innovatsion raqamli texnologiyalar o‘zaro ta’siri doirasida tahlil qilinadi. Reklama vizual madaniyat shakli va san’atshunoslik tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: o‘zbekistonda zamonaviy reklama vizual tilining shakllanish xususiyatlarini aniqlash hamda uning estetik transformatsiyasida an’ana va innovatsion texnologiyalarning o‘rnini belgilash.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqotda san’atshunoslik tahlili, vizual-stilistik va qiyosiy tahlil usullari, shuningdek semiotik va madaniyatshunoslik yondashuv elementlaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida reklama nazariyasi, vizual madaniyat va reklama idroki psixologiyasiga oid ilmiy manbalar olindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi reklama vizual tili milliy badiiy an’analar va zamonaviy raqamli texnologiyalar sintezi asosida shakllanishini ko‘rsatdi. An’anaviy estetik kodlar raqamli muhitga moslashtirilgan soddalashtirilgan grafik va belgili shakllarga transformatsiyalanmoqda.

XULOSA: o‘zbekistondagi reklama nafaqat tijoriy kommunikatsiya vositasi, balki madaniy identifikatsiya va texnologik modernizatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi vizual madaniyatning muhim elementi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: reklama, vizual til, estetika, vizual madaniyat, an’ana, innovatsion texnologiyalar, O‘zbekiston.

ЭСТЕТИКА И ВИЗУАЛЬНЫЙ ЯЗЫК РЕКЛАМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИЯ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Нишанова Лилия Викторовна, НИХД им. К. Бехзада, магистр, Ташкент.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются эстетика и визуальный язык рекламы в Узбекистане в контексте взаимодействия традиционных художественных кодов и инновационных цифровых технологий. Анализируется реклама как форма визуальной культуры и объект искусствоведческого исследования.

ЦЕЛЬ: выявление особенностей формирования визуального языка современной рекламы в Узбекистане и определение роли традиции и инновационных технологий в процессе её эстетической трансформации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы искусствоведческого анализа, визуально-стилистического и сравнительного анализа, а также элементы семиотического и культурологического подходов.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Теоретической базой послужили труды по теории рекламы, визуальной культуре и психологии рекламного восприятия.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: установлено, что визуальный язык рекламы в Узбекистане формируется на основе синтеза национальных художественных традиций и современных цифровых технологий. Традиционные эстетические коды трансформируются в упрощённые графические и знаковые формы, адаптированные к условиям цифровой среды.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: реклама в Узбекистане выступает не только как средство коммерческой коммуникации, но и как значимый элемент визуальной культуры, отражающий процессы культурной идентичности и технологической модернизации.

Ключевые слова: реклама, визуальный язык, эстетика, визуальная культура, традиция, инновационные технологии, Узбекистан.

AESTHETICS AND VISUAL LANGUAGE OF ADVERTISING IN UZBEKISTAN: TRADITION AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Nishanova Liliya Viktorovna, Kamoliddin Behzod National Institute of Arts and Design, Master's degree student, Tashkent

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the aesthetics and visual language of advertising in Uzbekistan in the context of the interaction between traditional artistic codes and innovative digital technologies. Advertising is analyzed as a form of visual culture and an object of art-historical research.

AIM: to identify the features of the formation of the visual language of contemporary advertising in Uzbekistan and to determine the role of tradition and innovative technologies in its aesthetic transformation.

MATERIALS AND METHODS: the study employs methods of art-historical analysis, visual-stylistic and comparative analysis, as well as elements of semiotic and cultural approaches. The theoretical basis consists of works on advertising theory, visual culture, and psychology of advertising perception.

RESULTS AND DISCUSSION: the research reveals that the visual language of advertising in Uzbekistan is formed through the synthesis of national artistic traditions and modern digital technologies. Traditional aesthetic codes are transformed into simplified graphic and symbolic forms adapted to the digital environment.

CONCLUSION: advertising in Uzbekistan functions not only as a means of commercial communication but also as a significant element of visual culture, reflecting processes of cultural identity and technological modernization.

Keywords: advertising, visual language, aesthetics, visual culture, tradition, innovative technologies, Uzbekistan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Реклама в современном обществе функционирует как инструмент рыночной коммуникации и одновременно как форма визуальной культуры, обладающая художественной и семиотической структурой. Визуальный язык рекламы отражает социальные, культурные и эстетические установки общества, фиксируя процессы их трансформации в условиях технологического развития.

В Узбекистане становление современной рекламной среды происходит в контексте взаимодействия национальных художественных традиций и инновационных цифровых технологий. Реклама рассматривается как синтетический вид визуального искусства, объединяющий изобразительные, графические и технологические компоненты, что позволяет анализировать её в рамках искусствоведческого подхода.[1]

Цель статьи — выявить эстетические особенности и специфику визуального языка рекламы в Узбекистане в контексте соотношения традиционных художественных кодов и инновационных технологий.

Реклама как элемент визуальной культуры

В научных исследованиях реклама определяется как особая форма визуальной коммуникации, воздействующая на массовое сознание через художественный образ. Рекламное изображение формирует устойчивые визуальные модели восприятия и влияет на эстетические предпочтения аудитории.[2]

Визуальная организация рекламы подчиняется законам композиции, ритма и цветового построения, заимствованным из изобразительного и декоративно-прикладного искусства. Художественная выразительность рекламного образа напрямую связана с корректным использованием этих средств, независимо от типа носителя — печатного или цифрового.[3] Таким образом, реклама функционирует как элемент визуальной культуры, формируя эстетическую среду повседневности.

Традиционные художественные коды в рекламе Узбекистана

Визуальный язык рекламы в Узбекистане опирается на устойчивые художественные традиции, сформированные национальным искусством. К числу характерных элементов относятся орнаментальность, символическая насыщенность образов, декоративная трактовка плоскости и цветовая гармония.

Обращение к традиционным мотивам в рекламной визуализации способствует формированию культурной идентичности образа и повышает его коммуникативную эффективность.[4] Национальные эстетические коды выполняют функцию культурного маркера, обеспечивая узнаваемость и смысловую устойчивость

[1] Акилова К. Б., Мухамеджанова С. И. Основы рекламы : учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — Ташкент : IQTISODIYOT, 2015.
[2] Дегтярёв Ю. К. Торговая реклама: экономика и искусство. — Москва : Экономика, 1969.
[3] Тихоновский В. Г. Торговая реклама и основы декорирования : учебное пособие. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва : Высшая школа, 1987.
[4] Акилова К. Б., Мухамеджанова С. И. Основы рекламы : учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — Ташкент : IQTISODIYOT, 2015.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

рекламного сообщения. Использование традиционных форм в рекламной визуализации позволяет интегрировать коммерческое сообщение в систему культурных ценностей общества.

Инновационные технологии и трансформация визуального языка

Развитие цифровых технологий существенно изменило визуальный язык рекламы. Современная рекламная коммуникация ориентирована на экранное восприятие, что обусловливает переход к лаконичным композициям, упрощённой графике и динамическим формам подачи информации.

С позиции психологии восприятия рекламный образ должен обеспечивать быстрое привлечение внимания и эмоциональный отклик. Эффективность визуального воздействия определяется целостностью образа, цветовым решением и структурной ясностью композиции.[5]

В рекламе Узбекистана инновационные технологии способствуют переосмыслению традиционных мотивов, которые трансформируются в условные знаки и графические символы, адаптированные к цифровой среде.

Синтез традиции и инноваций

Современная реклама в Узбекистане характеризуется стремлением к сочетанию национальных художественных традиций и актуальных технологических решений. Этот синтез проявляется в адаптации традиционных визуальных кодов к требованиям цифровых форматов и глобальных дизайнерских стандартов.

Эстетически выверенная реклама способна выполнять не только коммерческие, но и культурно-воспитательные функции, формируя визуальную культуру общества.[6] В условиях Узбекистана данный аспект приобретает особую значимость, поскольку реклама становится инструментом культурной репрезентации в медиапространстве.

Заключение

Эстетика и визуальный язык рекламы в Узбекистане формируются в результате взаимодействия традиционных художественных ценностей и инновационных технологий. Современная рекламная практика демонстрирует тенденцию к стилистическому уплотнению, знаковости и визуальной универсализации при сохранении национальной идентичности. Реклама в Узбекистане выступает не только средством коммерческой коммуникации, но и значимым элементом визуальной культуры, отражающим процессы культурной и технологической трансформации общества.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

[5] Шуванов В. И. Психология рекламы : учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — Ростов-на-Дону : Феникс, 2003.

[6] Глазунова В. В. Торговая реклама : учебное пособие. — 2-е изд., доп. и перераб. — Москва : Экономика, 1976.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

1. Акилова К. Б., Мухамеджанова С. И. Основы рекламы : учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — Ташкент : IQTISODIYOT, 2015.
2. Дегтярёв Ю. К. Торговая реклама: экономика и искусство. — Москва : Экономика, 1969.
3. Тихоновский В. Г. Торговая реклама и основы декорирования : учебное пособие. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва : Высшая школа, 1987.
4. Шуванов В. И. Психология рекламы : учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — Ростов-на-Дону : Феникс, 2003.
5. Глазунова В. В. Торговая реклама : учебное пособие. — 2-е изд., доп. и перераб. — Москва : Экономика, 1976.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

DILBAR ABDURAHMONOVA – OPERA ASARLARINING BEQIYOS TALQINCHI-DIRIJYORI

K. X. Azimov, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqola dirijyor Dilbar Abdurahmonovaning opera asarlarini talqin etish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada ushbu masala uning ijodiy faoliyatidan kelib chiqib, jahon va milliy operalari misolida yoritiladi.

MAQSAD: dirijyorning opera asarlaridagi o'rni va mavqeyini belgilash. Shunigdek, soha vakillarining ijodiy faoliyati misolida talqin masalasini o'rganadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida mashhur dirijyor Dilbar Abdurahmonovaning bir qator ijrochi va rejissyorlar bilan hamkorligiga oid muammolar tarixiy manbalar, ilmiy maqolalar yordamida o'rganilib qiyosiy tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: maqolada dirijyorning "Pyotr I" (A. Petrov), "Bo'ron" (S. Vasilenko, M. Ashrafiy) va "Faust" (Sh. Guno) operalarini sahnalashtirishiga oid ijodiy ishlari tahlil qilinadi. Asarlar misolida ushbu ijodkorning qo'llagan uslub va tamoyillari ko'rib chiqiladi.

XULOSA: tadqiqot natijasida, opera asarlarida dirijyor Dilbar Abdurahmonovaning talqini, ijodkor, ijrochilar bilan ishlash uslubi va tamoyillari aniqlandi.

Kalit so'zlar: dirijyor, orkestr, opera, talqin, rejissyor, kompozitor, xonanda.

ДИЛБАР АБДУРАХМОНОВА - НЕПРЕВЗОЙДЕННЫЙ ИСПОЛНИТЕЛЬ-ДИРИЖЕР ОПЕРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Азимов К.Х, Государственной консерватории Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: эта статья посвящена вопросам интерпретации оперных произведений дирижера Дильбар Абдурахмановой. В статье этот вопрос освещается на примере мировых и национальных опер, исходя из его творческой деятельности.

ЦЕЛЬ: определить роль и положение дирижера в опере. На примере творческой деятельности представителей сферы он исследует вопрос толкования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были изучены и сравнительно проанализированы проблемы сотрудничества известного дирижера Дилбар Абдурахмановой с рядом исполнителей и режиссеров с использованием исторических источников, научных статей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в статье приводятся такие примеры, как «Петр I» (А. Петров), «Бурон» (С. Василенко, М. Ашрафий) и «Фауст» (Ш. Гуно). На примере этих работ рассматриваются методы и принципы, применяемые этим художником.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в результате исследования в оперных произведениях определены интерпретация дирижера Дилбар Абдурахмановой, стиль и принципы работы с творческими деятелями, исполнителями.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Ключевые слова: дирижер, оркестр, опера, интерпретация, режиссер, композитор, певец.

DILBAR ABDURAKHMONOVA - UNSURPASSED PERFORMER-CONDUCTOR OF OPERA WORKS

Kamoliddin X. Azimov, the State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is about interpreting the opera works of conductor Dilbar Abdurakhmanova. The article highlights this issue on the example of world and national operas, based on his creative activity.

AIM: to determine the role and position of the conductor in the opera. Using the example of the creative activity of representatives of the sphere, he explores the issue of interpretation.

MATERIALS AND METHODS: during the study, the problems of cooperation of the famous conductor Dilbar Abdurakhmanova with a number of performers and directors using historical sources and scientific articles were studied and compared.

DISCUSSION AND RESULTS: the article gives examples such as "Peter I" (A. Petrov), "Buron" (S. Vasilenko, M. Ashrafiy) and "Faust" (S. Gounod). On the example of these works, the methods and principles applied by this artist are considered.

CONCLUSION: As a result of the study, the interpretation of the conductor Dilbar Abdurakhmanova, the style and principles of working with creative figures and performers were determined in opera works.

Key words: conductor, orchestra, opera, interpretation, director, composer, singer.

Dilbar Abdurahmonova o‘zbek opera dirijyorligi maktabining eng ko‘zga ko‘ringan arboblaridan biri hisoblanadi. U o‘zining dirijyorlik faoliyati davomida oltmishdan ortiq spektakllarni boshqargan. A. Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri jamoasi bilan Germaniya, Ruminiya, Yegipet, Gonkong, Tailand, Malayziya va boshqa xorijiy davlatlarda ijodiy safarlarda bo‘lgan. 1960-yildan M. Ashrafiyning munosib shogirdi bo‘lib, teatrda dirijyor sifatida ish boshladi. Uning birinchi spektakli J. Verdining “Aida” operasi hisoblanib, ushbu murakkab asarni yuksak mahorat bilan dirijyorlik qiladi. D. Abdurahmonova ko‘plab spektakllarning musiqa rahbari va sahnalashtiruvchi-dirijyori bo‘lgan. Ayniqsa u balet spektakllarini sahnalashtirishda jonbozlik qilgan. 1965-yili birinchi marotaba mustaqil ravishda L. Delibning “Koppeliya” baletini sahnalashtiradi. Shu bilan birga u “Zolushka” (S. Prokofyev), “Karmen-syuita”, “Anna Karenina” (R. Shedrin), “Qirq qiz” (L. Feygin), “Oq qush ko‘li” (P. Chaykovskiy), “Don Kixot” (L. Minkus), “Spartak” (A. Xachaturyan), “Oyimqiz va bezori” (D. Shostakovich), “Dunyoning yaratilishi” (A. Petrov), “Shopeniana” (F. Shopen), “Ikki dil dostoni”, “Ispan miniatyuralari” (A. Melikov), “Jizel” (A. Adan) o‘zbek baletlaridan esa, “Sevgi tumori”, “Sevgi va qilich” (M. Ashrafiy),

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

“Tanovor” (A. Kozlovskiy), “Semurg‘” (B. Brovsin), “Afsonalar vodiysi” (U. Musayev) va boshqa baletlarni sahnalashtiradi. “Hali Dilbar G‘ulomovna hayotligida taniqli balerina va baletmeyster, Xalq artisti Galiya Izmaylova bir intervyusida uning dirijyorlik mahorati haqida shunday deydi: - Klassika ham, zamonaviylik ham, milliy mavzular ham - barchasi Dilbarning ilhomidan dunyoga kelgan. U bilan ishlash qanday yoqimli! U xoreografiya va ijrochilar imkoniyatini nozik his qiladi. Balet spektakllari davomida dirijyorimiz go‘yoki solistlar, kordebaletlar bilan birga raqsga tushadi. U orkestrni juda aniqlik bilan boshqaradi - deydi”[1].

“D. Abdurahmonovaning har bir dirijyorlik qilgan opera asari partiturasi mohiyatini ochib berishga intiladi. Chunki unda muallifning fikri o‘z ifodasini topadi. Uning mahorati asar bezaklarini keng va yorqin ochib berishda seziladi. Bunga misol qilib “Pyotr I” (A. Petrov), “Bo‘ron” (S. Vasilenko, M. Ashrafiy) va “Faust” (Sh. Guno) operalarini keltirib o‘tish mumkin. Ulardagi nozik ohang, turli musiqiy bezaklar va o‘ziga xosliklarni ifodalashi partitura o‘qishida ravshan bo‘ladi. D. Abdurahmonova har bir opera partiturasida musiqa bilan sahna harakatining yorqin mutanosibligiga erishadi”[2]. U o‘z tajribasidan kelib chiqib opera dirijyorining vazifalari xususida to‘xtalib shunday deydi: “Dirijyorlik pultiga chiqishdan oldin yoki dirijyorlik qilishdan oldin, masalan opera spektaklida dirijyor xonandalar bilan juda katta ish olib boradi. Agar baletda baletmeyster va repetitorlar raqqosalar bilan ishlasa, operada repetitor va pedagog rolini dirijyor va jo‘rnavoz amalga oshiradi. Chunki hamma xonandalar ham teatrga tayyor yakkaxon bo‘lib kelmaydi. Shuning uchun ham jo‘rnavoz nota matnini o‘rgatish ustida ish olib borsa, dirijyor esa obrazlar, musiqiy jumlalar va to‘g‘ri talaffuz qilish borasida ishlaydi”[3] [2.8, 81]. U faoliyati davomida bir qator opera spektakllariga dirijyorlik qiladi. Jumladan, “Pikovaya dama”, “Iolanta” (P. Chaykovskiy), “Xovanshina” (M. Musorgskiy), “Optimistik fojia” (A. Xolminov), “Sevgidan keyingi sevgi” (T. Xrennikov), “Samson va Dalila” (K. Sen-Sans), “Trubadur”, “Traviata”, “Otello” (J. Verdi), “Olovli farishta” (S. Prokofyev), “Insoniy ovoz” (R. Pulenk), “Karmen” (J. Bize) va boshqalar. “1984 yilda D. Abdurahmonova va rejissyor F. Safarovlar tomonidan sahnalashtirilgan “Olovli farishta” (S. Prokofyevning mualliflik tahriri) operasi premyeralarining birida XX asrning atoqli dirijyori Yevgeniy Svetlanov Toshkentga kelar ekan, spektaklni poytaxt madaniy hayotidagi muhim voqea deb hisoblaydi. “Советская культура” gazetasida maestro hamkasbining dirijyorlik san’atini yuqori baholab shunday deydi: - Postanovkaning qalbi Xalq artisti Dilbar Abdurahmonova bo‘ldi. O‘zning yorqin iste’dodi, mahorati va musiqiy obro‘siga ega bo‘lib u katta jamoani birlashtirdi, uni ilhomlantirdi. S. Prokofьyev partiturasini maksimal darajada ochib berish maqsadida, spektaklning har bir ishtirokchisigacha barchani maftun qilishga erishdi. Buning ortida albatta ulkan mehnat, “musiqa tantanasi” deb nomlangan mehnat yotadi.

[1] Гульзарова И. Маэстро на все времена: Дильбар Абдурахманова // Ж. Театр №3 2021. – Б. 38-40.
[2] Azimov K. O‘zbekiston dirijyorlari. —T.: “MAGIKA” mas’uliyati cheklangan jamiyat bosmaxonasi, 2001. — B. 45.
[3] Гульзарова И. Фирудин Сафаров – Титан оперного театра. —T.: “Nishon-Noshir”, 2013. —C. 81.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Murakkab ammo shu bilan birga ajoyib mehnat. Abdurahmonova ham albatta, shubhasiz qiyin bo‘lgan kasbimizning barcha sirlariga bo‘ysunamiz”[4].

D. Abdurahmonovaning repertuarida o‘zbek operalaridan “Bo‘ron”, “Dilorom” (M. Ashrafiy), “Layli va Majnun” (T. Sodiqov), “So‘g‘d elining qoploni” (I. Akbarov), “Alisher Navoiy” (M. Burxonov), “Maysaraning ishi” (S. Yudakov), “Xiva ordeni” (R. Abdullayev), “Mangulik” (U. Musayev) va boshqalar o‘rin olgan bo‘lib, ularga dirijyorlik qilishning o‘ziga xos uslubi bor edi. U o‘zbek operalari targ‘ibotiga ham hissa qo‘shgan dirijyorlardan sanaladi. “Qariyb qirq yillik tanaffusdan so‘ng “Bo‘ron” operasi Moskva sahnalarida yangi kuch bilan namoyish etildi va bu o‘zbek madaniyatining atoqli arbobi Muxtor Ashrafiy xotirasiga o‘ziga xos hurmat-ehtiromga aylandi. Dilbar G‘ulomovna o‘z ustozi musiqasidagi boy lirika, g‘azab va chinakam dramaturgiyasi bilan to‘ldirilgan barcha go‘zallik va yuksaklikni tomoshabinlarga yetkazishga harakat qildi”[5]. O‘zbek operalari haqida so‘z borar ekan, D. Abdurahmonova rejissyor F. Safarov bilan hamkorlikda ko‘plab spektakllarni sahnalashtirdi. Dirijyor g‘arb va rus opera san’ati durdonalari bilan uzoq yillik muvaffaqiyatli faoliyati davomida birinchilardan bo‘lib, S. Yudakovning 50-yillarda H. Niyoziy komediyasi motivi asosida yaratgan “Maysaraning ishi” operasi yangi tahririni sahnalashtirganini alohida ta’kidlash joiz. F. Sharipova kitobida D. Abdurahmonova va F. Safarovlarning bu hamkorligiga quyidagi fikrni keltiradi: “Darhaqiqat, bu ularning o‘zbek operasini jahon miqyosidagi eng yaxshi namunalar qatoriga qo‘yish istagining mantiqiy davomi edi. Milliy komik opera shunday imkoniyat edi. Tanqidchilar “Maysaraning ishi” operasining yangi postanovkasini kashfiyotli spektakl deb atashdi. Jumladan, Abdurahmonova dirijyorligidagi orkestr milliy an’analar, Yevropa opera san’atining qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy uyg‘unlashgan holda opera musiqasining boyligini to‘liq yetkaza olgani ta’kidlandi. Dilbar G‘ulomovna talqinidagi musiqa - spektaklning asosi bo‘lib, sahna harakatlarining organik elementiga aylangan va u o‘z navbatida jonli va harakatchan musiqiy matodan ajralmas qismidir”[6].

D. Abdurahmonovaning A. Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida bosh dirijyor lavozimida ishlab yurgan kezlari kichik sahna uchun ham kamer spektakllarni olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Teatrning kichik sahnasi dirijyor va rejissyorga nafaqat sahnalashtirishning yangi qirralarini ochishga balki, yosh artistlarni kashf qilishda, ularning individual ijodiy qiyofasini namoyon etish uchun imkoniyat yaratdi. Bu amaliy tajriba o‘sha davrda ijodini endi boshlayotgan yosh o‘zbek kompozitori Habibulla Rahimov (J. Kamolning “Armon” poemasi asosida) yaratgan “Ona qalbi” nomli bir aktli ilk kamer operasining sahnaga qo‘yilishidan boshlandi.

“Musiqiy asarlarning ijro saviyasi haqida so‘z borar ekan, tanqidchilar shunday yozadi: Ma’lumki, keyingi yillarda teatrga irodali, temperamentga boy, iste’dodli dirijyor, Muxtor Ashrafiyning suyukli shogirdi Dilbar Abdurahmonova rahbarlik qilib kelmoqda.

[4] Гульзарова И. Маэстро на все времена: Дильбар Абдурахманова // Ж. Театр №3 2021. – Б. 38-40.
[5] Шарипова Ф. Ты - моя мелодия... —Т.: Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании “Шарқ”, 2006. — С. 89.
[6] Шарипова Ф. Ты - моя мелодия... —Т.: Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании “Шарқ”, 2006. — С. 130.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Balki D. Abdurahmonova talqinining asosiy ustunligi bu - yaxlitlikdadir. Umumiy ijro rejasining mazmuni va ko‘lami uning ishida tafsilotlarning ifodaliligi bilan uyg‘unlashgan. Ijroning yuqori hissiy ohangi, musiqaning bevositaligi va tezkorligini doimo saqlab qolgan holda, dirijyor, o‘z kuchini bir zumda yoritib, boshqa artistlargan ham shijoatli impulsini yetkazgan holda, orkestrni oldingi o‘ringa olib chiqishga (bu opera spektaklida cheksiz ahamiyatga ega) va yakkaxon xonandalar, xor, ansambllarning o‘zini maksimal darajada namoyon qilish imkoniyatini berish uchun uni darhol “olib tashlash”ga qodir. Dirijyor, umuman olganda partituraning ko‘p ovozli qatlamlarni juda yaxshi eshitadi va uni tashkil etuvchi elementlar, yo‘llarni shunga mos ravishda tomoshabinlarga yetkazish imkoniyatini beradi. Demak, Abdurahmonova boshqargan barcha spektakllar uslubiy jihatdan murakkab va rang-barang bo‘lib, bular o‘zbek, rus, g‘arbiy Yevropa madaniyatini ifodalovchi va bugungi teatr qiyofasini belgilab beruvchi operalardir”[7].

Xulosa qilib aytganda, dirijyor Dilbar Abdurahmonovaning ijodiy faoliyati nafaqat milliy opera san’ati rivojiga balki, o’zbek musiqashunosligi ravnaqi uchun yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borishga yetarlicha zamin bo’lib kelmoqda. Uning musiqiy-sahna asarlarini beqiyos tarzda talqin qilish uslublari esa, yosh mutaxassislar ijodiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ijodkorning teatrdagi uzoq yillik samarali faoliyati hali ko’plab olimlarning ilmiy ishlari markazidan o’rin oladi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Гульзарова И. Маэстро на все времена: Дильбар Абдурахманова // Ж. Театр №3 2021. – Б. 38-40.
2. Azimov K. O‘zbekiston dirijyorlari. —T.: “MAGIKA” mas’uliyati cheklangan jamiyat bosmaxonasi, 2001. — B. 45.
3. Гульзарова И. Фирудин Сафаров – Титан оперного театра. —T.: “Nishon-Noshir”, 2013. —C. 81.
4. Шарипова Ф. Ты - моя мелодия... —T.: Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании “Шарқ”, 2006. —C. 89.

[7] Шарипова Ф. Ты - моя мелодия... —T.: Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании “Шарқ”, 2006. — C. 90-91.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

O‘ZBEK XALQ AMALIY SAN’ATI VA ULARNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Azimova Muhayyo Barotovna, Buxoro davlat universiteti Tasviriy va amaliy san’at kafedrasi dotsenti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida shakllangan, boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ulug‘vor va ommabop qismini tashkil etgan xalq amaliy san’ati turlari ko‘rib chiqiladi. Insoniyat paydo bo’lgan davrlardan boshlab mehnat qilib kun kechirib kelgan. Bunda kundalik yumushlarda foydalangan buyumlarga o’z avlodlari ya’ni farzandiga uni qanday buyumligini tushunturish uchun belgi qo’yib yasashga uringan va shu orqali ular belgi so’z va boshqa amallar orqali qabilaga oid mehnat turlari rivojlanib borgan. Amaliy san’at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi. Amaliy san’atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san’at qismlari keng qo‘llaniladi. Amaliy san’at asarining uyg‘unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o‘zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo‘ladi. Amaliy san’at asarlari ko‘z bilan ko‘rish, his etish va anglashga mo‘ljallangan. Amaliy san’at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o‘zining ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta’sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo‘lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go‘zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko‘pligi Amaliy san’atda estetik ta’sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik, xalq amaliy bezak san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaxo san’at asarlarining namunalari bo`lib, xalqimizning va shu bilan birga, jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy madaniy merosni tashkil etadi. Ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o’rgatilayotgan joylarda chunonchi: oliy o’quv yurtlari, o’rta maxsus kasb hunar ta’lim muassasalarida, shaxsiy usta-shogird asosida o’rgatilayotgan ustaxonalarda, qo’shimcha ta’lim muassasalarida usta va shogirdni sharqona odobi to’liq o’rgatilmasligi o’quvchi yoshlarimizni ahloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman ular ma’naviyatining shakllanishiga salbiy ta’sir ko’satatayotganligining guvohi bo’lamiz. Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosidan to’g’ri va unumli foydalanish lozim.

Yozma manbalarga ko‘ra XVIII asr zargarlari oltin va kumushga qimmatbaho toshlar qadab toj va kamarlar, Qurollar, ot abzallari, zeb-ziynat buyumlari ishlagan. XIX asr zargarlari zumrad, durru marvarid, yoqut, feruza, aqiq, sadaf kabi qimmatbaho toshlarni oltin va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlari yaratishgan. Ularga bolg‘alab (zarb berib), hallab o‘yib, bo‘rttirib naqsh yasab, bosib (siqib), qoliplash usullarida ishlov berilgan. Maqolada taniqli ustalarning ijodi haqida so'z boradi.

MATERIAL VA METODLAR: amaliy san’at da narsalarning nafisliligiga ikki usul

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bilan erishiladi:
1) shakli oddiy, jo‘n buyumlarga bezak ishlab badiiy qimmati oshiriladi;
2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o‘ynaydi. Xom ashyoning go‘zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta’sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida shakllangan xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib taraqqiy etgan san’ati turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Tasviriy san’atga chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: XIX-asr ikkinchi yarmidan ilmiy adabiyotlarda Amaliy san’at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog‘och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo‘yash, o‘yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to‘qish va boshqalar)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o‘z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog‘lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratdi. Amaliy san’at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo‘lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Ushbu yillarda topligan adabiy manbalarda paleolit davrida amaliy-dekorativ san’at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo’lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo’lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, XIX asrning boshlarida buyuk ganch o‘ymakorlaridan Abdurahim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji Hofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta Ibroxim, Usta Savri, Usta Abdufattox va boshqalar faoliyat ko`rsatdilar.

XULOSA: o‘zbek xalq amaliy san’atining o‘ziga xos tomonlari ustoz-shogird an’anasi: Hunarmandchilik sirlari avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadi. Ramziylik (Simvolizm): Naqshlar (bodom, anor, ilon izi) faqat bezak emas, balki to‘kinlik, sog‘liq va himoya ma’nolarini anglatadi. Funktsionallik va go‘zallik**:** Buyumlar ham kundalik turmushda ishlatiladi, ham estetik zavq bag‘ishlaydi (masalan, gilamlar, zargarlik buyumlari).

Hududiy xilma-xillik: farg‘ona kulolchiligi (ko‘k-yashil), Buxoro zargarligi va zardo‘zligi, Xiva yog‘och o‘ymakorligi kabi turlar o‘ziga xos uslubga ega. Ekologik tozalik: Tabiiy materiallar va bo‘yoqlardan foydalaniladi.
Asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek asrab avaylab kelingan xalq amaliy bezak san’ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu amaliy san’at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi.

KALIT SO‘ZLAR: ijodkorlik, san’at, janr, koshin, naqqoshlik, xattotlik, ganch o‘ymakorlik san’ati, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik,me’morchilik, xalq amaliy bezak san’ati.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

НАРОДНОЕ ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА И ЕГО ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

Азимова Мухайё Баротовна, Бухарский государственный университет
Кафедра изобразительных и прикладных искусств доцент, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются виды народного прикладного искусства, сформировавшиеся за многовековую историю узбекского народа и составляющие самую славную и популярную часть нашего богатого и разнообразного культурного наследия. С заре человечества люди упорно трудились, чтобы заработать себе на жизнь.Таким образом, они пытались наносить знаки на предметы, используемые в повседневной работе, чтобы помочь своим потомкам, то есть детям, понять, что это за предмет, и посредством этого развивали племенные виды труда с помощью знаков и других действий. Произведения и предметы прикладного искусства служат для украшения и эстетического обогащения материальной среды человека.В прикладном искусстве узоры и элементы изобразительного искусства широко используются для создания декора. Гармония произведения прикладного искусства проявляется прежде всего в единстве художественной и практической функции произведения, во взаимодействии формы и декора, в образе и структуре произведения. Произведения прикладного искусства предназначены для того, чтобы их видели, чувствовали и понимали глазами. Произведения и предметы прикладного искусства служат для украшения и эстетического обогащения материального окружения человека, и в то же время своим внешним видом, структурой и свойствами они влияют на душевное состояние и настроение. Декорированные предметы ценятся не только за их практическое применение, но и за художественную ценность. Поэтому умение демонстрировать красоту и изящные свойства сырья, обилие навыков и методов его обработки являются важными активными средствами, усиливающими эстетический эффект в прикладном искусстве.

ЦЕЛЬ: главная цель данного исследования — показать, что памятники архитектуры и народного декоративно-прикладного искусства в Самарканде, Бухаре, Хиве, Шахрисабзе, Термезе, Ташкенте, Коканде и других городах являются примерами совершенных, уникальных и исторически бесценных произведений искусства, созданных нашими прошлыми поколениями, и составляют художественно-культурное наследие нашего народа, а также являются одним из шедевров мировой культуры. Мы видим, что богатый опыт наших предков в настоящее время применяется в местах обучения ремёслам, таких как: высшие учебные заведения, средние специализированные профессиональные учебные заведения, мастерские, где практикуется индивидуальное обучение мастеров и учеников, и учреждения дополнительного образования.

Отсутствие полноценного обучения восточному этикету между мастером и учеником негативно сказывается на нравственности и уровне знаний наших молодых студентов, а также на формировании их духовности в целом.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Поэтому необходимо правильно и эффективно использовать духовное наследие, оставленное нашими предками. Согласно письменным источникам, ювелиры XVIII века использовали золото и серебро для инкрустации драгоценными камнями корон и поясов, оружия, конской упряжи и ювелирных изделий. Ювелиры XIX века использовали золото и серебро для инкрустации драгоценными камнями, такими как изумруды, рубины, бирюза, агат и перламутр, создавая элегантные и привлекательные украшения. Обработка камней осуществлялась путём ковки, резьбы, тиснения, прессования и формования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в прикладном искусстве элегантность предметов достигается двумя способами:

1) путём украшения простых, незамысловатых предметов, повышения их художественной ценности;

2) путём придания красоты их форме. Структура предметов играет важную роль в воплощении художественных объектов. Красота исходного материала, пропорции частей, ритм структуры — единственные средства выражения впечатляющего общего облика объекта.Виды народного декоративно-прикладного искусства, сформировавшиеся за многовековую историю узбекского народа, составляют самую замечательную и популярную часть нашего богатого и разнообразного культурного наследия. Виды искусства, возникшие и развившиеся на узбекской земле, известны во всем мире своей уникальностью и неповторимостью. В результате глубокого, философского подхода к изобразительному искусству усилилось создание декоративных произведений, основанных на условностях, стилизации и символике. В статье рассматривается творчество известных мастеров.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: начиная со второй половины XIX века, в научной литературе произведения прикладного искусства различаются по используемым сырьевым материалам (дерево, керамика, гипс, камень, металл, кость) и способу исполнения (живопись, резьба, литье, вышивка, ткачество и др.). Это, в свою очередь, проложило путь к проектированию обработки предметов и их связи с их производством (художественная промышленность). Произведения прикладного искусства отражают местные и национальные особенности, соответствующие социальному слою периода их создания, и их материальную культуру, тесно связанную с социальными группами. В литературных источниках, собранных в эти годы, примеры прикладного и декоративного искусства также начали широко распространяться в палеолитический период. Потребность в украшении предметов узорами, различными орнаментами и амулетами отражена в артефактах, найденных археологами. Результаты исследования показали, что в начале XIX века работали следующие великие резчики по ганчу: Абдурахим Хаётов, Уста Мурод, Уста Фузайл, Уста Хаёт Носиров, Уста Ходжи Хафиз, Уста Насруллобой, Уста Абдужалил, Уста Азим, Уста Омонулло, Уста Иброксим, Уста Саври, Уста Абдуфаттох, другие.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: уникальной особенностью узбекского народного прикладного искусства является традиция «мастер-ученик»: секреты мастерства передаются из поколения в поколение. Символика: узоры (миндаль, гранат, змеиный принт) не только декоративны, но и символизируют изобилие, здоровье и защиту. Функциональность и красота: предметы используются как в повседневной жизни, так и для эстетического удовольствия (например, ковры, украшения). Региональное разнообразие: такие виды, как ферганская керамика (сине-зелёная), бухарские украшения и ювелирное дело, а также хивинская резьба по дереву, имеют свой неповторимый стиль. Экологическая чистота: используются натуральные материалы и краски.Это шедевр народного декоративно-прикладного искусства, бережно хранившийся нашими предками на протяжении веков. Подобные виды прикладного искусства, сохранившиеся на протяжении всей истории и до наших дней, будут ещё больше цениться и уважаться в будущем.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: творчество, искусство, жанр, плитка, живопись, каллиграфия, резьба по дереву, плитка, живопись, каллиграфия, архитектура, народное декоративно-прикладное искусство.

FOLK APPLIED ART OF UZBEKISTAN AND ITS INDIVIDUAL ASPECTS

Azimova Mukhayo Barotovna, Bukhara State University, Department of Fine and Applied Arts Associate Professor

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the historical development, artistic characteristics, and cultural significance of Uzbek folk applied arts. Over centuries, the Uzbek people have created a rich artistic heritage expressed through various forms of decorative and applied craftsmanship. These works combine aesthetic beauty with practical function, reflecting national identity, social structure, and spiritual values. The study analyzes major types of applied arts, including ceramics, wood carving, metalwork, jewelry, embroidery, and architectural decoration. Special attention is given to symbolic ornamentation, regional stylistic diversity, and the master–apprentice tradition that ensured the continuity of artistic knowledge. The article demonstrates that Uzbek folk applied arts represent not only a component of national culture but also a valuable contribution to world artistic heritage.

AIM: the purpose of this study is to analyze the major forms of Uzbek folk decorative and applied arts and to demonstrate their historical, cultural, and artistic significance. The research highlights architectural monuments and traditional crafts in cities such as Samarkand, Bukhara, Khiva, Shakhrisabz, Termez, Tashkent, and Kokand as outstanding examples of artistic achievement created by past generations.

The study also emphasizes the importance of preserving the master–apprentice tradition, which historically ensured the transmission of artistic skills, ethical norms, and professional values from one generation to another.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

MATERIALS AND METHODS: the research is based on historical sources, art historical literature, and analysis of material artifacts preserved in architectural monuments and museum collections. Works of applied art are examined according to: Material (wood, ceramics, plaster, stone, metal, bone, textiles); Technique (carving, painting, casting, embossing, embroidery, weaving); Form and structure (proportion, rhythm, composition); Symbolic ornamentation (stylization, abstraction, and conventional motifs). The artistic value of applied art objects is achieved in two principal ways: by decorating simple functional objects to enhance their aesthetic appeal; by refining and beautifying their form through proportion and structural harmony.

RESULTS AND DISCUSSION: by the second half of the nineteenth century, scholars began classifying applied art according to raw materials and production techniques. This systematization contributed to the development of art industry and design theory. Archaeological evidence suggests that decorative traditions in Central Asia have ancient roots. The use of ornamentation and symbolic motifs can be traced back to early historical periods. Over time, these traditions evolved into refined artistic systems characterized by stylization and symbolic abstraction. In the eighteenth and nineteenth centuries, Uzbek jewelers created intricate ornaments using gold and silver inlaid with precious stones such as emeralds, rubies, turquoise, agate, and mother-of-pearl. Techniques included hammering, engraving, embossing, and casting. Jewelry items—crowns, belts, weapons, and horse harness decorations—demonstrated both technical mastery and symbolic meaning. Ganch carving and wood carving flourished particularly in the nineteenth century. Prominent masters such as Abdurakhim Khaetov, Usta Murod, Usta Fuzail, Usta Hayot Nosirov, and others significantly contributed to the development of ornamental architectural decoration. A distinctive feature of Uzbek folk applied art is the master–apprentice system. Artistic knowledge, technical skills, and ethical principles were transmitted directly from teacher to student, ensuring continuity and preservation of tradition. Regional Diversity Uzbek applied arts demonstrate strong regional characteristics: Fergana Valley ceramics are distinguished by blue-green color palettes and floral motifs. Bukhara jewelry is known for refined metalwork and gemstone inlay.

Khiva wood carving features deep geometric and vegetal ornamentation. Ornamental motifs such as the almond (bodom), pomegranate, and snake-like patterns symbolize abundance, fertility, health, and protection. These symbols combine aesthetic and spiritual meanings.

CONCLUSION: uzbek folk applied arts represent a harmonious synthesis of beauty and functionality. Crafted from natural materials and often using environmentally friendly techniques, these works reflect centuries of accumulated artistic experience. They embody national identity, regional diversity, and spiritual symbolism. Architectural decoration, ceramics, wood carving, jewelry, and other forms of craftsmanship are not merely historical artifacts but living elements of cultural heritage. Preserved through the master–apprentice tradition, these artistic practices continue to contribute to both national culture and global artistic history. The careful preservation and study of Uzbek

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

folk applied arts remain essential for maintaining cultural continuity and fostering appreciation for traditional craftsmanship in contemporary society

KEYWORDS: folk art, applied arts, ornamentation, craftsmanship, wood carving, ceramics, jewelry, architecture, cultural heritage.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida shakllangan xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Uning o‘zbek diyorida vujudga kelib taraqqiy etgan san’ati turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Tasviriy san’atga chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o`zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo`lgan, bu hozirda jahonga mashhur me’morchilik yodgorliklarimiz |ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, va boshqa turdagi san’atlar xalqimizning buyuk o‘tmishidan dalolatdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik, xalq amaliy bezak san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaxo san’at asarlarining namunalari bo`lib, xalqimizning va shu bilan birga, jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy madaniy merosni tashkil etadi. XIX asrning boshlarida buyuk ganch o‘ymakorlaridan Abdurahim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji Hofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta Ibroxim, Usta Savri, Usta Abdufattox va boshqalar faoliyar ko`rsatdilar. 1913-1914 yillarda Buxoroda amir Axadxon tomonidan Sitorai Moxi-Xosa qurildi. U ganch o‘ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mexmonxonasini o‘sha davrdagi ganch o‘ymakorligining ajoyib namunasi deb hisoblasa bo‘ladi.

Bunda, ganch o‘ymakorligi oyna zaminida bajarilgan. U o‘zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Makur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan.

Xorazm o‘zining qadimiy yodgorliklari bilan jaxonga mashxurdir. Xorazmdagi Islomxo‘ja minorasi, Faxriddin Rizo maqbarasi, Juma machiti va boshqa tarixiy obidalar O‘rta asr Sharq me’morchilik san’atining namunalaridan biridir. Ular o‘zining soddaligi va naqsh motivlarining ulug‘vorligi bilan dunyoga dong taratgan. Xorazm arxitektura yodgorliklaridagi o‘yib, chizib, pishirib ishlangan naqshlarni ko‘rsat o‘ziga xos shakllardan iboratligi, naqshlarning o‘ziga xos aylanma spiralsimon kompozitsion tuzilishiga egaligi hamda novdalarning juda nozik chizilishi, o‘yilishi chiziqlari bir-biri bilan kesib o‘ttanligi jimjimadorligi bilan ajralib turadi.

Xorazm san’atida gullarni spiralsimon tuzilishi juda qadimdan ko‘llanib kelinganligini ko‘rish mumkin. Eramizdan oldingi III asrlarda qurilgan.

Tuproq qal’a saroyi xonalardagi bezaklarda ko‘rish mumkin. Ganch o‘ymakorligi san’ati hozirda o‘ziga xos uslublarda rivojlanib o‘sib bormoqda. Jumladan Samarqand

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ganch o‘ymakorlik san’ati ham hozirda o‘ziga xos uslublarda rivojlanib bormoqda. Samarqand ganch o‘ymakorligining namoyandalaridan Usta Anvar Quliyev, Usta Tursunboy Ismoilov, Shamsiddin G‘ofurov, Quli Jalilov va boshalarni aytib o‘tish lozim. Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib, ishlanadi. Yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib, kishilarning uy-ro‘zg‘or buyumlarida qurilish arxitekturasida juda keng qo‘llangan.

Bu o‘ymakorlikdan qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, xar xil to‘sin, stol, xon- taxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan Markaziy Osiyo gorelefli, ya’ni juda bo‘rtiq (1 mm dan 20 mm gacha) releflar bilan xar xil narsalarni yog‘ochdan o‘yib ishlaganligi ma’lum bo‘ldi.

Xalq yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol koldiradi.

V-VI asrlarga oid yog`och o‘ymakorligi namunalari Surxondaryo voxasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan.

NATIJALAR: Olimlarimizning aniqlashicha, bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o‘ymakorligi san’ati mavjud bo‘lib, uning juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaxarlardagi arxeologik qazilmalar natijasida ham topilmoqda.

VII asrning oxirigacha mahalliy o‘zbek xalqi ichida yog‘och o‘ymakorlik juda tez sur’atlar bilan rivojlangan edi.

XI-XII asrlarda xalq amaliy san’ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo‘lgan geometrik naqsh, ya’ni girix naqshi bezakda yetakchi o‘rinni egalladi.

Arxitektura uy-ro‘zg‘or buyumlari yanada badiiy, nafis qilib bezatildi. Girix naqshi yanada rivojlandi Masalan, XII-asrga oid yog‘och o‘ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shoxi-Zinda devorining orasidan topilgan bo‘lib, u o‘zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIII- asr o‘rtalarida Shayx Sayfuddin Boxarziyning daxmasiga ishlangan yog‘och o‘ymakorligi naqshi topildi. San’atning ustki qismida o‘rnatilgan yog‘och taxtasidagi o‘ymalar shunday o‘yilganki, o‘yma naqshining nafisligi, uning murakkabligi, tabiiyligi bilan kishini hayratga soladi. O‘ymani bajargan ustaning naqadar nozik didlii kuchli nazariyotchi hamda amaliyotchi yetuk usta ekanligi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Undagi naqshlarning erkin, nozik xarakati inson ruhini ko‘taradi. XIV-XVasrlarda yog‘och o‘ymakorligi tez ko‘lamda rivojlandi. Hattoki tirik mavjudotlar o‘yib tasvirlangan ishlarni xam ko‘rish mumkin edi. Samarqanddagi Ruxobod maqbarasining eshigida o‘yma naqsh bajarilgdn bo‘lib, baliqning stillashtirilgan tasvirini ko‘rish mumkin.

XIX va XX-asrlarda yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san’atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi. Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi, Toshkentdagi knyaz N.K.Romanovlarning Saroyi va A.A.Polovsev uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg‘ilondagi Said Ahmadxo`ja madrasasi Buxorodagi Sitorai Moxi-Xosa va boshqalarda ajoyib yog‘och

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

o‘ymakorligi namunalari yaratildi.

Bu esa o‘zbek yog‘och o‘makorligi san’atining bebaxo asaridir. Yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga xos turli uslub va usullari bor.

Masalan, Xiva yog‘och o‘ymakorligi o‘ymasining monumentalligi, yog‘och tabiiy rangining saqlab qolinishi bilan boshqalardan farqlanadi. Buxoro yog‘och o‘ymakorligi esa o‘yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorligi chuqur zaminli yassi o‘ymani qo‘llab kelganlar. Qo‘qon o‘ymakorligi esa kalta burtmali, yassi o‘yma ishlatganlar. Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan.

Yog‘och o‘ymakorligi maktablari taxminan 40-50 yillardan keyin paydo bo‘lgan. Toshkent ustalari relef yuzasiga ozgina rang berib, relefni o‘zi loklanadi.

Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi namoyandalaridan biri Sulaymon Xo‘jaev, u faqat pargori naqshni ishlagan.

Uning shogirdi Maqsud Qosimov birinchi bo‘lib pargoriy naqshni tekis yuzasi islimiy naqsh o‘ymaga kiritgan. Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o‘yma naqshlarning maydaligi, yuzaligi, zaminning kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatdan o‘ynoqligi harakatchanligi, dinamikaviyligi, ya’ni novdalarni spiralsimon ishlanib ajoyib shakllar xosil qilishi bilan farq qiladi.

Xiva o‘ymakorligi ustalari ko‘pincha qayrag‘och, terak va chinor yog‘ochlarini ko‘proq ishlatadilar. Ular yog‘och rangining tabiiyligini saqlagan xolda uning yuzasiga va zaminiga paxta, zig‘ir (Xorazmcha – oq yog‘) yog‘i beriladi. Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi o‘zining monumentalligi bilan mashxurdir.

Xiva naqshining go‘zalligi, naqshlarning turli chuqurlikda o‘yilishi orqali katta aniqlikka va uyg‘unlikka erishishdadir. Ustalar yog‘ochning tabiiy ko‘rinishini saqlashga harakat qilib yangi o‘yma yuzasini silliqlash, bo‘yoq surtish ishlarini qo‘llaganlar.

Ota Polvonov, Sapo Bokbekov va boshqalar Xiva maktabi ustalaridandir. Samarqand yog‘och o‘ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o‘ymalarining juda mayda o‘yilishi, kompozitsiyasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Gulli girix kompozitsiyalari hamma zamin va releflarni loklashdan boshlanadi. Bunda asosan chinor, dub, buk va terak yog‘ochlari ishlatiladi. Qo‘qon ustalari quticha, kursi, rom va boshqalarda kalta bo‘rtmali yassi o‘ymani, ya’ni pargori uslubda ishlatib kelib, arxitektura eshik, ustunlarga yirik chuqur naqshlar o‘yib o‘zgacha maktab yaratdilar.

MUNOZARA. Bu maktablar o‘ymakorlarining monumentalligi, yirikligi, chuqurligi ko‘p quvvatliligi bilan farq qiladi. Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabini rivojlantirishda Qodirjon Haydarov va uning shogirdlari katta xissa qo‘shdilar. Ular terak, yong‘oq va buk yog‘och materiallaridan ko‘pincha foydalandilar. Ustalar o‘yilgan relefning faqat yuziga to‘qroq rang berib keyin loklaydilar. Tosh o‘ymakorligi xalq amaliy bezak san’atining noyob turlaridan biri.

Bu san’at kishidan iste’dod va intilishdan tashqari; mehnatsevarlik va g‘oyatda

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

zo`r sabr-toqat talab kiladi. Bu san'atni toshtaroshlik yoki sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o'ymakorligi toshni o'yib, yo'nib, tirnab, naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir. Toshni o'yib ishlashning chiziqli o'yma, zanjira, yassi o'yma, chuqur o'yma, panjarasimon o'yma va hajmli o'yma turlari bor. Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar o'rni, maqsadi hamda vazifasiga qarab yumshoq, o'rtacha qattiqlikdagi va qattik toshlar ishlatiladi. Yumshoq toshlarga gipstosh, talkoxlorit, ohaktoshsh o'rtacha qattiqlikdagi toshlarga oniks, porfir, marmar va qattiq toshlarga lazurit, amozon, agat, malahit, jadent, nefrit, yashma va boshqalar kiradi.

Bu toshlardan kozon, ko'za, lagan, piyola, xaykalcha va xaykallar tayyorlanadi.

Ko'za, lagan, namoyon va boshqalarga toshni o'yib, o'simliksimon, geometrik ramziy naqshlar hamda syujetli rasmlar o'yib ishlanadi. Tosh o'ymakorligi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati bo'lib, toshni o'yib naqsh yoki biror tasvir hosil qilishdir.

Respublikamizdagi vodiy va tog'lar uzoq insoniyat taraqqiyotidagi uzoq o'tmishda moddiy madaniyatning o'chog'i xisoblangan.

Qoyalarga tushirilgan rasmlar (petrogliflar) qadimiy yodgorliklar tarixidan dalolat berib turibdi. Odamlar toshning turli navlaridan qurol va asboblar, uy-ro'g'zor buyumlari va bezak ashyolari sifatida foydalanganlar. Qadimiy Markaziy Osiyoda odamlar qimmatbaxo toshlardan bezak buyumlari tayyorlashgan. I- III asrlarda O'zbekistonning janubida binolarni ustunlari hamda poydevorlarni bezashda xarsangtosh, marmartosh va oxaktoshdan foydalanganlar. Fayoztepa, ayritom, Qoratepa kabi xarobalardan ko'rinib turibdiki, marmar va xarsangtoshlardan bezash ishlarida keng foydalanilgan. Toshni kesish, unga badiiy ishlov berish sirlari to'g'risida Sharq mamlakatlarida risolalar yozib qoldirilgan. XV asrda O'rta Osiyo ayniqsa toshtaroshlik rivojlandi va takomillashdi. Masalan, Amir Temur Ahmad Yassaviy maqbarasi, Bibixonim masjidi va boshqalar shu san`at bilan jozibador qilib bezatildi.

Amir maqbarasidagi tosh va marmar panjaralarda tosh o'ymakorligining ajoyib namunalarini ko'rish mumkin. Ayniqsa, tosh va marmar o'ymakorlik namunalari Xiva arxitektura yodgorliklarida ko'p ishlatilgan. Chunonchi buerda poyustunlarni toshdan va marmardan o'yib ishlangan ajoyib namunalari ko'p.

Poyustun - aksariyat, maxalliy me'morchilikka xos arxitektura detali bo'lib, ustun o'rnatiladigan asos, tag kursi. U yog'och ustunlarni chirishdan saqlaydi hamda ularning balandligini ta'minlaydi. Poyustun marmarni, toshni o'yib ishlangan naqshlar islimiy, geometrik, chiroyli yozuvlar, naqsh-nigoralar bilan bezatilgan. Ayniqsa, Xivadagi Toshhovlida kishiga zavq bag'ishlaydigan poyustunning ajoyib namunalari bor. Bu esa tosh o'ymakorlik san'atining yuksak darajada rivojlanganligini namoyish etadi. Nurota va Sozg'on qishloqlarida marmardan idishlar, ya'ni lagan, piyola va boshqalar tayyorlash avj oldi.

Suyak o'ymakorligi O'zbekistan xalq amaliy bezak san'ati ichida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Suyak o'ymakorligi O'zbekistonda san'atning eng yosh turidir. II-ming yillikka oid pichoq namunalari topilgan.

Bolaliktepa, Afrosiyob, Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma'lum

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

bo‘ladiki, pichoq, uy-ro‘g‘zordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilgan VI - XII asrlarda qurol sifatida rivojlanib uni bezash texnologiyalari o‘zgargan. XV-XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo‘ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko‘rish mumkin. Keyinchalik pichokchilikning uziga xos maktablari paydo bo‘ldi.

Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular o‘zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan. O‘rta Osiyoda qadimdan metallni qayta ishlash, ya’ni hunarmandchilik qurollari ishlab chiqarish uchun sharoit deyarli mavjud edi. Misning tabiiy zapaslari, kumush, qo‘rg‘oshin, alyuminiy kabi materiallar juda ko‘p edi. Respublikamizda yigirmaga yaqin pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular yasalish usuliga ko‘ra Chust pichog‘i, Poytut pichog‘i, Qo‘qon pichog‘i, Qorasuv pichog‘i, Shaxrixon pichog‘i, kabilarga bo‘linadi.

Chust pichoqchilik maktabi. Chust ustalari yasagan pichoqlar boshqa pichoqlardan keskin farq qiladi. Pichoqning dasta hamda tig‘i uzunroq, tig‘ining uchi tashqariga, dastasining uchi ichkariga tomon qayrilgan bo‘ladi. Chust shaharlarida hali ham pichoqchilik o‘z an’analarini davom ettirib kelmoqda. Chust pichoqlari qatiyligi, shaklini soddaligi xamda silliqligi bilan mashxur. Xivalik ustalarning XIX - XX asrlarda ishlangan pichoqali jumxuriyatimizning turli muzeylarida doimiy ekspozitsiyaga aylanib kolgan. Ular pichoqlarning tig‘i yuzining nozik islimiy naqshlar bilan bezatilganligini, "qinbog‘i" ning metalldan yasalib badiiy naqshlar bilan bezatilganligini ko‘rish mumkin. O‘zbek milliy kashtachiligi (kashtado‘zlik) amaliy san’atining eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan.

XULOSA: O‘zbek xalq ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpich, so`zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, Amerika, Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy, shuningdek, malakatimizning Farg‘ona vodiysida faqat xonadonlarda, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O‘zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda barcha kasb-hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. XIV- XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod "Zafarnoma" ga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

Qadimiy an’analarga ko‘ra, o‘zbek qizlari - bo‘lajak kelinchaklar seplari - har xil kashtachilik buyumlarini o‘zlari tayyorlashlari lozim edi**.** Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo`lsa, qayliq shunchalik yuqori baxolanar edi. Qizlar 7-9 yoshlaridan boshlab kashta tikishga o‘rgatilardi. Ular uch, to‘rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlardilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o‘zining san’ati va tabiatiga ko‘ra go‘zallik haqidagi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Do‘ppi O‘zbekistonda keng tarqalgan bosh kiyim. Do‘ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o‘rtasida, Rossiyada esa XIII-asrda rusm bo`lgar. Asrlar davomida do‘ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirga shoyiga ip, ipak va zar bilan do‘ppi gullari tikilgan. O‘zbekistonda Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shaxrisabz do‘ppilari mashxur bo‘lib, ular o‘ziga xosdir. Palak devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridanbiri. Palakda osmon va to‘lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki mala bo‘zga kashta tikib tayyorlangan. So‘zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o‘rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o‘simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko‘pincha bodom, qalampir elementlari qo‘llaniladi. Palakda qirqtacha oyni tasvirlash ham mumkin, shuning uchun oyning soniga karab olti oylik palak, hattoki katta uylar uchun qirq oylik palak tikilgani bizga ma’lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan.

Mashhur kashtado‘zlar ba’zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o‘z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyni ichi sidirg`i rangda ifodalangan bo`lsa, uni oypalak, agar naqshli bo‘lsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. So‘zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo‘lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo‘yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi.

Palak naqsh turi bo‘lgan islomiy juda ko‘p ishlatilgan. Klassik an’anaviy "islimiy" naqshlarning islimi bargak, islimi gulzor, islimi madoxil, islimi qo‘shbarg, islimi qo`shband va boshqa turlari bor. Farg‘ona vodiysi klassik naqshlarining o‘ziga xosligi shundaki, unda gul, barg, tanob, bandni uyg‘unlashib bir butun ajoyib san’at asarini yaratadi. Kompozitsion tomondan qaraganda naqshlar keng va tik, tor, yonga ketgan xoshiyali yo‘llardan iborat bo`ladi. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati ham san’at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek asrab avaylab kelingan xalq amaliy bezak san’ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu amaliy san’at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ REFERENCES

1. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. European science, (3 (59)), 53-56.

2. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. European science, (2 (58)), 38-40.

3. Азимова, М. Б., & Ибадуллаева, Ш. И. (2017). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлариинтерьер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида). Евразийский научный журнал, (2), 379-383.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

4. Ибадуллаева, Ш. И., & Амонова, Р. Ж. К. (2022). Коммуникативные Основы Художественной Культуры. Miasto Przyszłości, 28, 169-173.
5. Азимова Мухайё, Жумаев Корёгди «ТРАДИЦИОННАЯ ВЫШИВКА БУХАРЫ» XIX в начало-XX веков МОНОГРАФИЯ

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

BUXORO ME'MORIY OBIDALARINI BADIIY BEZASHDA AMALIY SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI (XVIII-XX asrlar)

Bakayev Shodijon Shokirovich, Buxoro davlat universiteti, dotsent, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: san'at juda qadim zamonlardan boshlab mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida shakillangan. Yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyati jarayonida insonning tafakkuri kamol topadi, go'zallikni his etish ortib boradi. Amaliy bezak san'ati me'morchilik va hunarmandchilik bilan uyg'un tarzda rivojlangan, ijtimoiy taraqqiyotdagi katta o'zgarishlar san'atning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab bergan. San'at tarixiy jarayonlarda ma'lum vaqt g'oyaviy qurol sifatida hukmron tabaqalarning targ'ib etuvchi o'ziga xos kuchiga aylangan, lekin shunga qaramay u hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topishiga xizmat qilgan.

MAQSAD: markaziy Osiyoda Buxoro me'morligi merosi va uning amaliy bezak san'ati o'zining alohida o'rniga egaligi va qadimiy boy madaniyati hamda rang-barangligi bilan mashhur. Ushbu yodgorliklarni va milliy hunarmandchilik namunalarini asrab-avaylash doimo dolzarb masala bo'lib qoladi. Me'moriy obidalarga ikkinchi hayot baxsh etishda xalqimizning qo'li gul usta-me'morlari Sh.Murodov, A.Boltayev, A.Baqoyev, T.Arslonqulov, A.Hayotov, Sh.G'afurov, Q.Jalilov, B.Jo'rayev, U.Ikromov, M.Usmonov, A.Haqqulov va O.Yoqubovlar xizmati beqiyosdir. Ta'mirlash-restavratsiya san'ati binoni qurishdan o'n chandon mashaqqatli va og'ir yumushdir, chunki restavratsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad me'moriy obidalardagi san'at asarlarining asliyatini to'laligicha saqlab qolishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy manbaalaragi mulohazalar tahlili; muayyan vaqtda barpo etilgan me'moriy inshootlarning tashqi ko'rinishi, shakl-shamoyili, qurilishi, tuzilishi, bezatilishiga qarab o'sha hududning qurilish ishlari amalga oshirilgan davrdagi tarixining ko'p jihatini o'rganish mumkin. Masalan, bino sifatli materiallardan mustahkam qurilgan, o'ziga xos me'moriy yechimga ega, chiroyli va hashamdor bezatilgan bo'lsa, bu o'sha davrda iqtisodiy rivojlanish bo'lganini anglatadi. Aksincha, inshoot arzon materiallardan tiklanib, yuzaki bezatilgan yoki umuman bezalmagan bo'lsa, bu o'sha davrning iqtisodiy ahvoli nochor bo'lganini anglatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: XIX asr boshlaridan Buxoro me'morchiligida kuzatilgan ma'lum bir ijobiy siljishlar, albatta mamlakat hukmdorining e'tibori samarasi edi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, Mang'itlar hukmronligi davrida mavjud saroy va davlat mulki obidalarini saqlash uchun alohida mas'ul mulozimlar tayinlanib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan. Davlat imoratlari xazinadan, diniy inshootlar esa vaqf mulklari hisobidan ta'mirlangan. Yirik mulkdorlar va zodagonlar tomonidan ham masjid va madrasalar barpo etilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'sha davrda O'rta Osiyodagi uchala xonlikda ham qurilish-bunyodkorlik ishlari bir tekis kechmagan. Buxorodan farqli o'laroq, Xiva

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

xonligidagi yodgorliklar asosan XVII-XIX asrlarda barpo etilgan bo‘lib, boshqa xonliklar me’morchiligidan ancha farq qilgan. Ayniqsa XIX asrda Xivada ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi shaharsozlik ko‘lami va badiiy qiymatidan nisbatan yaxshi bo‘lgan.

XULOSA: o‘rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Buxoro me’morchiligida masjid va madrasalardan tashqari maqbaralar ham alohida o‘rin tutadi. Maqbara ulug‘ avliyolar, ulamolar, islom dini peshvolari, xon va amaldorlar, afsonaviy shaxslarning qabri ustiga tiklangan me’moriy inshootdir. Islom dini paydo bo‘lgan dastlabki davrda qabr ustiga turli binolar qurish taqiqlangan, keyinchalik esa ular qurilishiga ruxsat berilib, bu joylar muqaddas ziyoratgohlarga aylantirilib, aksariyat xollarda masjidlar tarkibiga kirgan.

KALIT SO‘ZLAR: buxoro me’morchiligi, Mang‘itlar, Sitorai Mohi Xossa, Muzaffarxon, Abdulahadxon Amir Olimxon.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОФОРМЛЕНИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ БУХАРЫ (XVIII–XX вв.)

Бакаев Шодижон Шокирович, Бухарский государственный университет, доцент
Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: искусство сформировалось с древнейших времён в результате развития трудовой деятельности человека. В процессе созидательной и творческой деятельности совершенствовалось мышление человека, усиливалось чувство прекрасного. Прикладное декоративное искусство развивалось в тесной взаимосвязи с архитектурой и ремесленничеством, а значительные изменения в общественном развитии определяли место искусства в жизни общества. В исторические периоды искусство нередко выступало как идеологическое средство в руках господствующих слоёв, однако, несмотря на это, оно изображало красоту жизни и способствовало формированию у людей высоких нравственных качеств и добродетелей.

ЦЕЛЬ: архитектурное наследие Бухары в Центральной Азии и её прикладное декоративное искусство занимают особое место, славясь древней богатой культурой и многообразием. Сохранение этих памятников и образцов национального ремесленничества всегда остаётся актуальной задачей. Неоценимый вклад в придание архитектурным памятникам «второй жизни» внесли народные мастера-архитекторы: Ш. Муродов, А. Болтаев, А. Бакаев, Т. Арслонкулов, А. Хайотов, Ш. Гафуров, К. Жалилов, Б. Жураев, У. Икромов, М. Усмонов, А. Хаккулов и О. Якубов. Искусство реставрации и ремонта во много раз сложнее и труднее самого строительства здания, поскольку главная цель реставрации — максимально сохранить подлинность произведений искусства, представленных в архитектурных памятниках.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ научных источников; изучение внешнего облика, формы, конструкции, структуры и художественного оформления

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

архитектурных сооружений, возведённых в определённый период, позволяет выявить многие аспекты истории времени, в которое велось строительство. Например, если здание построено из качественных материалов, отличается прочностью, оригинальным архитектурным решением, красивым и роскошным убранством, это свидетельствует о высоком уровне экономического развития того периода. И наоборот, если сооружение возведено из дешёвых материалов, украшено поверхностно или вовсе не имеет декоративного оформления, это указывает на тяжёлое экономическое положение того времени.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: положительные сдвиги, наблюдавшиеся в архитектуре Бухары с начала XIX века, во многом были результатом внимания правителей страны. В период правления династии Мангытская династия для сохранения дворцов и государственных объектов назначались специальные должностные лица, деятельность которых строго регламентировалась. Государственные здания ремонтировались за счёт казны, а религиозные сооружения — за счёт вакуфного имущества. Крупные землевладельцы и представители знати также строили мечети и медресе.

Следует отметить, что в трёх ханствах Средней Азии строительные и созидательные работы осуществлялись неравномерно. В отличие от Бухары, памятники Хивинское ханство в основном были возведены в XVII–XIX веках и значительно отличались от архитектуры других ханств. Особенно в XIX веке в Хиве были реализованы масштабные строительные проекты, которые по размаху градостроительства и художественной ценности в ряде случаев превосходили достижения Бухарского и Кокандского ханств.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: по сравнению с другими регионами Средней Азии, в архитектуре Бухары, помимо мечетей и медресе, особое место занимают мавзолеи. Мавзолей — это архитектурное сооружение, возведённое над могилой великих святых, учёных, религиозных деятелей, ханов и сановников, а также легендарных личностей. В ранний период становления ислама строительство зданий над могилами было запрещено, однако позднее оно было разрешено. Такие сооружения становились священными местами паломничества и зачастую входили в состав мечетных комплексов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: бухарская архитектура, Мангытская династия, Ситораи Мохи-Хоса, Музаффархан, Абдулахад-хан, Амир Олимхон.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF APPLIED ART IN THE ARTISTIC DECORATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF BUKHARA (18th–20th Centuries)

Bakayev Shodijon Shokirovich, Associate Professor, Bukhara State University
Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: art emerged in ancient times as a result of the development of human labor activity. In the process of creative and constructive work, human thinking

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

improved and the sense of beauty increased. Applied decorative art developed in close harmony with architecture and craftsmanship, while major changes in social development determined the role of art in society. In certain historical periods, art functioned as an ideological tool in the hands of the ruling classes; nevertheless, it depicted the beauty of life and contributed to the formation of noble qualities and virtues in people.

AIM: the architectural heritage of Bukhara in Central Asia and its applied decorative art occupy a special place, renowned for their ancient, rich culture and diversity. Preserving these monuments and examples of national craftsmanship remains an актуal and pressing issue. An invaluable contribution to giving a "second life" to architectural monuments was made by народные мастера-архитекторы such as Sh. Murodov, A. Boltayev, A. Baqoyev, T. Arslonqulov, A. Hayotov, Sh. G'afurov, Q. Jalilov, B. Jo'rayev, U. Ikromov, M. Usmonov, A. Haqqulov, and O. Yoqubov. The art of restoration is many times more complex and demanding than constructing a new building, since its main goal is to preserve the authenticity of the artistic works embodied in architectural monuments.

MATERIALS AND METHODS: analysis of scientific sources; examination of the external appearance, form, construction, structure, and decorative design of architectural structures built in a certain period allows researchers to study many aspects of the historical era in which construction was carried out. For example, if a building is constructed from high-quality materials, is structurally strong, has a distinctive architectural solution, and is beautifully and richly decorated, this indicates a period of economic prosperity. Conversely, if a structure is built from inexpensive materials and decorated superficially or not at all, it reflects economic hardship of that time.

RESULTS AND DISCUSSION: the positive developments observed in Bukhara's architecture from the early 19th century were largely the result of the rulers' attention to construction and preservation. During the rule of the Manghit dynasty, special officials were appointed to oversee the maintenance of palaces and state-owned monuments, and their duties were strictly regulated. State buildings were repaired at the expense of the treasury, while religious structures were maintained through waqf (endowment) funds. Wealthy landowners and nobles also sponsored the construction of mosques and madrasahs.

It should be noted that construction and urban development activities in the three Central Asian khanates were not uniform. Unlike Bukhara, the monuments of the Khiva Khanate were mainly built in the 17th–19th centuries and differed significantly from the architecture of other khanates. Particularly in the 19th century, Khiva witnessed large-scale construction projects which, in terms of urban planning and artistic value, were in some respects superior to those of Bukhara and Kokand.

CONCLUSION: compared to other regions of Central Asia, Bukhara's architecture gives special prominence to mausoleums in addition to mosques and madrasahs. A mausoleum is an architectural structure erected over the grave of prominent saints, scholars, religious leaders, khans, officials, or legendary figures. In the early period of Islam, constructing buildings over graves was prohibited; later, however, it

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

was permitted. Such structures became sacred pilgrimage sites and were often incorporated into mosque complexes.

KEYWORDS: bukhara architecture, Manghit dynasty, Sitorai Mohi Xosa, Muzaffar Khan, Abdulahad Khan, Amir Alim Khan.

San'at juda qadim zamonlardan boshlab mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida shakillangan. Yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyati jarayonida insonning tafakkuri kamol topadi, go'zallikni his etish ortib boradi. Amaliy bezak san'ati me'morchilik va hunarmandchilik bilan uyg'un tarzda rivojlangan, ijtimoiy taraqqiyotdagi katta o'zgarishlar san'atning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab bergan. San'at tarixiy jarayonlarda ma'lum vaqt g'oyaviy qurol sifatida hukmron tabaqalarning targ'ib etuvchi o'ziga xos kuchiga aylangan, lekin shunga qaramay u hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topishiga xizmat qilgan.Markaziy Osiyoda Buxoro me'morligi merosi va uning amaliy bezak san'ati o'zining alohida o'rniga egaligi va qadimiy boy madaniyati hamda rang-barangligi bilan mashhur. Ushbu yodgorliklarni va milliy hunarmandchilik namunalarini asrab-avaylash doimo dolzarb masala bo'lib qoladi. Me'moriy obidalarga ikkinchi hayot baxsh etishda xalqimizning qo'li gul usta-me'morlari Sh.Murodov, A.Boltayev, A.Baqoyev, T.Arslonqulov, A.Hayotov, Sh.G'afurov, Q.Jalilov, B.Jo'rayev, U.Ikromov, M.Usmonov, A.Haqqulov va O.Yoqubovlar xizmati beqiyosdir. Ta'mirlash-restavratsiya san'ati binoni qurishdan o'n chandon mashaqqatli va og'ir yumushdir, chunki restavratsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad me'moriy obidalardagi san'at asarlarining asliyatini to'laligicha saqlab qolishdir.

Ilmiy manbaalaragi mulohazalar tahlili: muayyan vaqtda barpo etilgan me'moriy inshootlarning tashqi ko'rinishi, shakl-shamoyili, qurilishi, tuzilishi, bezatilishiga qarab o'sha hududning qurilish ishlari amalga oshirilgan davrdagi tarixining ko'p jihatini o'rganish mumkin. Masalan, bino sifatli materiallardan mustahkam qurilgan, o'ziga xos me'moriy yechimga ega, chiroyli va hashamdor bezatilgan bo'lsa, bu o'sha davrda iqtisodiy rivojlanish bo'lganini anglatadi. Aksincha, inshoot arzon materiallardan tiklanib, yuzaki bezatilgan yoki umuman bezalmagan bo'lsa, bu o'sha davrning iqtisodiy ahvoli nochor bo'lganini anglatadi.

XVIII asr ko'plab feodal urushlar va tarqoqliklar ham ichki ham tashqi hujumlar (Buxoroning Eron qaramiga aylanishi), qolaversa Ashtarxoniylar sulolasi taxtdan qulatilib, hokimiyat tepasiga Mang'itlar sulolasining kelishi kabi siyosiy voqealar, qurilish va amaliy bezak sohasiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan. Shu sabab, nafaqat saroylar hamda ulkan madrasa va masjidlar, balki boshqa yirik qurilish-bunyodkorlik ishlari ham deyarli to'xtab qolgan.

Hokimiyatni egallagan yangi sulolaning dastlabki vakillari markazlashgan davlat barpo etmasidan yirik qurilish ishlarini amalga oshira olmaganlar. XVIII asr oxiriga kelib, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot yana bir oz jonlangach, me'morchilik va amaliy san'atda

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ham sezilarli ijobiy siljish kuzatilgan. Mang‘itlar hukmronligidan qariyb yarim asr o‘tgach, Buxoro XIX asr boshlaridagina o‘zining avvalgi mavqei - yirik savdo va madaniy markazi ekanligini qayta isbotladi. Ammo, shunga qaramasdan bu davrda olib borilgan bunyodkorlik o‘zining mahobati bilan XVI-XVII asrlarda barpo etilgan inshootlardan hajmining chegaralangani bilan farq qiladi. Yirik buyurtmalar yo‘qligi xalq ustalari faoliyatini mahalla masjidlari va badavlat kishilarning uy-joyi qurilishi bilan cheklagan. Binolar qurilishida xalq ongiga singib qolgan qonun-qoidalar ustalar ijodini chegaralab, me’morlik sohasida ma’lum bir turg‘unlik paydo bo‘lish xavfini oshirgan. Shu sabab, ustalar o‘z ijodlarida ma’lum darajaga yetganligi tufayli xalq ijodining sarchashmasi bo‘lgan hunarmandchilikka murojaat qilishdi va bor e’tiborini badiiy bezash san’atiga qaratishgan.

XIX asr boshlaridan Buxoro me’morchiligida kuzatilgan ma’lum bir ijobiy siljishlar, albatta mamlakat hukmdorining e’tibori samarasi edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, Mang‘itlar hukmronligi davrida mavjud saroy va davlat mulki obidalarini saqlash uchun alohida mas’ul mulozimlar tayinlanib, ularning faoliyati qat’iy belgilangan. Davlat imoratlari xazinadan, diniy inshootlar esa vaqf mulklari hisobidan ta’mirlangan. Yirik mulkdorlar va zodagonlar tomonidan ham masjid va madrasalar barpo etilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘sha davrda O‘rta Osiyodagi uchala xonlikda ham qurilish-bunyodkorlik ishlari bir tekis kechmagan. Buxorodan farqli o‘laroq, Xiva xonligidagi yodgorliklar asosan XVII-XIX asrlarda barpo etilgan bo‘lib, boshqa xonliklar me’morchiligidan ancha farq qilgan. Ayniqsa XIX asrda Xivada ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi shaharsozlik ko‘lami va badiiy qiymatidan nisbatan yaxshi bo‘lgan. Shunga qaramasdan, Mang‘itlar sulolasi davrida ham Buxoro me’morchiligi o‘ziga xos maktab va mahoratli ustalar mehnati evaziga betakror tarixiy-madaniy obidalar yaratilishiga sababchi bo‘lgan.

O‘sha kezlarda O‘rta Osiyoda mavjud uchala bir-biridan mustaqil davlatlar me’morchiligi haqida so‘z borar ekan, ularda barpo etilayotgan binolarning nima maqsadda qurilgani va foydalanilayotgani ushbu inshootlarni saqlanib qolishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, shaxsning qanchalik badavlat bo‘lishiga qaramasdan aholi turar joylari va jamoat binolari davlat va diniy imoratlarga qaraganda ko‘p saqlanmagan. Aholi turar joylari va jamoat binolari asosan hashar yo‘li bilan jamoatchilik ishtirokida qurilgan bo‘lib, aksariyat xollarda arzon materiallardan foydalanilgan.

Davlat va diniy inshootlar ma’lum siyosiy maqsadlarni ko‘zlab mahobatli, ulug‘vor va baland qilib qurilib, jamoat va turar joylarga nisbatan ko‘rkam, chiroyli qilib bezatilgan. Davlat binolarini qurish va bezashda xorijlik elchilar va sayyohlarni hayratga solish, hukmdorning ulug‘vorligini ta’kidlash va qudratini ko‘rsatish hamda nomini abadiylashtirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsa, diniy inshootlar o‘zining mahobatli ko‘rinishi, ulug‘vorligi va nafis bezalishi bilan dinga ishonchni kuchaytirishi lozim bo‘lgan.

Ushbu tarixiy voqealar tufayli, o‘rta asrlarda Buxoro shahrida bir qancha me’moriy obidalar bunyod etilib, betakror xalq amaliy san’ati namunalarining to‘plandi. Asrlar davomida shakllangan an’analar va tajribalar me’morchilik bilan amaliy san’atning o‘zaro uzviyligi ta’minlanib, ikki yo‘nalish bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan yaxlit tizimga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

aylandi. Xususan, amaliy san'atda qo'llanadigan devor va peshtoqlarning koshin bilan qoplanishi hamda binoning ichki qismini bezashda ganchkorlikdan foydalanish faqat me'morchilikka xosdir. Bundan tashqari, pishgan g'ishtni turli shakllarda terish orqali o'ziga xos bezaklar hosil qilingan. Masjid va maqbaralar gumbaz shaklida yopilib, uning ichki va tashqi qismlari naqshinkor yoki rang-barang koshinlar bilan qoplangan.

Tadqiq qilinayotgan Mang'itlar sulolasi davri amaliy san'atining me'morchilik bilan o'zaro bog'liqligini badiiy uyg'unlik kesimida aks ettirish uchun yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik va ganchkorlik alohida ko'rib chiqildi. Ushbu davrlarda Buxoroda ham O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar singari me'morchilikda amaliy san'at eng ko'p qo'llangan inshootlar asosan hukmdorlar saroylari, madrasa va masjidlar bo'lib qolgan. Ammo, badavlat kishilar tomonidan qurilgan ba'zi turar-joy binolari ham alohida e'tiborga molik bo'lib (Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi), ushbu xonadonlar bezatilishi Buxoro amirligining so'nggi davrlarida an'anaviy amaliy san'ati qanchalik taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Munozara. Buxoro me'morchiligida saroylar amaliy san'at qo'llanilishi jihatdan alohida ahamiyatga ega. Saroylar xar bir mamlakatning ma'lum darajadagi timsoli bo'lib, ularning vujudga kelishi ilk davlatchilik bilan bog'liqdir. Buxoro arxeologik tadqiqotlar asosida Konimex tumanida miloddan avvalgi VI-V asrlarga doir yodgorliklar (Chordara shahar xarobasi, Qumrabod - I, Qumrabod -II, Arabon -I, Arabon - II nomli mustahkamlangan qishloqlar, miloddan avvalgi VI asrga oid Shodibek va Qalqonota qo'rg'onlari) topib o'rganilgan. Ulardan topilgan hunarmandchilik va me'morchilikka doir ko'plab ashyoviy dalillar qadimda saroylar qanday bo'lganini aniqlash imkonini beradi.

Saroy tuzilishi jihatdan juda murakkab inshootdir. Ular ayrim jihatdan bir-biriga o'xshasa-da, aslida bir-biridan butunlay farq qiladi. Buxoroda hukmdorlari saroyi Ark qo'rg'onida joylashgan bo'lib, u bir necha asr hukmdorlarning davlatni boshqarishdagi asosiy markazi bo'lib kelgan. Afsuski, 1920 yilda M.V.Frunze boshchiligidagi qizil askarlar tomonidan amirlik zabt etilishi jarayonida qariyb 80 foizi aeroplanlar orqali shafqatsizlarcha bombardimon qilinishi va to'plardan o'qqa tutilishi natijasida tiklab bo'lmas darajada vayron qilingan. Hozirda uning atigi 20 foizini tashkil qiluvchi shimoli-g'arbiy qismidagi bino-inshootlar saqlanib qolgan bo'lib, ular Ark davlat muzey qo'riqxonasini tarkibiga kiradi.

Sitorai Mohi Xossa Buxoro amirlarining yozgi qarorgohi bo'lib, dam olish joyi sifatida qurilgan. Ushbu qarorgoh-saroyning asosiy qurilish-bunyodkorlik ishlari XIX asrning oxirida amir Abdulahadxon tomonidan boshlanib, oxirgi amir Olimxon tomonidan yakunlangan. Yozgi qarorgoh milliy va g'arb me'morchiligi uslublaridan foydalangan holda barpo etilgan. Eski saroy uch hovli va ko'pgina xonalardan iborat ansambldir. Keng va baland zalli Muzaffarxon mehmonxonasi hamda uning ikki tomonidagi boloxonali ayvonlar devoriy bezaklari va ranglarida motivlar uyg'unlashtirilgan.

Muzaffarxon va Abdulahadxon zallari badiiy bezaklarida o'xshashlik tomonlari mavjud. Amir Olimxon hukmronligi davrida sharq tomonda qurilgan bosh qarorgoh alohida me'moriy ahamiyatga ega. Koshin va rangli shisha bilan bezatilgan ushbu binoga tantanavor peshtoq – muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Ba'zi binolar tashqi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

ko‘rinishi yevropacha uslubda qurilganiga qaramasdan, interyeri milliy uslub keng qo‘llanilgan xolda bezatilgan.

Sharq Islom olamining o‘rta asrlardagi eng katta, eng hashamdor va eng go‘zal inshootlari masjid va madrasalardir. Islom dini vujudga kelishi bilanoq masjidlar qurila boshlagan. Lekin, madrasalar qachon qurila boshlanganini aniq aytish qiyin. Ayrim olimlar dastlabki madrasa Buxoroda X asrda qurilganligini ta’kidlaydilar.

Xulosa. Olib borilgan o’rganishlardan bilishimiz mumkinki, Buxoro o‘zining ko‘plab madrasalari bilan o‘rta asrlardan buyon ma’lum va mashhur bo‘lib kelgan. Shu sababli ham Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlar va olimlar shahar to‘g‘risida gap ketganida avvalo uning shu jihatini ta’riflaganlar. Xususan, XVII asr tarixchi, geograf olim va sayyohi Mahmud ibn Vali Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmati va o‘rnini quyidagicha baholaydi: «Olimlarning ko‘pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar». 1820 yilda Rossiya elchilari tarkibida Buxoroga safar qilgan rus harbiy topografi, naturalist-olim Ye.K.Meyendorf esa Buxoroning Markaziy Osiyoda tutgan o‘rnini alohida ta’kidlab quyidagicha ta’riflaydi: “O‘zining ko‘plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol, shuning uchun u «sharif» nomiga sazovor bo‘lgandir”. Umuman, Buxoroni ta’riflar ekan, Ye.K.Meyendorf “Shahar ichra bo‘y cho‘zib turgan gumbazlar, masjidlar, baland peshtoqlar, madrasalar, minoralar, saroylar, ularning tishli devorlari, devor atrofidagi ko‘l hamda tekis tom va bejirim hovlili, paxsa bilan o‘ralgan uylar va nihoyat, poytaxt tevaragida yastangan dalalar, bog‘lar, daraxtlar va betinim harakat – bularning barchasi juda yoqimli taassurot qoldiradi”, - deya yozib qoldirgan. J.Kunits ham Buxoroni “arab-eron madaniyatining qal’asi”, Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi “Islomning yuragi”, 250 masjid va 150 madrasalar markazi bo‘libgina qolmay, yer yuzida muqaddas sanalgan shaharlarning “hukmdori” deya atagan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Buxoroda me’morchilik maktabining o‘zining xos jihatlaridan biri – bu bir o‘q bo‘yicha ro‘para turuvchi ikki inshoot yaratish usulidir. Ushbu usulda Buxorodagi Qo‘shmadrasa hamda Ulug‘bek va Abdullaxon madrasalari yaqqol namunadir. Amir Shohmurod davridan boshlab madrasalar oliy, o‘rta va quyi toifalarga bo‘lingan. O‘rta Osiy jadidchiligining yorqin nomoyondasi – taniqli o‘zbek-sovet tarixchi va adabiyotshunos olimi, ilk o‘zbek professori Abdurauf Fitrat amirlikning so‘nggi yillarida Buxoroda oliy toifadagi 33 ta, o‘rta toifadagi 39 ta va quyi toifaga mansub yuzdan ortiq madrasalar bo‘lgani va ularda o‘n mingdan ziyod talabalar tahsil olgan haqida ta’kidlagan. Shu bilan birga, 29 ta madrasa binosida bir vaqtning o‘zida masjidlar ham mavjud bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Buxoro me’morchiligida masjid va madrasalardan tashqari maqbaralar ham alohida o‘rin tutadi. Maqbara ulug‘ avliyolar, ulamolar, islom dini peshvolari, xon va amaldorlar, afsonaviy shaxslarning qabri ustiga tiklangan me’moriy inshootdir. Islom dini paydo bo‘lgan dastlabki davrda qabr ustiga turli binolar qurish taqiqlangan, keyinchalik esa ular qurilishiga ruxsat berilib, bu joylar muqaddas ziyoratgohlarga aylantirilib, aksariyat xollarda masjidlar tarkibiga kirgan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

XX asr boshlarida Buxoro hududida 232 ta masjid va xonaqoh joylashgan bo‘lib, hozirga qadar ularning 65 tasi saqlanib qolgan. Madrasalar binosi - 34 ta. Shulardan 2 tasi XV asrda, 5 tasi XVI asrda, 3 tasi XVII da, 6 tasi XVIII asrda. 11 tasi XIX asrda, 7 tasi XX asr boshlarida barpo etilgan. Me’moriy obidalar davriy oralig‘i IX-X asrlardan boshlanib, to XX asrning boshlarini ham qamrab olgan. Buxoro viloyatida bugungi kunda 997 ta me’moriy va arxeologik yodgorlik mavjud bo‘lib, ularning 660 tasi madaniy meros obyekti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Рempель Л.И. Панджара. -Т.: Государственный издательство художественной литературы, 1957.
2. Бўронов Б.О. XIX асрнинг охири - XX асрнинг бошларида Бухоро тураржой меъморлигида нақш санъати: Санъатшунослик фанлари номзоди дисс. ... – Тошкент, 2007. – Б. 24
3. Раҳматуллаев Ю. Ўзбекистон меъморчилик обидалари Давлат мухофазасида.–Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б.5
4. Вахитов М.М., Мирзаев Ш.Р. Меъморчилик (I-қисм. Меъморчилик тарихи) – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б.149
5. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан. - Тошкент: Ҳилол нашр, 2016. – Б. 13-14.
6. Me’moriy obidalarni badiiy bezashda kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari Bosma JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS) Volume: 01 Issue: 05 2021
7. Bakayev Sh.Sh.Me'moriy obidalarni badiiy bezashda naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari JOURNAL OF ADVANCED
8. RESEARCH AND STABILITY (JARS) Volume: 01 Issue: 05 2021
9. Jakhongir Batirov, Nigora Ibatova, Sherali Avezov, Shodijon Bakaev, Shukhrat Ramazonov CONTENT OF INNOVATION AND INNOVATIVE ACTIVITY OF THE TEACHER International Journal of psychosocial Rehabilitation
10. Bakayev Sh.Sh.Amaliy bezak san`ati. Buxoro. Durdona 2021y

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

AMALIY SAN'AT SOHASIDAGI TA'LIMNING METODOLOGIK VA NAZARIY JIHATLARI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR MISOLIDA

Nuridinova Guzal Akmalovna, Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktab o'qituvchisi**,** Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: amaliy san'at insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, u milliy qadriyatlar, estetik tafakkur va badiiy didni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston hududida amaliy san'atning ko'plab turlari – naqqoshlik, kulolchilik, zardo'zlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi kabi yo'nalishlar asrlar davomida rivojlanib kelgan. Bu borada Kamoliddin Behzod nomi bilan ataluvchi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimida faoliyat yuritayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar muhim ilmiy-metodik baza vazifasini bajaradi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda amaliy san'at ta'limi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, milliy an'analarni davom ettirish hamda zamonaviy dizayn tafakkurini shakllantirishga qaratilgan. Shu bois mazkur sohadagi ta'limning metodologik va nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning maqsadi – ixtisoslashtirilgan maktablar misolida amaliy san'at ta'limining metodologik asoslari, nazariy tamoyillari va pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini aniqlashdan iborat. Vazifalar: amaliy san'at ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash; metodologik yondashuvlarni (kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ yondashuv) tahlil qilish; ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv jarayonining o'ziga xos jihatlarini o'rganish; amaliy natijalar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi – pedagogika, san'atshunoslik va estetikaga oid ilmiy manbalarni o'rganish; Kuzatish metodi – ixtisoslashtirilgan maktablarda dars jarayonlarini tahlil qilish; Taqqoslash metodi – an'anaviy va zamonaviy o'qitish usullarini qiyoslash; So'rovnoma va suhbat – o'quvchi va o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish; Amaliy-tajriba sinovi – innovatsion metodlarni qo'llash orqali natijadorlikni aniqlash. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv, madaniy merosga tayangan holda integratsiyalashgan ta'lim modeli hamda kreativ pedagogika tamoyillari olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ixtisoslashtirilgan maktablarda amaliy san'at ta'limi quyidagi nazariy tamoyillarga asoslanadi:

1. Milliylik va an'anaviylik tamoyili – o'quvchilarga milliy naqsh va uslublarni o'rgatish orqali madaniy identifikatsiyani mustahkamlash.
2. Ijodkorlik va innovatsionlik tamoyili – an'anaviy shakllarni zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirish.
3. Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili – nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlash.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

4. Kompetensiyaviy yondashuv – o‘quvchilarda kasbiy, kommunikativ va estetik kompetensiyalarni shakllantirish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar (loyiha asosida o‘qitish, ustoz-shogird an’anasi, portfoliolar bilan ishlash) qo‘llanilganda o‘quvchilarning ijodiy faolligi 20–25 % ga oshgan. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar ulushining ko‘pligi o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalarni tezroq shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi: o‘quv dasturlarining zamonaviy dizayn talablari bilan to‘liq integratsiyalanmaganligi; moddiy-texnik bazaning ayrim hududlarda yetarli emasligi; pedagoglarning malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarurati.

XULOSA: ixtisoslashtirilgan maktablarda amaliy san’at ta’limi milliy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodologik jihatdan kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar samarali natija bermoqda. Kelgusida o‘quv dasturlarini zamonaviy dizayn va raqamli texnologiyalar bilan boyitish, ustoz-shogird tizimini yanada rivojlantirish hamda xalqaro tajribani o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqot natijalari amaliy san’at sohasidagi ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: san’at, ta’lim, metodologik, texnologiya, tasviriy san’at, amaliy san’at, ijodiy hamkorlik, badiiy kashtachilik, badiiy kulolchilik.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ В ОБЛАСТИ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА НА ПРИМЕРЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ

Нуридинова Гузаль Акмаловна, Преподаватель Республиканской специализированной школы дизайна, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: прикладное искусство является неотъемлемой частью культурного наследия человечества и играет важную роль в формировании национальных ценностей, эстетического мышления и художественного вкуса. На территории Узбекистана на протяжении веков развиваются различные виды прикладного искусства — роспись, керамика, золотошвейное искусство, вышивка, резьба по дереву и другие направления. В этом контексте важную научно-методическую базу формируют специализированные школы, действующие в системе Академия художеств Узбекистана, а также Национальный институт живописи и дизайна имени Камолиддина Бехзода, названный в честь Камолиддин Бехзод. В специализированных школах обучение прикладному искусству направлено на развитие творческих способностей учащихся, сохранение национальных традиций и формирование современного дизайнерского мышления. В связи с этим научный анализ методологических и теоретических основ данного направления образования приобретает особую актуальность.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является анализ методологических основ, теоретических принципов и педагогических механизмов обучения

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

прикладному искусству на примере специализированных школ, а также определение их эффективности. Задачи исследования: определить научно-теоретические основы образования в области прикладного искусства; проанализировать методологические подходы (компетентностный, личностно-ориентированный, интегративный); изучить особенности организации учебного процесса в специализированных школах; разработать выводы и практические рекомендации на основе полученных результатов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы: Метод теоретического анализа — изучение научных источников по педагогике, искусствоведению и эстетике; Метод наблюдения — анализ учебного процесса в специализированных школах; Метод сравнительного анализа — сопоставление традиционных и современных методов обучения; Анкетирование и беседы — изучение мнений учащихся и преподавателей; Экспериментальный метод — определение эффективности внедрения инновационных технологий обучения. Методологической основой исследования послужили компетентностный подход, интегрированная модель образования, основанная на культурном наследии, а также принципы креативной педагогики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что обучение прикладному искусству в специализированных школах основывается на следующих теоретических принципах:

1. Принцип национальной традиционности — формирование культурной идентичности через изучение национальных орнаментов и художественных стилей.
2. Принцип творческого и инновационного развития — сочетание традиционных форм с современными требованиями дизайна.
3. Принцип практической направленности — закрепление теоретических знаний через практическую деятельность.
4. Компетентностный подход — формирование профессиональных, коммуникативных и эстетических компетенций учащихся.

Результаты показали, что применение интерактивных методов (проектное обучение, традиция «мастер–ученик», работа с портфолио) способствует повышению творческой активности учащихся на 20–25 %. Кроме того, увеличение доли практических занятий способствует более быстрому формированию профессиональных навыков.В то же время были выявлены некоторые проблемы: недостаточная интеграция учебных программ с современными требованиями дизайна; недостаточная материально-техническая база в отдельных регионах; необходимость совершенствования системы повышения квалификации педагогов.

ВЫВОД: образование в области прикладного искусства в специализированных школах способствует сохранению и развитию национального наследия, а также формированию творческого мышления учащихся. С методологической точки зрения наиболее эффективными являются компетентностный и личностно-ориентированный подходы. В перспективе

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

целесообразно обогащение учебных программ современными дизайнерскими и цифровыми технологиями, развитие системы «мастер–ученик» и изучение международного опыта. Результаты данного исследования могут служить научной основой для совершенствования образовательного процесса и разработки методических рекомендаций в сфере прикладного искусства.

Ключевые слова: искусство, образование, методология, технология, изобразительное искусство, прикладное искусство, творческое сотрудничество, художественная вышивка, художественная керамика

METHODOLOGICAL AND THEORETICAL ASPECTS OF EDUCATION IN THE FIELD OF APPLIED ARTS ON THE EXAMPLE OF SPECIALIZED SCHOOLS

Nuridinova Guzal Akmalovna, Republican specialized design school teacher

Annatation

INTRODUCTION: applied arts constitute an integral part of humanity's cultural heritage and play a significant role in shaping national values, aesthetic thinking, and artistic taste. In Uzbekistan, various forms of applied arts—such as decorative painting, ceramics, gold embroidery, embroidery art, and wood carving—have developed over centuries. In this context, specialized schools operating within the system of the Academy of Arts of Uzbekistan, as well as the National Institute of Fine Art and Design named after Kamoliddin Behzod, named in honor of Kamoliddin Behzod, serve as an important scientific and methodological foundation. In specialized schools, education in applied arts is aimed at developing students' creative abilities, preserving national traditions, and forming modern design thinking. Therefore, a scientific analysis of the methodological and theoretical foundations of this educational field is of particular relevance.

AIM: the purpose of this study is to analyze the methodological foundations, theoretical principles, and pedagogical mechanisms of applied arts education in specialized schools, as well as to determine their effectiveness. The objectives of the research are: to identify the scientific and theoretical foundations of applied arts education; to analyze methodological approaches (competency-based, learner-centered, and integrative approaches); to study the specific features of the educational process in specialized schools; to develop conclusions and practical recommendations based on the obtained results.

MATERIALS AND METHODS: the following research methods were employed in the study: Theoretical analysis method – examination of scientific sources in pedagogy, art studies, and aesthetics; Observation method – analysis of the educational process in specialized schools; Comparative analysis method – comparison of traditional and modern teaching methods; Survey and interview methods – studying the opinions of students and teachers. Experimental method – determining the effectiveness of implementing innovative teaching technologies. The methodological basis of the

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

research includes the competency-based approach, an integrated educational model grounded in cultural heritage, and the principles of creative pedagogy.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that applied arts education in specialized schools is based on the following theoretical principles:

1. Principle of national tradition – strengthening cultural identity through the study of national ornaments and artistic styles.
2. Principle of creativity and innovation – integrating traditional forms with modern design requirements.
3. Principle of practical orientation – reinforcing theoretical knowledge through practical activities.
4. Competency-based approach – developing professional, communicative, and aesthetic competencies in students.

The results show that the use of interactive methods (project-based learning, the “master–apprentice” tradition, and portfolio-based assessment) increases students’ creative activity by 20–25%. In addition, a greater proportion of practical training contributes to faster development of professional skills. At the same time, several challenges were identified: insufficient integration of curricula with modern design requirements; inadequate material and technical resources in certain regions; the need to further improve teachers’ professional development systems.

CONCLUSION: applied arts education in specialized schools contributes to the preservation and development of national heritage while fostering students’ creative thinking. From a methodological perspective, competency-based and learner-centered approaches have proven to be the most effective. In the future, it is advisable to enrich curricula with modern design and digital technologies, further develop the master–apprentice system, and study international best practices. The results of this research can serve as a scientific basis for improving the educational process and developing methodological recommendations in the field of applied arts.

Keywords: art, education, methodological, technology, Fine Arts, Applied Arts, Creative Collaboration, artistic embroidery, artistic pottery.

O‘zbekiston davlat mustaqilligining 34-yilligi davomida madaniyat sohasidagi umumiy o‘zgarishlar fonida uning tarkibiy qismlari, jumladan, tasviriy va amaliy san’at ham sezilarli darajada o‘zgardi. Asrlar davomidagi xalq an’analariga sodiq qolgan holda, bu turlar yangi tendensiya va yo‘nalishlar bilan boyitildi. Davlat tomonidan ko‘rsatilgan qo‘llab-quvvatlash tufayli ushbu sohada yangi rivojlanish ustuvorliklari belgilandi, bu esa ustalar, hunarmandlar o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik chegaralarini kengaytirishga yordam berdi va bugungi kunda O‘zbekistonning amaliy bezak san’ati xalqaro maydonda o‘zini ishonch bilan namoyon etib, yangi cho‘qqilar sari qadam tashlamoqda.

YUNESKO xalqaro tashkiloti amaliy bezak san’ati rivojida ta’lim sohasiga alohida o‘rin ajratadi. Shu munosabat bilan, aynan so‘nggi o‘n yillikda O‘zbekistonda umumiy va

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

kasb-hunar ta'limining milliy ildizlardan ajralib qolishi faol ravishda bartaraf etilayotganini ta'kidlash lozim. Bu, amaliy bezak san'ati mutaxassislarini tayyorlash tizimini ham o‘z ichiga olgan holda, turli sohalarda uzluksiz kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishda namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi bosqichda, mavjud ijtimoiy sharoitlarda, umuman Markaziy Osiyoda va xususan O‘zbekistonda an'anaviy madaniyatning yo‘qolishi jarayoni kuzatilmoqda. Bu xalq san'ati tashuvchilarining tabiiy ravishda olamdan o‘tishi va ikki turdagi madaniyat – professional va an'anaviy madaniyatlarning o‘zaro qarama-qarshiligi bilan bog‘liq[1].

Bugungi kunda zamonaviy ilmiy tadkikotlarda kam material mavjud bo‘lib, xususan, O‘zbekiston amaliy san'at sohasidagi maktab ta'limining yagona, qamrab oluvchi muammosini aks ettiruvchi fundamental tadkikotlar mavjud emas. Istoriografik tahlil umumiy ta'lim bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilganligini, ammo badiiy ta'lim bo‘yicha deyarli tadqiqotlar yo‘qligini tasdiqlaydi. So‘nggi paytlarda K.Akilova [2], G.Babadjanova [3], S.Kurbanov[4], N.Hasanova[5]larning, badiiy ta'limning turli muammolariga oid bir qator nashrlari chop etildi. Ularda bu hodisalarga yangi tarixiy voqeliklar nuqtai nazaridan, san'atga nisbatan yanada obyektiv qarashlar shakllanayotgan zamonamizning ma'naviy ustuvorliklari kontekstida baho beriladi, ammo shunga qaramasdan, bu yerda hali ham avval ko‘rib chiqilmagan yoki zamonaviy nuqtai nazardan obyektiv qayta baholashga muhtoj bo‘lgan dolzarb masalalarning katta qatlami saqlanib qolgan.

O‘zbekistonda amaliy san'at sohasidagi ta'lim madaniy merosni saqlash va zamonaviy amaliy bezak san'atini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Badiiy to‘qimachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik, kashtachilik, zargarlik va charmgarlik kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan amaliy san'at badiiy tasavvur va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligini talab etadi. Zamonaviy madaniyat Toshkentda shakllangan an'anaviy madaniyatni siqib chiqarmoqda va buzmoqda. Muammoning ijtimoiy-tarixiy jihati tahlili shuni ko‘rsatadiki, amaliy bezak san'ati o‘tgan asrlar an'anasi bo‘lib, katta tarbiyaviy va ta'limiy salohiyatga ega, bu esa ta'lim rivojining hozirgi bosqichida to‘liq hisobga olinmayapti, natijada avlodlar o‘rtasidagi aloqaning uzilishiga, yoshlarning intellektual befarqligiga olib kelmoqda.

O‘zbekistonda “ustoz-shogird” an'anaviy shogirdchilik tizimi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Har bir usta, qaysi soha bilan shug‘ullanmasin, mahorat sirlarini o‘z izdoshlariga o‘tkazishga harakat qiladi. O‘z navbatida, o‘rta asrlar aniq yozma manbalarida qoldirgan bo‘lib, ularda “ustoz-shogird” an'anaviy shogirdchilik tizimining asosiy axloqiy va ma'naviy qoidalari aniq bayon etilgan. Bu tizim respublikaning o‘rta va oliy badiiy ta'lim tizimida ham o‘z munosib davomini topmoqda. Shogirdchilik xar bir hudud amaliy bezak san'ati an'analarining uzluksizligini saqlab qolishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekistonda amaliy san'at sohasidagi ta'lim mamlakatning boy madaniy merosini aks ettiruvchi qadimiy tarixiga ega. Badiiy kashtachilik va kulolchilik kabi an'anaviy hunarmandchilik avloddan avlodga o‘tib kelgan. Sovet davrida badiiy bilim yurtlari va institutlarni o‘z ichiga olgan kasb-hunar ta'limi tuzilmasi yaratilgan. Zamonaviy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

ta’lim tizimi esa vaqt talablariga va xalqaro standartlarga moslashib, rivojlanishda davom etmoqda.

Uning yorqin ko‘rinishlaridan biri, barcha boy turlari va janrlarining xilma-xilligi bilan an’anaviy xunarmadchilik bo‘ldi. XX asrda sezilarli darajada zarar ko‘rgan milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va qayta tiklashga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda mustaqillik yillarida ikkinchi hayotini olgan san’at turlari ro‘yxatiga kulolchilik, badiiy kashtachilik, gilamdo‘zlik, zardo‘zlik, zargarlik va badiiy metallga ishlov berish, shuningdek, lokli miniatyura, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, charmga ishlov berish, musiqa asboblarini yaratish va bezash va boshqa ko‘plab turlar o‘z ichiga qamrab oladi.

Davlat tomonidan amaliy san’at sohasida bevosita professional kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida, shuningdek, keng tarqalgan hunarmandchilik ustaxonalarida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ustaxonalarda ham, badiiy ta’lim muassasalarida ham o‘qitish uslubiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri “ustoz-shogird” an’anaviy ta’lim tizimini keng joriy etishdir. Uning negizida o‘sib kelayotgan avlodga tajribani og‘zaki va amaliy tarzda yetkazish yotadi. Bunday keng qamrovli ta’lim va yoshlar orasida milliy amaliy san’atning ommalashuvi tufayli, xizmat ko‘rsatgan ustalar va ularning shogirdlari — badiiy hunarmandchilikning turli maktablari vakillari bugungi kunda nufuzli xalqaro va respublika ko‘rgazmalarining doimiy ishtirokchilari hisoblanadilar.

O‘zbekistonda amaliy san’at sohasidagi ta’lim metodologiyasi yoshlarni samarali o‘qitishga ko‘maklashuvchi bir nechta tamoyillarga asoslanadi. Xususan, 1918-yilda Samarqanddagi badiiy bilim yurti va Toshkent badiiy texnikumining qo‘shilishi asosida tashkil topgan P.Benkov nomidagi badiiy bilim yurti negizida yaratilgan Toshkentdagi Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktabi badiiy ta’lim sohasidagi muhim o‘quv yurti hisoblanadi. 1952-1953-yillarda amaliy san’at bo‘limi (ganch, yog‘och o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik) ochilgan bo‘lib, 1957-yildan esa badiiy to‘qimachilik, miniatyura, teatr bezagi, butaforiya, grim, tarixiy kostyumlar bo‘yicha texnik-mutaxassislar tayyorlash bo‘limi, 1975-yilda – badiiy bezak, 1981-yilda – badiiy lokli miniatyura, teatr bezaklari bo‘limlari ochilgan. Maktab respublikaning ijodiy kadrlarini tayyorlashda boy tarix va an’analarga ega [6].

Bugungi kunda Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktabida beshta yo‘nalish (san’at turlari bo‘yicha) bo‘yicha o‘n beshta ixtisoslik mavjud. Bular: tasviriy va amaliy san’at asarlarini restavratsiya qilish va saqlash, monumental-dekorativ san’at, lokli miniatyura, amaliy bezak san’ati (musiqa asboblarini tayyorlash va restavratsiya qilish). Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktabiga umumta’lim maktablarining 7-sinf bitiruvchilaridan iste’dodli va qobiliyatli o‘quvchilar qabul qilinadi. Maktab o‘quvchilari muntazam ravishda shahar, viloyat, respublika va xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan tasviriy va amaliy san’at tanlovlari, festivallari, ko‘rgazmalarida ishtirok etadilar.

Ta’lim jarayoni nazariy mashg‘ulotlar va ustaxonalardagi amaliy ishlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar nafaqat badiiy ijod asoslarini, balki zamonaviy texnologiyalarni ham o‘rganadilar. Bunday yondashuv ularga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va kasbiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy san’at sohasidagi ta’lim ijtimoiy javobgarlik va barqaror rivojlanish masalalarini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar o‘z ishlarida madaniy jihatlarni hisobga olishni o‘rganadilar, bu esa jamiyatning zamonaviy talablariga mos keladigan asarlar yaratish uchun muhimdir.

Navbatdagi tadqiqot obyekti — bu Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi. Maktab 1967 yilda 1966 yildagi zilzila oqibatlarini bartaraf etish uchun malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida bilim yurti sifatida tashkil etilgan. 1994 yilda u Xalq hunarmandchiligi litseyiga aylantirilgan, bu litsey esa 1997 yilda O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tuzilmasidagi Respublika dizayn kollejiga o‘zgartirilgan. Maktab zamonaviy o‘quv binolari, ustaxonalar, klub, sport zallari, kutubxona, ishlab chiqarish amaliyoti sexlariga ega. Iste’dodli o‘quvchilar badiiy ko‘rgazmalarda, binolarni rekonstruksiya va restavratsiya qilishda ishtirok etadilar. Maktab YUNESKO bilan hamkorlik qiladi, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlardagi turdosh o‘quv yurtlari bilan aloqalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu maktabda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: mebel dizayner-loyihachisi, amaliy-yodgorlik san’ati dizayner-loyihachisi, lokli miniatyura ustasi, amaliy san’at, chinni mahsulotlari usta-rassomi, milliy badiiy kostyumlar dekorator-loyihachisi, ganch usta-rassomi, naqqosh usta-rassom, yog‘och o‘ymakorligi usta-rassomi, badiiy gilamlar va gobelenlar ishlab chiqarish usta-rassomi, badiiy kashtachilik ustasi, zardo‘zlik ustasi, zargarlik buyumlari usta-rassomi va rassom-kulol.

O‘qitish usullarining xilma-xilligi — ma’ruzalar va seminarlardan tortib, mahorat darslari va amaliy mashg‘ulotlargacha — dinamik ta’lim muhitini yaratadi. Multimedia texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish ham fanni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘quvchilarning taffakurini kengaytiradi. Bu yo‘nalishlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, san’at asarlarini turli nuqtai nazardan tahlil qilishga imkon beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini shakllantirishni va ularni asoslashni o‘rganadilar, bu esa ularning badiiy tilini rivojlantirish uchun muhimdir.

Turli materiallarning mavjudligi va ularga ishlov berish texnologiyalarini bilish amaliy san’at sohasida muvaffaqiyatli ishlashning asosidir. O‘quv dasturlari an’anaviy va zamonaviy usullarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarga mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi.

Respublikaning badiiy ta’lim sohasidagi eng qadimiy o‘quv yurtlaridan biri O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining Ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati hisoblanadi. 2024-yilda u 95 yoshni qarshiladi. XX asrning qirqinchi yillarida u iste’dodli bolalar uyi deb qayta nomlandi. O‘sha yillarda Bolalar uyini o‘qimishli, o‘z tarbiyalanuvchilarini sevgan va ularga samimiy g‘amxo‘rlik qilgan M.Orenberg boshqargan. U ajoyib tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi. M.Orenberg ajoyib pedagoglar va tarbiyachilarni to‘plagan. Bu uy devorlaridan O‘zbekiston madaniyati va san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan ko‘plab iste’dodli xoreograflar, musiqachilar, rassomlar yetishib chiqqan. 1997-yilda, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etilgandan so‘ng, ushbu o‘quv yurti uning tasarrufiga o‘tkazildi va Respublika tasviriy va amaliy san’at litsey-internati deb nomlana boshladi [7].

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

San’at maktabi noodatiy va o‘ziga xosdir. U rassomlik va musiqa bo‘limlariga birinchi sinfdan qabul qiladi. Umumta’lim fanlari bo‘yicha rassomlar va musiqachilar birga o‘qiydilar, maxsus fanlar bo‘yicha esa o‘qituvchilar yakka tartibda yoki 8-12 boladan iborat guruhlar bilan shug‘ullanadilar. Maktabni tugatgan bitiruvchilarga o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi attestat bilan bir qatorda maxsus ta’lim to‘g‘risidagi sertifikat ham beriladi.

Ushbu maktabda amaliy san’at ta’limining nazariy asosi bir nechta asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek va jahon amaliy san’ati tarixini o‘rganish talabalarga o‘z ishlarining kontekstini tushunishga yordam beradi. Bu bilim yangi asarlar yaratishga ilhom beradi va uslublar va texnikalarni tanlashda ongli yondashuvni ta’minlaydi. O‘quv dasturi ijodiy fikrlash va individual uslubni rivojlantirishga e’tibor qaratadi. O‘quvchilar mukammal vazifalar ustida ishlaydigan loyihaviy ta’lim kreativlik va tashabbuskorlikni shakllantirishga yordam beradi. Bu shuningdek, ko‘rgazmalar va tanlovlarda ishtirok etishni ham o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z ishlarini keng auditoriyaga namoyish etish imkonini beradi.

Maktab rahbariyatining sa’y-harakatlari tufayli UNFPA, UNEP, BMT kabi xalqaro fondlar, xorijiy mamlakatlar madaniy markazlari bilan yaqin ijodiy aloqalar o‘rnatilgan, maktab o‘quvchilarining rasmlari va ishlari asosida har yili kalendarlar chiqariladi, xayriya aksiyalari o‘tkaziladi, sayyor badiiy ko‘rgazmalar tashkil etiladi.

O‘zbekiston amaliy bezak san’atining zamonaviy holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mahalliy an’analar tashuvchilarining tabiiy ravishda olamdan o‘tishi sababli uning noyob turlari yo‘qolib ketish xavfi mavjud. O‘zbekistonda amaliy san’at sohasidagi ta’limning metodologik va nazariy asoslari an’analar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtiruvchi yaxlit o‘qitish yondashuvini shakllantirmoqda. Bu mamlakatning badiiy madaniyatini rivojlantirishga muhim hissa qo‘sha oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga imkon beradi. Bu sohadagi ta’lim nafaqat o‘quvchilarning kasbiy o‘sishiga yordam beradi, balki O‘zbekiston amaliy san’atining boy merosini saqlash va rivojlantirishga, uning global madaniy makonga integratsiyalashuviga ko‘maklashadi. Shunday qilib, ijodkorlik yoshlarning badiiy ta’lim tizimi uchun “shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish” organik mexanizmini tashkil etadi.

Ta’lim muassasasining ta’lim dasturidagi ijodkorlik nafaqat ta’lim komponenti, balki, ehtimol, birinchi navbatda tarbiya komponentidir. Shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, avvalambor, o‘sib kelayotgan avlodda san’at vositalari orqali go‘zallik hissini shakllantirish bilan bog‘liq.

Xulosa sifatida shuni ma’lum qilamanki erishilgan yutuqlarga qaramasdan, amaliy san’at sohasidagi ta’lim tizimi bir qator muammolarga xam duch kelmoqda. O‘zbekistonda amaliy san’at sohasidagi ta’lim sifatini oshirish uchun quyidagilar zarur: O‘quv rejalarini yangilash va zamonaviy ustaxonalar yaratish uchun moliyalashtirishni oshirish va yetarli resurslarni ta’minlash. Zamonaviy o‘qitish usullari va yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadida o‘qituvchilar uchun kurslar, seminarlar tashkil etish va o‘qituvchilar malakasini oshirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

1. Курбанов С. Ровесники независимости. // Ж. SAN'AT. 2011г. №3. С. 22-23.
2. Акилова К. Некоторые образовательные и научные аспекты деятельности Академии художеств Узбекистана. // Ж. SAN'AT. 2007. №2. С. 8-11.
3. Бабаджанова Г. К истории художественного образования Узбекистана. // Ж. SAN'AT. 2007. №2. С. 12-15.
4. Курбанов С. Актуальные аспекты развития художественного образования в Узбекистане // Ж. SAN'AT. 2016г. №1. С. 21-24
5. Ҳасанова Н. Художественное образование Узбекистана XX века история и основные тенденции развития. Автореферат диссертации доктора философии PhD по искусствоведению. Ташкент, 2021.
6. Курбанов С. Каталог к 100-летию Республиканскому художественному колледжу им. П.Бенькова. Вступительная статья, С. 5-15. Ташкент, Издательство "SAN"AT", 2018.
7. Курбанов С. Каталог к 90-летию Республиканской специализированной школе искусств интернат. Вступительная статья, С. 4-18 Ташкент, Издательство "SAN"AT", 2019.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

TASVIRIY SAN'ATNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sulaymonova Muxiba Boltayevna, Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, Buxoro, Ozbekiston '

Annotatsiya:

KIRISH: ushbu maqolada tasviriy san'atni o'qitishda hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Hamkorlikda o'qitish usullari o'quvchilarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, dars jarayonini interfaol tashkil etishda muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Maqolada tasviriy san'at darslarida hamkorlik texnologiyasining imkoniyatlari, uning o'quvchilarning tasviriy tafakkuri va estetik didini shakllantirishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ushbu texnologiya yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish yo'llari asoslab berilgan.

MAQSAD: zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda tasviriy san'at fani o'quvchilarda estetik didni, tasviriy madaniyatni, ijodiy tafakkurni rivojlantirib borishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, an'anaviy o'qitish usullari har doim ham o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlay olmaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR: shu bois, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni, xususan, hamkorlik texnologiyasini joriy etish zarurati tug'iladi. Hamkorlik texnologiyasi talabalarning guruhlarda ishlashi, fikr almashishi va birgalikda ijodiy yechim topishiga asoslanadi. Tasviriy san'at darslarida ushbu texnologiyadan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, ijodiy faolligini faollashtirish, o'qitish usullarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu ishda ushbu masala o'rganilgan - hamkorlik texnologiyasidan foydalangan holda tasviriy san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot 5–6-sinf o'quvchilariga tasviriy san'atni o'rgatish samaradorligini oshirish uchun hamkorlikdagi texnologiyalar, raqamli va interfaol vositalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot jarayoni umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik eksperimental, kuzatish, tahlil va taqqoslash usullaridan foydalangan holda olib borildi. Tadqiqot materiali sifatida 5–6-sinflar uchun tasviriy san'at bo'yicha joriy o'quv dasturlari, dars ishlanmalari, raqamli o'quv resurslari, interfaol doskalar, grafik planshetlar, multimedia taqdimotlari va oddiy grafik muharrirlar tanlab olindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: o'quvchilarning ijodiy ishlarini pedagogik kuzatish, tahlil qilish, taqqoslashdan foydalanildi.Tajribali o'rganish davomida raqamli va hamkorlikdagi usullar an'anaviy o'qitish usullari bilan solishtirildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli va interaktiv texnologiyalar hamda hamkorlik texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ijodiy faolligi, tasviriy fikrlashi, darsga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Natijalar Raqamli va interaktiv texnologiyalar tasviriy san'at o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

yordamida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, san’atga bo‘lgan qiziqishi, tasviriy madaniyati yuksaladi. Ayniqsa, 5–6-sinflar kabi o‘rta maktab o‘quvchilari uchun raqamli vositalar dars jarayonini qiziqarli, tushunarli va faol ishtirok etadigan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: interfaol texnologiyalar, ijodiy qobiliyatlar, vizual madaniyat, axborot texnologiyalari, raqamli platformalar, tengdoshlarning vizual aloqasi yondashuvi, klaster yondashuvi, hamkorlik tamoyillari

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ СОВМЕСТНОЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мухиба Болтаевна Сулаймонова, Преподаватель Бухарского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования технологии сотрудничества в преподавании изобразительного искусства. Совместные методы обучения рассматриваются как важный педагогический инструмент, позволяющий активизировать творческую деятельность учащихся, сформировать навыки работы в команде, организовать учебный процесс в интерактивном режиме. В статье описаны возможности совместной технологии на занятиях искусством, ее влияние на формирование зрительного мышления и эстетического вкуса учащихся. Также обоснованы пути совершенствования методики обучения с помощью данной технологии.

ЦЕЛЬ: развитие творческого потенциала учащихся, формирование самостоятельного и критического мышления является одной из важных задач современной системы образования. В этом процессе наука об изобразительном искусстве приобретает особое значение, поскольку развивает у учащихся эстетический вкус, изобразительную культуру, творческое мышление. Однако традиционные методы обучения не всегда обеспечивают активное участие учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: поэтому необходимо внедрять в образовательный процесс передовые педагогические технологии, в частности, технологию сотрудничества. Технология совместной работы основана на том, что учащиеся работают в группах, делятся идеями и вместе находят творческие решения. Процесс исследования проводился в общеобразовательных школах с использованием педагогического экспериментального, наблюдательного, аналитического и сравнительного методов. В качестве материала исследования были выбраны текущие учебные программы, планы уроков, цифровые учебные ресурсы, интерактивные доски, графические планшеты, мультимедийные презентации и простые графические редакторы для 5-6 классов по изобразительному искусству.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: использовались педагогические наблюдения, анализ и сравнение творческих работ учащихся. В ходе экспериментального исследования цифровые и совместные методы сравнивались с традиционными методами обучения. Результаты показали, что занятия, организованные на основе цифровых и интерактивных технологий и технологии совместной работы, значительно повышают творческую активность учащихся, наглядное мышление и интерес к уроку.

Результаты. Цифровые и интерактивные технологии способствуют повышению эффективности образования в области изобразительного искусства. С помощью этих технологий повысятся творческие способности учащихся, интерес к искусству, изобразительной культуре. Специально для старшеклассников, например 5-6 классов, цифровые инструменты позволяют организовать процесс обучения интересно, понятно и активно.

Ключевые слова: интерактивные технологии, творческие способности, визуальная культура, информационные технологии, цифровые платформы, подход визуальной равноправной коммуникации, кластерный подход, принципы сотрудничества.

POSSIBILITIES OF USING COLLABORATIVE VISUAL ACTIVITY TECHNOLOGIES

Sulaymonova Mukhiba Boltaevna, Lecturer at Bukhara State University

Annotation.

INTRODUCTION: this article analyzes the theoretical and practical aspects of using collaborative technology in teaching fine arts. Collaborative teaching methods are considered as an important pedagogical tool for activating students' creative activity, developing teamwork skills, and interactively organizing the lesson process. The article highlights the possibilities of collaborative technology in fine art classes, its impact on the formation of students' visual thinking and aesthetic taste. It also substantiates ways to improve teaching methodology using this technology.

AIM: the development of students' creative potential, the formation of independent and critical thinking is one of the important tasks of the modern education system. In this process, the science of fine arts acquires special significance, since it develops students' aesthetic taste, visual culture, and creative thinking. However, traditional teaching methods do not always ensure active student participation.

MATERIALS AND METHODS: therefore, it is necessary to introduce advanced pedagogical technologies into the educational process, in particular, collaboration technology. Collaborative technology is based on students working in groups, sharing ideas and finding creative solutions together. Collaborative technology is based on students working in groups, sharing ideas and finding creative solutions together. The research process was carried out in secondary schools using pedagogical experimental, observational, analytical and comparative methods. The research materials included current curricula, lesson plans, digital learning resources, interactive whiteboards,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

graphics tablets, multimedia presentations and simple graphic editors for grades 5-6 in fine arts.

RESULTS AND DISCUSSION: pedagogical observations, analysis and comparison of students' creative works were used. The pilot study compared digital and collaborative methods with traditional teaching methods. The results showed that classes organized on the basis of digital, interactive and collaboration technologies significantly increase students' creative activity, visual thinking and interest in the lesson.

CONCULITION: digital and interactive technologies contribute to improving the effectiveness of education in the field of fine arts. With the help of these technologies, students' creative abilities and interest in art and fine culture will increase. Especially for high school students, for example 5-6 grades, digital tools allow you to organize the learning process in an interesting, understandable and active way.

Keywords: interactive technologies, creative abilities, visual culture, information technologies, digital platforms, visual peer feedback approach, cluster approach, principles of cooperation.

Tasviriy san'at darslarida interfaol doska, grafik planshetlar, multimediyali taqdimotlar va maxsus grafik dasturlardan foydalanish o'quvchilarga ranglar uyg'unligi, shakl va kompozitsiya qonuniyatlarini vizual tarzda anglash imkonini beradi. Masalan, interfaol doskada rassomlarning mashhur asarlarini yuqori sifatda ko'rsatish, ularni kattalashtirish yoki ayrim detallarni alohida tahlil qilish orqali o'quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish qobiliyati shakllanadi. Bu jarayon an'anaviy darslik bilan ishlashdan ko'ra samaraliroq. Raqamli chizmachilik dasturlari (masalan, oddiy grafik muharrirlar) yordamida o'quvchilar virtual muhitda qalam, cho'tka, rang tanlash kabi amaliy harakatlarni bajarishlari mumkin. Bu ularga xatolardan qo'rqmasdan tajriba o'tkazish, ranglar bilan erkin ishlash, ijodiy g'oyalarini sinab ko'rish imkonini beradi. Masalan, talaba bir nechta turli xil rangli echimlarda kompozitsiyani bajarishi va qaysi biri ko'proq estetik ta'sirga ega ekanligini solishtirishi mumkin.

O'quvchilarning san'atga qiziqishini oshirishda interfaol texnologiyalar ham muhim o'rin tutadi. Videodarslar, animatsiyalar va virtual galereyalar orqali taniqli rassomlarning ishi, san'at yo'nalishlari va uslublari bilan tanishish jarayoni jonli va esda qolarli bo'ladi.

Masalan, virtual muzey ekskursiyalari orqali o'quvchilar sinfdan chiqmagan holda dunyoning mashhur san'at asarlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularning estetik didi va vizual madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli va interfaol texnologiyalar ham hamkorlikda o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Guruh topshiriqlarida talabalar birgalikda raqamli loyiha yaratish, umumiy kompozitsiya ustida ishlash yoki bir-birining ishini baholash orqali ijtimoiy faollik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Masalan, sinf o'quvchilari mavzu asosida raqamli kollaj tayyorlab, birgalikda tahlil qilishlari mumkin. Binobarin, raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanish tasviriy san'at darslarini faqat chizmachilik bilan cheklab qo'ymaydi, balki

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

o‘quvchilarda ijodkorlik, estetik tafakkur, tasviriy savodxonlik, mustaqil fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Bu zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan samarali va innovatsion o‘qitish metodikasini shakllantirishga xizmat qiladi.Axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish tasviriy san’at darslari samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, o‘quv jarayonini interaktiv qiladi. Eperspektiv bosqichma-bosqich elektron taqdimotlar, interfaol tasvirlar va videolar orqali tushuntiriladi. Bu murakkab mavzularni talabalar uchun tushunarli qiladi.

теория когнитивного развития (Пиаже), деятельностный подход и концепции личностно-ориентированного обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста зависит от следующих психологических факторов. Развитие воображения и образного мышления Чем богаче воображение ребёнка, тем эффективнее протекает творческая деятельность.Свободная эмоциональная среда позитивный психологический климат способствует свободному выражению мыслей ребёнка. Мотивация и интерес внутренний интерес является основной движущей силой творческой активности. Игровая деятельность ролевые игры, драматизация и конструктивные игры способствуют развитию творческого мышления. Сотрудничество со взрослыми согласно концепции «зоны ближайшего развития», при поддержке взрослого ребёнок способен выполнять более сложные творческие задания. Результаты экспериментальной работы показали, что при систематическом применении специально разработанной системы творческих занятий у детей повысился уровень самостоятельного мышления, развились навыки поиска нестандартных решений, активизировалось речевое и изобразительное творчество, повысилась уверенность в себе. Полученные результаты подтверждают эффективность системного психолого-педагогического подхода в развитии творческих способностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: дошкольный возраст является наиболее благоприятным периодом для формирования творческого потенциала личности. Процесс развития творческих способностей должен основываться на следующих условиях создание психологически комфортной и поддерживающей среды, приоритетное использование игровой деятельности, обеспечение индивидуального подхода, стимулирование самостоятельности и инициативности, систематическая организация творческих заданий. Таким образом, развитие творческих способностей в системе дошкольного образования требует научно обоснованного психологического подхода и является важным фактором формирования гармонично развитой личности

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дошкольное образование, творческие способности, воображение, мышление, психологическое развитие, игровая деятельность, мотивация, развитие личности, эмоциональная среда, зона ближайшего развития.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN PRESCHOOL EDUCATION LEARNERS

Khalilova Dilnavoz Abdulloyevna, 3rd-year student, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the system of preschool education represents one of the most important stages in personality development. It is during this period that a child's

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

cognitive processes, imagination, thinking, speech, and emotional-volitional sphere develop intensively. Psychological research, particularly the works of Lev Vygotskiy, Jean Piaget, and Jerome Bruner, demonstrates that creative activity plays a decisive role in the intellectual and personal development of preschool children. Creative abilities refer to an individual's capacity to generate new ideas, find unconventional solutions, think imaginatively, and make independent decisions. In preschool children, creativity is mainly expressed through play, visual arts, verbal creativity, and constructive activities. Therefore, providing a scientific psychological foundation and organizing this process based on research-based approaches is a highly relevant task.

AIM: the objective of this study is to identify the psychological foundations for developing creative abilities in preschool children and to determine effective psychological and pedagogical conditions for their formation.

MATERIALS AND METHODS: object of the Study: Children aged 5–6 attending preschool educational institutions. Subject of the Study**:** The process of formation and development of creative abilities in preschool children and the psychological factors influencing this process. Research Methods: psychological observation, interviews and questionnaires, diagnostic tests (methods for assessing creative thinking), analysis of activity products, experimental research. The methodological basis of the study includes the cultural-historical approach (Vygotsky), the theory of cognitive development (Piaget), the activity-based approach, and the concepts of learner-centered education.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis showed that the development of creative abilities in preschool children depends on the following psychological factors development of imagination and figurative thinking the richer a child's imagination, the more effective their creative activity becomes. Emotionally supportive environment a positive psychological climate allows children to express their ideas freely**.** Motivation and interest internal interest serves as the primary driving force of creative activity. Play activity role-playing games, dramatization, and constructive games contribute significantly to the development of creative thinking. Cooperation with adults according to the concept of the "zone of proximal development," with adult guidance, children can accomplish more complex creative tasks. The results of the experimental work revealed that systematic implementation of specially designed creative activities led to: increased independent thinking skills; improved ability to find unconventional solutions; enhanced verbal and visual creativity; strengthened self-confidence. The findings confirm the effectiveness of a systematic psychological and pedagogical approach in developing creative abilities.

CONCLUSION: preschool age is the most favorable period for shaping creative potential. The process of developing creative abilities should be based on the following conditions creating a psychologically comfortable and supportive environment, prioritizing play-based learning methods, ensuring an individual approach, encouraging independence and initiative, systematically organizing creative tasks. Thus, the development of creative abilities in preschool education requires a scientifically grounded

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

psychological approach and serves as an essential factor in forming a harmoniously developed personality.

Keywords: preschool education, creative abilities, imagination, thinking, psychological development, play activity, motivation, personality development, emotional environment, zone of proximal development.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiy rivojlanishi, intellectual salohiyatini oshirish va jamiyatga moslashishida muhimo‘rintutadi.Ijodiyfaoliyatbolaningfikrlashinikengaytirish,tasavvurnirrivojlantirish, o‘zini ifoda etish va yangi g‘oyalarni yaratish imkonini beradi. Pedagogika va psixologiya sohalarida olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham katta ta'sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ko‘plab pedagogic yondashuvlar va metodlarga asoslanadi. Pedagoglar, o‘qitish jarayonida bolalarning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirish uchun turli o‘yinlar, san'at va amaliy faoliyatlar orqali bolalar bilan ishlashni amalga oshiradilar. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish, bolalarning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi.

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining eng intensiv bosqichidir. Aynan ushbu davrda tafakkur, tasavvur va ijodiy faoliyat shakllanadi. Psixologiya fanida ijodkorlik masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Lev Vygotskiy ijodiy tasavvurni ijtimoiy tajriba asosida shakllanuvchi psixik jarayon sifatida talqin etadi. U “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi orqali kattalar bilan hamkorlik ijodiy rivojlanishning muhim sharti ekanligini asoslaydi.Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yosh preoperatsional bosqich bo‘lib, ramziy tafakkur va fantaziya ustunlik qiladi. Joy Paul Guilford ijodkorlikni divergent tafakkur bilan bog‘laydi, ya’ni muammoning bir nechta noodatiy yechimini topish qobiliyati sifatida izohlaydi. E. Paul Torrance esa ijodiy tafakkurni baholash testlarini ishlab chiqqan va ijodkorlikning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlagan. Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi.

Uning fikricha o‘yin – bolaning barcha qobilyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tassavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. P.F.Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan tassurotlarini aks ettiradilar, deydi bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Ijodkorlik - o‘ziga xoslik. S. A. Suxomlinskiy shunday degan edi: “Bolalarning qobiliyatlari va iste’dodlarining kelib chiqishi ularning qo‘lida. Barmoqlardan, majoziy ma’noda, ijodiy fikrning manbai bo‘lgan eng nozik iplar - oqimlar mavjud. Boshqacha aytganda, bolaning qo‘lidagi mahorat qancha ko‘p bo‘lsa, bola ham shunchalik aqlli bo‘ladi”. Ijodiy faoliyat xotirani, fikrlashni, qo‘llarning nozik motorikasini rivojlantiradi. Bola qandaydir ijodkorlik bilan shug‘ullanib, o‘ylaydi, taqqoslaydi. Men tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

nafaqat maxsus tashkil etilgan, balki erkin mashg‘ulotlarda ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'yin-bu etakchi faoliyat turi, bolani ijtimoiylashtirishning eng samarali shakli, o'yinda kelajakdagi shaxsning asoslari qo'yiladi. Birgalikda o'ynab, bolalar munosabatlarni qurishni boshlaydilar, muloqotni o'rganadilar, har doim ham silliq emas, lekin bu o'rganish usuli, boshqa hech narsa yo'q. Maktabgacha yosh-bu bolani atrofdagi dunyoni bilish bilan tanishtirish davri, uning dastlabki sotsializatsiya davri. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yuqori sezuvchanligi, oson o'rganish qobiliyati muvaffaqiyatli axloqiy tarbiya va shaxsning ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Oilada ota-onalar bolalarni o'yin vositalari bilan rivojlantirishga intilishlari juda muhimdir. O'yin bolaga juda ko'p ijobiy his-tuyg'ularni beradi, u kattalar bilan o'ynashni juda yaxshi ko'radi. Bolaning kattalar bilan birgalikda o'ynashi nafaqat kichik odamni rivojlantirishning asosiy vositasi, balki turli avlodlarning o'zaro tushunishiga hissa qo'shadigan vositadir. Maktabgacha yoshdagi faoliyatning etakchi turi o'yin bo'lganligi sababli, o'yin faoliyatida bola ijtimoiylashadi . Aynan o'yinda u rivojlanib, o'zini namoyon qiladi, jamiyat madaniyatini, o'zi tegishli bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtiradi va takrorlaydi. Bolaning dunyoni faol bilishining ikkinchi davrida, psixologlarning fikriga ko'ra, aynan o'yinda bola atrofdagi dunyoning birinchi modellarini yaratadi, odamlar o'rtasidagi aloqa qoidalarini o'rganadi, uning qobiliyatlari va xarakterini rivojlantiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning boshlanishi yoshlikdan boshlanadi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar qordan, ho‘l qumdan, shuningdek kubiklardan qal'a qurish, qalam va вщyoqlar bilan chizishda ijodkor вщladi. Kattalar faqat qo‘llab-quvvatlashlari kerak, bolalarning tabiiy ehtiyojlarini to‘xtatmasliklari kerak. Shunday qilib, biz ijodkorlikni shaxsning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi va voqealar, materiallar, odamlar va hayot sharoitlari bilan shartlangan yangi mahsulotni shakllantirish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologiya nuqtai nazaridan, maktabgacha yoshdagi bolalik-bu ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish davri. Bu yoshda bolalar juda qiziquvchan, ularda atrofdagi dunyoni o‘rganishga katta ishtiyoq bor. Bolaning bu harakatlarini rag‘batlantirish va uni turli tadbirlarga jalb qilish, bolalar tajribalarini kengaytirishga hissa qo‘shish, ota-onalarning o‘zlari bolaning ijodiy tashabbusini rag‘batlantiradilar va hissa qo‘shadilar.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish psixik rivojlanishning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlari bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik tug‘ma imkoniyat sifatida mavjud bo‘lsa-da, uning rivojlanishi muhit, motivatsiya va faoliyat turi bilan belgilanadi. Kognitiv jihatdan maktabgacha yosh davrida tasavvur va ramziy tafakkur ustun bo‘ladi, muammoli vaziyatlarni o‘yin orqali hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi, divergent fikrlash tez rivojlanadi. Jean Piaget ta’kidlaganidek, bu bosqichda bola real predmetlarni ramziy obrazlar orqali ifodalay boshlaydi. Bu esa ijodkorlikning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Joy Paul Guilford divergent tafakkurni ijodkorlikning markaziy ko‘rsatkichi sifatida belgilaydi. Maktabgacha yoshda aynan ko‘p variantli fikrlash faol rivojlanadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan Lev Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, ijodiy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

faoliyat ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi. “Yaqin rivojlanish zonasi” doirasida kattalar tomonidan berilgan yo‘naltiruvchi yordam bolaning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki tanqidiy va qat’iy nazorat ijodiy faollikni pasaytiradi rag‘batlantiruvchi muhit esa original fikrlarni ko‘paytiradi, hamkorlikdagi o‘yinlar ijtimoiy kreativlikni rivojlantiradi. Emotsional omillar ijodkorlikning rivojlanishida emotsional xavfsizlik muhim o‘rin tutadi. Bolaning xato qilishdan qo‘rqmasligi, o‘z fikrini erkin bildira olishi ijodiy jarayonni faollashtiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki ijobiy emotsional fon kreativ fikrlashni tezlashtiradi, stress va qo‘rquv divergent tafakkurni cheklaydi, ichki motivatsiya tashqi mukofotdan samaraliroqdir. Neyropsixologik asos maktabgacha yoshda miya plastiklik darajasi yuqori bo‘ladi. Ijodiy faoliyat:, prefrontal korteks faoliyatini faollashtiradi, tasavvur va rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi. Bu esa kelajakdagi akademik muvaffaqiyat uchun mustahkam poydevor yaratadi. Amaliy ahamiyati ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mustaqil fikrlashni shakllantiradi, muammoli vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshiradi, innovatsion tafakkur uchun asos yaratadi, shaxsning o‘ziga ishonchini mustahkamlaydi. Maktabgacha ta’lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish psixologik jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak, o‘yin faoliyatiga tayanishi zarur,emotsional xavfsizlikni ta’minlashi lozim, individual yondashuvni talab qiladi, tizimli va uzluksiz bo‘lishi kerak. Shunday qilib, maktabgacha yosh ijodiy rivojlanishning eng sezgir davri bo‘lib, bu bosqichda yaratilgan qulay psixologik sharoit bola shaxsining keyingi intellektual va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 1.Ozerova, O.E. Bolalarda ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish. O‘yinlar va mashqlar. - Rostov on / D., 2005.
2. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, N. Kayumova, M A’zamova. “Maktabgacha pedagogika” Toshkent: Tafakkur nashriyoti.2019. -684b
3. Lykova I. A. Didaktik o‘yinlar va tadbirlar. Badiiy va kognitiv faoliyatning integratsiyasi. - M., 2009. 4. Lykova I. A. Bolalar badiiy ijodida eksperiment. - M., 2003.
4. N.M.Quchqarova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga o‘yin orqali tarbiya berish” o‘quv uslubiy qo‘llanma.-Toshkent,2022 y.-74b
5. Rodina, N. N. Bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda maktabgacha ta'limning o‘rni / N. N. Rodina. - Matn: to‘g‘ridan-to‘g‘ri // Maktabgacha pedagogika savollari. - 2018 yil - No 7 - S. 13-17. — URL: https://moluch.ru/th/1/archive/109/3763/ (kirish sanasi: 21.12.2022).
6. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
7. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO ‘LLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

8. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING GRAMMATIK TO'G'RILIGINI SHAKLLANTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 179-185.
9. Mukhiddinova, M. (2023). ABOUT THE PRAGMATICS OF DEACTIVE PRONOUNS IN THE KOREAN LANGUAGE. SPAST Abstracts, 2(02).
10. Mukhiddinova, M. (2021). A question about pronouns in a Korean sentence. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 208-211.
11. Dek-Khenovna, K. N., & Batirovna, M. M. (2019). To the study of the role of pronouns and pronominal words in Korean language (on elementary level teaching material). Вестник науки и образования, (19-1 (73)), 47-52.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

SPORTCHI TALABALARNING MUVOFFAQIYATGA ERISHISHNING MOTIVATSIYAGA TASIRI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li, Ma’mun universiteti “Marketing” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya

KIRISH: sportchi talabalar uchun muvaffaqiyatga erishish faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. Ularning psixologik holati, motivatsiyasi va ichki intilishlari ham muvaffaqiyat darajasini belgilaydi. Motivatsiya – bu insonning maqsad sari intilish kuchi bo‘lib, sportchilarda u muvaffaqiyatga erishish, murabbiy ko‘rsatmalariga rioya qilish va musobaqalarda yuqori natijaga erishish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, sportchi talabalarning psixologik xususiyatlari va motivatsiya darajasi ularning o‘quv va sport natijalariga qanday ta’sir qilishi dolzarb masalalardan biridir.

MAQSAD: sportchi talabalarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining psixologik xususiyatlariga ta’sirini aniqlash, ularning motivatsiya darajasi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va sport natijalariga bog‘liqligini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda quyidagi materiallar va metodlardan foydalanildi. Sportchi talabalarning motivatsiya darajasi bo‘yicha so‘rovnomalar, psixologik testlar, murabbiylar baholari, sport natijalarining rasmiy ma’lumotlari, kuzatish, intervyu, so‘rovnomalar, psixodiagnostik testlar, statistik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish.Tadqiqot davomida sportchi talabalar orasida motivatsiya darajasi va psixologik xususiyatlar bilan ularning sport natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu tadqiqot sportchi talabalar orasida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining ularning psixologik xususiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport bilan muntazam shug‘ullanish nafaqat jismoniy salomatlikni oshiradi, balki psixologik barqarorlik, intizom va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sportchi talabalar bilan ishlashda ularning motivatsiyasini oshirish va psixologik barqarorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikalar qo‘llanishi muhimdir. Shu maqsadda quyidagi tavsiyalar berildi. Talabalarni ichki motivatsiya bilan rag‘batlantirish; Stressni boshqarish va o‘z-o‘zini motivatsiyalash bo‘yicha treninglar tashkil etish; Jamoaviy va individual ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish; Sport va akademik faoliyatni muvozanatli olib borish strategiyalarini ishlab chiqish.

XULOSA: tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sportchi talabalar motivatsiyasi va psixologik xususiyatlari ularning muvaffaqiyatga erishishida muhim omil bo‘lib, ushbu omillarni rivojlantirish orqali akademik va sport natijalari sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Tadqiqot davomida sportchi talabalarda muvaffaqiyatga intilish darajasi ularning psixologik chidamliligi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va stressga bardoshliligi bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Sport va ta’lim faoliyatini birgalikda olib borish jarayoni yuqori darajadagi psixologik moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu bois sportchi talabalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, motivatsion, psixologik va pedagogik mexanizmlarni ham o‘z ichiga olishi zarur

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Kalit so‘zlar: ichki va tashqi motivatsiya, iroda sifatlari, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, sport psixologiyasi, motivatsion omillar

ВЛИЯНИЕ МОТИВАЦИИ НА ДОСТИЖЕНИЕ УСПЕХА У СПОРТИВНЫХ СТУДЕНТОВ И ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аллаяров Дилшод Рахимбой угли, Руководитель отдела «Маркетинг», Университет Мамун

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: для спортивных студентов достижение успеха не ограничивается только физической подготовкой. Их психологическое состояние, мотивация и внутренние стремления также определяют уровень их успеха. Мотивация — это сила стремления человека к цели, которая у спортсменов создаёт возможности для достижения успеха, соблюдения инструкций тренера и высоких результатов на соревнованиях. Поэтому изучение психологических особенностей и уровня мотивации спортивных студентов и их влияния на учебные и спортивные достижения является актуальной проблемой.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить влияние мотивации достижения успеха на психологические особенности спортивных студентов, изучить зависимость их уровня мотивации, способности к самоконтролю и спортивных результатов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались следующие материалы и методы анкетирование для определения уровня мотивации спортивных студентов, психологические тесты, оценки тренеров, официальные данные о спортивных результатах, наблюдение и интервью, психодиагностические тесты, статистический анализ, сравнение и обобщение. В ходе исследования изучалась взаимосвязь между уровнем мотивации, психологическими особенностями и спортивными результатами студентов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что регулярные занятия спортом повышают не только физическое здоровье, но и способствуют развитию психологической устойчивости, дисциплины и навыков самоконтроля. При работе со спортивными студентами важно применять методы, направленные на повышение их мотивации и психологической устойчивости. В связи с этим были даны следующие рекомендации стимулировать студентов внутренней мотивацией, организовать тренинги по управлению стрессом и самоподдержке, развивать навыки командной и индивидуальной работы, разрабатывать стратегии сбалансированного ведения спортивной и академической деятельности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что мотивация и психологические особенности спортивных студентов являются важными факторами их достижения успеха. Развитие этих факторов способствует значительному улучшению академических и спортивных результатов. Уровень стремления к успеху у студентов напрямую связан с их психологической выносливостью, навыками самоконтроля и стрессоустойчивостью. Процесс

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

совмещения спортивной и учебной деятельности требует высокой психологической адаптивности. Поэтому система поддержки спортивных студентов должна включать не только физическую подготовку, но и мотивационные, психологические и педагогические механизмы.

Ключевые слова: внутренняя и внешняя мотивация, качества воли, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, спортивная психология, мотивационные факторы

THE IMPACT OF MOTIVATION ON ACHIEVEMENT AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ATHLETE STUDENTS

Allayarov Dilshod Rakhimboy ogli, Head of the “Marketing” Department, Mamun University

Annotation

INTRODUCTION: for athlete students, achieving success is not limited to physical preparation alone. Their psychological state, motivation, and internal drives also determine their level of success. Motivation is the driving force toward a goal, enabling athletes to achieve success, follow coaches’ instructions, and perform at a high level in competitions. Therefore, understanding the psychological characteristics and motivation levels of athlete students and their effects on academic and sports performance is a highly relevant issue.

AIM: the main objective of the study is to determine the influence of achievement motivation on the psychological characteristics of athlete students, and to examine the relationship between their motivation level, self-regulation abilities, and sports performance.

MATERIALS AND METHODS: the study employed the following materials and methods questionnaires to assess the motivation level of athlete students, psychological tests, coaches’ evaluations, official records of sports results, observation and interviews, psychodiagnostic tests, statistical analysis, comparison, and generalization.The study investigated the correlation between motivation levels, psychological characteristics, and sports performance among students.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that regular participation in sports not only improves physical health but also enhances psychological stability, discipline, and self-regulation skills. When working with athlete students, it is essential to apply methods aimed at increasing their motivation and developing psychological resilience. Based on the findings, the following recommendations were proposed encourage students through intrinsic motivation, organize training sessions on stress management and self-motivation, develop teamwork and individual work skills, create strategies for balancing sports and academic activities.

CONCLUSION: the study demonstrates that the motivation and psychological characteristics of athlete students are crucial factors in achieving success. Developing these factors can significantly improve both academic and sports outcomes. The level of achievement motivation among students is directly associated with their psychological resilience, self-regulation skills, and stress tolerance. Balancing sports and educational

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

activities requires high psychological adaptability. Therefore, support systems for athlete students should include not only physical training but also motivational, psychological, and pedagogical mechanisms.

Keywords: intrinsic and extrinsic motivation, willpower qualities, emotional stability, stress tolerance, sports psychology, motivational factors

Zamonaviy jamiyatda sport nafaqat jismoniy chiniqish vositasi, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy kamoloti va psixologik barqarorligini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, sportchi talabalar hayotida muvaffaqiyatga erishish masalasi ikki yo'nalishda – sport faoliyati va akademik ta'lim jarayonida – bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu esa ulardan yuqori darajadagi motivatsiya, qat'iyat, o'z-o'zini boshqarish va emotsional barqarorlikni talab qiladi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi sportchi talabaning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida uning maqsad sari intilishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Motivatsiya – bu shunchaki istak emas, balki maqsadni anglash, unga erishish yo'lida ongli ravishda harakat qilish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va natijaga erishishga yo'naltirilgan psixologik jarayondir. Sport jarayonida doimiy musobaqalar, yuqori yuklama, raqobat muhiti va stress omillari mavjud bo'lib, bunday sharoitda motivatsiyaning barqarorligi sportchi shaxsining psixologik xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Sportchi talabalarning psixologik xususiyatlari orasida maqsadga yo'naltirilganlik, iroda kuchi, o'z-o'zini nazorat qilish, tashabbuskorlik, muvaffaqiyatsizlikka nisbatan munosabat, ichki ishonch va emotsional barqarorlik alohida o'rin tutadi. Aynan ushbu sifatlar muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Agar sportchi talaba ichki motivatsiyaga ega bo'lsa, u tashqi rag'batlardan qat'i nazar, o'z maqsadiga intilishda davom etadi. Aksincha, motivatsiyaning pasayishi sport natijalarining susayishiga, o'qishdagi qiyinchiliklarga va psixologik zo'riqishlarga olib kelishi mumkin.Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida sportchi talabalarni qo'llab-quvvatlash, ularning sport va ta'lim faoliyatini uyg'unlashtirish, psixologik tayyorgarligini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois sportchi talabalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va uning psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zamonaviy pedagogika va sport psixologiyasi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. So'nggi yillarda sportchi-talabalar motivatsiyasini izohlashda eng ko'p qo'llanayotgan nazariy baza — Self-Determination Theory (SDT) hisoblanadi. SDT motivatsiyani "ichki" (qiziqish, o'zini namoyon qilish, o'sish) va "tashqi" (mukofot, bosim, ijtimoiy kutish) turlarga ajratadi hamda sport muhitida avtonomiya, kompetentlik, aloqadorlik ehtiyojlari qondirilsa motivatsiya sifati oshishini ta'kidlaydi. SDTning umumiy konseptual asoslari Ryan va Deci ishlarida tizimli bayon qilingan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Sport kontekstida SDTning zamonaviy sharhi Standage va Ryan bobida berilib, murabbiy uslubi, jamoa iqlimi va psixologik ehtiyojlar sportchining motivatsiya sifatiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Bu yondashuv sportchi-talabalarda "natija uchun yugurish"dan ko'ra "mahoratni oshirish"ga yo'naltirilgan ichki motivlarni kuchaytirish zarurligini asoslaydi. Sportchi talabalar uchun asosiy muammo — bir vaqtning o'zida sport yutuqlari va akademik natijalarni ushlab turish ("dual career"). Bu yo'nalishda sport va o'qish motivatsiyasini birgalikda o'lchash, ularning o'zaro aloqasini tahlil qilish tendensiyasi kuchaydi. Shu maqsadda keng ishlatiladigan instrumentlardan biri — SAMSAQ (Student-Athletes' Motivation toward Sports and Academics Questionnaire). 2021-yilda PeerJda SAMSAQning psixometrik xususiyatlari va amaliy qo'llanishi muhokama qilinib, sportchi-talabalarda sport va akademik motivatsiya profillarini ajratish mumkinligi ko'rsatiladi. 2022-yilda esa Frontiers in Psychologyda SAMSAQning koreys talaba-sportchilariga moslashtirilgan varianti validatsiya qilinib, "sport motivatsiyasi" va "akademik motivatsiya"ning o'zaro mustaqil, ammo o'zaro ta'sirchan tizim ekanini ko'rsatadigan natijalar beriladi.

So'nggi 2–3 yilda tadqiqotlar motivatsiyaga "bevosita" emas, balki uni barqarorlashtiruvchi psixologik resurslar orqali yondashmoqda. Masalan, 2024-yilda Retos jurnalidagi ishlar talaba-sportchilarda mental toughnessni muvaffaqiyat va barqaror motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida talqin qiladi. Shuningdek, 2024-yildagi tadqiqotlarda sport yutug'i va akademik ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar birgalikda ko'rilib, motivatsiya "sport natijasi–o'qish natijasi–psixologik farovonlik" zanjiri sifatida talqin qilinadi. 2019–2026 adabiyotlaridan ko'rinadiki, sportchi-talabalarda muvaffaqiyat motivatsiyasi: SDT va motivatsion iqlim orqali sifatli motivatsiya (ichki, avtonom) sifatida talqin qilinmoqda; sport va o'qish motivatsiyasi "dual career" modeli doirasida birga o'rganilmoqda (SAMSAQ kabi vositalar); motivatsiyaning barqarorligi ko'pincha mental toughness, self-efficacy, emotsional regulyatsiya kabi psixologik resurslar bilan izohlanmoqda.

Sportchi talabalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va uning psixologik xususiyatlari masalasi zamonaviy sport psixologiyasi hamda pedagogikaning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab va ko'p qirrali fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sportchi talabalarda muvaffaqiyat motivatsiyasi oddiy rag'batlantirish mexanizmi emas, balki shaxsning ichki ehtiyojlari, maqsadga yo'naltirilganligi, ijtimoiy muhit va psixologik barqarorligi bilan uzviy bog'liq tizimli jarayondir. Muhokama jarayonida aniqlangan asosiy jihatlardan biri shundaki, ichki motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan sportchi talabalar nafaqat sport natijalarida, balki akademik faoliyatda ham barqaror ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Ichki motivatsiya sportchini o'z ustida ishlashga, qiyinchiliklarni imkoniyat sifatida qabul qilishga va uzoq muddatli maqsadlarni ko'zlab harakat qilishga undaydi. Bunday sportchi muvaffaqiyatni faqat medal yoki baho bilan emas, balki o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida qabul qiladi. Aksincha, faqat tashqi motivatsiyaga tayanish qisqa muddatli natija berishi mumkin, biroq stress, charchoq yoki muvaffaqiyatsizlik holatlarida motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

Sportchi talabalarning psixologik xususiyatlari – iroda kuchi, o‘z-o‘zini boshqarish, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, o‘ziga ishonch va maqsadga intilish – muvaffaqiyat motivatsiyasining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Musobaqa jarayonida yuqori psixo-emotsional zo‘riqish sharoitida aynan shu sifatlar sportchining natijaga erishish qobiliyatini belgilaydi. Shu jihatdan, muvaffaqiyat motivatsiyasi va psixologik chidamlilik o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida ko‘rilishi lozim. Muhokama davomida yana bir muhim jihat – sportchi talabalar uchun “ikki yo‘nalishli” faoliyat (sport va ta’lim) muvozanatini saqlash zarurati aniqlandi. Agar sport motivatsiyasi akademik motivatsiyadan ustun kelsa yoki aksincha bo‘lsa, shaxsda ichki ziddiyat yuzaga kelishi mumkin. Shu bois sportchi talabalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi faqat jismoniy tayyorgarlikka emas, balki psixologik maslahat, motivatsion treninglar, vaqtni boshqarish ko‘nikmalari va stressni boshqarish texnologiyalariga ham tayanishi zarur. Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, murabbiy va o‘qituvchining shaxsiyati, jamoaviy muhit, sog‘lom raqobat va ijobiy motivatsion iqlim sportchi talabaning muvaffaqiyatga intilish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi va individual yondashuvga asoslangan pedagogik muhit ichki motivatsiyani mustahkamlaydi. Bosim va haddan tashqari talabchanlik esa aks ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday qilib, muhokama natijalari sportchi talabalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ko‘p omilli psixologik-pedagogik tizim ekanligini ko‘rsatadi. Muvaffaqiyat faqat jismoniy tayyorgarlik mahsuli emas, balki shaxsning psixologik yetukligi, ichki motivatsiyasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur yondashuv sportchi yoshlarning barkamol, irodali va o‘z maqsadiga sodiq shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashda muhim nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari sportchi talabalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi murakkab, ko‘p omilli va tizimli psixologik-pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Muvaffaqiyat motivatsiyasi sportchi shaxsining ichki ehtiyojlari, maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘ziga ishonchi, iroda kuchi va emotsional barqarorligi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Ayniqsa, ichki motivatsiyaning ustuvorligi sport va akademik faoliyatda barqaror natijalarga erishishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida sportchi talabalarda muvaffaqiyatga intilish darajasi ularning psixologik chidamliligi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va stressga bardoshliligi bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Sport va ta’lim faoliyatini birgalikda olib borish jarayoni yuqori darajadagi psixologik moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu bois sportchi talabalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, motivatsion, psixologik va pedagogik mexanizmlarni ham o‘z ichiga olishi zarur.

Shuningdek, murabbiy va o‘qituvchilarning motivatsion iqlimni shakllantirishdagi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ijobiy, qo‘llab-quvvatlovchi va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik muhit sportchi talabaning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga zamin yaratadi. Umuman olganda, sportchi talabalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ularning psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mazkur omillarni kompleks o‘rganish va amaliyotga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 2

tatbiq etish sport va ta'lim tizimida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari sportchi yoshlarni har tomonlama barkamol, irodali va yuqori natijalarga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ryan R. M., Deci E. L. Intrinsic and Extrinsic Motivation from a Self-Determination Theory Perspective: Definitions, Theory, Practices, and Future Directions // Contemporary Educational Psychology. – 2020. – Vol. 61. – P. 101860.
2. Standage M., Ryan R. M. Self-Determination Theory in Sport and Exercise // Handbook of Sport Psychology / ed. by G. Tenenbaum, R. C. Eklund. – 4th ed. – Hoboken, NJ: Wiley, 2020. – P. 37–56.
3. Stambulova N. B., Ryba T. V., Henriksen K. Career Development and Transitions of Athletes: The International Society of Sport Psychology Position Stand Revisited // International Journal of Sport and Exercise Psychology. – 2021. – Vol. 19(4). – P. 524–550.
4. Gaston-Gayles J. L. Academic and Athletic Motivation among Student-Athletes at a Division I University // Journal of College Student Development. – 2023. – Vol. 64(2). – P. 215–229.
5. Kim M. S., Park S. Y., Lee J. H. Validation of the Student-Athletes' Motivation toward Sports and Academics Questionnaire (SAMSAQ) in Korean College Athletes // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 854331.
6. Isoqov R. A. Sportchilarda motivatsiya va irodaviy sifatlarning shakllanishi // Oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport masalalari. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 85–92.
7. Allayarov D. Talabalar sport faoliyatining psixologik jihatlari va rollari //Journal of Tamaddun Nuri. – 2024. – T. 6. – №. 57. – C. 277-280.
8. Allayarov D. Sportchilarning sport musobaqlarida ishtirok etishning psixologik xususiyatlari //«ACTA NUUz». – 2024. – T. 1. – №. 1.3. 1. – C. 68-71.
9. Axmedova D. et al. Building a Context-Aware Language Model for Translating Historical Texts //2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES). – IEEE, 2025. – C. 1-5.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

PSIXOSOMATIK BUZILISHLARNI YUZAGA KELTIRIVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Rustamova Madinabonu Sultonbek qizi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Amaliy fanlar fakulteti, psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi, Toshkent, O'zbekiston
Jabborov Xazrat Xusenovich, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), Respublika "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: talabalarning o'quv faoliyati yuqori aqliy yuklama, emotsional zo'riqish va ijtimoiy mas'uliyat bilan kechadi. Ushbu omillar psixik holat orqali jismoniy salomatlikka ta'sir etib, psixosomatik buzilishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

MAQSAD: talabalar o'quv faoliyati jarayonida psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy manbalar tahlili, talabalar orasida so'rovnoma, stress darajasini aniqlash va psixologik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatdiki, imtihon stressi, vaqt yetishmasligi, akademik bosim, o'qituvchi–talaba munosabatlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning pastligi talabalar orasida bosh og'rig'i, uyqusizlik, oshqozon-ichak buzilishlari kabi psixosomatik holatlarni kuchaytiradi.

XULOSA: talabalar psixosomatik salomatligini saqlash uchun o'quv yuklamasini muvozanatlash, stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish va psixologik yordamni kuchaytirish zarur.

Kalit so'zlar: talabalar, o'quv faoliyati, stress, psixosomatik buzilishlar, ijtimoiy-psixologik omillar.

СОЦИО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ПСИХОСОМАТИЧЕСКИЕ РАССТРОЙСТВА

Рустамова Мадинабону Султанбек кизи, студентка 2-го курса факультета прикладных наук Ташкентского государственного университета востоковедения, отделение психологии и педагогики, Ташкент, Узбекистан
Джабборов Хазрат Хусенович, профессор Ташкентского государственного университета востоковедения, доктор психологических наук (DSc), член Республиканского общества защиты просвещения, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: учебная деятельность студентов сопровождается высокой умственной нагрузкой, эмоциональным стрессом и социальной ответственностью. Эти факторы могут влиять на физическое здоровье через психическое состояние и вызывать психосоматические расстройства.

ЦЕЛЬ: выявить основные социально-психологические факторы, вызывающие психосоматические расстройства у студентов в процессе их учебной деятельности.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Использовались методы анализа научных источников, анкетирования студентов, определения уровня стресса и психологического наблюдения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что экзаменационный стресс, нехватка времени, академическое давление, отношения между преподавателем и учеником, а также низкая социальная поддержка увеличивают количество психосоматических состояний, таких как головные боли, бессонница, желудочно-кишечные расстройства, среди студентов.

ВЫВОД: для поддержания психосоматического здоровья студентов необходимо сбалансировать учебную нагрузку, развить навыки управления стрессом и укрепить психологическую поддержку.

Ключевые слова: студенты, учебная деятельность, стресс, психосоматические расстройства, социально-психологические факторы.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS CAUSING PSYCHOSOMATIC DISORDERS

Rustamova Madinabonu Sultanbek qizi - 2nd year student of the Faculty of Applied Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies, Psychology Education Department, Toshkent, Uzbekistan

Jabborov Khazrat Khusenovich, professor of Tashkent State University of Oriental Studies, Doctor of Psychology (DSc) Member of the Republican Society of Enlightenment Advocacy, Toshkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: students' academic activities are accompanied by high mental load, emotional stress and social responsibility. These factors can affect physical health through the mental state and cause psychosomatic disorders.

AIM: to identify the main socio-psychological factors that cause psychosomatic disorders in students during their academic activities.

MATERIALS AND METHODS: analysis of scientific sources, a questionnaire among students, stress level determination and psychological observation methods were used.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that exam stress, lack of time, academic pressure, teacher-student relationships and low social support increase psychosomatic conditions such as headaches, insomnia, gastrointestinal disorders among students.

CONCLUSION: to maintain the psychosomatic health of students, it is necessary to balance the study load, develop stress management skills and strengthen psychological support.

Keywords: students, academic activity, stress, psychosomatic disorders, socio-psychological factors.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Bugungi kunda talabalarning o‘quv faoliyati yuqori intellektual yuklama, doimiy stress va raqobat muhiti bilan kechmoqda. Ushbu holatlar psixologik zo‘riqish orqali psixosomatik buzilishlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Talabalar orasida sog‘liq bilan bog‘liq shikoyatlarning ortib borishi mazkur mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ekanligini ko‘rsatadi[3].

Hammamizga ma’lumki inson zoti azaldan o‘zini bilishga, o‘zini idrok qilishga va o‘zining sog‘lig‘iga befarq bo‘lmagan. Yillar davomida ular o‘zlarining shaxsiyatiga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni izlab kelishgan. Izlanishlarining oxir-oqibatida ular turli fanlarga asos solishgan. Turli xil nazariyalarni kashf etishgan va ular sinab ko‘rish maqsadida turli-tuman tajribalarni o‘tkazishgan. Ammo bu bilan ular o‘zlarining sog‘liqlariga befarq bo‘lishgan deb bo‘lmaydi. Ya’ni tibbiyot sohasiga alohida urg‘u berishgan[1].

Olimlarni bir savol qiynagan. Ya’ni bu dunyodagi barcha kasalliklar faqat jismoniy bo‘ladimi? Ular faqat nasldan-naslga o‘tishi oqibatida paydo bo‘ladimi? Kasalliklar faqat jismoniy bo‘ladimi? Kasalliklarni faqat dori vositasi orqali davolash mumkin xolosmi? Va shunga o‘xshash savollar olimlarni qiynagan. Shuning natijasida dunyoga yangi atama kirib keladi ya’ni bu “Psixosomatika”.

So‘nggi yillarda tibbiyot va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan psixosomatika fani inson organizmida kechayotgan ruhiy va jismoniy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur o‘rganadi. “Psixo”- ruh, “somatika” – tana degan ma’noni anglatadi. Demak, psixosomatika inson ruhiy kechinmalari tanaga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Psixosomatik tibbiyot - bu tibbiyot psixologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, psixogen omillar bilan ichki a’zolar kasalliklari orasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi[2].

An'anaviy ma’noda psixosomatika – bu ruh va tana, aqliy va somatik munosabatlarni o‘rganadigan klinik psixologiya bo‘limi. O‘z-o‘zini his qilish (somatik tuyg‘u) va ruhiy holat (tan va ruh) o‘rtasidagi yaqin munosabatlar haqidagi ta’limot tibbiyot tarixi davomida mustahkam bog‘langan. Psixomatikani ko‘plab mutaxassislar o‘rganishgan. Ulardan asoschilardan biri deb 1818-yilda ushbu atamani ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan Iogann Xaynrotni aytish mumkin. Muhim kashfiyotlarni Feliks Doych, Frants Aleksandr (u “Chikago yettiligi” deb ataluvchi kasalliklar tasnifini tuzgan) hamda Flanders Danbar ham amalga oshirgan. Flanders Danbar ayrim kasalliklar turlari bilan bog‘liq shaxs tiplarini tasvirlab bergan[4].

Psixosomatikani sodda qilib chuntiradigan bo‘lsak, bu inson tanasida paydo bo‘ladigan kasalliklarning sababini faqat biologik omillarda emas, balki ruhiy ziddiyatlar, stress, hissiy siqilish kabi holatlarda ham izlaydi. Bu yo‘nalishning asosiy g‘oyasi shundan iboratki: ruhiy muammolar jismoniy belgilar orqali namoyon bo‘lishi mumkin.

Masalan, doimiy tashvish, qo‘rquv yoki g‘amginlik yurak urushining tezlashuvi, oshqozon og‘rishi yoki uyqusizlik kabi belgilarni keltirib chiqaradi. Bu holatlar shunchaki tasodif emas – ular ong osti darajasidagi hissiy to‘plamlarning tanadagi ifodasidir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue2

Psixosomatik yondashuvning ahamiyati. Psixosomatika insonni bir butun tizim sifatida ko‘radi – ruh, tana va ong bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda ham ruhiy holatni davolashga e’tibor berish kuchaymoqda. Meditatsiya, psixoterapiya, ijobiy fikrlash kabi usullar jismoniy sog‘liqni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi[5].

